

ISSN 2010-9075

BERDAQ atındağı QARAQALPAQ
MÁMLEKETLIK UNIVERSITETINIŇ


XABARShÍŚÍ

BERDAQ nomidagi QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETINING

AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК

КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА



НОКИС 2025 НУКУС

1

**BERDAQ atındağı QARAQALPAQ
MÁMLEKETLIK UNIVERSITETINIŇ**

XABARShÍŚÍ

**BERDAQ nomidagi QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETINING**

AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК

**КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА**

№ 1 (68)

2025

Каракалпакский госуниверситет им. Бердаха

Учредитель и издатель: Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Главный редактор: доктор технических наук РЕЙМОВ А. М.

Заместитель главного редактора: доктор географических наук ТУРДЫМАМБЕТОВ И.Р.

Ответственный редактор журнала: ТУРСЫНМУРАТОВ М.

Редакционная коллегия:

АБДИНАЗИМОВ Ш. – проф., доктор филологических наук, АБДУЛЛАЕВА М.Н. – доктор философских наук, АМЕТОВ Я. – проф., доктор биологических наук, БАЙМАНОВ К. – проф., доктор технических наук, БАЛЛИЕВА Р. – доктор исторических наук, БАБАДЖАНОВ Ф. – доц., кандидат филологических наук, БЕРДИМУРАТОВА А. – проф., доктор философских наук, ЖАРИМБЕТОВ К. – проф., доктор филологических наук, ЖОЛЛЫБЕКОВ Б. – проф., доктор географических наук, ЖУМАНОВ М.А. – проф., доктор биологических наук, ИСМАЙЛОВ К. А. – проф., доктор физико-математических наук, КОЩАНОВ Б. – проф., доктор исторических наук, КУДАЙБЕРГЕНОВ К.К. – проф., доктор физико-математических наук, КУДАЙБЕРГЕНОВ М.С. – проф. доктор филологических наук, КУТЫБАЕВА Е. – проф., доктор юридических наук, КАЙЫПБЕРГЕНОВ Б.Т. – доктор технических наук, МАМБЕТУЛЛАЕВА С.М. – проф., доктор биологических наук, МАМБЕТНАЗАРОВ Б.С. – проф., доктор сельскохозяйственных наук, МАТКУРБАНОВ Р. – доктор юридических наук, МАТЧАНОВ А.Т. – проф., доктор биологических наук, МАШАРИПОВА Т. Ж., – доц. доктор филологических наук, МУМИНОВ Ф.А. – проф., доктор филологических наук, МУСАГАЛИЕВ А. Ж. – доктор экономических наук, РЕЙМОВА З.А. – проф., доктор юридических наук, СЕЙФУЛЛАЕВ Ж. – доктор физико-математических наук, ТАГАЕВ М.Б. – проф., доктор технических наук, ТИЛЕУМУРАТОВ Г. – доц., кандидат филологических наук, ТУРДЫБАЕВ К.К. – доктор филологических наук, ТУРМАНОВ И. – доц., кандидат технических наук, УБАЙДУЛЛАЕВ Х. – проф., доктор экономических наук, УТЕБАЕВ Д., – доц. доктор физико-математических наук, УТЕУЛИЕВ Н.У. – проф., доктор физико-математических наук, УРАЗЫМБЕТОВ К.К. – проф., доктор филологических наук, УМАРОВА К. – доктор юридических наук, ХИКМАТОВ Ф. – проф., доктор географических наук.

Журнал издается с 2008 года

Выходит 4 раза в год на каракалпакском, узбекском, русском и английском языках

Адрес редакции: 230100, г. Нукус, ул. Ч. Абдирова, 1.

Телефон: 223-60-19

E-mail: vestnik@karsu.uz

Редактор: Машарипова Т. Ж.

Корректор: Кайыпова Ф.Ж.

Компьютерная верстка: Сейдабуллаева Ф.

«Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха» Постановлениями Президиума ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан (20.03.2015 г., №214/2; 18. 11.2015 г., №218/5; 22.12.2015 г., №219/5; 23.12.2016 г., №232/5; 29.12.2016 г., №233/4; 29.03.2017 г., №239/5; 29.08.2017 г., №241/8; 28.12.2017 г., №247/6; 30. 11. 2022 г., №327/5) включен в перечень научных изданий, рекомендованных Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан, для публикации основных научных результатов докторских диссертаций по научным направлениям История, Философия, Филология, Юридика, Педагогика, Психология, Экономика, Политология, Исламоведение Химия.

Сдано в набор 15. 03. 2025. Подписано к печати 25. 03. 2025. Формат бумаги 60x84 1/8. Печать офсетная. Бум. л. 30,1. Уч.-изд. л. 20. Тираж 300. Цена договорная.

Каракалпакский государственный университет им. Бердаха. г.Нукус, ул. Ч. Абдирова,1 Журнал зарегистрирован Каракалпакским агентством печати и информации. Регистрационный номер №01-051 от 31 октября 2008 г.

© Вестник Каракалпакского государственного университета им.Бердаха

Founder and publisher: Karakalpak State University named after Berdakh

Editor in Chief: Doctor of Technical Sciences REYMOV A. M.

Deputy Editor-in-Chief: Doctor of Geographical Sciences TURDYMAMBETOV I.R.

Responsible editor of the periodical: TURSYNMURATOV M.

Editorial team:

ABDINAZIMOV Sh. – prof., Doctor of Philology, ABDULLAEVA M.N. – Doctor of Philosophy, AMETOV I. – prof., Doctor of Biological Sciences, BAYMANOV K. – Prof., Doctor of Technical Sciences, BALLIEVA R. – Doctor of Historical Sciences, BABAJANOV F. – docent, PhD of Philological Sciences, BERDIMURATOV A. – Prof., Doctor of Philosophy, ZHARIMBETOV K. – Prof., Doctor of Philology, ZHOLLYBEKOV B.–Prof., Doctor of Geography, ZHUMANOV M.A. –Prof., Doctor of Biological Sciences, ISMAYLOV K.A. – prof., Doctor of physical and mathematical Sciences, KOSCHANOV B. – prof., Doctor of historical Sciences, KUDAYBERGENOV K. K. – prof., Doctor of Physical and Mathematical Sciences, KUDAYBERGENOV M.S. – prof. Doctor of Philology, KUTYBAEVA E. – Prof., Doctor of Law, KAYPBERGENOV B.T. – Doctor of Technical Sciences, MAMBETULAEVA S.M. – Prof., Doctor of Biological Sciences, MAMBETNAZAROV B.S. – prof., Doctor of Agricultural Sciences, MATKURBANOV R. – Doctor of Law, MATCHANOV A.T. – prof., Doctor of Biological Sciences, MASHARIPOVA T. Zh. - docent. Doctor of Philology, MUMINOV F.A. – prof., Doctor of Philological Sciences, Musagaliyev A. Zh. - Doctor of Economics, REIMOVA.Z.A. - prof., Doctor of Law, SEIFULLAEV J. - Doctor of Physical and Mathematical Sciences, TAGAYEV M.B. – prof., Doctor of Technical Sciences, TILEUMURATOV G. - docent, Candidate of Philological Sciences, TURDIBAEV K.K. – Doctor of Philological Sciences., TURMANOV I. – Assoc. Prof., Candidate of Technical Sciences, UBAYDULLAYEV H. – prof., Doctor of economics, UTEBAEV D. - docent. Doctor of Physical and Mathematical Sciences, UTEULIEV N.U. – prof., Doctor of Physical and Mathematical Sciences, URAZYMBETOV K.K. – prof., Doctor of Philology, UMAROVA K. – Doctor of Law, KHIKMATOV F.– prof., Doctor of Geographical Sciences.

Periodical has been published since 2008

Issued 4 times a year in Karakalpak, Uzbek, Russian and English

Editorial address: 230100, Nukus, st. Ch. Abdirov, 1.

Phone: 223-60-19

E-mail: vestnik@karsu.uz

Editor: Masharipova T. Zh.

Proofreader: Kayipova F.Zh.

Computer layout: F. Seydabullaeva

"The Herald of Karakalpak State University named after Berdakh" is included in a list of scientific publications recommended by the Higher Attestation Commission under the Cabinet of the Minister of the Republic of Uzbekistan for the publication of the main scientific results of doctoral dissertations in scientific areas History, Philosophy, Philology, Law, Pedagogy, Psychology, Economy, Political Science, Islamic Studies, Chemistry by decrees of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan (20.03.2015 r., №214/2; 18. 11.2015 r., №218/5; 22.12.2015 r., №219/5; 23.12.2016 r., №232/5; 29.12.2016 r., №233/4; 29.03.2017 r., №239/5; 29.08.2017 r., №241/8; 28.12.2017 r., №247/6; 30. 11. 2022 r., №327/5).

Delivered to the set 15. 03. 2025. Signed for printing 25. 03. 2025. Paper size 60x84 1/8. Offset printing. Paper sheet 30,1. Edu.pub. sheet 20. Circulation 300. Price is negotiable.

Karakalpak State University. Berdakh Nukus, st. Ch. Abdirova, 1

The periodical is registered by the Karakalpak Press and Information Agency.


Registration number №01-051 from October 31, 2008

© Herald of Karakalpak State University named after Berdakh

УДК 625.76

НУКУС ШАҲРИНИНГ КЎЧА-ЙЎЛ ТАРМОҒИНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ЎТКАЗУВЧАНЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ ОШИРИШ**Jumabaev D. M., Abdireymov R.***Qoraqolpoq davlat universiteti*

Мамлакатимизда истиқлолнинг дастлабки йилларидан транспорт-коммуникация соҳасини ривожлантиришга устувор вазифалардан бири сифатида алоҳида эътибор қаратилганлиги бугун ўзининг юксак самараларини бераяпти. Негаки йўл-транспорт инфратузилмасининг замон талаблари доирасида ривожланаётгани иқтисодиётимиз тараққиётида муҳим аҳамият касб этмоқда. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ishki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi Ro'yxatdan o'tkazish bo'limi mavjud ma'lumotlar bazasida Nukus shahri kesimida yillar kesimida 01.01.2023 yilga qadar ro'yxatdan o'tgan transport vositalar soni soni 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Nukus shahridagi jami avtotransportlar soni.

Нукус шаҳрида автомобиллар сонининг ўсиши, кўча-йўл тармоқлари инфратузилмасининг ривожланиши шаҳар кўча-йўлларида тирбандликлар, автомобилларнинг узоқ вақт чорраҳаларда қолиб кетишига сабаб бўлмоқда натижада атроф-муҳитнинг ҳаддан зиёд ифлосланиб, шовқин даражаси ортмоқда, жамоат транспорт воситалари ҳаракат графигининг бузилиши эса ўз навбатида шаҳар кўча-йўл тармоғининг ўтказувчанлик қобилиятини пасайичга олиб келмоқда. Нукус шаҳри кўча-йўл тармоғидаги Ўзбекистон гузари, Аллаяров Досназаров кўчаси, Шимбай гузари ва Беруний кўчаларида тирбандликлар кузатишмоқда. Шаҳарнинг 2 та асосий параллел Ўзбекистон гузари ва Аллаяров Досназаров кўчаси жойлашуви билан боғлиқ конфигурациялари дейarli бутун шаҳарни кесиб ўтадиган артериялардир.

Бу иккита артерияларга қўндаланг йўналишда Чимбай гузари ва Беруний кўчалари жойлашган бўлиб кўп транспорт оқимини олиб кирувчи ва чиқарувчи вазифасини бажармоқда (2-жадвал) [1].

2-жадвал.

№	Кўчалар номи	Ўзинлиги,м.	Қатнов қисми кенглиги,м.	Жадаллиги,авто/сут
1	Ўзбекистон гузори	4563	22	689
2	Шимбай гузори	2000	18	235
3	А.Досназаров кўчаси	12000	9	279
4	Беруний кўчаси	824	15	761

Нукус шаҳар кўча-йўл тармоғи ҳолати ҳақидаги маълумотлар 3-жадвалда келтирилган [1].

3-жадвал.

	Номи	Кўрсаткичлар
	Кўчаларнинг умумий сони,дона.	1346
	Кўча-йўл тармоғининг умумий узунлиги, км.	794,071
	Асфальт қопламали	338,182

	Шағал копламали	42954
	Тупроқ копламали	412935
	Тротуарларнинг умумий узунлиги, м².	1251400
	Кўприклар сони, дона.	5

Шаҳар кўча-йўл тармоғининг ўтказиш қобилиятини ошириш тадбирларни ишлаб чиқиш бўйича мамлакатимиз ва хориж мутахассисларининг транспорт тизимлари доирасидаги кўпчилик тадқиқотлари транспорт оқимларининг кўча-йўл тармоғи бўйича ҳаракатланиш координациясини светофорли тартибга солишни такомиллаштиришга ва бу борадаги муаммоларни ечишга қаратилгандир. Ўтказилган тадқиқотларнинг мақсади – транспорт тугунларида транспорт оқимини ўтказиш қобилиятини ошириш, транспорт воситаларининг ушланиб қолишини пасайтириш, ҳаракат хавфсизлигини ошириш ва транспорт тармоғининг экологик юкланишини пасайтиришдан иборатдир [2].

Тартибга солинадиган чорраҳаларда тирбандликлар ҳосил бўлиш муаммоси ушбу тадқиқотда кўриб чиқилган. Тирбандликлар ҳосил бўлиш муаммосини кўпчилик муаллифлар кўча-йўл тармоғини реконструкция қилиш, светофорли тартибга солишни муқобуллаштириш (оптималлаштириш), кўп сатҳли кесишишларни куриш йўли билан ечишни таклиф этишган. Ҳаракатланиш тезлигини ошириш қатнаш вақтини қисқартириш имконини беради, бироқ бунда транспорт ҳаракатининг хавфсизлиги пасаяди. Транспорт тизимининг самарадорлигини аниқловчи унинг асосий параметри кўча-йўл тармоғининг ўтказиш қобилияти билан тушунтирилади. Шунинг учун шаҳар кўча-йўлларининг ўтказиш қобилияти ошириш масаласи илмий ва амалий жиҳатига кўра жуда долзарбдир. Шубҳасиз, ўтказувчанлик қобилиятини ошириш учун ҳаракат оқимининг тезлигини ошириш ва тирбандликнинг олдини олиш керак, максимал оқим зичлиги пайдо бўладиган чорраҳаларда транспорт кечикишларни камайтириш керак.

Чорраҳаларда транспорт кечикиши, бу транспорт ҳаракати самарадорлигининг муҳим бир кўрсаткичлари ҳисобланади. Узоқ транспорт кечикишлар, светофорли ишлатиладиган дастурнинг самарасизлигини кўрсатади.

Йўл тармоғининг сигимини ошириш муаммоларини ҳал қилиш учун светофорларнинг ишлашини муқобуллаштириш (оптималлаштириш) керак. Тегишли тартибга солиш дастурини танлаш учун мезон сифатида транспорт кечикишининг миқдорий кийматидан фойдаланиш мумкин.

$$t_{\Delta p} = \frac{T_y(1-\lambda)^2}{2(1-\lambda x)} + \frac{x^2}{2N(1-x)} - 0.65\left(\frac{T_y}{N^2}\right)^{1/3} * x^{(2+5\lambda)}$$

Бу ерда

$t_{\Delta p}$ - светофор циклининг ўртача кечикиши, сек,

T_y - светофорни бошқариш даврининг давомийлиги, сек,

x - тўйинганлик даражаси,

λ - ёқилган сигнал давомийлигининг светофор циклининг умумий давомийлигига нисбати,

N - транспорт воситаларининг кўриб чиқилаётган йўналишда ҳаракатланиш жадаллиги дона/соат [2].

Ҳозирги кунда шаҳар кўча-йўлларининг ўтказиш қобилиятини баҳолашнинг кўплаб методлари мавжуддир. Тадқиқотни олиб бориш натижасида кўча-йўл тармоғини режалаштириш босқичида, унинг элементларини лойиҳалаш босқичида ҳамда уларнинг функция юритиш жараёнида қўлланиши мумкин бўлган методлар ажратилди. Айтиш жоизки, шаҳар кўча-йўлларининг ўтказиш қобилиятини аниқлашнинг ҳар хил методлари турли тамойилларга асосланган. Масалан, транспорт оқимининг микро ва макромоделларига ҳамда эҳтимоллар назарияси элементларига асосланган методлари мавжуд. Турли методлар орқали олинган натижалар бир-биридан фарк қилади. Ўтказилган таҳлил натижасида тирбандликлар ҳосил бўлишининг сабаблари аниқланди. Уларнинг юзага келиш сабабларидан энг асосийси – тартибга солинадиган чорраҳаларда кўча-йўлларнинг ўтказиш қобилияти пасайиши билан боғлиқдир, бу пасайиш конфликтли йўналишлар учун транспорт оқимини тўхтатиш зарурлиги билан тушунтирилади. Айнан юқори зичликдаги транспорт оқимининг светофорли объектида тўхтатиш замонавий шаҳарлар учун хос бўлиб, у оқимда “зарбали тўлқин” деб номланувчи тирбандликни юзага келтиради. Зич транспорт оқимида зарбали тўлқиннинг тарқалишига йўл қўймаслик учун транспорт воситаларини унинг содир бўлиш жойига етиб боришини чегаралаш лозим. Бизнинг томонимиздан транспорт воситаларини тирбандлик бўлган жойга етиб боришини чегаралашни чорраҳага яқинлашишда ҳаракатланиш тезлигини пасайтириш йўли билан амалга ошириш таклиф этилмоқда. Таклиф этилаётган метод транспорт воситаларининг светофор орқали бериладиган тақиқловчи сигнали моментида чорраҳадаги тўхташ чизигига етиб келишига йўл қўймаслик ҳамда агар тақиқловчи сигнал берилганда тўхташ чизиги олдида транспорт воситалари тўхтаган маҳалда чорраҳага яқинлашиш жойида тизгиликнинг ўсишига йўл қўймаслик имконини беради.

Тартибга солинадиган чорраҳаларда ўтказиш қобилиятини оширишнинг асосий резерви чорраҳадан тўхтамасдан ўтиш имконини таъминлашда намоён бўлади. Бу светофорнинг рухсат бериш сигнали вақти самарадорлигининг ошиши билан тушунтирилади, чунки тўхтаётган транспорт воситаси светофорнинг рухсат берувчи сигнали қўшилгандан кейин ҳаракатни бошлаши ва тезлаштириши учун вақт сарфлашга зарурият қолмайди. Ҳаракатланиш шароитларига боғлиқ равишда ҳар бир ҳайдовчи қуйидагилардан бирини: ҳайдаш, тормозлаш, кутишни танлайди. Айнан кутиш тирбандликни юзага келтирувчи ва шу туфайли шаҳар кўча-

йўлларининг ўтказиш қобилиятини камайтирувчи омил бўлиб хизмат қилади. Тартибга солишнинг танланган варианты муқобуллиги нуқтаи назаридан транспорт тармоғи функция юритишининг самарадорлик даражасини ошириш мақсадига эга бўлган ҳар қандай бошқарувчи таъсир турли хил критериялар: авариялар даражасини пасайтириш, боғланиш тезлигини ошириш, атроф-муҳит ҳолатини ошириш ва ҳ.з.лар билан баҳолашни мумкин. Кўрсатилган критериялардан бирининг позициясидан таъсир қилишнинг муқобул вариантлари бошқа танланган критериялар нуқтаи назаридан нораціонал ёки қўллаб бўлмайдиган бўлиши мумкин. Шунинг учун муқобуллик тамойили кўча-йўлларнинг функция юритиши самарадорлигининг маълум бир даражасига эришиш йўлларини комплекс баҳолашни кўзда тутати. Юқорида кўриб ўтилган кўча ва йўлларда кўплаб жамоат транспорти йўналишлари мавжуд. Шаҳар йўловчи ташиш транспорти, шаҳарнинг доимий жадал ўсиши ва аҳоли ҳаракатчанглиги ўсиш шароитида кўча-йўл тармоғидаги юкланганлик даражасини камайитириш учун муҳим ўрин эгаллайди. Шаҳар транспорт оқимининг ҳолати ва кўча-йўлларда транспорт ҳаракатланишининг қулайлик даражаси шаҳар йўловчи ташиш транспортининг ташкиллаштирилганлик даражасига боғлиқ.

Мамлакатимиз ва хориж мутахассисларининг олиб борган тадқиқотларида кўча-йўл тармоғининг ишлаш самарадорлиги автомобилизация даражасига боғлиқлигини кўрсатадики, 1000 киши аҳолига 100 дан ортиқ енгил автомобил тўғри келганда жамоа транспорти ўрни камайд. 1000 киши аҳолига 150 та транспортдан ошганда эса маршрутларнинг қисқариши ва жамоа транспортининг камайишига олиб келади. Лекин автомобилизация даражасининг қиймати 300 дан ошганда шаҳар жамоа транспортини муқобуллаштириш ва кўча-йўл тармоғини ривожлантириш зарурлиги ошади [2].

Юқорида айтилганларга асосланиб, Ўзбекистон ва Шимбай гузарларида, Беруний ва Досназаров кўчаларида ўтказувчанлик қобилиятини ошириш учун қуйидаги тадбирларни олиб бориш зарур: Белгилар кўринишини замонавийлаштириш ёки яхшилаш, бўёқлар ва термопластиклар билан горизонталь ва вертикаль белгиларни бериш; Тезлашиш ва тормозлашнинг қўшимча полосасини ташкил этиш; Ушбу зонада барча йўналишлар бўйича транспорт воситаларининг тўхташи ҳамда туришини тегишли йўл белгилари ёрдамида тақиқлаш; Яхши кўринувчанликни таъминлаш (дарахтлар ва ўсимликларга шакл бериш ва уларнинг ўсган қисмларини қисқартириш, реклама шитларининг ўрнатилганлигини баҳолаш).

АДАБИЁТЛАР

1. “Нукус шаҳри марказий кўчаларидан фойдаланиш, уларни сақлаш ва таъмирлаш ихтисослаштирилган бошқармаси тасарруфидаги кўчалар Дислокацияси” бўйича Нукус шаҳар ободонлаштириш Бошқармаси маълумоти, Нукус 2018 й.
2. Е.Ю.Серова “Возможные пути повышения пропускной способности улично-дорожной сети” Инженерный вестник Дона, №1 2017г
3. Маг. Жумабаев Д.М. Илмий раҳбар т.ф.д.проф. Шахидов А.Ф. “Нукус шаҳрининг кўча йўл тармоғи ҳақида ” илмий моқола. Тошкент, ТАҚИ, “Архитектура. Қурилиш. Дизайн” илмий-амалий журнали, 2019 й., 2 сон, 63-67б.
4. <https://google.ru>.

Мақолада Нукус шаҳрининг кўча-йўл тармоғидаги транспорт оқими катта бўлган кўча ва йўлларининг ўтказувчанлик қобилиятини ошириш усуллари, тирбандликлар кўп содир бўладиган светофорли тартибга солинадиган чорраҳаларнинг ўтказувчанлик қобилиятини ошириш усуллари ва Нукус шаҳрининг кўча йўл тармоғининг истиқболдаги ўтказувчанлик қобилиятини ошириш усуллари, таҳлил қилинган.

В статье рассматриваются способы увеличения пропускной способности улиц и дорог с интенсивным движением в Нукусе, методы увеличения пропускной способности перекрестков светофора с частыми провками и анализ существующих методов повышения пропускной способности улично-дорожной сети города Нукуса.

The article discusses ways to increase the throughput of streets and roads with heavy traffic in Nukus to increase the throughput of traffic light intersection with frequent traffic jams, methods and ways to increase the throughput of Nukus street-road network.

Таянч сўзлар: кўча йўл тармоғи, транспорт оқими, транспорт инфраструктурас, ўтказувчанлик қобилияти, йўловчи транспорти, шаҳар транспорти.

Ключевые слова: уличная дорожная сеть, транспортный поток, транспортная инфраструктура, пропускная способность, пассажирский транспорт, городской транспорт.

Key words: street road network, traffic flow, transport infrastructure, capacity, passenger transport, city transport.

QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBINING XUSUSIYATLARI

Mamutova A. R.

Qoraqalpog‘ davlat universiteti

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda haqiqatan ham qurilish sohasi diqqat markazida bo‘ldi, bu esa uning mamlakat iqtisodiyoti va infratuzilmasini rivojlantirishdagi strategik rolini anglash bilan bog‘liq. Sanoatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga nafaqat yangi ob‘ektlar yaratish, balki mavjudlarini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik va fuqarolar uchun infratuzilmaviy sharoitlarni yaxshilash ham kiradi.

Hozirgi kunda shaharsozlik va qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar sohasida yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish, respublika hududida aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hududlarini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining

bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish, shaharsozlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgani tufayli qurilish ishlari hajmi yildan-yilga ortib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

Yillar	mlrd. so'mda	o'sish sur'ati, % da
2019	71156,5	122,9
2020	88130,3	109,5
2021	107492,7	106,8
2022	130790,9	106,6
2023	150792,6	107,0

Ayni vaqtda yurtimizda 13 mingga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. O'tgan yillarda 120 turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 180 tadan oshib ketdi. Ta'kidlash kerakki, qurilish sanoati xususan qurilish materiallarini ishlab chiqarishga investitsiyalarni keng jalb etish orqali mahsulot turlarini ko'paytirish va sifatni oshirishga, eng muhimi bugungi kundagi ustuvor vazifa aholini ish bilan ta'minlashga kabi vazifaning ijrosini ta'minlash mumkin. Quyidagi jadvalda Respublikamizda Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi keltirilgan (2-jadval).

2-jadval . mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Bino va inshootlar qurilishi	51232,5	65677,5	75339,7	93504,8	105509,1
Fuqarolik qurilishi ob'ektlari	11376	13949,5	23814,2	27638,5	29252,2
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	8548	8503,3	8338,8	9647,6	16031,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019 yilga nisbatan 2023 yilga kelib bino va inshootlar qurish hajmi 2 barvarga oshgan. Fuqarolik qurilish ob'ektlari va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham 2 barvarga oshgan.

Qurilishdagi boshqaruv hisobi haqiqatan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki bu sohada buxgalteriya hisobi ob'ektlari, ko'rsatkichlari va xarajatlarni tahlil qilish usullari ko'plab omillarga bog'liq [1]. Buxgalteriya hisobining asosiy ob'ekti bu sanoatni boshqalardan ajratib turadigan aniq qurilish loyihalari yoki ish majmualari bo'lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi ko'pincha alohida mahsulotlar yoki jarayonlar darajasida yuritiladigan ommaviy ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, qurilishda buxgalteriya hisobi muddati va ko'lami sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan noyob loyihalar atrofida to'plangan.

Boshqaruv hisobi ob'ektlarining farqi bajarilgan ishlar hajmi, kompaniyaning hajmi, uning ixtisoslashuvi (masalan, turar-joy qurilishi, sanoat qurilishi, infratuzilma loyihalari va boshqalar) kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan qurilishda iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun turli ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin, jumladan:

- ishlarning alohida bosqichlari yoki turlari uchun xarajatlarni hisoblash (masalan, qazish ishlari, montaj ishlari);
- loyihaning borishini aks ettiruvchi olingan qiymat ko'rsatkichlari;
- nazorat xarajatlari bilan taqqoslanadigan va og'ishlarni aniqlaydigan standart va haqiqiy xarajatlar.

Bu omillar qurilish kompaniyalaridan har bir ob'yekt va loyihaning alohida bosqichlari bo'yicha xarajatlarni monitoring qilishga e'tibor qaratgan holda boshqaruv hisobiga moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. Bunday yozuvlarni yuritish sizga moliyaviy oqimlarni aniqroq nazorat qilish, risklarni boshqarish va rejalashtirishni yaxshilash imkonini beradi.

Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi korxonani samarali boshqarish va rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy funktsiyalarni bajaradi. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Resurslarni taqsimlash samaradorligi va ratsionalizatsiyasi monitoringi: boshqaruv hisobi kompaniyaning moliyaviy oqimlari ustidan nazoratni ta'minlaydi, bu esa resurslarni bo'limlar, faoliyat va bozor sektorlari bo'yicha oqilona taqsimlash imkonini beradi. Bu ortiqcha xarajatlarning oldini olishga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Strategik va taktik rejalashtirish: boshqaruv hisobi uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu qurilish tashkilotiga umuman biznesni qanday yuritish va shaxsiy biznes operatsiyalari bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Strategik rejalashtirish uzoq muddatli maqsadlarga, taktik rejalashtirish esa dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Axborot oqimlarini shakllantirish: boshqaruv hisobi boshqaruvning turli darajalari va tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi aloqalar tizimining asosini tashkil qiladi. Bu sizga qarorlar qabul qilish va ishning borishini kuzatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezda almashish imkonini beradi.

Samaradorlikni tahlil qilish va baholash: boshqaruv hisobi butun korxona va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu aniq loyihalar, mahsulotlar, xizmatlar va bozor segmentlarining rentabelligini baholashni o'z ichiga oladi, bu esa faoliyatning eng foydali yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Nazorat harakatlarini tuzatish: boshqaruv hisobi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish jarayoniga tezda tuzatishlar kiritish, qaror qabul qilishda subyektivlikni kamaytirish imkonini beradi. Bu menejmentning barcha darajalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ayniqsa muhimdir.

Rivojlanish dinamikasini rejalashtirish va muvofiqlashtirish: boshqaruv hisobi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida tashkilotni rivojlantirish rejalari tuzishga yordam beradi. Bu sizga bo'limlarning harakatlarini muvofiqlashtirish va tashqi muhit va kompaniya ichidagi o'zgarishlarga qarab strategiyani moslashtirish imkonini beradi.

Qurilish korxonasi matritsali tashkiliy tuzilma asosida boshqaruvni yuritish maqsadga muvofiq bo'lib, har bir boshqaruv hisobi ob'yektini alohida nazoratga olishga yordam beradi. Bunda alohida buyurtmalar doirasi bevosita ishlab chiqarish xarajatlarini har bir buyurtma bo'yicha xarajat moddalariga bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga kirmaydigan xarajatlarni esa qurilish olib borilyotgan joy bo'yicha xarajatlari va mahsulot kalkulyatsiyasi usulidan foydalish maqsadga muvofiq. Bunday kalkulyatsiyani hisoblashga asos tuzilgan qurilish shartnomasi hisoblanadi [3].

Qurilish tashkiloti ko'pincha har bir yirik loyiha uchun alohida ish yo'nalishini yaratadi, bu muayyan ish bilan bog'liq barcha xarajatlarni hisobga oladi. Boshqaruv hisobiga bunday yondashuv loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni samarali nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ushbu kontekstda qurilish loyihasining alohida biznes yo'nalishini hisobga olish xususiyatlari namoyon bo'ladi (3-jadval):

3-jadval. **Qurilish loyihasining alohida biznes yo'nalishini hisobga olish xususiyatlari¹**

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar mazmuni
1.	Uskunalar va materiallarni sotib olish	Uskunalar, qurilish materiallari va boshqa zarur resurslarning barcha xaridlari to'g'ridan-to'g'ri aniq loyihaga to'lanadi. Bu sizga ma'lum bir qurilish loyihasi uchun muayyan resurslarga qancha mablag' sarflanganligini aniq kuzatish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni nazorat qilish va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga yordam beradi. Uskunalar va materiallar alohida ob'ektlar bo'yicha hisobga olinadi, bu ham shaffoflikni saqlashga yordam beradi va resurslarning ortiqcha yoki tanqisligini oldini oladi.
2.	Xodimlar xarajatlari	Qurilish loyihalarida ishlaydigan xodimlar ko'pincha muddatli mehnat shartnomalariga tayinlanadilar, ularning muddati aniq loyihaning davomiyligi bilan bog'liq. Bu kompaniyaga mehnat resurslarini moslashuvchan boshqarish, xodimlarni faqat buyurtma muddati uchun yollash imkonini beradi, bu esa xodimlarni saqlash uchun belgilangan xarajatlarni kamaytiradi. Xodimlarning barcha to'lovlari, shu jumladan ish haqi, nafaqalar va ijtimoiy to'lovlar ham loyihaga xos bo'lib, har bir alohida qurilish loyihasi uchun xodimlar xarajatlari shaffof va tushunarli qiladi.
3.	Kombinezonlar va jihozlar	Ish kiyimlari, shaxsiy himoya vositalari va asbob-uskunalar uchun xarajatlarni hisobga olish individual loyihalar uchun ham amalga oshiriladi. Bu xodimlarning ishini bajarish uchun zarur bo'lgan hamma narsaga ega bo'lishini ta'minlaydi, shu bilan birga barcha xaridlar va tarqatishlar loyihaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishini ta'minlaydi.
4.	Buyurtma uchun hisobdan chiqarish	Barcha xarajatlari (materiallar, asbob-uskunalar, kiyim-kechak, transport xarajatlari va boshqalar) buxgalteriya tizimida muayyan qurilish loyihasi bilan bog'liq xarajatlari sifatida aks ettiriladi. Bu hisobot berishni osonlashtiradi va buyurtmani bajarishning haqiqiy narxini to'g'ri hisoblash imkonini beradi.

Ushbu yondashuvning afzalliklari: Shaffoflik va xarajatlari nazorati: har bir xarajat moddasi to'g'ridan-to'g'ri loyiha bilan bog'liq bo'lib, chalkashliklarni bartaraf qiladi va barcha resurslarni to'g'ri hisobga olinishini ta'minlaydi.

Xodimlarni boshqarishda moslashuvchanlik: muddatli mehnat shartnomalaridan foydalanish kompaniyaga ma'lum bir buyurtma bo'yicha ish hajmiga qarab xodimlar sonini o'zgartirishga imkon beradi, bu esa loyihalarsiz davrlarda xarajatlarni kamaytiradi. Resurslarni samarali boshqarish: Har bir loyiha uchun materiallar, kiyim-kechak va jihozlarni hisobga olish ulardan foydalanish ustidan nazoratni soddalashtiradi va resurslardan ortiqcha yoki samarasiz foydalanishni bartaraf etadi.

Oxir oqibat, bu yondashuv har bir qurilish loyihasi uchun rejalashtirish, nazorat va xarajatlari tahlilini yaxshilashga yordam beradi, bu butun tashkilotning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish sohasida ishlab chiqarish xarajatlari aks ettiruvchi ko'rsatkichlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu ko'rsatkichlar rahbariyatga har bir loyiha bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni tushunish imkonini beradi va resurslarni taqsimlash samaradorligini baholashga yordam beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv hisobi doirasida olingan ma'lumotlar yakuniy yoki mutlaq emas. U qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, lekin qo'shimcha tahlil va tashqi va ichki omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Qurilishdagi xarajatlari tarkibi va hajmini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, smeta bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari, qurilish tovarlari/xizmatlarining umumiy haqiqiy qiymati, ishlab chiqarishning ishlab chiqarish tannarxi, sotilgan mahsulotlarning narxi, qurilish ishlarining 1 so'mi uchun xarajatlari (investitsiya qilingan mablag'larning har bir so'mining iqtisodiy samaradorligini o'lchash imkonini beruvchi ko'rsatkich. Bu nisbat xarajatlarni tahlil qilish va ish faoliyatini monitoring qilish uchun muhimdir), mas'uliyat sohasi bo'yicha xarajatlari hisoblanadi[2].

Xarajatlari va xarajatlari ko'rsatkichlariga asoslangan boshqaruv hisobi tizimidan foydalanish quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi: hisoblangan standartlardan chetlanishlarni aniqlash; og'ishlarning sabablari bo'yicha tasnifi;

¹ Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.

burilish joylarini aniqlash; burilishlar uchun javobgarlarni aniqlash; xarajatlarni hisobga olgan holda xarajatlarni hisobga olish; xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash.

Respublikamizda mavjud bo'lgan buxgalteriya hisobi tizimi soliq solinadigan bazani hisoblashga yo'naltirilgan. Qurilish korxonalari odatda mahsulot, ishlar va xizmatlarning to'liq haqiqiy tannarxini hisobga oladigan tannarx usulidan foydalanadilar. Biroq jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, marja usuliga asoslangan direkt-kosting tizimi samaraliroqdir. U xarajatlarni yaxshiroq boshqarish va rentabellikni oshirish uchun qisqartirilgan xarajatlarni hisoblash va hissa marjalarini aniqlashga qaratilgan. "Direkt-kosting" tizimida mahsulot tannarxi faqat o'zgaruvchan xarajatlar, ya'ni ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarib turadigan xarajatlar hisobiga olinadi. Doimiy etilgan xarajatlar, masalan, ijara yoki ma'muriy xarajatlar alohida hisobga olinadi. Hisobot davri oxirida (masalan, oyiga bir marta) ular ishlab chiqarish tannarxiga taqsimlanmasdan, moliyaviy natijalarga hisobdan chiqariladi. Bu sizga o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarning kompaniya foydasi va operatsion samaradorligiga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi [4].

Shunday qilib, boshqaruv hisobi qurilish tashkilotining samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, resurslarni nazorat qilish, asosli qarorlar qabul qilish va bo'limlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Boshqaruv hisobida olingan xarajat ko'rsatkichlari qurilish sohasida boshqaruv qarorlarini asoslash va optimallashtirish uchun muhim vositadir. Biroq, ular qo'shimcha talqin va tahlilni talab qiladi va faqat yakuniy qaror qabul qilish uchun zaruriy shart bo'lishi mumkin. Ushbu qarorlarning haqiqiyligi ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish, xavf omillarini hisobga olish va mavjud vaziyatga qarab yondashuvlarni to'g'rilash bilan bog'liq.

Qurilish sohasida boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etish, tannarx va xarajatlar kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishga asoslangan holda, tashkilotlarga ularning xarajatlarini nazorat qilish, loyihalar samaradorligini baholash va asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bunday yondashuv nafaqat rejadani chetlanishlarni minimallashtirish, balki boshqaruvning barcha darajalari ishini muvofiqlashtirishni sezilarli darajada yaxshilash va qurilish loyihalari rentabelligini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Богданова Н.А., Погодина Е.А. Бухгалтерский/управленческий учет, Ульяновск : Б 73 УлГТУ, 2011. – 169 с.
2. Е.В. Гусев, А.В. Голлай. Управление строительством объекта на основе моделирования технологии строительства объекта. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Computer Technologies, Automatic Control, Radio Electronics. 2021, vol. 21, no. 4, pp. 156–166
3. Шеина С. Г. Стратегическое управление техническим состоянием жилищного фонда муниципального образования: Монография. – Ростов-на-Дону: РГСУ, 2008. – 196 с
4. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби. Монография. Т.: 2003. – 191 б

Qurilish korxonalarida boshqaruv hisobining xususiyatlari

Rezyume: Ushbu maqolada O'zbekiston qurilish sohasining rivojlanishiga, iqtisodiy va infratuzilma taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha turlari, qurilishda samaradorlikni ifadolovchi ko'rsatkichlar tizimi o'rganilgan. Qurilishdagi xarajatlarni baholashda "direkt-kosting" tizimi kabi metodologiyalarni qo'llashning ahamiyati ta'kidlangan. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi asosiy xususiyatlari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: qurilish, qurilish hajmi, xarajat, boshqaruv hisobi.

Особенности управленческого учета на строительных предприятиях

Резюме: В данной статье основное внимание уделяется вкладу Узбекистана в развитие строительной отрасли, развитие экономики и инфраструктуры. Изучены виды строительных работ по видам экономической деятельности, система показателей, выражающих эффективность строительства. Подчеркивается важность использования таких методик, как система «прямых затрат» при оценке стоимости строительства. Представлены основные особенности управленческого учета в строительных организациях.

Ключевые слова: строительство, объем строительства, стоимость, управленческий учет.

Features of management accounting in construction enterprises

Summary: This article focuses on the contribution of Uzbekistan to the development of the construction industry, economic and infrastructure development. The types of construction works by types of economic activity, the system of indicators expressing efficiency in construction were studied. The importance of using methodologies such as the "direct-costing" system in the estimation of construction costs is emphasized. The main features of management accounting in construction organizations are presented.

Key words: construction, construction volume, cost, management account.

UDK 517.23

RIMAN-LIUVILL MÁĠANASÍNDAGÍ BÓLSHEK TÁRTIPLI TUWÍNDÍLAR HÁM INTEGRALLAR

Otarova J.A., Xaqbergenova N.F.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Bólshek tártipli integro-differenciallıq teńlemeler fizika, biologiya, basqarıw teoriyası hám basqa kóplegen quramalı

ámeliy máselelerde qollanıladı. [1-3]. $\frac{d^p}{dx^p}$ pütün bolmağan p tártipli differencial túsiniyin ulıwmalastırıw ideası differenciallıq hám integrallıq esaplardıń payda bolıwı menen bir waqıtta payda bolğan. 1695-jılda Gotfrid Vilgelm Leybnic tárepinen tómendegi formula

$$\frac{d^n e^{mx}}{dx^n} = m^n e^{mx},$$

putin bolmagan n sanlar ushin ham orinli ekenligin korsetedi.

Leonard Eyler ozinin ilimiy izretlewlerinde putin bolmagan sanlar ushin “faktorial” rolin atqaratugin “gamma funkciya” $\Gamma(x)$, tusinigin kirgizdi. 1930-jilda [4] ol putin bolmagan p sanı ushin därejeli funkciyanın tuwındısı ushin tömendegi qatnas orinli ekenligin korsetken,

$$\frac{d^n}{dx^n} x^m = m(m-1)\dots(m-n+1)x^{m-n},$$

yagnıy, n putin san bolganda Gamma funkciyası ushin tömendegi tenlik orinli

$$\Gamma(m+1) = m(m-1)\dots(m-n+1)\Gamma(m-n+1)$$

demek, aldınğı formuladan tömendegishe jaza alamız

$$\frac{d^n}{dx^n} x^m = \frac{\Gamma(m+1)}{\Gamma(m-n+1)} x^{m-n},$$

bul anlatpa qalegen n ushin orinli.

Bölshek integro-differenciallıq esabınının jaratılıwına en ülken tasir korsetken Niels Henrik Abel boladı. Abel ozinin jumısında [5] tartısıw küshleri tasirinde tömengi noqatqa jetip barıw waqtı baslanğısh noqattın jaǵdayına baylanıslı bolmagan iymek sıziqtı tabıw mäsesin körıp shıqtı. Bul iymek sıziq tautoxron dep ataladı ham sikloidtn bir bölegi bolıp tabıladı. Bul mäsele menen baylanıslı, Abel tarepinen tömendegi integral tenlemenin sheshimi alındı

$$\int_{\alpha}^x \frac{\varphi(t)dt}{(x-t)^{\alpha}} = f(x), \quad x > \alpha, \quad 0 < \alpha < 1.$$

keyinshelik, bul tenlemenin shep tarepi $1-\alpha$, tartıplı integral ekeni, ham onın sheshimi bul tenlemenin on jagına saykes keletugin bölshek tartıplı tuwındı ekenligi kelip shıqtı. Tautaxron mäsesi $\alpha = 1/2$, jaǵdayǵa alıp kelse de, Abel bul tenlemenı $\alpha \in (0,1)$ ushin sheshken. Ol bul sheshimdi α tartıplı integral järeminde (yagnıy teris tartıplı tuwındı järeminde) anlatadı

$$\varphi(x) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d^{-\alpha} f(x)}{dx^{-\alpha}}.$$

Bölshek tartıplı integro-differencial teoriyasın jaratıwshısı Jozef Liuvill bolıp tabıladı. 1832-jilda [4], Leybnictan keyin ol

$$\frac{d^{\nu} f(x)}{dx^{\nu}} = \sum_{k=0}^{\infty} c_k a_k e^{a_k x},$$

formula järeminde qatar körinisinde berilgen

$$f(x) = \sum_{k=0}^{\infty} c_k e^{a_k x},$$

funkeiyalardı differenciallawın keltirdi. Bul jumısta Liuvill tömendegi formulanı aldı.

$$D^{-p} f(x) = \frac{1}{(-1)^p \Gamma(p)} \int_0^{\infty} \varphi(x+t) t^{p-1} dt, \quad -\infty < x < \infty, \quad \operatorname{Re} p > 0,$$

bugingi künde bul formula $((-1)^p \text{-kobeymesiz})$ Liuvill formulası dep ataladı.

Bernhard Riman 1847. [5] Teylor qatarın ulıwmalastırıwınan paydalap, bölshek tartıplı integrallaw formulasın aldı, ol häzirgi künde tömendegishe jazıladı

$$D^{-\alpha} f(x) = \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_c^x (x-t)^{\alpha-1} f(t) dt,$$

birap, jazıwda bul Riman formulası tömengi integral shegarası fiksirlenbegen bolǵanlıqtan qosımsha funkciyanı öz ishine aladı.

1867- jilda Gryunvald [5] ham 1868-jilda Leksey Vasilyevich Letnikov [6] bölshek tartıplı differenciallıq esap teoriyasın rawajlandırdı ham Riman formulasına $f^{(n)}(x) = \lim_{h \rightarrow 0} \frac{(\Delta_h^n f)(x)}{h^n}$ tiykarlanıp, putin emes n - sanlar ushin tömendegi formulalardı keltirgen,

$$D^{\alpha} f(x) = \lim_{h \rightarrow 0} \frac{(\Delta_h^{\alpha} f)(x)}{h^{\alpha}},$$

bunda $(\Delta_h^\alpha f)(x) - \alpha$ bölshek tärtpili shekli ayırması

$$(\Delta_h^\alpha f)(x) = \sum_{k=0}^{\infty} (-1)^k \left(\frac{\alpha}{k}\right) f(x-kh),$$

binomial koefficientlerdin rolin binomial koefficient dep atalatugin tömendegi sanlar atqaradı [4]

$$\left(\frac{\alpha}{k}\right) = \frac{(-1)^{m-1} \alpha \Gamma(m-\alpha)}{\Gamma(1-\alpha)n!}.$$

Bölshek integrallar hám tuındılar ápiwayı integral hám tuındılar bolıp tabıladı. Biraq, bölshek tärtibinde, bul túsınıklar ayrıqsha özgeshelikke iye bolıp, misalı, olar ushın, túrli jaǵdaylarda, olardıń hár qıylı modifikatsiyaları payda boladı. Bölshek tärtpili tuındılar hám integrallar kóplegen qosımshalarǵa iye - olar ámeliy máselelerden kelip shıǵadı. Házirgi waqıtta bölshek tuındı hám integrallarǵa tiyisli kóplegen ádebiyatlar bar [5-6].

Sonǵı jıllarda bölshek esabı tarawına qızıǵıwshılıq artp barmaqta. Bölshek tärtpili differenciallıq teńlemeler kóplegen izertlewshilerdin itibarın tarttı. Bölshek tärtpili differenciallıq teńlemeler pán hám texnikanın túrli tarawlarında qollanıladı. Suyıqlıqlar mexanıkası, ximiya, fizika, finans hám basqa pánlerdegi kóplegen máselelerdi bölshek tärtpili esabı teoriyasının matematikalıq qurallardan paydalangan halda modeller arqalı súwretlew múmkin.

Bölshek tärtpili integrodifferencialdın matematikalıq apparatı waqıt hám keńislik boyınsha lokal emes qásiyetlerdi esapqa alıw zárur bolǵan sistemalarǵa processlerdi xarakteristikalarw imkaniyatın beredi. Bölshek tuındıların yad (waqıt boyınsha lokal emes) hám keńisliktegi korrıyaciya (koordinatalarda lokal emes) tásirin esapqa alıw usılı retinde kórsetiwi olardıń tabıyattarıwda keń qollanıwına alıp keldi.

Házirgi waqıtta izertlewshilerdin bölshek tärtpili esabına itibarı sezilerli dárejede kóbeymekte. Bul, birinshi náwbette, fraktal ortalıqta júz bolatugin fizikalıq hám ximiyalıq processlerdin keń klasın xarakteristikalarwda, ekonomikalıq jáne social-biologiyalıq processlerdi matematikalıq modellestiriwde bölshek tärtpili differencialdın kóplegen nátiyjeli qollanıwı menen baylanıslı.

Bölshek tärtpili differenciallıq teńlemeler fizika, ximiya, biologiya, ekonomika, sociologiya hám basqa zamanagöy tabiiy hám gumanitar pánlerdin túrli tarawlarında júzege keletugin kóplegen matematikalıq modeller ushın tiykar bolıp xızmet etedi. Bul jaǵday, házirgi waqıtta zamanagöy matematikanın jedel rawajlanıp atırǵan tarawların birine aynalǵan bölshek tärtpili differenciallıq teńlemeler hám differenciallıq teńlemeler sistemaları ushın sheǵaralıq máseleler teoriyasının keń rawajlanıwına alıp keldi.

1-anıqlama. $0 < \alpha = \text{const} < 1$ hám $\varphi(x)$ bolsa $[a, b]$ segmentte anıqlangan funksiya bolsın [1]. Mina

$$\begin{aligned} D_{av}^\alpha \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} \int_a^x \frac{\varphi(t) dt}{(x-t)^\alpha}, & 0 < \alpha < 1, \\ D_{xb}^\alpha \varphi(x) &\equiv -\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} \int_x^b \frac{\varphi(t) dt}{(x-t)^\alpha}, & 0 < \alpha < 1 \end{aligned} \quad (1)$$

körinisindegi anılatpalar $\varphi(x)$ funksiyanın Riman-Liuvill máǵanasındaǵı α (bölshek) tärtpili tuındıları delinedi.

1-lemma. Eger $\alpha \in (0, 1)$ hám $\varphi(x) \in AC([a, b])$ bolsa, $[a, b]$ segmenttiń derlik barlıq noqatlarında $\varphi(x)$ funksiyanın α (bölshek) tärtpili tuındıları bar bolıp, tömendegi formulalar orınlı boladı:

$$\begin{aligned} D_{av}^\alpha \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \left[\frac{\varphi(a)}{(x-a)^\alpha} + \int_a^x \frac{\varphi'(t) dt}{(x-t)^\alpha} \right], & 0 < \alpha < 1, \\ D_{xb}^\alpha \varphi(x) &\equiv -\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \left[\frac{\varphi(b)}{(b-x)^\alpha} - \int_x^b \frac{\varphi'(t) dt}{(t-x)^\alpha} \right], & 0 < \alpha < 1 \end{aligned}$$

Fundamentallıq qásiyetleri [2]

$$1. \text{Sızıqlılıq } D^\alpha [af(x) + bg(x)] = aD^\alpha f(x) + bD^\alpha g(x),$$

$$2. \text{Därejeli funksiya tuındısı } D^\alpha x^m = \frac{\Gamma(m+1)}{\Gamma(m-\alpha+1)} x^{m-\alpha}, \quad m > \alpha - 1,$$

$$3. \text{Integral menen baylanıs } D^\alpha D^\alpha f(x) = f(x),$$

$$4. \text{Yarım toparlıq qásiyet } D^\alpha D^\beta f(x) = D^{\alpha+\beta} f(x),$$

$$5. \text{Turaqlının tuındısı } D^\alpha C = \frac{Cx^\alpha}{\Gamma(1-\alpha)}.$$

Tómende bólshek tártiplı tuwındı hám integraldı esaplawğa misallar keltiremiz.

1-misal. $\varphi(x) = x^n$ bolsın. (1) formuladan paydalanıp esaplaymız [2]:

$$\begin{aligned} D_{ax}^{\alpha} \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} \int_a^x \frac{t^n dt}{(x-t)^{\alpha}} = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} \int_a^x t^n (x-t)^{-\alpha} dt = \\ &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} \left(x^{-\alpha} \int_a^x t^n \left(1 - \frac{t}{x}\right)^{-\alpha} dt \right), \end{aligned}$$

bul jerde, integral ózgeriwshisin $\frac{t}{x} = u$ formula menen almasırsaq, tómendegi teńlik kelip shıǵadı:

$$D_{0x}^{\alpha} \varphi(x) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d}{dx} (x^{n-\alpha+1}) \int_0^1 u^n (1-u)^{-\alpha} du = \frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^1 u^n (1-u)^{-\alpha} du$$

bul jerde, $\int_0^1 u^n (1-u)^{-\alpha} du$ ańlatpası $B(n+1, 1-\alpha)$ nı beredi, bunnan

$$\begin{aligned} D_{0x}^{\alpha} \varphi(x) &= \frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)} B(n+1, 1-\alpha) = \frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{\Gamma(n+1)\Gamma(1-\alpha)}{\Gamma(n-\alpha+2)} = \\ &= \frac{(n-\alpha+1)x^{n-\alpha}\Gamma(n+1)}{(n-\alpha+1)\Gamma(n-\alpha+1)} = \frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(n-\alpha+1)} x^{n-\alpha}, \end{aligned}$$

formulası kelip shıǵadı.

2-anıqlama. [2] α - oń bólshek san hám $\varphi(x) \in L_1(a, b)$ ($a < b < +\infty$) bolsın.

$$\begin{aligned} D_{ax}^{-\alpha} \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_a^x (x-t)^{\alpha-1} \varphi(t) dt, \alpha > 0, \\ D_{xb}^{-\alpha} \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_x^b (t-x)^{\alpha-1} \varphi(t) dt, \alpha > 0 \end{aligned} \quad (2)$$

kórinisindegi ańlatpalar Riman-Liuvill máǵanasındaǵı α (bólshek) tártipli integrallar delinedi. (2) formuladan belgili, $\alpha = n \in \mathbb{N}$ bolǵanda $D_{ax}^{-\alpha} \varphi(x)$ hám $D_{xb}^{-\alpha} \varphi(x)$ belgiler $\varphi(x)$ funkciyanıń n (natural) eseli integralın anıqlaydı.

2-misal. $\varphi(x) = x^n$ bolsın. (2) formuladan paydalanıp esaplaymız:

$$\begin{aligned} D_{ax}^{-\alpha} \varphi(x) &\equiv \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_a^x (x-t)^{\alpha-1} t^n dt = \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_a^x \left[x \left(1 - \frac{t}{x}\right) \right]^{\alpha-1} t^n dt = \\ &= \frac{x^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)} \int_a^x \left[\left(1 - \frac{t}{x}\right) \right]^{\alpha-1} t^n dt \end{aligned}$$

bul jerde, integral ózgeriwshisin $\frac{t}{x} = u$ formulası menen almasırsaq, tómendegi teńlik kelip shıǵadı [3]:

$$D_{ax}^{-\alpha} \varphi(x) = \frac{x^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)} \int_{\frac{a}{x}}^1 (1-u)^{\alpha-1} u^n x^{n+1} du = \frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)} \int_{\frac{a}{x}}^1 (1-u)^{\alpha-1} u^n du$$

bul jerde, $\int_0^1 u^n (1-u)^{-\alpha} du$ ańlatpası $B(n+1, 1-\alpha)$ nı beredi, bunnan

$$D_{ax}^{-\alpha} \varphi(x) = \frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)} B(n+1, \alpha) = \frac{x^{\alpha+n}}{\Gamma(\alpha)} \frac{\Gamma(n+1)\Gamma(\alpha)}{\Gamma(\alpha+n+1)} = \frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(\alpha+n+1)} x^{\alpha+n}$$

formulası kelip shıǵadı.

3-misal. $\varphi(x) = x^2$ funkciyasınıń $\frac{1}{2}$ -tártipli tuwındısın esaplaymız. Bunıń ushın (1) formuladan paydalansaq,

$$D^{\frac{1}{2}}x^2 = \frac{1}{\Gamma\left(\frac{1}{2}\right)} \frac{d}{dx} \int_0^x \frac{t^2}{(x-t)^{\frac{1}{2}}} dt,$$

añlatpa payda boladı. Bul jerde integral ózgeriwshisin $\sqrt{x-t} = u$ formulası menen almastırmaq, tómendegi integral payda boladı:

$$\begin{aligned} D^{\frac{1}{2}}x^2 &= \frac{-2}{\sqrt{\pi}} \frac{d}{dx} \int_{\sqrt{x}}^0 (x^2 - 2xu^2 + u^4) du = -\frac{2}{\sqrt{\pi}} \frac{d}{dx} \left(x^2u - \frac{2}{3}xu^3 + \frac{u^5}{5} \right) \Bigg|_{u=\sqrt{x}}^{u=0} = \\ &= \frac{2}{\sqrt{\pi}} \frac{d}{dx} \left(\frac{8}{15}x^{\frac{5}{2}} \right) = \frac{2}{\sqrt{\pi}} \frac{8}{15} \frac{5}{2} x^{\frac{3}{2}} = \frac{8}{3\sqrt{\pi}} x\sqrt{x}. \end{aligned}$$

4-mısal. $\varphi(x) = \sqrt{x}$ funkciyasınıń $\frac{3}{2}$ -tárıptı integralın esaplaymız. (2) formuladan paydalanamız,

$$D_{0x}^{-\frac{3}{2}}(\sqrt{x}) = \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^x (x-t)^{\frac{3}{2}} \sqrt{t} dt$$

Integral ózgeriwshisin $\sqrt{x-t} = u$ formula menen alastıramız:

$$\begin{aligned} D_{0x}^{-\frac{3}{2}}(\sqrt{x}) &= -\frac{1}{\sqrt{\pi}} \int_{\sqrt{x}}^0 \sqrt{x-u^2} d(x-u^2) = -\frac{1}{\sqrt{\pi}} \left(\frac{2}{3} \sqrt{(x-u^2)^3} \right) \Bigg|_{u=\sqrt{x}}^{u=0} = \\ &= -\frac{2}{3\sqrt{\pi}} \sqrt{x^3} = -\frac{2x}{3} \sqrt{\frac{x}{\pi}}. \end{aligned}$$

Riman-Liuvill máǵanasıdagi bólshek tártıptı tuwındı hám integral klassikalıq analiz imkaniyatların keñeytiwshi kúshli matematikalıq qural bolıp tabıladı. Olar klassikalıq usıllar járdeminde anıq tártılep bolmaytuǵın hár qıylı qubılıslardı modellestiriw hám analizlewdiń jańa usılların táminleydi. Bólshek tártıptı tuwındınıń tiykarǵı abzallıqlarınan biri yad tásirleri esapqa alıw qásiyeti bolıp, bul quramalı dinamikalıq sistemalardı anıqlap beriw imkaniyatın beredi. Bul anomal diffuziya, elektroximiya, biologiya, ekonomika hám sistemalardı qadaǵalaw sıyaqlı tarawlardagi izertlewler ushın jańa imkaniyatlar ashadı.

ÁDEBIYATLAR

1. Нахушев А. М. Дробное исчисление и его применение. – М.: ФИЗМАТЛИТ, 2003. -272 с.
2. Самко С.Г., Килбас А. А. , Маричев О.И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения. –Минск: «Наука и техника», 1987. -688 с.
3. Учайкин В. В. Метод дробных производных. Ульяновск:Изд. «Артишок», 2008. -512 с.
4. Bagley.R.L and Calico. R.A, Fractional order state equations for the control of viscoelastically damped structures, J.Guidance, vol. 14, no. 2, 1991, pp. 304-311.
5. Abel N. H Auflösung einer mechanischen Aufgabe. J. Fur reine und angew. Math. 1826. Bd 1. P. 153-157.
6. Лебедев Н.Н. Специальные функции и их приложения, Гос. Изд. ф. м. лит. –М., «Ленинград», 1963. 359 с.

Annotaciya: Bul maqalada Riman-Liuvill máǵanasıdagi bólshek tártıptı tuwındılar hám integrallardıń tiykarǵı anıqlamaları hám qásiyetleri kórip shıǵıladı. Olardıń fundamental qásiyetleri, esaplawlarga misallar hám matematikalıq modellestiriwde qollanıw tarawları keltirilgen. Riman-Liuvill hám Kaputo tuwındıları arasındagi ayırmashılıqlar hám olardan ámeliy máselelerde paydalanıw haqqında pikir júrgizilgen.

Tayanış sózler: Bólshek tártıptı tuwındı hám integrallar, Riman-Liuvill máǵanasıdagi tuwındı.

Riman-liuvill manosidagi kasr tartibli hosilalar va integrallar

Annotatsiya: Bu maqolada Riman-Liuvill qiymatidagi kasr tartibli hosilalar va integrallarning asosiy ta'riflari va xossalari ko'rib chiqiladi. Ularning fundamental xossalari, hisob-kitoblarga misollar va matematik modellashirishda qo'llanish sohalari keltirilgan. Riman-Liuvill va Kaputo hosilalari orasidagi farqlar va ulardan amaliy masalalarda foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Kasr tartibli hosila va integrallar, Riman-Liuvill ma'nosidagi hosila.

Дробные производные и интегралы в смысле римана-лиувилля

Аннотация: В этой статье рассматриваются основные определения и свойства дробных производных и интегралов Римана-Лиувилля. Приведены их фундаментальные свойства, примеры расчетов и области применения в математическом моделировании. Рассмотрены различия между производными Римана-Лиувилля и Капуто и их использование в практических вопросах.

Ключевые слова: производные и интегралы дробного порядка, дробные производные в смысле Римана-Лиувилля.

Fractional derivatives and integrals in the sense of riemann-liouville

Abstract: This article discusses the basic definitions and properties of fractional derivatives and Riemann-Liouville integrals. Their fundamental properties, examples of calculations and areas of application in mathematical modeling are given. The differences between the Riemann-Liouville and Caputo derivatives and their use in practical matters are considered.

Key words: fractional derivatives and integrals, fractional derivatives in the Riemann-Liouville sense.

УДК 621.315.592.3

KREMNIY YUZASIGA H₂O, CO₂, NO₂, SO₂ GAZ MOLEKULALARINING TA'SIRNI ZICHLIK FUNKSIONAL NAZARIYASI YORDAMIDA O'RGANISHD. Sh.Kurbanov¹, K.R.Yakubov¹, Q.A.Ismaylov², R.B.Bazarbayev¹, R.Sh.Raximboyev¹, N.D.Sultonboyeva¹,
R.B.Qadambayeva¹¹ Urganch davlat universiteti² Qoraqalpoq davlat universiteti

1. Kirish. Kremniy o'zining noyob xususiyatlari va tabiatda keng tarqalganligi tufayli yarimo'tkazgich texnologiyasida asosiy material sifatida qo'llanilmoqda. Turli sirt yo'nalishlari orasida Si (001) yuzasi yaxshilangan strukturaviy, barqarorlik va elektron xususiyatlarini namoyon qilishi, undan yanada kengroq miqyosda foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Gaz molekulalarining Si(001) bilan o'zaro ta'sirini o'rganish gaz sensorlari, fotovoltai elementlar va katalitik tizimlar kabi texnologiyalarni rivojlantirish uchun juda muhim hissa qo'shadi.

Si(001) yuzasida gaz molekulalarini adsorbsiyasi, uning elektron va strukturaviy xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu esa kremniy asosli qurilmaning ishlashi va barqarorligiga ta'sir qiladi. Suv (H₂O), karbonat angidrid (CO₂), azot ikki oksidi (NO₂) va oltingugurt oksidi (SO₂) kabi gaz molekulalari atrof-muhitda va sanoat sohasida keng tarqalganligi sababli ularni qattiq jism sirti bilan ta'sirlashuvini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Masalan, H₂O bilan o'zaro ta'sir korroziya va passivatsiya tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega. CO₂ adsorbsiyasi esa karbonat angidridni atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishi bilan bog'liq. NO₂ va SO₂ adsorbsiyalarini o'rganish asosiy ifloslantiruvchi moddani aniqlash va sirtidan olib tashlash texnologiyalari uchun ham maqsadli hisoblanadi [1,2,3].

Tadqiqotda gaz molekulalarining Si(001) yuzasi bilan o'zaro ta'sirini o'rganishda zichlik funktsional nazariyasi (DFT) hisoblashlaridan foydalanildi. DFT hisoblashlari gazni aniqlovchi qurilmalarni optimallashtirish uchun zarur fundamental natijalarni olishga qaratilgan.


2. Hisoblash usuli va modellari

Hisoblashlar zichlik funktsional nazariyasiga (DFT) asoslangan Viena Ab initio simulyatsiya paketi (VASP6.4.3) bilan amalga oshirildi. DFT hisob-kitoblari elektron almashinuvi va korrelyatsiya o'zaro ta'sirini tavsiflash uchun Perdew-Burke-Ernzerhof (PBE) funktsional bilan umumlashtirilgan gradient yaqinlashuvi (GGA) laridan foydalanilgan [4]. Van der Waals o'zaro ta'sirini hisobga olish uchun DFT-D3 usuli kiritilgan [5,6]. Tizim energiyasini aniq olish uchun spin polarizatsiyasi e'tiborga olindi. Kesish energiyasi 620 eV. Sistema geometriyasini optimallashtirish jarayonida barcha atomlarga 0.02 eV/Å kuch va 10⁻⁵ eV energiya konvergentsiyasi standarti bilan optimizatsiya amalga oshirildi. Dastlab kremniy elementar yacheykasi hosil qilindi. Undan Superyacheyka va Si(001) 15 Å li vakuumli sirt hosil qilindi. Konfiguratsiyalarni optimallashtirishda Brillouin zonasidan namuna olishda 3×2×1 G-markazli k-nuqta panjarasi ishlatilgan. Adsorbsiya energiyasini aniqlashda yuqorida ko'rsatilgan me'zonlar yordamida Si (001) sirti optimizatsiya qilindi. Keyin sirt vakuumiga sirtidan bir xil 2.108 Å masofaga H₂O, CO₂, NO₂, SO₂ molekulalar joylashtirildi (**Rasm1**). Sistema optimizatsiya qilingandan keyin adsorbsiya energiyasini aniqlashda (1) formuladan foydalanildi. Bundan tashqari elektron holatlar zichligi (2) ham aniqlandi.


$$E_{ads} = E_{surf+gas} - E_{surf} - E_{gas} \quad (1)$$

$$n(E_i) = \frac{N(E_i) - N(E_{i-1})}{\Delta E} \quad (2)$$

bu yerda E_{surf+gas}, E_{surf} va E_{gas} mos ravishda birlashgan sirt+gaz tizimi, toza sirt va izolyatsiyalangan gaz molekulasi energiyalaridir. Elektron holatlar zichligini aniqlashda N(E_i) va N(E_{i-1}) lar berilgan energetik sathlarga to'g'ri keluvchi holatlar soni.




Rasm1. a,b,c Si(001) sirtini hosil qilish ketma-ketligi. a)Kremniy elementar yacheykasi. b)Kremniy superyacheykasi. c)Kremniy sirti




Rasm2. H_2O , CO_2 , NO_2 , SO_2 gaz molekularining $Si(001)$ yuzasida joylashishi.

3. Natija va muhokama

Hisoblashlardan olingan natijaga ko'ra NO_2 gaz molekulasini $Si(001)$ sirti bilan yuqori ta'sirlashuv energiyasini namoyon qildi. Ta'sirlashuv energiyasining qiymatlari $NO_2 > H_2O > CO_2 > SO_2$ munosabat bo'yicha kamayib bordi (Rasm3). Bundan ko'rinib turibdiki eng kam ta'sirlashuv energiyasi SO_2 ga tegishli. Kremniy sirtining NO_2 va H_2O qutbli molekullar uchun barqaror Si-O bog'lanishni hosil qilish qobiliyati tufayli ta'sirlashuv energiyalari qolgan molekullarga nisbatan juda katta. NO_2 molekulaning bukilgan tuzilishi va yuqori elektromanfiy kislorod atomlari mavjudligi barqaror dipol momentini hosil qiladi. Barqaror dipol momenti uning qutbli $Si(001)$ yuzasi bilan o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. Suv molekulasining kuchli vodorod bog'lash hosil qilish qobiliyati uni yuqori qutblilik namoyon qilishiga sababchi bo'ladi. Qutblilik kremniy sirti bilan o'zaro ta'sirlashuvni kuchaytiradi. CO_2 chiziqli qutbsiz molekula bo'lganligi tufayli zaif Van der Waals kuchlari bilan ta'rilashadi. Boshqalar bilan solishtirganda, SO_2 kamroq dipol momentga ega bo'lganligi sababli $Si(001)$ bilan kamroq qulay o'zaro ta'sirlashuv energiyasiga ega. Oltingugurt atomining azotga nisbatan pastroq elektronegativligi SO_2 ning NO_2 ga nisbatan kamroq nukleofil ekanligini bildiradi. Shuning uchun u kremniy yuzasi bilan kuchsiz o'zaro ta'sirlashuvni amalga oshiradi. Azot dioksidi azot atomidagi juftlanmagan elektronlari bo'lgan yuqori reaktiv va elektron yetishmaydigan molekula hisoblanadi. Bu NO_2 ni kuchli elektrofil qiladi, bu unga $Si(001)$ yuzasida mavjud bo'lgan elektronga boy juftlashmagan bog'lar bilan mustahkam o'zaro ta'sirni vujudga keltirish imkonini beradi. Kuchli o'zaro ta'sir energiyasi ko'p jihatdan zaryad o'tkazilishi va kovalentga o'xshash bog'lanish hosil qiladi. Suv doimiy dipol momentga ega qutbli molekuladir. Uning kisloroddagi yolg'iz elektron juftlari kremniy yuzasida juftlashmagan bog'lar bilan o'zaro ta'sir qiladi, bu esa sezilarli katta o'zaro ta'sir energiyasiga olib keladi. Biroq, o'zaro ta'sir NO_2 bilan solishtirganda zaifroq, chunki suvda NO_2 nikidek yuqori reaktivligi yo'q. Karbonat angidrid nisbatan past reaktivlikka ega chiziqli qutbsiz molekula. U kislorod atomlari orqali $Si(001)$ yuzasi bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin bo'lsada, kovalent yoki kuchli dipol bog'larni hosil qilish qobiliyati cheklangan. Oltingugurt dioksidi egilgan qutbli molekula hisoblanadi. Uning kremniy sirti bilan o'zaro ta'sir qilish energiyasi boshqa gaz molekullar bilan solishtirganda eng zaifdir. Buning sababi shundaki, SO_2 molekulasini NO_2 dan kamroq elektrofil va H_2O dan kamroq qutbli. Bu esa $Si(001)$ yuzasi bilan zaif bog'lanishga olib keladi [7,8].



Rasm3. Gaz molekularining $Si(001)$ yuzasida adsorbsion energiyalari.



Rasm4. Gaz molekularining Si(001) yuzasida bilan ta'sirlashuvda to'liq elektron holatlar zichligini o'zgarishi(TDOS).

Si(001) sirtning H_2O , CO_2 , SO_2 , NO_2 gaz molekulari bilan ta'sirlashuvda ayrim mahalliy holatlarni hisobga olmasa sistemaning to'liq elektron holatlar zichligi deyarli o'zgarmadi. Elektron holatlar zichligi bo'yicha o'tkazilgan DFT hisob-kitoblari, sirtning elektron tuzilishi gaz molekulari bilan o'zaro ta'sirlashuviga nisbatan barqarorligini ko'rsatadi. Ushbu barqarorlik holatlarning umumiy zichligi sezilarli darajada o'zgarishini anglatadi, bu o'zaro ta'sir davomida sirtning asosiy elektron xususiyatlari saqlanib qolganligini ko'rsatadi (Rasm4).

Zichlik funksional nazariyasidan foydalangan holda o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotimiz H_2O , CO_2 , NO_2 va SO_2 gaz molekularining Si(001) yuzasida turli-xil adsorbsion energiya qiymatlarini ko'rsatdi. Eng kuchli tasirlashuvni NO_2 ko'rsatdi. Ta'sirlashuvda NO_2 molekulasida kuchli elektrofilikni namoyon qildi. Natijada Si(001) yuzasidagi elektronga boy juftlashmagan bog'lanishlar orqali bilan mustahkam o'zaro ta'sir paydo bo'ldi. Suv molekulasida kuchli vodorod bog'lash qobiliyati va yuqori qutblilik namoyon qiladi, bu esa kremniy sirti bilan o'zaro ta'sirlashuvni kuchaytirdi. CO_2 chiziqli qutbsiz molekula bo'lganligi sababli zaif Van der Waals kuchlari orqali sirt bilan ta'sirlashdi. Boshqalari bilan solishtirganda, SO_2 kichik dipol momentga ega bo'lganligi, uning Si(001) bilan kamroq qulay o'zaro ta'sirlashuv energiyasiga olib keldi. Bundan tashqari Si(001) sirti H_2O , CO_2 , NO_2 va SO_2 molekulari bilan ta'sirlashganda sistemaning to'liq holat elektron zichliklari deyarli o'zgarmadi. Bu natijalar Si(001) sirtini kremniy asosli gaz datchikli qurilmalarda qo'llash imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. A. Lounis, L. Bouamama, Arezki Mokrani, A. Ziane. Ab-initio study of SiF₂ molecule adsorption on Si(001)-p(2 x 2) reconstructed surface. Solid State Communications, 2023, 368, pp.115176. [ff10.1016/j.ssc.2023.115176](https://doi.org/10.1016/j.ssc.2023.115176). fhal-04126097f.
2. Jun Hyung ChoJun Hyung ChoKwang S. KimKwang S. KimSung-Hoon LeeSung-Hoon LeeMyung-Ho Kang. Dissociative adsorption of water on the Si(001) surface: A first-principles study. February 2000Physical Review B 61(7):4503-4506. DOI: 10.1103/PhysRevB.61.4503
3. Hyunhak Jeong; Byungjo Kim., Hwaseong-si, South Korea ; Suyoung Yoo; Sang Ki Nam. Influence of Surface Halogenation on Silane Adsorption onto Si(001) Surface for Poly-Si Epitaxy: A Density Functional Theory Study with Neural Network Potential. Date of Conference: 27-29 September 2023. Date Added to IEEE Xplore: 20 November 2023. DOI: 10.23919/SISPAD57422.2023.10319640.
4. John P. Perdew, Kieron Burke, and Matthias Ernzerhof.Generalized Gradient Approximation Made Simple. Phys. Rev. Lett. 77, 3865 – Published 28 October, 1996Erratum Phys. Rev. Lett. 78, 1396 (1997).DOI: <https://doi.org/10.1103/PhysRevLett.77.3865>
5. S. Grimme, J. Antony, S. Ehrlich, and S. Krieg, J. Chem. Phys. 132, 154104 (2010).
6. S. Grimme, S. Ehrlich, and L. Goerigk, J. Comput. Chem. 32, 1456 (2011).
7. Dr. Stefan Mebs, Prof. Dr. Jens Beckmann. In Silico Activation of CO₂, NO₂, and SO₂ with Light Atom Molecules and Stepwise Conversion of CO₂ into Methanol and Water. First published: 04 May 2023 <https://doi.org/10.1002/slct.202301173>
8. Nahuel Moreno Yalet, Víctor A. Ranea. A DFT+U study on the adsorption of CO, H₂S, PH₃, CO₂ and SO₂ on the V₂O₅(001) surface with atomic Rh adsorbed. <https://doi.org/10.1016/j.susc.2021.122014>

Abstrakt. Ushbu tadqiqot H_2O , CO_2 , NO_2 va SO_2 molekularining Si(001) yuzasida adsorbsiyasini zichlik funksional nazariyasidan (DFT) foydalanib o'rganishdan iborat. Har bir gaz uchun adsorbsion energiya qiymatlarini aniqlashda, tizim optimallashtirildi. Adsorbsion energiyalar H_2O , CO_2 , NO_2 va SO_2 uchun mos ravishda -5.949 eV, -1.574 eV, -6.918 eV va -1.0234 eV teng ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki NO_2 molekulasida Si(001) yuzasi bilan eng kuchli ta'sirlashuvga ega. O'z navbatida kremniy sirti SO_2 bilan eng kam ta'sirni namoyon qildi. Si(001) sirti gaz H_2O , CO_2 , NO_2 va SO_2 molekulari bilan ta'sirlashganda sistemaning to'liq holat elektron zichliklari deyarli o'zgarmadi. Bu esa uning barqarorligidan dalolat beradi. Gaz molekularining Si(001) sirtlari bilan o'zaro ta'sir qilish mexanizmlarini o'rganish kremniy asosli gazni aniqlovchi qurilmalar uchun muhim fundamental natijalarni berdi.

Абстракт. Это исследование состоит из изучения адсорбции молекул H_2O , CO_2 , NO_2 и SO_2 на поверхности $Si(001)$ с использованием теории функциональной плотности (DFT). При определении значений энергии адсорбции для каждого газа система была оптимизирована. Было обнаружено, что энергии адсорбции равны -5,949 эВ, -1,574 эВ, -6,918 эВ и -1,0234 эВ для H_2O , CO_2 , NO_2 и SO_2 соответственно. Из этого видно, что молекула NO_2 наиболее сильно взаимодействует с поверхностью $Si(001)$. Поверхность кремния, с другой стороны, меньше всего взаимодействовала с SO_2 . Электронная плотность полного состояния системы практически не изменилась при взаимодействии поверхностного газа $Si(001)$ с молекулами H_2O , CO_2 , NO_2 и SO_2 . Это свидетельствует о его стабильности. Изучение механизмов взаимодействия молекул газа с поверхностями $Si(001)$ дало важные фундаментальные результаты для приборов обнаружения газа на основе кремния.

Abstract. This study involves the investigation of the adsorption of H_2O , CO_2 , NO_2 and SO_2 molecules on the $Si(001)$ surface, with the utilisation of density functional theory (DFT). In determining the adsorption energy values for each gas, the system was optimised. The adsorption energies were found to be -5.949 eV, -1.574 eV, -6.918 eV and -1.0234 eV for H_2O , CO_2 , NO_2 and SO_2 , respectively. It can thus be deduced that the NO_2 molecule exhibits the strongest interaction with the $Si(001)$ surface, whilst the Si surface displays the weakest interaction with SO_2 . The electron density of the full state of the system remained almost unchanged when the surface gas $Si(001)$ interacted with H_2O , CO_2 , NO_2 and SO_2 molecules, indicating its stability. The study of the mechanisms of interaction between gas molecules and $Si(001)$ surfaces has provided important fundamental results for silicon-based gas detection devices.

Kalit so'zlar: DFT hisoblashlar, $Si(001)$, holatlar zichligi, H_2O , CO_2 , NO_2 , SO_2 , VASP

Ключевые слова: расчеты DFT, $Si(001)$, плотность состояний, H_2O , CO_2 , NO_2 , SO_2 , VASP

Keywords: DFT calculations, $Si(001)$, density of states, H_2O , CO_2 , NO_2 , SO_2 , VASP

УДК 665.6/.7

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОСТАВА ДЛЯ ИНТЕНСИВНОЙ ПЕРЕРАБОТКИ НЕФТЯНЫХ ШЛАМОВ

¹Хурмаматов А.М., ¹Юсупова Н.К., ²Бердимбетов С.Б., ³Сарсенбаев Н.Т.

¹Институт общей и неорганической химии АН РУз,

²Ташкентский химико-технологический институт,

³стажёр преподаватель КГУ имени Бердаха Узбекистан, Р.Каракалтакстан, г.Нукус

Реферат. *Предпосылки проблемы.* Ежегодно на нефтеперерабатывающих заводах Узбекистана накапливается более 10 000 тонн отходов нефтяных шламов, которые могут быть использованы в качестве вторичного сырья. Качество полученного продукта зависит от состава сырья и процесса перемешивания нефтяного шлама с растворителями. Поэтому важно определить состав, т.е. количество воды, механических примесей и концентрацию тяжелых металлов. А также, важно определить параметры мешалки и получить оптимальный результат с использованием предлагаемой мешалки.

Цель. Определение количество воды, механических примесей и концентрацию тяжелых металлов в составе нефтяных шламов. Увеличение эффективности параметров перемешивания нефтяного шлама с растворителями.

Методология. Определены металлы в нефтяном шламе методом рентгеновской спектроскопии с дисперсионным излучением энергии. Была проведена серия экспериментов по определению количества воды методом Дина-Старка. Количество механических примесей в нефтяных шламах определяли путем экстрагирования нефтяных шламов в аппарате Сокслет [ГОСТ 6370-2018].

Научная новизна. Определено количество металлов в составе нефтяного шлама, определение содержания воды нефтяного шлама, а также оптимальный режим и тип растворителя для очистки нефтяных шламов от механических примесей. Изучены и выбраны оптимальные параметры процесса перемешивания нефтяного шлама и растворителя, приведены результаты влияния конструктивных параметров обычной мешалки на эффективность перемешивания и результаты влияния конструктивных параметров предлагаемой мешалки на эффективность перемешивания.

Полученные данные. Определено количество тяжелых металлов в составе нефтяных шламов Бухарского нефтеперерабатывающего завода. Результаты эксперимента показали, что содержание Pb в отходах составляет - 0,035 кг/т, Zn - 0,0225 кг/т, Ni - 0,011 кг/т, Cu - 0,004 кг/т. Определено содержание воды, нефтяной шлам содержит 26% воды. Определено количество механических примесей в составе нефтяных шламов Бухарского нефтеперерабатывающего завода. При разбавлении 1 г нефтяного шлама бензином установлено, что количество механических примесей в нем составляет 0,2366 г. Оптимальная конструкция ёмкости с мешалкой составляет при соотношении диаметра мешалки (D/d) 1,43 к диаметру ёмкости: частота вращения мешалки 60 об/мин; число лопастей – 6 шт.; эффективность перемешивания нефтяного шлама с разбавителем – 99,87 %.

Введение. Нефтяные шламы содержат в своем составе тяжелые металлы (Mn, Cr, Cu, Ni, V, Co, Fe) и имеют повышенное содержание никеля и ванадия. Фазовый состав минеральной части нефтяного шлама резервуарного типа включает следующие вещества: Al_2O_3 - 12,5%, SiO_2 - 51%, CaO - 15,3%, Fe_2O_3 - 10,0%, прочие примеси - 11,2%. Основными составляющими минеральной части нефтяного шлама являются кварцевый песок (51%), кальцит (15%), галит (18%), полевые шпаты (20%) [1-3]. Состав шлама варьируется в зависимости от его происхождения и условий хранения. Обычно он может содержать 10-30% углеводородов, 5-20% твердых частиц и 70-95% воды [4-6]. В работе [7,8] рассмотрены нефтяные шламы ряда нефтедобывающих и нефтеперерабатывающих предприятий ОАО

«НК Роснефть», определен их массовый состав и класс опасности. По приведенным результатам можно судить о том, что в подобных отходах присутствуют в широком диапазоне (9 - 80 % мас.) механические примеси, нефть и нефтепродукты (до 80 % мас.) и вода (до 60 % мас.). В процессе переработки нефти на нефтеперерабатывающих заводах образуется от 1 до 5 тонн густых нефтяных шламов. В связи с тем, что все технологии использования нефтяных шламов недостаточно эффективны, сбор нефтяных шламов осуществляется на заводах, а шламовые базы вынуждены ежедневно заполнять водой. Несмотря на то, что характеристики ила в каждом карьере различны, его состав примерно следующий: от 10% до 25% массы органического вещества; от 5% до 30% массы механических соединений; от 50% до 70% массы воды [9-11]. Нефтяные шламы имеют в своем составе различных металлов. Для определения металлов в нефтяных шламах обычно используются различные аналитические методы.

Таблица 1. Определение содержания металлов в нефтяных шламах

Методы	Характеристика методов
Атомно-абсорбционная спектроскопия (AAS):	Этот метод позволяет определить содержание металлов в образце путем измерения абсорбции света, вызванной переходом электронов металлических атомов на возбужденные энергетические уровни.
Индуктивно-связанная плазма-масс-спектрометрия (ICP-MS):	Этот метод позволяет определить содержание металлов с высокой точностью и чувствительностью. Он основан на ионизации образца в индуктивно-связанной плазме, а затем анализе масс-зарядов ионов.
Рентгеновская флуоресцентная спектроскопия (XRF):	Этот метод используется для определения элементного состава материалов путем измерения характеристического рентгеновского излучения, которое возникает при воздействии рентгеновского излучения на образец.
Индуктивно-связанная плазма-эмиссионная спектроскопия (ICP-OES):	Этот метод также основан на использовании индуктивно-связанной плазмы для ионизации образца, а затем измерении эмиссии света, которое происходит при рекомбинации электронов на различных энергетических уровнях.

Это лишь некоторые из основных методов, которые могут использоваться для определения содержания металлов в нефтяных шламах. В зависимости от конкретных требований и условий анализа могут применяться и другие методы [12].

Методы и материалы. Мы определили металлы в нефтяном шламе Бухарского нефтеперерабатывающего завода методом рентгеновской спектроскопии с дисперсионным излучением энергии. Этот метод основан на измерении рентгеновского излучения, испускаемого образцом после его облучения рентгеновскими лучами. Образец нефтяного шлама облучается рентгеновскими лучами, и измеряется энергия испускаемых рентгеновских лучей, что позволяет определить содержание металла. Этот метод менее затратный и широко используется в портативных рентгеновских спектрометрах. Преимущества метода включают его высокую чувствительность, возможность анализа как твердых, так и жидких образцов, а также отсутствие необходимости предварительной подготовки образца.

Была проведена серия экспериментов по определению количества воды методом Дина-Старка. Эксперимент длился 45 минут. Конденсированный растворитель и воду непрерывно разделяли в ловушке до тех пор, пока объем воды не переставал увеличиваться, при этом вода оставалась в градуированном отделении ловушки, а растворитель возвращался в куб. Образец хорошо перемешивали встряхиванием колбы в течение 5 минут. Высоковязкие продукты нагревали до 40-500 °С. Пробу смешанной пробы массой 100 г отбирали как чистую сухую пробу. Затем в предварительно взвешенную стеклянную колбу приливают 100 мл растворителя и содержимое перемешивают. В колбу для равномерного кипения бросают несколько стеклянных капилляров или несколько кусков пемзы или фарфора. Колба крепится к выходному патрубку приемника-ловушки тонким отрезком, а охладитель тонким отрезком крепится к верху приемника-ловушки, причем приемник-ловушка и холодильник должны быть чистыми и сухими. Чтобы предотвратить конденсацию водяного пара и воздуха, верхний торец холодильника следует закрыть ватой. Содержимое колбы нагревается электрической плитой. Перегонку проводили таким образом, чтобы из трубки-холодильника в приемник-ловушку попадало 2-4 капли в секунду. Как только объем воды в приемнике-ловушке перестал расти, нагрев прекращали и верхний слой растворителя становился полностью прозрачным. После охлаждения тестируемого продукта до комнатной температуры устройство разобрали. Если количество воды в приемнике-держателе не более 0,3 мл и растворитель мутный, то приемник помещают в горячую воду на 20-30 мин для осветления, а затем охлаждают до комнатной температуры. После охлаждения определяли объем воды в приемнике-ловушке с единичным высоким разрешением. Нами была проведена серия экспериментов по определению количества механических примесей в нефтешламах после разбавления нефтяными фракциями в течение 30-60 минут. Количество механических примесей в нефтешламах определяли путем экстракции нефтешлама в аппарате Сокслета. Аппарат Сокслета – снабжен экстрактором, круглодонной колбой и обратным холодильником. В центре устройства находился резервуар из бумаги, заполненный твердым образцом, в котором и проводилась экстракция. Растворитель нагревается до температуры кипения, испаряется и через боковой выход поступает в дефлегматор, где конденсируется и стекает в рукав, а механическая смесь отделяется путем улавливания в фильтре [ГОСТ 6370-2018].

Когда уровень жидкости в рукаве достигнет верхнего уровня сифона, рукав освобождают, раствор вещества сливают в исходную колбу и цикл повторяют. Таким образом, устройство позволяет проводить многократную экстракцию путем повторного использования относительно небольшого объема растворителя, при этом экстрагируемые вещества собираются в основной колбе. Эффективность экстракции можно дополнительно повысить, если разместить гильзу непосредственно над колбой и нагреть ее кипящими парами растворителя.

Результаты и обсуждения. В ходе исследований для определения тяжелых металлов применялся метод рентгеновской спектроскопии, а для определения нефтепродуктов - хроматография.



Рис.1. Содержание металлов в составе нефтяных шламов

Из рис.1 видно что содержание Pb в отходах составляет - 0,035 кг/т, Ni - 0,011 кг/т, Zn - 0,0225 кг/т, Cr - 0,01 кг/т, Cu - 0,004 кг/т, Mn - 0,0086 кг/т, Cd и Co - отсутствует.

Массовую долю воды $V_{\text{вес}}$, %, рассчитывали по формуле.

$$V_{\text{вес}} = \left[\frac{100 \cdot V}{G} \right] = \frac{100 \cdot 0,1}{100} = 0,1\% \quad (1)$$

где V – объем воды, собранной в держателе-сборнике, мл; G – проба нефтяного шлама, взятая на исследование, г.

Количество воды в приемнике - 0,1 мл и менее в держателе считается каплевидным. Расхождения между двумя параллельными определениями содержания воды не должны превышать одну верхнюю часть обводненной части держателя приемника.




Рис. 2. Количество воды в исследуемых нефтяных шламах

Как видно из рис. 2, обводненность фракции, полученной при перегонке нефтешламовой смеси при температуре 120 °C составляет 53,75 %, обводненность 63,16 %, дистиллят получен при температуре 140 °C. При повышении температуры процесса до 200 °C содержание воды снижается до 28,89%. Это связано с тем, что с увеличением температуры процесса дистилляции количество воды уменьшается. Из полученных фракций отделяли воду по методу Дина и Старка и подсчитывали количество воды. Так, ГОСТ 2477-65 «Нефть и нефтепродукты. По методике определения содержания воды установлено, что нефтяной шлам содержит 26% воды.

Состав механических смесей рассчитывали как среднее арифметическое значение результатов двух параллельных определений. Если содержание механических примесей не превышает 0,05 %, то это условие считают отсутствием механических примесей. Чистую фильтровальную бумагу массой 0,2712 г сушили до

постоянного веса при 105 °С. Далее навеску нефтяного шлама массой 2 г, разбавляли бензином массой 300 г. Горячий раствор пробы фильтровали через высушенный бумажный фильтр, помещенный в стеклянную воронку. Фильтрат переносили в фильтровальную бутылку и сушили в термостате в течение 1 часа. После высушивания стакан охлаждали в эксикаторе в течение 30 мин, затем взвешивали на аналитических весах. Масса фильтра после фильтрования составила 0,7444 г. Этот процесс проводился параллельно с нефтяной шламом массой 1 г, результаты исследования представлены в таблице 2.

Массовую долю механических добавок рассчитывали по следующей формуле:

$$M = \left[\frac{m_1 - m_2}{m_3} \right] \cdot 100, \quad (2)$$

где m_1 – масса фильтра после фильтрования, гр; m_2 – масса чистого фильтра, гр; m_3 – масса пробы нефтяного шлама, гр.

Таблица 2. Результаты определения количество механических примесей в составе нефтяных шламов

№ Эксперимент	Масса нефтяного шлама, гр.	Масса чистой фильтровальной бумаги, гр.	Масса фильтровальной бумаги после фильтрования, гр.	Масса выделенной механической смеси, гр.
1-Эксперимент	1 гр.	0,2712	0,5078	0,2366
2-Эксперимент	2 гр.	0,2712	0,7444	0,4732

Для облегчения отделения механических примесей от масляной суспензии 30% разбавитель и 70% масляную суспензию смешивали при температуре 60°C в течение 30-60 минут. После смешивания, разбавленный нефтяной шлам направлялся в гидроциклон для отделения твердых частиц в центробежном поле. Результаты исследований представлены на рис. 3.



Рис. 3. Результаты очистки нефтешламов от механических примесей

Как видно из рис. 3, при очистке нефтяного шлама, разбавленного 30% тяжелой нефтью (время перемешивания 30 минут), количество механических примесей в нефтешламе составило 0,132%. Этот показатель снизился до 0,12% при увеличении времени перемешивания до 60 минут и повышении температуры до 60 °С. При рафинировании 30% реформатом количество механических примесей в составе нефтяных шламов снизился до 0,06%, а при добавлении 30% легкой нефти это количество существенно уменьшилось до максимального уровня - 0,05%.

Таблица 3. Количество выделяемых фаз при разделении разбавленного нефтяного шлама

№	Вид растворителя, мл	Количество нефтяного шлама, мл	Количество растворителя, мл	Количество воды, мл	Механические примеси, гр.	Нефте продукты, гр
1	Легкая нефть	9000	1000	1950	2870	5180
2	Тяжелая нефть	9000	1000	1950	2900	5150
3	Керосин	9000	1000	1950	2960	5090

Из табл. 3 видно что, при перемешивании нефтяного шлама с растворителем легкая нефть в соотношении 90:10 объем количество нефтяного шлама 9000 мл и количество растворителя 1000 мл, в этом случае количество воды составило 1950 мл, количество механических примесей 2870 гр при этом количество нефтепродуктов составляет 5180 грамм. Во втором случае использовалась тяжелая нефть при перемешивании смеси в количестве растворителя 1000 мл на 9000 мл нефтяного шлама при разделении 1950 мл воды. Количество механических примесей в этом случае больше потому что, в тяжелой нефти растворяются меньше механических примесей чем при растворении с помощью легкой нефти. Исходя из этого можно определить что, самый подходящий растворитель это легкая нефть. Кроме растворителя на процесс переработки нефтяного шлама также влияет режимно-конструктивные параметры аппарата, т.е. геометрические размеры ёмкости с мешалкой, количества лопастей мешалки, частота вращения лопастей, длина лопастей и т.д. Диаметр ёмкости составляет 0,4 м. В табл. 4 приведены результаты влияния соотношения диаметра мешалки d (D/d) на эффективность перемешивания.

Таблица 4. Влияние конструктивных параметров мешалки на эффективность перемешивания

№	Температур, °С	Соотношения диаметра мешалки, м, (D/d)	Частота вращения, об/мин	Количество лопастей, шт.	Эффективность перемешивания, %
1	60	0,28 (1,43)	60	2	68
2	60	0,28 (1,43)	60	3	70
3	60	0,28 (1,43)	60	4	72
4	60	0,28 (1,43)	60	5	76
5	60	0,28 (1,43)	60	6	80
6	60	0,28 (1,43)	60	8	82

Из табл. 4 видно, что при соотношении диаметра ёмкости к диаметру мешалки 1,43 (D/d) и частота вращения 60 об/мин эффективность перемешивания составляет 68 %, при этом количество лопастей составляет 2 шт. При соотношении диаметра лопастей 1,34 (D/d) и частота вращения мешалки 60 об/мин, количество лопастей 3 шт., эффективность перемешивания составляло 70 %. Дальнейшее увеличение количества лопастей до 6 шт., эффективность перемешивания составляло 80 % и при количестве лопастей 8 шт. эффективность перемешивания составляет 82 %.

Нами предложена улучшенная конструкция ёмкости с мешалкой которой, имеет ось с маленькими дырочками имеющих диаметр 0,2 см. расположение этих дырочек вокруг шахматно-круговом порядке. Через этих дырочек подаётся вторичный пар выходящий из процессов. С помощью этой конструкции можно экономить энергию потраченную на перемешивания нефтяного шлама который в результате уменьшается плотность и вязкость нефтяного шлама. Так как эти свойства нефтяного шлама очень важна для разделения их на три части, т.е. органическая часть, вода, механические примеси.

Таблица 5. Влияние конструктивных параметров предлагаемой мешалки на эффективность перемешивания

№	Температура, °С	Соотношения диаметра мешалки, м, (D/d)	Частота вращения, об/мин	Количество лопастей, шт.	Эффективность перемешивания, %
1	20	0,28 (1,43)	60	2	73
2	20	0,28 (1,43)	60	3	79
3	20	0,28 (1,43)	60	4	85
4	20	0,28 (1,43)	60	5	93
5	20	0,28 (1,43)	60	6	99,87
6	20	0,28 (1,43)	60	8	99,9

Из табл. 5 видно, что при соотношении диаметра ёмкости к диаметру мешалки 1,43 (D/d) и частота вращения 60 об/мин эффективность перемешивания составляет 73 %, при этом количество лопастей составляет 2 шт. При соотношении диаметра лопастей 1,34 (D/d) и частота вращения мешалки 60 об/мин, количество лопастей 3 шт., эффективность перемешивания составляло 79 %. Дальнейшее увеличение количества лопастей до 6 шт., эффективность перемешивания составляло 99,87 % и при количестве лопастей 8 шт. эффективность перемешивания составляет 99,9 %.

Заключение. Исходя из проведенных исследований по определению и очистке механических примесей в составе нефтяного шлама, выяснилось, что при перемешивании нефтяного шлама с бензином в количестве 1 грамм, количество механических примесей в его составе составляло 0,2366 грамм соответственно. После перемешивания нефтяного шлама с 30% бензина (время перемешивания составляло 30 минут), содержание механических примесей в нефтяном шламе составило 0,13%. При увеличении времени перемешивания до 60 минут, это значение составило 0,09%. Определения содержания воды установлено, что нефтяной шлам содержит 26% воды. Определено количество тяжелых металлов в нефтяных шламах Бухарского нефтеперерабатывающего завода. Результаты эксперимента показали, что содержание Pb в отходах составляет - 0,035 кг/т, Zn - 0,0225 кг/т, Ni - 0,011 кг/т, Cu - 0,004 кг/т. Оптимальная конструкция ёмкости с мешалкой составляет при соотношении диаметра мешалки (D/d) 1,43 к диаметру ёмкости: частота вращения мешалки 60 об/мин; число лопастей – 6 шт.; эффективность перемешивания нефтяного шлама с разбавителем – 99,87 %.

ЛИТЕРАТУРЫ

- Аксанов Т.Ш. Снижение техногенной нагрузки на окружающую среду западной сибери путем утилизации нефтяных шламов газовых конденсатов. диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. Казань – 2006. 146 с.
- Кемалов А.Ф. Использование отходов нефтехимических производств для интенсификации процесса получения нефтяных битумов: автореф. дис. канд. хим. наук / А.Ф. Кемалов. – Казань, 1995. – С.15.
- Шпербер Д.Р. Разработка ресурсосберегающих технологий переработки нефтешлама. Краснодар, 2014. С. 23-25.
- Hu G., Li J., Zeng G., "Recent development in the treatment of oily sludge from petroleum industry: A review", *J. Hazard. Mater.*, 264, (2013), pp. 470-490.
- Xu N., Wang W., Han P., Lu X., "Effects of ultrasound on oily sludge deoiling", *J. Hazard. Mater.*, 171, (2009), pp. 914-917.
- Islam B., "Petroleum sludge, its treatment and disposal: a review", *Int. J. Chem. Sci.*, 13, 4, (2015), pp. 1584-1602.
- Нурабаев Б.К. Исследование состава нефтешламов // Вестник КазНТУ им. К.И. Сатпаева. 2010. N 4 (80). С. 229-230.
- Владимиров В.С., Владимиров В.С., Корсун Д.С., Карпунин И.А., Мойзис С.Е. Переработка и утилизация нефтешламов резервуарного типа. М.: Наука, 2005. 192 с.

9. Xurmamatov A.M., Yusupova N.K., Mallabayev O.T., Mirhamitova D.X. Physicochemical Properties of Light Ractions Which Released During the Distillation of Diluted Oil Sludge. Nat. Volatiles & Essent. Oils, 2021, Vol. 8(5), pp. 10688 – 10693.
10. Khurmamatov A.M., Yusupova N.K. The results of determining the fractional composition and physico-chemical properties of oil sludge. Journal "Chemical Industry", 2019, Vol.96, No.1, pp. 38-42.
11. Khurmamatov A.M., Burieva Z.R., Yusupova N.K., Mallabaev O.T. Study of physico-chemical properties of technical water of separated oil sludge. Scientific and Technical Journal of the Namangan Institute of Engineering and Technology, 2022, Vol.7, Issue 2, pp. 166-172.
12. John Wiley & Sons. Handbook of Petroleum Product Analysis. 2015, pp. 368.

Neft shlamini intensiv qayta ishlash uchun tarkibini aniqlash

Annotatsiya: Tadqiqot natijasida neft shlamidagi metallar miqdori, neft shlamidagi suv miqdori, optimal erituvchi turi va neft shlamidan mexanik aralashmalarni olib tashlash shartlari aniqlandi. Neft shلامي va erituvchini aralashtirish jarayonining optimal parametrlari o'rganildi va tanlandi. An'anaviy aralashtirgichning konstruktiv parametrlarining aralashtirish samaradorligiga ta'siri natijalari, shuningdek, tavsiya etilgan aralashtirgich parametrlarining aralashtirish samaradorligiga ta'siri natijalari taqdim etildi.

Kalit so'zlar: Neft shlam, mexanik aralashma, og'ir metall, suv miqdori, aralashtirgich.

Neft shlamini intensiv qayta islew ushin quramin aniqlaw

Annotaciya: Izertlew natijesinde neft shlamidagi metallar mu'g'dari, neft shlamidagi suw mu'g'dari, optimal eritiwshi turi ham neft shlamidan mexanik aralaspalardi alip taslaw shartlari aniqlandi. Neft shلامي ham eritiwshini aralashtirw processini optimal parametrleri uyrenildi ham ta'nlandi. A'piwayi aralashtirgishtu konstruktiv parametrlarini aralashtirw onimdarligina ta'siri natijeleri, sonday-aq, usinis etilgen aralashtirgish parametrlarinin aralashtirw onimdarligina ta'siri natijeleri usinis etildi.

Gilt so'zler: Neft shlam, mexanik aralasp, awir metall, suw mu'g'dari, aralashtirgish.

Determination of the composition for intensive processing of oil sludge

Annotation: The study identified the amount of metals in the oil sludge, the water content in the oil sludge, and the optimal solvent type and conditions for removing mechanical impurities from the sludge. Optimal parameters for the mixing process of oil sludge and solvent were studied and selected. The results of the influence of the structural parameters of a conventional mixer on mixing efficiency were presented, along with the results of the influence of the proposed mixer's parameters on mixing efficiency.

Key words: Oil sludge, Mechanical impurities, Heavy metal, Amount of water, Mixer.

GOSSIPOL VA UNING HOSILALARINING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI


Abdushukurova X.K.², Rejepov Q.J.¹, Matchanov A.D.^{1,2}, Alimbayeva Sh.B.¹, Xodjaniyazov B.A.³

¹O'zR FA Bioorganik kimyo instituti

²Guliston davlat universiteti

³Qoraqalpoq davlat universiteti

Gossipolning fizik-kimyoviy xossalari. Gossipol - tabiiy polifenol-7,7' - bis (1-formil-2,3,8-trigidroksi-4-izopropil-6-metil-naftalin) -g'o'za mevasidan olingan simmetrik binaftil dialdegid shaklidagi sariq birikma (1-rasm) [1, 2]. Gossipolning tuzilishini aniqlashga L.Marxlevskiy, F.E.Karrut, R.Adams, Ye.P.Klark, I.E.Edwards va boshqa olimlarning xizmatlari singan. Garchi gossipolning tuzilishi ustidagi izlanishlar uzoq vaqtdan beri davom etib kelgan bo'lsada, uning to'liq tuzilish formulasi o'tgan asr 50-yillarining ohiriga kelibgina o'rnatildi [3]. 1938 yilda Amerikalik olim R.Adams gossipolning strukturasi $C_{30}H_{30}O_8$ ko'rinishda belgilab, uni 2,2-bi-8-farmil,1,6,7-trigidroksi,5-izopropil,3-metilnaftalin deb nomladi [4].



1-rasm. Gossipolning tuzilish formulasi

Gossipol hozirgacha kimyogarlar, fiziologlar, biokimyogarlar, biofiziklar, tibbiyot xodimlarining diqqat e'tiboridagi mavzu bo'lib kelmoqda. Mavjud ikkita aromatik naftalinli fragmentlar, oltita gidroksil guruhlar, ulardan ikkitasi karboksil guruhiga nisbatan *orto*-holatda joylashishi, tautomer holatga o'tish qobiliyati-bularning barchasi gossipolning kimyoviy hususiyati va biologik faolligining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Gossipol molekulasining aynan polifunksionalligi uning modifikatsiyasining keng imkoniyatlarini ta'minlaydi va fiziologik faolligining keng spektrlarini tushinishga imkon beradi.

Z.Sobirov ishlarida [5] gossipol moddasining ayrim atseton bilan suv aralashmasidagi eruvchanligi quyidagi 1-jadvalda va ayrim fizik-kimyoviy konstantalari 2-jadvalda keltirilgan.

Gossipol sariq rangli kristall modda bo'lib, kristallanish sharoiti hamda kristalning tuzilishiga qarab suyuqlanish harorati 1730C dan 2140Cgacha o'zgarishi mumkin. Masalan, dixlormetandan oddiy sharoitda hosil bo'lgan kristalining suyuqlanish harorati 183-1840C ni tashkil etsa, xloroformdan hosil qilgan kristali esa 1990C da suyuqlanadi.

Atsetonning miqdori ml	Gossipolning 40°C dagi suvda eruvchanligi g/ml
60	1,165
70	9,505
80	2,155
90	97,62


Nomi	Kimyoviy formulasi	Brutto formulasi	Mr	Rangi	T _{suyuq} ⁰ C	Rf	Eruvchanlik (n.sh)da
Gp	(C ₁₄ H ₁₄ CHO) ₂	C ₃₀ H ₃₀ O ₈	518	Och sariq	181-182	0.52 0.70	Atseton DMFA DMSO

Gossipol tabiati jihatidan qutbli bo'lgan erituvchilarda yaxshiroq eriydi. Suvda gossipolning deyarli erimasligi undagi nisbatan katta hajmli bo'lgan gidroksil va metil guruhlarining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Gossipol metil, etil, propil va butil spirtlarida, etilenglikol, dioksan, atseton, dietilefir, etilatsetat, xloroform, uglerod to'rt xlorid, dixloretnan, fenol va piridinda yaxshi eriydi. Uning glitserin, siklogeksan, benzol, benzin, petrolei efiri va boshqa qutbsiz erituvchilardagi eruvchanligi juda yomon. U ba'zi moylarda (hattoki sovuqda ham) nisbatan yaxshi eriydi. Shuning uchun sanoatda yog'ni paxta chigitidan benzin bilan ekstraksiyalab ajratib olish jarayonida uning qisman mitsellaga o'tib qolishi tez-tez uchrab turadi [8].



undek, gossipolda 6 ta gidroksil va 2 ta aldegid bo'lib, bu uni metanol,


2-rasmda ko'rsatilgandek, gossipolda 6 ta gidroksil va 2 ta aldegid bo'lib, bu uni metanol, etanol, izopropanol, aseton kabi ko'pchilik organik erituvchilarda xloroform, butanol, dioksan, uglerod tetraklorid, fenol, piridin va boshqalarda eriydi. Biroq, dialkilnaftil guruhlarining mavjudligi uni suvda erimasligidan dalolat beradi, bu - modda umuman lipofil [9, 10]. Gossipol nosimmetrik va assimetrik tautomerizm bilan tavsiflanadi, ya'ni erituvchiga bog'liqligi uch xil shaklda bo'lishi mumkin: 3-rasmda aldegid (a), laktal (b) va ketol (c) [11, 12] nosimmetrik tautomerizm shakllari ko'rsatilgan.



23


Gossipolning aldegid shakli erigan qattiq holatda xloroform, benzol, dioksan, dixlorometan va shu kabi qutbsiz erituvchilarda shuningdek kislotali muhitda ustunlik qiladi. Ketol tautomeri suvli ishqoriy eritmalarda mavjud bo'ladi, neytral va kislotali erituvchilarda esa barqaror emas, u yerda aldegid shakliga o'tishi mumkin [12].

Gossipol va uning hosilalari aktiv karbonil va gidroksil guruhlarini tutgani tufayli ularning reaksiya qobiliyati ancha yuqori. Gossipol aminlar bilan osongina ta'sirlashib Schiff-asoslari hosil qiladi. Spirtlar va kislotalar bilan reaksiyaga kirishib oddiy va murakkab efirlar hosil qiladi. Agar gossipolni inert atmosferada suyuqlanish haroratidan yuqoriroq haroratgacha qizdirilsa, u o'zidan ikki molekula suv yo'qotib angidrogossipolga aylanadi. Gossipol va angidrogossipol aminlar, jumladan anilin, suyuq ammiak bilan reaksiyaga kirishib dianilin va diaminogossipol hosil qiladi va ikkovi ham oson gidrolizlanadi. Agar dianilingossipol metillansa, u holda to'q qizil rangli dimetilanilingossipol hosil bo'ladi. Bu birikmada metil guruhi azot atomiga birikkan bo'lib, gidrolizlanmaydi. Bu esa reaksiya keton forma ketganini ko'rsatadi [13].




4-rasm: Dianilingossipolning metillanishi

Keton-enol tautomeriyasining mavjudligiga yana bir isbot uning dimetilbutadiyen bilan diyen sintezi reaksiyasiga kirishishidir [13].




5-rasm: Gossipolning dimetilbutadiyen bilan diyen sintezi reaksiyasi

Gossipolning ishqoriy eritmaları havo kislorodi ta'sirida juda oson oksidlanadi, bunda eritma biroz loyqalanadi va so'ngra kuchli oksidlanish natijasida yana tiniqlashadi. Gossipol kontsentrangan ishqor eritmasi ta'sirida ikkala karbonil guruhini yo'qotib, natijaviy mahsulot sifatida apogossipol va tegishli ishqor formiati hosil qiladi:



6-rasm: Gossipolning kontsentrangan ishqor eritmasi bilan ta'siri


Gossipol kontsentrangan sulfat kislotasi ta'sirida qizil rangga bo'yaladi; temirning xlorli birikmalarini suvli eritmasida-yashil zaytunli; nikelning sirka kislotasi bilan nordon tuzida-binafsha rangga; qalay xloridida-to'q qizil rangga; surma xloridida-qizil rangga kiradi. Bu reaksiyalar gossipol uchun xarakterli hisoblanadi. Gossipol molekulasida oltita gidroksil gruppasi bo'lib, shulardan ikkitasi *orto*- holat deyiladi aldegid guruhga nisbatan, kuchli kislotasi xossasini namoyon qilish xususiyatiga ega. Shu gidroksil guruhlarini hisobiga ishqor eritmaları bilan ta'sirlashishi natijasida suvda eruvchan, lekin shu bilan bir qatorda yog'lar hamda organik erituvchilarda erimaydigan gossipolatlar deb ataluvchi tuzlar hosil bo'ladi.



7-rasm: Gossipolat tuzlar hosil bo'lishi

Ushbu reaksiyadan dastlab yog' tarkibidagi gossipol miqdorini aniqlashda foydalanilgan. Gossipolning natriyli va kaliyli gossipolatlar deb ataluvchi tuzlari sariq rangli, hatto gossipolga nisbatan to'qroq rangga ega bo'lgan moddalardir. Bu


moddalar juda ham beqaror bo'lib, hattoki juda ham kuchsiz kislotalar bo'lgan karbonat kislotasi ta'sirida gidrolizga uchrab, qaytadan gossipolga o'tadi.



8-rasm: Gossipolat tuzlarining gidrolizga uchrab, qaytadan gossipolga o'tishi


Bu reaksiya kuchli kislotalar ta'sirida ham tez borishi mumkin. Gossipolatlar deb ataluvchi tuzlar eritmalarining ortiqcha miqdordagi ishqor ta'sirida tezda oksidlanib, reaksiya natijasida eritmaning avval qorayishi, ma'lum vaqt o'tgandan keyin esa uning rangsizlanishi kuzatilgan bo'lib, Rjexin va uning shogirdlari tomonidan [14] gossipolat eritmali havoda turib qolganda hamda ular qizdirilganda gossipol tarkibidagi aldegid guruhining yo'qolishi, uning natijasida esa gossipol molekulasini uchun harakterli bo'lgan ultrabinafsha sohasida 360 nm da nur yutish intensivligi yo'qolishi kuzatilgan. Mualliflar tomonidan bunday holatning kuzatilishi Kannissaro-Tishenko reaksiyasining borishi natijasida turli xil kompleks o'zgarishlar kuzatilishi aytib o'tilgan, lekin bu holat tasdiqlanmagan.

Gossipolning tarkibida aldegid guruhi bo'lganligi sababli, tarkibida faol metilen tutgan moddalar bilan ham kondensatsiyalanish reaksiyasiga kirishadi. Masalan, gossipolning atsetosirka kislotasining efiri bilan malon kislotasining efiri kondensatsiyalanish reaksiyalari o'rganilgan [15].



9-rasm: Gossipolning atsetosirka kislotasining efiri bilan malon kislotasining efiri kondensatsiyalanish reaksiyalari

Huddi shunday ishlar professor Baram N.I. va boshqalar [16] tomonidan ham olib borilgan. Bunday maqsadda gossipol moddasining tarkibida metilen guruhi tutgan barbitur kislotasi bilan kondensatsiyalanish reaksiyasi mahsulotlari olingan. Bunday reaksiya natijasida olingan mahsulot to'q qizil rangli kukunsimon ko'rinishga ega bo'lib, kontsentrlangan H₂SO₄ ta'sirida to'q binafsha rangga bo'yalish xususiyatiga ega:




10-rasm: Gossipol moddasining tarkibida metilen guruhi tutgan barbitur kislotasi bilan kondensatsiyalanish reaksiyasi

Baram N.I. va uning hamkasblari [16] tomonidan gossipol efirlarini sintez qilingan. Wichmann va uning hamkasblari [17] esa gossipolning tetrametil va geksametil efirlarining sperma metabolizmini o'rganishgan. Baram va Ismoilov [18] gossipol va uning hosilalarining biologik faolligini ko'rib chiqdilar. Carruth [19] gossipolni birinchi bo'lib atsetillagan asetat efirlari eng ko'p qayd etilgan ammo geksabenzotat [20, 21] va geksapalmitat [22] efirlarini ham qayd etishgan, hamda 1966 yilda Correa va boshqalar [23] ularni sintez qilishgan. Jaroszewski va uning hamkasblari [24] gossipol asetilatsiyasi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarni (HPLC) YSSX preparativ usuli bilan ajratganlar. Rejepov K.J va boshqalar N-polinilpirrolidon bilan gossipol hosilasining suvda eriydigan amino kompleksini olish usuli ishlab chiqilgan va uning eng ehtimolli tuzilishini taklif qilishgan [25-32]. Abdushukurova X.K va boshqalar ragosinning glitserizin kislotasi bilan hosil qilgan suvda eriydigan supramolekulyar komplekslari sintez qilingan [33, 34]. Olingan supramolekulyar komplekslarning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi va olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: GK va gossipolning Shiff asoslari bilan supramolekulyar komplekslarining ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

t/r	Kompleks	Mol nisbatlar	Eruvchanligi	Tsuyuq, °C	Rf	Reaksiya unumi	
						Gr	%
1	GK	15:1	Suv, spirt, atseton, xloroform, geksan	218-220	0.17*	1.743	98.6
2	GK	9:1	Suv, spirt, atseton, xloroform, geksan	190-195	0.2*	1.72	93.2
3	3NaGK	15:1	Suv, spirt, atseton	220-222	0.07	0.672	70.89


*atseton:suv (3:1)



11-rasm. GK:Ragosinni (15:1) nisbatda olingan supramolekular kompleksining UB-spektri

GK ning UB-spektrida 254 nm to'liq uzunligi sohasida yutilish maksimumi kuzatilgan, ushbu yutilish maksimumi GK molekulasining «C» halqasida joylashgan karbonil guruhi bilan kon'yugirlangan holatda joylashgan qo'shbo'g' o'rtasidagi $n \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlar hisobiga hosil bo'ladi. Gossipolning Shiff asosi hosilasi - 1,1',6,6'-tetragidroksi-5,5'-diizopropil-3,3'-dimetil-7,7'-diokso-8,8'-dimetin-[4'',4''-diimino-(1'',1''-difenil-2'',2'',3'',3''-tetrametil-5'',5''-dipirazolon)]-2,2'dinaftalin (ragosin) UB-spektrida 259 nm va 260 nm sohalarida yutilish maksimumlari kuzatilib, komplekslarining UB-spektridagi yutilish maksimumlarida ragosinning yutilish maksimumlariga nisbatan «gipsoxrom», GK UB-spektrining yutilish maksimumlariga nisbatan esa qisman «bataxrom» effektlarining kuzatilishi molekular kompleks hosil bo'lishida molekular orbitallardagi elektronlar ham bevosita ishtirok etganligidan dalolat beradi.

Olingan supramolekular komplekslarning IQ spektrlari quyida keltirilgan va tahlil qilindi. 12-rasmda keltirilgan GKning Shiff asos Ragozin bilan (15:1) mol nisbatda olingan kompleksi IQ-spektridagi asosiy tebranish chastotalarining o'zgarishlarini dastlabki moddalarning spektr ma'lumotlariga taqqoslab kompleks hosil bo'lishini tahlil qilish mumkin. Jumladan GK molekulasidagi OH guruhlarining valent tebranish chastotalari 3388 sm^{-1} sohada kuzatilgan cho'qqi namoyon qilgan bo'lsa supramolekular kompleks tarkibida vodorod bog'lar hosil bo'lishida qatnashgan -OH guruhining valent tebranishlari $3450\text{--}3100\text{ sm}^{-1}$ sohada keng velka ko'rinishida namoyon buladi.



12-rasm. GK:(II) bilan 15:1 supramolekular kompleksi IQ spektri

CH₃, CH₂ guruhlarning valent tebranish chastotalari esa 2937 sm⁻¹ sohada namoyon bo'lgan, 1715 sm⁻¹ da GK molekulasidagi karboksil guruhlarining karbonil qismiga tegishli valent tebranish chastotalari kuzatilgan. GK molekulasining aglikon qismidagi C-11 da joylashgan karbonil guruhining valent tebranish chastotalari 1651 sm⁻¹ sohada intensiv holatda namoyon bo'lgan. 1456, 1387, 1213 sm⁻¹larda CH₃, CH₂, CH guruhlarining deformatsion tebranish chastotalari namoyon bo'ladi. 1167 sm⁻¹ sohada molekuladagi C-O-C hamda C-OH bog'larining deformatsion tebranish chastotalari kuzatilgan, 975 sm⁻¹ da (=CH) guruhining deformatsion tebranish chastotalari namoyon bo'lgan. Komplekslarning xarakteristik IQ spektrlari tebranishlari qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval: GK va uning uchnatriyli tuzi bilan Shiff asos Ragosinning IQ spektri xarakteristik chastotalari

№	Moddalar	IQ spektr (ν , sm^{-1})
1	GK	$\nu(\text{OH})=3388$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2978$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1708$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1653$, $\nu(\text{COO}^-)=1558$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1456$, $\delta(\text{CH})=1386$, 1213 , $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1166$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1043$, $\delta(\text{C}=\text{CH})=979$
2	GK:ragosin (15:1)	$\nu(\text{OH})=3412$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2862$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1716$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1653$, $\nu(\text{COO}^-)=1558$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1456$, $\delta(\text{CH})=1386$, 1327 , 1259 , $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1165$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1041$, $\delta(\text{C}=\text{CH})=981$
3	GK:ragosin (9:1)	$\nu(\text{OH})=3749$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2978$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1718$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1653$, $\nu(\text{COO}^-)=1588$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1456$, $\delta(\text{CH})=1330$, 1215 , $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1170$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1041$, $\delta(\text{C}=\text{CH})=981$
4	Uch natriyli GK:ragosin (15:1)	$\nu(\text{OH})=3734$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2949$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1700$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1456$, $\nu(\text{COO}^-)=1409$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1361, 1288$, $\delta(\text{CH})=1211$, $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1161$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1041$, $\delta(\text{C}=\text{CH})=981$

GK molekulasidagi OH guruhlarining valent tebranish chastotalari 3404 см^{-1} da, kompleksda esa 3318 см^{-1} sohada namoyon bo'lgan. OH guruhlarining valent tebranish chastotalari 86 см^{-1} ga farq qilishi hamda keng “yelka” ko'rinish hosil qilganligi kompleks hosil bo'lishida vodorod bog'laring hissasi borligidan dalolat beradi. GK molekulasining aglikon qismidagi (C-11) karbonil guruhining valent tebranish chastotasi 1651 см^{-1} kuzatilgan, kompleksda u 1615 см^{-1} da namoyon bo'lib, 36 см^{-1} farq qilganligidan kompleks hosil bo'lishida karbonil guruhlarining ham ishtroki mavjud deb xulosa qilish mumkin. Birinchi marta gossipolning glitsirizin kislotasi (GK) va uning uchkaliyli tuzlari bilan bilan (1:9 va 1:15) molyar nisbatlardagi suvda eruvchan supramolekular komplekslarini olindi va ularning ayrim fizik-kimyoviy xarakteristikalari hamda spektral xususiyatlari o'rganilgan.

Xulosa. Shunday qilib polifenol birikma gossipol va uning asosida olingan birikmalarning kimyoviy xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, sintez qilib olingan gossipolning hosilalari, Schiff asoslari ko'pchiligi suvda yomon erishi natijasida ularning biologik faolliklari qisman chegaralangan. Shuning uchun xam gossipol va uning hosilalarining suvda eruvchan shakllari olindi hamda ularning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Suvda eruvchan hosilalarini olishda shirinmiya ildizi asosiy ta'sir qiluvchi moddasi glitsirizin kislotasi va uning tuzlari “mehmon-mezbon” tipidagi supramolekulyar komplekslar olishda asosiy kompleks hosil qiluvchi sifatida ahamiyati ko'rsatib berildi.

ADABIYOTLAR

1. Kenar J.A. Reaction chemistry of gossypol and its derivatives // J. Am. Oil Chem. Soc. 2006, 83, 269-302.
2. Юнусова С.Г., Назарова И.П., Гусакова С.Д., Глушенкова А.И. Липидный состав семян инфицированного вилтом хлопчатника // Химия природ. соедин. 1980. С. 319.
3. N.S. Ilkevych, B. Brzezinski, G. Schroeder, V.I. Rybachenko V.I., C.Ju. Chotiy, R.A. Makarova and A.F. Dmitruk. The structure and physicochemical properties of gossypol and its imine derivatives // Functionalized molecules - synthesis, properties and application” Edited by V.I. Rybachenko. Donetsk. 2010. P. 9-43.
4. Иванченко В.А., Зацепин В.М., Иванченко И.В. и др. Информационно-аналитическое обеспечение научных исследований по проблемам химической безопасности // Химическая и биологическая безопасность, 2008, №5-6. С. 24-35.
5. Собиров З. Переработка хлопковых семян методом двукратной экстракции // Диссертация на соис. канд.хим.наук. Тошкент, 1962.
6. Назарова И.П., Ульченко Н.Т. Заборская И.Н., Глушенкова А.И. Продукты изменения госсипола в метаноле // Химия природ. соедин. 1988. №4. С. 590.
7. Зияев Х.Л., Барам Н.И., Ходжаниязов Б., Камаев Ф.Г., Бектемиров Л., Джурабекова А.И., Исмаилов А.И., Госсипол, его производные и их комплексы в растворах // Химия природ. соедин. 1998. № 1. 52.
8. Барам Н.И., Зияев Х.Л., Исмаилов А.И., Зиямов Ю.С., Магнугова А., Новые азопроизводные госсипола // Химия природ. соедин. 2000. 145.
9. Зияев Х.Л., Камаев Ф.Г., Барам Н.И., Биктемиров Л., Исмаилов А.И. Новые имины госсипола // Химия природ. соедин. 1997. №5. 703.
10. Sampath D.S., Balaram P. Resolution of racemic gossypol and interaction of individual enantiomers with serum albumins and model peptides // Biochimica et Biophysica Acta. -1986 (882). -P. 183-186.
11. Xi Wang, Cheryl Page Howell, Feng Chen, Juanjuan Yin, and Yueming Jiang. Gossypol-A Polyphenolic Compound from Cotton Plant // Advances in Food and Nutrition Research. -2009. -Vol. 58. -P. 215-263.
12. Stipanovich R.D., Bell A.A. and Howell C.R. Spectral Identification of the Ketol Tautomer of Gossypol // National Cotton Pathology Research. - 1973. - Vol. November. -P. 462-463.
13. Ibragimov B.T., Tiljakov Z.G., Beketov K.M., Talipov S.A. Polymorphism of Inclusion Complexes and Unsolvated Hosts. I. Trimorphism of the host-guest complex of gossypol with dichloromethane. The structure of the α -phase // Inclusion Phen.Molec. Recognition. 1997. -V. 27. - P.99-104.
14. Маркман А.Л., Ржехин В.П. Госсипол и его производные // М.: Пищ. пром-ть. 1965. С. 250.
15. Edwards J. D. Total synthesis of gossypol // American Chemical Society. 1958. – 80. - P. 3798-3799.
16. Baram, N.I., A.I. Ismailov, and A.S. Sadykov, Reaction of Gossypol Tetramethyl Ether with Epichlorohydrin // Zh. Org. Khim. 3:777-778 (1967).
17. Wichmann, K., T. Krusius, R. Sinervirta, J. Puranen, and J.Janne, Studies on Structure-Activity Relationship of Gossypol, Gossypol Ethers and Three Naphthaldehydes in the Inhibition of Spermatozoal Metabolism, Contraception 33:519-528 (1986).
18. Baram, N.I., and A.I. Ismailov. Biological Activity of Gossypol and Its Derivatives // Chem. Nat. Compd. 29:275-287 (1994).
19. Carruth F.E. Contribution to the Chemistry of Gossypol, the Toxic Principle of Cottonseed // Ibid. 40:647-663 (1918).
20. Clark E.P. Studies on Gossypol. I. The Preparation, Purification, and Some of the Properties of Gossypol, the Toxic Principle of Cottonseed // J. Biol. Chem. 75:725-739 (1927).
21. Miller R.F., D.J. Butterbaugh and R. Adams. Structure of Gossypol. II. Acylation // J. Am. Chem. Soc. 59:1729-1731 (1937).
22. Gil'tburg V.E. Preparation of Gossypol Hexapalmitate // Masloboino Zhirovye Delo 12:546-547 (1936).
23. Correa O.G., H.M. Cappi, M. Salem, and C. Staffa, New Gossypol Derivatives // J. Am. Oil Chem. Soc. 43:678-680 (1966). Clark, E.P., Studies on Gossypol. IV. Apogossypol // J. Biol. Chem. 78:159-166 (1928).
24. Jaroszewski, J.W., C. Cornett, and T. Strom-Hansen, Gossypol, in NMR Spectroscopy in Drug Resarch // Proceedings of the Alfred Benzon Symposium 26, edited by J.W. Jaroszewski, K. Schaumburg, and H. Kofod, Munksgaard, Copenhagen, 1988, pp. 75-100.
25. Режепов К.Ж., Зияев Х.Л., Алимбаева Ш.Б. Получение, физико-химическая характеристика водорастворимого комплекса производного госсипола // Химия растительного сырья. 2022. №4. С. 277-282. <https://doi.org/10.14258/jcprm.20220410648>
26. Режепов К.Ж., Алимбаева Ш.Б. Госсипол и его производные: синтез, модификация и структура // Химия растительного сырья. 2023. №1. С. 135-143. <https://doi.org/10.14258/jcprm.20230110881>
27. Rezhepov K.Zh., Alimbayeva Sh.B. Complexes of water-soluble local plant polyphenol derivatives and their biological activity // Химия растительного сырья. 2024. №1. С. 169-176. <https://doi.org/10.14258/jcprm.20240112023>
28. Режепов К.Ж., Алимбаева Ш.Б. Химическая модификация и биологическая активность природного полифенола-госсипола // Химия растительного сырья. 2024. №4. С. 353-360. <https://doi.org/10.14258/jcprm.20240413284>

29. Maksim Ionov, Nataliya V. Gordiyenko, Izabela Zukowska, Elmira Tokhtaeva, Olga A. Mareninova, Nina Baram, Khairulla Ziyaev, Kuralbay Rezhepov, Maria Zamaraeva. Stability and antioxidant activity of gossypol derivative immobilized on N-polyvinylpyrrolidone // International Journal of Biological Macromolecules. 51 (2012) 908-914. <http://dx.doi.org/10.1016/j.ijbiomac.2012.08.005>
30. Ибрагимов Э.Б., Жумаев И.З., Бобоев С.Н., Усманов П.Б., Режепов К.Ж., Алимбаева Ш.Б. Положительное инотропное действие растительных полифенолов на сократительную активность папиллярных мышц сердца // Инфекция, иммунитет и фармакология. 2022. №4. С. 95–101.
31. Тохинова М.Х., Иномжонов Д.Р., Алимбаева Ш.Б., Омонтурдиев С.З., Гайибов У.Г., Режепов К.Ж., Арипов Т.Ф. РК-2 полифенолини каламуш аорта препаратига релаксант таъсири. Инфекция, иммунитет и фармакология // 2023. №2. С. 217-224. Ташкент. ISSN 2181-5534.
32. Yakubova N.Kh., Rezhepov K.Zh., Saydullaeva Kh.T., Ziyaev M.A., Esanov R.S., Gafurov M.B. Synthesis of new gossypol derivatives with some amines. Universum, M., 2021, 1(79), Pp. 14-20. Scopus. <http://dx.doi.org/10.32743/UniChem.2021.79.1> <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/11160>
33. Абдушукурова Х.К., Режепов К.Ж., Эсанов Р.С., Матчанов А.Д. Глицирризин кислотаси билан 1,1',6,6'-тетрагидроксидиизопротил3,3'-диметил-7,7'-диоксо-8,8'-диметин-[4", 4"-диимино-(1", 1"-дифенил2", 2", 3",3"-тетраметил-5",5"-дипиразолон)]-2,2'-динафталиннинг супрамолекуляр комплексларини олиш // №1/2023 Узбекский Научно-технический и производственный журнал. Композиционные материалы. Ташкент. 2023. С. 25.
34. Матчанов А.Д., Абдушукурова Х.К. Госсипол ва унинг иминохосилаларининг глицирризин кислотаси билан супрамолекуляр комплексларини олиш // SVPUaMO`MM Ta`lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari: Muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 10-11-iyun.

Annotatsiya. Gossipol-murakkab polifenol birikma bo'lib, g'o'za barglari, poyalari, ildizlari va urug'larining kichik hujayralararo pigment bezlarida joylashgan tabiiy ravishda paydo bo'ladigan, yorqin rangga ega sariq pigment ko'rinishidagi modda. Gossipol g'o'zaning zaharlilikini oshiradi va shuning uchun u texnologik komponent sifatida qaralgan. Faqatgina uning o'simtaga qarshi xususiyatlari va erkaklarning bepustligi uchun samaradorligi aniqlangandan so'nggina, gossipol foydali fiziologik va kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan paxta urug'idan tayyorlangan qo'shimcha qiymatga ega tabiiy mahsulot sifatida qaraldi. Bu tasodifiy kashfiyotlar fanda katta burilish yasadi va tadqiqotlar tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun mos ravishda gossipol hosilalarini olishga qaratildi. Ushbu sharhimizda avvalo gossipol, uning stereokimyosi, tautomeriyasi va gossipol molekulasini ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli xil reaksiyalar haqidagi zamonaviy bilimlarni umumlashtiradi. Gossipol tuzilishi, xossalari bilan bir qatorda Shiff asoslarining sintezi va xususiyatlarini, ayniqsa gossipolning ba'zi Shiff asoslarining miqdoriy va tarkibiy tahlil orqali yoritilgan. Sharhimizning maqsadi bakalabr va magistr talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

ТОҚЫМАШЫЛЫҚТАҒЫ ҚОСЫМША ЗАТЛАР ИНОВАЦИЯСЫ

Турманов И., Муратбаева К., Жуманиязова А., Базарбаев С.

Қарақалпақ мамлекетлик университети

Тоқымашылықтағы қосымша затлар бөлімі тийкаргыларының биреуи болып, хәм жоқары дәрежеде өзінин жақсы хызметі, сондай ақ, ең баслысы дүньяға белгили примум-класс продукциясы менен өзін көрсетеди. Булар полиамидти ақырғы ислеў, сарғайыўдан кутқарыў, техникалық тоқыма хәм цифралы печать ушын қурал болып табылады. Бир неше жыл бурын Россияның «Чиммер и Шварц» компаниясының тийкаргы бағдарды тоқыманы ақырғы ислеўде традициялық технологияға қаратқан еди. Таза мың жыллықтың басында компания таза базарға табыслы түрде шығып, экологиялық норма хәм стандартқа толық сәйкес келетуғын цифралы печаттан, техникалық хәм функциональ тоқымаға дейин иследи. Искерлигин кеңейтиуиниң баслы бағдары өз қурамына 2013 жалы күшли химиялық компанияны қосып алыўы болды. Атақлы тәмийинлеушиниң тоқымаларға, гилемлер, тоқыма емес материалларға ақырғы ислеў берийде арнаўлы химикатларды жеткерип берийи, компанияның жағдайын әдеуир жақсылайды. Талаптың артыўына байланыслы 2011 жылы өндирис хәм лаборатория майданлары 50 процентке артады.

Беккемлеўши қураллар бойынша бугинги күнде «Чиммер и Шварц» компаниясы полиамид материалды ақырғы ислеў бойынша, ақырғы қайта ислеўге бейимлескен дүньядағы көпшилик компаниялар оған жолығады. *Зетесал* сериясындағы затлар жәрдемінде буйымды жуўыўда түстин анықлығын, тураклылығын күшейтеди. Бул сериядан дурыс сайлап алынған араласпа жәрдемінде беккемлеуши қуралдың аҳмийети хәм диопозоны (шегарасы) кеңейди.

Сарғайыўға қарсы гүрес бойынша *Протелан* аты менен шығатуғын продукта түстин тереңлигин хәм айрықша ақ түсти тәмийинлеуге кепиллик берип, кең түрде сайлап алыўға мүмкиншилик туўдырады. Бул продукталар барлық өндирис процессине хәм гезлеме типине, айрықша полиамидтиң лайкра менен араласпасына жақсы ислетиледи. *Протелан* өндирис процессин тежеўди жақсылаўға хәм ақырғы тутыныўшының барлық талабына сәйкес келетуғын жоқары сападағы гезлемени алыўға мүмкиншилик береді.

Техникалық базардағы артықмашылық бойынша *Трипле Фреш ССГЕ*- продуктасы ультрафиолетти пайдаланбастан аммиактың, никотинниң, формальдегидтиң қолайсыз ийисин жоғалтады. Ол тоқымашылық хәм

тоқымашылық емес заттарға таза ийис беріуде қолланылады. Таза продукта *ЗС-Микросилверде* айрықшалыққа ийе. Ол антибактериал қурал болып, микро дәрежеде ислейди, хәм териге гумистін адсорбцияланыуынан (киріуінен) сақлайды.

Келешек базарына айрықша дыққат аудару бойынша техникалық тоқымашылықтан басқа да санлы печать технологиясын пайдаланыуға үлкен дыққат аударылып, келешектегі рауажланыуға унамлы тәсирин тийгизеди. Хәзирги ўақытта санлы технология ушын түстің анықлағы хәм беккемлигиниң тереңлиги, ашықлық, шегараның анықлығы бойынша клиентлерге кепиллик береді. *Диамонтех-* продуктасы табыссы шығарылып, бул система кәлеген түрдегі талалар ушын санлы печатты отырғызыуға қолайлы. Тоқыманың хызметин арттырыуға продукталарды жақсылау хызметі дауам етпекте, мысалы, ығаллықты басқарыу, оттан қорғау хәм ийисти азайтыу.

Экологиялық стандартлар бойынша компаниялардың ең аңмийетли көз қарасының биреуи қоршаған орталыққа бейімлесіу, бул тоқымашылық санаатын экологиялық жақтан қайта құрыу. Жаңа технология энергия дереклерін тежеу хәм қоршаған орталыққа уўлы затлардың шығыуын азайтыу мақсетинде өндирис процессин қысыуға алып келеді. *Чиммер Шварц* компаниясы бундай мүмкиншиликке *ЕкоДиа* технологиясы жәрдеминде еристи. Бул процесс қайнатыу, бояу хәм ақырғы ислеулерди бир ваннада орылап, ўақытты, суўды әдеуір дәрежеде тежеуге мүмкиншилик туўдырады. Төмен температурада ағартыу технологиясы да жақын ўақытларда базарда өзиниң тынақлы орнын ийелейди. Кәлеген жағдайға байланыссы ағартыу температурасын 30-40 градусқа төменлетиуға болады, сондай ақ углерод диоксидиниң шығыуын азайтыу менен қоршаған орталықтың зиянланыуын әдеуір кемейтеди. Өндирис процесслеринде қолланылатуғын *Чиммер Шварц* компаниясының барлық өнімлері сертификацияның барлық нормаларына сәйкес келеді.

Технология хәм инновациядағы инвестиция тарауында барлық таза затларды ислеп шығарыу хәм қолайластырыу компанияның ең жаңа техникасы менен қуралланған лабораториясында әмелге асырылады. Соңғы жыллары техникалық тоқымалардың устине керекли өнерлер тусириуши хәм санлы печатлар ушын ускенелер алынған. Қәнийгелерди оқытуға да көп ғарежет ажыратылған. *Чиммер Шварц* компаниясының тоқыма-қосымша қураллары көп жыллар дауамында өзін исенимли етип көрсеткен жоқары немецлик сападағы премиум-класс заты болып табылады. Компанияның девизи: Егер биринши ретте дұрыс болса - онда хәмме ўақытта дұрыс.

Тениз водорослынан исленген гезлемелер инновациялық тапқырлық болып, немецлердин *Smart fiber* компаниясы *Sea Cell* материалын тенгиз водоросли тийкарында экономикалық таза гезлеме алады.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Назарова Ю. В. Попова В.В. Инновационный текстиль. Основные виды и область применения. Московский Государственный Университет. Вестник № 10 2016 г. 5с.
2. Буданова Г. Н. Ролдугина А.Е. Подрывные инновационные технологии текстильной промышленности. Успехи современного естествознания. 2015, № 1-3. С.468-471;
3. Бост Ф., Кросетто Г. Инновационный текстиль и активные материалы. Международный научно-исследовательски журнал № 10, 2014. С. 22-33;
4. Малая Т.Г. Инновационные технологии в современном дизайне костюма. Ж. Фундаментальные исследования. 2015. № 2, с.3935-3939

Аннотация; Россияның «Чиммер хәм Шварц» компаниясының тийкаргы бағдарды тоқыманы ақырғы ислеуде традициялық технологияға қаратқан. Сарғайыуға қарсы гүрес бойынша Протелан аты менен шығатуғын продукта түстин тереңлигин хәм айрықша ақ түсти тәмийинлеуге кепиллик берген. Экологиялық стандартлар бойынша компаниялардың ең аңмийетли көз қарасының биреуи қоршаған орталыққа бейімлесіу, бул тоқымашылық санаатын экологиялық жақтан қайта қурыу. Чиммер Шварц компаниясының тоқыма-қосымша қураллары көп жыллар дауамында өзін исенимли етип көрсеткен жоқары немецлик сападағы премиум-класс заты болып табылады.

Гилт созлер; стандарт, сар2аиыу, базар, санлы печать, технологиялық процесс, инновациядағы инвестиция, экология.

Аннотация; Российская компания "Химмер да Шварц" адаптировала текстиль к традиционным технологиям. Продукт, выпускаемый под названием protelan, гарантированно обеспечит глубину шелковицы и особенно белой шелковицы. Наиболее сознательный подход компаний к экологическим стандартам-это забота об окружающей среде, которая способствует экологическому восстановлению текстиля. Текстильное оборудование компании chimmer Schwarz-это высококачественное текстильное оборудование немецкого качества, которое зарекомендовало себя на протяжении многих лет .

Ключевые слова; Сандарт, пожелтеть, базар, числовая печать, технологический процесс, инвестиция в инновации, экология.

Abstract; The Russian company Himmer da Schwartz has adapted textiles to traditional technologies. The product, produced under the name protelan, is guaranteed to provide the depth of mulberries and especially white mulberries. The most conscious approach of companies to environmental standards is to take care of the environment, which contributes to the ecological restoration of textiles. Textile equipment from zschimmer Schwarz is a high-quality German textile equipment that has proven itself over the years.

Key words; standard, turn yellow, bazaar, numerical printing, technological process, investment in innovation, ecology.

УДК 665.1.7: 66-9

СУЮҚ УГЛЕВОДОРОД ОҚИМЛАР КИНЕМАТИК ҚОВУШҚОҚЛИГИНИ ҲАРОРАТ ЎЗГАРИШИГА ТАЪСИРИ

¹Исмаилов О.Ю., ²Абдурахманов М.И., ³Сарсенбаев Н.Т.

¹ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти

²Наманган муҳандислик-технология институти

³Бердақ номидаги ҚДУ стажёр-ўқитувчи Ўзбекистон, Р. Қорақалтоғистон, Нукус

Технологик жараёнларда қовушқоқ массани қайта ишлашда ҳамиша кўп энергия ва вақт сарфланади. Шу сабабдан, уларга бирламчи иссиқлик ишлови бериш орқали қовушқоқлиги пасайтирилиб, гидродинамик режим параметрлари яхшиланади. Бу эса суюқ углеводородларни технологк қувурлар орқали ҳаракатланишини яхшилаб жараёндаги гидравлик қаршиликлар таъсирни камайтиради. Натижада, жараёнга сарфланаётган энергетик харажатларни юқори кўрсаткичларда бўлмаслигини олдини олади [1, 2]. Қовушқоқлик - нефть ва нефть маҳсулотлари сифатининг энг муҳим кўрсаткичларидан бири бўлиб, у углеводородларнинг таркибий тузилиши, яъни уларнинг табиати ва аралашма таркибидаги энгил углеводородлар улуши билан фарқланади [3, 4]. Маълумки, углеводород хомашёсининг қовушқоқлиги молекуляр оғирлиги ортиши ва қайнаш ҳароратини кўтарилиши билан ошиб боради. Бироқ ҳароратнинг ортиши билан суюқ углеводородларнинг кинематик ва динамик қовушқоқликлари пастлаб боради. Уларнинг қовушқоқлиги қанча паст бўлса, уларни ташиш ва қайта ишлаш шунча самарали бўлади [5]. Нефтни фракцияларга ажратиш колоннасида (ректификацион колонна) узатишдан олдин хомашёга бирламчи иссиқлик ишлови бериш мақсадида иссиқлик алмашиниш қурилмалари тизимлари ёрдамида маълум бир ҳароратгача қиздирилади. Қиздириш жараёнида оқимнинг кинематик қовушқоқлигининг юқорилиги бошланғич босқичда ишлаётган иссиқлик алмашиниш қурилмаларида самарадорлигини пасайтиради ва қурилмада хомашёни ҳайдаш учун сарфланаётган энергияни ортишига ва иссиқлик алмашиниш ҳароратини етарлича таъминланмаслигига сабаб бўлади. Ушбу омилларни бартараф этишнинг турли кимёвий йўллари мавжуд бўлиб, улар маҳсулот сифатига таъсир этиши билан бирга қўшимча харажатларни келтириб чиқаради [6]. Талиф этилаётган рециркуляция (оқим бир қисмини бошланғич оқимга қайтариш) қилиш орқали қувурли иссиқлик алмашиниш қурилмасида қиздирилаётган хомашё оқимнинг бир қисмини рециркуляция қилиниши натижасида қурилмага узатилаётган углеводород оқимининг ҳажмий сарфининг V ортиши, оқим тезлигини ω ошишига ва қиздирилган оқимни маълум бир қисмини бошланғич (паст ҳароратдаги) оқимга келиб қўшилиши натижада кинематик қовушқоқлик коэффиценти ν камаяди. Рейнольдс сонини ортиши билан конвектив иссиқлик узатиш самарадорлиги ва иссиқлик алмашиниш қурилмасидан чиқаётган аралашманинг ҳарорати ортади [7]. Углеводород хомашёси оқимининг режали ўзгариши қурилмаларда унинг ҳаракатининг турли гидродинамик режимларини ўрнатилишини таъминлайди. Тажрибалар мобайнида қурилмадаги аралашманинг ҳажмий сарфи $V = 2,0 \div 2,6 \cdot 10^{-3} \text{ м}^3/\text{с}$, унинг қувурдаги ҳаракат тезлиги эса $\omega = 0,063 \div 0,828 \text{ м/с}$ оралиғида ўзгариб борди [4].

Нефть ва газ конденсати оқимининг бир қисмини рециркуляция қилиш орқали қўш қувурли иссиқлик алмашиниш қувирида иситилаётган оқимнинг охириги ҳароратини ортишига таъсирини ўрганиш борасида олиб борилган тажриба натижалари 1 ва 2 - жадвалларда келтирилган.

1-жадвал. Нефть оқими рециркуляция улушининг ҳарорат ўзгаришига таъсири

Рециркуляция ҳажми, %	Ҳажмий сарф $V, \text{ м}^3/\text{с}$	Оқим тезлиги $\omega, \text{ м/с}$	Кинематик қовушқоқлик $\nu, \text{ мм}^2/\text{с}$	Рейнольдс сони, Re	Ҳароратнинг ўзгариши		Ҳароратлар фарқи
					t_6	t_0	
0	0,0002	0,63	4,66	2709	20	58	-
10	0,00022	0,701	4,64	3015	21	60	2
20	0,00024	0,764	3,97	4010	23	65	7
30	0,00026	0,828	3,9	4246	25	69	11

Нефть оқими $10 \div 30$ % қисмини рециркуляция қилиш натижасида қурилмадаги иссиқлик алмашиниш жараёнини самарадорлигини ошириш борасида олиб борилган тажрибалар шуни кўрсатадики, нефтнинг иссиқлик алмашиниш қурилмасига берилаётган бошланғич ҳажмий сарфи $V = 0,0002 \text{ м}^3/\text{с}$, оқим тезлиги эса $\omega = 0,63 \text{ м/с}$, оқимнинг қувурдаги ҳаракати ўтиш режимида ($Re = 2709$) бўлиб, қиздирувчи агент (газ конденсати) нинг ҳарорати 100°C бўлганда, иситилаётган оқим $t_6 = 20^\circ\text{C}$ дан $t_0 = 58^\circ\text{C}$ гача кўтарилиши аниқланди. Қиздирилган оқимнинг 30 % қисмини рециркуляция қилиш натижасида нефтнинг ҳажмий сарфи $0,00026 \text{ м}^3/\text{с}$, бошланғич ҳарорати 5°C га ортиши натижасида нефть оқимининг қурилмага киришдаги кинематик қовушқоқлиги 19 % га камаяди. Натижада, қувурдаги оқим тезлиги $0,828 \text{ м/с}$ га, Рейнольдс сони 4246 ва оқимнинг қурилмадан чиқишдаги ҳарорати 69°C гача кўтарилади. Қиздирилаётган нефтнинг бошланғич ҳарорати кўтарилиши билан нефтни назорат тажрибасига нисбатан ҳароратининг 11°C ортади.

2-жадвал. Газ конденсати оқими рециркуляция улушининг ҳарорат ўзгаришига таъсири

Рециркуляция ҳажми, %	ҳажмий сарф $V, \text{ м}^3/\text{с}$	Оқим тезлиги $\omega, \text{ м/с}$	Кинематик қовушқоқлик $\nu, \text{ мм}^2/\text{с}$	Рейнольдс сони Re	Ҳароратнинг ўзгариши		Ҳароратлар фарқи $^\circ\text{C}$
					t_6	t_0	

0	0,0002	0,63	0,65	19384	20	73	-
10	0,00022	0,701	0,65	21569	22	75	2
20	0,00024	0,764	0,59	25898	24	81	8
30	0,00026	0,828	0,57	29052	26	88	13

2-жадвалда келтирилган тажриба натижаларидан, газ конденсатининг ҳажмий сарфи дастлаб ўтказилган тажрибаларга мос равишда, $0,2 \div 0,26 \cdot 10^{-3} \text{ м}^3/\text{с}$, оқим тезлиги эса $0,63 \div 0,828 \text{ м/с}$ оралиқларида, оқимнинг гидродинамик режими турбулент бўлган ҳолатда ($19384 \div 29052$) ўтказилди. Жараёнда хомашё қовушқоқлигининг ҳисобланган кинематик коэффициенти қиймати, ҳароратга мос равишда, $\nu = 0,65 \div 0,57 \text{ мм}^2/\text{с}$ чегарада пастлаб борди. Ушбу кўрсаткичларнинг ўзгариши рециркуляция улушининг ортишига мос равишда эканлиги кузатилади. Қиздирилган хомашё ҳарорати, оқимнинг рециркуляцияланиш улушидан келиб чиқиб, 73 дан то 88°C гача, яъни 13°C га кўтарилди.

Олинган натижалар таҳлилидан шуни хулоса қилиш мумкинки, иссиқлик алмашиниш қурилмаларида қиздирилаётган углеводород оқимлари $10 \div 30\%$ оралиғида рециркуляция қилиш орқали бошланғич оқим ҳарорати ўртача 5°C га кўтарилади ва натижада унинг кинематик қовушқоқлиги 19% пастлашига эришилади. Бунда оқимнинг гидродинамик кўрсаткичларини яхшиланиши орқали қурилмадан чиқаётган оқим ҳароратини қўшимча тарзида $11 \div 13^\circ\text{C}$ гача ошириш имконияти яратилади. Бу эса кейинги босқичларда ишлатилаётган технологик қурилмалардаги иссиқлик юкламаларини камайтириш имконини беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Скобло А.И., Молоканов Ю.К., Владимиров А.И., Щелкунов В.А. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии: Учебник для вузов. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ООО «Недра-Биз.центр». 2000. - 663 с.
2. Интенсификация тепло- и массообмена в энергетике// Дзюбенко Б.В., Кузма-Кичта Ю.А., Кутепов А.М. и др. - М.: Торус Пресс, 2002. - 200 с.
3. Салимов З.С., Исмаилов О.Ю., Сайдахмедов Ш.М. Повышение эффективности теплообмена путём оптимизации гидродинамических режимов нефтегазоконденсатных потоков в горизонтальной трубе// Научно-технический журнал «Нефтепереработка и нефтехимия». Москва: 2015, №12. – С. 48-53.
4. Исмаилов О.Ю., Хурмамаев А.М., Худайбердиев А.А. Влияние рециркуляции потока на интенсивность теплообмена в двухтрубчатом аппарате// Научно-технический журнал «Нефтепереработка и нефтехимия». Москва. – 2018. – №5. – С. 39-42.
5. Хурмамаев А.М., Исмаилов О.Ю., Худайбердиев А.А. Гидродинамика нагревания углеводородного сырья в трубчатых теплообменниках. Монография. ИОНХ АН РУз. - Ташкент: Navroz, 2019. - 110 с.
6. Исмаилов О.Ю. Влияние рециркуляции потока на интенсивность теплообмена// Республиканская научная конференция молодых ученых «Высокотехнологические разработки в производстве» 14 декабря 2016 г. –Ташкент. – С. 14.
7. Салимов З.С., Исмаилов О.Ю., Абдурахмонов О.Р. Влияние гидродинамических режимов нефтегазоконденсатных смесей на эффективность теплообмена// Материалы VIII-Международной научно-технической конференции горно-металлургического комплекса: достижения, проблемы и современные тенденции развития. 19-21 ноября 2015 г. – Навои. – С 307-309.

Суюқ углеводород оқимлар кинематик қовушқоқлигини ҳарорат ўзгаришига таъсири

Аннотация. Тадқиқот ишида иссиқлик алмашиниш қурилмаларида қиздирилаётган углеводород оқимлари бир қисмини рециркуляция қилиш орқали хомашёнинг қурилмадан чиқиш ҳароратини ўзгариши борасида олиб борилган тажриба натижалари келтирилган. Углеводород оқимлари $10 \div 30\%$ оралиғида рециркуляция қилиш орқали бошланғич оқим ҳарорати ўртача 5°C га кўтарилади ва натижада унинг кинематик қовушқоқлиги 19% пастлашига эришилади. Бунда оқимнинг гидродинамик кўрсаткичларини яхшиланиши орқали қурилмадан чиқаётган оқим ҳароратини қўшимча тарзида $11 \div 13^\circ\text{C}$ гача ошириш имконияти яратилади.

Калит сўзлар: нефть, газ конденсати, углеводород оқимлари, рециркуляция, ҳарорат, кинематик қовушқоқлик.

Аннотация. В научной работе представлены результаты эксперимента по изменению температуры сырья на выходе из аппарата путем рециркуляции части потоков углеводородов, нагретых в теплообменных аппаратах. При рециркуляции потоков углеводородов в диапазоне $10 \div 30\%$ начальная температура потока повышается в среднем на 5°C , что приводит к снижению его кинематической вязкости на 19% . В этом случае за счет улучшения гидродинамических параметров потока можно дополнительно повысить температуру потока на выходе из устройства до $11 \div 13^\circ\text{C}$.

Ключевые слова: нефть, газовый конденсат, углеводородные потоки, рециркуляция, температура, кинематическая вязкость.

Abstract. The research paper presents the results of experiments on the change in the temperature of the raw material leaving the device by recirculating a part of the hydrocarbon streams heated in heat exchange devices. By recirculating hydrocarbon streams in the range of $10 \div 30\%$, the initial stream temperature increases by an average of 5°C , and as a result, its kinematic viscosity decreases by 19% . In this case, by improving the hydrodynamic parameters of the stream, it is possible to additionally increase the temperature of the stream leaving the device by $11 \div 13^\circ\text{C}$.

Key words: oil, gas condensate, hydrocarbon streams, recirculation, temperature, kinematic viscosity.

ЖАНУБИЙ ОРОЛҚУМДА ТАРҚАЛГАН *NITRARIA SCHOBERI* L. ЎСИМЛИГИНИ *IN VITRO* ШАРОИТИДА КЎПАЙТИРИШ ВА ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚ-ШАРОИТГА МОСЛАШТИРИШ

Аманова Г.И.,¹ Олимжонов Ш.С.,¹ Зиявитдинов Ж.Ф.,¹ Хожиев Ш.Т.,² Тажибоев Ф.А.,³Шеримбетов С.Г.¹ЎзР ФА академик О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё институти¹Тошкент Тиббиёт Академияси²ЎзР ФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти³

Кириш. Дунёда сўнгги йилларда глобал экологик муаммолардан бири бўлган чўлланиш ва шўрланиш даражаси кескин ортиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида инсониятга, айниқса, ўсимликлар дунёси ҳамда кишлоқ хўжалигининг турли соҳаларида қатор муаммолар қўламининг ортиб боришига сабаб бўлмоқда. Шу боисдан, қурғоқчил ва шўрланиш даражаси юқори бўлган ҳудудларда ўсишга мослашган ўсимлик турларини аниқлаш, уларни кўпайтиришнинг биотехнологик йўллари ишлаб чиқиш, турли даражадаги шўрланишга мослашган навларни кўпайтириш ва стресс омилларга чидамлилиқ хусусиятларини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Республикамизда Орол денгизининг қуриган тубида тарқалган истикболли ўсимликларни биокимёвий, биотехнологик, ва биоэкологик хусусиятларини ўрганиш, Оролбўйи ҳудудларини яшил маконга айлантириш каби инновацион тадқиқотларни олиб боришга алоҳида эътибор қаратилиб кўплаб юқори натижаларга эришилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 23 ноябрдаги «Республикада яшиллик даражасини янада ошириш, «Яшил макон» умуммиллий лойиҳасини изчил амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 199-сонли фармонида муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу борадаги вазифаларни амалга оширишда Орол денгизининг қуриган Жанубий ҳудудларида тарқалган *Nitraria schoberi* ўсимлигининг кимёвий таркибини аниқлаш, улардан фаол компонентларни ажратиш ва скрининг қилиш, биотехнологик усуллар орқали *in vitro* шароитида културага киритиш, Оролқумнинг тузли тупроқларида ўсишга мослашган ўсимлик микронихолларини кўпайтириш ҳамда турли шўрланган тупроқ шароитларига мослашувчанлигини аниқлаш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили. *N.schoberi* денгиз қирғоқларида, шағал ва қумли тупроқларда, қумли ёки солончакларда ўсади, унинг гуллашини узоқ вақт кутишга тўғри келади: табиатда ўсимликлар одатда 7-8-йилда гуллайди ва бир бутадан 1 кг гача мева олинади. Маданийлаштирилган ўсимликлар 3-4 йилда гуллайди ва беш ёшли буталардан 3 кг гача мева йиғилади. Сунъий вегетатив кўпайиши натижасида ўсимликлар эртароқ, яъни 2 йилда гуллаб мева беришни бошлайди [1-3]. *N.schoberi* тури ўзининг иқтисодий, доривор, озуқавий қиймати, шунингдек, шўрланган тупроққа чидамлилигининг юқори эканлиги билан дунё олимларини қизиқтириб келмоқда. Хусусан, Эрон олимлари томонидан *N.schoberi* ўсимлигида шўрланиш стрессининг баъзи физик-биокимёвий кўрсаткичларга таъсирини баҳолаш орқали шўрланишга бўлган чидамлилиги ва ўзгарувчанлик хусусияти ўрганилган. Натижада *N.schoberi* турининг тузга чидамлилиқ хусусияти юқори эканлиги қайд этилган [4]. *N.schoberi* нинг илдиз тизими яхши ривожланган, мазкур ҳудуднинг қирғоқчил жойларидаги ўсимлик илдизлари 3,5 метрдан 8,5 метргача чуқурликка, намлиги етарли бўлган жойларда эса илдиз тизими юзаки бўлиб, 1-1,5 метрдан чуқурроқ бўлмаган ер ости сувларига етиб бориши, шу билан бир қаторда ўсимликнинг яхши ривожланган ён илдизлари қумни янада мустаҳкамлаб, қум кўчишига бардошли эканлиги таъкидланган [5].

Nitraria туркуми турлари дунёнинг қатор давлатлари қизил китобига киритилган. Хусусан, *N.schoberi* ўсимлигини Ўзбекистоннинг баъзи ҳудудларидагина учратиш мумкин, Оролқум ҳудудларида ҳам ушбу тур популяцияларини етарли даражада деб бўлмайди. Сўнгги йилларда Биоорганик кимё институти олимлари томонидан истикболли чўл ўсимликларини биоэкологик, молекуляр-биологик, биокимёвий ҳамда биотехнологик хусусиятларини ўрганиш борасида қатор тадқиқотлар амалга оширилмоқда ва кўплаб натижаларга эришиб келмоқда. Хусусан, *N.schoberi* ўсимлиги ҳам шулар жумласидандир [6].

Юқорида келтирилган маълумотларга асосланган ҳолда айтиш мумкинки, *Nitraria* туркуми турлари бўйича хорижлик олимлар томонидан кўплаб тадқиқотлар олиб борилган бўлсада, Ўзбекистоннинг чўл ҳудудларида тарқалган ушбу туркум турларини ўрганиш борасида тадқиқотлар кам ва *in vitro* шароитида микроклонал кўпайтириш бўйича етарли маълумотлар мавжуд эмас. Шу боисдан, Орол денгизининг қуриган тубида тарқалган истикболли *N.schoberi* турини *in vitro* шароитида микроклонал кўпайтириш ва бу борада изланишлар олиб бориш муҳим аҳамиятга эга масалалардан бири ҳисобланади.

Материал ва усуллар. Тадқиқот объекти сифатида 2015-2022 йилларнинг турли мавсумларида Орол денгизининг қуриган Жанубий ҳудудларига уюштирилган экспедициялар мобайнида йиғилган *N.schoberi* ўсимлиги намуналари ҳамда координаталари N43°53,721660', E58°48,034980' (ўртача шўрланган Т-7) ва N44°08'18,6731", E58°52'17,2930" (кучли шўрланган Т-11) бўлган ҳудудлардан олинган тупроқ (2023-2024 й.й) намуналаридан ажратилган тузлар асосида олиб борилди. *N.schoberi* ўсимлигини кучли шўрланиш муҳитига мослаштириш мақсадида мақбуллаштирилган озуқа муҳитига (DKW ("Duchefa Biochemie")) +7,5 г/л агар, 30 г/л сахароза) Оролнинг қуриган туби Т-7 ва Т-11 ҳудуди тупроқ намуналаридан ажратиб олинган тузлардан [7-9] мос равишда 2.07% ва 3.56% қўшиб озуқа муҳити тайёрланди ва *in vitro* шароитидаги микронихолларни кучли шўрланиш муҳитига адаптациялаш бўйича тажрибалар амалга оширилди.

Натижалар ва муҳокамалар. Ўсимликлар биотехнологиясида *in vitro* шароитида кўп компонентли озук муҳитида етиштирилган регенерант-нихолларни стерил ҳолатдан тупроқ шароитига ва ташқи муҳит омилларига мослашиб кетиши энг нозик жараёнлардан ҳисобланади. Аксарият ҳолатларда, микрокўчатларнинг катта қисми ушбу шароитларга мослашмаслиги туфайли мавжуд биоматериаллар нобуд бўлади.

Шу боис, адаптациянинг дастлабки босқичларида ўсимликни илдиз тизими ва ер устки қисми морфо-физиологик жараёнларга бир маромда киришиб кетиши учун бир қанча илмий-амалий ёндашувлардан фойдаланилади. Хусусан, ўсимликларнинг яхши ўсиши учун сунъий туман шароитлари яратиш муҳимдир, бундай шароитларни яратиш мумкин бўлмаган ҳолларда, ўсимликлар шиша идишлар ёки пластик қоплар билан қоплаш талаб этилади. Экишдан 20 - 30 кун ўтгач, яхши илдиз отган ўсимликлар Knudson, Murashige Skoog, Chesnokov, Кнор тузлари (ўсимлик турига қараб) ёки мураккаб минерал ўғитлар билан озиклантирилади. (*N.schoberi* ўсимлиги учун Driver & Kuniyuki тузларидан фойдаланилди). Микроклонлар ўсиши билан улар янги субстратли катта идишларга экилади, *ex vitro* шароитига мослаштирилган ўсимликларни кейинги босқичларда етиштириш усуллари ушбу турдаги ўсимликларни кўпайтириш учун қабул қилинган қишлоқ хўжалиги технологиясига мос равишда олиб борилади.

Ушбу тажрибада *N.schoberi* нихолларини *in vitro* шароитидан *ex vitro* ташқи муҳитга олиб ўтилди. Бунинг учун дастлаб бўйи 7-8 см узунликдаги (ўртача ёғочланган) ўсимлик нихоллари танлаб олинди ва ностерил бўлган муҳитга, яъни ҳақиқий тупроқ шароитига ўтказилиб, адаптация хусусиятлари ўрганиб борилди. Бунда бир қанча тажриба вариантлари асосида микронихолларни дастлабки мослаштириш ишлари олиб борилди, танланган схематик композициялар ва уларнинг самарадорлиги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал. *N.schoberi* турунинг дастлабки адаптация кўрсаткичлари

Тупроқ намуналари	Танланган тажрибаларнинг меъёрий параметрлари	Ўсиш ва ривожланиш кўрсаткичлари, см		Адаптация улуши, %
		15 кун	30 кун	
Т 7	Назорат (торф)	7.98±0.24	9.94±0.48	25.7±0.29
	гумус+тупроқ	9.93±0.56	12.7±0.55	42.8±0.15
	Тупроқ+қум	11.07±0.71	14.15±0.67	47.7±0.44
	Т 7 тупроғи	12.15±0.46	17.42±0.38	70.0±0.62
Т 11	Назорат (торф)	7.47±0.28	8.37±0.36	23.4±0.18
	гумус+тупроқ	9.18±0.49	11.0±0.27	30.05±0.72
	Тупроқ+қум	9.74±0.51	13.08±0.39	36.9±0.21
	Т 11 тупроғи	11.33±0.64	16.05±0.43	61.3±0.32


Адаптация жараёнларининг Т7 тупроқ тузлари асосида мақбуллаштирилган озук муҳитида етиштирилган микронихоллар энг ижобий адаптация самарадорлигини намоён этди. Шунингдек, ушбу шароитда 15-30 кун оралиғида ўсимлик нихоллари 12.15±0.46 – 17.42±0.38 см, адаптация улуши 70.0±0.62 % ни ташкил этди. Хусусан, 20-25 кун мобайнида микронихолларнинг ностерил муҳитга тўлиқ мослашганлигини, ўсиш ва ривожланиш белгилари нормал турғун ҳолатда бўлганлиги ҳам ўз тасдиғини ифодалайди. Т 11 худуди бўйича олинган тажрибаларда Т 11 тупроқ тузлари асосида мақбуллаштирилган озук муҳитида етиштирилган микронихолларда илк босқичларда барча танланган композицияларга нисбатан гипсли шароит яратилган вариантда юқори адаптация белгиларини намоён этиб, микронихолларнинг бўйи 11.33±0.64 – 16.05±0.43 см, адаптация улуши 61.3±0.32 % ни ташкил қилди. Ушбу майдонда хлоридли, карбонатли ва сульфатли тузлари юқори бўлишига қарамасдан, *N.schoberi* микронихоллари *in vitro* шароитидан дастлабки мослашиш хусусиятларини намоён этди. Юқорида таъкидлаганимиздек, Т-7 худудида *N.schoberi* табиий шароитда ўсишига қарамай, 1м² майдонда ушбу ўсимлик битта ёки умуман учрамаслиги мумкин. Шу каби экобиологик хусусиятларни эътиборга олган ҳолда, ўсимлик микронихолларини ўсимлик-регенерантлари ҳатто каллус тўқмаларини ҳам NaCl тузининг турли концентрацияли озук муҳитлари асосида мослаштириб борилди. Тажрибаларнинг якуний қисми адаптация ишлари бўлиб, бунда Т-7 худудидаги 200 mM концентрацияда ўстирилган ва Т7 тупроқ тузлари асосида мақбуллаштирилган озук муҳитида етиштирилган микронихолларнинг ўсиш ва ривожланиш хусусиятлари тобора мослашиб, ўзаро қиёсий таққосланганда, худди табиий ўсимлик сингари морфо-биологик параметрлари бўйича бир хилда бўлганлиги аниқланди.

Яна муҳим жиҳатлардан бири, микронихолларни физиологик жараёнларга чиниктириб боришда, уларнинг баргларида транспирация ҳаракатини нормал амалга ошириш мақсадида, нихоллар полиэтилен қадоклар билан тўлиқ бекитилиб, куннинг 1-ярмида 2 соат мобайнида қадоклар очилиб, секин-аста ташқи муҳит билан ўзаро сув, ҳаво, газ алмашинуви таъминлаб борилди. Қадоклар нихолларда сунъий томчилар ҳосил бўлишида хизмат қилиб, бу эса ўз навбатида барча физиологик-биокимёвий жараёнларни бир меъёрга ишлашига, илдиз+новда+барг, яъни қислама ва флорема найларида турғун ҳаракатни таъминлаб бериши билан изоҳланади.

Хусусан, барча жараёнларнинг тўғри амалга ошаётганлигини, нихолларнинг ўсиш параметрларидаги кўрсаткичлар орқали ҳам аниқлаш мумкин, дарҳақиқат, илдиз тизимининг кучайиб бориши, асосий ва ён илдизларнинг тобора ўсиб, тупроққа сингиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Олиб борилган барча тажрибаларнинг морфо-биометрик кўрсаткичлари қуйидаги 1 -2-фотолавҳалар ва 2-жадвалда ўз аксини топган.

Шунингдек, бошқа вегетатив аъзолардаги ижобий кўрсаткичлар, ўсимликдаги барча морфологик

хусусиятларни тўлиқ ифодалайди. Т -11 худуди бўйича олиб борилган тажрибаларда микронихоллар дастлабки адаптация жараёнларида салбий натижаларни кўрсатган бўлсада, асосий илдиз кучли ривожланганлигини, кейинчалик ер устки органларида жонланиш қобилияти намоён бўлиши кузатилди. (1-расм).




1-расм. Дастлабки адаптация жараёнлари (Т 11)

2-жадвал. *In vitro* шароитидан *ex vitro* шароитига олинган *N.schoberi* микронихолларининг морфо-биометрик кўрсаткичлари

Ўсиш параметрлари	Культуралаш шароити			
	Т7		Т11	
	15 кун	30 кун	15 кун	30 кун
Илдизлар узунлиги (см)	20.9±0.81	25.06±0.47	19.22±0.45	23.1±0.37
Новда узунлиги (см)	12.15±0.46	17.42±0.38	11.33±0.64	16.05±0.43
Барглр сони (дона)	18.3±0.74	26.3±0.74	14.3±0.74	22.3±0.74
Бўғимлар оралиғи (см)	7.16±0.19	9.0±0.17	5.0±0.19	8.0±0.16

1-расм ва 2-жадвалдан кўриниб турибдики, Т7 ва Т11 тузлари қўшилган озуқа муҳитларида ўстирилган ва ушбу тупроқларга адаптацияланган микронихолларнинг 30 кунлик таҳлил натижаларида ўсимликнинг бўйи 16.05 ± 0.43 см дан 17.42 ± 0.38 см гача эканлиги кузатилди. Илдиз узунлиги Т7 муҳитида 25.06 ± 0.47 см, Т11 муҳитида 23.1 ± 0.37 см ни ташкил қилди. *N.schoberi* турининг Оролқумдан йиғилган бионамуналаридан олинган стерил ўсимлик-регенерантлари асосида каллус кластерларидан олинган микронихолларнинг апикал тўқималаридан шаклланган, кучли шўрланган тупроқларининг кимёвий таркиби асосида тайёрланган тузли муҳитда уйғун ҳолда етиштирилган микроқўчатлар, иссиқхона шароитида дастлаб гул тувакларда ташки муҳит омилларига босқичма-босқич мослаштирилиб, кейинчалик очик дала шароитида адаптация тажрибалари олиб борилди (2-расм).



2-расм. Оролқум шароитида *N.schoberi* микронихолларнинг вегетация жараёнлари

а – кучли шўрланган муҳитда иссиқхона шароитидаги 60 кунлик ниҳол; б – ниҳолнинг умумий кўриниши; в – қўчатлик биоматериаллар; г – микронихолларнинг дастлабки *ex vitro* шароитига мослашуви; д – ниҳолларнинг ер бағирлаб ўсуви; е – ниҳолларнинг тупроққа муқим жойлашуви ва бир қанча ён вегетатив новдаларни ҳосил қилганлиги

Тажриба майдони сифатида Жанубий Оролқумнинг Қорақалпоғистон кишлок хўжалиги агротехнологиялари институти дала амалиётлари ўтказиладиган ҳудудлари танланди. Ушбу ҳудуднинг тупроқлари ҳам кучли шўрланган, гипсли бўлиб, айнан *N.schoberi* турини тўлиқ адаптация қилиш учун ижобий кўрсаткичларни намоён

этишига катта туртки бўлди. 200 дона микроўчат материаллари адаптация жараёнларига киришувида, дастлаб 10-30 донагача ўсимлик йўқотилган бўлсада, об-ҳавонинг нисбий намлиги, ҳарорат, сувнинг шўрлиги ҳамда тупрокнинг қатқалоқли, гипс қатламлар ҳосил қилиши натижасида, барча микроўчатлар яшовчанлик қобилятини намоён этди. Хусусан, улар морфологик таҳлил этилганда, 20-40 кунлик ўсимликларда вегетация жараёнларининг тезлашувини, вегетатив органлар сонини ортиши, ёш новданинг бироз йўғонлашуви натижасида бирмунча энига ўсиши ва кейинги босқичларда асос томонидан ёғочлашуви биотехнологик жараёнларнинг тўғри олиб борилганлигини ҳамда унга нисбатан мақбул озук муҳити, стерил шароит ва адаптация ишларининг ташки муҳит омилларини паралел равишда ўтказилганлиги ўз ижобий тасдиғини топди.

Хулоса. Демак, *N.schoberi* турининг *in vitro* шароитидан дастлабки *ex vitro* муҳитига мослашиши табиий муҳитга нисбатан 3-5 ой олдинга сурилиши, ер устки вегетатив органларининг тўлиқ ривожланиши микроўчатнинг ташки муҳит омилларига адаптация қилишининг морфо-физиологик ва биокимёвий жараёнларнинг тўғри амалга ошганлигини тасдиқлайди. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида, истикболли фитомелиорант ҳамда дориворлик хусусиятларига эга *N.schoberi* тури асосан уруғлари ёрдамида кўпайиши туфайли, аммо уларнинг катта қисми фақатгина 1 йиллик яшовчанлик қобилятига эга бўлиши, бу ўсимликни кўпайиш стратегиясини пасайтириб юборади. Шу боис, *in vitro* шароитида, каллус кластерлари ёрдамида шўрли муҳитда катта миқдорда микронихолларни етиштириш ҳамда Оролбўйи ҳудудларига *ex vitro* ишларини олиб бориш натижасида улкан ўсимликлар қопламини шаклланишига хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Трифонова В.И. Семейство селитрянковые (*Nitrariaceae*) // Жизнь растений. 1981, т. 5, ч. 2, С. 250–251.
2. Пешкова Г.А. Третичные реликты в степной флоре Байкальской Сибири // Научн. чтения памяти М.Г. Попова (чтения 12–13-е). – Иркутск: Вост.-Сиб. кн. изд-во, 1972. – С. 25–58.
3. Ткачук Т.Е., Борзых М.В. Динамика популяции *Nitraria sibirica* в окрестностях Торейских озер // Природоохранное сотрудничество: Россия, Монголия, Китай. – 2010. – № 1. – С. 286-289.
4. Abolfazl Ranjbar Fordoei, Reza Dehghani Bidgholi Impact of Salinity Stress on Photochemical Efficiency of Photosystem II, Chlorophyll Content and Nutrient Elements of Nitere Bush (*Nitraria schoberi* L.) Plants. // Journal of Rangeland Science, 2016, Vol. 6, №. 1.P.1-9.
5. Губанов И. А. и др. Дикорастущие полезные растения СССР // Москва, Мысль, 1976. С. 209-210.
6. Аманова Г.И., Шеримбетов С.Г., Ишимов У.Ж., Эшмуродова Н.Ш. Содержание углеводов в растении *Nitraria schoberi*. // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. 2020 г. № 4. (261) С. 53-55.
7. Аманова Г. И., Абдирахимова С. Ш., Зиявитдинов Ж. Ф., Олимжонов Ш.С., Хожиев Ш.Т. Адаптация солеустойчивых растений *Lycium ruthenicum* и *Nitraria schoberi* к солевому стрессу в условиях *in vitro* с использованием извлеченных солей из почв высохшего дна Аральского моря // Актуальные проблемы развития Биоорганической химии г.Ташкент, 13-14 ноября 2023г. С. 381-383.
8. Зиявитдинов Ж. Ф., Аманова Г. И., Абдирахимова С. Ш., Олимжонов Ш. С., Ишимов У. Ж., Фазлиддинов Ш. Ж., Хожиев Ш. Т. Адаптация растений *Lycium ruthenicum* и *Nitraria schoberi* солевому стрессу в условиях *in vitro* // Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi universiteti, Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent gidrometeorologiya texnikumi tomonidan "Orol dengizi qurishining atrof-muhitga ta'siri" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 22-aprel, 2024-yil. B. 355-362.
9. Аманова Г. И., Абдирахимова С. Ш., Ишимов У. Ж., Зиявитдинов Ж. Ф., Шеримбетов С.Г. *In vitro* шароитида *Nitraria schoberi* L микронихолларини кучли шўрланиш муҳитига мослаштириш биотехнологияси // «Uchinchi renessans yosh olimlari: Zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami 3-may 2024-yil. B. 177-179.

Аннотация. Илк бор *in vitro* шароитида кучли шўрланган муҳитларга мослаштирилган *N.schoberi* микронихоллари *ex vitro* шароитга олиб ўтилди ва Оролбўйи ҳудудларида ўсишга мослашган кўчатлик биоматериаллари яратилди. Олинган натижалар истикболли, фитомелиорант ҳамда дориворлик хусусиятларига эга ушбу турни *in vitro* шароитида каллус кластерлари ёрдамида шўрли муҳитда катта миқдорда микронихолларини етиштириш орқали Оролнинг қуриган тубида улкан ўсимликлар қопламини шакллантириш имконини берди.

Калит сўзлар: Оролқум, *Nitraria schoberi*, *in vitro*, *ex vitro*, кучли шўрланиш, микронихол

Размножение в условиях in vitro растения Nitraria schoberi L., распространённых на территории Южного Аралкума, и его адаптация к засоленным почвенным условиям.

Аннотация. Впервые в условиях *in vitro* микроростки *N. schoberi*, адаптированные к сильно засоленным средам, были перенесены в условия *ex vitro*, и был создан посадочный биоматериал, приспособленный для выращивания в регионах Приаралья. Результаты проведенных исследований дали возможность формирования большого растительного покрова на осушенном дне Аральского моря, посредством создания каллусового кластера перспективного, фитомелиоративного и лекарственного растения *N.schoberi* в условиях *in vitro*.

Ключевые слова: Аралкумы, *Nitraria schoberi*, *in vitro*, *ex vitro*, сильное засоление, микрорастение

In vitro propagation and adaptation to saline soil conditions of Nitraria schoberi L. plant, widespread in the territory of southern Aral Sea

Abstract. For the first time, *N. schoberi* micro-shoots, adapted to highly saline environments under *in vitro* conditions, were transferred to *ex vitro* conditions, and a planting biomaterial adapted for cultivation in the Aral Sea region was created. The results of the studies made it possible to form a large vegetation cover on the dried bottom of the Aral Sea by creating a callus cluster of the promising, phytomeliorative, and medicinal plant *N. schoberi* under *in vitro* conditions.

Keywords: Aralkum, *Nitraria schoberi*, *in vitro*, *ex vitro*, high salinity, microplant

ПРИМЕНЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ “ЗЕЛЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА” В ЦЕЛЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ережепова Ж. Т.

Каракалпакский государственный университет

Введение. В последние десятилетия проблема устойчивого развития становится всё более актуальной для многих стран, в том числе и для Республики Узбекистан. В связи с этим важным шагом является внедрение принципов “зеленого менеджмента”, который предполагает оптимизацию бизнес-процессов с учётом экологических факторов, социальной ответственности и экономической эффективности. Применение зарубежного опыта в области “зеленого менеджмента” может стать ключевым фактором устойчивого развития Узбекистана.

2.Standart tómendegi iskerlik nátiyjesinde keletuǵın dáramatqa qollanılmaydı: -Lizing kelisimleri ("Lizingti esapqa alıw"); -Investiciyadan alınatuǵın qosımsha dividendler hám dáramatlar ; -Qamsızlandırıw kompaniyaları menen qamsızlandırıw kelisimleri; -Finanslıq aktivler hám finanslıq minnetlemeler aǵımdaǵı bahasındaǵı ózgerisler yamasa olar satılğan táǵdirde; - Basqa aylanba qarjılar bahasındaǵı ózgerisler; -Sharwa mallar, awıl hám toǵay xojalıǵı ónimleriniń tábiyiy kóbeyiwı; - Mineral metallardı qazıp alıw	2. Iskerlik nátiyjesinde qollanılmaydı. 16 - «Ijara» sheńberinde qollanıladı; -qamsızlandırıw shártnamaları, (IFRS) 4 - «Qamsızlandırıw shártnamaları» sheńberinde; -finanslıq instrumentler hám basqa shártnamalıq huqıq yamasa minnetlemeler, IFRS 9-«Finanslıq instrumentler», IFRS 10-«Jıyma (konsolidaciyalasqan) finanslıq esabatlar», IFRS 11-«Birgeliktegi iskerlik boyınsha kelisimler», IAS 27-«Óz aldına bólek finanslıq esabatlar»ı IAS 28-«Ǵárezli isbilermenlik subyektlerindeki hám qospa kárxanalardaǵı investiciyalar» shenberinde; -bul standart túrli kelisilgen aymaqlarda óz qarıydarlarınń talabın qanaatlandıırıw maqsetinde waqıt-waqıtı menen neft almasıwǵa kelisken, yaki neft Kompaniyası arasındaǵı shártnamaǵa.
---	---

4 - kestede BEMS hám FEXSniń tovarlardı satıw hám xızmetler kórsetiw boyınsha bir - birinen ózgeshelikleri berilgen. Bunda tovarlardı satıw hám xızmetler kórsetiw boyınsha *dáramat retinde tń alıwı boyınsha ózgeshelikleri kórsetilgen*. Sonıń menen bir qatarda tovarlardı qaytarıwǵa tiyisli *anıq emeslik boyınsha da* BEMS hám FEXSniń bir – birinen ózgeshelikleri anıq kórsetilip berilgen.

4 – keste. *BEMS hám FEXSniń tovarlardı satıw hám xızmetler kórsetiw boyınsha bir - birinen ózgeshelikleri*[2,3]

3.Tovarlardı satıw Dáramat ádetde qarıydarǵa jiberilgen tovarlardı qabil etip alǵanda, sonıń menen birge olardı ornatiw hám texnikalıq qadaǵalaw pıtkende tń alınadı. Biraq, dáramat tovarlardı qarıydar tárepinen qabil etiliwı menen tezlik penen tń alınadı, egerde: - ornatiw procesi mánisi jaǵınan ápiwayı bolğan, misalı, zavodta tekserilgen telepryomnikti ornatiwda onı tek gana qutıdan alıw hám antenaga hám de elektr tarmaǵına jalǵaw talap etiledi; - kózden keshiriw tek shártnama bahaların úzil-kesil belgilew maqsetinde gana ámelge asırıladı, misalı, temir rudası hám qumshekerdi júklep jiberiw hám t.b..	Dáramat kárxana tárepinen qarıydarǵa kelisilgen tovar yamasa xızmetlerdi tapsırǵan waqıtta (yamasa tapsırıwı menen), kárxana sonday tovar yamasa xızmetlerdiń ornına alıwdı kútip atırǵan huqıqın sáwlelendiriwshi qaplaw summasında tń alınadı. <i>Dáramat retinde tń alıwı kerek:</i> -kárxanada tovarlar yamasa xızmetlerdi qarıydarǵa tapsırıw boyınsha minnetleme qalmaǵande hám qarıydar tárepinen wáde etilgen qaplama summası tolıq yamasa derlik tolıq qolǵa kiritilgende jáne onı qaytarıw minnetlemesi bolmaǵanda. -shartnama biykar etilgende, alınğan qaplama summasın qaytarıw boyınsha minnetleme bolmaǵanda.
4.Eger tovarlardı qaytarıwǵa tiyisli <i>anıq emeslik</i> payda bolsa, dáramat jiberilgen tovarlardı qarıydar tárepinen rásmiy qabil etip alınǵanda yamasa tovarlar jetkerip berilgen hám biykarlaw múddeti tawsılǵanında tń alınadı.	Shártnama dúzilgennen keyin operaciyalıq bahası túrli sebeplerge kóre ózgeriwı múmkin, sonday-aq <i>anıq emeslik</i>niń sheshiwshi yamasa kelisilgen tovarlar yamasa xızmetlerdi almaslaw ornına kárxana alıwı kutilip atırǵan iskerlik haqısı, qaplaw summasınıń ózgeriwine alıp keliwshi jaǵdaydın basqasha ózgerisleri ornına ámelge asırılıwı múmkin.

15-sanlı FEXS(IFRS) “Qarıydarlar menen dúzilgen shártnamalar boyınsha alınğan dáramat” standartta qaplaw summaların esapqa alıwǵa ayrıqaha itibar beriledi. Bul standartta qaplaw summaları ózgeriwsheń bolıpta esapqa alınadı.

Ózgeriwsheń qaplaw summası. Eger shártnama boyınsha kelisilgen qaplaw summası ózgeriwsheń summanı da óz ishine alsa, kárxana qarıydarǵa kelisilgen tovarlar yamasa xızmetlerdi tapsırıw ornına qolǵa kiritetuǵın qaplaw summasına bolğan huqıqın bahalawı kerek.

Qaplaw summası shegirme, arnawlı shegirme, qarjılardı qaytarıw, kredit, bahanı tómendetiw, xoshametlew, nátiyjelerge kóre bonus, járiyma yamasa soǵan uqsas elementler kórinisinde ózgeriwı múmkin. Kelisilgen qaplaw summası sonıń menen birge, kárxananıń qaplaw summasına bolğan huqıqı kelesidegi hádiyseniń júz beriwı yamasa bermesligine baylanıslı bolğan jaǵdaylarda da ózgeriwı múmkin. Mısalı, ónimlerdi qaytarıw huqıqı menen satılǵanda yamasa, eger málim basqıshqa jetkendeǵı nátiyjelerge salıstırǵanda bonus retinde qatań summa kelisilgende de qaplaw summası ózgeriwsheń boladı.

Qarıydar tárepinen kelisilgen ózgeriwshen qaplaw summası túrı shártnamada anıq kórsetiliwi múmkin. Shártnamada shártlesilgeninen tısqarı, tómendegi hallarda kelisilgen qaplaw summası ózgeriwshen boladı:

1. Kárxananıń ádettegi jumıs tájiriyesi, ornatqan siyaseti yamasa anıq daǵazalarǵa súylene otirip qarıydar, kárxana shártnamada kórsetilgen qaplaw summasınan kemregın de qabıl etedi degen tıyanaqlı úmitleri bolsa. Basqasha aytqanda, kárxana bahanı arzanlastırıwdı usınıwı shama etiledi. Mámleketler, tarawdıń baǵdarları yamasa qarıydarlarǵa qaray bunday usınıs shegirme, qaytarılatuǵın shegirme, qarjılardı qaytarılıwı yamasa kredit dep tán alınıwı múmkin.

2. Basqa da faktler hám jaǵdaylar kórsetiledi, eger qarıydar menen shártnama dúziw waqtında kárxana qarıydarǵa óz qálewı menen bahanı arzanlastırıp berse.

Kárxana tómende keltirilgen usıllardan birinen paydalanǵan halda ózgeriwshen qaplaw summasın bahalawı kerek. Usıllardan birin tańlawda kárxana olardıń birin kárxana alıw huqıqın qolǵa kiritetuǵın qaplaw summasın jaqsılap anıqlap alıwı kerek:

Kutilip atırǵan baha (Expected value) - bul kutilip atırǵan qaplaw summası múmkin bolǵan bahaları diapazonınan alınıp, shama etilgen bahalardıń itimallıqları inabatqa alınǵan haldaǵı summası bolıp tabıladı. Eger kárxanada soǵan uqsas xarakterdegi shártnamalar muǵdarı kóp bolsa, kutilip atırǵan baha ózgeriwshen qaplaw summasın bahalawdıń jaqsı jolı bolıwı múmkin.

Máselen, kompaniya ónimdi usaqlap satıwda satıwshıǵa bir danası ushın 500 sh. b. kótere bahasında satadı. Sonıń menen birge, kompaniya usaqlap satıw

Ózgerushen qaplaw summasın bahalawdaǵı sheklewler. Kárxana operatsiya bahasına ózgeriwshen qaplaw summasınıń bir bólegin yamasa hámмесin sonday dárejede qosıwı kerek, bunda keyinirek ózgeriwshen qatlam menen baylanıslı anıq emeslikler saplastırılǵanda tán alınǵan jıynalǵan dáramat summasın saldamlı kemeytiw ámelge asırılmaslıǵı múmkinshiligi joqarı bolıwı kerek.

Bunda kárxana dáramattı kemeytiw múmkinshiligi menen birge kemeytiw múmkin bolǵan summanı da itibarǵa alıwı kerek. Itimallıqtı asırıwǵa yamasa dáramat muǵdarın kemeytiwge tásir etetuǵın faktorlardı óz ishine tómende keltirilgenlerden birin aladı:

- qaplaw summası, kárxanaǵa tásir ótkere almaytuǵın faktorlarǵa júdá tásirli doladı. Bunday faktorlar bazardaǵı ózgeriwshenlik, pikirler yamasa úshinshi shaxslar háreketin, hawa rayı shárayatları hám kelisilgen tovar yamasa xızmetti joqarı morallıq (ruwxıy) tozıwı sıyaqlılardı óz ishine alıwı múmkin.

- qaplaw summasına tiyisli anıq emesligin sheshiwshi uzaq waqt dawamında kútilmeydi.

- uqsas túrdegi shártnamalar mazmunında kárxana tájiriyesi shegaralanǵan yamasa tájiriye sheklengen prognozlaw qunına iye.

- karxanada keń kólemli baha jeńilliklerin usınıw yaki uqsas jaǵdaylarda uqsas shártnamalar boyınsha tólem shárti hám múddetlerin ózgeritiw ámeliyatı bar.

- shártnama úlken muǵdardaǵı hám keń kólemdegi, bolıwı múmkin bolǵan qaplaw summasın názerde tutadı.

Qarjılardı qaytarıw boyınsha minnetleme. 15-sanlı FEXS standart qaytarıp beriw huqıqı menen satıw boyınsha arnawlı kórsetpelerdi óz ishine alǵan.

Tovarlardı klientlerge tapsırıwda kárxana alınǵan (yamasa alınıwı kerek bolǵan), biraq olarǵa salıstırǵanda huqıqtı qolǵa kirgiziwi kútilmey atırǵan artqan summalardı dáramat retinde tán almaslıǵı shárt. Bunıń ornına bunday summalar aqshalardıń qaytarılıwı boyınsha minnetleme retinde esapqa alınıwı kerek.

Qarjılardıń qaytarılıwı boyınsha minnetleme, kárxananıń ıyelew huqıqı kútilmey atırǵan (yaǵnıy, operaciyalıq bahasına kiritilmegen summalar) alınǵan (yamasa alınıwı kerek bolǵan) qaplaw summaları boyınsha bahalanadı. Qarjılardıń qaytarılıwı boyınsha minnetleme, shárt-shárayatlar ózgeriwin esapqa alıp hár esabat dáwiri aqırında dúzetiliwi (korrektirovka etiliwi) kerek.

Kárxana qarıydarlardan ónimlerdi qaytarıp alıwǵa bolǵan huqıqtı aktiv retinde (hám satılǵan ónimniń ózine túser bahasına tiyisli dúzetiwlerdi), aqshalardı qaytarıw boyınsha minnetlemelerdi orınlaw sıyaqlı tán alıwı kerek. Bul aktiv daslep satılǵan tovarlardıń aldıńǵı balans qunı boyınsha, sonday tovardı alıw menen baylanıslı hár qanday kutilip atırǵan qárejetlerdi shegirgen halda bahalanıwı kerek. Hár esabat dáwiriniń aqırında kárxana aktiv bahasın, qaytarılatsuǵın tovarlar boyınsha kutilip atırǵan ózgerisler nátiyjesine qarap dúzetiwi kerek. Kárxana bunday aktivti, qarjılardı qaytarıw boyınsha minnetlemeden óz - aldına bólek usınıs etiliwi shárt.

Qarıydarǵa tóleniwi kerek bolǵan qaplama. Qarıydarǵa tóleniwi kerek bolǵan qaplam, kárxana tárepinen qarıydarǵa (yamasa qarıydar arqalı kárxananıń tovarları yamasa xızmetlerin satıp alatuǵın basqa táreplerge) tólenetuǵın yamasa tóleniliwi kutilip atırǵan pul qarjıları summasın óz ishine aladı. Qarıydarǵa tóleniwi kerek bolǵan qaplaw, kárxana alıwı kerek bolǵan summalar (yamasa qarıydar arqalı kárxananıń tovarları yamasa xızmetlerin satıp alatuǵın basqa táreplerge) ornına esapqa alınıwı múmkin bolǵan, kredit hám basqa elementlerdi (mısalı, kupon yaki voucher) óz ishine aladı. Kárxana, qarıydarǵa tóleniwi kerek bolǵan qaplama, operaciyalıq bahasın, hám bunnan kelip shıǵıp túsimdi kemeytiw muǵdarında tán alıwı kerek, bunnan qarıydar paydansa tólem, qarıydar kárxanaǵa berip atırǵan ajırılatsuǵın tovar yamasa xızmetke almasıw ornına ámelge asırılatsuǵın hallardan tısqarı. Eger qarıydarǵa tólewı kerek bolǵan qaplaw summası, óz ishine ózgeriwshen summanı alsa, kárxana operaciyalıq bahasın bahalawı kerek (sonday-aq, ózgeriwshen qaplawdı bahalaw sheklengen yaki shegaralanbaǵanlıǵı analizin ámelge asırıwı kerek).

Juwmaqlap aytqanda 2-sanli BEMS hám 15-sanli FEXSniń bir - birinen ózgesheliklerin esapqa ala otirıp, 15-sanli FEXS aldımızǵa maqsetti anıǵıraq qoyǵanı sebepli onı esap - sanaq jumıslarımızda keń túrde qollanıwǵa boladı. Sonın mmenen birge biznes subyektlerin 15-sanli FEXSna ótiw maqserke muwapıq dep esaplaymız. Bul standartqa ótiw arqalı biznes subyektlerin óziniń finanslıq - xojalıq iskerligine sırt el investiciyaların tartıw múmkinshiligine iye boladı hám jaqsı finanslıq nátiyjelerge erisedi degen pikirdemiz.

ÁDEBIYATLAR

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń «Finanslıq esabattıń xalıqaralıq standartlarına ótiw boyınsha qosımsha is - ilajlar» haqqında PQ-4611 sanlı qararı.
2. Ózbekstan Respublikası 2-sanlı BEMS «Tiykargı xojalıq iskerliginen túsken dáramatlar» 1998 - jıl 20 - avgusta tastıyqlanıp paydalanıwǵa usınılǵan.
3. 15-sanlı Finanslıq esabattıń xalıqaralıq standartları (FEXS (IFRS)) “Qarıydarlar menen dúzilgen shártnamalar boyınsha alınǵan dáramat” 2018 - jıldıń 1- yanvarınan baslap májburiy tártipte qollanıwǵa kirgizilgen.

Finanslıq nátiyjelerdi FEXS tiykarında esapqa alıwdıń ózgeshelikleri

Rezyume. Ilmiy maqalada finanslıq nátiyjelerdi FEXS tiykarında esapqa alıwdıń aktual máseleleri qozǵalǵan, finanslıq nátiyjelerdi esapqa alıwda milliy hám FEXSniń ózgeshelikleri ashıp berilgen, finanslıq nátiyjelerdi esapqa alıwda FEXSna ótiw zárurlıǵı boyınsha pikir hám usınıslar berilgen.

Tayanış sózler: finanslıq nátiyje, buxgalteriya esabıńıń milliy standartları, dáramat retinde tán alıwı, anıq emeslik.

Moliyaviy natijalarni MHXS asosida hisobga olishning xususiyatlari

Rezyume. Ilmiy maqolada moliyaviy natijalarni MHXS asosida hisobga olishning dolzarb masalalari qo'zg'atilgan, moliyaviy natijalarni hisobga olishda milliy va MHXSning xususiyatlari ochib berilgan, moliyaviy natijalarni hisobga olishda MHXSga o'tish zaruriyati bo'yicha fikr va tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: moliyaviy natija, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, daromad sifatida tan olish, aniq emaslik.

Особенности учета финансовых результатов на основе МСФО

Резюме. В научной статье подняты актуальные вопросы учета финансовых результатов на основе МСФО, выявлены особенности национального и МСФО в учете финансовых результатов, даны предложение и рекомендации о необходимости перехода на МСФО учета финансовых результатов.

Ключевые слова: финансовый результат, национальные стандарты бухгалтерского учета, признание доходом, неопределенность.

Features of accounting for financial results based on IFRS

Summary. The scientific article raises current issues of accounting for financial results on the basis of IFRS, identifies the features of national and IFRS in accounting for financial results, and provides proposals and recommendations on the need to switch to IFRS for accounting for financial results.

Key words: financial result, national accounting standards, recognition of income, uncertainty.

УДК: 33с:331(575.1)

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI, ISTIQBOLLARI VA MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI

Zulfiqarov X. U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bugungi dunyoda yashil iqtisodiyot tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ekologik toza ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya sohaları nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga, balki yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish sari qator amaliy ishlar jadal amalga oshirilmoqda. Bu borada shaxsan prezidentimiz aniq strategiyalarni belgilab bermoqdalar. Buning isbotini yurtboshimizning 2022-yil 2-dekabrda "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarida ham ko'rish mumkin. Yuqoridagi qaror va unga asoslangan loyihalar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, sanoatda energiya samaradorligiga erishish, sug'orish tizimini takomillashtirish va maishiy chiqindilarni qayta ishlash kabi istiqbolli yo'nalishlarni ilgari suradi. Bu kabi yangi yo'nalish va sohalarining iqtisodiyotga kirib kelishi yurtimiz mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi, yetakchi kadrlarning ish bilan bandligi ta'minlanishi va aholi o'rtasida kambag'allikning qisqarishi shular jumlasidan.

Yashil iqtisodiyotga oid asosiy adabiyot va manbaalar uning turli yo'nalishlarini ochib beradi. Mehant iqtisodiyotiga ta'siri borasida esa turli adabiyotlar bo'lib, ular asosan yashil iqtisodiyoti kiritgan o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Xususan, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy iqtisodiyot ko'plab sohalarda atrof-muhitga zarar yetkazib kelgan bo'lsa, yashil iqtisodiyot teskari tamoyilga asoslanadi: u resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa ish o'rinlarining yangi turlarini yaratishga olib kelmoqda. Shu jumladan, quyosh va shamol energiyasi sohalarida, chiqindilarni qayta ishlashda, ekologik qadoqlash ishlab chiqarishida, yashil qurilishda ko'plab yangi kasblar shakllanmoqda. Karl Burkart ta'kidlaganidek, yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari – energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza texnologiyalar – nafaqat tabiiy muhitni himoya qiladi, balki yangi mehnat bozorini ham shakllantiradi.

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotning o'rni va ta'siri turli o'rganish metodlari orqali tahlil qilindi, va uning aynan mehnat bozoriga ta'siriga urg'u bergan holda o'rganildi. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya sohasining o'sishi muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, quyosh panellari va shamol turbinalari ishlab chiqarish, o'rnatish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida minglab yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda. Bu nafaqat muhandislar va texnologlar uchun, balki oddiy ishchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni yo'lga qo'yimoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun milliardlab yevro mablag' ajratilmoqda. O'zbekiston ham bu yo'nalishda faol qadamlar tashlamoqda, xususan, quyosh va shamol energetikasi bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ekologik toza ishlab chiqarish nafaqat mehnat bozorida yangi kasblarni shakllantiradi, balki mavjud kasblarning ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Korxonalar atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy etar ekan, yangi malakali mutaxassislariga talab ortadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan adabiyotlar asosida yashil iqtisod rivojlanishini to'rtta asosiy bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichni o'z ichiga olgan 1950-1960 yillar iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta'sirini anglab yetish davri hisoblanadi. Bu davrda iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitning degradatsiyalashuvi o'rtasidagi bog'liqlik to'liq anglab yetilgan bo'lsa-da, ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilish zarurligini e'tiborga olish bilan cheklanib qolgan. Ikkinchi bosqich – 1960-1970 yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda barqaror iqtisodiy rivojlanish tufayli tabiiy resurslardan jadal sur'atlarda intensiv foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish iqtisodiyotning moddiy-resurs bazasini izdan chiqarishi va inson turmush farovonligining pasayishiga olib kelishi to'g'risidagi bahs-munozalar kuchaydi. Muhokamalardagi bosh g'oya – tabiiy resurslarni va inson uchun qulay atrof-muhitni saqlab qolish maqsadida tejamkor (rational) iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat edi. Uchinchi bosqich – 1980-1990 yillar. Ushbu davr rivojlangan mamlakatlarda "yashil" texnologiyalarni jadal sur'atlarda rivojlanish bosqichi bo'lib, ekologik modernizatsiya g'oyasi ilgari surildi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmuni iqtisodiy o'sish va sanoatning rivojlanishi ekologik jihatdan moslashishi iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda mutaxassislar o'rtasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi shakllana boshladi. So'nggi to'rtinchi (2000-2010-yillar) bosqichda esa barqaror rivojlanish konsepsiyasining xalqaro va milliy qonunchilikda, biznes-muhitda, ommaviy axborot vositalarida qayd etilishi va mustahkamlanishi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz xalqaro iqtisodiy tizimlarning beqarorligi muammosini yangicha talqin etishga undadi. "Erkin bozor" biosfera resurslarini saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'z-o'zini tartibga solishga qodir emasligi g'oyasi ilgari surildi. 2010-yildan hozirgacha bo'lgan davrni yashil iqtisodiyot uchun global miqyosda keng tarqalish davri bo'ldi desak bo'ladi. Bu davr mobaynida deyarli barcha davlatlarda yashil iqtisodiyot iqtisodiyotning asosiy tarmog'iga aylanib ulgurdi. Buning birdan bir sababi shundaki, hamma davlatlarda yashil iqtisodiyot hal qilishi mumkin bo'lgan muammolar paydo bo'ldi. Shu bilan birga yashil iqtisodiyotning ta'siri mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri tobora oshib bormoqda va bu jarayon iqtisodiy o'sishning yangi tarmoqlarini shakllantirmoqda. Eng avvalo, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, quyosh va shamol energetikasi sohalar nafaqat yuqori malakali muhandislar va texnik xodimlar uchun, balki oddiy ishchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qadoqlash va yashil qurilish kabi yangi yo'nalishlarda ham ko'plab kasblar shakllanmoqda. Yashil iqtisodiyotning bu jarayonlar orqali mehnat bozoriga olib kelayotgan o'zgarishlari O'zbekistonda ham sezilarli darajada namoyon bo'layapti. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni yangi texnologiyalarning joriy etilishiga va bu bilan bog'liq bo'lgan yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Misol uchun, elektr transport vositalari sanoatida benzin dvigatelli avtomobillar o'rniga elektr motorli avtomobillarni ishlab chiqarish bilan bog'liq texnik malakalar va ko'nikmalar shakllanmoqda. Bu jarayonda an'anaviy avtomobil mexaniklari o'rniga elektr transport vositalari bo'yicha mutaxassislar talab etiladi. Ushbu jarayonlar bilan bog'liq yangi kasblar nafaqat mehnat bozorini kengaytiradi, balki mavjud ishchilarning yangi texnologiyalarga moslashish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq faoliyatlarni kengaytirish orqali mehnat bozoridagi diversifikatsiyani kuchaytirmoqda. Korxonalar ekologik toza texnologiyalarni qo'llashga o'tgan sari, yangi mutaxassislar va yuqori malakali ishchilar talab etiladi. Bunday texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar ekologik jihatdan mas'uliyatli bo'lishni ta'minlaydi, bu esa mehnat bozorida kadrlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu davlatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va ishsizlikni kamaytirish muhim iqtisodiy masalalardan biridir. Yangi kasblar va sohalar paydo bo'lishi nafaqat mehnat bozori uchun foydali, balki aholi o'rtasida kambag'allik darajasining kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida odamlar orasida ekologik ongning rivojlanishi va bu bilan bog'liq faoliyatlarga qiziqish ortadi, bu esa mehnat bozoridagi talablarga javob beradigan yangi kadrlarning shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya sohasining o'sishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, quyosh panellari va shamol turbinalari ishlab chiqarish, o'rnatish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida minglab yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda. Bu nafaqat muhandislar va texnologlar uchun, balki oddiy ishchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni yo'lga qo'yimoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun milliardlab yevro mablag' ajratilmoqda. O'zbekiston ham bu yo'nalishda faol qadamlar tashlamoqda, xususan, quyosh va shamol energetikasi bo'yicha yirik loyihalar amalga

oshirilmoqda. Ekologik toza ishlab chiqarish nafaqat mehnat bozorida yangi kasblarni shakllantiradi, balki mavjud kasblarning ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Korxonalar atrof-muhitga zarur yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy etar ekan, yangi malakali mutaxassislar talab ortadi. Bu esa aholi o'rtasida ishsizlik darajasining pasayishini ta'minlaydi. Masalan, avtomobil sanoatida elektr transport vositalarini ishlab chiqarish keskin rivojlanmoqda. Elektr transport vositalari ishlab chiqarish jarayonida an'anaviy benzin dvigatelli avtomobillarga servis xizmatlari ko'rsatuvchi xodimlarga nisbatan boshqacha malakalar talab etiladi. Shuning uchun bu sohada yangi kasblar, yangi bilim va ko'nikmalar paydo bo'lishi muqarrar. Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri tobora ortib bormoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishi, ekologik toza ishlab chiqarishning kengayishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilib, mehnat bozori yangi bosqichga chiqmoqda. Kelajakda yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy o'sishning muhim omiliga ham aylanishi shubhasiz.

Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda va u iqtisodiy rivojlanishning barqaror va ekologik toza shaklini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik toza texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalar yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjud kasblarning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni keng qamrovli loyihalar orqali amalga oshirilib, bu o'z navbatida mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Elektr transport vositalari sanoati, quyosh va shamol energetikasi kabi yo'nalishlarda texnologik yangiliklar mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, bu jarayon o'zgarishlarga moslashishni talab qilmoqda.

Shu sababli, yashil iqtisodiyotning kengayishi mehnat bozoriga yangi talablar qo'yadi va malakali mutaxassislar sonini oshirish zaruriyatini tug'diradi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning yanada rivojlanishi uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yangi kasblar va malakalar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish lozim. Bu borada ta'lim muassasalarida yashil texnologiyalar va ekologik toza sanoatga oid dasturlarni joriy etish zarur. Yashil iqtisodiyot yo'nalishlarida ishlayotgan korxona va tadbirkorlarni rag'batlantirish, ularga soliq imtiyozlari va subsidiyalarni taqdim etish mehnat bozorida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hissa qo'shadi. Yashil iqtisodiyot sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklarni qo'llab-quvvatlash zarur. Bu esa yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga imkon beradi. Yashil iqtisodiyotning afzalliklari va ekologik barqarorlik haqida aholi orasida keng tushuncha shakllantirish kerak. Bu jarayon ekologik mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga va yashil mehnat bozoriga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda yashil iqtisodiyot O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynashi shubhasiz. Shu sababli, mehnat bozori yangi yo'nalishlar va kasblarga moslashib, yashil iqtisodiyot orqali barqaror va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi iqtisodiyotni yaratishda yetakchi rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ4477-son 2019-yil 4-oktyabr <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ-363-son Qonuni <https://tsul.uz/public/media>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 14 iyuldagi "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-628-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-10231>
4. Miriam Kenne, Michelle Gale De Oliveira. Greening the Global Economy: Reform and Transformation. The Green Economics Institute, 2013. - 350 p.
5. Yashil iqtisodiyot: Darslik. / A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. – Toshkent.: "Universitet", 2020. - 262 b.
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
7. O'zbekistonda ishsizlik darajasi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishidagi strategiyalar, maqsadlar va vazifalar tahlil qilingan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning yurtimiz iqtisodiyotidagi kelajak istiqbollari yuzasidan tahliliy fikrlar berilgan. Bundan tashqari yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, mehnat bozori, ekologiya, qayta tiklanuvchi energiya, ish bilan bandlik, yashil qurilish, yashil sanoat

Аннотация: В данной статье проанализированы стратегии, цели и задачи развития зелёной экономики в Узбекистане. Кроме того, приведены аналитические взгляды на перспективы зелёной экономики в экономической системе страны. Также рассмотрено влияние зелёной экономики на рынок труда.

Ключевые слова: зелёная экономика, рынок труда, экология, возобновляемая энергия, занятость, зелёное строительство, зелёная промышленность.

Annotation: This article analyzes the strategies, goals, and objectives of green economy development in Uzbekistan. Additionally, it provides an analytical perspective on the future prospects of the green economy within the country's economic framework. Furthermore, the impact of the green economy on the labor market is examined.

Key words: green economy, labor market, ecology, renewable energy, employment, green construction, green industry.

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGI: OMILLAR, STRATEGIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Rajabov N. R., Aitmuratov S. S.

TMII

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlarning iqtisodiy ahamiyati ortmoqda. Bu esa, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash zaruriyatini ko'taradi. O'zbekistonda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya jozibadorligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida shakllantirilgan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan 3-bo'limida 26-maqсад sifatida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, shuningdek, kelgusi besh yil ichida 120 milliard AQSh dollari miqdorida, shu jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari belgilangan. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.¹³

Hududning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish salohiyati va transport infratuzilmasi rivojlanishning muhim omili bo'lib, undan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish hududning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada O'zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligini oshirishning asosiy omillari va ularni baholash usullari ko'rib chiqiladi.

Hududning iqtisodiy jozibadorligini oshirish uchun davlat tomonidan investitsiyaviy muhitni yaxshilash, biznesga qulay sharoitlar yaratish va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, eksport salohiyatini oshirish, mahalliy va xalqaro bozorlarda tadbirkorlik subyektlarining faolligini kuchaytirish ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunday islohotlar va sa'y-harakatlar hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi hamda uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiyotning diqqat markazida quyidagi muammolar turibdi:

1. hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish strategiyasi, jamiyat va xo'jalikning hududiy tashkil etilishiga oid yangi shakl va usullarni qo'llash;
2. hududda ilmiy va innovatsion faoliyatni qayta tashkil etishga doir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;
3. hududiy yashash muhitini tartibga solish va aholining ekologik xavfsizlik tizimini yaratishga doir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;
4. mehnat sohasi, ijtimoiy rivojlanish va aholining ijtimoiy himoya qilishga oid hududiy muammolar.

Hududiy investitsion siyosat, bir tomondan, investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratishga, ikkinchi tomondan esa, hududning ichki investitsion resurslarini safarbar qilish va ularni investitsiyaga aylantirishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, hududning investitsion jozibadorligini ham tashqi, ham ichki investorlar uchun oshirish zarur. Hududning investitsion jozibadorligi - bu uning iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari, davlat, jamiyat, qonunchilik, siyosiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari majmui bo'yicha aniqlanadigan integral ko'rsatkichdir. Investitsion jozibadorlik jismoniy, moliyaviy, intellektual va inson kapitali vektorini belgilaydi. Investitsiyalarning jozibadorligini baholashda ichki va tashqi investitsiya manbalaridan foydalanish zarur, bu esa istiqbolli tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, kapital va mehnat migratsiyasini rag'batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligi va uning baholanishi — bu mamlakat iqtisodiy rivoji uchun muhim mavzu. Hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish va baholashga yordam beradigan asosiy jihatlarni qisqacha ko'rib chiqamiz.

Hududlarning investitsiya jozibadorligini baholash uchun quyidagi usullar qo'llanildi:¹⁴

1. Asosiy ko'rsatkichlar tahlili:

Jon boshiga YaIM.

Ishsizlik darajasi.

Chet el investitsiyalari hajmi.

Inson potensialini rivojlantirish indeksi (IPRI).

2. Reytinglar va indekslar:

Doing Business reytingi (biznes olib borish osonligi).

Korrupsiyani qabul qilish indeksi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063#-5842914>

¹⁴ A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. Investitsiya va innovatsiyalar. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 482 bet.

Hududlarning raqobatbardorlik indeksi.

3. Infratuzilmani tekshirish:

Yo‘llar, logistika, energetika holati.

Sanoat zonalari va parklarning mavjudligi.

4. Sohaviy ixtisoslashtirishni tahlil qilish:

Hududning asosiy sohalari aniqlash (masalan, qishloq xo‘jaligi, turizm, sanoat).

Yangi sohalarni rivojlantirish potentsiali (masalan, IT, yashil energetika).

5. Investitsiya jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash:

Infratuzilma.


Iqtisodiy potentsial.

Mehnat resurslari.

Davlat qo‘llab quvvatlashi.

Geografik joylashuvi.

Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik.



1-rasm. Hududlarning investitsiya jozibadorligini baholash usullari¹⁵

Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, O‘zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligiga quyidagi omillar ta’sir etadi:¹⁶

1. Infratuzilma:

Rivojlangan transport tarmoqlari (yo‘llar, temir yo‘llar, aeroportlar).

Energetika resurslarining mavjudligi va ularga kirish.

Telekommunikatsiya va internetaloqa.

2. Iqtisodiy potentsial:

Tabiiy boyliklar (mineral resurslar, qishloq xo‘jaligi yerlari).

Sanoat klasterlari va ishlab chiqarish qobiliyati.

Kichik va o‘rta biznesning rivojlanish darajasi.

3. Mehnat resurslari:

¹⁵ Muallif tomonidan ishlangan

¹⁶ A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. Investitsiya va innovatsiyalar. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 482 bet.

Ishchi kuchining malakasi.

Ma'lumotlilik darajasi va kasbiy tayyorgarlikka kirish.

Demografik vaziyat (yosh aholi).

4. Davlat qo'llabquvvatlashi:

Investorlar uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalar.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) va erkin iqtisodiy zonalar (EIZ).

Biznes uchun soddalashtirilgan ma'muriy jarayonlar.

5. Geografik joylashuvi:

Xalqaro bozorlarga yaqinlik (masalan, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston bilan chegara).

Transport koridorlariga kirish (masalan, Xitoy, Eron, Turkiya orqali).

6. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik:

Korrupsiya darajasi va tartibga solish shaffofligi.

Makroiqtisodiy barqarorlik (inflyatsiya, valyuta kursi).

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma, iqtisodiy potentsial va mehnat resurslari kabi ichki omillarni hisobga olish zarur. Bundan tashqari, davlat qo'llabquvvatlashi, geografiya va siyosiy barqarorlik kabi tashqi omillar ham muhim ahamiyatga ega.

Hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqishda investitsiyalar tuzilmasini tahlil qilish va investorlarning xatti-harakatlarini hisobga olish lozim. Bu esa, nafaqat chet el investitsiyalarini jalb etishga, balki mahalliy resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi. Qo'shimcha qilib aytgan holda, hududlarning sohaviy ixtisoslashtirishini hisobga olish lozim. Masalan, qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda agrosanoat kompleksini rivojlantirish, sanoat zonalar mavjud bo'lgan hududlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlar samarali bo'ladi. Jozibadorligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy potentsialni oshirish, mehnat resurslarining samaradorligini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llabquvvatlash choratadbirlarini amalga oshirish lozim.

Hududlarning investitsiya jozibadorligini baholash va oshirish bo'yicha ishlangan strategiyalar O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Bu esa, nafaqat mahalliy iqtisodiyotga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063#-5842914>
2. A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. Investitsiya va innovatsiyalar. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 482 bet.
3. A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. Investitsiya va innovatsiyalar. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 482 bet.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqilib, ularni baholash usullari taklif etiladi. Tadqiqot infratuzilma, iqtisodiy potentsial, mehnat resurslari, davlat qo'llab-quvvatlashi, geografik joylashuvi va siyosiy barqarorlikni tahlil qilishga asoslangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish uchun ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur. Investitsiyalar tuzilmasini tahlil qilish va investorlarning xatti-harakatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan strategiyalar hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Investitsiya jozibadorligi, iqtisodiy potentsial, mehnat resurslari, investitsiya imkoniyatlari, eksport potentsiali.

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность регионов Узбекистана, и предлагаются подходы к ее оценке. Исследование основано на анализе инфраструктуры, экономического потенциала, трудовых ресурсов, государственной поддержки, географического положения и политической стабильности. Результаты показывают, что для повышения инвестиционной привлекательности регионов необходимо учитывать как внутренние, так и внешние факторы. Разработка стратегий, основанных на анализе структуры инвестиций и поведении инвесторов, способствует устойчивому экономическому развитию регионов и страны в целом.

Ключевые слова: Инвестиционная привлекательность, экономический потенциал, трудовые ресурсы, инвестиционные возможности, экспортный потенциал.

Abstrakt. The article examines the key factors influencing the investment attractiveness of the regions of Uzbekistan and proposes approaches to its assessment. The study is based on the analysis of infrastructure, economic potential, labor resources, government support, geographical location, and political stability. The results show that both internal and external factors need to be considered to enhance the investment attractiveness of the regions. The development of strategies based on the analysis of investment structures and investor behavior contributes to the sustainable economic development of the regions and the country as a whole.

Keywords: Investment attractiveness, economic potential, labor resources, investment opportunities, export potential.

O'ZBEKISTONDA CO₂ GAZI CHIQINDILARINING O'ZGARUVCHANLIGINI BAHOLASH: ARCH/GARCH MODELLARI

Qo'ziyoyev B.

Urgench davlat universiteti

O'zbekiston iqtisodiyoti Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi qazib olinadigan yoqilg'i energiyasiga juda bog'liq. Aniqroq aytganda, qazib olinadigan yoqilg'i bilan bog'liq energiya iste'moli ulushi 2021-yilda umumiy energiya iste'molining 97,35 foizini tashkil etadi[1]. Shu sababli, mamlakatda karbonat angidrid chiqindilari yuqori.

O'zbekiston Parij iqlim kelishuvi maqsadlariga rioya qilishi va uglerod neytralligiga erishish uchun harakat qilishi shart. Parij iqlim kelishuviga muvofiq, O'zbekiston 2030-yilga borib YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasidan 35 foizga kamaytirishi kerak, bu birinchi Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar (MMBH) to'g'risidagi kelishuvda kelishilgan 10 foizlik pasayish bilan solishtirganda. Bundan tashqari, ushbu maqsadga erishish O'zbekistonning 2019-2030-yillarda "Yashil iqtisodiyot"ga erishish majburiyati va Barqaror rivojlanishning 16 ta maqsadi (BRM) bilan bog'liq. Ushbu xalqaro ekologik bitimlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirishi kerak.

So'nggi yillarda tadqiqotlar zanjiri CO₂ chiqindilari va uning determinantlari ta'siri o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan ko'plab ishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlar orasida O'zbekiston ham panel tadqiqotlarga kiritilgan yoki faqat tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarning kamchiligi shundaki, ular CO₂ chiqindilaridan kelib chiqadigan ekologik xavfni baholashga imkon bermaydi. Xavfni baholash CO₂ chiqindilarini kamaytirish uchun muhimdir, chunki ekologik muammolar dinamik xususiyatga ega va ular qaysi yo'ldan borishi aniq emas. Ushbu fakti hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot O'zbekistonda CO₂ chiqindilarining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun avtoregressiv shartli geteroskedastiklik (ARCH) va umumlashtirilgan avtoregressiv shartli geteroskedastiklik (GARCH) modellaridan foydalanadi. Adabiyotlarda CO₂ chiqindilari ko'pincha panel usullari yordamida boshqa o'zgaruvchilarga bog'liq holda o'rganiladi. Panel usullari orasida Zhang (2019), Hongxing et al. (2021), Salahodjaev et al. (2021), Apergis va Payne (2010), Rasoulinezhad va Saboori (2018), Masron and Subramaniam (2018) va Saidmamatov et al. (2023) larning ishlarini keltirish mumkin. Aniqroq qilib aytganda, Apergis va Payne (2010) 1992-2004-yillar davomida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari guruhi uchun vektor xatolarni tuzatish metodologiyasini qo'llaydi. Ularning ta'kidlashicha, energiya iste'moli uzoq muddatda CO₂ chiqindilariga statistik jihatdan sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va real ishlab chiqarish teskari U-simon shaklga ega bo'lib, Ekologik Kuznets egri chizig'i (EKC) gipotezasini qo'llab-quvvatlaydi. Rasoulinezhad va Saboori (2018) MDH mamlakatlari guruhi, shu jumladan O'zbekiston uchun CO₂ chiqindilari, iqtisodiy o'sish, qayta tiklanadigan va qazib olinadigan yoqilg'i energiyasi o'rtasidagi uzoq muddatli va sabab-oqibat aloqalarini empirik o'rganishda iqtisodiy o'sish va qayta tiklanadigan energiya o'rtasidagi bog'liqlikdan tashqari barcha o'zgaruvchilar va barcha mamlakatlarda ikki tomonlama uzoq muddatli munosabatlarni kuzatadilar. Masron va Subramaniam (2018) korrupsiyaning atrof-muhit holatiga bevosita va bilvosita ta'sirini 64 ta rivojlanayotgan mamlakat, jumladan O'zbekiston misolida ko'rib chiqdilar. Saidmamatov va boshqalar (2023) O'zbekistonni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyo mamlakatlarning beshta mamlakatida iqtisodiy o'sish, energiya iste'moli, qishloq xo'jaligi va sug'orish suvi iste'moli hamda qishloq xo'jaligi unumdorligini atrof-muhit ifloslanishi bo'yicha panel ma'lumotlar modellarini, ya'ni Panel FMOLS, Panel DOLS va Panel ARDL-PMG yondashuvlarini qo'llagan holda 1992-2020-yillar oralig'ida o'rganadilar. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish, suv unumdorligi, energiya iste'moli va elektr energiyasi ishlab chiqarish CO₂ chiqindilariga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi, qo'shilgan qiymat va savdo ochiqqligi esa Markaziy Osiyoda CO₂ chiqindilariga salbiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Apergis va boshqalarning (2023) maqolasida 1985-2020-yillar davomida O'zbekistonda qayta tiklanadigan va qazib olinadigan yoqilg'ilar energiyasi iste'molining CO₂ chiqindilariga ta'sirini o'rganish uchun ARDL vaqt qatori modeli qo'llaniladi. Ular CO₂ chiqindilarining asosiy sababchilari qazib olinadigan yoqilg'i energiyasi iste'moli ekanligini, qayta tiklanadigan energiya iste'moli esa CO₂ chiqindilariga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ARCH/GARCH2 modellaridan foydalangan holda CO₂ chiqindilarining o'zgaruvchanligini o'rganadigan yagona tadqiqot mavjud emas.


Adabiyotlarda baholash va bashoratlash maqsadlarida avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha va avtoregressiv shartli geteroskedastiklik modellarida CO₂ chiqindilaridan foydalanish ommalashmoqda. Aniqroq aytganda, Lotfalipour va boshqalar (2013) 1965-2010-yillar oralig'ida Eronda CO₂ chiqindilarini Grey System va Autoregressive Integrated Moving Average asosida bashorat qilgan. Ushbu ikki usulni taqqoslab, ular Grey tizimi prognozi ikkinchisiga qaraganda aniqroq ekanligini aniqladilar. Dutta va boshqalar (2018) bivariativ VAR-GARCH yondashuvidan foydalanib, uglerod chiqindilari bozori va toza energiya zaxiralari bozori o'rtasidagi bog'liqlikni (Yevropa Ittifoqi ajratmalari (EUA) narxlar va toza energiya zaxiralari daromadlari o'rtasidagi kunlik daromad va o'zgaruvchanlik aloqalari) o'rgandilar. Ularning natijalari chiqindilar va Yevropaning toza energiya narxlar indeksleri o'rtasidagi sezilarli o'zgaruvchan bog'liqlikni ko'rsatadi. Benz va Truk (2009) AR-GARCH modelidan foydalangan holda yangi Yevropa Ittifoqi miqyosidagi CO₂ chiqindilari savdosi tizimining (EU ETS) karbonat angidrid (CO₂) chiqindilari me'yorlarining qisqa muddatli spot narxlarini tahlil qiladi. Ularning natijalari qiyshayish, ortiqcha kurtos va, xususan, daromadlardagi o'zgaruvchanlik xatti-harakatlarining turli bosqichlarini aks ettiruvchi modelning adekvatligini kuchli qo'llab-quvvatlaydi. Byun va Cho (2013) uglerod fyucherslari

narxlaridan foydalangan holda GARCH turidagi modelni qo'llab, o'zgaruvchanlikni prognoz qilish qobiliyatlarini o'rganadilar. Ularning natijalari tufayli Brent nefti, ko'mir va elektr energiyasi uglerod fyucherslarining o'zgaruvchanligini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. ARIMA-ARCH modeli va bashoratlash uchun dinamik jarayon ham qo'llaniladi. Natijalarni taqqoslab, ular statik protsedura (ASP) dinamik protseduraga (GARCH) nisbatan yaxshiroq prognoz berishini aniqladilar.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar sharhini hisobga olgan holda, O'zbekistonda CO₂ chiqindilarining o'zgaruvchanligini ARCH/GARCH modellari yordamida empirik baholash uchun motivatsiya paydo bo'ladi.

O'zbekistonda karbonat angidrid chiqindilarining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun 1925-2021-yillarga mo'ljallangan million tonnalarida o'lchanadigan CO₂ chiqindilarining yillik ma'lumotlaridan foydalaniladi. The data is downloaded from Our World in Data (<https://ourworldindata.org/co2/country/uzbekistan>).

1-rasm.CO₂ gazining haqiqiy qiymati va o'zgaruvchanligi grafigi O'zbekistonda 1925-2021 yillardagi chiqindilar



O'zbekiston misolida CO₂ chiqindilarining o'zgaruvchanligini baholash uchun ARCH (Autoregressive Conditional Heteroskedasticity [2] (Engle, 1982) va Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity (GARCH) (Bollerslev, 1986) [3] modellaridan foydalanildi. ARCH modeli vaqtli qator dispersiyasi uchun ekonometrik model hisoblanadi. Engle (1982) ushbu modeldan Buyuk Britaniyadagi inflyatsiyaning o'rtacha ko'rsatkichlari va farqlarini baholash uchun foydalangan. So'nggi paytlarda ARCH modeli atrof-muhit omillarining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun qo'llanilmoqda [4] (Sudha, 2015). Bu bizga ARCH modelini atrof-muhit o'zgaruvchilari uchun yanada qo'llash uchun motivatsiya beradi. Bundan tashqari, biz tahlilda ARCH modeli uchun Narayan et al. [5](2018) kabi yillik ma'lumotlardan foydalanamiz.

O'zgaruvchanlikni baholashdan oldin, natural logarifm shaklida ishlatiladigan ma'lumotlar birlik ildiz testi uchun tekshiriladi. Shu maqsadda kengaytirilgan Dikki-Fuller (ADF) va Fillips-Perron (PP) testlari qo'llaniladi.

Atap aytqanda, 2014-2023 jıllar dawamında kishi biznes hám jeke isbilermenlik subyektlariga berilgen kreditlarning JIO kólemidagi úlesi ortasha 7,3 procentti, kommerciyalıq banklardın kredit qoyımları kólemidagi úlesi ortasha 21,3 procentti quradı. Bir waqtın ózinde analiz etilgen dáwir dawamında kishi biznes hám jeke isbilermenlik subyektlariga berilgen mikrokreditlarning JIO kólemidagi úlesi ortasha 1,5 procentti, kommerciyalıq banklardın kredit qoyımları kólemidagi úlesi ortasha 4,5 procentti quradı. Biraq, Evropada mikrokredit bazarının mámleket JIO kólemidagi úlesi 6 - 16 procentti quraydı.

Atap aytqanda, «Germaniyada bul kórsetkish 6 procentti, Franciyada 11 procentti, Shveyariyada 12 procentti hám Ullı Britaniyada 16 procentti quraydı».[6]

Búgingi kúnde kishi biznes hám jeke isbilermenlik subyektlariga baslangısh qarjısın qalıplestiriwi, islep shıǵarıw iskerligin keńeytiwi ushın mikroqarız, mikrokredit, mikrolizing, faktoring xızmetlerin hám de islamiy finanslıq támiynlewge tiyisli túrli xızmetlerdi kórsetiwde kommerciyalıq banklerge alternativ túrde nobank kredit shólkemleri de zárúrli ámeliy áhmiyetke iye bolmaqta. Bul bolsa finans bazarı qatnasıwshıları arasında saw báseki ortalıǵın jaratadı. Sol qatnas penen Ózbekstanda mikrokredit shólkemleri iskerligin aymaqlar boyınsha proporcional rawajlandırıw zárúr.

Joqarıdaǵı juwmaqlar sheńberinde kárxanalardıń finanslıq turaqlılıǵın támiynlewde bank iskerligin jetilistiriw boyınsha tómendegi usınıslar islep shıǵılǵan: Ekonomikanıń bank hám real sektorları arasındaǵı óz-ara baylanıstın sinergetikalıq ózgesheligin jańalaw kerek; Integraciyanı kúsheytiw sheńberinde real sektor ushın ámeldegi bank xızmetleri ushın shárt-shárayatlar hám procent stavkaların optimallastırıw, atap aytqanda, islep shıǵarıw úskeneleri ushın kredit, aylanba qarjılardı toltırıw ushın kreditler, kontokorrent, sanaat hám kommerciyalıq ipoteka, rollover, overkollardı engiziw kerek; Real sektor kárxanaları joybarlarına asociaciyalanǵan hám sindikatlanǵan investiciya kreditlerin engiziw, sonıń menen birge, sanaat ipotekaların usınıw boyınsha usınıslar kommerciyalıq banklerdiń hám korporativ klientlerdiń interaktivligin hám de sheriklik dárejesin asırıw imkaniyatın beredi; Kishi biznes hám jeke isbilermenlik subyektlariga mikrokreditler ajratıwdıń barlıq basqıshları, atap aytqanda mikrokredit arızaların kórip shıǵıw, bul boyınsha qararlar qabıllaw, olarǵa kepiller beriw hám mikrokredit (mikrolizing) ajratıw sanlastırılǵan halda elektron platformalarda ámelge asırıwǵa erisiw kerek; Kishi biznes hám jeke isbilermenlik subyektlarin finanslıq qollap-quwatlawdı jetilistiriw maqsetinde isbilermenlik iskerligin jolǵa qoyıw yamasa keńeytiw ushın olarǵa jeńillikli dáwir menen mikrokreditlerdi girewsiz yamasa girew talabı 50 procentke shekem páseytirilgen halda ajratıw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Juwmaqlap aytqanda, joqarıdaǵı usınıslar bank sektorının resurs bazasın bekkemlew hám kárxanalardıń real sektordagi islep shıǵarıw quwatın asırıw, hár túrdegi risklerdi kemeytiw hám hár eki sektordıń integraciyalasıwın kúsheytiw arqalı joqarı dáramatlılıq dárejesine erisiw imkaniyatın beredi.

ÁDEBIYATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi PQ-364- son «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2023 yil 15 noyabrdagi PQ-366-son «Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari asosida ishlab chiqilgan.
3. Julliq esabat-2023.pdf (cbu.uz)
4. BIS Statistics Explore (<http://stac.bis.org/statx>).
5. Asosiy_yunalishlar_2024_2026.pdf (cbu.uz).
6. Рынок МФО в мире: зарубежный опыт и перспективы развития | РБК Компании (rbc.ru)

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda tijorat banki tomonidan xizmatlar ko'lamini takomillashtirish yo'llari

Аннотация: Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish amaliyoti, mikromoliyalashning hajmi va dinamikasi tahlili amalga oshirilgan. Kichik biznes sub'ektlari uchun mikrokreditlardan foydalanish shartlari, tijorat banklari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari bayon qilingan. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes sub'ektlarini mikromoliyalash tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Калит so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, tijorat banklari, yalpi ichki mahsulot.

Пути совершенствования объема услуг коммерческим банком в обеспечении финансовой стабильности предприятий

Аннотация: В данной статье проведен анализ практики микрофинансирования субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства коммерческими банками, объема и динамики микрофинансирования. Описаны условия использования микрокредитов для субъектов малого бизнеса, меры по повышению доступности микрофинансовых услуг коммерческими

банками. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на развитие системы микрофинансирования субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, коммерческие банки, валовой внутренний продукт.

Ways to improve the range of services provided by commercial banks in ensuring the financial stability of enterprises

Abstract: This article analyzes the practice of microfinancing small businesses and private entrepreneurship by commercial banks, as well as the volume and dynamics of microfinancing. The conditions for using microloans by small businesses and measures to improve the accessibility of microfinancial services by commercial banks are described. Based on the research results, scientific and practical proposals aimed at developing the microfinancing system for small businesses have been developed.

Keywords: small business, entrepreneurship, commercial banks, gross domestic product.

РЕСПУБЛИКАМИЗ СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ ЕВРОПА ДАВЛАТЛАРИДАН ФАРҚЛИ ЖИХАТЛАРИ

Кудияров К. Р.

Қорақалпоқ давлат университети

Ривожланишга эришиш учун, рақамли билимлар ва замонвий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу эса бизга ривожланишнинг энг қисқа йўлидан бориш имконини беради. Бугун жаҳонда барча соҳаларда ахборот технологиялари теран кириб бормоқда. Албатта, “Рақамли иқтисодиёт” ни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ресурсларини талаб қилишини яхши тушунамиз. Лекин, қанчалик оғир бўлмасин, бу ишга киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади. Рақамли технологиялар фақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади ва ортиқча харажатларни камайтиради.

Президентимиз Фармони билан 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Ривожланиш стратегияси тасдиқланди. “Харажатлар стратегиясидан – Ривожланиш стратегияси сари” тамойили асосида ишлаб чиқилган 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг ривожланиш стратегияси ва ўни “Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” да амалга оширишга тегишли давлат дастури тасдиқланди[1,1].

Иқтисодий ислохотларнинг асосий мақсади мунтазам иқтисодий ўсишга эришиш бўлиб ҳисобланади. Бу мақсадга эришмай туриб, халқнинг турмуш даражасини ошириш, ижтимоий муаммоларни ечиш, давлатнинг жаҳондаги иқтисодий-сиёсий мавқеини мустаҳкамлаш мукин эмас. Бозор иқтисодиётига ўтаётган барча давлатлар қаторида Ўзбекистонда мунтазам иқтисодий ўсишга эришиш иқтисодий ислохотларнинг асосий мақсади қилиб билгилаб олинди. Бизга маълумки, республикаимиз иқтисодиёти кейинги йилларда жуда юқори суръат билан ривожлониб кетмоқда. Бунинг асосий сабаби ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа соҳаларга киритилаётган инвестициялар, шунингдек инвесторларга яратилаётган солиқ соҳасидаги қўлайликлар ва маҳаллий солиқ соҳасидаги маҳаллий корхоналар учун солиқ имтиёзлари ҳисобидан бўлмоқда.

Иқтисодиёт тармоқларида мунтазам юқори ўсиш суръатларини таъминлаш орқали келгуси беш йилда халқ жон бошига ялпи ички маҳсулотни – 1,6 баробар ва 2030 йилга бориб халқ жон бошига тўғри келадиган даромадни 4 минг АҚШ долларида ошириш ва “даромадни ўртачадан юқори бўлган давлатлар” қаторига кириш учун имконият яратиш, шунингдек 2026 йилга бориб тадбиркорлик субъектларига солиқ юқини ялпи ички маҳсулотнинг 27,5 фоизидан 25 фоиз даражасига камайтириш назарда тутилган. Бюджет сиёсати, бюджет процесси ва давлат молия соҳасидаги халқнинг иштирокини юксалтириш халқаро жамоатчилик томонидан мунтазам иқтисодий ривожланишнинг аҳамиятли шарти сифатида талаб қилинмоқда. Шундан келиб чиқиб макроиқтисодий кўрсаткичларни таҳлил қиладиган бўлсак, қўйидагиларни кўриб ўтишимиз мумкин.

Солиқлар нафақат давлатнинг бюджетини тўлдириш манбаи бўлиб хизмат қилади. балки корхоналарнинг молиявий фаолиятига таъсир кўрсатадиган муҳим инструментлардан ҳисобланади. Жумладан, билвосита солиқлар ишлаб чиқаришнинг самарали тартибга инструмент ҳисобланиб, улар билвосита корхоналарнинг нархларни ошириш орқали эмас, балки ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш орқали фойда ўсишини таъминлашга йўналтиради. Солиқ тизими ҳар бир давлатнинг иқтисодий барқарорлиги ва ижтимоий таъминотида муҳим роль ўйнайди. Айниқса, жисмоний шахслар даромадларидан олинадиган солиқлар мамлакат бюджети учун барқарор манба ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда солиқ тизimini соддалаштириш, рақамлаштириш ва солиқ юқини оптималлаштиришга қаратилган кенг қўламли ислохотлар амалга оширилди.

Солиқларнинг ижобий томонлари корхоналарда меҳнат самарадорлиги, ишлаб чиқариш ва бошқарув учун ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш йўллари топиш учун корхоналар самарали фаолиятини билвосита рағбатлантиришни ўз ичига олади. Корхоналарнинг фаолияти самарадорлигини оширишда солиқ тўловларининг уларнинг молиявий натижаларига таъсирини тизимли равишда таҳлил қилиб бориш зарур ҳисобланади. Солиқнинг корхоналарнинг молиявий фаолиятига таъсири юқори даражада бўлиб, солиқ тизimini такомиллаштириш корхоналар фаолиятини ривожланишини рағбатлантиришда муҳим роль ўйнади, шу сабабдан ноаниқлик шароитида тадбиркорлик субъектларини солиққа тортишни оптималлаштириш керак. Солиқлар ва солиққа тортишни такомиллаштириш йўналишларида кўплаб илмий изланишлар олиб борилишига қарамасдан, ушбу тадқиқотларда барча масалалар тўлиқ кўриб чиқилмаган. Илмий адабиётларда солиққа тортишнинг тадбиркорлик фаолияти самарадорлигига таъсирини баҳолашнинг ягона ёндашуви ҳалигача мавжуд эмас.

Маълумки, маҳсулотнинг рақобатбардошлиги асосан икки мезон – сифати ва нархи билан белгиланади. Солиқ тўловлари ушбу мезонларга бевосита таъсир қилади. Масалан, агар солиқ юки корхоналар фаолияти учун оғир бўлса, юқори сифатли хом ашё ва материалларни олиш, янги техника ва технологияни жорий этиш, юқори малакали мутахассисларнинг меҳнатига муносиб иш ҳақи тўловлар учун етарли маблағларга эга бўлмаслигига олиб келиши ўз навбатида маҳсулот сифатини таъминлаш имкониятини бермайди. Солиқ тўловлари маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархини ошириши оқибатида сотиш нархини юқори бўлишига олиб келади, бу табиий равишда маҳсулотларнинг рақобатбардошлигига салбий таъсир қилади, айниқса хорижий ишлаб чиқарувчиларни товарлари билан солиштирганда. Билвосита солиқлар ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгаришига қараб, шартли равишда доимий (мол-мулк солиқлари, ер солиқлари) ва шартли ўзгарувчанларга (фойда солиғи, ижтимоий солиқ ва бошқалар) ажратилади. Шартли ўзгармас солиқларнинг қиймати ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгариши билан амалда ўзгармайди. Шартли ўзгарувчан солиқларнинг хусусиятлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши билан улар бўйича солиқ тўловлари ўсиш тенденциясига эғалиги билан изоҳланади. Шу сабабдан, агар корхоналарда ишлаб чиқариш (иш, хизматлар) ҳажмини пасайиб бориш тенденцияси мавжуд бўлса, бундай ҳолатда шартли равишда доимий солиқлар корхонанинг молиявий натижаларига энг салбий таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, Европа давлатларида жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиёти турлича шаклланган бўлиб, ҳар бир давлатнинг солиқ сиёсати унинг ижтимоий-иқтисодий моделидан келиб чиққан ҳолда шакллантирилади.

Ушбу тадқиқотда жисмоний шахслар учун солиқ солиш амалиёти Ўзбекистон ва Европа давлатлари мисолида қиёсий таҳлил қилиниб, уларнинг фарқли жиҳатлари ва ҳар бир тизимнинг устунлик томонлари кўрсатиб берилади. Мавзунинг долзарблиги шундаки, Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш, яширин иқтисодиётини кискартириш ва солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бугунги куннинг устувор вазифаларидан биридир.


Ушбу тадқиқотда иқтисодий-статистик таҳлил, қиёсий таҳлил ва норматив ҳужжатларни таҳлил қилиш усуллари қўлланилди. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси, Молия вазирлиги ва Европа Иттифоқи давлатларининг расмий статистик маълумотлари асосида сўнгги уч йиллик (2022–2024) рақамли кўрсаткичлар ўрганилди. Шунингдек, Tax Foundation ва OECD каби халқаро ташкилотлар эълон қилган очиқ маълумотлардан фойдаланилди.

Қиёсий таҳлил натижасида қуйидаги муҳим жиҳатлар аниқланди:

1. Ўзбекистонда жисмоний шахслар учун даромад солиғи ягона 12% ставкада белгиланган бўлиб, бу Европа давлатларидаги энг паст ставкадан ҳам камдир.
2. Европа мамлакатларида, жумладан Франция (55.4%), Дания (55.9%), Швеция (52.3%) каби давлатларда прогрессив солиқ тизими қўлланилади[2,18].
3. Ўзбекистонда рақамлаштириш жараёни жадал кечмоқда, 2023 йилда “my.soliq.uz” платформасидан 7 млн га яқин фукаро фойдаланган.
4. Солиқ имтиёзлари орқали — айниқса ИТ соҳаси ва фрилансерлар учун — юридик ва жисмоний шахсларга катта энгилликлар берилмоқда.
5. Европа давлатларида солиқлар ижтимоий таъминотни молиялаштириш учун фойдаланилса, Ўзбекистонда солиқ тизими иқтисодий фаолликни рағбатлантиришга қаратилган[4,16]. Бу эса, Ўзбекистондаги паст ставка, тадбиркорлик ва иш фаоллигини рағбатлантиришда муҳим омил эканини кўрсатади.


Ўзбекистон солиқ тизимининг асосий устунлиги — унинг соддалиги ва паст солиқ юки ҳисобланади. Бу тадбиркорликни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Европа давлатларидаги прогрессив тизим эса юқори даромадли катламдан кўпроқ солиқ ундиришга ва ижтимоий баробарликни таъминлашга қаратилган.

Қуйидаги диаграмма Ўзбекистон ва Европанинг айрим давлатларида жисмоний шахслар даромад солиғи ставкаларини таққослайди:



Бироқ Европа тизимидаги юқори солиқ юки баъзан соя иқтисодиётига ёки чет элга капитал чиқиб кетишига олиб келиши мумкин [5,8]. Ўзбекистонда рақамлаштириш жараёнлари солиқ тизимини шаффофлаштиришга хизмат қилмоқда. Шунингдек, жисмоний шахсларни солиққа тортиш бўйича таҳлиллар шундан далолат берадики, келгусида даромад бўйича прогрессивлик унсурларини эҳтиёт билан жорий этиш Ўзбекистон учун маъқул бўлиши мумкин.

Қуйидаги диаграмма сўнгги йилларда Ўзбекистонда рақамли солиқ хизматларидан фойдаланувчилар сони ортиб бораётганини кўрсатади [3,13].



Бу рақамлаштиришнинг амалиётда ўз самарасини бераётганини тасдиқлайди.

Тадқиқот натижаларига асосан қуйидаги хулосалар ва таклифлар берилади: Ўзбекистонда ягона ставка сақланиб қолинган ҳолда, айрим юқори даромадли тоифалар учун иложи борица прогрессив ставка элементлари жорий этилиши мумкин; Солиқ имтиёзларини мақсадли бериш механизми такомиллаштирилиши керак; Европа тажрибасидан келиб чиқиб, ижтимоий мақсадли йўналтирилган солиқлар бўйича механизмлар кўриб чиқилиши лозим; Солиқчилар ва солиқ тўловчилар ўртасида ишончли алоқа ўрнатиш учун ахборот-коммуникация воситалари орқали мулоқот кучайтирилиши зарур.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, маҳсулотнинг рақобатбардошлиги асосан икки мезон – сифати ва нархи билан белгиланади. Солиқ тўловлари ушбу мезонларга бевосита таъсир қилади. Масалан, агар солиқ юки корхоналар фаолияти учун оғир бўлса, юқори сифатли хом ашё ва материалларни олиш, янги техника ва технологияни жорий этиш, юқори малакали мутахассисларнинг меҳнатига муносиб иш ҳақи тўловлар учун старли маблағларга эга бўлмаслигига олиб келиши ўз навбатида маҳсулот сифатини таъминлаш имкониятини бермайди. Солиқ тўловлари маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархини ошириши оқибатида сотиш нархини юқори бўлишига олиб келади, бу табиий равишда маҳсулотларнинг рақобатбардошлигига салбий таъсир қилади, айниқса хорижий ишлаб чиқарувчиларни товарлари билан солиштирганда. Солиқ юки қанчалик катта бўлса, солиқ тўловларининг маҳсулот таннархига таъсири шунчалик юқори бўлади. Маҳсулот таннархига солиқ юкининг кўрсаткичи нафақат солиққа тортиш тизимидаги ўзгаришларга боғлиқ, шу билан бир қаторда, ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажми, барча ишлаб чиқариш омилларидан ва биринчи навбатда, ишчи кучидан фойдаланиш самарадорлигига, чунки сугурта тўловлари маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархининг таркибида сезиларли улушни эгаллайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг ривожланиш стратегияси тўғрисида» ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони
2. Tax Foundation. “Top personal income tax rates in Europe”, 2024.
3. OECD Tax Policy Studies – “Taxing Wages 2023”.
4. Европарламент таҳлиллари: www.europarl.europa.eu
5. World Bank – “Uzbekistan Economic Update”, 2023.

Rezyume. Bu maqolada soliqlarning iqtisodiyotdagi va byudjetning daromadlar qismini shakllantirishdagi roli, shuningdek soliq sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar haqida yozilgan.

Kalit soʻzlar: soliq, byudjet, iqtisodiyot, eksport.

Резюме. В данной статье рассматривается экономическое значение налогов и его роль в формировании доходной части бюджета, а также ход реформ в этой отрасли.

Ключевые слова: налог, бюджет, экономика, экспорт.

Summary. In this article, the problem of economic meanings of taxes and its role in formation of profit part of the budget, and also reforming process in this sphere, is considered.

Key words: tax, budget, economy, export.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКОЙ

Жолдасов А.А.

Каракалпакский государственный университет

Термин «зеленая экономика» был впервые определен в 1989 году Дэвидом Пирсом, Анилом Маркандья и Эдвардом Барбье в «Проекте зеленой экономики». Он определил парадигмы и основные идеи зеленой экономики, которые будут здесь главным аргументом. Нынешние результаты системы цен при распределении природных ресурсов в экономике заключаются в том, что она ориентирована на окружающую среду. Во время мирового финансово-экономического кризиса 2008-2009 гг. это понятие стало все чаще использоваться в системе ООН. Так, в 2009 г.

Программа ООН по окружающей среде опубликовала Доклад по «зеленой» экономике, положивший начало ее развитию. Эта тема обсуждалась в 2012 г. на саммите большой двадятки (G20).

Оригинальное определение «зеленой» экономики дает немецкий экономист Фюкс Р. подчеркивающий, что для неё «характерен продуктивный синтез биологической эволюции и технологий... рост вместе с природой». Он доказывает, что экологические инновации, и прежде всего, биотехнологические инновации и переход на возобновляемые источники энергии и эффективные технологии будут лежать в основании следующей длинной волны роста. В результате, считает ученый, произойдет постепенный переход к биоэкономике (3, с. 6).

Похожую точку зрения обосновывает Храмов А. полагающий, что сущность «зеленой» экономики определяется тем, что экономика является частью природы и нужно управлять экономикой природы, а не охраной окружающей среды для целей производства.

«Зеленая» экономика – это новая модель экономического развития, целью которой является повышение благосостояния населения и достижение социального равенства при одновременном снижении экологических рисков и экологического дефицита. Многие страны приняли политические решения о переходе на возобновляемые источники энергии, решительном продвижении органического сельского хозяйства и повышении продуктивности земель и воды. В развитых странах потребительскую культуру накрыла «зеленая» волна. Мир накопил опыт использования различных инструментов «зеленой экономики» в своей национальной политике и стратегиях развития. Основными целями «зеленой экономики» в сельском хозяйстве являются повышение эффективности использования и управления водными, земельными и биологическими ресурсами, а также обеспечение национальной и водной безопасности. Эта концепция включает в себя скоординированную политику во всех секторах, связанных с ресурсами.

В настоящее время вопросами «зеленой экономики» занимаются различные организации и комитеты при ООН. В их число входят Департамент ООН по экономическим и социальным вопросам (ДЭСВ ООН), Инициатива «зеленой» экономики (GEI), группы регулирования «зеленой» экономики. В частности, GEI начала свою деятельность в 2008 году и объединяет около двадцати организаций и учреждений системы ООН.

Международной практической деятельности по обеспечению устойчивого развития способствовала инициатива ООН. В 2000 году Генеральная Ассамблея ООН приняла Цели развития тысячелетия, а 2015 год был установлен как год оценки достижения целей. В 2012 году ООН подчеркнула необходимость постановки мировым сообществом целей развития после 2015 года для достижения незавершенных целей «Целей развития тысячелетия». Таким образом, на конференции «Рио+20», проведенной ООН в 2012 году по теме устойчивого развития, мировые лидеры договорились о разработке Целей устойчивого развития (ЦУР). Цели устойчивого развития включают в себя экономические, социальные и экологические показатели, служащие созданию комфортного образа жизни для всех. Эти цели включены в повестку дня, которую должны реализовать все государства-члены ООН в 2015-2030 годах. Обеспечение стабильного экономического роста в рамках устойчивого развития, усиление инновационного подхода к «чистым технологиям», проблемы формирования «зеленой экономики» регулярно обсуждаются на международных экономических, экологических и инвестиционных форумах. Концепция «зеленой экономики» на практике формирует основу дискуссий. Некоторые исследователи определяют сущность «зеленой» экономики как практический подход для достижения устойчивого развития.

Сущность «зеленой» экономики более полно раскрывается с помощью таких понятий, как «зеленый» рост, «органическое сельское хозяйство», «зеленые» рабочие места, «зеленые» закупки, «зеленое» Финансирование, «зеленые» облигации, «зеленые» инновации и другие. «Зелеными» принято называть такие виды деятельности, которые содействуют охране окружающей среды, ее восстановлению и развитию «зеленых» секторов экономики. С расширением «зеленой» экономики будет расти число «зеленых» рабочих мест. Под «зеленым» ростом обычно понимают такой рост ВВП, который происходит в «зеленых» условиях и опирается на «зеленые» секторы экономики как драйверы роста.

Мировой рынок органических продуктов ежегодно растет на 20% и к 2020 г. может достигнуть 200-250 млрд долларов США.

Перспективы развития рынка «зеленых» технологий в мире в 2016–2025 гг. [19]

№	Сегменты рынка «зеленых» технологий	2016	2025		Средне-годовой темп роста в 2016–2025 гг.
		Млрд евро	Млрд евро	2025 г. к 2016 г. (раз)	
1	Экологически чистое производство, накопление и распределение энергии (ВИЭ, накопители, Smart grid и т.д.)	667	1164	1,75	6,4
2	Субрынок энергоэффективности	837	1491	1,8	6,6
3	Эффективное использование сырья и материалов (в том числе производство биологических заменителей ископаемого сырья)	521	1048	2,0	8,1
4	Экологически устойчивая мобильность (развитие новых транспортных технологий и производство биотоплива)	412	988	2,4	10,2
5	«Циркулярная» экономика (экономика обращения с отходами)	110	210	1,9	7,4
6	Экологически устойчивое водное хозяйство (в том числе разные аспекты управления стоками)	667	1001	1,5	4,6
Итого:		3214	5902	1,8	6,9

Как было сказано выше, концепция «устойчивого развития» становится главной целью стран мира. Кульминацией этого вопроса стало принятие 195 странами политики удержания глобального потепления на уровне +2 С на Конференции ООН по изменению климата, состоявшейся в Париже, Франция, в 2015 году. На конференции 147 стран представили планы «зеленой экономики», 147 стран представили программы по использованию возобновляемых источников энергии, а 167 стран представили рекомендации по повышению энергоэффективности в ответ на изменение климата.

Устойчивое развитие (англ. Sustainable development) — процесс экономических и социальных изменений, в котором эксплуатация природных ресурсов, направление инвестиций, научно-техническое развитие, развитие личности и институциональные изменения взаимосвязаны и формируют сегодняшний и завтрашний потенциал для удовлетворения человеческого потребности. В данном случае она в основном предназначена для повышения качества жизни человека. Целью концепции «зеленой экономики» является обеспечение устойчивого экономического роста и повышение активности инвестиций, повышение качества охраны окружающей среды и социальной интеграции. Для достижения этой цели потребуются широкомасштабное направление государственных и частных инвестиций в экологические и социальные факторы устойчивого развития.

На наш взгляд, «зеленая экономика» не может подавить спрос на устойчивое развитие и является важным критерием достижения устойчивого развития. Суть устойчивого развития заключается в том, что нынешнее поколение должно организовать свою экономическую деятельность таким образом, чтобы последующие поколения имели экономические возможности и благосостояние не меньше, чем они. Устойчивое развитие требует целостного и взаимосвязанного развития экономических, социальных и экологических компонентов.

В целом взаимосвязь понятий «устойчивое развитие», «зеленый рост» и «зеленая экономика» позволяет более глубоко раскрыть смысл понятия «зеленая экономика». «Построение зеленой экономики» обеспечит зеленый рост и поможет реализовать стратегию устойчивого развития. Поэтому «зеленую экономику» можно рассматривать как основу для достижения долгосрочных целей устойчивого развития.

Целей ООН в области устойчивого развития: «Покончить с голодом, обеспечить продовольственную безопасность, улучшить потребление и содействовать устойчивому сельскому хозяйству», и сельское хозяйство играет важную роль в достижении этой цели. В развивающихся странах сельское хозяйство является основным источником занятости и единственным источником дохода для бедных. «Зеленое» сельское хозяйство играет важную роль в снижении уровня бедности в мире. Использование «зеленых» методов ведения сельского хозяйства помогает совместно решать проблемы деградации окружающей среды и бедности.

«Зеленое сельское хозяйство» способно полностью удовлетворить растущую потребность населения Земли в продуктах питания до 2050 года. По некоторым оценкам, с помощью внедрения «зеленых технологий» и методов ведения сельского хозяйства можно к 2050 году увеличить пищевую единицу с 2800 ккал на человека до 3200 ккал. «Зеленая» экономика даст возможность увеличить действенность использования ресурсов, уменьшить загрязнение

окружающей среды, поднять состояние окружающей среды и уменьшить издержки на поддержание и обслуживание экономики и таким способом повысить экономический рост в перспективе.

Чтобы «зеленая экономика» развивалась, государство обязано разработать новые подходы к финансированию и созданию новых стимулов, переориентировать инвестиции государства в сторону «зеленой» продукции. Одновременно могут применяться разнообразные инструменты: капитальные инвестиции в «зеленую» экономику, законы, которые помогают совершенствованию «зеленой» экономики; стимулы и ограничения на использование природных ресурсов; извещение общественности для изучения с причинами возникновения «зеленой» экономики и с выгодами, получаемыми от нее.

«Зеленая» экономика - это экономика с низкими выбросами углеродных соединений, которая использует ресурсы и отвечает вниманию всего общества. Одновременно увеличение доходов населения осуществляется за счет вкладываний в энергосберегающие и ресурсосберегающие технологии. Переход к «зеленой» экономике должен реализовываться на уровне государства с установлением соответствующих нормативных актов. Вдобавок, нужно полностью отказаться от финансирования технологий, которые разрушают природу, и подготовить новые рыночные механизмы, которые будут способствовать приливу «зеленых» инвестиций.

Таким образом, развитие «зеленой» промышленности призвано не только уменьшить уровень загрязнения окружающей среды, сократить потребление природных ресурсов, но и стимулировать развитие инноваций и новых сфер промышленности, что позволит создать новые рабочие места и снизить уровень бедности.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Тошева М.Р. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ "ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ" ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА (Докторант, Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»)
2. Вахабов А., Хажибакиев Ш., Утемуратова Г., Исмаилова А., Жиёмуратов Т. "ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА"
3. Селищева Т.А. ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА КАК МОДЕЛЬ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
4. Бексултанов А.И. Теоретические аспекты «зеленой» экономики.

Резюме: В данной статье рассматривается определение термина “Зелёная Экономика”, история происхождения термина, мнение учёных и их исследования, основные цели зелёной экономики и роль ООН в зелёной экономике.

Ключевые слова: ООН , зеленая экономика, сущность, основные цели, стратегия развития, мировой рынок, Устойчивое развитие.

Rezyume: Ushbu maqolada "yashil iqtisodiyot" atamasining ta'rif, atamaning paydo bo'lish tarixi, olimlarning fikri va ularning tadqiqotlari, yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlari va BMTning yashil iqtisodiyotdagi roli muhokama qilinadi.

Tayanch suzlar: BMT, yashil iqtisodiyot, mohiyati, asosiy maqsadlari, rivojlanish strategiyasi, jahon bozori, Barqaror rivojlanish.

Summary: This article discusses the definition of the term “Green Economy”, the history of the origin of the term, the opinion of scientists and their research, the main goals of the green economy and the role of the UN in the green economy.

Key words: UN, green economy, essence, main goals, development strategy, world market, Sustainable development.

MAKTAB FIZIKA KURSIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH TAFAKKURINI ENERGIYA MANBALARINI O'RGANISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Nurniyazov P. Q.

Qoraqalpog' davlat universiteti

KIRISH. Jahon bo'yicha hozirgi zamonda energetika sohasida global muammolardan hisoblangan energiya yetishmovchiligi sababidan mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy holat darajalari belgilanib borilmoqda. Bunday holatlarning oldini olish uchun mamlakatlarda energiya muammolarini yechishga qaratilgan islohotlar olib borish muhim rol o'ynaydi. Shu sababdan maktab o'quvchilariga energiya manbalari haqidagi dastlabki bilimlardan boshlab, zamonaviy yechimlarga qadar bilimlarni berish bilan birga ularning ongli kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Energiya manbalarini o'rganish jarayonida o'quvchilar nafaqat fizikaviy tushunchalarni o'zlashtiradilar, balki zamonaviy hayotdagi energiya manbalarining ahamiyatini, ularning ekologik va iqtisodiy ta'sirini baholay olishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarori [1] va 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-436-son qarori [2] kelajakdagi energiyaga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi. Fizika ta'limining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdir. Tanqidiy tafakkur – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni anglash va mustaqil ravishda xulosa chiqarish qobiliyatidir. AQSh ning Kolorado universiteti olimi Beichner R.J. "Interfaol dars metodlari talabalar o'rtasida mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi", deb ta'kidlaganidek, ularning tadqiqotlari fizika ta'limi tushunchalarini talabalarga yanada chuqurroq o'rgatishga qaratilgan [3]. D.E.Meltzer esa, "Energetika konsepsiyasi inventarizatsiyasi" talabalar energiya tushunchalarini chuqur anglashlarini baholashda samarali vositadir" deb ta'kidlaydi [4]. Shu nuqtai nazardan maqolada, 6-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan energiya manbalariga oid mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

METODLAR. Mavzu bo'yicha o'rganiladigan materiallar, har bir sinfning o'ziga xos energiya manbalari haqidagi tushunchalarini o'z ichiga oladi. Har bir sinfda energiyaning turli jihatlari ko'rsatilgan bo'lib, bu o'quvchilarga amaliy va nazariy bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Maqolada 7-8-9-10-11 sinf fizika darsliklari tahlil qilinib, energiya manbalariga oid mavzulari o'rganilib, o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish asoslari ko'rib chiqildi. 6-sinfda 64 ta mavzudan 12 tasida energiya va ish tushunchalari bilan tanishiladi [10]. O'quvchilar energiya manbalari turlari, ularning ishlash prinsiplari haqida ma'lumot olishadi. Ushbu mavzu o'quvchilarga energiya turlarini ajratib ko'rish va turli energiya manbalarining ta'sirini tahlil qilish imkonini yaratadi. Masalan, issiqlik, mexanik va elektr energiyalari haqida tushuncha berish orqali o'quvchilarda taqqoslash, ta'riflash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

7-sinfda 62 ta mavzudan 19 tasida mexanik energiya va uning turlari o'rganiladi. O'quvchilar energiyaning turli shakllari va ularning bir-biriga aylanishi bilan tanishadilar [11]. Mexanik quvvat va energiya o'lchovlarini ko'rib chiqish o'quvchilarga matematik tahlil qilish va jarayonlarni hisoblashda yordam beradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarda analitik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi. 8-sinfda 60 ta mavzudan 21 tasida elektr energiyasi va uning turli jarayonlari haqida ma'lumotlar beriladi [12]. Elektr toki, kuchlanish, zaryadlanish kabi tushunchalar o'rganiladi. Elektr energiyasining amaliyotdagi ishlatilishi (masalan, elektr zanjirlari, kuchlanish va tok kuchi) bilan bog'liq masalalar o'quvchilarning mustaqil ishlashini va ilmiy metodologik yondashuvni rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar orqali ilmiy kuzatuvlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

9-sinfda 59 ta mavzudan 14 tasida issiqlik energiyasi va termodinamika qonunlari o'rganiladi. Bu yerda ichki energiya, issiqlik miqdori, termodinamik jarayonlar va ularning energiya sarfi ko'rib chiqiladi [13]. O'quvchilar issiqlik hodisalari orqali energiyaning transformatsiyasini tahlil qilishadi va termodinamika qonunlari asosida turli energetik jarayonlarning samaradorligini baholashga o'rgatiladi. Bunday materiallar o'quvchilarning muammolarni hal qilish va tajriba qilish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. 10-sinfda 59 ta mavzudan 12 tasida elektr maydonlari, elektrostatika va yarimo'tkazgichlar fizikasi haqida ma'lumot beriladi [14]. Zaryadlangan jismlar, ular o'rtasidagi ta'sirlarni va hozirgi paytdagi asosiy elektr energiya manbasi hisoblangan keng qo'llanilayotgan yarimo'tkazgichlarga oid bilimlar o'rganish o'quvchilarning ilmiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradi. Bu mavzuda o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlashadi, shu bilan birga noan'anaviy energiya manbalarining to'g'ri ishlatilishiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

11-sinfda 45 ta mavzudan 12 tasida elektromagnit induksiya, fotoelektrik effekt va yadro reaksiyalari kabi murakkab konseptlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar nazariy bilimlarini laboratoriya tajribalari, modellar va simulatsiyalar orqali sinab ko'rishadi [15]. Bu esa ularni nazariy tushunchalarni tanqidiy tahlil qilishga va ularning real hayotdagi qo'llanilishini baholashga undaydi. Har bir mavzu o'ziga xos amaliy muammolarni o'z ichiga oladi (masalan, elektromagnit tebranishlar,

fotonlarning energiyasi va impulsini aniqlash yoki yadro energiyasi xavfsizligi). Ushbu masalalar o'quvchilarga muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va yangi, innovatsion yechimlar topish jarayonida o'z fikrlarini mustaqil shakllantirish imkonini beradi. Mavzularning kundalik hayotdagi, sanoatdagi va ilmiy tadqiqotlardagi qo'llanilishi haqida misollar keltirish, o'quvchilarga energiya tushunchalarining qanchalik keng doiradagi qo'llanilishini ko'rsatadi va ularni real muammolarni tahlil qilishga, shuningdek, mavjud yechimlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi [5, 6, 7].

Ushbu metodik izlanishlar natijasidagi tahlillar fizika darslarida o'quvchilarning faol ishtirokini, qiziquvchanligini, energiya manbalariga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga olib keladi. Maktab o'quvchilarining fizikani o'rganishda energiyaga oid bilimlarini shakllantirishda sinflar kesimidagi darsliklardagi bog'likligi bor mavzular doirasida o'quvchilarga yangi bilimlar berish maqsadida energiya manbalari bo'yicha jadval ishlab chiqildi (1-jadval). Maktab fizika darsliklarida zamonaviy energiya manbalariga oid ma'lumotlar yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, o'quvchilarga mavzu doirasidagi bilimlarni yangicha zamonaviy talqinda yetkazib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval. Energiya manbalari turlariga qarab tavsiflarining berilishi

Energiya manbasi	Turi	Tavsif
Quyosh energiyasi	Qayta tiklanadigan	Quyosh nuri orqali olinadigan energiya; fotovoltaik panellar va quyosh issiqligi texnologiyalari.
Shamol energiyasi	Qayta tiklanadigan	Shamolning kinetik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish; shamol turbinalari orqali ishlaydi.
Suv energiyasi	Qayta tiklanadigan	Suvning oqimidan yoki tushishidan olinadigan energiya; gidroelektr stansiyalar asosida ishlaydi.
Geotermal energiya	Qayta tiklanadigan	Yerning ichki issiqligidan olinadigan energiya; issiqlik nasoslari va geotermal stansiyalar.
Biomassa energiyasi	Qayta tiklanadigan	Organik materiallardan (o'simliklar, hayvon chiqindilari) olinadigan energiya; yonilg'i va biogaz ishlab chiqarishda qo'llaniladi.
Yadro energiyasi	Qayta tiklanmaydigan	Atom yadrolarining bo'linishi orqali olinadigan energiya; yadro reaktorlarida qo'llaniladi.
Fosil yoqilg'i	Qayta tiklanmaydigan	Neft, ko'mir va tabiiy gaz kabi resurslardan olinadigan energiya; sanoat va transportda keng qo'llaniladi.

Natijalar va muhokama. Energiyaning turli shakllarini o'rganish orqali o'quvchilarda nafaqat fizikaviy tushunchalar, balki amaliy va nazariy bilimlar ham shakllanadi. O'quvchilar o'rgangan energiya manbalarini turli muammolarni yechishda qo'llashlari mumkin. Masalan, energiya manbalarining samaradorligini hisoblash, ekologik jihatlarni tahlil qilish, energiya tejash va resurslarni tejash usullarini ishlab chiqish o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Har bir sinfda o'quvchilar ilmiy metodlarni qo'llashga o'rgatiladi va bu orqali ularning o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish, tahlil qilish va amaliy masalalarni yechish qobiliyatlarini rivojlanadi. Tanqidiy tafakkur o'quvchilarning bilimlarni kengaytirish va ularni zamonaviy dunyo bilan bog'lashga yordam beradi [8, 9]. Quyida tadqiqotda qatnashgan 78 o'quvchiga (6–11-sinf) nisbatan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari ijobiy samaradorlik darajasini ko'rsatishi kuzatilgan statistik analizi keltirilgan. Natijalarda o'quvchilarning pre-test va post-test baholari, shuningdek, so'rovnomalar asosida olingan o'z-o'zini baholash va dars metodlariga bo'lgan qoniqish ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Quyidagi jadvalda har bir sinf bo'yicha o'quvchilarning pre-test va post-test baholari ma'lum darajada yaxshilanish ko'rsatganligi keltirilgan (2-jadval):

2-jadval. Pre-test va post-test natijalari

Sinf	Pre-test (%)	Post-test (%)	O'zgarish (%)
6-sinf	40	51	11
7-sinf	45	57	12
8-sinf	50	63	13
9-sinf	55	66	11
10-sinf	60	74	14
11-sinf	65	78	13

Natijalarda o'rtacha farq 12,33 ga, standart o'g'ish 1,21 ga, standart xatolik 0,49 ga, t-test qiymati 25,15 ga, erkinlik darajasi 5 ga teng ekanligini ko'rsatib pre-test va post-test natijalari orasidagi (taxminan 11–14% oraliq) yaxshilanish statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, energiya manbalariga oid bilimlarni yangicha zamonaviy talqinda qo'llanilganidan so'ng o'quvchilarning o'rtacha natijalari sezilarli darajada yaxshilandi ($t(5) \approx 25$, $p < 0.001$). Bu interfaol va yangicha o'qitish metodlarining ijobiy ta'sirini isbotlaydi.

Xulosa. Energiyaning turli manbalarini o'rganish orqali o'quvchilarda nafaqat fizika faniga bo'lgan qiziqish uyg'onadi, balki ularning tanqidiy tafakkur va ilmiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlanadi. Har bir sinf mavzusiga mos ravishda, o'quvchilarga energiya turli shakllari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishi haqida chuqurroq bilim berish lozim. Bu nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning zamonaviy muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son [qarori](https://lex.uz/docs/-6385716) // <https://lex.uz/docs/-6385716>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son [qarori](#) // <https://lex.uz/ru/docs/-6303230?ONDATE=03.12.2022&action=compare>
3. Beichner R.J., & Saul J.M. Tutorials in Introductory Physics: Improving Conceptual Understanding // American Journal of Physics, 79(10), 2011. – P. 1058–1065,
4. Meltzer D.E. The Energy Concept Inventory: Assessing Student Understanding of Energy // Physical Review Special Topics - Physics Education Research, 10(1), 2014. 010114,
5. Reif F. Understanding and Teaching Important Scientific Ideas: The Role of Multiple Representations // Science Education, 98(1), 2014. – P. 21–38,
6. Jonassen D. H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments (2nd ed.) – Routledge, 2014.
7. Facione P. A., Critical Thinking: What It Is and Why It Counts – Insight Assessment, 2015.
8. Kadirov Z.A. Fizika o'qitish jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish // Journal of Physics Education, 3(1), 2017. – B. 45–50,
9. Xolmatov Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida fizika darslarini interfaol tashkil etish // O'zbekiston Pedagogika Jurnal, 5(3), 2018. – B. 32–38,
10. Turdiyev N.Sh. Fizika Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari 6-sinfi uchun darslik // «Niso Poligraf» nashriyoti, 2019. – B.192
11. Turdiyev N.Sh. Fizika: Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari 6-sinfi uchun darslik // «Niso Poligraf» nashriyoti, 2019. – B.192
12. Suyarov K.T. Fizika 7-sinf uchun darslik // Respublika ta'lim markazi, 2022. – B.192
13. Habibullayev P. Fizika umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B.176
14. Habibullayev P. Fizika umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B.176
15. Tursunmetov K.A., Usmonov Sh.N. Raxmatov J.A., Xomidov D.B., Fizika 10-sinf uchun darslik // Respublika ta'lim markazi, 2022. – B.192
16. Turdiyev N.Sh. Fizika 11-sinf darslik // «Niso Poligraf» nashriyoti, 2018. – B.192

Annotatsiya. Ushbu maqolada 7-11-sinf fizika darsliklaridagi energiya manbalari ga oid mavzular tahlil qilinib, har bir sinfning o'ziga xos energiya tushunchalari va ularning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganildi. Tadqiqot pre-test va post-test natijalari, so'rovnoma va statistik metodlar yordamida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi interfaol metodlar samaradorligini oshiradi. Natijalar, darsliklar va amaliy mashg'ulotlar asosida yaratilgan yangicha zamonaviy yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi, muammolarni hal qilish va ilmiy tahlil ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini tasdiqladi. Bu maqola turli xil metodlar orqali darsning samaradorligini oshirish va o'quvchilarning mantiqiy fikrini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: energiya manbalari, fizika darsliklari, tanqidiy tafakkur, interfaol o'qitish, amaliy mashg'ulotlar, nazariy tahlil, pedagogik metodologiya, dars materiallari, elektr, mexanik, issiqlik energiyasi, laboratoriya tajribalari

Аннотация: В этой статье анализируются темы, связанные с источниками энергии в учебниках физики для 7-11 классов, рассматриваются уникальные энергетические концепции каждого класса и их теоретические и практические аспекты. В исследовании использовались результаты предварительного и посттестового тестирования, опросы и статистические методы для повышения эффективности интерактивных методов в развитии критического мышления учащихся. Результаты подтвердили, что современные инновационные подходы, основанные на учебниках и практических упражнениях, значительно повышают уровень знаний учащихся, их способности решать проблемы и навыки научного анализа. Данная статья посвящена повышению эффективности урока и развитию логического мышления учащихся с помощью различных методов.

Ключевые слова: источники энергии, учебники физики, критическое мышление, интерактивное обучение, практические упражнения, теоретический анализ, педагогическая методика, материалы урока, электричество, механическая энергия, тепловая энергия, лабораторные эксперименты.

Annotation: This article analyzes topics related to energy sources in physics textbooks for grades 7-11, examining the unique energy concepts of each grade and their theoretical and practical aspects. The study utilized pre-test and post-test results, surveys, and statistical methods to enhance the effectiveness of interactive methods in developing students critical thinking. The findings confirmed that modern innovative approaches based on textbooks and practical exercises significantly improve students' knowledge levels, problem-solving abilities, and scientific analysis skills. This article focuses on increasing lesson effectiveness and strengthening students' logical thinking through various methods.

Keywords: energy sources, physics textbooks, critical thinking, interactive teaching, practical exercises, theoretical analysis, pedagogical methodology, lesson materials, electricity, mechanical energy, thermal energy, laboratory experiments.

OILA MUSTAHKAMLIGI MUAMMOSINING PSIXOLOGIYA FANIDA O'RGANILGANLIGI HOLATI

Temirbekov B. O.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, qadriyatlarining rivojlanishini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas dargohdir. Unda xalq ruhi, qadriyatlar ko'zgusi namoyon bo'ladi. Undagi totuvlikning ta'minlanishi yoshi ulug' a'zolariga bog'liq hisoblanadi

Evropada ajrashishlar 1960 yilda har 1000 ta oilaga 9 ta to'g'ri kelgan bo'lsa, 1988 yilda 133 taga etdi (ya'ni, 14 barobar o'sdi). Ota-ona oilasidan hali oila qurmasdan alohida yashayotganlar 1960 yilda 17%ni tashkil etayotgan bo'lsa, 1980 yilda 60%ga etdi. Nikohsiz yashayotganlar 8% dan 50%ga etdi. Raynxard Zider "Zolotoy vek i krizis sem'i v evrope s 1960. do nashix dnei" nomli ilmiy ishida evropa mamlakatlaridagi oilalarda qanday o'zgarishlar bo'lganini statistik ma'lumotlar bilan aniq ko'rsatgan. Ayollar qanchalik ko'p ishlab chiqarishga, davlat ishlariga jalb qilinsa, tug'ish ko'rsatkichlari shunchalik to'g'ri proporsional ravishda kamayadi. Muallif Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Avstriya, Niderlandiya, Daniya, Shvetsiya mamlakatlarida tug'ish ko'rsatkichlarining keskin pasayganligini ko'rsatgan. Deyarli barchasida tug'ish ko'rsatkichlari 2-2,5 barobar kamayib, demografik nuqtai nazardan tahlil qilganda o'ta murakkab inqirozli vaziyatga tushgan. Shu ko'rsatkichlar boshqa hududlarda o'rganilganda, u erlarda ham o'xshash holat haqida ma'lumot olish mumkin bo'lardi, deb hisoblaymiz. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ayollarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi, urbanizatsiya ajralishlar soniga kuchli ta'sir qiladi. Bugungi kunda evropaning rivojlangan mamlakatlarida ajralish ko'rsatkichlari 40%dan 50%gacha boradi.

R. Zider ajralishlarning yana bir nechta omillarini qayd etadi/ Yillar o'tgani sari kishi o'rta umr yoshi uzayishi bilan turmush o'rtog'ining er-xotin sifatida yashagan yillari ham oshib boradi. Masalan, 1870 yillarda oila qurganlar o'rta hisobda 23,4 yil er-xotinlikda birga yashagan bo'lsalar, 1900 yillarda 28,2 yil, 1930 yillarda 36 yil, 1970 yillarda 43 yil birga yashashgan. R.Ziderning ta'kidlashicha, birga yashash yillar ko'paygan sari bir-biriga to'yinish, bir-biridan charchash va nihoyat bir-biri bilan ajralish mumkinligi ehtimolini oshirib brogan [1, 102-109].

Sobiq Ittifoq davri va mustaqillik davrida rus oilalarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari V. Drujinin (1996, 2007) tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra oilada kim etakchi ekanligi bo'yicha oilalar uch guruhga bo'lingan: 1. Oilada etakchi bor; 2. Oilada etakchi rasmiy jihatdan mavjud; 3. Oilada etakchi aniq emas.

Birinci guruh oilalar aksariyat qishloq hududida bo'lsa, ikkinchi guruh oilalar shahar hududida ko'proq uchragan.

Oilada ko'proq etakchilikni ona olib borgan, chunki ota aksariyat vaqtini mehnat faoliyatida o'tkazgan, vaholanki, rasmiy oila boshi ota hisoblanadi. Oiladagi muhim masalalarda so'nggi so'z va qaror otaga tegishli bo'lgan, chunki oilani moliyaviy jihatdan ota ta'minlaydi. Tadqiqot natijalarining yana bir muhim tomoni shundaki, oiladagi etakchilik uchun kurash oila mustahkamligiga salbiy ta'sir etuvchi omil ekanligi aniqlangan.

Oilada etakchi bo'lgan shaxs mas'uliyatni ham bo'yniga olishi kerak. etakchilikka da'vogarlik qilib mas'uliyatni o'zga (turmush o'rtog'i)ga yuklasa, ushbu oilada nizolar ko'p bo'ladi. Etakchilik qilgan shaxs mas'uliyatni his qilishi, qarorlariga javob berishi shart [2, 47-52]. D.A.Melnikova va O.V.El'koninlar (2016) yosh oilalarda nikohdan qoniqishning psixologik omillarini tadqiq qilishgan. Ularning o'rganish ob'ekti, kontingentini nikohdan qoniqqanlar tashkil etgan. Mualliflarning asosiy vazifasi er-xotinlardagi aybdorlik hissi bilan nikohdan qoniqish saviyasi orasidagi bog'lanishni aniqlab, aybdorlik hissini nikohdan qoniqish mezoni sifatida foydalanish bo'lgan.

Ularning olgan natijalariga ko'ra aybdorlik hissi yosh oilalarda erkaklarda ayollarga nisbatan yuqoridir. Shunga ko'ra mualliflar yosh oilalarda xotin erini noo'rin tanqid qilishi, oilada o'zini to'laqonli ega sifatida his etishi, oilaviy munosabatda keskin tanqidiy fikr bildirishidan erkaklar noo'rin jabr ko'rishi mumkinligini, o'zlarini aybdor his etishlari va bu ularning kayfiyatiga, emotsional holatiga salbiy ta'sir etishini ko'rsatishgan.

Oilani mustahkamlashga bag'ishlangan A.N.Makarov, A.M.Davlitovlar hamkorligida yaratilgan monografiyalarda Rossiyaning munitsipalitet saviyasida oila institutini mustahkamlashga bag'ishlangan qimmatli ma'lumotlar o'z ifodasini topgan [3, 77]. Ushbu monografiyada Rossiya Federatsiyasida tarixan 1917 yildan boshlab bugungi kungacha oila institutiga bo'lgan turli yondashuvlar (turli tarixiy bosqichlarda) bayon etilgan. Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi davlat doirasida oilalarga yordamning moddiy-iqtisodiy tomoniga e'tibor berishi bilan cheklanayotgani, oila siyosatini belgilashda asosan demografiya muammosi doirasidan tinmayotganligi haqida tanqidiy fikr bildirilgan. Shunga qaramay Tataristonda oila siyosatini keng doirada olib borilayotganligi, oilaga barcha zarur tizimlar xizmatini yo'lga qo'yishlik haqidagi ijobiy, namunali tajriba bilan tanishtirilgan. Quyida Rossiya Federatsiyasi doirasida bajarilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan qimmatli takliflar berilgan ishlar tahlili keltirilgan. M.Argayn o'zaro munosabatning baxt hamda qoniqish bilan bog'liqligini, ya'ni munosabatlarning baxt hamda qoniqishga ta'sirini tadqiq etgan. U uch guruh odamlar (oilali, yolg'iz va ajrashganlar) orasida baxtlilar necha foizni tashkil etishini o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra o'zini baxtli his etgan oilali erkaklar 35% ni, yolg'iz erkaklar 18,5% ni, ajrashganlar ham 18,5% ni tashkil qilgan.

Ayollarda baxtlilar quyidagi tartibda joylashgan: oilali – 41,5%; yolg'iz – 25,5%; ajrashganlar – 15,5% ni tashkil qilgan. Tadqiqot natijalarining yana bir qimmatli tomoni farzandli ota-onalarni farzandsiz er-xotinlardan to'rt omil bo'yicha yaqqol farq qilishini ko'rsatgan.

Omilar	Bolali er-xotinlar	Farzandi yo'qlar
Muhabbat va o'zaro muloqot	63%	58%
Bolalarning o'sishi ota-onalari hayotiy tonusini oshirishi	58%	38%
O'zini reallikda ifoda etishdan mamnunlik	34%	33%
O'zini katta, etuk his etish	21,5%	10,5%

Ya'ni, bolali er-xotinlarga nisbatan, farzandsiz er-xotinlarda bu ko'rinish nisbatan past bo'lgan. [4, 23-25]

A.I.Antonov tadqiqotida bir bolali oila bilan oiladagi nizolilik orasida va aksincha 2-3 bolalilar bilan oiladagi do'stonalik, uyushganlik, mehr-muhabbat orasida farq borligi aniqlangan.

Shu tadqiqotning o'zida "Oilada men boshliq" degan jihat aksariyat nizoli oilalarda namoyon bo'lishi va aksincha oila boshlig'i sifatida turmush o'rtog'ini ko'rsatish, ya'ni etakchilikka da'vo qilmaslik, etakchilikni birgalikda olib borish, manmanlikka berilmaslik, o'z shaxsini bo'rttirib ko'rsatmaslik, etakchilikning ifoda etilmaganligi mustahkam oilalarda ko'p kuzatilishi A.I.Antonovning tadqiqotida o'z tasdig'ini topdi va mustahkam bo'lmagan nizoli oilalarda aksincha holat kuzatildi. Mustahkam oilalarda erkakning etakchiligi 32%, ajrashgan oilalarda 13% ni tashkil etdi. Shunga asosan, A.I.Antonov fikricha, oilada erkak etakchilik qilishi ko'proq maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda ikkita muhim fikrni aytib o'tish lozim. Birinchidan, hammaga ma'lum zararli odatlar va ular ichida keng tarqalgan alkogolizm oilaviy hayot mustahkamligiga, bolalar tarbiyasiga, oila a'zolari salomatligiga katta zarar etkazadi. Ikkinchidan, alkogol ichimliklarni suiiste'mol qilish erkaklarga nisbatan ayollar ushbu odatga tez va kuchli berilishiga olib keladi. Ayniqsa, oilada bolalarga tarbiya berish masalasida ichkilikbozlikning zarari ulkandir.

Estoniyalik olim D.Nutsar estonlarning ajralish arafasida bo'lgan oilalarini tadqiq qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra oila mustahkam bo'la olmaganligiga sabab – birinchidan, ular bir-birining xarakteridagi salbiy xislatlarni oila qurgunga qadar yaxshi bilmaganligi, ba'zan "tarbiyalab olaman" degan fikrda bo'lishi, ikkinchidan, oilaning aksariyat erkaklari alkogol ichimliklarni iste'mol qilishi (erkaklarda nikohga qadar 28%, oilaviy hayot davrida 63% ga etadi, ayollarda bu ko'rsatkich oila qurgunga qadar 1.5%, oila qurgandan so'ng 3% ni tashkil qiladi).

Er-xotin bo'sh vaqtini uyda birga o'tkazishi dastlabki bosqichlarda 64.4% ni tashkil qilgan bo'lsa, ma'lum vaqtdan so'ng 16.3% ga tushdi. Oilaviy hayotning dastlabki bosqichlarida uyda ayolni bir o'zi bo'lgan kunlar 24.4 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'nggi paytlari (ajralish oldidagi holatda) 75.7 % ni tashkil qiladi.

Ayol va erkakning yaqin munosabatlari oilaviy hayotning dastlabki bosqichlarda 67.6% ni tashkil qilgan bo'lsa, ma'lum vaqt o'tgach 37.3% ga tushdi. Analogik ko'rsatkichlar (deyarli 2 baravar pasaygan) er va do'st yoki dugonalarning respondent ayolga nisbatan munosabatlari yomonlashgani, uzoqlashganligini qayd etdi. Oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillardan biri – nikohdan tashqari munosabatlar A.N.Volkova tomonidan tadqiq etilgan.

Bu turli adabiyotlarda turlicha bayon (xoinlik, nikohdan tashqari munosabatlar va b.) etiladi. Bizning fikrimizcha, bu holatni ortiqcha hissiy-emotsional tarzda ifoda etmasdan, ilmiy tilda turmush o'rtog'iga vafosizlik yoki nikohdan tashqi munosabatlar tarzida ifoda etish maqsadga muvofiqdir. Chunki xoinlik so'zini vatanga nisbatan ishlatishimiz o'rinlidir.

Vatan va turmush o'rtog'ini mazmun va qiymat jihatidan tenglashtirish, bizning fikrimizcha, o'rinli emas. Nikohdan tashqari munosabatlarni, oila mustahkamligiga mutlaq ta'sir etmaydigan va oilaning buzilishi, ajralishiga olib keladigan turlarga bo'lishimiz mumkin. Bir martalik ma'lum tasodifiy vaziyatga ko'ra yuz bergan nikohdan tashqi munosabat oilaviy hayotga va uning mustahkamligiga mutlaq ta'sir etmasligi yoki u haqidagi ma'lumot tor doiradan chiqib ko'pchilikka oshkora bo'lishi mustahkam oilaning ma'lum vaqt tinchligi, er-xotin munosabatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu haqida G'.B.Shoumarov ham "Muhabbat va oila" (1992 yil) kitobida ko'rsatib o'tgan. A.N.Volkovadan farqli ravishda G'.B.Shoumarov 19 ta sababni ifoda etgan.

A.N. Volkova tomonidan oilaviy nizolarning 7 ta turi berilgan. Oila mustahkamligiga katta xavf yuzaga kelishi – yangi muhabbat ob'ekting paydo bo'lishidir. Yana bir turi mavjudki, unda oila ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra oila sifatida davom etmasligi muqarrar bo'lganda yangi oilani yuzaga kelishi ehtimoli yuzaga keladi. Buni vafosizlik turlar tarkibiga kiritilishi mohiyat jihatidan asosli bo'lsa ham, ilmiy va psixologik jihatdan asossizdir.

Oilalarning mustahkamligiga kuchli ta'sir etuvchi omillardan yana biri yangi oila qurgan yoshlarning nikoh-oila muhiti va talabiga moslashishidir [5, 51-53]. V.A.Sidenno fikriga ko'ra, nikoh-oilaga moslashishning quyidagi turlari mavjud: turmush o'rtog'ining temperament, xarakter, xulq-atvoriga hamda ruhiy dunyosiga moslashishi; turmush o'rtog'i ehtiyojlari, odatlari, hayot tarziga moslashishi; turmush o'rtog'ining asosiy hayotiy qadriyatlariga, hayotdagi maqsadlariga, hayot falsafasiga moslashishi; jinsiy hayotga moslashishi; turmush o'rtog'i kasb faoliyatiga moslashishi.

Muallif moslashishni 4 ta turga ajratadi va uning xususiyatlarini ifoda etadi: yuqori moslashuvchan shaxslar; o'rta moslashuvchan shaxslar; quyi moslashuvchan shaxslar; moslashuvchanligi buzilgan shaxslar.

Yuqori moslashuvchilar "tug'ma psixologlar" barcha sharoitga oson, muammosiz moslashish xususiyatiga ega. Quyi moslashuvchilarga alkogolizmga ruju qo'nganlar, isterik, nevrozlar, turli turg'un keskin sotsiologik fobiyalarga ega shaxslar kiradi. Bu guruhga giyohvand (narkoman) shaxslar, engil va o'rta darajadagi aqli zaiflar ham kiradi.

Sobiq Ittifoqning so'nggi 10 yilligida Rossiya olimlari tomonidan oila muammosi faol o'rganilga bo'lsa, Ittifoq tarqatilgandan so'ng, dastlabki 10-15 yillar fanga, ilm ahliga, ta'limga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga e'tiborning keskin pasayganligi Rossiya Federatsiyasida juda katta muammolarni yuzaga keltirdi. Ular quyidagilardan iborat: tug'ish ko'rsatkichlarining keskin pasayib ketishi; o'lim ko'rsatkichlari keskin oshishi; nikohdagilar sonining keskin qisqarishi; ajralishlar soni o'sishi; nikohgacha jinsiy hayot keskin oshishi; voyaga etmagan yoshda tug'ish va bolalarni nikohdan tashqari tug'ish soni oshishi; onalikdan voz kechishlar soni oshishi va o'zi tug'gan bolalarni o'ldirish holatlari ko'payishi; bolalar va o'spirin yoshdagilar orasida jinoyat qilish sonining oshishi; oila a'zolari orasidagi hissiy yaqinlik zaiflashishi; nikohsiz yashashning keskin o'sishi, oila qiymatining pasayishi; noto'liq oilalar soni oshib borishi, bir jinsli oila ko'payishi; Yoshlar ongida oila maqomining keskin pasayishi va boshqalar kuzatilmoqda.

Yuqoridagi holatlar Rossiya Federatsiyasida oila institutini o'ta ayanchli holatga olib keldi. Demografik bazasini yaxshilash uchun mutaxassislar fikricha, har bir ayol 3,5 nafar tug'ishi shart. Ammo Rossiyaning bugungi holatida tug'ishni yuqoridagi (3,5 bola) ko'rsatkichga etkazish norealdir [6, 38].

1989 yilda Rossiya aholisi orasida 20 yoshgacha bo'lganlar 30% ni, 60 yoshdan oshganlar 15% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 20 yoshgacha bo'lganlar 22% ni, 60 yoshdan oshganlar 21% ni tashkil qilgan.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan Rossiyada nima qilish zarurligi borasida A.N.Makarov va A.M.Davidova o'zlarining takliflarini "Upravlenie institutom sem'i na munitsipal'nom obrazovanii" asarida berib o'tganlar.

ADABIYOTLAR

1. Зидер Р. Социальная история семьи в Западной и Центральной Европы (конец XVIII-XX вв.) / Пер.с нем. Л.А.Овчинцевой : науч.ред. М. Ю. Брандт. –М.: Гуманит.изд.Центр ВЛАДОС, 1997. стр. 102-109
2. Дружинин В.Н. Психология семьи. СПб.: Питер, 2005 стр. 47-52
3. Укрепление института семьи на уровне образования муниципальных образований. Казань – 2019 стр. 77
4. Аргайл М. Психология счастья: Пер.с англ. /Общ. ред. и вступ. ст. М.В.Кларини. - М., 1990. Стр. 23-25
5. Волков А.Г. Семья глазами демографа. -М., 1989. стр. 51-53
6. Волкова А.Н., Трапезникова Т.М. Методические приемы диагностики супружеских отношений . // Вопросы психологии. Москва, 1985. - №5. стр. 38

Annotatsiya. Maqolada psixolog olimlarning oila mustahkamligini oshirish va ajirashishning oldini olishga qaratilgan qarashlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: ajralish omillari, oilaviy munosabatlar, erkakning etakchiligi, oila mustahkamligi, shaxs.

Аннотация. В статье анализируются взгляды ученых-психологов на повышение прочности семьи и предотвращение разводов.

Ключевые слова: факторы развода, семейные отношения, мужское лидерство, прочность семьи, личность.

Annotation. The article analyzes the views of psychological scientists on increasing family strength and preventing divorce.

Key words: factors of divorce, family relations, male leadership, family strength, personality.

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI MUSOBAQA USULIDA TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI

Muxammadiev K. B., Tillayev D. V.

Toshkent davlat transport universiteti

"ALFRAGANUS UNIVERSITETI" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

Kirish. Mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy, xuquqiy hujjatlarda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish, innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; ta'lim tizimiga innovatsion usullar qo'llash, ta'limda yuqori samara beradigan usullardan foydalanish ko'zda tutilgan [1, 2, 3]. Yuqoridagi Qonun va Qonun osti hujjatlaridan kelib chiqib ta'lim tizimida innovatsion usullardan keng foydalanib jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida olib borishda zarur.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Darsliklar tahlilida jismoniy tarbiyaning uslubiy tamoyillari va jismoniy tarbiya jarayonida ularni amalga oshirish yo'llari, jismoniy mashqlarga o'rgatish usullari, tarkibiy tuzilishi, mashqlarni o'rgatish bosqichlari, mashg'ulotlarni dars va darsdan tashqari vaqtlarda tashkil qilish shakllari, jismoniy tarbiya bo'yicha rejalashtirish va hisobot ishlari kabi tushunchalar berilgan. O'quv va uslubiy qo'llanmalar tahlilida, tadqiqotchilar va olimlar tomonidan jismoniy tarbiya oid ko'plab uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Biroq jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida tashkil qilish bo'yicha o'quv va uslubiy qo'llanmalar kam ishlab chiqilgan. Vaholanki, jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida tashkil qilish o'quvchilar uchun mashg'ulotlarni qiziqarli va samaradorli o'tkazish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi [5, 6]. Bu borada K.B. Muxammadiev, V.M. Vidrin, A.V. Lotonenko [4, 5, 6, 7, 8] va boshqa mualliflar, jismoniy tarbiyaning har bir turi uchun, o'z nazariyasini, tashkillashtirilishi, vazifalari, vosita va uslublarining boshqa turlari bilan aloqalarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaydilar. Bu yondashuv har bir yoshning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ehtiyojlarini hamda shaxs sifatidagi maqsadlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'p jihatdan jismoniy tarbiya va sportning insonparvarlik tizimidagi mavqeini oshirishi tayin.

Respublikamizda ta'lim jarayonida yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mutaxassislar mazkur jarayonda erishilgan xulosalarga tayanib, jismoniy tarbiya va sportning mavqiyi va ommaviyligini oshirishning asosiy omillaridan biri maktab ta'limida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayoni ekanligini baholamoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz olimlari, o'qituvchilari va xorijlik mutaxassislari tomonidan jismoniy tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan ko'plab takliflar bildirilgan bo'lsa-da, maktablarda jismoniy tarbiya fanining yillik yuklamalari akademik soatlar miqdori yildan yilga kamayayotganligini ko'rishimiz mumkin [4, 5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Musobaqa usuli jismoniy tayyorgarlikning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi va jismoniy tarbiya jarayoniga juda mos tushadi. Jismoniy tarbiya va sport darslari o'ziga tegishli bo'lgan, me'yoriy talab, tayyorgarlik, nazorat turlari bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Ularni darslar amaliyotida qo'llash nafaqat sportda balki o'quvchilar hayotidagi erishilgan yutuqlaridan anglab, asta-sekin yanada yuqori natijalarga olib kelishni ham nazarda tutish mumkin. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi oldida jismoniy jihatdan qiyin bo'lgan mashqlarni ko'pchiligini engil bajarish imkonini beradigan xilma-xil vosita va usullarni qo'llashning keng imkoniyati mavjud. Shuning uchun, jismoniy tarbiya darsi va sport to'garaklarida, jismoniy tarbiya va sportda eng samarali bo'lgan musobaqa usulini qo'llash maqsadga muvofik. Bu usul ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarning harakat faolligini darsi jarayonida ruxiy hissiyotlarini hisobga olib amaliyotda sinovdan o'tkazilgan usul hisoblanadi. Uning eng muhim afzalligini o'quv dasturidagi sportning barcha turlarida foydalanish imkoniyatini beradi va jismoniy tarbiyaning o'yinga xos bo'lmagan turlarida ham muvaffaqiyatli qo'llashimiz mumkin bo'ladi. Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonida musobaqa usulining qo'llanilishi, umumiy qabul qilingan usullarga nisbatan vaqt hamda kuchning bir xil sarflanishi, ularning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarliklari ko'rsatkichlarida yuqori natijalarga erishish, darslar jarayonining esa qiziqarli o'tilishi imkonini beradi [5, 6]. Musobaqa usuli o'rgatishga majburlashni bartaraf qiladi, jismoniy tarbiya darslaridagi mashqlarni o'rgatish musobaqa orqali amalga oshiriladi (1- sxema).

Bu usul o'quvchilarda quvonch hissiyotini, ruhiy kayfiyatini oshiradi, oldinga intilishga ko'maklashadi, irodaviy sifatlarni, shaxsiy mas'uliyatni, qiyinchiliklarni engib o'tishga bo'lgan ishonchni oshiradi.


Musobaqa usuli orqali jismoniy mashqlarni bajarishga, ularni o'zlashtirishga iqtidori qiyin bo'lgan o'quvchilar uchun oddiyroq vazifalar berish bilan asta-sekin ularni oldinga intilishga, o'zlashtiriladigan mashqlar hajmini oshirib borish bilan ishlashga imkoniyat yaratadi. Ushbu usulning nazorat qilish shakli o'zlashtirishga nisbatan yangi yondashuv hisoblanadi (o'quvchining harakat faolligi dars paytida baholanadi). Bu usul o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida majburlab shug'illanantirishlarni bartaraf etib, aksincha o'z ishtiyoqi bilan o'yin tarzida erkin o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, ularni jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.



1-sxema. Musobaqa usuli

Mazkur usulning o'ziga xos xususiyati ikkita qarama-qarshi harakat qiluvchi tomonlar musobaqa faoliyatining majburiyligi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar yuqori darajadagi ruxiy va jismoniy tayyorgarlikni hamda musobaqaning belgilangan qoidalariga rioya qilish orqali g'alabaga erishishga o'zlarida ishonch paydo qiladi. Ayrim xollarda ular g'alabaga erishishi uchun, o'zidagi eng yaxshi jismoniy va ruxiy sifatlarni mavjudligi to'g'risida behabar bo'ladi yoki ularni boshqa o'quvchilar oldida ko'rsatishga uyaladi. Musobaqa usul esa yuqoridagi xolatlarni chetlab o'tib, o'quvchini barcha sifatlarni to'liq ravishda namoyon qilishga yordam beradi [5, 6].

Mazkur tizimni dars jarayonining barcha qismlari uchun qo'llash mumkin. Agar tizimli aloqa bo'lmasa biron-bir natijaga erishish qiyin bo'ladi. Quyida biz musobaqa usulini darsda qo'llanilish tartibini keltirib o'tamiz 2-chizmaga qarang.



2-chizma. Musobaqa usulini mashg'ulotda qo'llanilish tartibi

1. Har bir darsning tayyorgarlik qismida (vaqt bo'yicha qayta saflanish, bo'linmalar bo'yicha kim tezroq saflanish) vazifasi beriladi. Safdagi har bir mashqlar texnikasining ketma – ketligi guruhlarda to'g'ri bajarilish (kimning guruhi eng kam xatoliklarga yo'l qo'yishi) nazorat qilinadi.

2. Undan so'ng umumiy rivojlantiruvchi mashqlar keladi. O'quvchilar bajarayotgan mashqlarni ma'lum bir vaqt ichida bajarish bo'yicha musobaqalashadi. Bajarish bo'yruq bo'yicha mustaqil ravishda, o'qituvchining sanog'isiz amalga oshiriladi. Sanoqni o'quvchilarning o'zlari amalga oshirishadi har qanday mashqlar majmuasini sifatli bajarish bo'yicha bellashadi. Musobaqadan oldin o'qituvchi mashqlarni amaliy tarzda ko'rsatib berishi shart.

3. Keyingi jarayonda mashqlar majmuasini takroriy bajaradi, bajarilishda qo'yilgan xatoliklarni o'qituvchi tomonidan tuzatish amalga oshiriladi, undan so'ng eng yaxshi va to'g'ri mashq bajarish bo'yicha musobaqalashuv boshlanadi. Buning uchun quyidagicha qayta saflanishlar qo'llaniladi: kuchsizlar kuchlilarga qarama-qarshi turadi; qiz o'quvchilar o'g'il o'quvchilarga qarama-qarshi turadi; o'quvchilar ko'rgazmali tarzda bir-birlarining mashqlarni bajarishlarini ko'zlatishadi; bir-birlariga qarab xato va kamchiliklarni o'rganishadi.

Bunday umumrivojlantiruvchi mashqlar, jismlar bilan bajariladigan jismoniy mashqlarni bajarish texnikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Keyingi, darsning tayyorgarlik qismi jarayonida, harakatda bajariladigan mashqlar darsning asosiy qismidagi ancha murakkab bo'lgan, ya'ni oldin bajarilmagan mashqlar va vazifalarni bajarishga ko'maklashadi. Bu jarayon ham musobaqa usulida olib boriladi. O'quvchilar harakatda bajariladigan, murakkab bo'lgan, oldin bajarilmagan mashqlar texnikasini o'zlashtirish, bajarish va xatolarni to'g'rilash bo'yicha musobaqalashadi.

5. Darsning asosiy qismidagi vazifa biron-bir harakatni amalda o'rgatish yoki uni takomillashtirishni amalga oshiriladi. Dars jarayonidagi har qanday mashqni bajarish texnikasini o'qituvchi tomonidan aniq va to'g'ri ko'rsatib, tushuntirish majburiydir. O'qituvchi yuqori sinflarda dars o'tish jarayonida tayyorgarligi yaxshi bo'lgan, uslubiy jihatdan mashqlarni to'g'ri bajarib ko'rsata oladigan o'quvchilarga tayanishi mumkin. Berilgan vazifani bajarilishda sodir bo'ladigan

xatolarni oldindan aytib o'tish, tushuntirish kerak. Mashqlarni mukammal o'zlashtirgan o'quvchi tomonidan bajarish ketma-ketligini taqsimlash mumkin.

6. Darsning yakuniy qismida musobaqa ishtirokchilari bilan birgalikda muhokama qilish, yul qo'yilgan xatolik va ijobiy tomonlarini ko'rsatish, alohida vazifalarni yaxshi bajargan hamda musobaqa qoidalariga rioya etgan va ijodkorlik tashabbuslarini namoyon qilgan o'quvchilarni aytish ularga og'zaki rag'batlar berilishi zarur. Bunday muhokama qilish paytida musobaqa qoidalari yanada yaxshiroq o'zlashtiradi, uning jihatlari aniqlanadi, tortishuvli holatlarga barham beriladi. Tahlil qilish, o'qituvchiga musobaqa qanchalik o'zlashtirilganligini, ishtirokchilarga nimalari ma'qul bo'lganligini va keyinchalik qanday masalalar ustida ish olib borish kerakligiga imkon beradi, hamda, jismoniy tarbiya o'quv dasturidagi kiritilgan sportning barcha turlaridagi mashqlarni bajarishda musobaqa usuli qo'llash orqali o'quvchilarda tayanch harakat a'zolarining faolligi va jismoniy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi [5, 6].

Gimnastika. Gimnastika sport turidagi musobaqa usulini sportning boshqa turlaridagi kabi muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Usulning mazmuni raqobatlashuv, birinchilik uchun kurashish, yakka va jamoalarning g'alaba qozonishi yoki ancha yuqori yutuqlarga erishishi jarayonida kuchlarni taqqoslashdan iborat. O'quvchilar tomonidan tartibli va safdagi mashqlarni sifatli bajarishga qiziqishlarini oshirish uchun ularni musobaqa holatida bajarish bo'yicha vazifa beriladi. Guruh alohida jamoalarga bo'linadi va ko'rsatilgan mashqlarni eng yaxshi va xatosiz bajarish bo'yicha parallel saflangan holda bajariladi, safni bo'zgan yoki xatoga yo'l qo'yg'an ishtirokchi o'quvchilar musobaqadan chiqib ketishlari yoki safda qolgan holda jarima ochkosiga ega bo'lib musobaqani o'tkazishlari mumkin, jarima ochkolari g'olibni aniqlashda hisobga olinadi va o'quvchilar bir-birlarini baholashadi. Diqqatni oshirish uchun darsning boshida o'yin o'tkazilishi maqsadga muvofiq, unda beriladigan bo'yruqda «Sinf» so'zi yoki biron-bir boshqa ishora, masalan, qo'llarni ko'tarish harakati mavjud bo'lib, o'quvchilar o'qituvchining saflanish bo'yru'g'ini bajarishlari kerak.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish paytida, joyida turib yoki harakatlanishda ma'lum bir vaqt ichida mashqlarni bajarishda musobaqalashishadi. Masalan, vazifa beriladi: kim tezroq 10 ta egilishlarni, qo'llarni tayanchda bukib rostlashlarni, **o'tirib** turishlarni bajaradi, yakunida qaysi jamoa eng ko'p miqdorda ushbu mashqlarni bajarganligi aniqlanadi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar estafetaga kiritiladi. Bir oyoqda va ikki oyoqda ma'lum miqdordagi qadamlar bosib o'tilganidan keyin o'quvchilar biron-bir mashqlarni o'sib boruvchi natijasiz va arifmetik progressiya bilan o'sib boruvchi natija bilan bajarishlari kerak, undan keyin o'zlarining saflari tomon harakatlanishlari va estafetani navbatdagi o'quvchiga o'zlashlari mumkin [5, 6]. Jismoniy mashqlar majmuasini bajarish vaqtida, ularni bajarish sifati va bir xilligi (sinxronligi) bo'yicha ham musobaqa o'tkaziladi. Hakamlar qilishga, o'quvchilarning o'zlari jalb qilinadi. O'quvchilar sport snaryadlarida mashqlarni bajarish jarayonida nafaqat mashqlarni bajarish bo'yicha balki snaryadning oldiga kelishi mashq bajarilgach orqaga qaytishi ham baholanadi. Darsning yakuniy qismida mashqlar majmuasidan tashqari, musiqa ohangi ostida raqs elementlarini qo'llash ham samarali bo'ladi.

Engil atletika. Yengil atletika jismoniy tarbiyaning eng ommalashgan sport turi sifatida o'quvchilarni har tomonlama jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlashga ko'maklashadi. Yengil atletik mashqlari jismoniy tarbiyada etakchi hisoblanib u chidamimlikni, ephillikni, chaqqonlikni rivojlantirishga hos bo'lib, ular ko'p sonli harakatlar majmuasidan tashkil topgan. Bu mashqlarni noto'g'ri bajarilishi natijasida o'quvchilarda engil atletika darslariga bo'lgan qiziqishlari susayadi. Shuning uchun bir maromda bajariladigan engil atletika mashqlari majmuasini musobaqa usulini qo'llash orqali o'quvchilarda zerikarli jarayonni bartaraf etib, uni faollashtirish mumkin. Bundan maqsad, o'quvchilarni bir xil turdagi mashqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. Musobaqa mashqlarini va har xil vazifalarini hilma-xil qo'llash, engil atletikadagi bir maromdagi zerikarli faoliyatni qiziqarli qilish imkonini beradi. Darsda o'quvchilarga qo'yidagi vazifalarni berish maqsadga muvofiq: guruhda jismoniy tarbiyada etakchini aniqlash; musobaqa yoki o'yinda jismoniy yuklamaning hajmi va jadalligini oshirishni o'zgartirish; erishilgan natijani albatta baholash bilan musobaqalarni real shartlarga yaqin bo'lgan holatlarda o'tkazish; texnik usullarni qo'llashdagi hamda vazifalarni bajarish usullarining xilma-xilliklari uchun o'quvchilarni rag'batlantirish; o'zlarining shaxsiy natijalarini yaxshilay olgan o'quvchilarni ham muntazam rag'batlantirish maqsadga muvofiq [5, 6].

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi va h.k.). Bir qarashda, sport o'yinlarini o'zlashtirishda musobaqa usulining o'rni uncha ahamiyatli ko'rinmaydi va uni qo'llash samarasi, sport o'yinlarida o'quvchilarda xisssiyotga berilib ketish darajasi juda yuqoriligi va o'z-o'zidan o'quvchilarning jismoniy rivojlanishlariga ko'maklashishi tufayli pastdek tuyuladi. Lekin, aslida bo'nday emas, chunki o'yin malakasi va ko'nikmasini mukammal egallash uchun maxsus jismoniy va ruxiy sifatlarni rivojlantirish talab qilinadi. Buning uchun o'zlashtirilishi kerak bo'lgan sport o'yinlarining elementlarini musobaqa mashqlari, harakatli o'yinlar va estafetalar (to'p bilan quvlashmachoq o'ynash, to'pni uloqtirish, nishonga tekkizish, to'plarni ko'tarib olib o'tish, to'p o'zlashlar va h.k) tarkibiga kiritish lozim. Vazifani murakkablashtirish, o'yinlar turini almashtirish mumkin. Shu bilan birga, har bir sport o'yinini alohida o'rganish orqali ma'lum bir malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashadigan musobaqa vazifalarini tanlash kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jismoniy tarbiya o'quv jarayonida musobaqa usulini qo'llanishi o'quvchilarning jismoniy rivojlantirishda va sport tayyorgarliklarida juda yuqori ko'rsatkichlarga erishishlarida, darslarni esa ancha qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. U darsni qiziqarli bo'lishiga, hamda har qanday yoshdagi o'g'il va qizlar uchun mansub bo'lgan harakat faolligining asosiy muammosini hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, musobaqa usuli o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini amalda ko'rish va shundan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchi uchun jismoniy yuklamani aniqlash imkonini beradi.

Demak, o'quvchilarning salomatliklarini saqlash, mustahkamlash va ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilishning noan'anaviy shakllarini, usullarini ham qo'llash bilan olib boriladi. Xulosa qilib aytganda, musobaqa o'tkazish jarayoni juda murakkab bo'lib, nafakat o'quvchilarning yoshiga oid xususiyatlariga, balki o'quvchilarni jamoaviy o'yinlarga tayyorligiga, ularning kayfiyatiga, o'qituvchining mahoratiga ham bog'lik.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tug'risida»gi Qonuni. // Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent. Sharq B. 17-52.
3. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning (yangi tahriri).
4. Vydrin V.M., Zykov B.K., Lotonenko A.B. Fizicheskaya kultura studentov VUZov. – Voronej: VGU, 1991. – 145 s.
5. Muxammadiev K.B. Jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida tashkil etish texnologiyasi. – Toshkent: Xalq ta'limi. 2017. 3-son, – 81-87 b.
6. Muxammadiev K.B. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida talabalarning atrof-muhitga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatlarini rivojlantirish. Dis...ped. fan. bo'yicha. falsafa. doktori (PhD). – Chirchiq: 2018. – 137 b.
7. Muxammadiev K.B. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishni ilmiy-pedagogik asoslash: Ped. fan. d-r (DSc). dis... avtoref. – Chirchiq, 2022-56 b.
8. Usmonxodjasov T.S., Melieva X.A. Milliy harakatli o'yinlar. // O'quv qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi, 2000, - 148 b.

Jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida tashkil qilish texnologiyasi

Аннотация. В статье изложена эффективность применения новых форм и методик в организации занятий физической культуры при совершенствовании инфраструктуры учебного процесса, сохранению и укреплению здоровья учеников и развитию их физических способностей наряду с применением их традиционных форм по принятым постановлениям и законодательным документам.

Ключевые слова: уроки по физическому воспитанию, соревновательно-игровые методы, общеразвивающие упражнения, физическая подготовка, двигательные акты, двигательная деятельность, физические упражнения.

Annotation. The article outlines the effectiveness of the application of new forms and methods in the organization of physical education while improving the infrastructure of the educational process, preserving and strengthening the health of the students and developing their physical abilities, along with the application of their traditional forms according to the adopted regulations and legislative documentation.

Keywords: lessons of physical training, the competitive and game methods all-developing exercises, physical preparation, motive acts, motive activity, physical exercises.

Annotasiya. Maqolada Respublikamida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor va bu borada qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarining joriy etilishi, ta'lim jarayoni infratuzilmasini rivojlantirish, o'quvchilarning salomatliklarini saqlash, mustahkamlash va ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilishning an'anaviy shakllari bilan birga, yangi shakl va usullarini qo'llashning samarali bo'lishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya darslari, musobaqa usullari, jismoniy tayyorgarlik, umumiyrivojlantiruvchi mashqlar, harakatli o'yinlar, harakat faoliyati, jismoniy mashqar.

UDK: 631.53.04:633.511

NEYROPEDAGOGIKA VA NEYROBIOLOGIYA O'ZARO INTEGRATSIYASINING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Mavlanova N. A.

Urganch davlat universiteti

Kirish. Neyropedagogika – bu ta'lim va tarbiya jarayonini inson miyasining neyrofiziologik mexanizmlari asosida o'rganuvchi fan sohasi bo'lib, u pedagogika, psixologiya va neyrobiologiyaning uzviy bog'liqligi va integratsiyasi asosida shakllangan nisbatan yangi fan sohasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning individual xususiyatlarini, kognitiv imkoniyatlarini va miya faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishni talab qilmoqda. SHu sababli, neyropedagogikaning rivojlanishi ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning kognitiv salohiyatini oshirish va o'qitish metodlarini yangi ilmiy asoslar bilan boyitishga qaratilgan.

Ushbu fanning rivojlanish tarixi bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ilk davrlarda neyrobiologiya va psixologiya o'zaro mustaqil ravishda shakllangan bo'lsa, XX asrga kelib, ularning pedagogika bilan chambarchas bog'liqligi namoyon bo'ldi. Ta'lim jarayonining miya faoliyati bilan bog'liqligiga oid ilmiy tadqiqotlar natijasida neyropedagogika alohida fan sifatida shakllanib, uning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqila boshladi. Bugungi kunda neyropedagogika ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuv sifatida qaralib, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish jarayonini rag'batlantirish va kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda keng qo'llanilmoqda. Neyropedagogika fanining asosiy maqsadi ta'lim jarayonini inson miyasining fiziologik xususiyatlari, kognitiv imkoniyatlari va o'rganish mexanizmlari nuqtai nazaridan o'rganishdir. Ushbu fan pedagogik texnologiyalarni miyaning neyrofiziologik jarayonlari bilan uyg'unlashtirgan holda shaxsning o'rganish qobiliyatini oshirish va bilish jarayonlarini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan. Ushbu fan inson miyasining o'quv jarayonida qanday ishlashi, xotira,

diqqat, tafakkur va emotsional holatlar ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiq etadi. Har bir shaxsning o'quv qobiliyati va axborotni qayta ishlash jarayoni individual xususiyatlarga ega bo'lgani sababli, neyropedagogika shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda o'quvchilarning kognitiv imkoniyatlarini aniqlash, ularning shaxsiy o'rganish strategiyalarini ishlab chiqish va o'quv jarayonini har bir shaxsga moslashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy neyropedagogika ta'lim jarayonini takomillashtirish va individual o'qitish metodlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, u o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtirish, stress darajasini kamaytirish hamda o'qitish jarayonidagi samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan metod va texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Neyropedagogika ta'lim jarayoniga neyrobiologik yondashuvni joriy etish orqali inson tafakkuri va bilish jarayonini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. SHuningdek, neyropedagogik metodlar yordamida kognitiv jarayonlarni yaxshilash, xotira va diqqatni oshirish hamda ta'lim samaradorligini ko'tarish imkoniyati yaratiladi. SHu bois, neyropedagogika nafaqat ta'lim sohasi uchun, balki shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun ham muhim fan yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda neyropedagogikaning rivojlanishi ta'lim metodlarini takomillashtirishga va inson miyasining individual xususiyatlariga moslashgan o'quv jarayonini shakllantirishga katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Neyropedagogikaning shakllanishi bir necha bosqichlarda rivojlangan bo'lib, uning ilmiy asoslari XX asrda neyropsixologiya va kognitiv psixologiyaning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Jon Dyui va Jan Piaje kabi pedagog va psixologlarning tadqiqotlari bilim olish jarayonida kognitiv rivojlanishning ahamiyatini yoritishda muhim o'rin tutdi. Ular inson ongining bilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga asos soldilar. Masalan, Jon Dyui ta'limda tajriba va refleksiyaning ahamiyatini ta'kidlab, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirishga urg'u berdi. Jan Piaje esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini tadqiq etib, ularning bilim olish jarayonidagi xususiyatlarini ochib berdi [1]. XX asrning ikkinchi yarmida neyrobiologiya va pedagogikaning o'zaro integratsiyasi yanada faollashdi. Bu davrda amerikalik neyrobiolog Pol Maklin miyaning uch qismli strukturasi (limbik tizim, rivojlangan neokorteks va reptiliyalik miya) haqidagi nazariyasini ishlab chiqdi, bu esa inson tafakkuri va emotsional rivojlanishiga yangi yondashuvlar yaratishga turtki berdi. Maklinning tadqiqotlari miyaning turli qismlari o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam berdi va bu bilimlar ta'lim jarayonini yaxshilashda qo'llanila boshlandi.

O'zbekistonda ham neyropedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, SH.Olimov ta'lim jarayonida kognitiv jarayonlarni faollashtirish va individual o'rganish strategiyalarini yaratish uchun neyropedagogik yondashuvlarning samaradorligini urg'ulagan. Uning tadqiqotlari ta'lim jarayonini miyaning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda neyropedagogika fani neyrotexnologiyalar bilan birgalikda tez rivojlanib, sun'iy intellekt va virtual ta'lim muhitlarini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. Masalan, miyaning turli qismlarini faollashtirish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirishga qaratilgan neyrotexnologik platformalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashda samarali natijalar berayotgani ta'kidlanmoqda. Neyrobiologiya va pedagogikaning o'zaro integratsiyasi XX asrning ikkinchi yarmida yanada faollashdi. SHu davrda neyropedagogika fani shakllana boshladi va ta'lim jarayonini miya faoliyati mexanizmi bilan bog'liq ravishda tushuntirishga yo'naltirildi. Inson miyasining bilish jarayonidagi o'rni va ta'limdagi individual yondashuvlarni shakllantirish masalasi ko'proq o'rganila boshladi. Bu jarayon neyrobiologiya sohasidagi katta kashfiyotlar bilan birga rivojlandi.

Xususan, amerikalik neyrobiolog Pol Maklin miyaning uch qismli strukturasi haqidagi nazariyani ishlab chiqdi. Uning nazariyasiga ko'ra, miya uchta asosiy qismdan iborat: **reptiliyalik miya (Reptilgan Bagn), limbik tizim (Lgmbgc System) va neokorteks (Neocortex).** **Reptiliyalik miya** – eng qadimiy qism bo'lib, instinktlar, reflekslar va tirik qolish mexanizmlari uchun javobgardir. **Limbik tizim** – his-tuyg'ular, motivatsiya va xotira jarayonlarini boshqaradi. **Neokorteks** esa insonning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi hamda ijodiy faoliyat uchun javobgardir[2]. Maklinning bu nazariyasi ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'qitish jarayonini miyaning mantiqiy va ijodiy qismlarini faollashtirishga yo'naltirish masalasini ilmiy asosladi. Uning tadqiqotlari ta'limda emotsional holat, motivatsiya va tajriba asosida bilimlarni o'zlashtirishning miya faoliyatiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa pedagogik metodlarni takomillashtirish, o'quvchilarning bilish jarayoniga ta'sir etuvchi neyrofiziologik jarayonlarni hisobga olish imkonini yaratdi. Bugungi kunda Maklinning “Trgune Bagn” (“uch qismli miya”) nazariyasi neyropedagogika va kognitiv psixologiya sohasida muhim ilmiy asoslardan biri bo'lib qolmoqda. Uning yordamida ta'limdagi individual yondashuvlar, stressni kamaytirish metodlari va motivatsiya jarayonlarini yaxshilash bo'yicha yangi modellar ishlab chiqilmoqda. SHuningdek, neyropedagogikada o'quv jarayonini tartibga solish, xotirani mustahkamlash va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun miyaning ushbu uch qismini uyg'unlashtirgan holda o'qitish metodlari takomillashtirilmoqda. Maklinning miya tuzilmasiga oid tadqiqotlari ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga katta hissa qo'shdi. Uning nazariyasi inson bilish jarayonlarini tushunish va pedagogik metodlarni takomillashtirish uchun asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy neyropedagogika va neyrotexnologiyalar aynan shu ilmiy tamoyillarga tayanib, shaxsiy o'rganish strategiyalarini takomillashtirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbek tadqiqotchilari ham neyropedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, uning ta'lim tizimidagi o'rini tadqiq etganlar. Masalan, Z.Saidova ta'lim jarayonida kognitiv jarayonlarni faollashtirish va individual o'rganish strategiyalarini yaratish uchun neyropedagogik yondashuvlarning samaradorligini urg'ulagan[3].

Bugungi kunda neyropedagogika fani neyrotehnologiyalar bilan birgalikda tez rivojlanib, sun'iy intellekt va virtual ta'lim muhitlarini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. Masalan, miyaning turli qismlarini faollashtirish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirishga qaratilgan neyrotehnologik platformalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashda samarali natijalar berayotgani ta'kidlanmoqda. Umuman, neyropedagogika fan sifatida neyrobiologiya, kognitiv psixologiya va ta'lim metodologiyasining kesishgan nuqtasida shakllangan bo'lib, u o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning kognitiv imkoniyatlarini aniqlash va o'rganish mexanizmlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu fanning rivojlanishi ta'lim sohasidagi yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Neyropedagogika fan sifatida neyrobiologiya va kognitiv psixologiyaning integratsiyasi natijasida shakllangan bo'lib, insonning bilish jarayoni, xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash va o'quv qobiliyatini miya faoliyatining fiziologik xususiyatlari asosida o'rganadi. Bu fan ta'lim jarayonini faqat pedagogik usullar asosida emas, balki inson ongi va miyasining qanday ishlashiga ko'ra tashkil etish zarurligini ilmiy asoslab beradi. SHuning uchun ham neyropedagogika kognitiv psixologiya va neyrobiologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq.

Kognitiv psixologiya inson bilish jarayonlarini – qabul qilish, xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar neyropedagogikaning nazariy asosini tashkil etadi. Jan Piaje, Lev Vigotskiy, Gerbert Saymon, Daniel Kaneman va boshqa olimlar bilish jarayonlari qanday kechishini tadqiq etib, ta'lim jarayonida kognitiv jarayonlarni rivojlantirishning muhimligini asoslab berganlar.

Kognitiv psixologiyaning asosiy nazariyalaridan biri bo'lgan **metakognitiv yondashuv** ta'limda o'quvchining o'z fikrlash jarayonini nazorat qilishi va baholashi muhimligini ko'rsatadi. Neyropedagogikada bu yondashuv qo'llanilib, o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash uchun qayta ko'rib chiqish, analiz qilish va o'quv strategiyalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi[4]. Bundan tashqari, kognitiv psixologiyada tafakkurning ikkita turi – tezkor (intuitiv) va sekin (tanqidiy) fikrlash ajratilgan bo'lib, ular inson bilish jarayoniga qanday ta'sir qiladigani o'rganilgan[5]. Neyropedagogika ushbu konsepsiyadan foydalanib, o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qanday metodlarni qo'llash kerakligini aniqlashda yordam beradi.

Neyrobiologiya miya faoliyatining fiziologik jarayonlarini o'rganadi va bu bilimlar neyropedagogika uchun asosiy ilmiy manba hisoblanadi. U ta'lim jarayonida miyaning turli qismlarining faolligi, neyronlar o'rtasidagi bog'liqlik va o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi biologik mexanizmlarni tushunishga yordam beradi.

Neyrobiologik tadqiqotlar insonning o'quv jarayonidagi **neuroplastiklik** – ya'ni miyaning yangi bilim va ko'nikmalarga moslashuvchanlik qobiliyatini ochib berdi[6]. Bu konsepsiya neyropedagogikada katta ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim jarayoni faqat yosh bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham miyaning o'quv qobiliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini ochadi. SHuningdek, neyrobiologiyada o'quv jarayonida miyaning prefrontal qobig'i (mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish uchun mas'ul qism), gippokamp (uzoq muddatli xotira uchun mas'ul) va amigdala (hissiy motivatsiyaga javobgar) kabi sohalari faolligi o'rganilgan[5]. Bu ma'lumotlar neyropedagogikada ma'lumotni uzatish usullarini samarali tashkil qilish, ta'lim jarayonida stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish usullarini rivojlantirishda qo'llaniladi.

Neyropedagogika kognitiv psixologiyadan bilim olish jarayonining psixologik asoslarini oladi va uni neyrobiologik tadqiqotlar bilan bog'laydi. Bu integratsiya ta'lim jarayonini yaxshilash, o'quvchilarga individual yondashuvni shakllantirish va ularning kognitiv qobiliyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham hozirgi kunda interaktiv ta'lim texnologiyalari, virtual reallik (VR), sun'iy intellekt (AG) va neyrotehnologiyalar neyropedagogikada faol qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar individual o'qitish jarayonini yaxshilash, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan modelga aylantirish va o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasini oshirish imkonini bermoqda[8].

Xulosa. Neyrotehnologiyalar orqali individuallashtirilgan ta'lim modellarini rivojlantirish har bir o'quvchining kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda, samarali o'qitish imkoniyatlarini oshiradi. Neyropedagogika va neyrotehnologiyalarning uyg'unlashtirilishi natijasida har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan o'qitish muhitini yaratish, ta'lim jarayonini optimallashtirish va bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga erishish mumkin.

Neyromediatorlar ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Dofamin motivatsiya va faol o'rganishni rag'batlantirsa, asetilxolin diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Pedagogik metodlar, xususan, interaktiv va tadqiqotga asoslangan o'qitish orqali ushbu neyrobiologik jarayonlarni faollashtirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – p. 64
2. MacLean P. *The Triune Brain in Evolution*. – New York: Plenum Press, 1990. – p. 112.
3. Саидова З. Нейропедагогик технологиялар // Фан ва инновация. 2021. №4. – Б.112-119.
4. Flavell J. *Metacognition and Cognitive Monitoring*. – American Psychologist, 1979. – p. 906.
5. Тункун Я.А. *Основы нейропедагогики: история, теория и практика*. – Cyberleninka: Санкт-Петербургский государственный университет, 2024. –С.124-126.
6. Дзодзиков З.У. *Нейропедагогика в системе современного образования*. – Педагогика и просвещение: NBPublish, 2024. – P.99-112.

7. Davidson R., Begley S. *The Emotional Life of Your Brain*. – New York: Hudson Street Press, 2012. – p.103.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Neyropedagogika fanining rivojlanish tarixi, ta'lim va tarbiya jarayonini inson miyasining neyrofiziologik mexanizmlari asosida o'rganulish jarayoni yoritilgan. Shu bilan birga Neyropedagogika fanining asosiy maqsadi ta'lim jarayonini inson miyasining fiziologik xususiyatlari, kognitiv imkoniyatlari va o'rganish mexanizmlari nuqtai nazaridan o'rganish masalasi aks etgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, psixologiya va neyrobiologiya, neyropedagogika, neyropsixologiya va kognitiv psixologiya, neyrotehnologiya.

Аннотация. В статье рассматривается история развития нейропедагогики-организации человеческого мозга на основе нейрофизиологических механизмов. Кроме того, основной целью нейропедагогики является изучение курса физиологии человека, когнитивных способностей и организационных механизмов с точки зрения организационных вопросов.

Ключевые слова: Педагогика, психология и нейробиология, нейропедагогика, нейropsихология и когнитивная психология, нейротехнологии.

Abstract. The article examines the history of the development of neuropedagogy - the organization of the human brain based on neurophysiological mechanisms. In addition, the main goal of neuropedagogy is to study the course of human physiology, cognitive abilities and organizational mechanisms from the point of view of organizational issues.

Keywords: Pedagogy, psychology and neurobiology, neuropedagogy, neuropsychology and cognitive psychology, neurotechnology.

УДК/UDK 796.011.2 :5:012.33

SUZISH SPORTI BILAN SHUG'ULLANUVCHI 9-10 YOSHLI QIZLARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI TAHLILI

Usmonjonov Sh., Мухаммадиев К.Б.

“АЛФРАГАНУС УНИВЕРСИТИ”

Тошкент давлат транспорт университети

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimi sub'ektlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularni intellektual jihatdan taraqqiy etgan, ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom shaxs sifatida voyaga yetkazish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni natijaviyligiga aloqador bo'lgan modellarni (functional education, competence-based approach, competence model, health education) texnologik rivojlanish g'oyalari bilan integratsiyalash hamda ularning samaradorligini ta'minlash birlamchi amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu jihatdan, inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, o'quvchilarda jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish orqali valeologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati ortmoqda. sport ta'limi mazmunini modernizatsiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Respublikamizda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, uzluksiz ta'lim tizimiga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o'quvchilarni har tomonlama - jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi hamda o'sishidagi muhim vositalardan biri sifatida jismoniy tayyorgarlik ko'nikmasining ahamiyati barcha millat va davrning buyuk siymolari va mutafakkirlarining monografik asarlarida alohida ta'kidlab o'tilgan. 9-10 yoshli bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ammo umumta'lim maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari jismoniy sifatlarini shakllantirish muammosi tadqiq qilinmagan.

Jismoniy tayyorgarlikning samaradorligiga oid, talaygina izlanuvchilarning ilmiy ishlari natijalari L.M. Kulikov, V.I. Xaritonov [8], hamda xorijiy tadqiqotchi R.J. Moffatt xulosalarida jismoniy ko'nikmani hosil qilish, mashqlarini faqat jismoniy tarbiya darslari vaqtida emas, aksincha, darslar tugagandan keyin mustaqil olib borish maqsadga muvofiq deb topiladi. Ta'lim-tarbiya va jismoniy tayyorlovning uzviy aloqasi haqida, o'quvchilarning darsdan keyin bajaradigan jismoniy mashqlari uchun kerakli sharoit yaratib berish, salomatligaga qayg'urish, to'g'ri rejalashtirilgan mashg'ulot jadvalini ishga tushirish, ularni yetuk hamda barkamol shaxs qilib o'stirishda aqliy, xulqiy, mehnat va boshqa tarbiyaviy jihatlarini shakllantirish zarur. Bolalarni jismonan tayyor kishi darajasiga etib kelguniga qadar bo'ladigan jarayonlardan o'tkazib olish lozim. Xususan, L. Matveev quyidagicha asosli va o'rinli fikr bildirgan: “...Jismoniy tayyorgarlik uchun shaxsning ma'lum darajadagi tayyorgarligi talab qilinadi, bunda tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish, hamda mustaqil mashq qilish kompetensiyalarini shakllantirish kerak bo'ladi...” [3]).

Jismoniy tayyorgarlik ko'rish og'ir mehnat va vaqt talab qiluvchi jarayon. Bu yo'lda yosh va havaskor sportchilarning har biriga o'qituvchi va murabbiylarning maslahatlari, yo'l-yo'riqlari zarur. Maktab bolalaridagi jismoniy tayyorgarlikka bo'lgan ishtiyoqni qondirish oson kechmaydi. K.B. Мухаммадиев, Нижевясова Р.Р. [5] V.I. Lyax, G.B. Meykenson, L.B. Kofman, [2]; Sodiqov A.G'. [6], Mo'minova M., Bekqulova M. [4] kabi tadqiqotchilar ham o'qituvchi (murabbiy) bolalik va

o'smirlik davriga xos o'sib boruvchi qiziqishni maktab o'quv fani doirasidan chiqmagan holda, qoniqtirib bo'lmaydi degan xulosaga kelishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil qilish; kuzatish, sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, intervyu, test); modellash, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tezlik imkoniyatlarini oshirish metodikasi bo'yicha ko'plab mualliflar tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, tezkorlik tayyorgarligini qo'llashning umumiy metodik tamoyillari aniqlangan. Bunda, birinchidan, mashqlar texnikasi ularni maksimal sur'atda bajarishga imkon berishi kerak. Ikkinchidan, mashqlar oldindan yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi va avtomatik nazoratni yo'naltiradi ong harakatlarni to'g'rilashga emas, balki tezlikni tartibga solishga qaratiladi. Uchinchidan, tezlik mashqlarini bajarish davomiyligi shunday bo'lishi kerakki, bunda charchash yuzaga kelmasin. To'rtinchidan, alohida mashqlar orasidagi to'xtashlar davomiyligi navbatdagi takrorlashda yuqori ish qobiliyatini ta'minlashi kerak.

Yuqoridagi talablarni ta'minlash tezkor tayyorgarlik samaradorligini oshiradi. Masalan, I. V. Barbarovanning ma'lumotiga ko'ra, qisqa bo'laklarda suvni purkashlar tezlikning maksimal darajadan 5% ga pasayishi suzish tezligining oshishiga emas, balki tezkorlik va chidamliligining rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun suzuvchilarning tezlik imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon qilish imkonini beradigan vosita va usullarni tanlash va qo'llash muhimdir.

Bir qator tadqiqotlarda tezkor tayyorgarlikning quyidagi parametrlari aniqlashtirildi: pauzalar davomiyligi va takrorlashlar soni. Masalan, E. I. Borisova maksimal shiddat bilan 25 metr masofani suzib o'tishda 30-40 sekund dam olishni tavsiya qiladi. I. V. Barbarova o'tkazigan tadqiqotlarida tayyorgarlik davrini 3-martadan 8-martagacha bo'lgan bo'laklarda bajarishni tavsiya qiladi. Bu L.P.Fedorovning tavsiyalariga mos keladi, barcha sport turlarida tezkor tayyorgarlik jarayonida ayollar uchun 4 tadan 6 tagacha yondashuvni tavsiya qiladi.

Tezkor tayyorgarlik vositalari tezlik reaksiyasining ayrim harakatlarini yuqori tezlikda bajarishning maksimal chastotasini talab qiladigan turli xil mashqlardan iborat. Maxsus tayyorgarlik mashqlari orqali tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish harakatlarni kompleks takomillashtirishga yo'naltirishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida Toshkent shahar bolalar va o'smirlar sport maktabida suzish sporti bilan shug'ullanuvchi 9-10 yoshli qizlar orasida pedagogik tajriba sinov olib borildi. Pedagogik tajriba sinovga qatnashgan 9-10 yoshli qizlar ikki guruhga ajratib oldik o'larning umumiy soni (n=60) nafar: tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlari. Guruhlardagi bolalar soni bir xil (n=15) bo'ldi. TGga biz ishlab chiqilgan dastur asosida, NGga esa an'anaviy dastur asosida, mashg'ulotlar o'tkazildi. Tadqiqotga biz ishlab chiqilgan dasturga tayanib o'quv mashg'ulotlari olib borildi.

1-jadvalga 9 yoshli suzish bilan shug'illanadigan sportchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

9 yoshli suzish bilan shug'illanadigan sportchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni aniqlash qaratilgan 30 m masofaga yugurish test natijasi TGda o'rtacha qiymat va standart og'ish $6,65 \pm 1,02$ s.ga teng bo'lib, variatsiya koeffitsienti V-9,8 %ni ko'rsatdi. NGda esa $6,50 \pm 1,16$ s.ni V-12,9 % ($t=1,0$; $P<0,05$) tashkil qildi. JTUS bo'yicha TGda $129,6 \pm 15,6$ sm., V-10,2 % ni, NGda esa $132,2 \pm 7,6$ sm. ni V-11,3 % tashkil qildi ($t=0,9$; $P<0,05$).

1-jadval. Pedagogik tajriba sinov boshida suzish sporti bilan shug'ullanuvchi 9 yoshli qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bo'yicha olingan test ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

T/r	Testlar	TG n=15		NG n=15			P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V %	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik testlari							
1.	30 m masofaga yugurish, s.	6,65±1,02	9,8	6,50±1,16	12,9	1,0	<0,05
2.	Joydan turib uzunlikka sakrash, sm.	129,6±15,6	10,2	132,2±7,6	11,3	0,9	<0,05
3.	Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,9±0,2	9,8	5,7±1,1	12,8	0,7	<0,05
4.	Joydan turib chap qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,3±1,7	13,8	4,6±1,2	13,2	1,4	<0,05
5.	3×10 metr masofaga mokismon yugurish s.	10,87±1,1	11,9	10,12±1,5	12,3	1,8	<0,05
Maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari							
6.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	6,8±1,0	13,7	7,6±1,8	12,5	1,3	<0,05
7.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. davomida)	6,1±1,1	12,3	6,9±0,9	11,8	1,6	<0,05
8.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	5,9±0,9	12,6	6,1±0,8	10,8	1,2	<0,05
9.	Rezina amortizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. marta)	5,2±1,4	11,9	5,7±1,4	12,5	1,4	<0,05
10.	Gimnastik o'rindiqqa o'tirgan xolda qo'llarga tayanib, tizzalarni bukmasdan oyoqlarni harakatlantirish (10 s. marta)	13,8±1,5	13,1	1,5±1,4	10,8	1,7	<0,05

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi. Keyingi nazorat testimiz joydan turib o'ng qo'lda basketbol uloqtirish bo'yicha natija TGda $4,9 \pm 0,2$ m. ni, V-9,8 %, NGda esa $5,7 \pm 1,1$ m. ni, V-12,8 % tashkil qildi ($t=0,7$; $P<0,05$). Joydan turib

chap qo'lda basketbol to'pini ulotqirish testida esa TGda 4,3±1,7m. ni, V-13,8 %, NGda esa 4,6±1,2 m. ni, V-13,2 % ni tashkil qildi ($t=1,4$; $P<0,05$). 3×10 metr masofaga mokismon yugurish bo'yicha natija TGda 10,87±1,1 s ni, V-11,9 % qayd etildi, NGda 10,12±1,5 s. ni, V-12,3 % tashkil qilib, ($t=1,8$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Bundan ko'rinadiki, umumiy jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha, guruhlar o'rtasidagi statistik farqlar juda kam va ushbu nazorat testlari bo'yicha ko'rsatkichlar taxminan bir xil suzish bilan shug'illanuvchi qizlar olinganligidan dalolat beradi.

Xususan, qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish bo'yicha natijalar TG da 6,8±1,0 bo'lib, V-13,7 % ni, NG da esa 7,6±1,8 ni, V-13,7 % tashkal qilib ($t=1,3$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish bo'yicha esa TG da 6,1±1,1 bo'lib, V-12,3 % ni, NG da esa 6,9±0,9 ni, V-11,8 % tashkal qilib ($t=1,6$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Rezina amartizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish bo'yicha TG da 5,9±0,9 bo'lib, V-12,6 % ni, NG da esa 6,1±0,8 ni, V-10,8 % tashkal qilib ($t=1,2$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Rezina amartizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish TG da 5,2±1,4 bo'lib, V-11,9 % ni, NG da esa 5,7±1,4 ni, V-12,5 % bo'lib ($t=1,2$; $P<0,05$) qayd etildi. Gimnastik o'rindiqqa o'tirgan xolda qo'llarga tayanib, tizzalarni bukmasdan oyoqlarni harakatlantirish testida esa TG da 13,8±1,5 bo'lib, V-13,1 % ni, NG da esa 11,5±1,4 ni, V-10,8 % bo'lib ($t=1,7$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha ham, guruhlar orasida statistik farqlar aniqlanmadi. 2-jadval tahliliga tayanib, ikala guruhga ham bir xil darajaga ega 9 yoshli suzish bilan shug'illanadigan sportchi qizlar tanlab olingan, degan xulosaga kelish uchun asos bo'ldi va bu pedagogik tajribani maqsadli amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagogik tajriba sinov boshida tajribadan o'tayotgan 10 yoshli suzish bilan shug'illanadigan sportchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili keltirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Pedagogik tajriba boshida suzish bilan shug'ullanuvchi 10 yoshli qizladag umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

T/r	Testlar	TG n=15		NG n=15			P
		$\bar{X} \pm \sigma$	V%	$\bar{X} \pm \sigma$	V%		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik testlari							
1.	30 m masofaga yugurish, s.	6,45±0,79	11,3	6,10±1,91	13,7	1,1	<0,05
2.	Joydan turib uzunlikka sakrash, sm.	135,2±7,7	12,94	138,1±9,3	12,5	1,7	<0,05
3.	Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	5,20±1,1	10,61	5,59±2,8	7,4	1,4	<0,05
4.	Joydan turib chap qo'lda basketbol to'pini uloqtirish, m.	4,61±0,6	9,10	5,72±1,4	5,9	0,6	<0,05
5.	3×10 metr masofaga mokismon yugurish s.	10,12±0,4	13,7	9,86±3,5	12,2	1,5	<0,05
Maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari							
6.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	7,3±0,4	14,32	7,5±2,8	13,1	1,0	<0,05
7.	Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. davomida)	6,9±0,6	8,95	7,1±1,5	11,6	1,2	<0,05
8.	Rezina amartizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda oldinga aylantirish, (10 s. davomida)	6,8±0,8	9,83	6,9±0,7	8,8	0,9	<0,05
9.	Rezina amartizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda yuqori tezlikda orqaga aylantirish, (10 s. marta)	6,1±1,5	11,4	6,8±1,1	8,8	1,5	<0,05
10.	Gimnastik o'rindiqqa o'tirgan xolda qo'llarga tayanib, tizzalarni bukmasdan ovoqlarni harakatlantirish (10 s. marta)	15,1±0,5	12,1	16,3±0,5	11,6	1,3	<0,05

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi; JTUS – joydan turib uzunlikka sakrash.

10 yoshli yoshli suzish bilan shug'illanadigan qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni aniqlash qaratilgan 30 m masofaga yugurish test natijasi TGda o'rtacha qiymat va o'rtacha standart og'ish 6,45±0,79 s.ga teng bo'lib, variatsiya koeffitsenti V-11,3 % ni, NGda esa 6,10±1,91 s.ni V-13, % ($t=1,1$; $P<0,05$) tashkil qildi. JTUS bo'yicha TGda 135,2±7,7 sm., V-12,94 % ni, NGda esa 138,1±9,3 sm. ni V-12,5 % tashkil qildi ($t=1,7$; $P<0,05$). Joydan turib o'ng qo'lda basketbol to'pini ulotqirish bo'yicha natija TGda 5,20±1,1 m. ni, V-10,61 %, NGda esa 5,59±2,8 m. ni, V-7,4 % tashkil qildi ($t=1,4$; $P<0,05$). Qolgan testlar natijalari ham mos ravishda o'skanligini ko'rsatdi. Demak, umumiy jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha, guruhlar bo'yicha statistik farqlar juda kam va ushbu nazorat testlari bo'yicha ko'rsatkichlar taxminan bir xil suzish bilan shug'illanuvchi qizlar olinganligidan dalolat beradi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik test ko'rsatkichlari TG va NGdagi 10 yoshli suzish bilan shug'illanadigan sportchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini ko'rsatkichlarini aniqlovchi beshta testni qabul qildik. Chunonchi, qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish bo'yicha natijalar TG da 7,3±0,4, V-14,32 % ni, NG da esa 7,5±2,8 ni, V-13,1 % bo'lib ($t=1,0$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda orqaga aylantirish bo'yicha esa TG da 6,9±0,6 bo'lib, V-8,95 % ni, NG da esa 7,1±1,5 ni, V-11,6 % tashkal qilib ($t=1,2$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Rezina amartizator bilan qo'llarni to'g'ri tutgan xolda maksimal tezlikda oldinga aylantirish bo'yicha TG da 6,8±0,8 bo'lib, V-9,83 % ni, NG da esa 6,9±0,7 ni, V-7,8 % tashkal qilib ($t=0,9$; $P<0,05$) ni ko'rsatdi. Qolgan maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha ham, guruhlar orasida statistik farqlar aniqlanmadi. Tahliliga tayanib, ikala guruhga ham bir xil darajaga ega 10 yoshli suzish bilan shug'illanadigan qizlar tanlab olingan, deb aytishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Pedagogik eksperiment jarayonida sinovdan o'tgan, 9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan dastur uni qo'shimcha jismoniy tarbiya va

sportga yo'naltirilgan ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatini ko'rsatib berdi. Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shakllangan tayyorgarlikning orqada qolgan tarkibiy qismlariga e'tiborning kuchaytirilishi kerakligini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov davomida olingan ma'lumotlar taklif qilingan dasturning samaradorligini tasdiqladi. 9-10 yoshli o'quvchilarda barqaror jismoniy tayyorgarlikning ko'tarilib borishi, o'zini anglab olishi, tayyorgarlik mukammallashgani bilan ifodalanadi. O'rganib chiqqanlarimiz va kuzatishlarimizga asosanib, biz QTM (qo'shimcha ta'lim muassasalari) ning sport va jismoniy tarbiyaga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarida 9-10 yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi natijaviylikni ko'paytirishga oid ko'plab tavsiyalar ishlab chiqdik.

АДАБИЁТЛАР

1. Korbuto V.M., Salimgareyeva R.R., Geyger A.I. Ko'krakda krol usulida suzish texnikasini o'rgatish va takomillashtirish uchun mashqlar to'plami, o'quv-uslubiy qo'llanma, O'zDJTI – 2013. 187 b.
2. Лях В.И., Мейкенсон Г.Б., Кофман Л.Б. Концепция физического воспитания детей и подростков // Ф.К. Воспит. образ. трен. - №1. -1996. – С. 5, –С. 43.
3. Матвеев А.П. К проблеме основ содержания физкультурного образования школьников. // Теория и практика Ф.К. -№4. -1997. – С. 13.
4. Mo'minova M., Bekqulova M. Yurishdan avval suzish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlod nashriyoti, 2015. – 88 b.
5. Мухаммадиев К.Б., Нижегородова Р.Р. Жисмоний тарбия ва спорт (сузиш асослари) Ўқув қўлланма. – Б. 233.
6. Садыков А.Г. Планирование тренировочных нагрузок избирательной направленности в спортивном плавании. Методические рекомендации. Т., Издательско-полиграфический отдел УзГИФК, 2008.
7. Федоров Л.П. Теоретико-методические основы женского спорта: Дис. На соиск.... докт. пед. наук в форме научного доклада. - Санкт-Петербург, 1995. - 57 с.
8. Харитонов В.И., Куликов Л.М. Физическое развитие учащихся-основа их здоровья. Ф.К. восп. образ, трен. -№ 3. -2000. – С. 23, – С. 67.

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik eksperiment jarayonida sinovdan o'tgan, 9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan metodika orqali qo'shimcha jismoniy tarbiya va sport bo'yicha o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatini ko'rsatib chiqilgan va ishlab chiqilgan pedagogik metodikaning o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: suzish, sport, jismoniy tarbiya, mashg'ulot, tayyorgarlik, dars, murabbiy, yuklama, tayyorgarlik, jismoniy holat, rivojlanish.

Анализ общей и специальной физической подготовки девочек 9-10 лет, занимающихся плаванием

Аннотация. В статье представлена возможность внедрения разработанной педагогической методики в образовательный процесс дополнительного физического воспитания и спорта посредством методики, направленной на развитие физической подготовленности учащихся 9-10 лет, апробированной в процессе педагогического эксперимента. цитируемые характеристики.

Ключевые слова: плавание, спорт, физическое воспитание, тренировка, подготовка, урок, тренер, нагрузка, подготовка, физическое состояние, развитие.

Analysis of general and special physical training of 9-10 year old girls engaged in swimming

Abstract. The article presents the possibility of introducing the developed pedagogical methodology into the educational process of additional physical education and sports through a methodology aimed at developing the physical fitness of 9-10 year old students, tested in the process of a pedagogical experiment. cited characteristics.

Keywords: swimming, sports, physical education, training, preparation, lesson, coach, load, preparation, physical condition, development.

TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ELEKTRON VOSITALARDAN FOYDALANISH

Kenesbayev A.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Hozirgi kunda ta'lim tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan elektron vositalar, katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida elektron vositalardan foydalanish, o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda, o'qituvchilarga esa darslarni yanada samarali va interaktiv tarzda o'tkazishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron ta'lim vositalari va texnologiyalarining joriy etilishi, nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, vaqtni tejash, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.[1]

Ushbu maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda elektron vositalardan qanday foydalanish mumkinligi, uning afzalliklari va muammolari tahlil qilinadi.

Ta'lim jarayonida elektron vositalarning ro'li o'zgaruvchan va rivojlanayotgan ta'lim tizimining markaziy elementiga aylangan. Bugungi kunda elektron vositalar nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini, balki o'qituvchilarning darslarni tashkil etish, boshqarish va baholash usullarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Elektron ta'lim vositalari, o'qish va o'qitish jarayonlarini yanada samarali, interaktiv va moslashuvchan qilishda katta ahamiyatga ega. Bu vositalar o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini individualizatsiya qilish, o'qituvchilarga vaqtni tejash va darsni yanada qiziqarli qilish imkoniyatlarini yaratadi. Quyida ta'lim jarayonida elektron vositalarning turli ro'llarini batafsil ko'rib chiqamiz. Interaktiv ta'lim muhitini yaratish. Elektron vositalar ta'lim jarayonida interaktivlikni ta'minlaydi, bu esa o'quvchilarni faollashtiradi va o'qituvchi bilan muloqotni oshiradi. O'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasida real vaqtda aloqalar o'rnatilishi

imkoniyatini yaratadi. Interaktiv ta'lim materiallari, masalan, simulyatsiyalar, video darsliklar, virtual laboratoriyalar va o'yinlar o'quvchilarga o'rgatish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Interaktiv dasturlar yordamida o'quvchilar bir nechta variantlar orasida tanlov qilishlari, o'zlarining bilimlarini mustahkamlash uchun savollarni javoblashlari, darslikdagi tushunchalarni amaliy mashqlar bilan mustahkamlashlari mumkin. Masalan, matematika yoki fizika fanlarida simulyatsiyalar yordamida nazariy bilimlarni amaliyotda ko'rish va tushunish osonlashadi. Bunda o'quvchi real dunyo bilan bog'langan muammolarni yechishga o'rganadi, bu esa bilimni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Resurslarga tezkor kirish. Elektron vositalar yordamida o'quvchilar, o'qituvchilar va hatto ota-onalar ta'lim resurslariga oson va tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Elektron darsliklar, video darslar, ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa ta'lim materiallari internetda mavjud bo'lib, o'quvchilar o'zlari istagan vaqtda, istagan joyda ta'lim resurslariga kirishlari mumkin. Bu imkoniyat o'qish jarayonini yanada erkin va samarali qiladi, shuningdek, vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi [2]. Misol uchun, elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalari orqali o'quvchilar va o'qituvchilar o'quv dasturlarini kengaytirish, izlanishlar olib borish va yangiliklardan xabardor bo'lishlari mumkin. Bunday resurslar o'quvchilarga o'zlarining ilmiy qiziqishlarini qondirish, o'quv jarayonida qo'shimcha ma'lumot olish va yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Masofaviy ta'lim va mobil o'qish. Masofaviy ta'lim - bu o'quvchilarga o'qish va o'qitishning an'anaviy usullaridan farqli ravishda, butunlay yoki qisman internet orqali amalga oshirilishi. Elektron vositalar yordamida masofaviy ta'lim tizimi samarali tashkil etilishi mumkin. O'quvchilar onlayn darslar, video konferensiyalar, forumlar, chatlar va boshqa virtual kommunikatsiya vositalari orqali o'qituvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim o'quvchilarga o'z vaqtida ta'lim olish imkonini yaratadi, chunki ular o'quv jarayonini o'z sur'atida va o'z vaqtida boshqarishlari mumkin. Mobil qurilmalar va ilovalar orqali ta'lim olish masofaviy ta'limni yanada qulaylashtiradi. O'quvchilar mobil telefonlar yoki planshetlar yordamida o'quv materiallarini o'qish, testlarni yechish, darslarni tinglash, interaktiv mashqlarni bajarish kabi faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining yanada moslashuvchan va individual bo'lishini ta'minlaydi.[3]

O'quvchilarni motivatsiya qilish. Elektron vositalar ta'lim jarayonida o'quvchilarni motivatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) elementlari ta'limga kiritilganida, o'quvchilar o'zlarining bilim darajalarini o'ynab o'rganadi. Bu usul o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Gamifikatsiya orqali o'quvchilar darslarda qatnashishga, topshiriqlarni bajarishga va natijalarni ko'rib chiqishga qiziqadi.

Bundan tashqari, elektron vositalar o'quvchilarga o'z bilimlarini baholash va o'zlashtirish darajasini mustahkamlash imkonini beradi. Interaktiv testlar va viktorinalar yordamida o'quvchilar o'zlarining bilimlarini sinab ko'rishlari mumkin, bu esa ularning o'qish jarayonida qanday rivojlanayotganliklarini kuzatishga yordam beradi.

O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va resurslarni boshqarish. Elektron vositalar o'qituvchilarga ta'lim jarayonini boshqarish va resurslarni samarali taqsimlashda yordam beradi. O'qituvchilar uchun yaratilgan onlayn platformalar orqali ularning darslarini rejalashtirish, o'quvchilarni baholash va ular bilan aloqada bo'lish osonlashadi. Misol uchun, Google Classroom yoki Moodle kabi tizimlar o'qituvchilarga o'quvchilarning yutuqlarini kuzatish, topshiriqlarni belgilash, testlarni baholash va fikr-mulohazalar berish imkonini yaratadi. Shuningdek, o'qituvchilar o'z darslarini taqdimotlar, video darsliklar, grafikalar va boshqa multimedia materiallari orqali yanada ta'sirli va samarali qilishlari mumkin.

O'qituvchilarga, shuningdek, elektron vositalar yordamida ta'lim metodikalarini yanada rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnikalarga o'rganish imkoniyatlari mavjud. Bular o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni sinab ko'rish, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatini beradi. Ta'limning global xususiyatlari. Elektron vositalar yordamida ta'lim global miqyosda kengaymoqda. Onlayn kurslar va masofaviy ta'lim platformalari butun dunyo bo'ylab o'quvchilar uchun bir xil bilim resurslarini taqdim etadi. O'quvchilar turli xil mamlakatlar, madaniyatlar va tillar bo'ylab yangi bilimlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, o'qituvchilar ham boshqa mamlakatlardagi pedagoglar bilan tajriba almashishlari, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganishlari va o'z mahoratlarini oshirishlari mumkin [4]. Bundan tashqari, ta'limda global hamkorlik va almashinuvni rivojlantirish uchun elektron vositalar yordamida turli davlatlar va universitetlar o'rtasida o'quv dasturlari tashkil etish mumkin. Bu esa ta'limni kengaytirish va o'quvchilarga yanada boy va xilma-xil bilimlarni taqdim etishga imkon yaratadi. Ta'lim jarayonida elektron vositalarning roli, o'qish va o'qitish metodikalarini zamonaviylashtirishda katta o'rin tutadi. Elektron vositalar yordamida o'quvchilar o'zlarini ilgari surishadi, ta'limni individual va moslashuvchan shaklda olishadi, shu bilan birga o'qituvchilar ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarni samarali baholash va qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Elektron vositalarning ta'lim jarayonidagi afzalliklari. Elektron vositalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va quyidagi afzalliklarga ega: Interaktivlik va individualizatsiya: Elektron ta'lim vositalari o'quvchilarga o'z sur'atida ishlash imkonini beradi. Ular o'zlarining bilim darajasiga mos keladigan materiallarni tanlab, darslarni o'zlashtirishda erkinlikka ega bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishga yordam beradi. O'qitishning sifatini oshirish: Elektron vositalar, o'qituvchilarga o'quvchilarning o'qish jarayonini yaxshiroq kuzatish, ularning qiyinchiliklarini tahlil qilish va shunga mos ravishda o'quv rejasini tuzish imkonini yaratadi. Shuningdek, interaktiv darslar va materiallar o'qitishning sifatini oshiradi. Global imkoniyatlar. Elektron vositalar yordamida ta'lim jarayoniga global resurslar qo'shiladi. O'quvchilar butun dunyo bo'ylab bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masofaviy ta'lim, shuningdek, o'qituvchilarni turli mamlakatlardagi mutaxassislar bilan bog'laydi va ularning o'z bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Vaxtni tejash va resurslardan samarali foydalanish. Elektron vositalar o'qituvchilarga

o'quvchilarni real vaqtda baholash va ularning o'qish natijalarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchilarning vaqtini tejashga yordam beradi, chunki an'anaviy baholash tizimiga qaraganda elektron tizimlar tez va samarali ishlaydi [5]. Ta'lim jarayonida elektron vositalardan foydalanishning muammolari. Biroq, elektron vositalardan foydalanishning ayrim qiyinchiliklari ham mavjud: Texnologik infratuzilmaning etishmasligi: Ba'zi hududlarda internet aloqasi va texnik uskunarlar (kompyuterlar, mobil qurilmalar) mavjud emas, bu esa ta'lim jarayonini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, barcha o'quvchilar teng ravishda elektron vositalardan foydalana olishlari uchun kerakli infratuzilma yaratilishi zarur.

O'qituvchilarni tayyorlash: Elektron ta'lim vositalarini samarali qo'llay olish uchun o'qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ko'plab o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emas, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. O'qituvchilarga doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'rganish imkoniyatlari berilishi kerak. O'quvchilarni internetdan noto'g'ri foydalanish xavfi: Elektron ta'lim vositalaridan foydalanish o'quvchilarni internetda noto'g'ri yoki zararli ma'lumotlarga duchor bo'lish xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababli, o'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilarga internetda xavfsiz foydalanishni o'rgatishlari zarur.

Ko'nikmalar va motivatsiya: Ba'zi o'quvchilar elektron ta'lim vositalaridan samarali foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotishi yoki o'zlarini an'anaviy dars uslubiga ko'proq moslashtirgan bo'lishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonidan chalg'itishi mumkin.

Ta'lim jarayonida elektron vositalardan foydalanishning istiqbollari. Ta'lim tizimida elektron vositalardan foydalanishning istiqbollari juda katta. Texnologiyalar har doim yangilanib borayotganligi sababli, ta'lim jarayoniga yanada samarali texnologiyalarni joriy qilish mumkin. Masalan: Sun'iy intellekt va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash: Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning o'qish uslubini o'rganish va ularga individual maslahatlar berish mumkin. Bu o'qituvchilar uchun katta yordam bo'lar edi, chunki ular har bir o'quvchining ehtiyojlariga qarab o'qishni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat: Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari o'quvchilarga ilmiy tajribalarni virtual ravishda amalga oshirish, tarixiy voqealarni jonli ko'rish va boshqa ko'plab interaktiv tajribalar yaratish imkonini beradi. Bu ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Blended learning (aralash ta'lim): Blended learning - ya'ni, an'anaviy darslar va onlayn o'quv vositalarining uyg'unlashtirilishi ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. O'quvchilar o'zlarining vaqtlarini va resurslarini o'zi tanlab, o'qishning yangi shakllarini yaratishlari mumkin [6]. Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida elektron vositalarning ro'li zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Elektron vositalar o'quvchilarga o'z bilimlarini samarali o'zlashtirish, o'qituvchilarga esa darslarni yanada interaktiv va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu vositalar nafaqat o'quvchilarni motivatsiya qilish, balki ta'limning global miqyosda kengayishiga ham turtki bo'ladi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, multimedia va gamifikatsiya kabi innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, vaqtni tejash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Kelajakda ta'limda elektron vositalardan foydalanish yanada kengayib, ta'lim jarayonida global aloqalar va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, zamonaviy texnologiyalar ta'limni yanada keng qamrovli va interaktiv qilmoqda, bu esa ta'limning sifatini oshirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Anderson, T. (2013). The Theory and Practice of Online Learning (2nd ed.). Edmonton, AB: Athabasca University Press.
2. Heath, C. (2014). Technology and Education: A Critical Examination of the Role of Technology in the Classroom. Educational Review, 66(2), 204-220 b.
3. Jisc (2017). Digital Skills in Higher Education. Retrieved from <https://www.jisc.ac.uk/>
4. Koller, D., Harvey, L., & Magnotta, M. (2013). The Impact of Online Learning on Student Achievement. Journal of Educational Technology, 34(1), 22-35.
5. Martin, F., & Bolliger, D. U. (2018). Engagement Matters: Student Perceptions on the Importance of Engagement Strategies in the Online Learning Environment. Online Learning, 22(1), 205-222.
6. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge Handbook of Multimedia Learning. Cambridge University Press.

REZYUME. Ushbu maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda elektron vositalardan qanday foydalanish mumkinligi, uning afzalliklari va muammolari tahlil qilindi. Shu bilan birga, elektron vositalarning ta'limdagi o'rni, afzalliklari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berildi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются способы использования электронных средств в эффективной организации учебного процесса, его преимущества и проблемы. Вместе с тем, была представлена информация о роли электронных средств в образовании, их преимуществах и будущих направлениях развития.

SUMMARY. In this article, how electronic tools can be used in the effective organization of the educational process, its advantages and problems are analyzed. At the same time, information was provided on the role of electronic tools in education, their advantages and future development directions.

Tayansh so'zlar: elektron vosita, interaktiv ta'lim, resurs, masofaviy ta'lim, individualizatsiya, texnologik infratuzilma, onlayn platforma, vr.

Ключевые слова: электронный инструмент, интерактивное обучение, ресурс, дистанционное обучение, индивидуализация, технологическая инфраструктура, онлайн-платформа, vr.

Key words: electronic tool, interactive learning, resource, distance learning, individualization, technological infrastructure, online platform, vr.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Rajapova K.M.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Ta'lim-tarbiya hamisha davlat siyosati va ijtimoiy tuzum manfaatlarini aks ettirgan. Har bir davlat oldiga qo'ygan maqsad aynan o'qitish orqali amalga oshirilgan. Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga e'tibor eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki mamlakat taraqqiyoti va kelajagini yoshlar ta'min etadi, ular mamakatni taraqqiy ettirish estafedasining davomchilarigina emas, balki yaratuvchilari va bunyodkorlari sifatida mamlakat kelajagi uchun javobgar bo'ladilar. Shulardan kelib chiqqan holda yosh avlodning milliy ongini va axloqiy sifatlarini kamol toptirishga, ularda ilg'or ilmiy dunyoqarash, g'oyaviy e'tiqodni, chuqur bilim va mehnatsevarlikni tarbiyalash lozimdir. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi islohatlarning asosini pedagogika sohasidagi islohotlar tashkil qiladi. Chunki, ma'naviy qadriyatlarni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari yanada boyitadi. Pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy islohatlarning ijtimoiy mohiyatini chuqur anglashi ularning kasbiy burch, vazifalarini yanada oydinlashtiradi, pedagogik faoliyatning jamiyatdagi rolini oshiradi. Bugun til ta'limidan ham asosiy maqsad o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdir. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. O'quvchilarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usul va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerakligi asoslidir. Bunda o'rganilayotgan o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, imlo va punktuaning asosiy qoidalarini o'zlashtirish, muayyan bir xabar yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish talab etiladi.

Adabiy ta'lim tizimida yosh avlodni demokratik jamiyat talablariga mos tarzda milliy va huquqiy ongi, madaniyatini tarkib toptirish ona tili va adabiyot o'qituvchisining kasbiy faoliyatida insoniy munosabatlarning qaror topishida ustivor yo'nalish, desak mubolag'a bo'lmaydi. Har jihatdan muhim ahamiyatga molik bo'lgan global masalalarni hal etishda adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalardan o'rinni foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalarni tahlil qilishdan oldin quyidagi masalalar ustida to'xtab o'tishimiz shart deb o'ylaymiz, bular:

1. Adabiy ta'limda an'anaviy dars shakllari.
2. Adabiy ta'limning yangi modeli va uni amalga oshirish yo'llari.
3. Adabiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyaning o'rni.

Bularni bosh harakatlantiruvchi kuch yetuk bilim va tajribaga ega bo'lgan adabiyot o'qituvchisidir.

Ta'limning turli bosqichlarida amalga oshiriladigan adabiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitib, ularning badiiy-estetik didlarini rivojlantirishdan iboratdir. Chunki inson ma'naviy, ruhiy-hissiy siymo bo'lib, uning asl mohiyati ma'naviy-insoniy sifatlar bilan belgilanadi. Demakki, inson ruhiy olamining o'zi bir olam. Inson bolasi moddiy-iqtisodiy ehtiyoj bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga, badiiy-estetik ozuqaga ham doimiy ravishda tashnalik, ruhiy olamida go'zallik va an'analarga chanqoqlik sezilib turadi, sa'yi-harakat bilan mana shu ruhiy madad va qoniqishga intiladi. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, mavjud an'anaviy ta'lim jarayoni bu talablarni bajarishga ojizlik qiladi. Chunki yangilangan jamiyatimiz uchun mustaqil fikrga ega bo'lgan, ma'naviyati boy kishilar zarur.

Shunga qaramay an'anaviy ta'limning ham o'ziga xos afzalliklari mavjud:

1. Kam vaqt sarflab ko'p ma'lumot berish.
2. O'quvchilarni har doim nazorat qilish imkoniyati mavjud.
3. Ilmiylik prinsipi ustun, nazariy ma'lumotlarni berish asosiy tamoyil.
4. O'ta murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda o'qituvchi rolining yuqoriligi o'quvchilarni mavzuni yaxshi tushunib o'zlashtirishga yordam beradi.
5. Har bir o'quvchi o'zining bilimiga mos baho oladi.
6. O'qituvchi ko'proq izlanishi va ko'proq o'z ustida ishlashi ilmiy blimi chuqur bo'lishi talab etiladi.

Bugungi adabiy ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni badiiyatdan zavqlanishga, nutqini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga o'zligini anglashga o'rgatish barobarida o'zgarlar fikrini anglashga qaratilmoqda. Bu esa adabiy ta'limda boy badiiy manbalarimizni yanada chuqurroq o'rgatish bilangina cheklanib qolmasdan undan hayotda

foydalanish malakalarini ham kamol toptirishni talab etmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda adabiy ta'limning mazmuni: o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; o'z-o'zini, moddiy borliqni badiiy ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikri va his-tuyg'ularini chiroyli bayon eta olishga o'rgatishdir. Bu bugungi kunda ta'limning sifati va samaradorligiga qo'yilayotgan talab desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, ehtiyojlar odamni ma'lum sohada ongli harakat qilish orqali kishilar bilan o'zaro hamkorlik qilish va muloqotga kirishishni talab qiladi. Xuddi ana shu muloqot davrida insonga til va adabiyot yaqindan yordam beradi. Bu ikkisi avlodlarni o'zaro birlashtiruvchi man'ba hisoblanadai. Yani uzoq o'tmishda yaratilgan asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar bevosita shu davrga qaytishlari mumkin. Asar voqealari, qahramonlari va ularning o'zaro muloqotlarini tahlil va tadqiq qilish orqali o'quvchi ana shu davr haqida ma'lum tushunchaga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchining va ta'lim texnologiyasining o'rni alohida ahamiyatga egadir, bunda quyidagi tamoyillarga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Asoslilik (fundamentallik) tamoyili. Bunda o'rganilayotgan matn yoki badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va mazmun-mohiyatiga ko'ra o'rganish afzaldir. Bunda mavzu yuzasidan mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirishda oldingi bilimlarga tayanib ish ko'rish nazarda tutiladi. Bunday yondashuvning yana bir e'tiborga molik jihati: dars jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish imkoni katta, fanlararo bog'liqlik o'quvchida fikrlash qobiliyatini oshiraib, tafakkurni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Madaniyatni anglash tamoyili (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik). Ushbu tamoyil asoschisi nemis pedagogi A. Disterveg bo'lib, XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, shu kunga qadar o'zining qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Adabiy ta'limda bu tamoyilga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, adabiyot va madaniy taraqqiyotning bir bo'lagi hisoblanadi. Qolaversa bugungi kun o'qituvchisining bilim darajasi va mahoratining yuqori darajada bo'lishida, ta'lim va tarbiya birligini ta'min etishda madaniy saviyaga ega bo'lish muhim ahamiyatga egadir. Shu o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan kompyuter, multimediya vositalari, qolaversa. jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ham inobatga olish talab etiladi. Bunda talabalarning adabiy asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqurroq egallashlari, ma'lum faoliyatlarini bajara olishlari, vazifalarni belgilangan vaqtda aniq, puxta hal etishga ulgurishlari ham madaniyatni anglash samarasi ekanligi namoyon bo'ladi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tushunchalari bir o'zakdan yasalgan bo'lsada, ularning mazmuni turlichadir. Insonparvarlashtirish ta'limda ijtimoiy fanlarni jumladan adabiuoy faninching o'qitilishini ta'lim muassasalarida o'rganishni ifoda etsa, insoniylashtirish tushunchasi shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishni anglatadi. Endi ushbu tamoyilni adabiy ta'lim nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, badiiy asarlar tahlili va tadqiqi jarayonida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, inson omili va qadr-qimmat, sha'ni, or-nomusi, huquqi, burchini adabiy qahramonlarning faoliyati asosida o'rgatish komil inson tarbiyalashga asoslanishini nazarda tutadi. Adabiy ta'lim jarayoni har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga astoydil amal qilgan holda ish ko'rishi o'quvchilarda yuksak ma'naviyatni kamol toptirishga xizmat qilaadi.

O'qib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Bunda: har bir o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tadqiqotlar olib borishi lozim; adabiy ta'limga doir ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishi va uni amalda qo'llash, kuzatishlar olib borishi, ta'lim jarayonida unga tuzatishlar kiritib, ta'lim jarayonini tadqiq etib borishi lozim. Adabiy ta'limni bu tarzda tashkil etish o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish bilan birga talaba va o'quvchilarda ham izlanuvchanlik ko'nikmalarini takomillashtirib boradi.

Ta'limning uzluksizlik tamoyili. Ushbu tamoyil asosida mashg'ulotlarni tashkil etish talaba va o'quvchilarda kompetentlikni, yani kasbiy sifatlarni tarbiyalaydi. Bunda insonning butun umri davomida zarur bo'ladigan malakalar shakllantiriladi.

Faoliyatli yondashuv tamoyili. Bu tamoyil nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslangan bo'lib, quyidagi ikki xil ma'noda o'z ifodasini topadi: a) talaba va o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) talaba va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Ma'lumki, bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sabali o'quvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, adabiy talimda innovatsiyon texnologiya tamoyillariga amal qilish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda aqliy va ahloqiy sifatlarni egallashlariga, shaxsiy hayot tajribalarining hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Barchaga ma'lumki, o'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga egadir. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatning salbiy bo'lishi darsning besamarligiga o'quvchilarni o'quv predmetidan bezishiga sabab bo'ladi, yoki aksincha ular o'rtasidagi ijobiy munosabat tufayli dars samaradorligi oshib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari bilan birga shu fan yuzasidan mustaqil izlanishlarini ta'min etishi mumkin. Ko'rinadiki, o'qituvchi faoliyati davomida o'quvchilar bilan insonparvarlik mezonlari asosida ish yuritishi lozim. Bunday munosabat badiiy asardan zavqlanish, badiyatga chanqoqlikni, kitobxonlikni hamda ijodkorlikni kamol toptiradi. Barcha ta'lim sohalarida bo'lgani singari adabiy ta'lim sohasida ham o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat quyidagilardan iborat bo'ladi: ishortirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita ta'sir, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zaro ta'sir. An'anaviy ta'lim metodlari bilimlarni tayyor holda berilganligi uchun ularni amaliyotda qo'llash o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirardi. Xususan adabiy ta'limda badiiy asar yuzasidan o'quvchilar mustaqil fikr yuritishda faqatgina o'qituvchining ma'ruzasi va darslikdagi materiallar bilangina cheklanib qolganliklari tufayli ularda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari yetarli darajada

shakllanmasdi. Bu esa o'z navbatida hayotda ba'zi bir murakkab muammolar yechimini topish paytida qiyinchiliklarni yuzaga keltirardi.

Innovatsiyon ta'lim texnologiyalari esa, adabiy asarlarning mazmun va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy asar qahramonlarini qiyosiy tahlil asosida o'rganishni mashg'ulotning bosh maqsad va vazifalari sifatida qaralib, shunga muvofiq tadqiq qilish usullarini qo'llasga asoslanib ish ko'rish imkonini beradi. Jumladan badiiy asardagi voqeliklarga, asar qahramonlarining xatti-harakatlariga o'quvchilar tanqidiy yondashishlari va o'z qarashlari, kuzatishlaridan kelib chiqqan tarzda fikrlarini erkin bayon etishlari mumkin. Bunda bevosita o'rganilayotgan adabiy asar bilan bog'liq ilmiy adabiyotlardagi mavzuga aloqador o'rinlar, qarashlar tadqiq etiladi.

Xulosa qilib aytganda, insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning tarixiy rivojida ona tili va adabiyot fanlarining o'rni benihoya muhimdir. Til milliy ma'naviy, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Milliy g'urur, umuminsoniy qadriyat va milliy o'zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy hamiyat va iftixor, Vatanga teran muhabbat kabi ma'naviy kamolotning o'zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hakida o'ylar ekanmiz, buni, albatta, ona tili va adabiyotimizni o'qitishdan, ularga bo'lgan e'tibordan boshlashimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б.14.
2. Тоипов Ў. Қ., Усмонбекова М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари.Т: Фан, 2006.
3. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши, “Насаф”, 2000 й.-80 б.
4. Ғ'уломов А. Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. Методик қўлланма « Ўқитувчи », Тошкент 1995.
5. Неъматов Х., Ғ'уломов А., Зиёдова Т. Ўқувчилар сўз бойлигини ошириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
6. Ҳамроев Ғ. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. - Т.: Баёз, 2018.
7. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000.
8. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.
9. Ходжаев Б.Х. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш шакллантириш йўллари. Услубий қўлланма. – Тошкент: ТДПУ.
10. Зиёмухаммедов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.
11. Йўлдашев Б., Ражапова К. «Матн тилшунослиги» Ўқув-услубий қўлланма. //Самарқанд, 2011. СамДУ нашриёти.
12. Ражапова К. М. «Нуткий кўникмаларни ривожлантиришга тизимли ёндашиш заруратлари» Украина. Конференция. 26- 27 март 2020 йил.

Rezyume: Ushbu maqolada ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga dars jarayoni samaradorligini oshirishda ta'limga integratsion yondashuvdan foydalanish, ta'lim jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar to'g'risida va egallangan bilim, ko'nikma, malakalarning ba'zi mezonlari xususidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish jarayoni, pedagogik texnologiya, nutq texnikasi, usul, maqsad, vazifa, faollik.

increasing the efficiency of the educational process

Abstract: This article discusses the current problems of increasing the effectiveness of the educational process. At the same time, the use of an integrated approach to education to increase the effectiveness of the teaching process, some points that should be paid attention to in the educational process, and some criteria for acquired knowledge, skills, and qualifications are highlighted.

Keywords: educational process, pedagogical technology, speech technique, method, goal, task.

Повышение эффективности образовательного процесса

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы повышения эффективности образовательного процесса. При этом выделяются использование комплексного подхода к образованию для повышения эффективности учебного процесса, некоторые моменты, на которые следует обратить внимание в образовательном процессе, а также некоторые критерии приобретения знаний, умений и квалификации.

Ключевые слова: процесс обучения, педагогическая технология, техника речи, метод, цель, задача.

AXBOROT KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY-METODIK TA'MINOTINI YARATISH BOSQICHLARI VA DIDAKTIK TALABLARI

Allamuratova V.Z.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi


Hozirgi kunda yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikirlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirilgan har tomonlama etuk shaxsni voyaga etkazish uchun qaratilgan ta'limiy va ta'rbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda ta'lim sifatini oshirish o'qituvchilarning oldida turgan dolzarb masaladir [1]. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning axborot kommunikatsiyasi texnologiyalardan va internetdan unumli foydalanishni kengaytirishga katta etibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda dasturiy-metodik ta'minotni juda ham katta ahamiyatga ega. Dastur to'laonligicha ishlashi uchun shaxsiy kompyuter minimal tizim talabiga javob berishi kerak.

Raqamli didaktika- jamiyatni raqamlashtirish sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagoglarning bir tarmog'i. Ushbu ilmiy fan uchun an'anaviy printslar va asosiy tushunchalardan foydalaniladi. Lekin ularni zamonaviy

voqyolikka moslashtirilgan holda o'zgartiriladi va to'ldiriladi. Raqamli didaktika zamonoviy o'qitish usullari va strategiyalarni yaratish uchun asosdir [2]. Shu o'rinda "Didaktika" so'ziga to'xtalib o'tsak. "Didaktika" so'zi grekcha "Didasko" so'zidan olingan bo'lib, "O'qitish, o'rganish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish obekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlar va shakllaridir [3]. Didaktikaning asosiy katigoriyalari quyidagilardan iborat: o'qitish, o'rganish, tarbiyalash, bilim ko'nikma, malaka, shuningdek, o'qitishning maqsadi, mazmuni, tashkil etilishi, turlari, shakllari usullari, vositalari, natijalari (mahsulotlari).

O.L.Vyacheslavovna ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda xizmat qiluvchi elektron va ta'lim vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning didaktik shartlari aniqlash va asoslash mumkinligini qayd etgan [4]. K.E.Mixaylovich o'quv ma'lumotlarni tizimlashtirish, axborot va ta'lim resurslarga ko'p bosqichli kirishni tashkil qilish uchun axborot-ta'lim portlaridan foydalanishning ilmiy-uulubiy asoslar va psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashdan iboratligini qayd etgan [5]. L.E.Vladislavovna oliy ta'limni kasbiy modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida oliy o'quv yurtining axborot-ta'lim muhitini didaktik loyhalashning konseptual pedagogik qoidalarni ishlab chiqish, ushbu jarayonning samaradorligini oshirish yo'llari va shartlarni asoslashdan iboratligini asoslangan [6]. Dasturiy-metodik ta'minot xavfsizligini (dasturiy-metodik ta'minotni) ishlab chiqish samaradorlik va ta'lim maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash uchun ma'lum bosqichlar va didaktik talablarga riyo qilishni talab qiladi. Ushbu Bosqichlar ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydigan va o'qituvchining talablariga javob beradigan intuitiv va funktsional mahsulotni yaratishga qaratilgan[7]. Xavfsizlik dasturiy-metodik ta'minotni ishlab chiqish ham texnologik echimlariniham pedagogik jihatlarni hisobga olishni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va ta'lim muhitida dasturiy-metodik ta'minotdan samarali foydalanishni ta'minlash uchun didaktik talablarga javob berishi kerak.

E.M.Axmedova, S.A. Pasina fikircha, ta'limda Akt ga qo'yiladigan asosiy didaktik talablari qo'yidagicha [8]: dars davomida erishmoqchi bo'lgan maqsadni to'g'ri qo'yish; elektron ta'lim resurslar va kompyuter o'qitish vositalaridan foydalanishning o'rni, joyi va vaqtni aniq belgilash; o'qituvchi sifatidagi rolingiz etakchi ekanligini unutmang; dars uchun to'g'ri texnologiyalarni tanlang- birinchi navbatda, ular tayyorlash sifatini kafolatlash kerak. Elektron ta'lim resurslari va kompyuter o'quv dasturlarini ta'lim vositalari to'plamiga kiritish talab etiladi. Tizimning barcha tarkibiy qismlarini qayta ko'rib chiqish va umumiy o'qitish metodikasini o'zgartirish; yana eng muhim didaktik talab ta'limni ta'minlash treningni individuallashtirishning yuqori darajasi; treningda izchil fikr-mulohazalarni ta'minlash ahamiyatga ega. O'qituvchisi o'quvchilarning ehtiyojlariga juda sezgir bo'lishi va ularga moslasha olishi kerak. Bizning nuqtai nazarimizdan, dasturiy-metodik ta'minotni yaratishga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagicha (5-rasm):



5-rasm. Dasturiy- metodik ta'minotni yaratishga qo'yiladigan didaktik talablar

Ushbu talablarga asoslangan dasturiy-metodik ta'minot ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning axborot kompetentsiyalarini rivojlantirish hamda raqamli ta'lim muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Fikirimizcha, bugungi kunda dasturiy-metodik ta'minotni yaratish va undan foydalanish, jumladan o'quvchi bilimlarining rivojlanishida keskin o'zgarishlarni amalga oshirilmoqda. Bunda insonning ichki tuzilishi, mohiyati, qadriyatlar, psixologik, qonuniyatlari va tafakkurining xususiyatlari yangicha namayon bo'lmoqda. Dolzarb va muhim

bo'lgan vazifalardan biri dasturiy-metodik ta'minotni yaratish va undan foydalanishni rivojlantirish, amaliy tajribalarga asoslangan holda ma'lum bir maqsadlarni ko'zlab, DMT dan samarali foydalanish. Demak, o'quvchilarning "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda axborot kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart ko'rinishdagi masalalarni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Dasturiy-metodik ta'minotni yaratishda qo'yiladigan didaktik talablar ta'lim jarayonining samaradorligini va o'quvchilarning axborot kompetentsiyalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Ta'lim maqsadga mosligi o'quvchilarning belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga zamin yaratadi, moslashuvchanlik va individuallik esa har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Interaktivlik o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirib, ularning mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Foydalanish imkoniyati, fikr-mulohaza va tahlil funksiyalari esa ta'lim jarayonining real vaqt rejimida monitoringi va baholashini ta'minlaydi, bu esa o'qituvchilarga zarur tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi. Nihoyat, intuitiv interfeys esa foydalanuvchilarga qulay va samarali ta'lim muhitini taqdim etib, raqamli ta'limning innovatsion imkoniyatlarini to'liq ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Шакурова М. В. Педагогические аспекты формирования информационной компетентности школьников. – Москва: МПГУ, 2021.
2. Шариков, А. В. Цифровая грамотность школьников: проблемы и перспективы развития. // Образование и наука. – 2018. – № 5. – С. 25-31.
3. Шунина Л.А. Использование облачных технологий с преподавателями вузов при комплексной подготовке учителей школ международного бакалавриата: Пед. наука. фальшивый доктор ... дисс. абстрактный. - Москва: 2020.-86.
4. Петрова, Е. В. Развитие критического мышления у школьников. // Методические рекомендации для педагогов, 2021.
5. К.Е.Михайлович Образовательные порталы – средства систематизации и систематизации информации // Автореф. Дисс... док. пед. наук. -Ставрополь 2004. 9-с
6. Л.Е.Владиславовна Дидактическое проектирование информационно-образовательной среды вуза // Автореф. Дисс... док. пед. наук. -Москва- 2005. 11-с
7. М.Ю.Новиков Преподавание информатики в школе с использованием мобильных технологий: Автореф. Дисс... док. пед. наук. – Уральский: 2019.-10с.
8. Ахмедова Э.М., Пашина С.А. Современные образовательные технологии преподавания в вузе. Проблемы современного педагогического образования. 2020; № 66 (2): 27 – 30.

Резюме: Ushbu didaktik talablarga asoslangan dasturiy-metodik ta'minot nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning zamonaviy raqamli muhitga moslashishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Резюме: Программно-методическое обеспечение, основанное на данных дидактических требованиях, не только повышает качество образования, но и поддерживает индивидуальное развитие обучающихся, обеспечивает их адаптацию к современной цифровой среде.

Summary: Software and methodological support based on these didactic requirements not only improves the quality of education, but also supports the individual development of students and ensures their adaptation to the modern digital environment.

Tayanch so'zlar: moslashuvchanlik, individuallik, interaktivlik, intuitiv, raqamli didaktika, qo'llab-quvvatlash.

Ключевые слова: гибкость, индивидуальность, интерактивность, интуитивность, цифровая дидактика, поддержка.

Key words: flexibility, individuality, interactivity, intuitiveness, digital didactics, support.

TIBBIYOT TALABALARIGA PEDIATRIYA FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Axmadaliyeva M. A.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Kirish. Pediatriya tibbiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bolalar salomatligini himoya qilish, kasalliklarni oldini olish va davolashga qaratilgan fan sifatida katta ahamiyatga ega [1]. Zamonaviy tibbiyotda pediatriya bo'yicha bilimlarning o'zgarishi va rivojlanib borishi ushbu fanning o'qitilishida yangicha yondashuvlarni talab qiladi [2]. Talabalar uchun pediatriya faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi kerak, chunki bolalar kasalliklari klinik tafakkur, aniqlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi [3].

Hozirgi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida pediatriya fanini o'qitishda bir qator pedagogik muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ulardan biri nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unlashmaganligidir. Talabalar ko'pincha nazariy bilimlarga tayanib qolib, amaliy mashg'ulotlarga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar [1]. Bundan tashqari, tibbiy ta'lim dasturlarining eskirganligi ham dolzarb muammolardan biridir, chunki zamonaviy pediatriya yangi diagnostika va davolash usullarini o'z ichiga oladi [4].

Dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM) tamoyillarining yetarlicha qo'llanilmasligi ham muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Tibbiyot ta'limida dalillarga asoslangan yondashuvlarni keng joriy qilish talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki real klinik holatlarni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [3]. Ammo ko'plab oliy ta'lim muassasalarida bu yondashuv hanzur to'liq tatbiq etilmagan.

Shuningdek, tibbiyot ta'limida innovatsion texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi ham muhim masaladir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida pediatriya fanini o'qitishda simulyatsion texnologiyalar, virtual reallik va interaktiv platformalardan keng foydalanilmoqda, bu esa talabalarga real klinik vaziyatlarga mos tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi [5]. O'zbekistonda esa bunday texnologiyalar hanaiz yetarlicha rivojlanmagan va ko'plab oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy qilinmagan. Pediatriya fanini samarali o'qitishning muhim yo'nalishlaridan biri bu klinik amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini shakllantirishdir. Talabalar uchun real kasalliklar bilan ishlash imkoniyatining mavjudligi ularning kasbiy malakalarini oshirishga va klinik tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [6]. Shu sababli, zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali pediatriya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pediatriya fakulteti talabalari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida 80 nafar talaba ishtirok etdi. Ushbu ishda muallif tomonidan maxsus "Pediatriyada dalillarga asoslangan tibbiyot" nomli mobil ilova ishlab chiqildi. Mobil ilovaning asosiy maqsadi – talabalar uchun pediatriya bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni samarali tarzda o'zlashtirish, klinik holatlar asosida mustaqil qaror qabul qilish va dalillarga asoslangan yondashuvlarni shakllantirishdan iborat bo'ldi. Tadqiqot davomida talabalar ikkita guruhga bo'lindi: birinchi guruh an'anaviy ta'lim usuli asosida o'qitildi, ikkinchi guruh esa mobil ilovadan foydalanib ta'lim oldi. Ilova orqali talabalar interaktiv savollar, klinik holatlar va algoritmik yondashuvlar asosida bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijalar tahlil qilinar ekan, mobil ilovadan foydalangan talabalar kasalliklarni aniqlash, differensial diagnostika yuritish va davolash tamoyillarini an'anaviy usul bilan o'qigan talabalarga qaraganda tezroq va samaraliroq o'zlashtirganliklari aniqlandi. Bundan tashqari, talabalar o'rtasida so'rovnoma va test sinovlari o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, mobil ilovadan foydalangan guruhdagi talabalar 85% aniqlik bilan to'g'ri javob bergan bo'lsa, an'anaviy usulda ta'lim olgan guruhda bu ko'rsatkich 70% atrofida bo'ldi. Shuningdek, talabalar mobil ilova orqali mustaqil ravishda klinik vaziyatlarni baholash va muolaja taklif qilish ko'nikmalarini rivojlantirganliklarini ta'kidladilar.

Ushbu tadqiqot natijalari pediatriya fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini tasdiqlaydi va talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda raqamli ta'lim platformalarining o'rnini ochib beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mobil ilovadan foydalangan talabalar an'anaviy ta'lim usuli bilan o'qigan talabalarga qaraganda sezilarli darajada yaxshiroq natijalarga erishgan. Xususan, talabalar kasalliklarni aniqlash, klinik tafakkur yuritish va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillaridan foydalanishda aniq va samarali yondashuvlarni qo'llay olishgan.

1. **Bilimlarning o'zlashtirilishi:** Mobil ilovadan foydalangan talabalar bilim sinovlarida o'rtacha 85% aniqlik bilan javob berishgan bo'lsa, an'anaviy usulda o'qigan talabalar o'rtacha 70% natijaga erishgan. Bu esa interaktiv va texnologik ta'lim vositalarining samaradorligini tasdiqlaydi.

2. **Klinik tafakkur va amaliy ko'nikmalar:** Ilova orqali ta'lim olgan talabalar klinik holatlarni tahlil qilish va bemorlarni baholashda an'anaviy usulda o'qigan talabalarga nisbatan tezroq va aniqroq qaror qabul qilishgan. Ular diagnostika va davolash algoritmilarini yaxshiroq o'zlashtirganliklari kuzatilgan.

3. **Talabalarining qoniqish darajasi:** So'rovnoma natijalariga ko'ra, mobil ilovadan foydalangan talabalar o'quv jarayoni samaradorligi va qiziqarli ekanligini ta'kidlab, 92% ijobiy fikr bildirgan. An'anaviy usul bilan ta'lim olgan talabalar orasida esa bu ko'rsatkich 76% ni tashkil qilgan.

4. **Tahlil va baholash:** Tadqiqot davomida mobil ilova yordamida ta'lim olgan talabalar differensial diagnostika, dori vositalarini tanlash va muolaja protokollarini o'zlashtirish bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatganlar. Shuningdek, ular klinik holatlarga nisbatan mustaqil fikrlash va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirganliklari kuzatilgan.

Natijalarga asoslanib, innovatsion ta'lim metodlarini, jumladan, mobil texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligi tasdiqlandi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki talabalar uchun real kasbiy muhitga moslashishga ham yordam beradi.

Xulosa. Pediatriya fanini samarali o'qitish tibbiyot ta'limining dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ushbu sohada zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirganlarida, ularning kasbiy kompetensiyalari ancha oshadi. Ayniqsa, mobil texnologiyalar va interaktiv o'quv platformalarining qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mobil ilova orqali ta'lim olgan talabalar diagnostika, differensial tahlil va muolaja tamoyillarini an'anaviy usulda ta'lim olgan guruhlariga nisbatan ancha yuqori darajada o'zlashtirishgan. Shuningdek, ularning klinik tafakkur yuritish va amaliy bilimlarni tatbiq etish qobiliyatlari oshgani kuzatildi. Talabalar ushbu o'quv platformasi yordamida kasalliklarni aniqlash va bemor holatini baholash jarayonida ancha tezkor va aniq qaror qabul qilishgan.

Pedagogik nuqtayi nazardan, pediatriya fanini o'qitishda talabalarining faol ishtirokini ta'minlash, amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish va dalillarga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarur. Innovatsion ta'lim usullari, xususan, simulyatsion darslar va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish kelajakda talabalar bilim olish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot pediatriya fanini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sababli, ta'lim jarayonida an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish orqali kelajak shifokorlarini yuqori malakali va zamonaviy bilimlarga ega mutaxassis sifatida tayyorlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ахмадалиев Ш.Ш., Усмонов У.Д., Ахмадалиева М.А. Гиперимитация: интеграция манекенов с виртуальной реальностью при изучении кардиопульмональной реанимации. *Виртуальные технологии в медицине*. 2023;(1):48-51. https://doi.org/10.46594/2687-0037_2023_1_1604
2. Akhmadaliev Shokhrukh Shukhratovich, & Sidikov Akmal Abdikaxarovich. (2023). IMITATIONAL METHOD OF TEACHING FOR CARDIO-PULMONARY RESUSCITATION TRAINING IN MEDICAL EDUCATION. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 17, 58–63. Retrieved from <https://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/699>
3. Komilov, N. (2024). Tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali xorijiy talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirish aspektlari. *Общество И Инновации*, 5(2/S), 261-265. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/s-pp261-265>
4. Hamroyev, R. (2021). Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda axborot texnologiyalar fanini o'qitish vositalari. *Общество И Инновации*, 2(2/S), 699-705. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss2/s-pp699-705>
5. Xurmatillo TO'XTABOYEV. (2024). THE ROLE OF THE TASHKENT PEDIATRIC INSTITUTE IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SCIENCE. *News of the NUUZ*, 1(1.1.1), 212-215. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.1.1.740>

Tibbiyot talabalariga pediatriya fanini o'qitishning pedagogik muammolari

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot talabalariga pediatriya fanini o'qitish jarayonidagi asosiy pedagogik muammolar tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiyot ta'limida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari, balki amaliy ko'nikmalarni ham mukammal egallashlari lozim. Pediatriya fani bo'yicha ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar, jumladan, nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unlashmaganligi, simulyatsion texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi va dalillarga asoslangan yondashuvlarning to'liq joriy etilmagani kabi muammolar yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni, jumladan, mobil texnologiyalar, interaktiv o'qitish usullari va klinik holatlarga asoslangan yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan talabalar an'anaviy ta'lim olgan talabalarga nisbatan yaxshiroq natijalarga erishganlari aniqlangan. Maqolada ushbu pedagogik muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pediatriya, tibbiyot talabalar, ta'lim metodlari, pedagogik muammolar, dalillarga asoslangan tibbiyot.

Педагогические проблемы преподавания педиатрии студентам-медикам

Аннотация: В данной статье анализируются основные педагогические проблемы в процессе преподавания педиатрии студентам медицинских вузов. В современном медицинском образовании студенты должны не только усваивать теоретические знания, но и в совершенстве овладеть практическими навыками. Рассматриваются проблемы, возникающие в процессе обучения педиатрии, такие как несоответствие между теоретическими и практическими знаниями, недостаточное использование симуляционных технологий и неполное внедрение доказательного подхода. Также проводится анализ значимости внедрения инновационных методов обучения, включая мобильные технологии, интерактивные методы преподавания и подходы, основанные на клинических случаях. По результатам исследования установлено, что студенты, использующие цифровые образовательные технологии, достигли лучших результатов по сравнению с учащимися, обучавшимися традиционными методами. В статье представлены практические рекомендации по решению данных педагогических проблем.

Ключевые слова: педиатрия, студенты-медики, методы обучения, педагогические проблемы, доказательная медицина.

Pedagogical Problems of Teaching Pediatrics to Medical Students

Abstract: This article analyzes the main pedagogical challenges in teaching pediatrics to medical students. In modern medical education, students must not only acquire theoretical knowledge but also master practical skills. The study highlights issues in pediatric education, such as the lack of integration between theoretical and practical knowledge, insufficient use of simulation technologies, and the incomplete implementation of evidence-based approaches. Additionally, the importance of integrating innovative teaching methods, including mobile technologies, interactive learning techniques, and case-based approaches, is examined. According to the research findings, students using digital educational technologies achieved better results compared to those receiving traditional education. The article provides practical recommendations for addressing these pedagogical challenges.

Key words: pediatrics, medical students, teaching methods, pedagogical challenges, evidence-based medicine.

BOLAJAQ TÁRBIYASHÍLARDÍN KOGNITIV QABILETLERIN RAWAJLANDÍRÍWDA PEDAGOGIKALÍQ HÁM PSIXOLOGIALÍQ FAKTORLARDÍN ROLI

Bazarbaeva A. K.

Ájiniyaz atındaǵı NMPI.

Házirgi socialliq-ekonomikalıq rawajlanıw hám ruwxıy-aǵartıwshılıq turmistaǵı reformalardıń jedel pátler menen ámelge asırılıp atırǵanı, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń jańalanıwı, joqarı bilimlendiriw mákemelerinde texnologiya, injenerlik pánleri, matematika, súwretlew iskerligi, kórkem óner, shet tillerin oqıtıw baǵdarların kúsheytiw talapları tiykarǵı áhmietke iye. Pedagogikalıq antropologiya túsiniǵı mazmunın jańa mánis penen bayıtqan, ullı rus pedagogı K.O.Ushinskiydiń (1824-1870) «İnsan tárbiyanıń predmeti sıpatında» «Pedagogikalıq antropologiya tájiriyesi» (1868-1870) shıǵarmasında atap ótilgenindey, «Eger pedagogika insandı hár tárepleme tárbiyalawdı qálese, onı hár tárepleme biliwi kerek.» Maqalaǵa tiykarlanıp hár bir tárbiyashı balanı talap hám mıtájlik tiykarında tárbiyalaw hám onı shaxs sıpatında barksamal insan etip kamalǵa keltiriwi ushın - balanıń jas hám psixologialıq ózgesheliklerin biliw, olardı esapqa alıp talım-tárbiya jumısların ámelge asırıwı kerek. Usı jerde tán alıw kerek, hár bir insan tákarırlanbaytuǵın, ózine tán anatomialıq-fiziologialıq, ruwxıy-intelektualıq, fizikalıq qásiyetlerge iye bolǵan biologialıq hám sociallıq janzat bolıp esaplanadı. Biraq, onıń ózine tán ózgeshelikleri ózgermeytuǵın hám qatań bir nárse emes, al turmıs tárizi, sociallıq talaplar tásirinde ózgerip, jetilisip barıwshı. Ásirese, házirgi Ózbekstanda alıp barılıp atırǵan reformalar sharayatında ósip kiyatırǵan jas áwladtıń mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminen baslap bilimin hám ruwxıy-siyasiy sanasın arttırıw,

milliy ideologiyağa sadıqlıǵın arttırıw, kásiplik-mádeniy tayarlıǵın arttırıw eń áhmiyetli wazıypa bolıp esaplanadı.[3] Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoevtiń atap ótkenindey, jas áwladımızdıń puqaralıq poziciyası hám belsendiligin kúsheytiw, oni erkin pikirleytuǵın, zamanagóy bilim hám kásip-ónerlerdi puqta iyelep, xalıqaralıq maydanda básekige kirise alatuǵın barksamal shaxslar etip tárbiyalaw áhmiyetke iye». Sonday-aq, prezidenttiń 2017-jıl 13-yanvardaǵı «Qurallı kúshler - Watanımız hám xalqımızdıń bekkem qorǵanı» atamasındaǵı bayanatında atap ótilgenindey, «Hámmemizge jaqsı belgili, watansúyiwshilik hár bir mámleket turmısınıń ruwxıy tiykarı bolıp esaplanadı hám jámietti hár tárepleme rawajlandırıw boyınsha eń áhmiyetli mobilizaciyalawshı kúsh sıpatında kórinedi[1]. Usı ilajlar sıpatında mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyalanıwshılardıń ruwxıy ádep-ikramlı jetik shaxs, kognitiv qábiletleri rawajlangan insan etip jetilistiriwde, olardıń psixologiyalıq-fiziologiyalıq hám jas ózgesheliklerin esapqa alıw pedagogika pání aldında turǵan áhmiyetli wazıypa bolıp esaplanadı. Bul másele ótmish oyshıllarınıń ilimiy-teoriyalıq tálimatlarında, hár qıylı dáwirlerde pedagogika-psixologiya pánleri jáne balalar hám jaslar psixologiyası máselesinde izertlew jumısların alıp barǵan sırt mámleketler, respublikamız ilimpazlarınıń izertlew jumıslarında óz sheshimin tawıp alǵan. Sonıń ishinde, Abu Nasır Farabıydıń insan hám onıń ruwxıyatı haqqındaǵı tálimatı «Aqıl haqqındaǵı kitapsha,» «Logikaǵa kiriw,» «Substansiya haqqında,» «Túsinikler,» «Máselelerdiń mánisi» sıyaqlı birneshe shıǵarmalarında óz kórinisin tapqan.[4]

Abu Rayxan Beruniydiń psixologiyaǵa tiyisli kózqarasları «Hindstan» hám «Ótmishte qalǵan estelikler» shıǵarmalarında sheshimin tapqan. Onıń pikirinshe insan tábiyat, jámiyet, turmıs hádiyselerin seziw organları arqalı ańlap aladı. Onıń atap ótiwinshe, seziw óziniń qozǵatıwshı aǵzaları arqalı júzege keledi. Máselen, kóriw seziwdi nur qozǵatadı, yesitiw, iyis seziwdi hawa menen murıǵa urılatuǵın iyisler qozǵatadı. Beruniy hár bir jumıs ólsheminde insannıń qábileti hám ruwxına saykes bolıwına itibar beriwdi maqsetke muwapıq dep esaplaydı. Ibn Sino «Medicina nizamları» kitabında insan denesiniń dúzilisi, onıń fiziologiyalıq hám psixologiyalıq procesleri, nerv iskerligi haqqında pikir júrgizip, olardıń bala minez-qulqınıń qalıplesiwindegi áhmiyetin ruwxıy fiziologiyalıq jaqtan túsiniredi, «Bala minez-qulqın ortasha saqlawǵa itibar beriw kerek.» Bunda eki payda bar. Biri - balanıń ruwxı ushın bolıp, ol jaslıqtan baslap jaqsı minez-qulıqtı iyelep aladı. Ekinshisi - onıń denesi ushın, sebebi jaman minez-qulıq hár qıylı kletkalar buzılıwlarınan payda boladı.[5]

«Ullı oyshıl ǵazel mülkiniń sultanı Áliysheer Nawayı óziniń «Mehbubul qulub,» «Lison ut-tayr,» «Xazoyin ul-maoniy» sıyaqlı shıǵarmalarında barksamal shaxstıń ádep-ikramlılıǵı, insanlarǵa múnásibeti, mánawıyatı, talantı, qábileti haqqında pikir júrgizer eken, bulardıń hámmesi insannıń ruwxıyatı, fizikalıq jetikligi menen baylanıslı dep esaplaydı. Onıń pikirinshe, insan shaxsılıǵı adamlar menen qatnasıqta, ásirese, adamlardıń bir-birine bolǵan ruwxıy hám mánawiy tásirleri nátiyjesinde qurıladı. Sonıń ushın insan ruwxı, insaniy qatnasın jaqsılawı kerek, bul bolsa onda nazikliktiń, jaǵımlılıqtıń, ádep-ikramlılıqtıń júzege keliwine járdem beredi.

Ullı oyshıl, astronomiya iliminiń tiykarın salıwshılardan biri Mırza Ulıǵbektiń aytıwınsha, balanıń bilim alıwǵa qábilettiligi, qızıǵıwshılıǵı onıń fizikalıq hám ruwxıy jetikligine baylanıslı. Balanı jaslıqtan fizikalıq jaqtan salamat hám ruwxıy jaqtan barksamal etip kamalǵa keltiriw onıń keleshekte ruwxıy jetikligin támiyinleydi. Sonıń ushın balalar jaslıǵınan baslap fizikalıq shınıǵıwlar hám ruwxıyattı qatańlastıratuǵın jumıslar menen shuǵıllanıwı kerek. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyalanıwshılardıń tálim-tárbiyasında jas hám psixologiyalıq faktorlardı esapqa alıw, ásirese, olardıń jasına qarap bilim alıw dáwirleri, anatomiyalıq-fiziologiyalıq, oqıw iskerliginiń ózgeshelikleri, shaxs sıpatında hám aqlıy rawajlanıwı haqqında dúnya psixologiyası páninde Amerikada Dns. Bruner, U.Jems, S.Xoyel, Franciyada E.Dyurkcheym, P.Jame, Shveciyada J.Piajlar, Rossiyada N.O.Konterev, D.B.Elkonin, A.L.Kovalev, V.A.Krutetskiy, V.V.Davidov, T.V.Yaragukova, A.V.Petrovskiy, A.I.Sherbakovlar, Ózbekstanda P.I.Ivanov, M.Voxidovlar kóp izertlewler alıp barǵan. Atap ótilgen psixologlardıń izertlesiwiniń mazmunı boyınsha balanıń hár bir jastaǵı psixologiyalıq ózgeshelikleri, sırtqı dúnyaǵa, ishki ruwxıy áhmiyetke iye bolıp, oqıwǵa, bilim alıwǵa bolǵan sanalı qatnas unamlı baǵdarǵa iye boladı.[6] Óspirimniń ruwxıy-aqlıy, fizikalıq imkaniyatı hám qábiletiniń jetilisiwi, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemindegi shınıǵıwlardı ózlestiriwi hám sol tiykarda óspirimniń kognitiv qabiletleriniń rawajlanıwına tásiiri tárbiyalanıwshılardıń biliw iskerligi ózgeshelikleri hám de aqlıy rawajlanıwındaǵı ózgerisler menen baylanıslı. Bunda tárbiyalanıwshılardıń biliw iskerligi: bilim alıwǵa sanalı qatnasıń júzege keliwi; biliw motivleri; qızıǵıwshılıqlar sıyaqlı psixologiyalıq ózgeshelikler tásirinde ámelge asırılsa, aqlıy iskerlik, esinde saqlap qalıw, pikirlew, ulıwmalastırıw, abstrakt pikirlew dóretiwshilik pikirlew maqsetke umtılwı menen xarakterlenedi. Sonday-aq, tárbiyalanıwshılarda ol yamasa bul jeke pazıyetlerdiń unamlılıǵı, oqıw iskerligi hám aqlıy rawajlanıw procesiniń intensiv rawajlanıwı, quramalılısıwı, tárbiyalanıwshılardıń bilim alıwǵa umtılwı, qızıǵıwshılıǵınıń individualligi hám bilim alıw procesine esapqa alıw óspirimniń jeke ruwxıy ózgesheliklerine baylanıslı. Bunı dúnya psixologları tómendeǵi túrlerge ajratadı:[8]

- **Ekstravert** (sezim hám sırtqı ortalıqqa baǵdarlangan) bilim alıwshı-aktiv oqıtıw procesin, basqa adamlar menen óz ara pikirlesiwdi (sociallıq óz ara tásirlesiwdi - topar tapsırmalardı ámelge asırıwı, shınıǵıwlardı orınlawdı) abzal kóredi.

- **Introvert** (sezim hám ishki ortalıqqa baǵdarlangan) tálim alıwshı individual óz betinshe úyreniwdi, yaǵnıy shınıǵıw waqtında dıqqat penen tıńlaw, ertek oqıw hám ılay,súwret salıw sıyaqlı tapsırmalardı orınlawdı jaqsı kóredi.

- **Esitiw hám sóz arqalı esitiwshiler:** bul túrdegi maǵluwmatlardı seziwdi maqul kóretuǵınlar yesitiw hám bayanattı konspekt qılıwǵa beyim boladı;

- **Logikalıq-matematikalıq seziwshiler:** bul túrdegi maǵluwmatlardı seziwdi máqul kóretuǵınlar kóbirek sanlar menen yesaptı sheshiwge, logikalıq pikir júritiwge, hár bir pikirdi tiykarlawǵa beyimlesedi. Olar sanlar hám sánelerdi jaqsıraq yadta saqlaydı.

- **Vizual, keńisliktegi seziwshiler:** bul túrdegi insanlar maǵluwmatlardı seziwdi maqul kóretuǵınlar kórgizbeli

qurallar, hár túrli figuralar, strukturalıq reje, hár túrli kartalar, kesteler, sxemalar, grafik hám diagrammalardı áhmiyetli dep esaplaydı.

• **Shaxslar ara qatnasıqlar arqalı perseptorlar:** bul túrdegi insanlar maǵluwmatlardı persepciylawdı abzal kóretuǵınlar bilimlerde ózlestiriw procesinde bir-biri menen óz ara qarım-qatnasta, múnásibette boladı. Bilim beriw procesinde olardıń ayırımları óz betinshe úyreniwdi, jeke shuǵıllanıwdı abzal kórse, olardıń ayırımları bolsa birgelikte islewge, bilim alıwǵa umtıladı.

• **Fizikalıq hám kinetikalıq seziwshiler:** ayırım balalar tábiyattan fizikalıq háreketlerin orınlawǵa, olardan ilham alıwǵa hám fizikalıq shınıǵıwları orınlawǵa beyim boladı. Olarda kóbirek ámeliy jumıslar, fizikalıq miynet qol-ayaq bulshıq etleri járdeminde shınıǵıwlar orınlaw hám de durıs nárselerdi islewge beyimlik ústin boladı. Informaciyalardı kinestetikalıq túsiniwshi hám qay jerde islewshi bilim alıwshılar modellestirilgen sabaq, rolly oynlar hám háreketlerge tiykarlanǵan shınıǵıwları abzal esaplaydı;

• **Naturalist esaplawshılar:** bul kategoriyadaǵı bilim alıwshılar tábiyattı súyetuǵın, ósimlik hám haywanat dúnyasına, jer hám onıń dúzilisine, kartalar menen islewge, gerbariy hám tábiyat denelerinen kollekciyalar toplawǵa qızıǵıwshı boladı. Olar biologiya, geografiya, fizika, sharwashılıq sıyaqlı pánlerdi jaqsı kóredi.[7]

Rus pedagoglarınan P.F. Lesgaftıń pikirinshe, insannıń mektepke shekemgi jasındaǵı dáwiri sonday bir dáwir, sol dáwir dawamında keleshekte qanday xarakter qásiyetleriniń payda bolıwı belgilenedi hám ádep-ikramlılıq pazıyetleriniń tiykarları payda boladı. Insannıń kamalǵa keliwinde mektepke shekemgi jastaǵı dáwirdiń áhmiyetine baylanıslı P.F. Lesgaftıń bul pikiri rus pedagogı A.S. Makarenkonıń tómendegi pikirine tolıq sáykes keledi. A.S. Makarenko balalardı júdá kishkene dáwirinen baslap tárbiyalaw zárúrliǵı haqqında ayıp, tárbiyanıń eń áhmiyetli tiykarları balanıń bes jasqa shekemgi dáwirinde júzege keltiriledi. Mine, usı dáwirde islengen pútkil tárbiya, tárbiya procesiniń 90% in quraydı, degen edi. Mine usı joqarıdaǵılardan juwmaqlap ayıw múmkin, mektepke shekemgi jasqa kelip organizminiń jumısqa uqıplılıǵı ádewir artadı. Sonıń ushın baqsha hám shańaraqta tálim-tárbiya jumısları hám de bala iskerligi rejimin dúziwde balanıń fizikalıq rawajlanıw ózgesheliklerin bárqulla esapqa alıw zárúr.[8]

Mine usı joqarıdaǵılardan juwmaq shıǵarıp ayıw múmkin, mektepke shekemgi jasqa kelip organizmniń jumısqa uqıplılıǵı ádewir artadı. Sonıń ushın baqsha hám shańaraqta tálim-tárbiya jumısları hám de bala iskerligi rejimin dúziwde balanıń fizikalıq rawajlanıwınıń ózgesheliklerin mudamı esapqa alıw zárúr.

ÁDEBIYATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdaǵı «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707- sonli qarori.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2013.
4. Sh.A. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013. 288-b
5. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.
6. Researching effective pedagogy in the early years. Iram Siraj-Blatchford and others. June 2002.
7. M.Voxidov. "Bolalar psixologiyasi". Toshkent, 1992-y.
8. P.Leventuyev. A.Askarxujayev. V.Chudnovskiy. M.Voxidov. "Bolalar psixologiyasi ocherklari", Toshkent, 2002-y.
9. Kdirbaevna B. A. Methodology for developing the activity of future educators' cognitive abilities //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 48-51.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillarning roli

Annotatsiya. Bu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillarning roli ko'rib chiqiladi, bolalarni tarbiyalashda yosh va psixologik omillar, ayniqsa ularning yosh davrlari, anatomik va fiziologik, o'quv faoliyatining xususiyatlari, shaxsiy va aqliy rivojlanishi hisobga olinadi. Maqolaga asosan har bir tarbiyachi bolani talab va ehtiyoj asosida tarbiyalash va uni shaxs sifatida barkamol inson qilib voyaga yetkazish uchun - bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish, ularni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishi kerak.

Tayanch so'zlar: psixologiya, kognitiv, pedagogika, metodika, fiziologiya, texnologiya, muhandislik fanlari, matematika.

Роль педагогических и психологических факторов в развитии когнитивных способностей ребенка

Аннотация. В этой статье рассматривается роль педагогических и психологических факторов в развитии когнитивных способностей будущих воспитателей, учитываются возрастные и психологические факторы в воспитании детей, особенно их возрастные периоды, анатомо-физиологические особенности учебной деятельности, личностное и умственное развитие. Согласно статье, каждый воспитатель должен знать возрастные и психологические особенности ребенка, проводить учебно-воспитательную работу с учетом их, чтобы воспитывать ребенка на основе требований и потребностей и вырастить его как совершенную личность.

Ключевые слова: психология, когнитивный, педагогика, методика, физиология, технология, инженерные науки.

The role of pedagogical and psychological factors in the development of a child's cognitive abilities

Annotation. This article examines the role of pedagogical and psychological factors in the development of cognitive abilities in future educators, taking into account age and psychological factors in the upbringing of children, especially their age periods, anatomical and physiological features of educational activities, personal and intellectual development. According to the article, every educator must know the child's age and psychological characteristics, carry out educational work taking them into account, in order to educate a child based on demands and needs and bring him up as a harmoniously developed person.

Key words: psychology, cognitive, pedagogy, methodology, physiology, technology, engineering sciences.

TALABALARNI XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID KASBLARNI O'RGATISH ORQALI TARBIYALASH

Esanova S. U.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Kirish. Har bir xalqning milliy madaniyati va merosi asrlar davomida shakllanib, o'ziga xos an'ana va qadriyatlarga asoslangan. Xalq hunarmandchiligi ana shunday madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, unda milliy urf-odatlar, san'at va kasbiy mahorat mujassam etilgan. Hunarmandchilik faoliyati nafaqat moddiy madaniyat namunalari yaratishga xizmat qiladi, balki yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligi orqali talabalarni kasbga yo'naltirish va tarbiyalash masalasi dolzarb hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish, yosh avlodni an'anaviy kasblarga jalb etish va hunarmandchilik san'atini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Hunarmandchilik mashg'ulotlari talabalarni nafaqat muayyan kasb-hunar sirlariga o'rgatadi, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitishning pedagogik ahamiyati shundaki, bu jarayon interfaol va amaliy o'qitish usullari orqali talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga undaydi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi) bilan uyg'unlashtirilgan holda hunarmandchilikni o'qitish talabalar uchun yanada samarali bo'lishi mumkin. Chunki bu yondashuv orqali an'anaviy hunarmandchilik zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashadi va yoshlarning kasbiy ko'nikmalari kengayadi. Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi orqali talabalarni kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish va tarbiyalash jarayoni ilmiy-tahliliy asosda o'rganiladi. Shuningdek, hunarmandchilikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari, bu jarayonning ta'lim va tarbiya tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbga yo'naltirish va tarbiyalash masalasini yoritishda bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga tayanish muhimdir. Xalq hunarmandchiligi tarixi, uning ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni, kasbiy ta'limdagi roli bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik yosh avlodga nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarga hurmatni ham singdi. Ko'pgina tadqiqotchilar xalq hunarmandchiligining pedagogik jarayondagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Masalan, N.Nazarov o'z tadqiqotida xalq hunarmandchiligining madaniy meros sifatidagi o'rnini va uning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganib, hunarmandchilik kasblarini o'qitish milliy identifikatsiyani mustahkamlashda muhim ekanligini qayd etgan [1]. Shomirzayev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar darsligida ham zamonaviy ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligi orqali talabalarni kasbga yo'naltirish va tarbiyalash masalasi dolzarbligini haqida to'xtalib o'tilgan [2]. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilingan hunarmandchilik o'qitish jarayonini yanada samarali qiladi. G'arbiy Yevropa va AQShda STEAM yondashuvi asosida hunarmandchilikni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy hunarmandchilik fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirgan holda innovatsion ta'lim vositasiga aylanishi mumkin. Hunarmandchilikni texnologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida, talabalar lazer kesish va 3D printer texnologiyalaridan foydalangan holda an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish orqali kreativ fikrlash va texnik ko'nikmalarni rivojlantirganliklarini aniqlagan [3]. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi orqali o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lib, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Keyingi bo'limda ushbu masalalarni ilmiy asosda tahlil qilish uchun tadqiqot metodologiyasiga e'tibor qaratamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish va tarbiyalash jarayonining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'unlashgan holda olib borildi. Tadqiqotda xalq hunarmandchiligining pedagogik ahamiyatini aniqlash, uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish hamda hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirish natijasida talabalarining ijodiy va kasbiy rivojlanishini baholash maqsad qilingan.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'limga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi. Xalq hunarmandchiligi va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar o'rganilib, ularning ta'lim va tarbiyadagi o'rni baholandi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy va interfaol o'qitish metodlari asosida hunarmandchilikni o'qitishning samaradorligi o'rganildi.

Nazariy tahlil – xalq hunarmandchiligi va uning tarbiyaviy ahamiyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi.

Amaliy tadqiqot – xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish jarayonida interfaol va innovatsion metodlarning ta'siri kuzatildi.

Eksperiment – hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirishning talabalar rivojlanishiga ta'siri baholandi.

Kuzatish va tahlil – hunarmandchilik mashg'ulotlari jarayonida talabalar faoliyati o'rganildi, ularning hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy yondashuvi tahlil qilindi. Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda ijodiy tafakkur, milliy qadriyatlarni anglash va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi bilan integratsiyalashgan holda o'qitish talabalar bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga yordam beradi. Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarni nafaqat

kasbiy mahoratga, balki milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Hunarmandchilikni o'qitishning turli metodlari qo'llanilgan guruhlarini tahlil qilish orqali, innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitishning talabalar rivojlanishiga ta'siri quyidagi jihatlar bo'yicha baholandi:

Ijodiy tafakkurning rivojlanishi – talabalar o'z loyihalarida innovatsion yondashuv va yangi dizayn yechimlarini qo'llay boshladilar. Bu, ayniqsa, STEAM yondashuvi asosida ta'lim olgan guruhda yaqqol ko'zga tashlandi. Kasbiy ko'nikmalar va amaliy malaka – talabalar hunarmandchilik jarayonida turli materiallar bilan ishlash, an'anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq natijalarga erishdi. Ularning ishlari sifati o'sdi, bu esa amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Motivatsiya va kasbga qiziqishning oshishi – hunarmandchilik bilan shug'ullangan talabalar kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ular o'z ishlariga ijodiy yondashishni o'rgandilar va hunarmandchilikni kelajak kasb sifatida qabul qila boshladilar.

Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari – talabalar guruh bo'lib ishlash orqali o'zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish, o'z loyihalarini samarali taqdim etish kabi muhim qobiliyatlarni shakllantirdilar.

Hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan integratsiya qilish jarayoni natijalari shuni ko'rsatdiki: An'anaviy hunarmandchilik zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilganda talabalar materiallar va vositalar bilan innovatsion usullarda ishlashni o'rganadilar. Hunarmandchilik mashg'ulotlariga texnologiyalarni tatbiq etish (masalan, 3D dizayn, lazer kesish) natijasida talabalar nafaqat milliy merosni o'rganib, balki zamonaviy bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar yaratishga intilishadi. STEAM metodikasini qo'llagan guruhda talabalar o'z hunarmandchilik loyihalarini ilmiy jihatdan asoslashga, iqtisodiy tahlil qilishga va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari surishga moyillik bildirdilar. Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarni kasbiy jihatdan rivojlantirish bilan birga, ularda ijodkorlik, milliy madaniyatga hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash bu jarayonni samaraliroq qilish imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish nafaqat kasbiy ta'lim tizimida, balki umumiy ta'lim muassasalarida ham samarali tarzda qo'llanilishi mumkin. Bu metodikani kengroq tatbiq etish orqali talabalar nafaqat hunarmandchilikka, balki innovatsion ishlab chiqarishga ham jalb etilishi mumkin.

Xulosa. Xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy ta'lim berish talabalarining nafaqat mehnat ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlash, milliy qadriyatlarga hurmat va kasbiy mahorat darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

An'anaviy o'qitish usullari hunarmandchilik asoslarini o'rgatishda samarali bo'lsa-da, zamonaviy innovatsion yondashuvlar, jumladan STEAM metodikasi orqali o'qitish yanada yuqori natijalarni berdi. STEAM yondashuvi asosida o'qigan talabalar nafaqat hunarmandchilik buyumlarini yaratish, balki ularning dizaynini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish va mustaqil ijodiy yechimlar topishda ham faol bo'lishdi.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarning bolalarining hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishini oshirishda alohida o'rin tutishi kuzatildi. Hunarmandchilik o'qitish jarayonida milliy madaniyatni singdirish orqali talabalarining o'z tarixi va merosiga bo'lgan hurmatini shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, A. (2021). O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, R. (2019). Kasb-hunar ta'limida innovatsion metodlar va xalq hunarmandchiligi. Samarqand: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
3. Qodirova, N. (2020). STEAM yondashuvi va xalq hunarmandchiligi asosida ta'lim berish usullari. Pedagogika jurnali, B-91.
4. Shomirzayev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. – “TerDU nashr-matbaa markazi” – 2021, –228 b.
5. Xolmirzayev, B. (2022). Hunarmandchilik va dizayn: An'anaviy kasblarni zamonaviylashtirish. Buxoro: Sharq nashriyoti.
6. Ismoilov, D. (2018). Pedagogik innovatsiyalar va xalq hunarmandchiligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik. O'zbekiston Pedagogika Tadqiqotlari, B- 113.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-fevraldagi “Xalq hunarmandchiligi va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish to'g'risida”gi farmoni.

Talabalarni xalq hunarmandchiligiga oid kasblarni o'rgatish orqali tarbiyalash

Annotatsiya. Maqolada xalq hunarmandchiligi kasblariga o'rgatish asosida o'quvchilar mehnat mahsulotlarini iste'molga chiqarishi va ushbu jarayonda tejamkorlik, uddaburonlik, ishbilarmonlik kabi fazilatlarini shakllantirish, ularni texnologik jarayonga tayyorlashning mazmuni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: texnologiya, kasb, xalq hunarmandchiligi, ko'nikma, mehnatsevarlik, tejamkorlik, ijodkorlik, tizim.

Воспитание студентов через обучение народным ремеслам

Резюме. В статье рассмотрено содержание потребления продуктов труда учащихся на основе обучения народно-ремесленным профессиям, формирование у них таких качеств, как бережливость, находчивость, деловая хватка, а также подготовка их к технологическому процессу в этом процессе..

Ключевые слова: технология, профессия, народное ремесло, умение, трудолюбие, бережливость, творчество, система.

Educating students through learning traditional crafts

Summary. The article describes the content of students' consumption of labor products on the basis of training in folk craft professions, formation of such qualities as frugality, resourcefulness, business acumen, and their preparation for the technological process in this process.

Key wordss: technology, profession, folk craft, skill, diligence, thirft, creativity, system.

[illegible]

tarbiyaviy asoslari S.Bulatov, C.Hasanov, I.Karimov, O.Xudoyorova, A.Turdialiev, D.Zohidova, O.Jamoliddinova ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Shuningdek, rossiyalik olimlardan V.D. Jukov, S.T. Tolstov, V.M. Masson, A.T.Trenojkin, S.R. Rusakina, N.N. Baranskiy, N.S. Mironenko, N.S. Falkova, Yu.G. Lipes, A.G. Nizalievning xalq hunarmandchiligining tadbirkorlik komponentlarini axborot texnologiyalari asosida fanlararo takomillashtirishning ba'zi jihatlarini bo'yicha olib borgan tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda talabalarni kashtachilik vositalarida kasb-hunarga yo'naltirishda klaster metodidan foydalanish strategiyasi ilmiy asosda o'rganildi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasb-hunar ta'limining innovatsion yondashuvlari va kashtachilik san'atining metodik asoslari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagilarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi: kasb-hunar ta'limida kashtachilik san'atini o'rgatish jarayoni, klaster metodining mohiyati va uning ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha ilmiy-adabiyotlar, maqolalar va metodik qo'llanmalar tahlil qilish; kashtachilik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda klaster metodidan foydalanish strategiyasining samaradorligi tajriba-sinov asosida o'rganildi; talabalar, o'qituvchilar va kashtachilik ustalari o'rtasida so'rovnomalar va intervyyular o'tkazilib, klaster metodining ta'lim jarayoniga ta'siri haqida fikrlar olish; kashtachilik bo'yicha an'anaviy o'qitish usullari va klaster metodidan foydalanish natijalarini o'zaro solishtirish; ularni umumta'lim maktablari jarayonida va uni bitirgandan so'ng turli xil yo'nalishlardagi kasb-hunarlariga tayyorlash kabidir.

Texnologik jarayon tayyorgarligining vazifalarini amalga oshirishda ta'lim va tarbiyaning rivojlantiruvchilik, ta'limiylik, tarbiyaviylik, amaliylik, ishlab chiqaruvchilik, yaratuvchilik, kasbiy yo'naltirilganlik kabi jihatlar nazarda tutiladi. Hozirgi davrda talabalarni texnologik jarayonga tayyorlashning vazifalari quyidagilardan iborat: kasb-hunar ta'limi jarayonida kashtachilik san'ati bo'yicha o'qitish; klaster metodidan foydalanish orqali talabalarni kashtachilik sohasiga yo'naltirishning pedagogik strategiyalari; mavzuga oid ilmiy va metodik adabiyotlar o'rganildi, tadqiqot metodlari belgilandi; klaster metodini kashtachilik bo'yicha ta'lim jarayoniga tatbiq etish va uning natijalarini kuzatish ishlari amalga oshirish; olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanish va xulosalar chiqarish. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash bilan birga, klaster metodi orqali kashtachilik san'atiga qiziqishni oshirishning samarali yo'llarini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida talabalarni kashtachilik vositalarida kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida klaster metodidan foydalanishning samaradorligi o'rganildi. Ushbu bo'limda eksperimental tadqiqot natijalari, ularning tahlili va ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kashtachilik o'qitish jarayonida klaster metodining ahamiyati

O'rganilgan nazariy va amaliy manbalarga asoslanib, klaster metodining quyidagi afzalliklari aniqlangan:

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi – talabalar kashtachilik jarayonida yangi dizaynlar yaratishga intiladi.

O'quv jarayonining interaktivligini oshiradi – talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali o'zaro tajriba almashadi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi – an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, talabalar bevosita kashtachilik ishlarini bajarish orqali tajriba orttiradi.

Kasbga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi – talabalar o'z ishlari natijasini ko'rib, motivatsiyaga ega bo'ladilar.

Tadqiqot tajriba-sinov shaklida olib borilib, unda ikki guruh talabalar ishtirok etdi:

1. Eksperimental guruh – klaster metodi asosida o'qitildi.

2. Nazorat guruhi – an'anaviy o'qitish metodlari asosida shug'ullandi.

Eksperiment 3 oy davomida olib borildi va natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Ko'rsatgichlar	Eksperimental guruh (%)	Nazorat guruhi (%)
Kashtachilik bo'yicha nazariy bilimlar	85	70
AMALIY ko'nikmalar (ish sifat darajasi)	90	65
Mustaqil ijodkorlik darajasi	80	55
Kasbga qiziqishini ortishi	88	60

Natijalar shuni ko'rsatadiki, klaster metodidan foydalanilgan guruhda talabalar bilim va ko'nikmalarni ancha yuqori darajada egallashgan. Ayniqsa, mustaqil ijodkorlik va kasbga bo'lgan qiziqish darajasi an'anaviy metod bilan taqqoslaganda 20-30% ga yuqori bo'ldi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarni kashtachilik vositalarida kasb-hunarga yo'naltirishda klaster metodidan foydalanish samarali strategiya ekanligi aniqlandi. Bu metod nafaqat kashtachilik bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va kasbga bo'lgan qiziqishni oshirishga ham yordam beradi.

Tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni shakllantirishga imkon berdi: 1. Klaster metodi talabalar o'rtasida faollik va ijodiy fikrlashni oshiradi – talabalar o'zaro fikr almashib, yangi naqsh va texnikalarni ishlab chiqishadi; 2. Kashtachilik ta'limida an'anaviy va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish lozim – klaster metodi ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilish imkonini beradi; 3. Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, klaster metodidan foydalangan talabalar kasbiy ko'nikmalarni 20-30% yuqori darajada egallagan; 4. Ushbu metod talabalarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida samarali yondashuv sifatida tavsiya etilishi mumkin, chunki u talabalarni mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash va amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari kashtachilik san'atiga yo'naltirilgan kasb-hunar ta'limini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratdi. Kelgusida klaster metodining boshqa amaliy san'at yo'nalishlarida qo'llanilishi, ularning ta'lim

jarayonidagi natijadorligi va ta'sirchanligi chuqurroq o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, ushbu metodni kasb-hunar ta'limi tizimida yanada kengroq joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – P. 17.
2. Shomirzayev M. K. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 07. – P. 221.
3. Shomirzaev M.X. O'quvchilarda xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish omillari // Maktab va hayot. – T.: - 2019/4-son. – B. 23.
4. Shomirzaev M. X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim.T.: - 2019. №. 82. – B. 27.
5. Shomirzaev M. X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari.O'quv-metodik qo'llanma//T.: Gold print nashr.- 2019.– 56 b.

“Klaster” metodidan foydalanib talabalarni kashtachilik hunariga o'rgatish

Annotatsiya: Maqolada talabalarni kashtachilik vositalari orqali kasb-hunarga yo'naltirishda “KLASTER” metodining mazmuni, uni kasb-hunar ta'limida joriy etishning samaradorligi hamda kashtachilik vositalari orqali talabalarni kasbiy rivojlanishga yo'naltirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: Kashtachilik, kasb-hunarga yo'naltirish, KLASTER metodi, an'anaviy san'at.

Обучение студентов навыкам вышивки с использованием “кластерного” метода

Резюме. В статье анализируется содержание метода «КЛАСТЕР», эффективность его внедрения в профессиональное образование, а также важность ориентации студентов на профессиональное развитие посредством инструментов для вышивания.

Ключевые слова: Вышивка, профессиональная ориентация, метод КЛАСТЕР, традиционное искусство.

Teaching students embroidery skills using the “Cluster” method

Abstract: The article analyzes the content of the “CLUSTER” method, the effectiveness of its implementation in vocational education, as well as the importance of orienting students to professional development through embroidery tools.

Key words: Embroidery, professional orientation, CLUSTER method, traditional art.

YUNON-RIM KURASHCHILARINI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH

Tursunov Sh. S.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Kirish: Yunon-rim kurashi bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalarni kuzatish natijasida shunga guvoh bo'lish mumkinki, ushbu kurash turiga xos texnik-taktik harakatlar va jismoniy sifatlar borgan sari mukammallashib bormoqda va bunga sabab ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amalda qo'llanilishidir. Yunon-rim kurashining texnik holatlarini tasniflashda bizgacha bo'lgan mualliflar tomonidan tahlil qilingan usul va harakatlarni o'rganmasdan kurash turlarining hujum, raqib harakatlarga qarshi mustaqil harakatlarni, parterda va tik turgan holatida kurash olib borish usullari va harakatlarini tasniflashga keng imkoniyat yaratilganligiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Dolzarbli. O'tgazilgan pedagogik tajribada nazorat guruhi yunon-rim kurashchilari raqib bilan bellashuvda ko'proq qo'l(qo'llar)ni ushlab olish usullarini bajarish uchun boshqa sportchilarga qaraganda mashg'ulotlarda taktik harakat usullarini 5-6 martagacha qo'llashlari aniqlandi ($P < 0.01$), ushlab olishga kirib bo'lgandan so'ng esa kombinatsiya xolida qo'shilgan 3-4 ta yakunlovchi usullardan (YAU) foydalanishlari kuzatildi. Ular hujum harakatlari kombinatsiyalarini yaratish jarayonida bitta texnik usulni qo'llashi bilan ikkinchi va uchinchi usullarga o'tish aniqlandi ($P < 0.01$). Tajriba guruhidagi kurashchilar boshqalarga nisbatan quyidagi texnik tuzilmani bajardilar: “ushlab olish → THT → raqib himoyasi → TH → raqib himoyasi → YAU”. Ushbu holda usulga kirishish start tezligining ko'rsatkichi “ushlab olish → TH → raqib himoyasi → TH → raqib himoyasi → YAU” texnik tuzilmasi xronogrammasini ifodalaydi va ularda bu ko'rsatkich nazorat guruhiga nisbatan yuqoridir.

Tajriba guruhidagi yuqori malakali yunon-rim kurashchilari musobaqa bellashuvining ikkinchi, to'rtinchi va oltinchi daqiqalarida eng yuqori darajada texnik faollikni ko'rsatdilar ($R < 0.05$).

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining musobaqa faoliyatida erishgan natijalari dinamikasi

T/r	Md ko'rsatkichlar nomi	Nazorat		Tajriba	
		Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
1	Ballar bo'yicha g'alaba	5	5	5	5
2	Tashlashlar yordamida g'alaba	6	4	4	6
3	G'alabalar soni	6	3	4	7
	Jami	17	12	13	18

Tajriba guruhidagi yuqori malakali yunon-rim kurashchilari butun bellashuv vaqti davomida yuksak darajada faollikni namoyish qildilar, boshqa guruh kurashchilariga nisbatan THni amalga oshirish uchun ko'proq urinishlarni bajardilar. Tajriba oxirida tajriba guruhidagi yuqori malakali yunon-rim kurashchilarda bellashuvni olib borishda katta faollik kuzatildi. Nazorat guruhidagi yuqori malakali yunon-rim kurashchilarining boshqalarga nisbatan o'quv-mashg'ulot


jarayonida ko'proq turli yo'nalishdagi: anaerob-alaktat, anaerob-glikolitik va aralash aerob-anaerob yo'nalishdagi koordinasion murakkab yuklamalarni mashg'ulotlarda o'rtacha darajada qo'llab bordi. Tajriba guruhi yuqori malakali yunon-rim kurashchilarida nazorat guruhi yuqori malakali yunon-rim kurashchilariga nisbatan o'quv-mashg'ulot jarayonida shiddatli yuklamalar ko'p qo'llanildi. Ularning yuklama farqlari umumiy hajmdan 12,5%ga o'zgardi. Ularning mashg'ulotlari mazmunida umumiy hamda maxsus tezlik-kuch yuklamalarini bajarish o'rin oldi.

Nazorat guruhidagi kurashchilar tajriba guruhi kurashchilariga nisbatan mashg'ulot jarayonida o'quv dasturida kombinasion murakkab usullarni qo'lladilar. Bu guruh kurashchilari bittalik usullar bilan hujum qilishni va 3-4 talik yakunlovchi usulni ko'proq qo'llaydilar. Tajriba guruhidagi kurashchilar nazorat guruhi kurashchilariga nisbatan mashg'ulot jarayonida ko'proq 3-lik, 5-lik darajali kombinasion murakkab usullarni qo'lladilar. Bu kurashchilar hartomonlama usullar bilan hujum qilishni afzal ko'radilar. Tadqiqot oxiriga kelib tajriba guruhi kurashchilarida amalga oshirilgan ishlar ularning birinchi bosqichda texnik tayyorgarliklari takomillashishiga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi bosqichda taktik tayyorgarliklarini takomillashtirdi. Nazorat guruhi kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajalari o'sishi tajriba guruhi natijalariga qaraganda o'sish sur'ati past darajada ekanligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi kurashchilari sinov uchun tanlangan usullarda ko'rsatgan natijalari statistik ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot davomida usullarni vaqtga bajarish bo'yicha natijalarning statistik tavsiflarini o'zgarish dinamikasi


T/r	F.I	Beldan oshirib tashlash usulini bajarishga ketgan vaqt			Yelkadan oshirib tashlash usulini bajarishga ketgan vaqt			Qo'lni bo'yiga o'rab tashlash usulini bajarishga ketgan vaqt			Yelkalaridan oshirib tashlash usulini bajarishga ketgan vaqt		
		10 marotaba			10 marotaba			10 marotaba			10 marotaba		
		boshi	o'rta	oxir	boshi	o'rta	oxir	boshi	o'rta	oxir	boshi	o'rta	oxir
1	A.I	15,2	15,1	14,2	15,9	14,9	14,2	15,2	14,8	14,2	15,2	14,9	14
2	S.Z	15,9	15,2	14,2	15,8	14,8	14,1	15,6	14,9	14	15,6	15,1	14,2
3	T.D	15	14,9	14,6	15,8	15,1	14,5	15,9	15,1	14,5	15,7	15	14,5
4	X.B	15,8	15	14,4	15,2	15,2	14,4	15,9	15	14,6	15,9	14,8	14,4
5	B.I	15,2	14,8	14,5	15,9	14,9	14,6	15,2	14,8	14,4	15,2	15,1	14,6
6	S.J	15,9	15,2	14,5	15,8	15	14,4	15,8	15,1	14,5	15,8	15,2	14,4
7	Yu. M	15,4	14,8	14,6	15,6	14,8	14,4	15,1	15,1	14,5	15,1	14,9	14,4
8	N.D	15,9	15,1	14,2	15,8	15,2	14,1	15,6	15,1	14	15,6	15	14,2
9	O.J	15,8	15,1	14,1	15	14,8	14,2	15,6	15,2	14,2	15,6	14,8	14,2
10	T.Sh	15,6	14,9	14,2	15,8	15,1	14	15,2	14,9	14,1	15,2	15,2	14
	$\sum X_i$	155,7	150,1	143,5	156,6	149,8	142,9	155,1	150	143	154,9	150	142,9
	$\bar{X}$	15,57	15,01	14,35	15,66	14,98	14,29	15,51	15	14,3	15,49	15	14,29
	σ	0,74	0,75	0,69	0,77	0,76	0,80	0,81	0,74	0,73	0,74	0,77	0,80
V, %		2,21	1,02	1,33	1,98	1,08	1,38	2,01	0,94	1,58	1,86	0,99	1,42
	t _{st}		3,83	5,50		3,96	4,77		3,57	4,56		3,70	3,9
	P _{b-o}			<0,05			<0,05			<0,05			<0,05
	R _{u-o}		<0,05			<0,05			<0,05			<0,05	

1- rasm. Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot o'rtasida va oxiridagi natijalarining o'sish darajalari o'zaro farqi (beldan oshirib tashlash usulini 10 marotaba bajarishda). Tajriba guruhi kurashchilarning tadqiqot o'rtasida va




oxiridagi texnik-taktik tayyorgarlik darajasining o'sish natijalari dinamikasi.

2- rasm. Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot o'rtasida va oxiridagi natijalarining o'sish darajalari o'zaro farqi (yelkadan oshirib tashlash usulini 10 marotaba bajarishda)



Tajriba guruhi kurashchilarning tadqiqot o'rtasida va oxiridagi texnik-taktik tayyorgarlik darajasining o'sish natijalari dinamikasi.


3- rasm. Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot o'rtasida va oxiridagi natijalarining o'sish darajalari o'zaro farqi (qo'lni bo'yiga o'rab tashlash usulini 10 marotaba bajarishda)



Tajriba

guruhi kurashchilarning tadqiqot o'rtasida va oxiridagi texnik-taktik tayyorgarlik darajalarining o'sish natijalari dinamikasi.

4- rasm. Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot o'rtasida va oxiridagi natijalarining o'sish darajalari o'zaro farqi (yelkalaridan oshirib tashlash usulini 10 marotaba bajarishda)



Tajriba guruhi kurashchilarning tadqiqot o'rtasida va oxirida olingan natijalarida ularning texnik-taktik tayyorgarliklari o'sishiga mashg'ulot yuklamalarining qisman farqli ta'sirini ko'rish mumkin. Tadqiqot boshida berilgan yuklamalar ta'siri ularning barchasida o'ziga yarasha o'sishni ko'rsatdi. Tadqiqot o'rtasida olingan nazorat-sinov usullarning bajarilish natijalari tadqiqot oxirida olingan nazorat-sinov usullarning bajarilish natijalariga nisbatan farq sezilarli darajada kuzatildi, ya'ni ayrim kurashchilarga birinchi bosqichdagi mashg'ulot yuklamalari yaxshi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ayrimlariga ikkinchi bosqichdagi yuklamalarning ta'siri yuqori bo'ldi. Boshqalariga esa birinchi va ikkinchi bosqichdagi texnik-taktik tayyorgarlik jarayoni ketma-ketligi juda mos keldi va ularda birinchisi ikkinchisining takomillashishiga sabab bo'ldi.

Tajriba guruhida olingan ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik kattaliklarining nazorat guruhidagi xuddi shunday kattaliklarning tajriba davomidagi o'zgarishiga nisbatan ancha statistik ishonchli darajada o'sishi dissertatsiya ishida qo'llanilgan usulning samaradorligini tasdiqlaydi va dissertatsiya ishida pedagogik tajribadan ko'zlangan maqsadga erishilganligidan dalolat beradi [4,3].

Xulosa. Yunon-rim kurashi bo'yicha sportchilarning musobaqalarga tayyorligi jismoniy, texnik, taktik va psixologik jihatlarni qamrab olgan kompleks jarayon hisoblanadi. Musobaqa oldi tayyorgarligi sportchilarning jismoniy sifatlarini (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezlik va chaqqonlik) rivojlantirish, maxsus texnik usullarni o'zlashtirish va takomillashtirish hamda taktik rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Jismoniy tayyorgarlik sportchilarning umumiy funksional holatini oshirishga qaratilgan bo'lsa, texnik tayyorgarlik kurash texnikalarini mukammal egallashni ta'minlaydi. Taktik tayyorgarlik esa raqibning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Psixologik tayyorgarlik esa sportchilarni ruhiy jihatdan tayyorlash va stressga bardosh berishni kuchaytirishga qaratilgan. Shuningdek, tayyorgarlik jarayonida sog'lom ovqatlanish, dam olish rejimini to'g'ri tashkil etish va sport tibbiyotining qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarning mazmuni va shakli sportchilarning yoshiga, mahorat darajasiga va musobaqa talablariga moslashtirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Yunon-Rim kurashchilarini musobaqalarga tayyorlashning muvaffaqiyati mashg'ulot jarayonining puxta rejalashtirilishi va har tomonlama yondashuvga bog'liq. Bu yondashuv nafaqat sportchilarni musobaqalarda yuqori natijalarga erishishga, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T., 2005. 34-b.
2. Abdullayev Sh.A., Xolmatov A.I. – Malakali kurashchilarni tayyorlashning ilmiy – uslubiy asoslari. Toshkent 2015 y. Uslubiy qo'llanma. 60 bet
3. Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Toshkent 2017 y. 210-222-b.
4. Arslonov Sh.A. Tangriyev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo kurashi bo'yicha). Darslik – 2017 y 35-b
5. Bayturyayev E.I., Odilov B.B. – Sambo bo'yicha sport pedagogik mahoratini oshirish. O'quv qo'llanma 2018 y. 66-b
6. Алиханов И.И. - Техника и тактика волной Борби. И.И.Алиханов. - М. : Физкультура и спорт, 1986.-304 С.
7. Tursunov Sh.S.- Yunon-rim kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi 2019-y.-154-b

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish bilan bir qatorda musobaqa faoliyatida ko'zlangan maqsadlarga erishish va bajarilgan usullardan samarali foydalanish hamda natikalarni yaxshilar uchun bir qancha misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yunon-rim, texnik harakatlar, texnik holatlar, taktik harakatlar, darajalar, murabbiy pedagoglar, musobaqa faoliyati, tayyorgarlik takomillashuvi, usullar.

Annotation. In this research work, in addition to improving the technical and tactical training of wrestlers, the achievement of the goals pursued in the competition activities and the effective use of the methods performed, as well as a number of examples of natikas for the good.

Keywords. Greco-Roman, technical actions, technical conditions, tactical actions, ranks, coach pedogogs, competition activities, preparatory improvement, methods.

Аннотация. В данной исследовательской работе, наряду с совершенствованием технико-тактической подготовки борцов, освещается достижение намеченных целей в соревновательной деятельности и эффективное использование выполненных приемов, а также ряд примеров для улучшения результатов.

Ключевые слова: Греко-римская борьба, технические приемы, технические ситуации, тактические действия, уровни, тренер-воспитатель, соревновательная деятельность, совершенствование подготовки, методы.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW MÁKEMELERINDE FIZIKALÍQ TÁRBIYA SHÍNÍGÍWLARÍNÍN DÚZILISI HÁM SHÍNÍGÍWLARDÍ ÓTKERIW METODIKASÍ

Najimov I. I.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Kirisiw. Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde ótkeriletuǵın fizikalıq tárbiya shınıǵıwları balalardaǵı hár qıylı fizikalıq rawajlanıw kónlikpe hám tájiriybelerin qalıplestiriw, olardaǵı kúshlilik, tetiklik, shaqqanlıq, ziyreklik sıyaqlı

fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıwdan ibarat. Turaqlı túrde ótkeriletuǵın fizikalıq shınıǵıwlar balalardıń ósiwi hám rawajlanıw processine unamalı tásir kórsetedi[2].

Fizikalıq rawajlanıw – insan organizmining forma hám funkciyalarınń ózgeriw processı bolıp esaplanadı. «Fizikalıq rawajlanıw» termini keń hám tar mániste qollanıladı. «Fizikalıq rawajlanıw» termini tar mániste qollanılganda ol antropometriyalıq hám biometriyalıq kórsetkishlerdi ańlatadı, sebebi: gewde, boy, salmaǵı, kókirek qápesi aylanası, ókpelerdiń dem alıw sıyımlılıǵı, omırtqa baǵanası iyikliginiń dárejesi, qáddi-qáwmettiń fizikalıq halatı, taban gúmbezi ólsheminiń kórsetkishi, oń hám shep qol muskulleriniń kúshi, tik tura alıw kúshi hám basqalar. «Fizikalıq rawajlanıw» termini keń mániste qollanganda bolsa oǵan fizikalıq sıpatlar (tezlik, iyiliwsheńlik, teńsalmaqlılıq saqlay alıw, kóz benen shamalaw, kúsh, shıdamlılıq) da kirgiziledi[4].

Metodologiya. Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde balalar fizikalıq tárbiya shınıǵıwlarınń tiykarǵı maqsetleri tómendegiler bolıp esaplanadı:

1. Balalardıń salamatlıǵın bekkemlew;
2. Balalardı fizikalıq jaqtan kúshli qılıw;
3. Balalardıń ádeplilik sıpatların tárbiyalaw.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde balalardı fizikalıq tárbiyalawdıń tiykarǵı wazıypaları tómendegilerden ibarat:

- 1-wazıypa. Balalardı maqsetke durıs baǵdarlangan háreketlerdi aktivlestiriw ushın shárt-shárayat jaratıw;

- mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde fizikalıq tárbiya xanaların, maydanshaların kerekli úskeneler menen jeterli qılıp támiyinlew.

- 2-wazıypa. Hárekettiń ómir ushın áhmiyetli túrlerin qalıplestiriw: júriw, juwırıw, eńbeklew, sekiriw, órmelew, ılaqtırıw, qaqshıp alıw, júziw, velosipedte júriw, ayaq, qol, dene, bas háreketlerin rawajlandırıw;

- balalardıń jas ózgesheliklerinen kelip shıqqan halda fizikalıq tárbiya shınıǵıwların balalarǵa qızıqlıq metodlar járdeminde shólkemlestiriwdi rejelestiriw.

- 3-wazıypa. Saplanıw hám qayta saplanıw.

Bul háreket mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerindegi shınıǵıwlardıń basınan aqırına shekem dawam etedi.

4-wazıypa. Oyn háreketlerin keńeytiw hám tereńlestiriw, fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw, shaqqanlıq, epshillik, ziyreklik, kúshlilik, sabır-qanaat, sonıń menen birge, gewdeni tik uslaw tájiriybelerin asırıw; - fizikalıq tárbiya shınıǵıwlarınń tiykarǵı, juwmaqlawshı bólimlerinde shólkemlestiriletuǵın háreketli hám de kem háreketli bir atamadaǵı oynlar oynalıwı processin balalardıń jas ózgesheliklerinen kelip shıqqan halda quramalastırıp barıw.

- 5-wazıypa. Balalar qáwmetlerin durıs qalıplestiriwge tásir kórsetiw hám tegis ayaqlılıqtıń aldın alıw;

- mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde shólkemlestiriletuǵın fizikalıq tárbiya shınıǵıwlarında balanıń qáwmeti hám tegis ayaqlılıqtıń aldın alıwǵa tásir etiwshe shınıǵıwları qollaw.

- 6-wazıypa. Aktiv háreketke bolǵan qızıǵıwshılıqtı tárbiyalaw.

7-wazıypa. Balalarǵa fizikalıq shınıǵıw hám oynlardıń paydası, tiykarǵı gigienalıq talaplar hám qaǵıydaları haqqında jeterli dárejede túsiniw hám bilimler beriw.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde fizikalıq tárbiya shınıǵıwların fizikalıq tárbiya oqıtıwshısı alıp baradı hám barlıq toparlar ushın shınıǵıw islenbelerin 08-02-sanlı is rejesinde bir jıl ushın 72 shınıǵıw islenbesin qalıplestiredi.

Dodalaw. Balalardıń háreketli xızmeti olarda tiykarǵı fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw menen baylanıslı. Buǵan shaqqanlıq, epshillik, kúshlilik, shıdamlılıq sıyaqlı sıpatlar kiredi. Ámelde usı sıpatlardıń hesh birin óz aldına rawajlandırıwdı kóz aldına keltiriw de múmkin emes. Túrli fizikalıq sıpatlardı tárbiyalaw haslında balanıń fizikalıq jaqtan hár tárepleme rawajlanıwında birden-bir processtiń túrli tárepleri bolıp esaplanadı. Sebebi, bunday rawajlanıw nátiyjesinde organizmniń muǵdarlıq imkaniyatlarında ulıwma joqarılaw boladı. Biraq, bári bir joqarıda ayıp ótilgen fizikalıq sıpatlardıń hár birin tárbiyalawdıń ózine tán ózgeshelikleri bar[5]. Shaqqanlıq bul xızmet dawamında payda bolatuǵın kútilmegen shárt-shárayatqa muwapıq háreket xızmetin tezlik penen jańa háreketlerdi iyeley alıw qábileti bolıp esaplanadı. Shaqqanlıqtı tárbiyalawda háreketlerdiń birligin rawajlandırıw, olardıń tezligi hám kólemin, muskullerdiń sharshawı hám bosawı dárejesiniń bir-birinen parıq qılıw, sonday-aq, waqıtqa hám orınǵa saykeslenip baǵdar ala biliw sheberligi tiykarında júz beredi[2]. Shaqqanlıqtı tárbiyalaw ushın anıq háreketler qılıw qábiletin rawajlandırıw áhmiyetli. Bunnan tisqari, turǵan halatta hám de bir orınnan ekinshi jerge júrip baratırǵanda gewdeniń teńsalmaqlılıǵın saqlay alıw shaqqanlıqtıń kórinislerinen biri esaplanadı. Balalıqtıń mektepke shekemgi jasta háreket analizatorın rawajlandırıwda biraz alǵa ilgerilew júz beredi. Bul bolsa shaqqanlıq qábiletin áste-aqırın jetilistirip barıw ushın imkaniyat jaratadı. Háreketlerdi orınlawdaǵı epshillik te mektepke shekemgi jastaǵı balalarda tez rawajlanatuǵın áhmiyetli ózgeshelik esaplanadı.

Epshillik – bul háreketke eń kem waqıt ishinde orınlay alıw qábileti. Ol qaysıdur bir signalǵa juwap retinde orınlangan (háreket reakciyası dep atalatuǵın tezlikke) ayırım háreketler tezligi hám kóp mártebe tákirarlanatuǵın háreketlerdiń tezligine baylanıslı boladı. Háreketlerdiń mine usı barlıq táriypi baqshadaǵı kishi jastaǵı balalardan baslap, úlken topardaǵı balalarda turaqlı shınıǵıw islew nátiyjesinde ósip baradı. Shaqqanlıq hám epshilliktiń rawajlanıwına oyn hám shınıǵıwları turaqlı orınlap barıw arqalı erisiledi. Bunda átiraptaǵı ortalıq shárayattıń ózgeriwine qarap shuǵıllanıwshılar tezlik penen juwap reakciyası beriwleri hám de bir háreketten ekinshisine tezlik penen ótiwleri, tez alǵa ilgerilewleri hám tapsırmanı orınlawları áhmiyetli esaplanadı. Túrli oynlar hám de tosiqlardı jeńip ótiw, toqtap-toqtap burılıwlar menen orınlanadı hám

birden berilgen signal boyınsha hár qıylı tapsırmalardı orınlaw, atlap ótiw, eńkeyip ótiw menen baylanıslı bolǵan shınıǵıwlar, teńsalmalıqlıq shınıǵıwları, hár qıylı sport oynıları hám basqalar mine usınday shaqqanlıq hám epshillikti ósiriwshi shınıǵıwlar bolıp esaplanadı[4].

Kúshlilik – bul muskullerdi belgili bir dárejede shınıqtıra alıw qábileti bolıp, shaqqanlıq hám epshillikti tárbiyalawdıń áhmiyetli quram bólegi esaplanadı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balanın muskulleri ele jaqsı rawajlanbaǵan boladı, onı nerv háreketi de ele jeterli dárejede jetilispegen, baqsha balaları muskullerdi kúsh penen iske salıwda anıq parıqlaw qábiletine iye emes boladı[7].

Baqsha balaları ushın ásirese, kishi topardaǵılar ushın sol nárse áhmiyetli, olarda tiklewshi muskullerdiń turmıslıq xızmetinen kóre, búgiwshi muskullerdiń turmıslıq xızmeti artırıraq boladı, balalar júriw hám juwırıw waqtında ayaqların yarım búgilgen halda háreket qıladı, oynılar ótkeriw waqtında bolsa eńkeyip aladı h.t.b. Sol sebepli balanın kúsh-quwat sıpatların rawajlandırıp atırǵanda tiklewshi muskuller kúshin kóbeytiwge ayırıqsha itibar beriw, bala gewdesi hám ayaq-qolların tikleytuǵın, tuwrı turıwǵa úyretetuǵın shınıǵıwları orınlatıw úlken áhmiyetke iye.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda kúsh-quwattı tárbiyalawǵa qaratılǵan shınıǵıwlar, tiykarınan, dinamikalıq xarakterge iye bolıwı kerek. Sonıń menen birge, bul uzaq dawam etip, nervlerdi biraz sharshaw halatına keltiretuǵın bir qıylı sharshawlar menen baylanıslı bolmawı lazım[6]. Bunnan tisqari, kúshli rawajlandırıwda kúsh berip, kúshleniw talap etiletuǵın shınıǵıwlar qollanbawı kerek. Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń kúsh-quwatın tárbiyalaw ushın qısqa múddet dawam etetuǵın hám tezlik hám de kúsh talap etetuǵın shınıǵıwlar (máseleń, bir orınnıń ózinde turıp uzınlıqqa sekiriw, uzaqqa ılaqtırıw shınıǵıwları), sonday-aq, óz awırılıǵın kóteriw menen baylanıslı baylanıslı bolǵan bazı bir shınıǵıwlar (eńkeytip qoyılǵan hám tik turǵan zánǵiler, taxtalarǵa tırmasıp shıǵıw shınıǵıwları, gimnastika taxtasında óz qolları, kúshi menen tartılıw hám soǵan uqsas shınıǵıwlar)dı orınlaw áhmiyetli.

Shıdamlılıq – bul fizikalıq jumıstı imkni barınsha uzaq waqt dawamında jeterli dárejedeǵi jedellikti saqlaǵan halda orınlay alıw qábileti. Shıdamlılıqtı tárbiyalaw organizmniń túrli sistemalarınń muǵdarlıq imkaniyatların asırıp barıw, áste-aqırın sáykeslenip barıw menen nátiyjede sharshawǵa alıp keletuǵın hám kúshli sharshaw menen uzaq waqt dawam etetuǵın xızmet nátiyjesinde organizmde júzege keletuǵın kónligiw, yaǵnıy shınıǵıw bolıp esaplanadı. Sonıń ushın balalarda shıdamlılıqtı tárbiyalawda olarǵa ózlerinde kónlikpe payda etken wazıypaǵa qaraǵanda joqarıraq fizikalıq tasir kórsetetuǵın shınıǵıwlar hám oynılar qollanıladı. Mektepke shekemgi jastaǵı kishi toparlarda shıdamlılıqtı tárbiyalaw menen baylanıslı arnawlı shınıǵıwlar ámelge asırılmaıdı. Úlken jastaǵı baqsha balalarında shıdamlılıqtı tárbiyalaw ushın oynı hám shınıǵıwlardan paydalanıladı. Bunday oynı hám shınıǵıwlarda biraz awır, biraq qısqa múddetli fizikalıq sharshaw talap etiledi. Bunday shınıǵıwlarda balalar dıqqat-itibardı bir jerge jámlep, shınıǵıwları tákirarlawda jeterli dárejede uzaq tánepisler berip, olarǵa dem alıwı ushın waqt ajratıw lazım. Bul jastaǵı balalarda shıdamlılıq, aldı menen, júriw, juwırıw, sekiriw, lijada júriw, ayaq oynıǵa túsiw, júziw hám háreketli oynıları oynaw hám óz betinshe xızmet kórsetiw waqtında rawajlanadı. Fizikalıq tárbiya shınıǵıwları balalardı fizikalıq shınıǵıwlarǵa turaqlı úyretiwdiń tiykarǵı forması esaplanadı. Shınıǵıwlarıń áhmiyeti háreketler mádeniyatınıń qalıplesiwi, salamatlastırıw, bilimlendiriwshilik hám tárbiyalıq wazıypalardı turaqlı ámelge asırıwdan ibarat. Shınıǵıwlar quwnaq, tártipli, qorshaǵan ortalıqta jaqsı háreket ete alatuǵın, belgilengen wazıypaǵa muwapıq tez hám isenim menen hám maqsetke baǵdarlangan halda xızmet kórsete alatuǵın, sonday-aq, tárbiyalıq sıpatlar hám dóretiliwshilik kórsete alatuǵın shaxslardı tárbiyalawǵa xızmet kıladı[5].

Fizikalıq shınıǵıwlar gúzde, qısta hám báhárde imarat ishinde hám ashıq hawada ótkeriledi. Jaz waqtında oynılar ashıq hawada, fizikalıq tárbiya maydanshasında ótkeriledi.

«Balajan» tayanish baǵdarlamasında hár bir jas toparı ushın belgilengen fizikalıq shınıǵıwlar shınıǵıwlarıń mazmunın quraydı. Mazmunına kóre hár qıylı bolǵan shınıǵıwları ótkeriwde wazıypalardıń anıq bolıwı, baǵdarlamalı ótkeriwde izbe-izlikke ámel etiw, sonday-aq, balalardıń jas hám ózine tán ózgesheliklerin esapqa alıw shárt.

Shınıǵıwlarıń dúzilisi fizikalıq shınıǵıwlarıń balalar tárepinen izshil orınlanıwın támiyinleydi. Ol qoyılǵan wazıypalar, nerv sistemasınıń is qábileti hám bala organizminiń hár bir óz aldına jas basqıshındaǵı ózgeshelikleri menen belgilenedi. Shınıǵıw waqtında bala organizminiń dinamikası hám onıń psixologiyasın qadaǵalaw tárbiyashınıń tiykarǵı wazıypalarınan biri esaplanadı. Olar tómendegilerden ibarat:

1. Kirisiw – tayarlıq.
2. Tiykarǵı bólim.
3. Juwmaqlawshı bólim.

Bilimlendiriwshilik, tárbiyalıq hám salamatlastırıw wazıypaları shınıǵıwıń hár bir bólimi ushın teńdey áhmiyetke iye. Fizikalıq tárbiya shınıǵıwınıń birinshi bólimi qoyılǵan wazıypalar hám onıń tiykarǵı bólimindeǵi shınıǵıwlar mazmunına kóre hár qıylı bolıwı múmkin.

Shınıǵıw kirisiw bóliminiń wazıypası balalarda oǵan degen qızıǵıwshılıq hám emocional keypiyat payda etiw, dıqqattıń tayarlıq dárejesin tekseriw, ayırım háreket kónlikpelerin anıqlastırıw, bala organizmin áste-aqırın shınıǵıwıń tiykarǵı bóliminde bolatuǵın bir qansha intensiv tez xızmetke tayarlawdan ibarat.

Usı maqsette balalarǵa tuwrı qáddi-qáwmetti tárbiyalaw tegis ayaqlılıqtıń aldın alıwǵa járdem beretuǵın, keńislikte hám jámaátte baǵdar alıw menen baylanıslı, orınlanıwı kóp waqıttı talap etpeytuǵın tanıs shınıǵıwlar hám olardıń variantların orınlaw usınıs etiledi. Bunday shınıǵıwlar kuramına tómendegiler kiredi: saplanıw shınıǵıwları: hár qıylı saplanıw hám qayta saplanıwlar; túrli tapsırmalar menen orınlanatuǵın júriw hám juwırıw; Tarqalıp jeńil juwırıw hám de

keyin ala úlken hám kishi aylana, kolonna h.t.b. bolıp saplanıw; Túrli kórinistegi hám tegis ayaqlılıqtıń aldın alıw maqsetindegi júriwler: tabanda, ayaq ushında, poldaǵı qalıń shnur ústinde, zángide júriw h.t.b.

Kirisiw bólimi balalardıń úsh-tórtewden toparlarǵa bólinip saplanıwı menen baslanıp, olardıń tarqalıwı menen juwmaqlanadı. Shinıǵıwdıń kirisiw bólimi balalardı shinıǵıwdıń tiykarǵı bólimi baslanıwındaǵı ulıwma rawajlandırıwshı shinıǵıwları úyretiwge ótiw ushın xızmet qıladı. Usı bólim kishi toparlarda 2-4 minutqa shekem, orta toparlarda 3 minuttan 5 minutqa shekem, úlken toparlarda 4 minuttan 6 minutqa shekem dawam etedi.

Shinıǵıwdıń bul bóliminde bir halatta dáslep balalardı ulıwma rawajlandırıwshı shinıǵıwlarǵa, soń tiykarǵı háreketlerge úyretiw hám fizikalıq sıpatlardı tárbiyalaw wazıypaları belgilenedi; ekinshi bir halatta bolsa tiykarǵı háreket shinıǵıwların úyretiwge qaratıladı. Bul shinıǵıwlar jańa háreket materialı menen tanıstırıwdı, aldınnan tanıs shinıǵıwlarıdıń túrli variantlarınan paydalanıp tákirarlawdı, bekkemlew basqışındaǵı háreket kónlikpelerin jetilistiriwdi názerde tutadı. Sonnan soń barlıq balalardı intensiv háreketke tartatıwın qaǵıydalı háreketli oyınlar ótkeriledi. Bunda balalardıń psixikalıq is qábiletiniń dawamsızlıǵın esapqa alıp, quramalı wazıypalar (balalardı jańa material menen tanıstırıw yamasa júdá quramalı koordinaciyalı shinıǵıwları orınlaw) tiykarǵı bólimniń basında belgilenedi.

Ulıwma rawajlandırıwshı shinıǵıwları balalar kishi buyımlar, bayraqshalar, tayaqshalar, lentalar, jipler menen orınlaydı. Bunday shinıǵıwlar hám qurallar balalar organizminiń funktsional halatı jaqsılanıwına unamlı tasir etedi.

Dáslep, tuwrı qáddi-qáwmetti qalıplestiriw hám dem alıwdı tártipke salıw maqsetinde qol muskulleri hám jelke kamarı muskullerin rawajlandırıw hám de bekkemlew shinıǵıwları beriledi. Ekinshi náwbette, gewde ushın hám arqa muskullerin bekkemlew hám omırtqa iyiliwshenligin rawajlandırıwshı (aldında, artqa hám qaptal táreplerge iyiliw, gewdeni aylandırıw) shinıǵıwları beriledi. Úshinshi náwbette bolsa qarın hám ayaq muskullerin bekkemlewshı shinıǵıwları beriledi. Sonnan soń tiykarǵı háreketlerdi úyretiwge ótiledi. Bunda olardan biri balalar ushın jańa, basqaları bolsa úyreniw hám jetilistiriw basqışında boladı. Shinıǵıw ulıwma rawajlandırıwshı shinıǵıwları úyretiw menen alıp barılatawın tiykarǵı bóliminiń dawamlılıǵı: kishi toparlarda 15 ten 18 minutqa shekem; orta toparda 20 dan 22 minutqa shekem; úlken toparda 25 ten 28 minutqa shekem dawam etedi. Ulıwma rawajlandırıwshı shinıǵıwları ótkerilgende bolsa onıń dawamlılıǵı kishi toparlarda 8-12 minut, orta toparda 12-15 minut, úlken toparda bolsa 15-20 minut quraydı.

Juwmaqlaw. Shinıǵıwdıń oyınnan sońǵı juwmaqlawshı bólimi páseyetuǵın intensiv tezliktegi júriwdi óz ishine aladı. Ol ulıwma qozǵalıwshı iske járdem beredi: júriw processinde balalar bir neshe dem alıw shinıǵıwların orınlawları múmkin. Bazı jaǵdaylarda júriw barlıq balalar qatnasındaǵı kem háreketli oyın menen almasırıwı da múmkin. Júriw yamasa onı almasırıwshı oyın sońında shinıǵıwǵa juwmaq jasaladı. Juwmaqlawshı bólim: kishi toparda 2 den 3 minutqa shekem, orta hám úlken toparlarda 3 ten 4 minutqa shekem boladı.

Shinıǵıwdıń tolıq dawamlılıǵı: kishi toparlarda 15-20 minut; orta toparlarda 20-25 minut; úlken toparlarda 30-35 minut quraydı.

ÁDEBIYATLAR

1. «Мактабгача таълимга қўйиладиган давлат талаблари» Т.: 2001.
2. Қодирова Ф.Р. ва бошқ. Мактабгача таълим Концепцияси. –Т., 2008.
3. Мактабгача таълимга қўйиладиган давлат талаблари. –Т., 2017.
4. Муталипова М.Ж., Ходжаев Б.Х. Қиёсий педагогика. –Т., 2015.
5. Такомиллаштирилган «Болажон» таянч дастури. –Т., 2016.
6. Содикова Ш.А. Мактабгача педагогика / Тафаккур сарчашмалари. –Т., 2013.
7. Quality physical education! Unesco 2015 Published by the UN educational scientific and cultural organization. Ms Nansy Mclenan and Mc Jannine Thompson.
8. Sports law and policy in the European Union!. Richard Parrish. Copyright, 2013.
9. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М.Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.- Т.: Нихол, 2013.

Структура и методика проведения занятий по физическому воспитанию в дошкольных образовательных учреждениях

Резюме. Физические упражнения, проводимые в дошкольных образовательных учреждениях, направлены на формирование у детей разнообразных навыков и умений физического развития, а также на развитие таких физических качеств, как сила, бодрость, ловкость и сообразительность. Регулярные физические упражнения оказывают положительное влияние на рост и развитие детей.

Ключевые слова: программа, спорт, дошкольное образование, ловкость, ловкость, выносливость, физическое развитие, физические упражнения, структура упражнения.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde fizikalıq tárbiya shinıǵıwlarınń dúzilisi hám shinıǵıwları ótkeriw metodikası

Rezyume. Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde ótkeriletuǵın fizikalıq tárbiya shinıǵıwları balalardaǵı hár qıylı fizikalıq rawajlanıw kónlikpe hám tájiriybelerin qalıplestiriw, olardaǵı kúshlilik, tetiklik, shaqqanlıq, ziyreklik sıyaqlı fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıwdan ibarat. Turaqlı túrde ótkeriletuǵın fizikalıq shinıǵıwlar balalardıń ósiwi hám rawajlanıw processine unamlı tásir kórsetedi.

Tayanch sózler: baǵdarlama, sport, mektepke shekemgi bilimlendiriw, shaqqanlıq, epshillik, sabır-qanaat, fizikalıq rawajlanıw, fizikalıq tárbiya shinıǵıwları, shinıǵıwdıń dúzilisi.

Structure and methodology of physical education classes in preschool educational institutions

Summary. Physical exercises conducted in preschool educational institutions are aimed at forming children's diverse skills and abilities for physical development, as well as developing physical qualities such as strength, vigor, agility, and quick wit. Regular physical exercise has a positive impact on children's growth and development.

Key words: program, sports, preschool education, dexterity, endurance, physical development, physical exercises, exercise structure.

TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR INNOVATSION TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI

Alibekov D. A.

O'zMU Jizzax filiali

Har bir tarixiy davrda ta'lim-tarbiya mohiyatiga yangicha, ya'ni innovatsion yondashish zaruriyati paydo bo'ladi. Ta'lim tizimidagi nazariya va ta'limotlar hamisha jamiyat duch kelgan murakkab muammolarni hal etish zaruriyatini taqozo etadi. Ta'lim ilg'or ilmiy ta'limotlar tufayli olg'a tomon rivojlanishi bilan hozirgacha amal qilib kelgan ta'limotlar o'rniga ilg'or innovatsion ta'limotlar yaratishni hayotiy ehtiyojga aylantiradi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar negizida ta'lim tizimini rivojlantirish alohida o'rin tutmoqda. "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik"[1]. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiya qilishda jamiyatimizda azaldan mavjud bo'lgan va islohotlar evaziga takomillashib borayotgan yuksak ma'naviy va intellektual salohiyatni qo'llab-quvvatlash, kelajak uchun yangi zamonaviy innovatsion jarayonlar shakllanishida o'rni yuksaltirish texnologiyalari, usul va vositalarini tadqiq qilish zaruriyati kelib chiqmoqda. Talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o'rtasida o'zaro aloqadorlikka asoslangan bo'lib, bu jihatlar inson borlig'ining mavjudlik va har doim taraqqiyotga moyillik xususiyatlarini belgilab beradi. Mazkur xususiyatlarni dinamik va barqaror rivojlanishini ta'minlash ta'lim tizimida olib borilayotgan jarayonlarini innovatsion asosda tashkil etish darajasi bilan bog'liqdir. Ta'lim tizimini ijtimoiy mushohada qilish ta'limni innovatsion rivojlantirish xususiyatlarini va qonuniyatlarini belgilab beradi.

Innovatsion tafakkur atamasi odatda insonlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar doirasidagi vazifalarni bajaradigan hamda uning yordamida boshqariladigan tizimlar, zamonaviy tahlillar va katta ma'lumotlarga ega dasturlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion tafakkur tizimlari ushbu bilimlar zahirasidan kognitiv funksiyalarga yaqin qarorlar qabul qilish va chora-tadbirlar belgilashda, shu jumladan sohalarni o'rganish va muammolarni hal qilishda foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri insonni ijtimoiy asosda shakllanishi va inson taraqqiyotiga mo'ljallanganligidir. Har ikkala jihat ham jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan jarayondir. Ta'limda innovatsiyalar ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish, ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyalari va mazmuniga o'zgartirish kiritish tushuniladi[2]. Inson taraqqiyotining asosiy xususiyatlari uning ongi va tafakkurining mukammalligi, yangiliklar va zamonaviy qadriyatlarga moyilligi, jamiyatda mavjud bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishga qodirligi kabilarni o'lchanadi.

Ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishni nazariy va amaliy jihatlarini tushunish, uni ijtimoiy jihatdan idrok etishda quyidagi jahonda e'tirof etilgan xususiyatlarni e'tiborga olish muhim ahamiyatga molikdir:

1. Taraqqiyot ko'lamini kengayib borayotgan zamonaviy sharoitda talabalarni jadal islohotlar va innovatsion tafakkurni rivojlantirishga har tomonlama tayyorlash;

2. Axborotlashgan jamiyat keng ko'lamli xususiyatlari jadal namoyon bo'layotgan bir davrda xalqaro ilmiy va madaniyatlararo munosabatlar, ma'naviy va ma'rifiy bag'rikenglik jarayonlariga ehtiyojning ortib borishi sharoitida ta'lim jarayonlari faolligini oshirish;

3. Talabalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlari, intilishlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida xalqaro miqyosda ta'lim sohasida integratsiyani tashkil etishga qaratilgan qadriyatlarni vujudga kelish jarayonini tezlashtirish;

4. Jamiyatda demokratik an'analarning tezlashuvi, fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, ta'lim tizimida tanlovning yuqoriligi sharoitida talabalar fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini oshirish.

Demokratik davlat jamiyat ma'naviy hayotini takomillashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirish haqida ko'proq, g'amxo'rlik qiladi. Davlat ta'lim va ma'naviyatining homiysi sifatida ta'lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshiradi. Yuksak ma'naviyat taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jamiyatda demokratik davlatning ijtimoiy tayanchi, iqtisodiy farovonlikni ta'minlovchi innovatsion vosita hisoblanadi. Ya. Ismadyorovning ta'kidlashicha, "Innovatsion yondashuv oliy ta'lim tizimi menejmentiga rivojlantirish va ishni yaxshilashga qaratilgan tizimli o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi, ta'lim muassasalari darajasida boshqaruvchilik faoliyatiga yangi mazmun va shakllarni kiritish uchun sharoitlarni ta'minlaydi, tashkilotlarning tashkiliy va kasbiy madaniyatini takomillashtiradi"[3]. Demokratik jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotini innovatsion ta'limsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ijtimoiy farovonlik va ijtimoiy totuvlik komil inson shaxsini shakllantirishga, fuqarolik jamiyat asoslarini yaratishga, huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor munosabatlari sharoitida ta'lim sohasini

samaradorlikka erishish muqarrar ravishda uni tubdan innovatsion isloh qilish etishni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyat barpo etishda komil inson shaxsini shakllantirish ta'lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat haqidagi har qanday tasavvurlar ta'lim tizimining ham maqsad va mazmuniga to'liq mos keladi, undagi jarayonlarni g'oyaviy ta'minotini tashkil etadi, chunki ta'lim jamiyat ijtimoiy sohasining asosiy substansional qismlaridan biri hisoblanadi. Avvalo, ta'limning ko'pgina modellari, ya'ni erkin bilim olish jarayonlaridan tortib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limgacha bo'lgan oraliqdagi barcha davrlarda innovatsion antropologiya muhim rol o'ynab kelgan.

Birinchidan, ta'limni rivojlanishi bilan bog'liq har qanday g'oyalarning amaliy ro'yobi innovatsion tafakkur tarzining hosilasi sifatida qaralishi lozim, pirovardida sohada ta'lim amaliyotida yangicha tadqiqotlar, texnologik va uslubiy jarayonlar vujudga keladi. **Ikkinchidan**, innovatsion bilimlar ta'limning metodologik asosini tashkil etadi, ya'ni u pedagogik faoliyatda tadqiqotlar olib borish, loyihalash va ta'lim jarayonini uslubiy va innovatsion tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Aynan innovatsion tadqiqotlar ta'limda tizimli, faoliyatga asoslangan, madaniy va qadriyatlarga oid yondoshuvlarni qabul qilishga turtki berib, ta'lim sohasini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, o'tgan asrning boshlarida innovatsion tafakkur doirasidagi g'oyalardan jamiyatda ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi muammolar yechimlari topila boshlagan. Xususan ta'lim sohasida ham turli vazifalarni yechimiga turtki berilgan. Mazkur muammolarni yechimidagi turli-tuman qarashlar va yondoshuvlar ta'lim tizimini nazariy qismini yaratish va amaliy asoslarini tashkil etishda muhim o'rin tutadi. **To'rtinchidan**, ta'limni innovatsion tushunishga oid qarashlar sohaning jamiyatda tutgan o'rni va maqomini tushuntirish, tizimda beqaror, ziddiyatli va muammoviy vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan muhim xususiyatlarni aniqlashtirib olishga yordam beradi.

Ta'limni innovatsion mushohada qilish ta'lim jarayonida bo'ladigan o'zgarishlar va taraqqiyot dinamikasini ta'minlashni innovatsion qonunlar asosida tushuntirish, ta'limni loyihalash va uni kelajagini ilmiy asoslangan holda bashorat qilish bilan bog'liq masalalarni ham hal etadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonlarida pedagogika fani innovatsion tafakkur bilan bog'liq bilimlarni o'z ilmiy salohiyatini oshirishda muntazam qo'llab borishi lozimligini taqozo etadi. Bu esa, pedagogika nazariyasini innovatsion bilimlar bilan boyitishga va ta'lim jarayonini ijtimoiy mohiyati, ya'ni inson va jamiyat takomili uchun xizmat qilishi borasidagi g'oyalarni asoslashga xizmat qiladi. Mazkur xususiyatlarni ochib berishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

1) Ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni shakllantirishni ta'minlaydigan ob'ektiv, zaruriy, umumiy, barqaror va takrorlanib keladigan qonun va qonuniyatlar;

2) Ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni shakllantirishni tadqiq etish, loyihalash va tashkil etishga oid tamoyillar va qoidalar.

Ta'lim jarayonidagi barcha innovatsion munosabatlar o'zaro bir biri bilan bog'liq holda o'ziga xos umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Mazkur qonuniyatlar ta'lim tizimining tarixan rivojlanib kelish evolyusiyasi davomida mavjud bo'lgan umumiy xususiyatlar, prinsiplar va mezonlar asosida takomillashib bordi. Umuman olganda pedagogikaning inson borlig'ida ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga asoslangan umumiy qonuniyatlar shu davrgacha mavjud bo'lib kelmoqda[4].

Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish borasida xususiy qonuniyatlar ham borki, ular pedagogik jarayonlar, ularning elementlari o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydi. Bular ta'lim taraqqiyoti, uning davr ruhiga mosligi, zamonaviy xususiyatlarga egaligi, barqarorligi yoki konfliktli jarayonlarining mavjudligi kabi omillar o'ziga xos bo'lgan xususiy qonuniyatlarda jamlanadi. Ta'lim jarayonini innovatsion loyihalash, unda uslublar va texnologiyalar qo'llash, ilmiy jarayonlar metodologiyasini ta'minlash, soha boshqaruvini tashkil etish, istiqbolini belgilash kabi masalalar mazkur qonuniyatlar bilan to'la bog'liq ravishda amalga oshadi.

Ta'lim tizimi jamiyatning keng ko'lamli, zaruriy va hayot-mamot jarayoni hisoblanib, inson-ta'lim-jamiyat tizimi zanjirini hosil qiladi. Pedagogika bu jarayonda muhim o'rin tutadi va u ham fan sifatida, ham jarayon sifatida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Pedagogikaning predmeti tashkiliy asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni hisoblanadi. Ta'lim jarayoni innovatsion tafakkurga asoslangan o'ziga xos mazmun beradi, undagi jarayonlarda ham inson muammosini hal qilishdek ulug'vor maqsad mavjud bo'lib, ijtimoiy hayotgan yangicha mazmun va mohiyat bag'ishlaydi.

Ta'lim tizimining rivojlanishida inson omili asosiy o'rin tutishini inobatga olsak, sinergetika metodi xususiyatlari mavjud bo'lishini nazardan qochirmaslik, bifurkatsiya xodisasini vujudga kelishini inobatga olish muximdir. Faylasuf olim A.Saitqosimovning fikricha, "Jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammolarni tadqiq va tahlil etish, zamonaviy ilmiy konsepsiyalarni yaratishda sinergetikaning o'z-o'zini tashkillashtirish tamoyili muhim xususiyat bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, sinergetika kishilik jamiyati nazariyalari va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari amaliyotida insonga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadigan ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi"[5].

Ta'lim tizimida sinergetik xususiyatlar o'z-o'zini rivojlantiruvchi jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi bilan birgalikda, tizimdagi jarayonlarni tashkil etish, modellash, loyihalashtirish va istiqboldagi rivojini prognozda qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham sinergetikani ta'lim sohasida, uni innovatsion rivojlantirishda tadbiq etish mumkin.

M.Boguslavskiyning ta'kidlashicha, "Jahon ta'lim tizimining tuzilishini yangidan anglash uchun qulay imkoniyatlar bilan bir qatorda sinergetika ham uning dinamikasini samarali tushunishga yordam beradi. Dunyo tarixiy-pedagogik jarayonining genezisi jarayonida sinergetika yangi ilmiy g'oyalar, tushunchalar, gipotezalar, faktlar va nazariyalar o'rtasidagi turli xil nochiqliq aloqalar orqali ham hosil bo'ladi"[6]. Demak, mazkur jarayonlar o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlariga muvofiq tarzda vujudga kelib, ta'lim jarayonlariga turli xil ichki va tashqi komponentlar natijasida rivojlanib

boradi. Ushbu xususiyatlar jamiyatda ta'limda plyurizm jarayonlari, ya'ni xilma-xil muqobil ta'lim tizimlarining mavjudligi, o'qitish texnologiyalarining xilma-xilligi, tarbiyaviy uslublarning turli-tumanligi va innovatsion o'zgarishlarning ko'lamligi bilan ham bog'liqdir. Mazkur xilma-xillik ta'limning o'zini - o'zi tashkil etish, nohiziqli rivojlanish dinamikasini ham yuzaga chiqaradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish bo'yicha olib borgan tahlillar asosida ta'lim tizimi va takomilining quyidagi mezonlarini ilgari suramiz: ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy hayotning muhim tarmog'i bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladigan inson omili va uning jamiyatdagi o'rnini ta'minlash bilan bog'liq xususiyatlarni namoyon etadi; ta'limda ishtirok etuvchilarning manfaatlarini uyg'unligini ta'minlaydi, ta'lim va tarbiya jarayonlarida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning butun majmuini tashkil etadi, talabning ijtimoiy mavqeini yanada yuksaltiradi; inson ma'naviy va ma'rifiy takomilini ta'minlash, barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy ishlar faol shug'ullanishi, umri unumli o'tkazishi, turmush mazmunining boyishiga xizmat qiladi; ta'lim fuqarolarning ta'lim va tarbiya olishga tegishli bo'lgan ijtimoiy va qonuniy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq sharoitlar, majburiyatlar va imkoniyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirishda jamiyatda mavjud an'analar, qadriyatlar va paradigmalar ta'lim-tarbiyaga oid ong, tafakkur, dunyoqarash, qobiliyat, salohiyat kabi mental xususiyatlar, ijtimoiy va madaniy stereotiplar bilan uyg'unlikdagi rivojlanish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. O'zaro ta'sirli, dinamik xarakterli turli xil ta'limga oid qadriyatlar nafaqat muqobil (variantli) rivojlanish uchun ob'ektiv asos yaratadi, shuningdek, ta'lim tizimlarini innovatsion rivojlantirish va modernizatsiya qilib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar - №19 (7521).
2. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. –Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.
3. Ismadyorov Ya. Oliy pedagogik ta'lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2018. –B 14.
4. Alibekov D. "Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari". Falsafa doktori dissertatsiyasi. Samarqand 2021. –B 37.
5. Saitqosimov A. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari. –Toshkent, Tafakkur, 2019 -B. 135.
6. Boguslavskiy M. Istoriya pedagogiki: metodologiya, teoriya, personalii. –Moskva, Izdatelskiy sentr IET, 2012. –S. 61.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning bugungi kundagi ahamiyati, innovatsion tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy xususiyatlari, innovatsion tafakkurning mohiyatini ochib beruvchi omillar, ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish mezonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, shaxs, innovatsion, tafakkur, ijtimoiy, rivojlantirish, taraqqiyot, ta'limot, texnologiya, qadriyat, yangilik, islohot, ma'naviyat, komil inson, qonuniyat, sinergetika.

Abstract: This article discusses the current importance of developing students' innovative thinking in the educational process, the social characteristics of developing innovative thinking, the factors that reveal the essence of innovative thinking, and the criteria for developing innovative thinking in the educational process.

Keywords: Education, upbringing, personality, innovative, thinking, social, development, progress, teaching, technology, value, innovation, reform, spirituality, perfect person, law, synergy.

Аннотация: В статье рассматривается современная значимость развития инновационного мышления студентов в образовательном процессе, социальные особенности развития инновационного мышления, факторы, раскрывающие сущность инновационного мышления, критерии развития инновационного мышления в образовательном процессе.

Ключевые слова: Образование, воспитание, личность, инновационный, мышление, социальный, развитие, прогресс, обучение, технология, ценность, инновация, реформа, духовность, совершенный человек, закон, синергия.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABA-YOSHLARINI KASBIY MA'NAVIY NAFOSATLI SHAXS QILIB TARBIYALASHNING BA'ZI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Xalilov R. R.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

KIRISH Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarni o'z sohasi bo'icha kasbiy-nafosatli shaxs qilib tarbiyalash yangi O'zbekistonning ma'naviy- tarbiya konsepsiyasidagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Chunki, bugun davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida 1541157 nafardan ortiq talaba-yoshlar tahsil olmoqda. Bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 760 ta kasb sohasida kadrlar xalq xo'jaligi uchun tayyorlanmoqda. Davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida kadrlarni seleksiya qilish va tayorlash bo'yicha asta sekinlik bilan raqobat ham paydo bo'lmoqda. Oliy o'quv yurtlariga kadrlarni o'z sohasining chuqur bilimdoni qilib tarbiyalash bilan bir qatorda kasbiy sohasi bo'yicha ma'naviy-axloqiy jihatdan nafosatli kadr qilib tarbiyalash vazifasi ham ularning zimmasiga yuklatilgan. Chunki, mehnat taqsimoti bo'yicha har bir sohaning kasb etikasi, axloq va nafs tamoyillari mavjud. Xalq xo'jaligining qaysi sohasiga yoki davlat ijtimoiy-siyosiy tizimi strukturasi murojaat qilsangiz kasbga

qo'yilgan axloq normalari bor. Shuning o'zi ham kadrlarni o'qitish va tarbiyalashda uyğunlikni ta'minlash naqadar muhim bo'g'in ekanligini ko'rsatmoqda. "Insoniyat tarixiga nazar solinsa dunyodagi ko'plab xalqlar avvalo, o'zining ma'naviy birligi va milliy g'oyasi orqali yuksalishga erishganiga guvoh bo'lish mumkin"[1] deb ta'kidlaydi Sh.Mirziyoyev.

Kadrlarni o'z kasbi sohasi boyicha etuk mutaxassis qilib o'qitish va unga mos ma'naviy qiyofa shakllantirish ham oliy ta'lim muassasalariga qo'yilgan davlat talabidir. Sharq musulmonlar olamidagi madrasalarda tahsil olgan talaba-yoshlar kasbiy-ma'naviy qiyofasi bilan ajralib turgan. O'n yetti yoshida Damashqda madrasada tashkil etilgan anjumanda ma'ruza bilan ishtirok qilgan Abu Nasr Forobiyning ilmi va axloqiy-ma'naviy qiyofasiga butun arab, hind va yunon dunyosi hamon rahmatlar aytadi. Yetmishdan ortiq millat vakillari ishtirok qilgan anjumanda tushgan savollarga o'sha xalqning tili va lahjasida o'dob bilan javob berganligini yil inomachilar manbalarda yozishgan.

Adabiyotlar tahlili va metod. Talaba-yoshlarni kabi ma'naviy axloqiy nafosatli qilib tarbiyalash masalalari hamma davrlarda jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lib kelganligini davlat boshqaruvidagi rahbarlari asarlari va olimlarning tadqiqotlaridan ham bilish mumkin. Bundan o'n bir asr ilgari yozilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" yoki Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi asarlarida kasbiy ma'naviy axloqiy va nafosatli shaxs qiyofasi haqida nazariy fikrlar bilan amaliy uslubiy g'oylarni topish mumkin. O'zbekiston mustaqillikka erishganida so'ng bu sohaga oid hukumat darajasidagi rasmiy hujjat ya'ni, qarorlar qabul qilindi.

Ayniqsa, 2019 yil 31 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda qarorning ilovasidagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" bugungi va kelajak uchun eng muhim hujjatdir. Bundan tashqari davlatimiz rahbari, Prezident Sh.Mirziyoyevning "Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston" kitobida oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni zamon ruhiga mos ravishda tayorlash bilan bir qatorda kadrlarning axloqiy ma'naviy va nafosatli qiyofasini milliy qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalashga oid fundamental nazariy fikrlar bayon etilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"[2] deb bejizga ta'kidlamadilar.

Natijalar. Tarbiya jarayoni va unga ta'sir etadigan omillar hamma davrlarda jamiyatshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan hamda turli xil muhokamalarga sabab bo'lgan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Tarbiy zamon" faslida qo'yidagi muhokamani keltiradi. "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga,"birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir"[4]. Bugun yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni kasbiy ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalash ular ta'lim olayotgan muassasa va ularga ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar amaliy faoliyati, kasbiga nisbatan sadoqati bilan uzviy bog'liqdir."Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[4] deb ta'kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Demak, bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga sun'iy intellekt ta'siri tobora jadal kirib borayotgan ekan, kadrlarni o'z sohasi bo'icha bilim berish bilan bir qatorda kasbiga nisbatan nafosatli qilib tarbiyalash yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari boshqaruv bo'g'inidagi eng nozik va murakkab masala bo'lib turibdi.

Muhokama. Jamiyat va ta'limda shaxsni komil inson sifatida ko'rish barcha davrlarning bosh masalasi bo'lib kelganligini olimlarning asarlari va ular ilgari surgan nazariyalardan ham bilish mumkin. "Ustozlardan ta'lim olishga, bilim ma'rifatga havasi bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamasligidan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur"[5] deb yozadi Abu Nasr Forobiy. O'rta asrlarda ham kasbiga nisbatan nafosatli qilib tarbiyalah jarayoni ilmiy doiralarda ko'p bahslarga sabab bo'lgan edi. Bu masalani XX asr boshlarid jadid ma'rifatchilar ham kun tartibiga olib chiqishdi. Ularning asosiy maqsadi ilmiy dalilga asoslangan va nafosatli ta'lim tizimini yaratish va shu orqali kadrlarni tayorlash edi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov madrasa ta'lim tizimini isloh qilib zamonaviy maktab tizimini yaratish g'oyasini o'rta tashladi. Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi. Mahmudxo'ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Yevropa maktab tizimi bilan tanishish edi. "Биз туркистонийларга туркий, форсий, арабий ва русий билмок лозимдур"[6] deb yozgan edi, Mahmudxo'ja Behbudiy. Uzoq yillar sobiq sovetlar maktab tizimi mafkuralashgan maorif tizimi edi. Maktab darsliklarida ham bu o'zining aksini topdi. Buning amaliy isboti sifatida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning "Temir tuzuklari" asarini na maktab na oliy ta'lim tizimidagi o'quvchilar hatto ularga dars berayotgan mudarris-ustozlar ham bilmasdi. Lekin, Moskvadagi qurolli kuchlar akademiyasida "Temur tuzuklari" asari bo'yicha bo'lajak yuqori lavozimdagi harbiy generallarga 12 soat ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tilgan ekan. Movarounnahrda chiqqan harbiy sarkardaning jang olib borish strategiyasi va taktikasiga bugun barcha davlatlar qiziqmoqda va o'rganmoqda. Mafkuralashgan maktab tizimi barham topganda so'ng buyuk sarkardaga ehtirom ko'rsatildi. Millat o'z qahromonlari hayoti va asarlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bugun yangi O'zbekistonda butun ta'lim tizimining barcha bo'g'ilariga alohida e'tibor berilmoqda. Millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar ta'lim olish uchun teng sharoit yaratildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda "Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar

kafolatlanadi”[7] deiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimi ta’lim tizimining eng muhim bo’g’inidir. Oliy ta’limda o’qitishning va o’quv adabiyotlari yaratishning “4K” modeliga o’tish, ilg’or xorijiy davlatlarning ta’lim tizimi o’quv rejalari bilan tanishish millat va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan o’quv reja asosida dasturlar yaratish, talaba-yoshlarga ta’lim berishda kasbiy nafosatli o’qitish jarayonini uyg’unlashtirish, dunyovi, milliy, umuminsoniy va dini urf-odat, marosim va an’analarni dunyoviy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish sohada xizmat qilayotgan 44827 nafar professor-o’qituvchilarning, kafedra va dekanatlarning asosiy vazifasi bo’lib turibdi. Bugungi yaratilayotgan o’quv adabiyotlari turiga va auditoriyada mashg’ulot olib borayotgan domla talaba-yoshlarda kritik(tanqidiy), kreativ(ijodiy), kommunikativ(o’zaro aloqadorlik) va kolloboratsiya(hamkorlikda ishlash) ko’nikmasini shakllantirishi zarur. Demak, o’quv adabiyotlariga va dars mashg’ulotlariga yingicha davlat talabini qo’yish vaqti keldi. Bakalavr va magistratura oquv rejalari keying yillarda ancha zamonaviylashtirildi. Lekin tizimda yangi dastur va uning ertaga qandau xizmat qilishi, oqibati bo’yicha ilmiy asoslangan monitoringlar olib borilmayapti. Buning yechimi esa ilg’or xorijiy oliy ta’lim muassasalariga o’quv rejalarni va fan dasturlarini “o’qiy” oladigan professor-o’qituvchilarni xizmat safari bilan yuborish hamda ularni moddiy-ma’naviy ruhlantirish jarayoniga e’tibor kerak. Talaba –yoshlarni kasbiy nafosatli qilib tarbiyalashga kasbiy fan hamda ijtimoiy-gumanitar fan o’qituvchilarini tanlash, rahbarlik bo’g’inidagi kadrlarning bilimi va kasbiy odobiga, nafs va axloq tarbiyasiga davlat talablarini ishlab chiqish vaqti keldi. Globallashuv davrida sun’iy intellektning xalq xo’jaligi tarmoqlariga kirib kelishi dunyoviy, milliy, umuminsoniy va diniy qadriyatlarni fan nuqtai nazaridan tahlil qila oladigan kadrlarni tayorlashni talab qilmoqda.

Xulosa. Talaba-yoshlarni kasbiy nafosatli qilib tarbiyalash va ularda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas’uliyatlik, bag’rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish kabi fazilatlar oliy ta’lim tizimidagi kadrlar tayorlayotgan barcha xodimlar uchun muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR

- 1.Mirziyoyev Shavkat. Hozirgi zamon va yangi O’zbekiston. “O’zbekiston” hashriyoti.Toshkent-2024.260 bet
- 2.Mirziyoyev Shavkat Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir.19.01.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4089>
- 3.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 24.01. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
- 4.Ta’lim to’g’risida O’zbekiston Respublikasi qonuni. 2020. 23 sentyabr. <https://lex.uz/docs/-5013007?ONDATE=01.02.2024>
- 5.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq “Yoshlar nashriyot uyi”Toshkent-2018. –B. 10-bet
- 6.Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri.Toshkent-“O’zbek Milliy Entsiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti.2004. –B. 16
- 7.Mahmudxo’ja Behbudiy Ikki emas, to’rt til lozim. “*Ойн*» *журнали*, 1913.–B 12,14

Oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarini kasbiy ma’naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalashning ba’zi muammolari va yechimlari

Annotatsiya: Talaba-yoshlarni kasbiy ma’naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalash oliy ta’lim muassasalari oldida turgan muhim ustuvor vazifadir. Chunki, zamonaviy taraqqiyot kasbiy etuk shaxs bo’lish bilan bir qatorda, mutaxassisda yuksak axloqiy nafosatni shakllantirishni ham talab qilmoqda. Internet va axborot texnologiyalari hamda bugungi virtual olam axloqiy nafosatli shaxsni tarbiyalashga o’zining salbiy ta’sirini o’tkazmoqda. Ma’naviy axloqiy qadriyatlarning devalvatsiyasi kuzatilmoqda. Shuning uchun butun oliy ta’lim tizimida boshqruv bo’g’inidan tortib qo’yi bo’g’indgi barcha professor-o’qituvchilar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy m’naviy nafosatli mashg’ulotlar tashkil etish,bu jarayonda sun’iy inntellikt imkoniyatlaridan foydalanishni talab qilmoqda. Xalq xo’jaligining turli sohalariga ishga borayotgan yosh kadr o’z sohasi yetuk mutaxassas va axloqiy nafosatli shaxs bo’lishi oliy ta’limdagi faolitiga bog’liq bo’lib turgan bir davrda tizimda kasbiy etika va nafs-axloq moduliga oid fanlarni o’qitishni zamon va davr ehtiyojiga mos ravishda tashkil etish lozim bo’ladi. Maqolada ushbi muammolarning nazariy va amaliy echimiga qaratilgan xulosalar berilgan.

Kalit so’zlar: kasbiy nafosatli shaxs, axloq devalvatsiyasi, “4k”metodi, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas’uliyatlik, bag’rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik

Некоторые проблемы и решения воспитания молодежи студентов вузов как человек с профессиональной духовной личностью

Аннотация: Воспитание студентов и молодежи как профессиональных и духовно развитых личностей является важным приоритетом для высших учебных заведений. Потому что современный прогресс, помимо профессионально зрелой личности, требует и формирования у специалиста высокой нравственной целостности. Интернет и информационные технологии, а также современный виртуальный мир оказывают негативное влияние на воспитание нравственно развитой личности. Происходит девальвация духовных и нравственных ценностей. Поэтому от всех профессорско-преподавательского состава всей системы высшего образования, от руководящего звена до низовых звеньев, требуется организация профессионального и духовно-развитого обучения с использованием информационных технологий, а также использование в этом процессе возможностей искусственного интеллекта. В условиях, когда от деятельности молодых специалистов, поступающих в различные отрасли народного хозяйства, зависит возможность стать зрелыми специалистами своего дела и нравственно развитыми личностями, необходимо организовать преподавание дисциплин, связанных с профессиональной этикой и морально-этическим модулем в системе в соответствии с потребностями времени и эпохи. В статье приводятся выводы, направленные на теоретическое и практическое решение этих проблем.

Ключевые слова: профессиональная изысканность, моральная девальвация, метод «4к», преданность родине, предпримчивость, сила воли, идеологический иммунитет, доброта, ответственность, толерантность, правовая культура, инновационное мышление, трудолюбие

Some problems and solutions of educating youth students of higher education institutions as persons with professional spiritual personality

ABSTRACT: Educating students and young people as professionally and spiritually sophisticated individuals is an important priority task facing higher educational institutions. Because modern development, along with becoming a professionally mature individual, also requires the formation of high moral sophistication in a specialist. The Internet and information technologies, as well as today's virtual world, have a negative impact on the upbringing of a morally sophisticated individual. There is a devaluation of spiritual and moral values. Therefore, all professors and teachers in the entire higher education system, from the management level to the lower levels, are required to organize professional and spiritually sophisticated training using information technologies, using the capabilities of artificial intelligence in this process. At a time when the ability of a young cadre entering various sectors of the national economy to become a mature specialist in their field and a morally refined person depends on their activity in higher education, it is necessary to organize the teaching of subjects related to professional ethics and the module of morals in the system in accordance with the needs of the time and era. The article provides conclusions aimed at theoretical and practical solutions to these problems.

Key words: professional sophistication, moral devaluation, "4k" method, loyalty to the homeland, entrepreneurship, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, hard work

STRESSNI BOSHQARISH

Arzieva G.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Kirish. Bugungi kunning tezkor hayoti, ortib borayotgan talablar va cheksiz axborot oqimi inson ruhiyati uchun jiddiy sinovlar yaratmoqda. Stress kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanib, insonning jismoniy va psixologik salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq stress doimo salbiy hodisa emas: u insonni harakatga undash va murakkab vaziyatlarda resurslarni safarbar qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, uzoq muddat davom etgan va boshqarilmagan stress turli kasalliklar, ruhiy siqilish va hatto hayot sifati pasayishiga olib kelishi mumkin [3]. Shu sababli stressni boshqarish inson hayoti uchun nafaqat muhim, balki zaruriy ko'nikmaga aylangan. Stressni yengishning samarali usullari nafaqat insonning ichki resurslarini rivojlantiradi, balki uning kundalik faoliyati va umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot stressning mexanizmlari, uning ta'sirlari va boshqarish strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchiga shaxsiy barqarorlikni oshirish yo'nalishida amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Insoniyat tarixida hech qachon shunchalik tez sur'atda yashash talab qilinmagan. Texnologiyalarning rivojlanishi va zamonaviy jamiyatdagi yuqori talablar odamlarni doimiy ravishda kurashga, tanlashga va qaror qabul qilishga majbur qiladi. Ushbu jarayonlar davomida stressning paydo bo'lishi tabiiy holatga aylanadi. Stress, aslida, organizmning xavf yoki qiyinchiliklarga javob berish uchun ishlab chiqqan himoya mexanizmi bo'lsa-da, uning boshqarilmasligi inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2]. Bugungi kunda stress nafaqat ish faoliyatida, balki shaxsiy hayotda ham dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda. Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, stressni boshqarish qobiliyati inson farovonligining kaliti hisoblanadi. Bu esa nafaqat insonning ichki xotirjamligini tiklash, balki salomatligini saqlash uchun ham muhimdir. Stressni yengish usullarini egallash orqali inson nafaqat o'z hayot sifati, balki ijtimoiy munosabatlarda ham barqarorlikni ta'minlaydi. Mazkur tadqiqotda stressning kelib chiqishi, salbiy oqibatlar va uni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Hayotdagi har bir inson uchun mos bo'lgan texnikalar orqali stressdan xalos bo'lish yo'llarini aniqlash va o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Metodlar. Stressni boshqarish bugungi kunda inson salomatligi va hayot sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, stress organizmga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi: jismoniy (yurak urishi tezlashishi, qon bosimi oshishi), hissiy (asabiylik, xavotir) va psixologik (uyqusizlik, diqqatni jamlay olmaslik). Stressni samarali boshqarish uchun birinchi qadam – uni aniqlash va uning sabablarini tushunishdir. Stress darajasini baholash uchun maxsus texnikalar, masalan, STAI testi yoki Perceived Stress Scale (PSS) usuli qo'llaniladi. Kundalik yuritish orqali inson o'zida stressni qachon va qanday his qilishini kuzatib, uning sabablari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Stressni kamaytirishning samarali usullaridan biri nafas olish mashqlaridir. Nafas olishni boshqarish simpatik nerv tizimini bostirib, tinchlik uchun mas'ul parasimpatik tizimni faollashtiradi. Masalan, "4-7-8" texnikasi – 4 soniya davomida chuqur nafas olish, 7 soniya davomida ushlab turish va 8 soniyada sekin chiqarish orqali organizmni xotirjamlikka keltiradi. Diafragmatik nafas olish usuli ham stress gormonlari darajasini pasaytirishga yordam beradi. AQShning Garvard universiteti olimlari chuqur nafas olish mashqlarining yurak urishini barqarorlashtirish va qon bosimini pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan [6]. Meditatsiya ham stressni boshqarishda keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Jon Kabat-Zinn tomonidan ishlab chiqilgan Mindfulness Based Stress Reduction (MBSR) texnikasi stressni kamaytirish va ongni jamlashda samarali ekanligini ko'rsatgan. Meditatsiya ongni hozirgi lahzaga qaratib, xavotir va salbiy hissiyotlardan xalos bo'lishga yordam beradi. Kaliforniya universiteti tadqiqotlariga ko'ra, muntazam meditatsiya qilish stress gormoni kortizolni sezilarli darajada kamaytiradi va inson ruhiy holatini yaxshilaydi [4]. Jismoniy mashqlar stressni kamaytirishda ham katta ahamiyatga ega. Yugurish, yoga, suzish yoki oddiy yurish kabi faoliyatlar orqali organizmda endorfinlar ishlab chiqariladi, bu esa kayfiyatni ko'taradi va asabiylikni pasaytiradi. Yoga tanani va ongni uyg'unlashtirishga yordam beradigan samarali vosita hisoblanadi, aeroobiik mashqlar esa yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilaydi va stressga chidamlilikni oshiradi. Finlyandiyadagi Jyväskylä universiteti o'tkazgan tadqiqotlar haftada uch-to'rt marta jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish stressni kamaytirish uchun samarali ekanini tasdiqlagan. To'g'ri ovqatlanish va sog'lom uyqu rejimini yo'lga qo'yish ham stressni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Yong'oq, qora shokolad, yashil choy kabi mahsulotlar kortizol darajasini pasaytirishi

mumkin. Uyqu gigiyenasi – bu muntazam ravishda bir vaqtda uxlash va uygʻonish odatini rivojlantirishdir. Kolorado universiteti tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar kam uyqu nafaqat stressni kuchaytirishi, balki inson diqqatini jamlash qobiliyatini ham pasaytirishini koʻrsatgan.

Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash stressni kamaytirishda muhim oʻrin tutadi. Oila aʼzolari va doʻstlar bilan muloqot qilish, ular bilan vaqt oʻtkazish ruhiy yengillikni taʼminlaydi. Psixoterapiya esa chuqur stressli holatlarning sabablarini aniqlash va ularga qarshi kurashishda yordam beradi. Britaniyaning Manchester universiteti tadqiqotlariga koʻra, ijtimoiy aloqalar va qoʻllab-quvvatlash stressni kamaytirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.[1]

Vaqt boshqarish texnikalari, masalan, Pomodoro texnikasi yoki prioritetlarni belgilash orqali inson ortiqcha siqilishdan qochishi mumkin. Tokio universiteti oʻtkazgan tadqiqotlarga koʻra, vaqt samarali boshqarish stress darajasini 25 foizga kamaytirishi mumkin. Hissiy intellektning rivojlantirish ham stressni yengishda yordam beradi. Oʻz his-tuygʻularini anglash va boshqarish qobiliyatini rivojlantirish orqali inson murakkab vaziyatlarda xotirjam boʻlib qoladi. Daniyaning Kopenag universiteti tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, hissiy intellekti yuqori boʻlgan odamlar stressli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishadi va ruhiy barqarorlikni saqlashadi.

Natijalar. Stressni boshqarish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni koʻrsatadiki, stress nafaqat insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Stressni samarali boshqarish uchun quyidagi natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi:

1. **Nafas olish mashqlari va meditatsiyaning samaradorligi:** Chuqur nafas olish texnikalari va meditatsiya stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi. Kaliforniya universitetining izlanishlariga koʻra, muntazam ravishda meditatsiya bilan shugʻullanish kortizol gormoni (stress gormoni)ni pasaytirib, inson salomatligini yaxshilaydi.

2. **Jismoniy mashqlar va hayot sifati:** Fizik faoliyatning (masalan, yoga, yugurish, yurish) muntazam bajarilishi nafaqat stressni kamaytiradi, balki kayfiyatni koʻtaradi va insonning psixologik chidamliligini oshiradi. Finlyandiya tadqiqotlar haftasiga 3-4 marta jismoniy mashqlar bajarish stressni boshqarishda samarali ekanini isbotladi.

3. **Ijtimoiy munosabatlarning roli:** Oila aʼzolari, doʻstlar va maslahatchilar bilan muloqot qilish ruhiy barqarorlikni taʼminlaydi. Manchester universiteti tadqiqotlari ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash stressning salbiy taʼsirini kamaytirishini tasdiqlagan.[7]

4. **Uyqu va ovqatlanish rejimining ahamiyati:** Toʻgʻri uyqu va balanslangan ovqatlanish stressni kamaytirishga yordam beradi. Kam uyqu yoki notoʻgʻri ovqatlanish nafaqat stressni kuchaytiradi, balki diqqatni jamlash qobiliyatini ham pasaytiradi.

5. **Vaqt boshqarishning afzalliklari:** Pomodoro texnikasi va boshqa vaqt boshqarish strategiyalari orqali inson oʻz vazifalarini tartibga solib, ortiqcha xavotir va siqilishdan qochishi mumkin. Tokio universitetining tadqiqotlari vaqt samarali boshqarish orqali stress darajasini 25% ga kamaytirish mumkinligini koʻrsatdi.[5]

Munozaralar. Stressni boshqarish inson hayotida muhim oʻrin tutadi va bu mavzu ustida olib borilgan izlanishlar shuni koʻrsatadiki, stressni toʻliq yoʻq qilishning iloji yoʻq, lekin uni boshqarish orqali inson salomatligi va farovonligi yaxshilanadi. Nafas olish mashqlari va meditatsiya kabi usullar stressni boshqarishda arzon va oson usul sifatida koʻrilmoqda. Ammo bu usullarni muntazam va toʻgʻri bajarish talab etiladi. Koʻpchilik insonlar ushbu texnikalarning samaradorligini bilsa-da, ularni oʻz hayotiga qoʻllashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, odatiy mashgʻulotlarni kichik qadamlar bilan hayotga kiritish tavsiya etiladi.

Fizik faoliyatning stressni kamaytirishdagi roli ilmiy jihatdan isbotlangan boʻlsa-da, koʻpchilik insonlar bandlik yoki motivatsiya yetishmasligi sababli muntazam mashqlar bilan shugʻullanmaydi. Bunga qarshi kurashish uchun qisqa yurishlar yoki uy sharoitida bajariladigan oddiy mashqlarni boshlash mumkin. Masalan, kuniga 10 daqiqa yoga bilan shugʻullanish yoki tabiatda qisqa sayr qilish stress darajasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin[8].

Uyqu va ovqatlanishning stressga taʼsiri sezilarli, ammo bu jihatni nazorat qilish hamma uchun ham oson emas. Koʻpincha band hayot tarzi, notoʻgʻri ovqatlanish odatlari va texnologiyalarga qaramlik (masalan, uyqudan oldin telefondan foydalanish) sogʻlom uyqu rejimini buzadi. Shu sababli, uyqu gigiyenasini taʼminlash uchun telefondan kamida bir soat oldin foydalanishni toʻxtatish va kunlik rejaga rioya qilish zarur.

Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash stressni boshqarishda muhim omil boʻlsa-da, ayrim insonlar stressli holatlarda boshqalar bilan muloqot qilishdan qochishadi. Bunday holatlarda ruhshunos yoki psixoterapevt bilan suhbat yaxshi natija berishi mumkin. Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini rivojlantirish uchun oila va yaqinlar bilan vaqt oʻtkazishni odat qilish, shuningdek, ijtimoiy guruhlarga qoʻshilish tavsiya etiladi.

Stressni boshqarish texnikalaridan biri – vaqt toʻgʻri boshqarish, stressni sezilarli kamaytirishi mumkin boʻlsa-da, hamma ham bu usuldan samarali foydalana olmaydi. Vaqt notoʻgʻri rejalashtirish odatda ish hajmining ortib ketishi va charchashga olib keladi. Shuning uchun Pomodoro kabi texnikalarni qoʻllab, qisqa tanaffuslarni ish kuniga kiritish samaradorlikni oshiradi va stressni kamaytiradi. Yuqori hissiy intellekt stressga qarshi samarali "qurol" hisoblanadi. Hissiy intellekti yuqori insonlar stressni yengishda va muammolarni hal qilishda boshqalarga qaraganda koʻproq muvaffaqiyatga erishadi. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun oʻz his-tuygʻularingizni tan olish va ular bilan ishlashni oʻrganish muhimdir.

Natijada, stressni boshqarish shaxsning salomatligi va hayot sifatini oshirish uchun zaruriy koʻnikma ekanligi aniqlandi. Nafas olish texnikalari, meditatsiya, sport, vaqt boshqarish va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash kabi usullar stress darajasini sezilarli darajada pasaytiradi. Ammo bu usullardan samarali foydalanish uchun har bir inson oʻz shaxsiy

ehtiyojlarini hisobga olib, texnikalarni hayotiga moslashtirishi zarur. Stressni boshqarish nafaqat individual salomatlikni yaxshilaydi, balki ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[10]

Stressni boshqarish — zamonaviy dunyoda har bir inson uchun muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda stressdan xalos bo'lish va uni samarali boshqarish, shuningdek, o'zgaruvchan muhitda psixologik barqarorlikni saqlash, har bir insonning sog'lig'i va umumiy farovonligi uchun muhimdir. Stress organizmning tabiiy reaksiyasi bo'lishiga qaramay, uning ko'p hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun stressni boshqarish texnikalarini o'rganish, bu jarayonni yengillashtirish, maqsadga yo'naltirilgan turli usullarni qo'llash zarur.[9]

Stressni boshqarishda eng samarali usullar orasida nafas olish mashqlari, meditatsiya, jismoniy faoliyat, ijobiy fikrlash va vaqtni samarali rejalashtirish mavjud. Bular nafaqat stressni kamaytirishga, balki insonning umumiy psixologik holatini yaxshilashga ham yordam beradi. Stressni boshqarish insonning o'zini anglashini, o'z resurslarini samarali ishlatishni va qiyin vaziyatlarda tinchlanishni o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, stressni boshqarish — bu hayotning turli bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur ko'nikma. Uni o'rganish, doimiy ravishda o'z ustida ishlash va turli psixologik texnikalarni qo'llash orqali har bir inson o'zini yanada baxtliroq va ruhiy sog'lom his qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. **Ibragimov, R.** (2019). Psixologiyada stress va uning boshqarilishi. —Toshkent: O'zbekiston Noshirlik. Havola: <https://www.uzbook.uz/>
2. **Kamilov, A.** (2020). Stressni boshqarish va psixologik salomatlik. —Toshkent: Science. Havola: <https://www.science.uz/>
3. **Raxmonov, T.** (2018). *Stress va uning hayotga ta'siri*. —Toshkent: Academic Press. Havola: <https://www.academic.uz/>
4. **Xodjayev, M.** (2017). *Psixologik muammolarni hal qilish*. —Toshkent: «Nafis». Havola: <https://www.nafis.uz/>
5. **Maksudov, M.** (2016). *Stressni boshqarishning samarali usullari*. —Samarkand: SamDPI. Havola: <https://www.samdpi.uz/>
6. **Hoshimov, S.** (2021). *Stressni boshqarish va psixoterapiya*. —Toshkent: «Fan va Texnologiya». Havola: <https://www.fantech.uz/>
7. **Yusupov, A.** (2019). Ruhiy salomatlik va stressni boshqarish. —Toshkent: Toshkent Universiteti Noshirligi. Havola: <https://www.tu.uz/>
8. **Azimov, F.** (2020). Psixologik salomatlik va stressni boshqarish usullari. —Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti. Havola: <https://www.bdu.uz/>
9. **Tursunov, O.** (2018). *Stress va uning psixologik ta'siri*. —Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. Havola: <https://www.sdu.uz/>
10. **Mirzaev, Z.** (2017). *Stressni boshqarish texnikalari va amaliyoti*. —Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti. Havola: <https://www.fdu.uz/>

Annotatsiya: Stress — zamonaviy hayotning ajralmas qismi bo'lib, insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar stressning kelib chiqish sabablari, uning salomatlikka ta'siri va uni boshqarish usullari bilan shug'ullanadi. Stressni boshqarishning samarali usullari orasida nafas olish mashqlari, meditatsiya, sport bilan shug'ullanish, vaqtni boshqarish va ijobiy fikrlash kabi amaliyotlar mavjud.

Kalt so'zlar: Dam, Xotirjam, Sabot, Sokin, Irod, Salomat, Harakat, Meditatsiya, Kuch, Barqaror

Аннотация: Стресс — это неотъемлемая часть современной жизни, оказывающая негативное влияние на физическое и психическое здоровье человека. В данной теме рассматриваются причины возникновения стресса, его влияние на здоровье и методы управления им. Эффективные способы управления стрессом включают дыхательные упражнения, медитацию, физическую активность, управление временем и позитивное мышление.

Ключевые слова: Отдых, Спокойствие, Терпение, Тихий, Воля, Здоровье, Действие, Медитация, Сила, Стабильный

Annotation: Stress is an integral part of modern life, significantly impacting physical and mental health. This topic explores the causes of stress, its effects on well-being, and strategies to manage it. Effective stress management techniques include breathing exercises, meditation, physical activity, time management, and positive thinking.

Key words: Rest, Calm, Patience, Quiet, Willpower, Health, Action, Meditation, Strength, Stable.

TÁRBIYA SABAQLÍGI ARQALI OQIWSHILARDA JOYBARLAR JARATIŴ QÁBILETIN QÁLIPILESTIRIŴ

Allashova N.

Ájiniyaz atındađı NMPI

Tárbiya páni Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń baslaması menen ulıwma orta bilim beriw mákemelerinde 2020-2021-oqıw jılınan baslap engizildi. Bul pán Úzliksiz ruwxıy tárbiya koncepciyasınıń bir bólegi sıpatında oqıwshılarda "Milliy tikleniwden — milliy rawajlanıwǵa qaray" ideyasın síndiriw, olardı jámiyetlik turmısqa tayarlaw, belsendi puqaralıq poziciya, juwapkershilik, minnetleme, huqıqıy sana hám mádeniyat, tereń dúnyaqaras, aǵartıwshılıq, keńpeyillik sıyaqlı páziyletlerin qalıplestiriwden ibarat.

Tárbiya hár qanday jámiyet hám hár qanday mámleket turmısında sheshiwshi rol oynaydı. Tariyxtan kóplegen alımlarımız tárbiyaǵa úlken áhmiyet berip, jámiyettiń tiykarǵı wazıypalarınan biri dep bilgen. «*Tarbiya biz ushın ya ómir-ya ólim, ya mádet ya apat, ya saadat ya baxıtsızlıq máselesidur*» Abdulla Avloniydın usı sózlerinen de tárbiya qanshelli áhmiyetli sociallıq process ekenligin bilip alıwımız múmkin.

Keyingi jılları mámleketimizde jaslar tárbiyasına itibar mámleketlik siyaset dárejesine kóterildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevtiń basshılıǵında 2019-jıl 23-avgust kúni bolıp ótken xalıq bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıw, pedagoglardıń qanıgeligi hám jámiyettegi abırayın arttırıw, jas áwladtıń mánawiyatın joqarılátıw máselelerine baǵıshlangan

videoselektor májilisinde bilimlendiriw hám tárbiyanıń áhmiyeti haqqında sóz boldı. Bul májiliste Mámleketimiz basshısı jas áwladtıń tárbiyası, ádep-ikramlılıǵı haqqında toqtap, "Mektep - bul ómir-ólim máselesi, keleshek máselesi. Bul máseleleni mámleket, hókümet hám hákimlerdiń ózi sheshe almaydı. Bul pútkil jámiyettiń isi, minnetine aylanıwı kerek. Mektepti ózgertpey turıp, insandı, jámiyetti ózgertip bolmaydı" - dep ayrıqsha atap ótti.

Prezidentimizdiń joqarıdaǵı sózlerin hár bir pedagog mekteplerde tálim hám tárbiya barısında qollansa, álbette zamanǵa say kreativ pikirlewshi jaslardıń jetilisiwi sózsiz. Usı orında baslawısh klasta oqıwshılardıń kreativligin qalıplestiriwde hár bir sabaqlıqtıń ornı áhmiyetli sanaladı, sol qatarda Tárbiya sabaqlıǵında oqıwshılardıń kreativligin hár túrli formada rawajlandırıwǵa boladı. Tiykarınan Tárbiya pání búgingi kúnde zamanǵa say jaslardı hár tárepleme intellektuell etip tárbiyalawǵa arnalǵan pán bolıp esaplanadı. Tárbiya sabaqlıǵındaǵı berilgen temalardan kelip shıǵıp kreativ oylawdıń nátiyjesinde olardı joybarlar jaratıwǵa da úyretsek boladı. Bunday joybarlar jaratıwda álbette úyretiwshi hám úyreniwshiniń birge islesiwiniń nátiyjesi áhmiyetli esaplanadı. Dáslep balalarda qalıplesetuǵın kreativlik haqqında toqtalıp ótsek. Kreativlik sózi eń dáslep 1922-jılǵa AQSh alımı D. Simpson tárepinen qollanılǵan. Bul termin arqalı shaxs qalıptegi, ádetiy oylawdan waz keshiw qábiletin tariyplegen.

Kreativlik (lot. creatio - jaratıw, payda etiw) - bul insannıń ózgeshe ideya, pikir bere alıw, mashqalalardı tákirarlanbaytuǵın, anıq sheshimin tabıw, oylawdıń dástúriy formalarınan waz keshe alıwǵa bolǵan qábileti bolıp tabıladı.

Usı orında baslawısh klasta balalardıń ózgeshe ideya, ózgeshe pikirlewiniń nátiyjesinde hár túrli jańalanıwlar júzege keledi. Mısalı ushın joybar jaratıwda usılar qatarında.

Joybar - 1) qandayda bir imarat, qurılmanı qurıw maqsetinde yaqı belgili bir buyımdı jaratıwǵa baylanıslı tayarlangan hújjetler (esap-sanaqlar, sızilma, maketler) jıyındısı. Belgili bir imarat yaqı obektıń joybarı jeke tártipte yaqı birdey úlgede boliwi múmkin. Házirgi waqıtta túrli shólkemlerdiń joybarlaw buyırtaların atqarıwshı arnawlı hám joybarlaw institutları, kafedra hám basqa da dóretywshilik awqamlar bar. 2) qanday da bir hújjetıń aldınnan dúzilgen teksti; 3) reje, gózlew, ideya.[3]. Joybar - jeke tártipte yaqı birgelikte ámelge asırılauıǵın, izertlew yaqı dizayndı óz ishine alatuǵın, belgili bir maqsetke erisiw ushın abaylap rejelestirilgen hár qanday baslama[4]. Basqarıw kózqarasınan joybardıń alternativ kórinisi waqıyalar izbe-izligine tiykarlanadı: "belgilengen waqıt ishinde hám belgili qárejetler hám basqa sheklewler sheńberinde ornlanıwı kerek bolǵan óz ara baylanıslı wazıypalar toplanı"[5].

Joqarıdaǵı joybar haqqındaǵı teoriyalıq maǵlumatlardı keltirip óttik. Ápwayı tilde joybardıń mánisin anlatatuǵın bolsaq qandayda bir jańalıq jaratıw ushın joba dúziw dep túsınsek te boladı. Yaǵnıy ol isleyjaq jańalıqlarǵa hár tárepleme maǵlumat hám tásir alıp jaratıw. Biz baslawısh klasta joybar túsınigin sabaq ótiw barısında ótiletuǵın temaǵa maslap qollanıp oqıwshılarda túsınik berip barsaq boladı. Ásirese joybar jumısın tárbiya sabaqlarında qollasaq júda jaqsı nátiyje beredi. Sebebi baslawısh klastaǵı tárbiya sabaqlıǵınıń mazmunı da tikkeliy balalarda óz aldına maqset qoyıw hám sol maqsetke erisiw jollarına baǵdarlayda. Ulıwma alǵan da olardıń kreativ oylawınıń jemisin júzege shıǵaradı. Álbette bul baslawısh klass muǵaliminiń sabaqtı zamanagoy texnologiyalardı qollanıp ótiwinede baylanıslı.

Joybar jumısı:

Joybar jumısın sabaq barısında qollanamız hám nátiyjesin sol sabaq juwmaǵında shıǵarıp bahalap ketemiz.

Joybar jumısı ushın oqıwshılardı toparlarǵa bólip alamız.

Ulıwmalıq tema tańlaymız hám sol temaǵa tiyisli mashqala tabamız. Hár toparǵa hár qıylı mashaqalanı beremiz.

Toparlar mashqalanı sheshimin tawadı hám onı prezentaciya etip ortada aytıp beredi.

Prezentaciyanı hámme, esitip bir mashqalaǵa túrli jol tabıw kerekligin bilip aladı. Demek biz házir 1-klass Tárbiya sabaqlıǵındaǵı 26-27-sabaqlarǵa qarap ótsek.

Тема: Тұнış хám таза табиғатımız



Úsh toparǵa mashqala.

1. Balalar sayaxattan soń nelerdi qaldırıp ketti.
2. Bunday jaǵdaylar qanday jaman aqıbetlerge alıp keledi.
3. Tábiyatqa ziyan keltirmew ushın ne qılıw kerek edi.

Mashqala	Sheshim	Sóylep beriw

¹⁷¹-súwret. Usınday mashqalalardı úyreniw hám sheshiw barısında olarda hár túrli kreativ ideyalar payda bola baslaydı. Bul bolsa olarda mashqalağa sheshim tabıw arqalı joybarlar jaratıwǵada baǵdarlaydı. Joqarıda joybar degenimizdiń ózi ne onıń tıp mánis mazmunın ańlap aldıq. Baslawısh klasslarda Tárbıya sabaqlıǵındaǵı berilgen temalardıń mazunı da hár tárepleme balalarǵa keleshekte óz ornın taba alıwǵa baǵdarlaydı. Pedagogikalıq ádebiyatlarda «tárbıya» terminı keń hám tar mánide qollanıladı. Keń mánide tárbıya insan shaxsın qalıplestiriwge, onıń jámiyet óndirisi jáne social, mádeniy, bilimlendiriw turmısında belsena qatnasın támiynlewge qaratılǵan barlıq ilajlar, háreketler, umtılwırlar jıyındısın ańlatadı. [6] Biz joqarıda aytqanlarımızǵa tiykarlana otırıp Tárbıya sabaqlıǵındaǵı temalardıń mazmunına biraz toqtalasaq. Ekinshi klass Tárbıya sabaqlıǵındaǵı I bapta 14-15-betlerde berilgen Imkanyatlar esigi temasına qarasaq. Onda Bul balalar sizler menen qatar bolǵan teması arqalı balalarda tereń bilim alıp onı ámelde qollay alsa sol balalarday bola alatıwına túrtki bolatın sózsiz. Bunda sóz etilgen koreys balası Kim Ung Yong kóplegen shet tillin biliwi hám on bes jasında fizika pánleri doktori ilimiy dárejesin alǵanlıǵı. Al, Hindistanda tuwılǵan jeti jashlı Akrit Yasval óziniń dáslepki xirurgiyalıq ámeliyatın ótkerip dunyamı ózine qarata alǵan. Ózbekistanlı Javohir Sindarov on eki jasında grossmeystrlık dárejesin qolǵa kirgizgen. Bul arqalı ol Aziyalı eń jas shaxmatshı sıpatında tariyxqa kirgen [7]. Jáne de úshinshi klastıń 7-8-betindegi ekinshi úshinshi temalar Jetiskenlik-háreket hám miynet nátiyjesi teması arqalı balalarǵa Jetiskenlikke qalay erisiledi? Sorawı arqalı balalarda hár túrli jetiskenlikke erisiw ushın ózinde bar bolǵan qábiletti júzege shıǵarsa boladı. [8]. Joqarıda keltirilgen temanıń ózide balalardıń kreativligin rawajlandırıw maqsetinde tańlangan temalardıń biri. Bunda 7-bettegi súwret arqalı balalardıń óz qolı menen jaratqan ideyaları, jaratılısları. Álbette bunday jetiskenlikke erisiw hár bir balanıń óz qolında ekenligine isenim oyanıwına túrtki esaplanadı.

Tórtinshi klasta ótiletuǵın Tárbıya sabaqlıǵınıń mazmunında tikkeliy balalardı keleshekte ózleriniń kreativ oylawı menen úlken-úlken jaratılıslarǵa sebepshi bolıwǵa iytermeliydi. Usı orında sabaqlıqta berilgen 30-31-bettegi 9- temadaǵı berilgen Watannıń bayraǵın bálent kóteriyik temasında berilgen jas boksshınıń miynetleri hám sol miynetiniń arqasında erisken jeńisi haqqında ayılǵan [9]. Bul bolsa balalarda keleshegimizdiń elede gúlleniwine úles qosıwǵa túrtki boları sózsiz. Jáne de balalardı miynetiniń arqasında bálent-bálent shıńlarǵa erisiwi tek ǵana ózinniń hareketi umtılwınıń nátiyjesine baylanıslı ekenligin ańlap jetedi.

Álbette bunday jaslardıń jetiskenligi balalarǵa jáne de kúsh jiger beredi olardan tásirengen halda alǵa umtıladı. Tárbıya sabaqlıǵınıń mazmunı balalarǵa hár tárepleme turmıstı tanıtıw, yaǵnıy qalay jasaw kerek, ómirde qanday insan bolıwı, jetiskenliklerge erisiw sırların úyretiwden ibarat. Usınday mazmundaǵı temalardan ilhamlanıp balalarda hár túrli ideyalar payda boladı. Bul ideyalar tuwrı jolǵa baǵdarlansa úlken-úlken joybarlar (proektler) payda boladı. Payda bolǵan jas izleniwshilerdiń ideyaları álbette keleshegimizdiń gúlleniwi ushın úles qosıwı sózsiz. Sebebi házirgi dáwir balalarında kreativ túrde oylaw eski dáwirdiń balalarına salıstırǵanda anaǵurlım joqarı rawajlangan. Usı orında prezidentimizdiń keyingi jas áwlatqa bolǵan itibarınıń joqarı ekenligin tómendegi qararlar tiykarında kórsek boladı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 3-maydaǵı PQ 4307-sanlı "Ruwxıy-aǵartıwshılıq jumıslardıń nátiyjeliligini arttırıw boyınsha qosımsha ilajlar haqqında" [10] ǵı qararınıń orınlanıwın támiynlew, sonday-aq, Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń 2019-jıl 31-dekabrdegi "Úzliksiz ruwxıy tárbiya koncepciyasını tastıyıqlaw hám onı ámelge asırıw ilajları haqqında" [11] ǵı 1059-sanlı qararınıń shıǵıwı bul millet keleshegi, millettıń mánawiy rawajlanıwı ushın ózine tán tariyxıy waqıya boldı. Bul koncepciya 8 bap hám ruwxıy tárbiyanıń úzliksizligin támiynlewge qaratılǵan 61 maqsetli hám mánzilli ilajlar rejesinen ibarat bolıp, onıń ámelge asırılıwı 4 basqıstıan ibarat boladı.

Bul koncepciyacyada prezidentimiz milliy rawajlanıwımız ushın eń zárúrli pazyiletler: Watanga sadıqlıq, isbilermenlik, ideologiyalıq immunitet, miyrim-shápáátlilik, juwapkershilik, keńpeyillik, huqıqiy mádeniyat, innovaciyalıq pikirlew, miynetkeshlik balalıqtan baslap basqıshpa-basqısh rawajlandırılıp barıladı dep atap ótken edi. Álbette koncepciyacyada berilgen pazyiletler házirgi zamanǵa say jaslardıń tárbiyalanıwında hár tárepleme xızmet etedi. Bunday pazyiletlerdiń rawajlanıwınıń tiykarǵı deregi shańaraq hám mektep esaplanadı. Shańaraqta alǵan jaqsı tárbiya mektep penen bekkem kópir esaplanadı. Sebebi balanıń tárbiyasında yaǵnıy joqarıda koncepciyacyada keltirilgen pazyiletler tek ǵana mektep penen emes shańaraq penen birge alıp barıladı.

Juwmaqlap aytqanda, tárbiya hár qanday jámiyet hám hár qanday mámleket turmısında sheshiwshi rol oynaydı. Sonlıqtanda baslawısh bilimlendiriwdegi tárbiya procesiniń mazmunı hám maǵanası balalardıń keleshektegi tabısları ushın tiykar bolıp xızmet etedi. Hár bir insannıń jámiyette óz ornın tabıwında, kámil insan bolıwında oǵan ilim eń tiykarǵı qural boladı. Bul gápimizdiń ayqın dáliylı sıpatında Tárbıya sabaqlıǵında berilgen hikmetli sózler menen tolıqtırsaq: Ilim shólistanda dos, ómir jollarında tayanış, jalǵızlıq waqıtlarında joldas, baxıtlı máwritlerde basshı, qayǵılı waqıtlarda

súyenish, adamlar arasında kórik, dushpanlarga qarsı gúreste qural bolıp tabıladı. İnsan dunyağa keliwden álbette onıń eń jaqın dostısı hám tuwrı jol kórsetiwshi ilim sanaladı. Sonlıqtanda ilim, bilim, tárbiya insannıń kórki esaplanadı.

ADEBIYATLAR

1. <https://joqargikenes.uz/qr/1199.html>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Compare: „definition of project in English from the Oxford dictionary“. *Oxford Dictionaries* (2016). — „Definition of *project* in English: [...] An individual or collaborative enterprise that is carefully planned to achieve a particular aim [...]“. 2012-yil 30-iyulda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2016-yil 6-sentyabr.
5. „What is a project? definition and meaning“. *BusinessDictionary.com*. — „project [:] [...] Planned set of interrelated tasks to be executed over a fixed period and within certain cost and other limitations.“. 2018-yil 9-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2018-yil 10-iyun.
6. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova “Tarbiya” novda Toshkent-2023 99-bet
7. Tárbiya 2-klass N.Ismatova hám basqalar.2020 Ğafur Ğulam atındaǵı baspa-poligrafıyalıq dóretiwshilik úyi, 2020 Qaraqalpaqshaǵa awdarma “Bilim” baspası
8. Tárbiya 3-klass D.Ro'ziyeva hám basqalar.Toshkent “SANO-STANDART” 2020
9. Tárbiya 4-klass Shermuxamedova Saodat, Akkulova Saodat hám basqalar. Toshkent “O'ZBEKISTON” 2020
10. <https://lex.uz/ru/docs/-4320700>
11. <https://lex.uz/docs/4676845>

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinf Ta'rbiya darsligi orqali o'quvchılarda loyhalar yaratish qobiliyatini shakillantirish masalalariga bag'ishlangan.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам формирования у учащихся умения создавать проекты посредством учебника начального образования.

Annotation. This article is devoted to the issues of forming students' ability to create projects through the primary education textbook.

Kalit so'zlar. kreativlik, ta'rbiya darsligi, pedagogik texnologiya, loyha, metod, maktab.

Ключевые слова. креативность, учебный учебник, педагогическая технология, проект, метод, школа.

Key words. creativity, educational textbook, pedagogical technology, project, method, school.

BASLAWISH BILIMLENDIRIWDE GEYMIFIKATSIYA OQITIW USILINAN PAYDALANIW

Zarimbetova G. K.

NMPI, Baslawish tálım kafedrası assistent oqıtıwshısı

Mámleketimizde búgingi kúnde oqıtıwshılar aldına oqıwshı -jaslarǵa bólek itibar qaratıw, olardı fizikalıq tárepten salamat, intellektual rawajlanǵan, ǵárezsiz pikir júritetuǵın, qábileti hám intellekti joqarı, turmıslıq kózqarasına iye, patriot shaxs etip tárbiyalaw, social aktivligin asırıw, dóretiwshilik hám intellektuallıq potencialın qollap-quwatlaw jumsların qoyıp atır. Ózbekstan Respublikası Xalıq tálimin 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepsiyasında “Oqıtıw usılların jetilistiriw, tálim-tárbiya procesine individuallastırıw principlerin basqıshpa-basqısh qollanıw: kishi jastan oqıwshılarda oqıwǵa qızıǵıwshılıq, kúshli hám tásirli motivatsiyanı qalıplestiriw hám de kásip tańlaw, kásiplik jetilisiwin ǵárezsiz joybarlaw, zamanagóy kásiplerdi iyelew qábiletin rawajlandırıw; zamanagóy sabaqlıqlar, oqıw- metodikalıq qollanbalar ushın informacion-kommunikaciya texnologiyalardan paydalanǵan halda multimedia jaratıw; Mámleketlik tálim standartlarında názerde tutılǵan kompetenciya hám oqıw procesin interaktiv basqarıw uqıbı principlerine tiykarlanǵan pedagogikalıq iskerlikti bahalaw kriteriyaların islep shıǵıw; oqıw múddetlerin ózgartirmegen halda oqıwshılar tárepinen ózlestiriw kompetentligin támiyinleytuǵın zamanagóy tálim texnologiyalarınan paydalanıwdı jetilistiriw” boyınsha qatar wazıypalar belgilep alınǵan.[1. 1]

Baslawish klass oqıtıwshıları óz tárbiyalanıwshılarının kewilli, sheklewlersiz turmıs tárizine úyrenip qalıwı, ne ushın sabaq dawamında ornınan turıp júriw, sóylesiw, oynaw múmkin emesligin jeterlishe anıq emesligi sonın menen birge ol ushın shegaralanǵan erkinlikler, májbúriyatlar stressti, jetiskenlikke erise almaǵan jaǵdaylarda bolsa depressiyanı keltirip shıǵarıwın jaqsı bileđi. Bul bolsa, balada oqıwǵa salıstırǵanda qızıǵıwshılıqtın sóniwi keleshekte onıń jaqsı kadr, barksamal shaxs bolıp jetilisiwine saldamlı tosıqtı keltirip shıǵarıwı múmkin.

Bala úyreniwge tayın, biraq basqasha formada. Balanın oqıw formasın ózgeritiw qálewi búgingi kúnde zamanagóy tálimdiń tendenciyaın belgilew múmkin. Jańa áwlad usınıń sebebinen kompyuter, telefon, social tarmaqlar, video oynlarǵa ǵárezlilik hám óz-ara kommunikaciya mashqalası payda boldı. Joqarıdaǵılardan kelip shıǵıp, bala oynawdı qáleydi, degen toqtamǵa keliw múmkin. Tálimniń wazıypası bolsa mine sol múmkinshilikti beriw bolıp tabıladı. Usınıń sebebinen baslawish klass oqıtıwshıları aldına tálimdi geymifikatsiyalaw máselesiniń qoyılıwı úlken áhmiyetke iye.

2011-jılı Oksford ingliz sózligi “gamification” sózin sózlikke qosdı. Ayırım xalıq aralıq sózliklerde bolsa bul sóz bir az aldın qollanıw kelinginenen derek beredi. Oǵan “oyın texnikası hám koncepsiyaların basqa tarawlarda qollanıw” dep túsindirme berilgen. Tálimdegi geymifikatsiya teoriiyası -kewil ashar shınıǵıwlar arqalı oqıwshılarda pánni úyretiw. Bunday oqıtıw procesinde oyınǵa tán elementlerden paydalanıladı. “Geymifikatsiya” jardeminde oqıwshını xoshametlew esesinde,

onıń mashqalaga sheshim tabıw sheberligin asıradı. Finances online elektron baspasınıń sıpatlama beriwinshi, izertlewlerde oqıwshılardıń 67% ı oınlar arqalı úyreniw dástúriy úyreniwden kóre olardı kóbirek nátiyje beriwin aytqan. Izertlewlerde cıfrlı oınlardan paydalanıw - oqıwshını bilimlendiriwge tiyisli ortalıqqa alıp kiriwi tastıyqlanğan. Tálimde oınlardıń kóbirek qollanıw, qatnasıwshını qızıqdırıwdıń interaktiv usılın usınıs etedi.

Tálimdi geymifikatsiyalawda oın maqsetlerin oqıw maqsetine salıstırǵanda ózgeshe tárizde qalıplestiriw maqsetke muwapıq boladı. Biraq, bul oqıw rejesine sáykes keletuǵın anıq temaǵa tiykarlanǵan bolıwı kerek. Mısalı, 3 klasta “Ana tili hám oqıw sawatqanlıǵı” sabaǵında “Ańqaw mergen” qaraqalpaq xalıq ertegin úyreniw sheńberinde tómendegishe maqset qoyıw hám onnan paydalanıw múmkin. “Siz tábiyat qorıqshısız hám siz hesh kimgе kórinbewińiz ushın jasırınıp alıwıńız kerek, onıń ushın bolsa basqa orın izlep tabıwıńız kerek. Siz tabatuǵın orında terekler kóp hám sizdi izlew ańshıǵa jeńillik tuwdırmawı kerek. Jasırın gúzetiwde sizge járdem beretuǵın orındı tabıń”. Maqsetti nátiyjede qoyıw baslawish klaslarda ertek mazmunın tereń úyreniw yaǵniy teoriyalıq materiyyallardı úyreniw imkaniyatın beredi. Ol jaǵdayda qatnasatuǵın obiektdir úyreniw, obiektdir atları hám xarakteristikası menen tanısıw arqalı qoyılǵan oın wazıypaların sheshiwı kerek boladı. Tálimdi geymifikatsiyalawda pútkil klass ushın xoshametlew sistemasin engiziw kerek. Bul bolsa oyındı nátiyjeli ámelge asırıw quralı retinde xızmet etedi. Xoshametlew retinde klastaǵı barlıq oqıwshılarda qosımsha bonus balların beriw yamasa muzey, dem alıw orınlarına balalar maydanshılarda ekskursiyalar shólkemlestiriw jaqsı nátiyje beredi. Málim bolıwınsha tálim procesi nátiyjesin támiyinlew ushın áwele, oqıwshılardıń individual qásiyetlerin esapqa alıw kerek. Tálim procesine oın usılların kirgiziw baslawish tálimdi shólkemlestiriwdiń dástúriy emes formalarına qızıǵıwshılıqtı asıradı jáne bul bolsa oqıwshılardıń intensiv óz-ara tásin, mashqalalardı sheshiwge standart bolmaǵan jantasıwlardan paydalanıwǵa shaqıradı.

Oınlarda tiykarlanǵan tálimdi dástúriy usıllar menen salıstırǵanda, ol úyreniwdiń jáne de nátiyjeli quralı ekenin ańlaw múmkin. Alıp barılıp atırǵan izertlew nátiyjelerine kóre, geymifikatsiya arqalı úyreniw oqıwshınıń ózine bolǵan isenimin 20 payızına shekem asıradı. Sonıń menen birge, cıfrlı oınlar arqalı úyreniw bilimderdiń saqlanıw dárejesin 90% ǵa, orınlanǵan tapsırmalar sanın bolsa 30% ǵa asıradı. Oın tiykarında úyreniw, sonıń menen birge, konseptual bilimderdi 11% ǵa hám ámeliy bilimderdi 20% ǵa jaqsılaydı. Sonıń menen birge, bunıń ayrıqsha jetiskenlikleri bar bolıp, oqıwshınıń kognitiv rawajlanıwına járdem beredi. Kognitiv rawajlanıwda járdem beriw ushın gamifikatsiyadan paydalanıw mıydır regionları aktivligin asırıp, jetkilikli dárejede rawajlanıwına múmkinshilik beredi. Kognitiv rawajlanıwdı kúsheytiw ushın arnawlı islep shıǵarılǵan oınlar kóbinese “mıy oınları” dep ataladı. Mıy oınları bargan sayın keń tarqalıp barıp atır, paydalanıwshı juwap beriwı yamasa sheshiwı kerek bolǵan túrli soraw hám máselelerge tiykarlanǵan. Mıy oınları mıydır informaciyanı qayta islew hám saqlaw tezligin jaqsılaytuǵın fizikalıq aktivlikte de talap etiwı múmkin. Klass oınları ádetde fizikalıq aktivlikte qollap-quwatlawı menen ayrıqsha bolıp kelgen. Partadan shıǵıp yamasa klastan tıs oınalǵanı ushın da, bilimlendiriwge tiyisli oınlar oqıwshılardı xoshametlendirgen hám ózine tartqan. Bul tárepti elektron oınlarda da engiziw múmkin. Interaktiv oın menen shınıǵıw orınlaw ádetdegi shınıǵıw sıyaqlı nátiyjeli bolıp tabıladı. Bul shınıǵıw forması video oın oynawdı jaqsı kóretuǵın, biraq házirde fizikalıq aktiv bolmaǵan óspirimlerde júdá paydalı boladı. Aktiv bolıwdıń uzaq múddetli paydaları kóp [2, 3]. Gemifikatsiyadan barlıq mıtajlikke iye bolǵan óspirimlerde tálim beriw quralı retinde paydalanıw múmkin. Ilimpazlar autizm kesellikti anıqlawı qoyılǵan talabalardı úyretiw ushın video oın formasında gamifikatsiyadan paydalanıw natıyjeliligini úyrenip shıǵıwdı. Bul izertlew nátiyjeleri bul metodtıń nátiyjeli ekenligin kórsetedi. [3. 2]. Sonıń menen birge, oqıw hám úyreniwge qosımshılıq etiwshi fizikalıq kemshiliklerden biri disleksiya bolıp tabıladı. Bul oqıw hám jazıw qábiletiniń ózgeriwı menen baylanıslı. Italiyadaǵı Padua universiteti hám de BosisioParini Medeya institutı ótkergen izertlew nátiyjelerine kóre, disleksiya menen awırǵan balalar oqıwǵa qıynalsada, olar video oınlar arqalı pánlerdi ózlestiriwge belsendi bolǵan. Gemifikatsiya arqalı oqıwshıǵa ishki xoshamet - motivatsiya beriw múmkin. Ishki motivatsiyaǵa iye bolǵan oqıwshı “ruwxıylıǵında tálim alıw ornına tuwılatuǵın isenim ushın, úyreniw ornına payda bolatuǵın ańlaw processinde kúsh alǵanı sebepli, maqsetke eriskenlik seziminen zayıq alıw ushın da oqıp – úyrenedi”[3. 4]. Oqıwshınıń ózlestiriwin túsirip jiberetuǵın faktorlardan biri óziniń uqıpsızlıǵınan qorqıwı bolıp tabıladı. Gemifikatsiya oqıwshılardıń uqıpsızlıq qaweterin azaytadı. Áwmetsizlik úyreniwdiń ajıralmaytuǵın bólegi bolıp tabıladı, biraq kóbinese klaslarında áwmetsizlik oqıwshı ushın qadırsızlıq hám uyat dáregi bolıp qaladı. On jaslı balanın bir neshe ret áwmetsizlikke dus kelgeni sonda da, video oınlardı qayta -qayta oynap atırǵanlıǵına gúwa bolǵan bolǵansız, sonday eken bul oınlar úyreniwdegi áwmetsizlik áqibetinde júzege keletuǵın qaweter hám de uyalıw sezimin ózǵertedi. Balalar úyreniw processinde tek ǵana áwmetsizlikti qabıl etip, taǵı hárezet etedi, bálkim qızıǵıwshılıqtı úyreniwdiń bir bólegine aylandıradı. Bunda baslawish klass oqıtıwshılarınıń iskerligi jetekshi rol oynaydı.

Gemifikatsiyadagi taǵı bir tárep- oınnıń dárejelerge bóliniwı hám keyingi basqısh ótiw procesi, sonıń menen birge, keyingi basqıshqa olardı ne kútip turǵanına salıstırǵanda qızıǵıwshılıq ta úyreniw ushın alǵa ilgerilewge shaqıradı.

Oın elementleriniń geymifikatsiyada qollanılatuǵın úsh qatlamı ámeldegi hám olar: dinamika, mexanika hám komponentlerdi óz ishine aladı. Hár bir mexanikalıq element bir yaki bir neshe dinamikalıq elementler menen, hár bir komponent bolsa bir neshe dinamikalıq elementler menen baylanısqan boladı. Hár bir dinamikalıq element, ulıwma súwretlengen dinamikanıń bir yamasa bir neshe bóleklerge erisiw jolı esaplanadı.

Solay etip, geymlashtirilgen tálim stul kompyuter oını emes (biraq kúrtı qollap -quwatlaytuǵın programmalıq támiynat ámeldegi bolsa, geyde oın qabıǵı sebepli júdá uqsas). Tálim dawamında oqıwshı da oqıw, da oın wazıypaların atqaradı. Mısalı, tárbiyanıń wazıypası sóylewdiń túrli usılların iyelew bolıp tabıladı; Oındıń maqseti - keyingi basqıshqa ótiw ushın arnawlı bir waqıt ishinde jazba tapsırmalar ushın 190 ball toplaw bolıp tabıladı. Bunnan tisqari, oqıw maqsetleri

mudamı üstün turatugın bolıp qaladı, oyın maqsetleri bolsa tek oqıw wazıypalarına ishki motivatsiyanı saqlap qalıwğa járdem beredi. Oyındı basqa oyın texnikaları menen salıstırğanda, Mario Xerger oyın texnikası hám oyın tájiriybesiniń basqa túrleri arasındaǵı shegaralardı anıq anıqlaw imkaniyatın beretugın diagrammanı usınıs etedi.[5] Salıstırıwlaw parametrleri retinde tómendegi ayırıqshalıqlar analiz etildi: belsendilik, qaǵıydalar hám maqsetlerdiń bar ekenligi, ishki struktura, haqıyqıy oyın maydanı hám izbe-izlik. Bul geymifikatsiyanı insan iskerliginiń bir túri retinde ózine tartatugındor etedi: túsiniikli, eriwiladigan hám qálegen maqset, bul maqsetke erisiw qaǵıydaları, maqsetke erisiwdiń basqıshpa-basqısh dúzilisi. Biraq oyın oyınshınıń háreketlerin oyın maydanına, qıyalıy haqıyqatlıqqa ótkeredi. Oynlarda biznes kóbinese haqıyqıy jaǵdayda júz boladı, biraq bul májburiy emes, biraq geymifikatsiya qılıw ushın zárúr. Saylangan saqna oyınlarına uqsas rol oyınları kózqarasınan geymifikatsiyaga keskin bolıp tabıladı. Rol oyını hám anıq belgilengen oyın maqsetine uqsaydı. Geymifikatsiya sahnada qaǵıydalar hám maqsetlerge iye yamasa real dúnyada payda boladı, ulıwma oyın sharayatında emes, bálki oyınshınıń barlıq háreketleri jazıp alınadı hám dúziledi. Oyın tálim iskerliginiń dúzilisi Bul eki ese zárúr, sebebi pútkil programma oqıtıw processinde málim. Qádemler dáwirlerge bóliniwi kerek hám hár bir dáwir kurs juwmaǵı esaplanadı. Óz maqsetine muwapıq bolıwı kerek. Taǵı bir bar atap ótiw kerek, geymlashtirilgan tájiriybelerde qatnasıwshı hesh qanday rol oynamaydı hám inglis tilin tek óz motivatsiyası hám ishki maqsetinden kelip shıǵıp úyreniwi múmkin. Juwmaqlap aytqanda, tálim procesin geymifikatsiyalaw baslawısh klass oqıtıwshıları aldına oqıwshılar motivatsiyası, qızıǵıwshılıǵın arttırıp ǵana qalmaq, Mámleket Tálim Standartlarında belgilengen bilim, kónlikpe, ilmiy tájiriybe hám kompetenciylarǵa erisiw usılların, sabaqta baslamashılıq kórsetiw, pıdayılıq qılıw toparlardaǵı óz-ara unamlı hám bákili ortalıqtı júzege keltiriwdi názerde tutadı. Sonıń menen birge, baslawısh klass oqıtıwshıları oqıwshılar oy-órislerin ashıq ayta alıwlarına, hár qanday psixologiyalıq basımın bolmawına hám sherikliktegi, shaxsqa baǵdarlangan tálim ortalıǵın támiyinlewge járdem beredi.

ÁDEBIYATLAR

1. Ózbekstan Respublikası Xalıq tálimi sistemasın 2030 jılǵa shekem rawajlandırıw Kontseptsiyası// Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 29. 04. 2019 jılǵa PF-5712-san Pármanı.
2. Ózbekstan Respublikası Konstitusiyası <https://lex.uz/docs/6445145>
3. A. I. Kuramshin, Periodicheskiy zakon / D. I. Mendeleyev - M.: AST, 2018
4. Russler, N.: Gamification in inklusivem E-Learning. Master Thesis. Humboldt-University Berlin.
5. <https://www.realinfluencers.es/en/2019/05/09/8-21-st-century-methodologies/>

Kalit so'zlar: Geymifikatsiya, intellektual, kognetiv, motivasiya.

Ключевая слова: Геймификация, интеллектуал, когнетив, мотивация.

Key words: Gamification, intellektual, kognetiv, motivasiya.

Tayamish so'zler: Geymifikatsiya, intellektual, kognetiv, motivasiya.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich o'quvchilar adaptatsiyasi va bilimi darajasini oshirish, o'yin shaklida ta'lim va hayotni o'zaro uyg'unlashtirishga doir ishlar olib borish zaruriyati va zamonaviy geymifikatsiyalardan foydalanishda, o'quvchilarga o'z saviyasini oshirish, jamoada ishlash va real dunyo bilan o'zaro bog'liq bo'lgan qobiliyatlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость повышения уровня адаптации и знаний начинающих школьников, необходимость проведения работы по взаимной гармонизации обучения и жизни в игровой форме, а также использование современных геймификаций, позволяющих учащимся повысить свой уровень знания, работать в команде и приобретать навыки, связанные с взаимодействием с реальным миром.

Annotation: The article deals with the need to improve the level of adaptation and knowledge of primary school pupils, the need to carry out work on the mutual harmonization of education and life in the form of a game, and the use of modern gamifications, the opportunity to improve intellectual level, work in a team and acquire skills that are interconnected with the real world

Annotatsiya: Maqalada baslang'ish oqıwshılar adaptatsiyası hám bilimi dárejesin asırıw, oyın formasında tálim hám turmıstı óz-ara uyqaslastırıwǵa tiyisli jumıslar aparıw zárúrshiligi hám zamanagóy geymifikatsiyalardan paydalanıwda, oqıwshılarǵa óz dárejesin asırıw, jámaátte islew hám real dúnya menen óz-ara baylanıslı bolǵan qábiletlerdi iyelew múmkinshiligin beredi.

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

¹Izetaeva G. K., ²Muxiyatdinova G. K.

²Nukus innovatsion instituti

¹Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Dolzarbli: Bugungi kunda axborot texnologiyalari (AT) ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, fanlarni, jumladan, matematikani o'qitish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Zamon talabiga muvofiq, ta'lim tizimi yangi metod va vositalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini innovatsion yo'llar bilan rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Matematika-mantiqiy fikrlash va analiz qilish qobiliyatini rivojlantiradigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Lekin an'anaviy usullarda ushbu fanni o'qitish ko'pincha murakkab va qiziqarsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu bois, axborot

texnologiyalaridan foydalanish matematika o'qitishni interaktiv, vizual va oson tushuniladigan tarzda tashkil etish imkonini beradi.[1]

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi bir necha muhim muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- ✚ **Abstrakt tushunchalarni aniq tushuntirish** -3D modellar, simulyatsiyalar va dinamik vizualizatsiyalar yordamida.
- ✚ **O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash** -interaktiv platformalar va multimedia resurslar orqali.
- ✚ **Muammoli masalalarni yechish ko'nikmasini rivojlantirish** -algoritm lashtirish va modellashtirish usullari orqali.
- ✚ **Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini oshirish** – onlayn darslar, virtual laboratoriyalar va test tizimlari orqali.

Bunday yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki ularning qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamlashuv jarayonida ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, matematika fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qilishga yordam beradi. Traditsion usullar bilan birga interaktiv vositalar, virtual platformalar va ta'limiy dasturiy ta'minotlar qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish imkonini beradi.[2]

Matematika – aniq fan bo'lib, uning asosiy vazifasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni tahlil qilish va yechim topishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda axborot texnologiyalari muhim vosita bo'lib, elektron darsliklar, matematik modellashtirish va onlayn simulyatsiyalarning qo'llanilishi o'quvchilar uchun o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalari, mobil ilovalar va veb-platformalar orqali o'qitish fanni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining matematika ta'limida qo'llanilishi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va tahlil qilish malakasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu mavzuni tadqiq qilish va uning samaradorligini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.[3]

Tahlil: Axborot texnologiyalari (AT) ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlarni yaratib, matematika fanini o'qitishni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu bo'limda AT vositalaridan foydalanishning afzalliklari, ularning o'quvchilar bilimiga ta'siri va mavjud kamchiliklari tahlil qilinadi.[2.3]

1. Axborot texnologiyalarining afzalliklari

Matematika fanini o'qitishda qo'llanilayotgan AT vositalari bir necha jihatdan samaradorlikni oshiradi:

- **Vizuallashtirish va tushunishni osonlashtirish:** GeoGebra, Desmos kabi vositalar geometriya va algebra bo'yicha dinamik grafiklar yaratishga yordam beradi. Bu o'quvchilarga abstrakt tushunchalarni real ko'rinishda tasavvur qilish imkonini beradi.

- **Ilg'or mashg'ulot va interaktiv o'qitish:** Virtual laboratoriyalar va onlayn test platformalari (Khan Academy, Coursera, EdX) o'quvchilarning bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlash imkonini yaratadi.

- **Personallashtirilgan ta'lim:** Onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle) o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda dars materiallarini taqdim etadi.

- **O'qitish jarayonining samaradorligini baholash:** Axborot texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida o'quvchilar natijalarini kuzatish va tahlil qilish mumkin.

2. Axborot texnologiyalarining o'quvchilar bilim darajasiga ta'siri

AT vositalaridan foydalanish natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi:

- ✓ **Muammoli masalalarni yechish ko'nikmasi oshadi** – Masalan, MATLAB va Wolfram Alpha kabi dasturlar murakkab matematik hisob-kitoblarni osonlashtiradi.

- ✓ **Fanga bo'lgan qiziqish kuchayadi** – Animatsiya va simulyatsiyalar o'quvchilarni dars jarayoniga faolroq jalb etadi.

- ✓ **Mustaqil o'rganish ko'nikmasi shakllanadi** – Onlayn kurslar va test platformalari o'quvchilarga o'z vaqtida va xohishiga ko'ra o'rganish imkonini beradi.

- ✓ **Ta'lim sifati oshadi** – Interaktiv ta'lim uslublari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning qo'llanilishida ba'zi cheklovlar ham mavjud:

- ✗ **Texnik muammolar** – Barcha ta'lim muassasalarida zarur uskunalar va internet tezligi yetarli darajada emas.

- ✗ **O'qituvchilarning tayyorgarligi** – Barcha pedagoglar ham yangi texnologiyalardan samarali foydalanishga tayyor emas.

- ✗ **O'quvchilarning ongli ravishda foydalanishi** – Axborot texnologiyalari yordamida ta'lim olayotgan o'quvchilardan o'zini o'zi nazorat qilish va intizom talab qilinadi.

AT vositalarining matematika o'qitishdagi tahlili

Ustun (Kategoriya)	Katak (Subkategoriya)	Taxminiy samaradorlik (0-100%)
--------------------	-----------------------	--------------------------------

Afzalliklar	Vizuallashtirish	85%
	Interaktiv o'qitish	80%
	Personallashtirilgan ta'lim	75%
	Samaradorlikni baholash	90%
O'quvchilarga ta'siri	Muammoli masalalarni yechish	80%
	Fanga qiziqish	85%
	Mustaqil o'rganish	75%
	Ta'lim sifati	90%
Muammolar	Texnik muammolar	60% (cheklov darajasi)
	O'qituvchilar tayyorgarligi	55% (cheklov darajasi)
	O'quvchilar intizomi	50% (cheklov darajasi)

Keltirilgan tahlilga asosanib, muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif etish mumkin.

1. Texnik muammolar (60%)

- Barqaror internet va zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash.
- Dasturiy ta'minotni tez-tez yangilash va texnik qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish.
- Qo'shimcha alternativ platformalarni ishlab chiqish yoki mavjudlaridan foydalanish.

2. O'qituvchilar tayyorgarligi (55%)

- Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarga malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Onlayn va interaktiv o'qitish usullarini o'zlashtirish uchun amaliy seminarlar o'tkazish.
- Ta'lim platformalarida ishlashni soddalashtirish va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash.

3. O'quvchilar intizomi (50%)

- Onlayn darslar uchun qat'iy qoidalarni belgilash va rag'batlantirish tizimini joriy etish.
- O'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv materiallar tayyorlash orqali ularni faolroq jalb qilish.
- Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligini oshirish orqali nazoratni kuchaytirish.

Xulosa: Bugungi kunda axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o'qitishning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bilimlarni vizuallashtirish, interaktiv va personallashtirilgan o'qitish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish, muammoli masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Matematika darslarida axborot texnologiyalari qo'llanilganda, kompyuter dasturlari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya va grafik vositalar orqali o'quv materiallari tushunarliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Masalan, geometriyada 3D modellash tirish yordamida shakllar va ularning xususiyatlarini interaktiv ko'rinishda tahlil qilish mumkin. Shuningdek, algoritmlashtirish va kodlashtirish elementlarini matematika ta'limiga joriy etish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytirishga yordam beradi [4]. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning yana bir muhim jihati — ta'lim jarayonini samarali baholash imkoniyatidir. Test tizimlari, onlayn platformalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali o'quvchilarning bilim saviyasini tez va aniq aniqlash mumkin. Bu esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga mos o'qitish strategiyasini tanlash imkonini beradi [5].

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini ta'limda joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, texnik vositalarning yetarli emasligi, internet sifatining pastligi va ayrim o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va o'quvchilar intizomini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifati va o'quvchilarning bilimini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. To'g'ri yondashuv va innovatsion metodlarni joriy etish orqali bu imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. **Курбонова.** "Математика ўқитишда электрон ресурслардан фойдаланиш методикаси" Ташкент 2018, "Ахборот технологиялари асосида математик таълимни ривожлантириш" ташкент 2020.
2. **Юсупов А.** "Математика ўқитишда симуляция технологияларининг ўрни" ташкент 2013, "Ахборот технологиялари асосида математик моделлаштириш" ташкент 2023.
3. **Рахимова Н.** "Мобиль технологиялар орқали математика ўқитишнинг янги усуллари" т.2021, "Интерактив дастурлар ёрдамида математик тушунчаларни ўргатиш" т.2017.
4. **Саидов Ф.** "Қорақалпоғистонда математика таълимида ахборот технологияларини қўллаш", "Электрон таълим ресурслари ва ularning математик таълимдаги аҳамияти".

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Maqolada virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, multimedia vositalar va interaktiv ta'lim platformalarining o'quv jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, an'anaviy va innovatsion metodlarning solishtirma tahlili asosida axborot texnologiyalarining o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni baholanadi.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования информационных технологий в процессе преподавания математики. В современной системе образования информационные технологии играют важную роль в организации эффективного процесса обучения студентов. В статье рассматривается влияние виртуальных лабораторий, электронных учебников, мультимедийных средств и интерактивных образовательных платформ на учебный процесс. Кроме того, на основе сравнительного анализа традиционных и инновационных методов оценивается роль информационных технологий в развитии логического мышления учащихся.

Annotation: This article analyzes the effectiveness of using information technologies in the teaching of mathematics. In the modern education system, information technologies play a crucial role in organizing an efficient learning process for students. The article examines the impact of virtual laboratories, electronic textbooks, multimedia tools, and interactive learning platforms on the educational process. Additionally, based on a comparative analysis of traditional and innovative methods, the role of information technologies in developing students' logical thinking is assessed.

Kalit so'zlar: matematika o'qitish, axborot texnologiyalari, interaktiv ta'lim, ta'lim samaradorligi, elektron resurslar.

Ключевые слова: преподавание математики, информационные технологии, интерактивное обучение, эффективность обучения, электронные ресурсы.

Key words: mathematics teaching, information technology, interactive learning, learning efficiency, electronic resources.

JISMONIY MASHQLARNING O'SMIRLAR ORGANIZMIGA TA'SIRINING FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Utebergenov A. K., Bekmurzaev A. K.

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Hozirgi kunda maktablarda innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, sinflar kompyuterlar, elektron resurslar, internet bilan ta'minlanmoqda. Zamonaviy bolalar o'z hayotlarini kompyutersiz tasavvur qila olmaydilar. Shunday qilib, ular o'zlarining hayotiy faoliyatini rag'batlantirishning eng muhim funksiyasini yo'qotadilar: jismoniy yuklamalar, bu birinchi navbatda asab-hissiy zo'riqlashlarni keltirib chiqaradi va mushak tizimiga ta'sir qiladi: mushaklar atrofiyaga uchraydi, suyaklar yumshaydi, bu esa bolaning qaddi-qomatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Harakat faoliyatining cheklanishi yurak-qon tomir tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi, gormonal zaxiralar kamayadi, bu esa organizmning umumiy moslashuvchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Bunday sharoitlarda insonning emotsional zaifligi sezilarli darajada oshadi, psixofiziologik ko'rsatkichlar yomonlashadi. Bularning barchasi to'laqonli dam olishga, uyquga, ovqat hazm qilishga xalaqit beradi.

Muntazam jismoniy faollik sog'liq uchun katta foyda keltiradi. Bolalar va o'smirlar uchun jismoniy faollik yurak-nafas va suyak-mushak tizimining jismoniy holatini, kognitiv ko'rsatkichlarni yaxshilashga yordam beradi, o'smirlar o'rtasida stress darajasini pasaytirishga yordam beradi [1, 2]. Bolalar va usmirlar organizmi, o'sib borayotgan organizmda tug'ilishdan boshlab balog'atga etguncha bo'ladigan hayotiy funktsiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. O'sish va rivojlanish organizmning a'zo va tizimlarining individual rivojlanish qonuniyatlarini – ontogenezning turli davrlarida taqqoslab o'rganadi. Bugungi kunda o'smirlik davrida haddan tashqari jismoniy faollik (sport bilan professional shug'ullanish) yoki sport mashg'ulotlarini noto'g'ri tashkil etish bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud bo'lib, bu jarohatlar, charchoq, psixo-emotsional noqulaylikka olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi [3, 4, 5]. Maktab o'quvchilarining kasallanish tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, maktabda o'qish davrida tayanch-harakat tizimi buzilishlarining tarqalish darajasi ortadi. Tadqiqotchilarning fikricha, o'smirlik davrida mo'tadil jismoniy faollik tayanch-harakat tizimi salomatligini, mushak tayyorgarligini saqlash va mustahkamlash imkonini beradi [6, 7, 8]. Shu bilan birga, obyektiv usullardan foydalangan holda jismoniy faollikning asab tizimining funksional holatiga ta'sirini ko'rsatadigan ma'lumotlar yetarli emas. Shunday qilib, jismoniy faollik bilan bog'liq omillarning o'smirlarning tayanch-harakat tizimi buzilishi belgilarining paydo bo'lishiga, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga, asab tizimining funksional ko'rsatkichlariga va aralashuv oqibatlariga ta'sirini ko'rsatadigan tadqiqotlarni o'tkazish zarur [9].

Ontogenez ikkita rivojlanish bosqichiga – prenatal va postnatal davrlarga bo'linadi. Individual rivojlanish qonuniyatlariga doimiy o'sish va rivojlanish, o'sish va rivojlanish geteroxroniyasi hamda rivojlanish akseleratsiyasi va retardatsiya holatlari kiradi. Qayd qilingan davrlarni bir – biridan o'ziga xos belgilari bilan ajratish mumkin. Yosh davrlarini gavda o'lchamlari, proporsiyalari va shakllari bo'yicha, skeletning suyakka aylanish darajasi, umurtqa pog'onasining shakli, o'sib chiqqan tishlar soni, muskullar va endokrin tizimlar funktsiyasining nechog'lik takomillashganligi, teri osti yog' to'qimalarining rivojlanganligi kabi bir qator anatomo – fiziologik belgilar asosida aniqlab olish mumkin.

Hozirgi paytda amaliy pedagogika va gigienada bolaning yosh davrlari quyidagicha belgilanadi:

1. bog'cha yoshigacha bo'lgan bolalar – 3 yoshgacha;
2. maktab yoshigacha bo'lgan bolalar – 3 dan 7 yoshgacha;
3. maktab yoshidagi bolalar – 7 yoshdan 18 yoshgacha;
- a) kichik maktab yoshidagi bolalar – 7 yoshdan 11 yoshgacha;
- b) o'rta maktab yoshidagi bolalar – 11 yoshdan 14 yoshgacha;
- v) katta maktab yoshidagi bolalar – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga bo'y uzunligi, tana massasi (vazn), bosh aylanasi, ko'krak qafasi aylanasi va boshqa ko'rsatkichlar kiradi. Jismoniy rivojlanishni baholash uchun maxsus me'yorlar asosida tuzilgan jadvallardan

foydalaniladi. Jadvallarda bolaning yoshi jinsiga qarab, tana vazni, bo'y uzunligi ko'krak qafasi uzunligi o'rtacha qilib olingan holda berilgan va bu ko'rsatkichlar bolalardan olingan sonlar bilan taqqoslanib, xulosa chiqariladi. Jismoniy rivojlanish o'sib kelayotgan organizm sog'lig'ining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va ikki ma'noni beradi: birinchisi organizmning etilish, shakllanish jarayonlari va bu ko'rsatkichlarning biologik yoshga mosligini ta'riflash, ikkinchisi esa har qaysi vaqt oralig'ida morfo – funktsional holatini tasniflaydi.

Hozirgi vaqtda bolalar jismoniy rivojlanishini o'rganishda morfo – funktsional xususiyatlarga asoslanib qolmay. Organizmning biologik rivojlanish darajasi ham aniqlanadi.

Organizm o'sishi va etilishi jarayonlarini tasniflovchi, uning morfologik va funktsional xossalari yig'indisi hisoblanadi. Organizmning jismoniy rivojlanishi biologik qonunlarga bo'ysunadi hamda o'sish va rivojlanishining umumiy qonunlarini o'zida aks ettiradi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining o'zgarish yoshga bog'liq bo'lib, bola qancha yosh bo'lsa, ko'rsatkichlar shuncha yuqori bo'ladi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari jinsga, ijtimoiy sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi. Bunga mamlakatimiz va chet ellik olimlarning ko'pgina tekshiruvlari dalildir. Jismoniy rivojlanish sog'liqning muhim bir ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi va u yashash sharoitiga, o'sib kelayotgan avlod tarbiyasiga bog'liq bo'lib sog'lomlashtirish muolajalari samaradorligini nazorat qilishning ob'ektiv usuli bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy rivojlanishning funktsional ko'rsatkichlari yosh me'yori bilan solishtirib baholanadi. Tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi va bo'y o'rtasidagi nisbatlarga qarab, jismoniy rivojlanish garmonik (me'yoriy), disgarmonik yoki yuqori darajali disgarmonik turlarga bo'linadi.

Me'yordan ortiq va me'yordan kam bo'lgan yuklamalar ham jismoniy, ham aqliy ish qobiliyatini pasaytiradi.

Ish qobiliyatining 3 ta bosqichi: 1) ishga kirishish, 2) yuqori ishchanlik holati, 3) charchash darakchisi bo'lmish ish qobiliyatining pasayishi ajratiladi. Faoliyatni sezilarli charchash yuzaga kelgan davrda emas, balki charchashning boshlang'ich bosqichida, ya'ni organizm funktsiyalarining kompensator o'zgarishi bosqichida to'xtatish zarur.

Rivojlanayotgan charchash yuklamaga nisbatan organizmning tabiiy javobidir. So'ngra esa faoliyatni tiklovchi va uning bu holatini mustahkamlovchi dam olish davriga vaqt ajratish lozim. Bolalardagi barqarorlik, yuqori ishchanlikning davomli bo'lishi dastavval ularning yoshi, salomatlik holatiga, tashqi muhitning gigienik sharoitlariga, bajarilayotgan ishga bo'lgan munosabatga hamda kayfiyatiga bog'liq bo'ladi. Undan tashqari, gigienik tadqiqotlar har bir bolaning ish qobiliyatida o'ziga xos o'zgarishlar bo'lishini ham ko'rsatadi.

Tekshiruvlarda shu narsa aniqlandiki, 1 smenada o'qiydigan bolalarda charchash II smenada o'qiydiganlarga nisbatan qamroq bo'ladi.

Bolalar va o'smirlar gigienasi ilmiy tekshirish institutida o'tkazilgan kuzatishlarda kun davomidagi ish qobiliyatining o'zgarishi 3 toifaga ajratiladi:

1) Ijobiy (yaxshi) tomonga o'zgarishi (ish qobiliyatining ortishi yoki bir muncha pasayishi): 2) Qoniqarli ish qobiliyati (ish qobiliyatining faqat kechki paytga borib pasayishi yoki uning goh pasayib, goh ko'tarilishi): 3) salbiy (yomon) tomonga o'zgarishi (ish qobiliyatining tez va keskin pasayishi, uzoq vaqt sust darajada bo'lishi).

Ish qobiliyati kun, hafta va yil davomida davriy ravishda o'zgaradi. Deyarli hamma hollarda ham hafta va o'quv yilining oxirida ish qobiliyatining pasayishi, charchash yuzaga keladi. Aqliy mehnatni gigienik me'yorlashtirishda organizmning kun va hafta mobaynida o'zgarib turuvchi fiziologik funktsiyalarini, ish qobiliyatining davriyligini e'tiborga olish zarur. Agar hayot tarzi shu organizm uchun xos bo'lgan ritmlarga mos tushsa, faoliyat yuqori va unumli bo'ladi.

O'rta va janubiy mintaqada yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarda 3 xil hayot tarzi turi aniqlangan. Bolalarning ko'pchiligida kun davomida funktsional ko'rsatkichlar kunning birinchi va ikkinchi yarmida ikki marta ko'tarilishi kuzatilgan, bolalarning bir qismida esa fiziologik ko'rsatkichlarning kun o'rtasida ko'tarilishi aniqlangan.

Maktab yoshidagi bolalarda fiziologik funktsiyalarning faol holati aniq bir vaqtga bog'liq bo'lmaydi. Organizm bioritmilarining quyidagi: shartli ertalabki, shartli kechki va aritmik turlari taklif etilgan. Markaziy Osiyodagi bolalarning 40% i shartli kechki 40% i aritmik faollikka egaligi aniqlangan, qolgani esa ertalabki faol bioritmga ega.

Bularning hammasi faoliyat turlari, mashg'ulotlar, dam olish va mehnat tartibini o'sib kelayotgan organizm bioritmining o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda gigienik me'yoriylashtirish lozimligidan dalolat beradi.

Charchashning oldini olishda va ish qobiliyatini oshirishda individual xususiyatlarni va biologik yoshni ham nazarda tutish kerak. O'g'il va qiz bolalar organizmi orasidagi jinsiy tafovutlarga asoslangan xususiyatlarni ham inobatga olish zarur. Surunkali kasalliklar bilan kasallangan kamquvvat, nimjan bolalarning funktsional imkoniyatlari sog'lom bolalarga nisbatan kamroq bo'lishi ma'lum. Charchashning oldin olishning eng qulay usuli – aqliy va jismoniy faoliyatlarni almashtirib turish yoki faol dam olish hisoblanadi. Faol dam olish passiv dam olishga nisbatan unumli bo'ladi, chunki markaziy nerv tizim funktsional holatining tiklanishi bunday vaziyatda to'laroq namli bo'ladi. Shuning uchun bolalarning kun tartibini tuzishda bu qonuniyatni e'tiborga olish lozim.

Kun tartibi bu tunu kun davomida vaqtni ish, o'qish va dam olishga yosh hamda salomatlik holatin e'tiborga olgan holda to'g'ri taqsimlashdir. Kun tartibi bola haltini to'g'ri yo'lga qo'yadigan va doimo bajarilish lozim bo'lgan qiladidir.

Kun tartibini tuzishda qo'yidagi qoidalarga amal qilish lozim: 1) turli xil faoliyatlar, ularning eng ma'qul davomiyligini, bir – biri bilan navbatlashuvi va vaqtini aniqlash; 2) dam olish vaqtini iloji boricha ochiq havoda tashkil etish; 3) o'z vaqtida sifatli ovqatlanish; 4) gigienik sifatli uyquga sharoit yaratish.

Kun tartibida jismoniy va aqliy mehnat, ovqatlanish, o'qish, uyquning muntazam ravishda ma'lum bir muddatda amalga oshirilishi shu holatlarning malaka darajasida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Kundalik aniq tartib sog'liqni

mutahkamlashga yordam beradi. Turli faoliyat jarayonlarini (o'qish, ishlash, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish, uyqu, gigienik muolajalar) muayyan bir vaqtda o'tkazgan ma'qul. Aniq rejim tufayli turli faoliyatlarda organizm me'yoriy yuklamani his etadi. Sarflangan kuch tezroq va to'liqroq tiklanadi, bola kamroq charchaydi. Faol harakatchanlik organizmni mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bolalarning uyda, maktabda va darsdan tashqari paytlarda yurish – turishini kuzatib, tegishli tuzatishlar kiritish, yoshi jinsi va ob – havo sharoitlariga qarab tegishli darajada va miqdorda jismoniy tarbiya va sport mashqlari bilan shug'ullanishi yoki ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishi ularda chiroyli, me'yoriy qaddi – qomatni shakllantiradi, bu holat esa o'z navbatida ko'pgina kasalliklar va etishmovchiliklarning oldini olishda ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib kun tartibida jismoniy va aqliy mehnat bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlariga, manaviy choratadbirlarga, bolalarning ko'proq toza havoda, tabiiy manzaralarda bo'lishga alohida vaqt ajratgan ma'qul.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. –Toshkent.2005
2. Koshbaxtiyev I. A, Kerimov F. A, Axmatov M. S. Valeologiya asoslari. –Toshkent.2005
3. Kurbonov Sh. Kurbonov A. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. –Toshkent.2003
4. Safarova D. D. Odam anatomiyasi. –Toshkent.2005
5. Sodiqov K.S. «O'quvchilar fiziologiyasi va gigienasi» –Toshkent «O'qituvchi» 1992.
6. Usmonxodjaev T.S. va boshqa. Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari. –Toshkent, 2005 y.
7. Xodjaboev A.R. Kasbiy talimning metodologik asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent., 2007. – 177 b.
8. Xalilov E. X., Zaynabiddinov A. E., Xushmatov Sh. S. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi. –Andijon -2019.y
9. Allamutatov Sh.I.Fiziologiya va sport fiziologiyasi. –Toshkent. «Turon-Iqbol» 2010.

Jismoniy mashqlarning o'smirlar organizmiga ta'sirining fiziologik xususiyatlari

Rezyume. Maqolada bolalar va o'smirlar organizmi, o'sib borayotgan organizmda tug'ilishdan boshlab balog'atga etguncha bo'ladigan hayotiy funktsiyalari hamda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy rivojlanish, ontogenez, yuklama, gigiena, bioritm, fiziologik funktsiya.

Физиологические особенности влияния физических упражнений на организм подростков

Резюме. В статье описаны организм детей и подростков, жизненные функции и показатели физического развития, происходящие в растущем организме от рождения до взрослой жизни.

Ключевые слова: Физическое развитие, онтогенез, нагрузка, гигиена, биоритм, физиологическая функция

Physiological features of the influence of physical exercises on the body of adolescents

Resume. The article describes the body of children and adolescents, vital functions and indicators of physical development that occur in a growing body from birth to adulthood.

Key words: Physical development, ontogenesis, load, hygiene, biorhythm, physiological function.

UO*K: 378.147.227(612.311.1)

XXI ASR – VALEOLOGIYA ASRI

Kamoliddinova I. Sh.

Qo'qon universiteti Andijon filiali

XXI asrda tibbiyot va jamiyat rivojida valeologiya fanining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Valeologiya insonning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va tiklash qonuniyatlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish bo'lib, uning asosiy vazifasi sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va salomatlik madaniyatini shakllantirishdir. Hozirgi zamon ekologik, ijtimoiy va texnologik muammolar bilan bir qatorda odamlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda valeologiya sog'liqni saqlash tizimida asosiy ilmiy yo'nalish sifatida quyidagi sabablar bilan ahamiyat kasb etmoqda. Valeologiya kasalliklarni davolashdan ko'ra, ularning oldini olishga ko'proq e'tibor qaratadi. Har bir insonning salomatligini individual tarzda saqlash va mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi. To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish va zararli odatlardan voz kechish borasida aholiga bilim va ko'nikmalar beradi.

Valeologiya va XXI asr stomatologiyasi. Valeologiya stomatologiyada ham muhim o'rin egallaydi. Bu fan stomatolog shifokorlarga bemorlar orasida og'iz bo'shlig'i salomatligini saqlash, kasalliklarni oldini olish va gigienik madaniyatni shakllantirish bo'yicha ko'nikmalarni beradi. Valeologik yondashuv tish gigienasi va sog'lom odatlarni targ'ib qilishni, bolalar va kattalarda og'iz bo'shlig'i gigienasi bo'yicha motivatsiyani oshirishni, fluor profilaktikasi va tish kariyesining oldini olish bo'yicha individual va ommaviy chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'rganadi.

Valeologiya – bu mustahkam salomatlik, ya'ni sog'lom, jismoniy va aqlan baquvvat avlod barpo etish ustida qayg'urish, ma'naviy-iymonli, intellektual yetuk odam bo'lish va barakali-uzoq umr ko'rishlik demakdir.

Valeologiya – bu bo'lg'usi sog'lom odamni paydo qilishlik, uzoq umr ko'rishlik va ma'naviy-iymonli, barkamol, intellektual odamni yetishtirishlik ustida qayg'urishlik demakdir. Shuning uchun ham mashhur valeolog, professor G.L.A. Panasenkonning fikricha, “XXI asr valeologiya asri” bo'lib qoladi.

Valeologiya salomatlik yoki qanday qilib sog'lom bo'lish haqidagi fandir [1]. Gipppokrat va Abu Ali ibn Sino o'z davrida kasallik va salomatlikdan boshqa yana o'tish davrini "Uchinchi holat" deb atashgan. Abu Ali ibn Sino 1000 yil oldin "Sog'lom kishilarning sog'ligi" to'g'risida asar yozgan va uning ahamiyati hozirgi kunda ham nafaqat saqlanib qolgan, balki eng muhim va eng dolzarb masala deb, dunyo olimlari tomonidan tan olinmoqda. S.M.Pavlenko va S.F.Oleyniklar salomatlik mexanizmi va unga ta'sir etish usullari haqida gapirishgan hamda ushbu fikrlar XX asrning 60-yillari oxirida "Sanalogiya" atamasini vujudga keltirishdi. Ammo bunday qarashlar 20 yildan ko'p davr ichida butunlay esdan chiqarildi. N.M.Amosov o'zining "Salomatlik haqida o'ylar" nomli kitobida [2] "Salomatlikning salmog'i" atamasi, ya'ni organizmning zahiradagi kurashuvchi imkoniyati to'g'risidagi fikrni aytdi. I.I.Brexman [3] 1987-yilda "Valeologiyaga muqaddima – salomatlik haqidagi fan" nomli monografiyasini chop ettirib, valeologiya fanining asoschisi bo'lib qoldi. So'ngra ushbu fanning markazi Kiuyev bo'ldi va birinchi bo'lib, sport sohasidagi tabobat yo'nalishida shaxsning sog'lig'iga somatik baho berish modeli G.A.Apanasenkov tomonidan 1985-yilda yaratildi. 1989-yilda birinchi bo'lib, fiziologiya kafedrasida, professor V.P.Kulikov (Barnaul) yaratgan o'quv qo'llanma asosida ma'ruza o'qidi. 80-yillarning oxirida esa Yu.P.Lisitsin bir necha maqolalari bilan "Sanalogiya" atamasini "tiriltirdi". Ularning mazmuni "Hayot mazmuni"dan iborat

Valeologiya nima? Valeologiya *lotincha* "valeo" so'zidan olingan bo'lib, salomatlik, assalomu alaykum, "ya'ni o'ng qo'l kaftini yurak ustiga qo'yib, Sizga chin dildan sihat-salomatlik tilayman" degan ma'noni anglatadi [4].

Valeologiya atamasi *lotinchadan* "valeo" - "sihat-salomatlik", "sogdom bo'lmoq" va yunoncha "logos" - "tadimot" "fan" so'zlaridan kelib chiqqan hamda tibbiyot fanida XX asming 80- yillarida professor I. I. Brexman (1982) tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtda mazkur atama fanda - fundamental va zaruriy bo'lib, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan avlodni o'qitish, tarbiyalash, profilaktik ishlash, davolash psixofizik reabilitatsiyaga o'zini bag'ishlamog'chi bo'lgan kishilar uchun zaruriy tarzda namoyon bo'ldi.

Valeologiya fanlararo ilmiy yo'nalishdir, ko'rib chiqilayotgan sog'liq jarayoni, uning sabablari, uni ta'minlash yo'llari sifatida, muayyan hayot sharoitida shakllantirish va saqlash. Bu sog'liq haqidagi bilimlar to'plamini ifodalovchi o'quv intizomi va sog'lom turmush tarzi, bu erda individual salomatlik va tananing zaxiralari, shuning uchun valeologiyani o'rganishning Markaziy muammosi bu: individual salomatlik, tana zaxiralari va shakllanishi turmush tarzi..Rye sog'lig'ini saqlash uchun ham, quyidagi hollarda ham ishlatilishi kerak, agar odam kasal bo'lsa, ularni davolash uchun foydalaning. Shuning uchun valeologik nuqtai nazardan, yuqorida aytib o'tilganlarni rag'batlantirish usullari ijobiyroq himoya va adaptiv jarayonlarni kuchaytiradigan jarayonlar oxir oqibat, inson tanasining zaxiralaridir.

Valeologiyaning asosiy maqsadi maksimal darajada amalga oshirishdir inson hayotining irsiy mexanizmlari va zaxiralari, uni sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini yuqori darajada saqlash tashqi va ichki muhitini yaratadi. Nazariy nuqtai nazardan, bu maqsad quyidagicha ko'rib chiqiladi: saqlash qonuniyatlarini (mexanizmini) o'rganish insonning individual xususiyatlarini va ta'rifini hisobga olgan holda sog'liq sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari yaratadi.

Valeologiya (sog'lom bo'lish) – muqobil tibbiyot va pedagogika yo'nalishidagi fan. Uning asosiy vazifasi inson salomatligini (ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, ekologik va boshqa jihatlarini) har tomonlama o'rgananishdir [5]. Shuning uchun ham olimlar tomonidan valeologiya «salomatlikni saqlash va rivojlantirish» deb ta'riflanadi. Valeologiya profilaktika ham emas, akademik V.Kaznacheyev (kosmik antropolog-valeolog olim) ta'biri bo'yicha, sog'ayishni organizm faoliyatini kuchaytirish uchun o'ziga qo'yib berish, unga yordamlashish (patologiyani aniqlash tufayli) degan fikrni bayon etgan.

Bugungi kunda zamonaviy tibbiy valeologiya rivojlanishga qaratilgan aholining jismoniy va ruhiy salomatligini baholash usullari, bilan shaxsiy (individual) sog'lomlashtirish dasturlarini aniqlash. Ushbu jarayon doimiy ravishda takomillashtirilmoqda, boyitilmoqda va oxir-oqibat zamonaviy jamiyat uchun juda zarur bo'lgan ob'ekt shakllanmoqda. Bu, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi sog'liqni saqlash nafaqat "axloqiy" ahamiyatga ega, balki ozgina darajada emas moddiy.

Tayyorlangan shifokor nafaqat bemorni samarali davolay olishi kerak, ammo har bir bemorni va umuman aholini mas'uliyatli bo'lishga undashi va sog'lom turmush tarzi elementlarini singdirishi orqali sog'lig'ingizga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undashi lozim.Boshqaruvga sog'liqni saqlashning faol falsafasini o'z ichiga oladi. Shuning uchun shifokorlar nafaqat kasallik alomatlarini davolash uchun kerak, balki xususiyatlarini ham yaxshi bilib sog'liqni saqlashni bilishi lozim, xususan valeologiyada - sog'liqni saqlash katta muhimdir. Shu munosabat bilan, hozir sog'liqni saqlash diagnostikasi tizimini ishlab chiqish dolzarbdir, ya'ni. ob'ektiv tananing adaptiv va fiziologik zaxiralarning holatini baholash, donozologik diagnostika deb ataladi. Bunday yondashuvlar quyidagilarga imkon beradi sog'liqni saqlashni bashorat qilish tizimini yaratish, undan keyin ilmiy shaxsiy yol orqali sog'liqni saqlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishi va sog'lomlashtirish dasturlari yaratishi kerakdir.

Ushbu jarayon juda murakkab, ammo bunga erishish mumkin, uni kilish uchun davlatning faol yokida doimiy ishtirokida bo'lish, tizimli xarakter tashkilotlar va umuman butun jamiyat. Bunday holda, faol valeologlar jamiyatiga amaliy shifokorlar kerak, shu jumladan oilaviy shifokorlar bilan aloqa qilish, kasallik holatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. TashIUV valeologiya kafedrasida 2007 yil sentyabr oyida o'z nomini oldi (ilgari "sog'lom turmush tarzi" kafedrasida) va so'nggi yillarda yangi zamonaviy, uslubiy tizimli yondashuvlarni yaratdi, aholi o'rtaida turmush tarzini shakllantirishning barcha jihatlarini qamrab oldi. Mavzu asta-sekin o'ziga xos ahamiyatini, shuningdek o'rni egalladi tibbiyot fanlarida, bu maqsadli rivojlanish uchun asos yaratadi ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

Retsenziyalangan jurnallarda e'lon qilingan empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonlarida mobil qurilmalardan vosita sifatida foydalanishning umumiy samarasi stol usti kompyuterlaridan foydalanish yoki mobil qurilmalardan umuman foydalanmaslikka nisbatan yaxshiroq bo'lib, o'rtacha ta'sir darajasi 0,523 ni tashkil etdi. Bundan tashqari, tahlil natijalariga ko'ra, mobil qurilmalar uchun turli xil uskunalar va dasturiy ta'minotlar kombinatsiyalari foydalanuvchilarning turli yosh guruhlari, amalga oshirish sharoitlari, o'qitish usullari va fan sohalariga tatbiq etilgan. Bunday foydalanishning samaradorligi noutbuklarga qaraganda mobil qurilmalarda yuqoriroq bo'ldi; ularni tadqiqotga yo'naltirilgan ta'limda qo'llash an'anaviy material taqdim etish usullariga nisbatan samaraliroq edi; norasmiy ta'lim

muhitlari ularning rasmiy muqobillariga qaraganda samaraliroq bo'ldi va o'rta hamda qisqa muddatli aralashuvlar uzoq muddatli aralashuvlardan ustunlik qildi. Ushbu natijalar ta'lim muhitida mobil qurilmalardan qayerda, kim uchun va qanday foydalanish ma'lum ta'lim usullarining samaradorligini eng yaxshi tarzda ta'kidlash va ta'limda mobil qurilmalarning cheklovlarini aniqlashga yordam berdi. Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, mobil qurilmalardan foydalanishda mumkin bo'lgan ta'lim afzalliklaridan to'liqroq foydalanish uchun o'quv dizaynini yanada murakkabroq ishlab chiqish zarurligi taklif etiladi. Biz quyida taklif etilgan uchta xulosa ushbu maqsadlarga ko'maklashish va erishish uchun foydali bo'ladi, deb hisoblaymiz. Mobil qurilmalar individual interfeyslar, real vaqt rejimida ma'lumot olish, kontekstga sezgirlik, tezkor aloqa va fikr-mulohaza kabi turli xil o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar mustaqil ta'lim, tadqiqotchilik ta'limi yoki shakllantiruvchi baholash kabi muayyan pedagogik yondashuvlarning ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, mobil qurilmalarning xususiyatlari o'qitishning ijobiy samaralari uchun etarli shart emas. Bizning tadqiqotimizda mobil qurilmalar asosida kollaborativ va o'yinli o'qitishning ozgina ta'siri bu haqiqatni yaqqol ko'rsatib turibdi. Ta'lim strategiyalari axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samarali ta'lim olish uchun muhim [2;3]. Tadqiqotchilar mobil qurilmalarni o'quv strategiyalari bilan integratsiyalashuvining "kaliti"ni topishlari va mobil qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq pedagogik muammolarni hal qilish bilan ixtirochilik bilan taqqoslashlari kerak. Bu esa ushbu xususiyatlarning ta'lim natijalariga ta'sirini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Ba'zi misollarga ko'p o'quvchili sinflarda shakllantiruvchi baholashni samarali o'tkazish va boshqarish muammosini hal qilish uchun tezkor qayta aloqa funktsiyalaridan foydalanish kiradi[4]. SHuningdek, guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqani osonlashtirish va to'xtab qolishlarning oldini olish uchun simsiz aloqadan foydalanadigan hamkorlikdagi guruhlar ham bunga misol bo'ladi[5]. Mobil ta'lim va o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan strategiyalardan biri sifatida mustaqil ta'lim, yaxshiroq natijalarga erishish uchun muayyan funktsiyalarni aniq vazifalar bilan bog'lashga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan usulga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, ko'pchilik tadqiqotlar mobil qurilmalarning o'ziga xosligi va simsiz aloqa imkoniyatlaridan mustaqil ta'lim uchun foydalangan. Masalan, xabar almashish xizmatlari orqali lug'atlarni o'rganish yoki yozish uchun matn muharrirlaridan foydalanish kabi. Ammo faqat ayrim tadqiqotlarga mobil qurilmalar va foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni osonlashtirish maqsadida tezkor qayta aloqadan foydalanish mexanizmlarini taqdim etgan [6; 7]. Bu esa kompyuterlar yordamida samarali mustaqil ta'lim olishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. SHu sababli, mobil telefon xabar xizmatlari orqali EFL (English as a Foreign Language) leksikasini o'rganish uchun monitoring mexanizmlari, elektron kitoblarni o'qish uchun annotatsiyalar tizimi [8], talabalarning og'zaki amaliyoti bilan qayta aloqani ta'minlash uchun nutqni aniqlash [9] va boshqalar kabi murakkabroq amalga oshirish usullarini o'quvchi va kompyuter o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, shuningdek, mustaqil ta'lim samarasini yaxshilash usuli sifatida ko'rib chiqish kerak.

Mobil qurilmalar ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin bo'lsa-da, mobil ta'lim dasturlarining haqiqiy ta'sirini kuchaytirish uchun aralashuvning uzoqroq davom etishi, texnologiyalar va o'quv dasturining yanada chuqurroq integratsiyasi, shuningdek, yuqori darajadagi ko'nikmalarni yanada batafsil baholash zarur.

Aralashuv davomiyligi mobil ta'lim dasturlarining ishonchliligi va amaliy qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatadi. Qisqa dasturlarda, ayniqsa bir necha soat davom etadigan dasturlarda, biror-bir samara texnologik yangilik tajribasi bilan emas, balki mobil qurilmalar bilan integratsiyalashgan ta'lim xususiyatlari tufayli yuzaga kelganini isbotlash qiyin. Bundan tashqari, qisqa muddatli loyihalar bir necha oy davom etadigan sinfdagi odatiy ta'lim amaliyotiga yaxshi moslashmasligi mumkin. Ta'lim davomiyligi bilan bog'liq yana bir muammo mobil qurilmalar va o'quv dasturi integratsiyasining yaqinligidir. Tadqiqotimizda ko'rib chiqilgan qisqa dasturlarning aksariyati butun bir semestr o'quv dasturida faqat bir yoki ikki blok o'quv materiallarini qamrab olgan. O'qituvchi har bir mashg'ulotda mobil qurilmalardan foydalanishi shart bo'lmasa-da, turli bloklar yoki mavzular bunday qurilmalardan foydalanishda bir-biridan farq qiladigan o'quv loyihalarini o'z ichiga olishi mumkin. SHu sababli, eng yaxshi natijalarga erishish uchun optimal usulni aniqlash maqsadida sinov jarayoni o'tkazilishi lozim. SHunday qilib, mobil o'quv birliklarining ko'pligi o'qituvchilarga namunali modellarni taqdim etishga va amaliyotni boshqa darslarga ko'chirish imkoniyatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot nuqtai nazaridan, bu ta'limda mobil dasturlarning ishonchliligi va amaliy qo'llanilishini oshirishi mumkin. YUqoridagi mulohazalarga asoslanib, biz mobil qurilmalar yordamida rivojlantiriladigan ko'nikmalar yoki o'qitish usullariga muvofiq aralashuvning tegishli davomiyligini ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, informatika asoslarini o'rganish uchun o'quvchilarga kichik hajmdagi va qisqa muddatli materiallar mos kelishi mumkin, ammo tadqiqot yoki kollaborativ o'qitish kabi murakkabroq ko'nikmalar yoki usullar uchun mobil dasturlarning ta'sirini ta'minlash maqsadida uzoqroq aralashuvlar talab etilishi mumkin.

Mobil qurilmalardan foydalanishni kuchaytirish mumkin bo'lgan yana bir samarasi bog'liq o'zgaruvchilarning o'lchovlarini kengaytirishdir. Tadqiqotimizdagi aksariyat tadqiqotlar hozirgi kunda ham kontentni bilishda erishilgan yutuqlarga e'tibor qaratmoqda [10;11], yuqori darajadagi ko'nikmalarni egallash usullari esa kam uchragan. Mobil qurilmalar ta'limdagi innovatsiyalarga hissa qo'shishi va yuqori darajadagi qobiliyatlarni oshirishi kutilgan edi [12]. SHunga qaramay, aksariyat tadqiqotlar kontentni o'zlashtirishni yaxshilashga qaratilgan va ishlab chiqilgan ta'lim tadbirlari tadqiqotchilik, kommunikativ va hamkorlik ko'nikmalarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, bog'liq o'zgaruvchilar ushbu ko'nikmalar bilan deyarli bog'liq emas edi. Masalan, tadqiqotimiz ma'lumotlar bazasida 9 ta tajribaviy ilmiy ishlardan faqat 5 tasi mobil ta'lim jarayonida talabalarning interaktiv xulq-atvorini o'rgangan;

bundan tashqari, tadqiqotga yo'naltirilgan 24 ta ta'limdan birortasi ham gipotezalarni shakllantirish va gipotezalarni tekshirish kabi jarayon bilan bog'liq ko'nikmalarni qayd etmagan va tadqiq etmagan. SHuning uchun kontentni bilishdan tashqari, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, interaktiv muloqot yoki ijodiy yangilik ko'nikmalari kabi bog'liq o'zgaruvchilarni kiritish mobil qurilmalarning ta'lim samarasini ancha ishonchli qiladi.

Olimlar [13;14] ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan maksimal samara olish uchun texnologiya komponentlari (apparat va dasturiy ta'minot), ta'lim konteksti va vazifalari (masalan, turli sharoitlardagi o'qitish va o'rganish jarayonlari) hamda foydalanuvchilar (o'qituvchilar va talabalar) o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish zarur, degan xulosaga keldilar. Bu esa ushbu sohada mavjud bo'lgan ko'plab cheklovlarni bartaraf etishga yordam beradi. SHuningdek, olimlar [15] texnologiyalar yordamida takomillashtirilgan mos, samarali va ta'sirchan ta'lim va o'qitish muhitini ta'minlash uchun ushbu komponentlar o'rtasida uygun munosabatlarni yaratish bo'yicha maxsus sa'y-harakatlarni tashkil etish lozim, degan fikrga kelishdi. Mobil-integratsiyalashgan ta'limda esa kamida ikkita tadqiqot va amaliyot yo'nalishiga intilish talab etiladi. Birinchisi - ta'limga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotning vazifalarini kuchaytirish hamda qo'llanilish doirasini kengaytirish. Misol uchun, ta'limga mo'ljallangan turli xil dasturlarni o'z samaradorligini allaqachon isbotlagan ta'lim faoliyati turlari (masalan, tengdoshlar o'rtasida o'qitish, tadqiqotga asoslangan ta'lim va shakllantiruvchi baholash) bilan uygunlashtirish mumkin. Bu dasturiy ta'minot o'qituvchilarga sinfda o'z ta'lim va o'qitish jarayonlarini moslashuvchan tarzda tashkil etish imkonini beruvchi mualliflik vositalarining funktsionalligini ta'minlash uchun moslashtirilishi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish - mobil qurilmalardan foydalanib o'qitish uchun o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturlarini kuchaytirish. Ta'limda mobil qurilmalardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan ko'plab umumiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali mobil ta'lim dasturlarini joriy etishdagi eng katta to'siqlardan biri o'qituvchilarning etarlicha tayyorgarlikka ega emasligi hisoblanadi [16;17]. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan tadqiqot uchun samarali kasbiy rivojlanishning mohiyati mobil ta'lim dasturlariga ham taalluqlidir.

O'qituvchilarni avvaldan ishlab chiqilgan mobil integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini o'zgartirishga va ularni o'zlarining shaxsiy dasturlariga asta-sekin moslashtirish uchun ra'gbatlantirish lozim, shunchaki texnologiyadan foydalanish atrofida o'z dasturlarini yaratishga emas. So'nggi yondashuv o'qituvchilarni sezmaganda holda texnologiyaga moslashtirilgan ta'limga olib keladi, bu esa o'qituvchilarning ta'lim amaliyotini texnologiya imkoniyatlari bilan cheklaydi va ularning mavjud e'tiqodlari hamda odatlarini o'zgartirishni qiyinlashtirishi mumkin. Aksincha, tadqiqotlarga asoslangan mavjud mobil ta'lim dasturlarini moslashtirish nafaqat o'qituvchilarga texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotchilarning qarashlarini va tajribasini etkazadi, balki o'qituvchilarning yangi go'yalarni shakllantirish va sinov-xato jarayonlarini bajarishga sarflaydigan vaqtini kamaytirishga yordam beradi. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining tasavvuri, tajribasi va ko'nikmalarini uzatishni osonlashtirish uchun universitet darajasidagi tadqiqotchilarni ustoz yoki hammuallif sifatida jalb etish ham foydali hisoblanadi. Mobil qurilmalar uchun apparat va dasturiy ta'minotning turli xil funktsiyalari va turlari mavjud, biroq boshqa tomondan, murakkablik darajasi ham yuqori, shu sababli ularni loyihalash va qo'llash o'qituvchilarga qo'shimcha yukni osonlikcha o'ttirib qo'yishi mumkin. Ta'lim texnologiyalari bo'yicha tadqiqotchilar uchun mavjud bo'lgan ko'plab texnologik bilimlar va resurslar shuni anglatadiki, ularning dasturda ishtiroki o'qituvchilarga joriy etish jarayonida mustaqillikka erishishda sezilarli darajada yordam berishi mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, o'qituvchilarning mobil qurilmalar yordamida o'qitishga moslashish jarayonida kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, o'qituvchilarning mobil qurilmalardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar juda cheklangan edi. SHu sababli, o'qituvchilarning mobil uskunalar va dasturiy ta'minotni, dars mazmunini, o'qitish usullarini va ta'lim maqsadlarini qanday muvofiqlashtirishi bo'yicha chuqurroq eksperimental tadqiqotlar o'tkazish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Gustavo Zurita, Miguel Nussbaum, Computer supported collaborative learning using wirelessly interconnected handheld computers, Computers & Education, Volume 42, Issue 3, 2004, Pages 289-314
2. Lan, Y. J., Sung, Y. T., Cheng, C. C., & Chang, K. E. (2015). Computer-supported cooperative prewriting for enhancing young EFL learners' writing performance. Language Learning & Technology, 19, 134e155. Retrieved from <http://llt.msu.edu/issues/june2015/lansungchengchang.pdf>;
3. Liu, T. C., Lin, Y. C., & Paas, F. (2014). Effects of prior knowledge on learning from different compositions of representations in a mobile learning environment. Computers & Education, 72, 328e338
4. Penuel, W. R., Roschelle, J., & Shechtman, N. (2007). Designing formative assessment software with teachers: an analysis of the co-design process. Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 2, 51e74
5. Lan, Y. J., Sung, Y. T., & Chang, K. E. (2007). A mobile-device-supported peer-assisted learning system for collaborative early EFL reading. Language Learning & Technology, 11, 130e151. Retrieved from <http://llt.msu.edu/vol11num3/pdf/lansungchang.pdf>
6. Oberg, A., & Daniels, P. (2013). Analysis of the effect a student-centred mobile learning instructional method has on language acquisition. Computer Assisted Language Learning, 26(2), 177e196.;
7. Ozcelik, E., & Acarturk, C. (2011). Reducing the spatial distance between printed and online information sources by means of mobile technology enhances learning: using 2D barcodes. Computers & Education, 57(3), 2077e2085
8. Hwang, W.Y., Shadiev, R., & Huang, S. M. (2011). A study of a multimedia web annotation system and its effect on the EFL writing and speaking performance of junior high school students. ReCALL, 23(2), 160e180.

9. Tanner, M. W., & Landon, M. M. (2009). The effects of computer-assisted pronunciation readings on ESL learners' use of pausing, stress, intonation, and overall comprehensibility. *Language Learning and Technology*, 13, 51e65. Retrieved from: <http://lt.msu.edu/vol13num3/tannerlandon.pdf>
10. Lu, M. (2008). Effectiveness of vocabulary learning via mobile phone. *Journal of Computer Assisted Learning*, 24, 515e525.;
11. Wang, S. L., & Wu, C. Y. (2011). Application of context-aware and personalized recommendation to implement an adaptive ubiquitous learning system. *Expert Systems with Applications*, 38(9), 10831e10838. <http://dx.doi.org/10.1016/j.eswa.2011.02.083>.
12. Frohberg, D., Goth, C., & Schwabe, G. (2009). Mobile learning projects e a critical analysis of the state of the art. *Journal of Computer Assisted Learning*, 25, 307e331.
13. Gao, Y., Liu, T. C., & Paas, F. (in press). Effects of mode of target task selection on learning about plants in a mobile learning environment: effortful manual selection versus effortless QR-code selection. *Journal of Educational Psychology*;
14. Liu, T. C., Lin, Y. C., Tsai, M. J., & Paas, F. (2012). Split-attention and redundancy effects in mobile learning in physical environments. *Computers & Education*, 58, 172e180.
15. Dillenbourg, P., Nussbaum, M., Dimitriadis, Y., & Roschelle, J. (2013). Design for classroom orchestration. *Computers & Education*, 69, 485e492.
16. Penuel, W. R. (2006). Implementation and effects of 1:1 computing initiatives: a research synthesis. *Journal of Research on Technology in Education*, 38, 329e348.;
17. Frohberg, D., Goth, C., & Schwabe, G. (2009). Mobile learning projects e a critical analysis of the state of the art. *Journal of Computer Assisted Learning*, 25, 307e331
18. Newhouse, C. P., Williams, P. J., & Pearson, J. (2006). Supporting mobile education for pre-service teachers. *Australasian Journal of Educational Technology*, 22, 289e311.;
19. Penuel, W. R., & Yarnall, L. (2005). Designing handheld software to support classroom assessment: analysis of conditions for teacher adoption. *Journal of Technology, Learning, and Assessment*, 3, 1e46.

Annotatsiya: Mobil qurilmalardan ta'lim jarayonlarida vosita sifatida foydalanishning empirik tadqiqotlari tahlili asosida, maqolada ta'limda mobil qurilmalardan foydalanishning umumiy natijasi o'rganilgan. Mobil qurilmalardan foydalanish orqali erishish mumkin bo'lgan ta'lim afzalliklaridan to'liqroq foydalanish uchun o'quv dizaynini yanada mukammalroq ishlab chiqish kerak, degan xulosaga kelingan.

Tayanch so'zlar: harakatchanlik, uslub, hamkorlik, ijtimoiy tarmoq, ma'lumot, kollaborativ o'qitish, texnologiya.

Аннотация: На основе анализа эмпирических исследований использования мобильных устройств как инструмента в образовательном процессе в статье рассматривается общий эффект от использования мобильных устройств в образовании. Сделан вывод о том, что дизайн обучения необходимо совершенствовать, чтобы в полной мере использовать образовательные преимущества, которые могут быть достигнуты за счет использования мобильных устройств.

Ключевые слова: мобильность, метод, коллаборатив, социальная сеть, информация, коллаборативное образование, технология.

Abstract: The article describes interactive collaborative learning ICL [interactive collaborative learning] and issues of learning using collaborative technologies are considered within the framework of the concept of collaboration, including computer-supported collaborative learning [CSCL], carried out on the basis of the latest generation collaborative information systems.

Key words: mobility, style, collaboration, social network, information, collaborative learning, technology.

O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV VA INTERFAOL MALAKASI – DARSLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Rambergenov R. G.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Interfaol dars jarayonida o'qituvchining roli keskin tarzda o'zgarib turadi va o'qituvchi – mashg'ulotni ishlab chiquvchi, tashkilotchi, konsultant, fasilitator, kommunikator, psixolog sifatida ish olib boradi. O'qituvchi – interfaol darslar uchun o'yinlarni ishlab chiquvchi - ya'ni interfaol o'yin texnologiyasi.

Ma'lumki, amaliyotda darslarni tashkil etishda tayyor ishlab chiqilgan o'yinlardan hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Buning sabablari juda ko'p: ayrim paytlarda darsliklarda nazariy ma'lumotlar va amaliy masalalarga materiallarning kamligi va murakkabligi (tushunil qiyinligi); ko'pchilik mualliflar amaliy ishlab chiqarishda o'zlarining blok strukturalari yoki tasvirlagan o'yin sahnalarini taqdim etadilar, ammo yangi ish boshlagan o'qituvchilar foydalanishlari uchun qulay bo'lishini o'zlariga maqsad qilib qo'ymaydilar; yaxshi tasvirlangan o'yinlar odatda kichik adadda (tirajda) bosib chiqariladi va keng ommaga mo'ljallanmaydi; ayrim bir sinf o'quvchilari uchun mo'ljallanmaganligi hamda sinfdagi ayrim nogiron o'quvchilar uchun mos emasligi; sinf xonasining o'yin shartiga mos emasligi [1].

Yuqorida ta'kidlanganlarga ko'ra, kuchi, vaqtini, sharoitni va o'xshashini qidirgandan ko'ra, o'qituvchiga o'zi ko'zlagan va kutgan natijani beruvchi shaxsiy o'yin texnologiyasini ishlab chiqish osonroq. Texnologiya tanlovi, o'qituvchining o'quvchilarga yetkazishi kerak bo'lgan materialiga ya'ni mavzuga va u qo'ygan maqsadga bog'liq bo'lishi kerak. Ishlab chiqariladigan, tashkil qila oladigan va har qanday interfaol texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni o'tkaza oladigan o'qituvchini o'yin texnologiyasi deb atash mumkin.

O'qituvchi – konsultant (maslahatchi). O'quvchilar, ularni nimaga "tortishayotganlarini" tushunib yetishlari uchun, o'qituvchi o'yinning ma'nosi va maqsadiningina emas, balki uning qonun-qoidalarini tushuntirishi, rollar bo'yicha ko'rsatmalar berishi, bosqich (qadam)larning tartibi va ketma-ketligini tasvirlab berishi kerak. Bunda, qanday jalb qilishga,

shuningdek, uning me'yoriga, berilayotgan axborotning soniga, uning ketma-ketligiga ahamiyat berish zarur. O'yin boshlanishidan oldin belgilangan vazifa va boshqaruv amalga oshiriladi va o'qituvchi "o'yin" bosqichlarida faol va sust o'quvchilarni ajratib oladi va shu axborotga ko'ra, ularga rol taqsimlaydi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, o'yindagi rollarni ko'rsatish imkonini berish uchun, bilimi sust o'quvchilarga faol bo'lgan rollarni berish natijalari yuqori bo'ladi.

Rus pedagogikasidagi olim va mutaxassis, Irina A. Sinitsina – o'z tadqiqotlarida kommunikativlik va interfaol ta'limning samaradorligini birlashtirgan. U o'qituvchining kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirish va darslarda samarali o'qitish strategiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning ilmiy va ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir tadqiqotlar olib boradi [2]. Sh.Abdullaeva va R.Choriev o'zlarining "Hamkorlik pedagogikasi" o'quv qo'llanmasida muhim g'oyalarni aks ettirgan: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish [3]. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuxammedovalarning ilmiy ishlarida o'qituvchilarning sarmahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyati to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan[4]. O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir.

O'qituvchi – interfaol o'yin tashkilotchisi. Bu funktsiya o'yinning barcha bosqichlarida o'zini namoyon qiladi: o'yingacha, o'yin vaqtida va o'yindan keyin. O'qituvchi tashkilotchi rolda bo'lar ekan, o'yinning barcha bosqichlarida: maqsad qo'yishda, qaror qabul qilishda, rejalashtirishda, o'yin jarayonini tashkil qilishda va uning yo'li va natijasini nazorat qilishda, zarur bo'lganda, o'yin mazmunini o'zgartirishda ishtirok etadi. O'qituvchining tashkilotchilik rolini tavsiflagan xolda, o'quv mashg'ulotlarini, ayniqsa, ishbilarmonlik o'yinlarini boshqarish o'qituvchi faoliyatida boshqa o'tkaziladigan mashg'ulotlardan tubdan farq qilishini aytib o'tish joiz. Boshqaruvchi (tashkilotchi), ishbilarmonlik, innovatsiyali, aprobatson-qidiruv o'yinlarida nafaqat rejalashtirilayotgan o'yin faoliyatining mazmuni va o'tkazish shakli bilan birga o'yinni olib borishni bilishi, o'yin tartibini nazorat qilishi, kutilmagan holat va adashishlarni tezda sezishi va muammoli holatlarni boshqarishi, o'yin davomida tuzatishlar kiritishi kerak. Shu bilan birga, o'yindagi barcha rollarni va sahnani yaxshi bilishi, ya'ni yoddan olib borishi kerak. Bu barcha jarayonlarni boshqarish o'qituvchidan tashkilotchilik qobiliyatini, faollik va topqirlikni, qat'iylik, harakat tezligi, kommunikativlik va kishilarga o'z ta'sirini o'tkaza olishni talab qiladi.

O'qituvchi – kommunikator, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi kommunikativlik (lotincha "communico" – "barchani aloqaga bog'lamoq, muloqot" ma'nolarini bildiradi) vazifalariga o'quvchilar bilan muloqot faoliyati kiradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan aloqa o'rnatibgina qolmay, balki o'z fikrini mazmunli bera olishi va boshqalarni tinglay olishi, o'zaro bog'langan savollar bera olishi va o'quvchilarning savollariga javob bera olishi, o'zaro individual aloqalar o'rnatish, munozara olib bora olishi, ish munosabatlarining barcha janrlarini egallagan bo'lishi, faqat turli interfaol texnologiyalar uchun emas, balki turli darajadagi o'quvchilar uchun ham sahnalar ishlab chiqa olishi, interfaol faoliyat uchun qulay va ijodiy muhit hosil qiluvchi, kommunikativ xatti-harakatlarni tashkil qila bilishi kerak [5]. Quyida o'quvchilarning erkin kommunikatsiyasini ta'minlovchi va bahs-munozaralarini boshqarishning asosiy bir nechta qoidalarini keltiramiz: Umumiy munozara vaqtida "sen", "biz", "odamlar" so'zini emas, balki "men" olmoshini ishlatish. O'quvchilarga mashg'ulotlarda o'zlarini (jismonan va ma'nan) qulay his qiladigan muhit yaratish juda muhim, bu ularning o'qish va rivojlanishlariga katta yordam beradi. Ishonchlilik muhitini hosil qilish quyidagi ko'pgina omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: "jarayon maydoni", ya'ni qulay atrof – muhit (havo, yorug'lik, mebel, kompyuter-texnika, flipchartlar va hokazo); o'qituvchining ishonchlilik va yoqimlilik orqali birinchi taassurotlarni hosil qiluvchi taqdimoti; guruh bilan tashkiliy ishlar haqida: ish tartibi, tanaffuslar va o'yinning asosiy bosqichlari muhokamasi; "ixtiyoriylik" tamoyilini qabul qilish: agar kim guruhda ishlashni xohlamasa, majburlash va o'zini oqlashga majbur qilish kerak emas; guruhda bor bo'lgan bilim va amaliy tajribani ko'rsata bilish; "jalb etuvchi", "asabiylashishni yo'qotuvchi", "qiziqitiruvchi" mashq va treninglarni tashkil etish; natijalar to'g'risida hissiyot, taassurotlar haqida gapirmasdan va tanqid qilmasdan "hamma hammaga" asosida muhokama o'tkazish. Interfaol mashg'ulot o'tkazayotgan o'qituvchi har bir qatnashchiga nisbatan e'tibor va iliqlikni namoyon qilishga majbur. Bu uning xis-tuyg'ularida, pedagogik odobida va o'zini tuta bilishida, shuningdek, hamma vaqt boshqa odamlar bilan munosabatda o'zini tutishida va o'zini barcha hatti-harakatlarini nazorat qilishida namoyon bo'ladi. Boshqa odamlarni vujudi bilan tushunishga qodirlik, boshqa odamni "ich-ichidan his qilish", boshqa odamning ko'zi bilan olamni qabul qilish va uning his-tuyg'ularini tahlil qila bilish qobiliyati, boshqa odamning dunyoqarashini qabul qilishga va uning ko'zi bilan dunyoni ko'rishga qodirlik bilan bog'liq.

Ayniqsa, suhbatdoshni tinglash vaqtida, unga nisbatan qiziqish hosil bo'lganda, barcha zamonaviy psixologik yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi, so'zsiz, barcha ta'lim oluvchilarga bir xil munosabatda bo'lishi kerak. Aynan shu tavsifga ko'ra har bir odamning qiymati va uning shaxsiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Xatto "dag'al" odamlarga nisbatan samimiy va ochiq bo'lish juda qiyin va bu o'qituvchidan faqat o'z-o'zini anglashning rivojlanishini emas, balki o'z shaxsiy muammolarini hal qilishi asosida o'zini tuzatishini talab qiladi. Psixologik madad berish, boshqalarning tajribalariga hurmat bilan qarash, tinglovchilarning qabul qiluvchi qaror va harakatlariga do'stona munosabat – bularning barchasi o'qishga qiziqish va uyushgan holda rivojlanishga olib keladi.

Shunday qilib, o'qituvchi - o'yin texnologiyasi, bir vaqtning o'zida barcha ko'rinishda savodli va malakali, kompetentli bo'lishi lozim. Albatta, muayyan amaliy faoliyatda bu vazifalarni bir nechta tashkilotchi bajarishi mumkin. Bunday tajriba

tashkiliy-faoliyatli va innovatsion o'yinlarda tarqalgan. O'qituvchi ushbu aytilgan xislatlarni rivojlantirishga intilishi zarur, chunki interfaol darslarning samarali tashkil qilinishi o'qituvchining mohirligi bilan bevosita bog'liq. Bunda jarayon natijasida o'quvchilar mashg'ulot mavzusi bo'yicha birgalikda bir to'xtamga kelishlari orqali ularning mavzuni o'zlashtirishlari ta'minlanadi va darslar samaradorligi oshishiga erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ishmukamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: «Nihol» nashriyoti, 2016 yil.
2. Маджуга А. Г. Концептуально-теоретические основы фрактальной педагогики как новой области социально-гуманитарного знания / А. Г. Маджуга, И. А. Синицина, Е. В. Филипенко // Научный диалог. – 2015. – № 12 (48).
3. Abdullaeva Sh., Choriev R. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: «KamronPress», 2016. – 53-54-b.
4. Davletshin M.G., Do'st Muhammadova Sh. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: «Jahon print», 2009. – 53-54-b.
5. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. – T.: «Nihol», 2014.

O'qituvchining kommunikativ va interfaol malakasi – darslarni samarali tashkil etishdagi ahamiyati

Rezyume: Ushbu maqolada darslarni samarali tashkil etishda o'qituvchining kommunikativ va interfaol malakasini rivojlantirish masalalari, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari va ularning maqsadli yo'nalishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim, interfaol uyinlar, o'qituvchi, konsultant, fasilitator, o'quvchi, kommunikativlik, hamkorlik.

Коммуникативные и интерактивные навыки учителя – их значение в эффективной организации урока

Резюме: В статье рассматриваются вопросы развития коммуникативных и интерактивных навыков учителя в эффективной организации уроков, стратегии развития навыков совместной работы учителя и учащихся на основе взаимоотношений, а также их целевые направления.

Ключевые слова: Интерактивное образование, интерактивные игры, учитель, консультант, фасилитатор, ученик, коммуникация, сотрудничество.

Teacher's communication and interactive skills - their importance in effective organization of the lesson

Summary: The article examines the development of communicative and interactive skills of teachers in the effective organization of lessons, strategies for developing the skills of joint work of teachers and students based on relationships, as well as their target directions.

Key words: Interactive education, interactive games, teacher, consultant, facilitator, student, communication, cooperation.

BOSHLANG'ICH TALIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA ONATILI O'QITISH METODIKASIDAN TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Xurramova S. M.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Kirish. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy o'rgatish mazmuni multimedia vositalari, Internet texnologiyalari, Microsoft office to'plami, transduser dasturlari, on-layn testlardan foydalanish jarayonida faktlar, hodisalar, jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar, kognitiv faoliyat usullari, munosabatlar to'plamini o'z ichiga oladi; aniqlash va hal qilish muammolar mantiq nuqtai nazaridan, olingan bilim va ko'nikmalarni nostandart vaziyatlarga mustaqil ravishda o'tkazish, tanqidga ijobiy munosabatda bo'lish, aks ettirish, hodisalar va jarayonlarni jamiyatda qabul qilingan madaniy va axloqiy qadriyatlarni hisobga olgan holda turli nuqtai nazardan baholash. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'quv, rivojlanish, tarbiyaviy va ijodiy funktsiyalari ushbu turdagi fikrlashning mohiyatini ochib beradigan tushunchalarni yanada samarali o'zlashtirishga, fikrlash jarayonlarini faollashtirishga, tanqidiy fikrlash tajribasini to'plash vositasi sifatida ma'lumotlarga qiymat munosabatini tarbiyalashga, shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlarning manbai sifatida ma'lumotlardan ijodiy foydalanishga yordam beradi.

Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: 1) muammoni faol bilish uchun motivatsiya; 2) uni tushunish, hal qilish usullarini aniqlash; 3) aks ettirish - o'rganilayotgan ma'lumotlarga shaxsiy munosabatni shakllantirish; 4) olingan natijalarni nostandart vaziyatlarda qo'llash. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash-bu multimedia vositalari, Internet texnologiyalari, Microsoft office to'plami, simulyator dasturlari, on-layn testlardan foydalanish paytida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mazmuni va texnologiyasini o'zlashtirishda talabalarga yordam berish bo'yicha o'qituvchining kasbiy harakatlari to'plamidir. O'rganilayotgan muammo doirasida pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy turlari: motivatsion, ko'rsatma, maslahat, kommunikativ, tuzatuvchi [1].

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanishning nazariy va pedagogik salohiyati xorijiy va mahalliy olimlarning kontseptsiyalarida shakllantirilgan quyidagi qoidalarga aylandi: tanqidiy fikrlashning mohiyati va tizimni shakllantirish xususiyatlari, ta'limni axborotlashtirish sharoitida kognitiv faoliyatning tuzilishi va xususiyatlari, tanqidiy fikrlashni

rivojlantirish usullari va texnologiyalari, shuningdek, axborot ta'limining ishlash printsiplari haqidagi g'oyalar. ta'lim jarayonida pedagogik tizim va axborot texnologiyalari funktsiyalarining ajralmas qismi sifatida ko'rishimiz mumkin.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari natijalari bilan tanishish tanqidiy fikrlash talabalarning bilim faoliyati tarkibida muhim rol o'ynaydi, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi, chunki u yangi bilimlarni egallash jarayonida qarama-qarshi ma'lumotlarni, noaniq vaziyatlarni va murakkab muammolarni sintez qilish, tahlil qilish va baholash uchun asosiy intellektual ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga imkon beradi.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha mutaxassislarning asarlarini o'rganish (V. N. Bryu-Shinkin, A. V. Butenko, I. N. Grifsova, A. V. Korjuev, V. A. Popkov, G. V. Sorina va boshqalar) zamonaviy Rossiya universitetida talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda ikkita etakchi yondashuvni ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Birinchi yondashuvga muvofiq, tanqidiy fikrlash alohida o'quv kursi doirasida shakllanadi. Ikkinchi yondashuv talabalarga meta-fan kursi asosida tanqidiy fikrlashni o'rgatishga qaratilgan. Ta'lim mazmunini loyihalash bo'yicha mutaxassislar (I. ya. Lerner, V. V. Kraevskiy, A. V. Xutorskaya) asarlarida bayon etilgan qoidalarini hisobga olgan holda, biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun alohida kurs doirasida axborot texnologiyalari yordamida qisman pedagogik modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir degan xulosaga keldik. o'rganish uchun mo'ljallangan materialni kiritish, muayyan g'oyalar, tushunchalar, kognitiv faoliyat usullari, o'quv kursining barcha mavzularidagi qadriyatlar shaklida. Qisman modelning afzalliklari shundaki, uni amalga oshirish jarayonida kursning mantig'i, tuzilishi, mazmuni saqlanib qoladi va shu bilan birga ta'limning mazmunli va protsessual tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun qulay sharoitlar yaratiladi [2].

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlash mulohazalarning asosiligi va mantiqiyliigi, muammolar va murakkab masalalarni aniqlashtirish istagi, ochiq fikr va xolislik, dalillarning jasorati, shakllantirilgan qoidalarining ravshanligi, taqdimotning ravshanligi, qarama-qarshi faktlarni ko'rish qobiliyati bilan ajralib turadi. Tanqidiy fikrlash nafaqat kognitiv, balki shaxsning irodali va hissiy sohalarini bilan ham bog'liq. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning muhim tarkibiy qismini amalga oshirish ongning tanqidiy darajasini oshirish uchun talabalarning bilim faoliyatini yanada aniqroq tuzish va tashkil etish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Talabada tanqidiy fikrlashning shakllanishi dastlab berilgan axborotlarni o'qib, o'rganib uni tahlil qilish bilan boshlansa, keyinchalik ularga berilayotgan ilmiy va nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasi bilan izohlanadi. Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlash jarayonidir.

Shu asosda, bugungi kunda pedagogika oliygohlaridagi moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish, o'quv-uslubiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishning amaldagi mazmuni pedagog mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar doirasida takomillashtirilmaganligi, bu sohadagi ilmiy tadqiqot natijalarining to'laqonli amaliyotga tatbiq etilmayotganligi, pedagogika oliygohlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holat diagnostikasidan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalari o'qitish tizimiga pedagogik texnologiyalarning to'laqonli joriy etilmayotganligi tadqiqot muammosiga nisbatan kontseptual yondashuvni talab etadi. Darhaqiqat, mazkur masalalarni hal etish respublikamizdagi mavjud ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy mavqega ega bo'lishida oliy ta'lim muassasalarining o'rni katta.

Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish oson ish emas. Albatta, buning uchun tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beruvchi quyidagi muayyan muhit va shart-sharoitlar yaratilishi kerak [3]: talabalarga mustaqil fikr yuritish uchun imkoniyat yaratib berish va ularni diqqat bilan tinglashga o'rgatish; turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, saralash, tanqidiy va ijodiy baholash; talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash; talabalarning o'z tanqidiy fikrlarini bayon etganlarida kulgiga qolmasliklariga qat'iy ishonitirish; har talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashi lozim.

Shu munosabat bilan talabalar o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'ziga ishonchni orttirishi va o'z fikri hamda g'oyalarning qadr-qimmatini tushunishi, turli fikrlar va g'oyalarni sabr-toqat bilan, e'tibor berib, tinglashi va o'z tanqidiy fikrini shakllantirishi lozim. Tanqidiy fikrni rivojlantirish uchun vaqt talab etiladi. Buning uchun talabalarni tanqidiy fikrlarini o'z so'zi bilan ifodalashga, o'zaro tanqidiy fikrlar almashishiga, o'z fikr g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olishiga qulaylik tug'dirish lozim. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun o'quvchi-talabalar ma'qul va noma'qul g'oyalar haqidagi fikrlarini aytish va tanqidiy tahlil qilishga faol kirishishidan avval izn so'rashlari lozim. Tanqidiy tahlilga izn olish onglik tamoyiliga asoslanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Jamiyatni axborotlashtirish sharoitida tanqidiy fikrlash tajribasi oliy ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarni tanqidiy fikrlashni o'qitishning bilim komponenti tanqidiy fikrlashning mohiyati va

xususiyatlarini ochib beradigan tushunchalarni, mantiq qoidalari, sintez, tahlil, mavhumlik, umumlashtirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari, tanqidiy va ijodiy fikrlashning o'xshashligi va farqlari, ongning tanqidiyligi, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlash talabalarida rivojlanishning qisman modelini amalga oshirishning muhim nazariy va pedagogik salohiyati xorijiy va rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi (TRKM) kontseptsiasidir. Ushbu tushunchalar turli xil semantik tarkibga ega, ammo biz o'tkazgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ular tanqidiy fikrlash tajribasini o'zlashtirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligini ochib beradigan o'zgarma bosqichlarga ega. Bunday bosqichlar orasida: 1) tinglovchilarda mavjud bilimlarni yangilash (motivatsiya); 2) yangi ma'lumotlarni tushunish, uni hal qilish usullarini tanlash; 3) aks ettirish — o'rganilgan materialga shaxsiy munosabatni shakllantirish [5]. Bizning fikrimizcha, axborot texnologiyalarining o'quv vazifasi talabalarning kognitiv faoliyat fenomeni sifatida tanqidiy fikrlash haqidagi bilimlarini o'zlashtirishga, talabalarga ma'lumotni topish, qayta ishlash va baholash uchun elektron resurslar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat [4]. Rivojlanish funktsiyasi uning barcha tarkibiy qismlari va xizmatlari aqliy operatsiyalarni shakllantirishga (tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar), nutq, xotira, motivatsion, hissiy, ixtiyoriy sohalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Axborot texnologiyalarining tarbiyaviy funktsiyasini amalga oshirish talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, madaniy va axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda tanlash uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Ijodiy funktsiya ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, o'zini ijodiy shaxs sifatida anglashga qaratilgan bo'lib, kognitiv faoliyatning yangi bilimlari va tajribalarini modellashtirish va qurish tendentsiyasini shakllantiradi.

Xulosalar. Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini, birinchidan, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ularga motivatsiyani shakllantirishda, yangi ma'lumotlarning mazmunini tushunishda, uni reflektiv tahlil qilishda va ijodiy foydalanishda tezkor yordam ko'rsatishga qaratilgan. Ikkinchidan, boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va hodisalar, jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar, kognitiv faoliyat usullarining mazmun-mohiyati izchil, ketma-ketlik prinsipi asosida yoritilishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G'aniyev Yu., Boymirov Q. Eshqorqyev U., Qosimov A. Innovation ta'lim texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari T.: "Yangiyer" – 2018. – B.76
2. Yo'ldosheva J.R. Usmonova S.A., Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan va texnologiya" - 2008. – B. 196.
3. Xurramova S. M. Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – Ilm-sarhashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal –Urganch. – 8-son, 2024. – B.77
4. Xurramova S. M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari. – Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal-Buxoro. – 2024, 8-son, 2024. – B.105
5. Xurramova S. M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalaning nazariy asoslari. – Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. T.: – 2023, 10-son, 2024. – B.270

Boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish

Annotasiya: Maqolada boshlang'ich talimda axborot texnologiyalari yordamida onatili o'qitish metodikasidan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va hodisalar, jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar, kognitiv faoliyat usullarining mazmun-mohiyati izchil, ketma-ketlik prinsipi asosida yoritilib berilgan.

Kalit so'z: Boshlang'ich talim, talaba, axborot, texnologiya, qobiliyat, tarbiya, tanqidiy fikrlash, pedagogika.

Развитие критического мышления учащихся с использованием методики обучения на основе информационных технологий в начальном образовании

Аннотация: В статье раскрывается содержание и сущность знаний, умений и навыков, а также способов познавательной деятельности, позволяющих развивать у учащихся критическое мышление, анализировать, обобщать, сравнивать и классифицировать явления и процессы по методике обучения родному языку с использованием информационных технологий в начальном образовании, основанной на принципе системности и последовательности.

Ключевые слова: Начальное образование, ученик, информация, технология, возможность, способность, воспитание, критическое мышление, педагогика.

Developing students' critical thinking using information technology-based teaching methodology in primary education

Abstract: he article describes the content and essence of knowledge, skills, and cognitive activity methods that allow students to develop critical thinking and analyze, generalize, compare, and classify phenomena and processes using the methodology of native language teaching using information technologies in primary education, based on the principle of consistency and sequence.

Key words: Primary education, student, information, technology, opportunity, ability, upbringing, critical thinking, pedagogy.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MEHNAT AN'ANA VA UDUMLARGA ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Aytmuratov B. T.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya darslarida va milliy sport o'yinlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy an'ana va udumlar bo'yicha tushunchalarini shakllantirish va shu orqali ularni mehnatga tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilarning bo'lajak kasbiy faoliyati ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglashiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishga va uning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish uchun tizimli yondashuvni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrda kuchga kirgan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-394-son Qonunning "O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari" deb nomlangan 20-moddasidasining 1-xatboshi "1.O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro'-e'tiborini yuksaltirishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash poydevoridir" deb nomlangan [1]. Bu Qonunda milliy sport turlari va xalq o'yinlari Respublikamizning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi etib belgilanishi, ta'lim tizimi xodimlari va pedagoglarning, sport ta'lim muassasalari murabbiylarining oldiga xalqimizda, farzandlarimizda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash orqali, ularni yuragida mamlakatimizning obro'sini xalqaro maydonda yuksaltirishga intilish his-tuyg'ularini shakllantirish kabi katta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga "Ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi" printsiplining kiritilishi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda milliy an'ana va udumlar haqida tushunchalarini shakllantirish va ularga amal qilish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni hosil qilishni taqozo etadi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son qarorida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish, "2025/2026 o'quv yilidan boshlab har yili an'anaviy tarzda maktablar o'quvchilari o'rtasida «Besh tashabbus olimpiadasi» sport musobaqalarini tashkil etib borish kabi vazifalar belgilab berildi [3]. O'quvchilarni boshlang'ich sinflardan jismoniy tarbiya va sportga qiziqirish orqali ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirib borish ushbu vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslaridagi jismoniy mashqlarni bajarish jarayonlarida bolalar tarbiyasida eng avvalo ularning ruhiy jarayonlarini o'stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishga, ularda o'zlariga bo'lgan ishonch tuyg'ularini shakllantirishda yordam beruvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, bolalar tarbiyasida oliy his-tuyg'ularini shakllantirib, o'stirib borish - ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib boruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Vatanparvarlik yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan - Vatanni sevmok iymondandir, – degan hadis zamirida ham huddi shunday mazmun mujassam [4]. Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanga e'tiqod tuyg'usi xalqimiz tomonidan qadimdan e'zozlanib kelinganining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo'lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlari hamda xalq og'zaki ijodi orqali bilib olishimiz mumkin. Mana usha ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning martliklari, o'z vatanini, xalqini himoya qilishdagi jasurliklarini farzandlarimizga jismoniy tarbiya darslaridagi mashg'ulotlar jarayonida his qildirsa olsakgina, ularda Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantira olgan bo'lamiz.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uyushtiriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy, sport tadbirlar ma'lum talablarga javob berishi lozim. Ya'ni: tarbiyaviy va sport tadbirining rejali, maqsadli, izchil, sistemali o'tkazilishi; tarbiyaviy va sport tadbirini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etish; o'quvchi yoshlarni, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish; tarbiyaviy va sport tadbirlarning o'quvchilarning qiziqishi, mayli, intilishlariga javob berishi; hayotiy muammolarning yechimini topishga yo'naltirilganligi; ta'lim jarayonida olingan ahloqiy-ma'naviy bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, to'ldirish va rivojlantirish; Vatan himoyachisi, oila boshlig'i, jamiyatning faol fuqarosi bo'lishga tayyor turish. Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik: 1. O'quvchilarning tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatlilikligi, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak; 2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag'batlantirish; 3. Darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi ahloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash; 4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilish jarayonida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish.

Jismoniy tarbiya fani o'quvchilarga tarbiya berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois jismoniy tarbiya fani darslarida hal qilinadigan tarbiyaviy ishlarga doir muammolar quyidagilarda o'z aksini topadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga qiziqish, unga ongli va kreativ yondashish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq uyg'otish; boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalash; boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, shaxsiy mayllari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni sport, jismoniy tarbiya va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kasblarga yo'naltirish. Mehnat qilishga tayyorgarlik sifatini tarbiyalash maktab pedagogik jamoasining tarbiyaviy ishlari markazida turmog'i lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga qiziqish

uyg'otish, mehnat an'ana va udumlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish uchun, birinchidan, ularning jamiyat uchun qo'shadigan mehnat an'ana va udumlar hissasi muhimligini idrok etishlari, bu narsani insoniy burch deb bilishlariga erishish; ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari puxta o'ylangan dasturlar, o'z-o'zini chiniqtirish, jismoniy mashqlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, obodonlashtirish ishlarida faol qatnashish, jismoniy mashg'ulotlar olib borayotgan sport zallariga va sport musobaqalarini tomosha qilishga jalb qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlaydigan tadbirlar psixologik, pedagogik, fiziologik jihatdan yaxshi tashkil etilgan tizimga tayanilganda sportga qiziqishini samarali rivojlantirish mumkin. Murabbiylik tajribasi shundan dalolat beradiki, o'qituvchi, ayniqsa, sinf rahbari quyidagi vazifalarni hal etishi kerak:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini, o'ziga xos qobiliyatlarini, uning mayllari va qiziqishini o'rganish; boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga ongli munosabatni tarbiyalash; boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilimlar, layoqatlar va mehnatsevarlik uyg'unlashgan taqdirda oldiga qo'yilgan maqsadga erishishi mumkinligini aniq misollar yordamida ko'rsatish; boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb tanlashning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatini va uning har bir o'quvchi shaxsiy hayotidagi o'rni yoritish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy va jismoniy rivojlantirishda jismoniy tarbiya fanining o'rni ko'p qirrali. Chunki jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga intilishlarini qo'zg'ovchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir [5]. Shu bois jismoniy tarbiya darsi jarayonida o'quvchilarni aqliy rivojlantirishda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni almashtirib turish muhim ahamiyatga ega. Ammo har qanday harakatli o'yinlar aqliy yordam bermasligini unutmaslik kerak. Bilimlarni qo'llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan harakatli o'yinlar faoliyati aqliy qobiliyatlarni rivojlantirmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar orqali mehnat qilishga o'rgatish quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak: 1. Jismoniy mashq va harakatli o'yinlardagi har bir mashq va harakatlardan ko'zlangan maqsad va vazifalar boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tushunarli bo'lishi darkor. 2. Jismoniy mashq va harakatli o'yinlarda mashq va harakatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularning boshlang'ich jamoasi orasida maqsadga javob beradigan darajada to'g'ri taqsimlanishi, rejali olib borilishi lozim. Bu bilan o'quvchilarning sog'lom jamoasi tarbiyalanadi, ularning jamoada halollik, rostgo'ylik, malaka va odatlarini egallab olishga imkoniyat yaratadi. 3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnatini to'g'ri tashkil qilish yo'llaridan biri – oldiga maqsadlar (yaqin, o'rta, uzoq) qo'ya bilish. Maqsadlar hamma o'quvchilarni o'z ahamiyati bilan mehnatga jalb qiladi. Jismoniy mashqlar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida xursandlik, xushchaqchaqlik, quvonch kayfiyatlarini tug'diradi, ishni xolis bajarishga zamin tayyorlaydi.

4. Jismoniy mashq va harakatli o'yinlardagi mehnatga mos harakatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga, ularning moyilligi va qiziqishiga mos bo'lishi, ma'lum muddat o'tgandan keyin yangilanib turilishi, asta-sekin murakkablashtirib borilishi zarur. 5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnati o'yin tavsifida bo'lib, mehnat o'yin – raqobat tarzida yo'lga qo'yilmog'i kerak. 6. Harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar jarayonida xolislik, rostgo'ylik, malaka hamda odatlarni muvaffaqiyatli tarkib toptirmoq uchun bajarishi topshirilgan jismoniy mashqlarning to'g'ri bajarilishini tekshirishni yo'lga qo'ymoq lozim. Bajarilgan mashqlar natijalarini yakunlash va uning sifatini hisobga olish, mashq natijalarini to'g'ri baholash zarur. Bu muhim yo'nalishga o'qituvchi va ota-onalar tomonidan to'g'ri pedagogik rahbarlik qilinmasa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini tarbiyalash stixiyali, pedagogik tayyorgarliksiz boshlanib, foyda o'rniga zarar etkazadi [6]. Shu sababli o'qituvchi va ota-onalar e'tiborini o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishdagi tipik xatolar nimalardan iborat ekanligiga qaratmoqchimiz.

Birinci guruh xatolar axloqiy, irodaviy tushunchalar mazmunini noto'g'ri tushunish bilan bog'liq. Ba'zi o'quvchilar jasurlik, dalillik, matonatilikni ko'pincha o'jarlik va qaysarlik bilan almashtirib yuboradilar.

Ikkinchi guruh xatolar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z-o'zini tarbiyalash vosita va usullarini bilmasliklari natijasida kelib chiqadi. Bu toifadagi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z xulq-atvoridagi kamchiliklarga qarshi qanday kurashish, o'zida qimmatli axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirish yo'llarini aniq bilmaydilar. Ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z-o'zini tarbiyalashning sodda usullariga tayansa, ba'zilar, hatto zararli vositalardan ham foydalanadilar.

Uchinchi guruh xatolar ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onalarning inson xulq-atvori va iroda xususiyatlarini deb o'ylashlari bilan bog'liq. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchisining onasi o'z qizi haqida shunday fikr bildiradi, "qizim dadasiga o'xshagan qaysar, o'z aytganini qildiradi".

To'rtinchi guruh xatolar o'smirlarning biror ishga qiziqqonlik bilan kirishib, tez sovlash. Shu sababli bu yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalarini bilmagan holda ishga kirishib, o'zlarida iroda sifatlarini birdan tarbiyalashga intiladilar.

Beshinchi guruh xatolar oila sharoitida ota-onalar o'z farzandlariga ortiqcha vasiylik qilishlari bilan bog'liq. Ba'zi ota-onalar, buvilar va bobolar farzandlarining salgina qiyinroq ishni bajarishlariga yo'l qo'ymaydilar, ularning istaklarini bajaradilar. Bu holat bolalarda tayyorga ayyorlik, meshchanlik xususiyatlarini vujudga keltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada, mahallada va maktabda o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: 1. Har bir oilaning moddiy shart-sharoiti va axloqiy mikroiklimi qandayligini bilish. 2. Ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari uchun axloqiy va pedagogik bilimlar berishni tashkil etish. Bu tadbirni ma'ruzalar, suhbatlar, savol-javob kechalari o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish. 3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining oilada o'z-o'zini tarbiyalashlari ularning sinfda qabul qilgan o'z-o'zini shakllantirish ishlarining uzviy davomi. Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga ongli munosabatni tarbiyalash o'z-o'zini

tarbiyalash, o'z-o'zini ishlantirish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini tanqid qilish kabi metod va vositlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, faqat o'ylab, yaxshi tashkil etilgan, oila sharoitida va maktabning oila bilan yaqindan turib rejali ravishda amalga oshiriladigan tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy, axloqiy va idoraviy sifatlarni shakllantirishga erishish mumkin [7].

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi ishlar dars va darsdan tashqari ishlar uzluksizligi va uzviyligida amalga oshirilishi kerak. Darsdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar uchun shunday pedagogik vaziyatlarni yaratish kerakki, natijada, ularda fuqarolik pozitsiyasi namoyon bo'lsin, olingan bilimlar e'tiqodga va xatti-harakatga aylansin. Shunday sifatlarga esa ijtimoiy foydali faoliyat va ijtimoiy ishda o'zligini namoyon etish mumkin. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, darsdan tashqari ijtimoiy foydali faoliyat, yuksak ongillik, mas'uliyat, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligi ta'lim zarurligini tushunishlarini chuqurlashtiradi, unga ijtimoiy ahamiyat bag'ishlab, ijobiy rivojlanishiga xizmat etadi.

ADBIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2015-yil. O'RQ-394-son. <https://lex.uz/docs/-2742233>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun O'RQ-637 23.09.2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda PQ-392-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/7221716>
4. IQRO jurnali Worldly Knowledge <https://Worldlyknowledge.uz>
5. Aytmuratov B.T. - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat an'alariga psixologik jihatdan tayyorlash shartlari - Toshkent: "Tafakkur", 2018
6. Aytmuratov B.T. - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda mehnat an'alaridan foydalanish shakl, metod va omillar - Toshkent: "Tafakkur", 2021.
7. Aytmuratov B.T. - Baslawish klass o'qiwshilarin miynet urip-adet ham dasturlerinen paydalanip tarbiyalaw texnologiyalari - Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2023.

Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga ongli munosabatni shakllantirish masalalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'ana va udumlarga qiziqish, unga ongli va kreativ yondashish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq uyg'otish kabi masalalar mantiqan mazmunli, ketma-ket, izchil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, texnologiya, talab, majburiyat, dars, ma'naviyat, kasb tanlash.

Вопросы формирования сознательного отношения к трудовым обычаям у учащихся начальных классов на уроках физической культуры

Аннотация. В данной статье логически и последовательно представлено содержание работ по решению таких вопросов, как пробуждение интереса у учащихся младших классов к трудовым обычаям и традициям, сознательного и креативного подхода к ним, интереса к трудовой деятельности.

Ключевые слова: Образование, воспитание, технологии, требования, обязательство, урок, духовность, выбор профессии.

Issues of forming a conscious attitude to work customs in primary class students in physical education lessons

Abstract. This article logically and consistently presents the content of work on solving such issues as awakening interest among primary school students in labor customs and traditions, a conscious and creative approach to them, and interest in work activity.

Key words: Education, upbringing, technology, requirements, obligation, lesson, spirituality, choice of profession.

КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК РУС ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ОЎЗАКИ НУТҚ МАЛАКАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Abdukaxarova G. A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Kirish. Respublikamizda oliy ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1] muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [2] ham zamonaviy ta'lim jarayonida kompetentli yondashuv ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, rus tili o'qituvchilarini tayyorlashda og'zaki nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu til faqat nazariy bilim emas, balki jonli muloqot vositasi sifatida o'rganilishi lozim. O'quvchilarning tilni faqat grammatika va qoidalar asosida emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llay olishi ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Hozirgi kunda til o'qitishda kommunikativ yondashuv, kompetentli metodlar va interfaol texnologiyalar asosiy o'rinni egallamoqda. Ushbu metodikalar o'qituvchilarga o'quvchilarni og'zaki nutqqa faol jalb qilish va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. An'anaviy yondashuvlar bilan solishtirilganda, interfaol metodlar va kommunikativ yondashuv orqali talabalar tilni jonli jarayonda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida lingvistik, pedagogik va psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik jihatdan o'qituvchi rus tilining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini mukammal bilishi zarur. Pedagogik nuqtai nazardan, o'qitishning innovatsion metodlarini qo'llay olish, dars jarayonini samarali tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish muhim sanaladi.

Psixologik jihatdan esa, o'qituvchi o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunishi, ularning qiziqishlariga mos yondashuvni tanlashi va o'qitish jarayonida individual yondashuvni qo'llay olishi lozim.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida quyidagi olimlarning ishlari tahlil qilindi: L.S. Vygotskiy – nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan [4]. V.P. Baxotin – kommunikativ yondashuvning ta'limdagi o'rnini asoslab bergan. A.A. Leontyev – pedagogik jarayonda til kompetensiyasini shakllantirish usullarini taklif qilgan. G.Mammadova – rus tili o'qitishda interfaol metodlarning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [3].

Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash jarayonini tashkil etilishi, fanlarni o'qitish, malakaviy pedagogik amaliyot holatini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishni takomillashtirish imkoniyatlari yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablardan kelib chiqqan holda bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarining metodologik va ilmiy-metodik asoslari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlarini, aniqlash, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishni kompetentli yondashuv asosida ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati maqolamizning dolzarbligini belgilaydi va quyidagilarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Nazariy tahlil – bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kompetentli yondashuv va kommunikativ metodlarga oid ilmiy manbalar o'rganildi.

2. Eksperimental tadqiqot – bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil qilindi.

3. Pedagogik kuzatish – tajriba-sinov jarayonida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalari samaradorligi baholandi.

4. Sotsiologik so'rov – bo'lajak rus tili o'qituvchilarining fikr-mulohazalari o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda rus tili o'qituvchilarining tayyorgarligida kompetentli yondashuv asosiy o'rin tutadi, chunki ularning asosiy maqsadi – talabalarni erkin va muloqotga yo'naltirilgan til egasi qilishdir.

Tadqiqot davomida eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirildi. Eksperimental guruhda interfaol metodlar, rolli o'yinlar, debat va multimediya texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borildi. Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi: Interfaol usullar orqali nutq faolligi 35% ga oshdi. Talabalarining kommunikativ ishtiroki 40% ga yaxshilandi. An'anaviy metodlar bilan o'qitilgan guruhga nisbatan eksperimental guruhda og'zaki nutq rivoji tezroq kuzatildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kompetentli yondashuv asosida o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki amaliy nutq ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kompetentli yondashuv – ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lab, o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya. Til o'qitishda bu yondashuv talabalarni og'zaki nutq kompetensiyasiga ega bo'lishga yo'naltiradi, ya'ni ular faqat grammatikani emas, balki tilni faol va muloqot uchun qo'llashni o'rganadilar. Og'zaki nutq – insonning o'z fikrlarini tovush orqali ifodalashi va boshqalar bilan muloqot qilishi jarayoni. Rus tili o'qituvchilari uchun bu malaka ayniqsa muhim bo'lib, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: Og'zaki nutqning asosiy komponentlari: Talaffuz – to'g'ri fonetik va intonatsion jihatlariga rioya qilish. Leksik boylik – so'z boyligini to'g'ri tanlash va kontekstga mos ishlatish. Grammatik to'g'rilik – gap tuzilmalari va qoidalarini to'g'ri qo'llash. Muloqot madaniyati – nutq etiketiga rioya qilish, dialog va monolog shaklida muloqot qilish. Til o'qitishda og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish o'qituvchining samarali metodika tanlashi va o'quvchilarga jonli muloqot muhitini yaratib berishi bilan bog'liq [5]. Rus tili o'qituvchilari – rus tilini ikkinchi til sifatida o'qituvchi mutaxassislar bo'lib, ularning asosiy vazifasi talabalarga nafaqat grammatikani o'rgatish, balki ularning kommunikativ malakalarini ham rivojlantirishdir.

Rus tili o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar: Til me'yorlarini mukammal bilish (fonetika, grammatika, leksika). Innovatsion ta'lim metodlarini qo'llay olish. Talabalarining ehtiyojlarini tushunish va ularga mos metodik yondashuvlarni tanlash. Interfaol va kommunikativ yondashuv asosida ta'lim berish.

Rus tilini o'qitishda metodika uch asosiy yo'nalishga bo'linadi: 1. An'anaviy metodlar – grammatik qoidalariga urg'u berish, yodlash, tarjima qilish. 2. Kommunikativ metodlar – og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim usullari. 3. Interfaol usullar – talabalar faol ishtirok etadigan ta'lim metodlari. Til o'qitish metodikasi vaqt o'tishi bilan rivojlanib, hozirgi kunda kommunikativ va kompetentli yondashuv bilan boyitilgan.

Kommunikativ kompetensiya – talabaning muloqot jarayonida samarali va moslashuvchan tarzda ishtirok eta olish qobiliyati. Bu til o'rganish jarayonining eng muhim maqsadlaridan biridir.

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari: Til kompetensiyasi – grammatik va leksik bilimlarga ega bo'lish.

Sotsiokultural kompetensiya – o'rganilayotgan tilga oid madaniy va ijtimoiy me'yorlarni tushunish.

Interaksiya kompetensiyasi – turli vaziyatlarda tilni muloqot uchun qo'llay olish.

Rus tilini o'rgatuvchi o'qituvchilarning asosiy vazifasi – o'quvchilarni kommunikativ kompetensiya bilan ta'minlash, ya'ni ularga real hayotiy vaziyatlarda tilni ishlatish ko'nikmalarini berishdir.

Interfaol usullar – o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan, ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashga undaydigan pedagogik texnologiyalar.

Eng samarali interfaol usullar: Rolli o'yinlar – o'quvchilar muayyan rollarni bajarish orqali muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bahs-munozaralar (debate) – talabalar turli mavzularda fikr yuritib, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilishga o'rganadilar. Klaster metodi – yangi so'z va tushunchalarni bir tizimga joylashtirish orqali yaxshiroq o'zlashtirish.

Jamoaviy ta'lim – kichik guruhlarda ishlash orqali tilni muloqot vositasi sifatida rivojlantirish. Interfaol usullar og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish uchun eng samarali metodlardan hisoblanadi, chunki ular o'quvchilarni faol va tabiiy tarzda tilni o'rganishga undaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotimizning tajriba-sinov mashg'ulotlarini kuzatish va tahlillar natijasida shuni ko'rsatadiki zamonaviy til o'qitish tizimining muhim tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Ayniqsa, kompetentli yondashuv, kommunikativ kompetensiya va interfaol usullar talabalarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Rus tili o'qituvchilari ushbu tamoyillarga asoslangan holda ta'lim metodlarini takomillashtirsa, natijada talabalar erkin va ravon muloqot qila oladigan darajaga yetishadilar. Tadqiqot natijalari kommunikativ va interfaol yondashuvlarning samaradorligini tasdiqladi. Shunday qilib, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2017. – B.39.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // T.: 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
3. Минкин Е.М. От игры к знаниям /Е.М. Минкин. — М.: Просвещение, 2013.- С.127.
4. Мухина В.С. Возрастная психология /В.С. Мухина. – М.: Просвещение, 2008.- С.93.
5. Хамроев М. М., Шадиева Д. К. Исследовательские методы обучения на уроках русского языка //Ученый XXI века. – 2023. – №. 2 (93). – С.15.

Компетентли ёндашув асосида бўлажак рус тили ўқитувчиларининг оғзаки нутқ малакаларини ривожлантириш

Annotatsiya. Maqolada kompetentli yondashuv asosida bo'lajak rus tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha mustaqil fikrlash, kreativ masalalarni ijodiy yechish, ta'lim jarayonini pedagogik-psixologik loyihalash, intensiv hamda integrativ texnologiyalarini takomillashtirishning mazmuni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: kompetentli yondashuv, og'zaki nutq, malaka, kreativ masala, pedagogik-psixologik loyihalash.

Развитие навыков устной речи будущих учителей русского языка на основе компетентностного подхода

Резюме. В статье рассматривается содержание развития устной речи будущих учителей русского языка на основе компетентностного подхода, включающего самостоятельное мышление, творческое решение проблем, педагогическое и психологическое проектирование образовательного процесса, совершенствование интенсивных и интегративных технологий.

Ключевые слова: компетентностный подход, устная речь, компетентность, творческая задача, педагогико-психологическое проектирование.

Development of oral speech skills of future russian language teachers based on a competent approach

Summary. The article covers the content of developing the oral skills of future Russian language teachers based on a competent approach, including independent thinking, creative problem solving, pedagogical and psychological design of the educational process, and improving intensive and integrative technologies.

Key words: competent approach, oral speech, competence, creative problem, pedagogical-psychological design.

УДК/UDK 796.011.2 :5:012.33

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ШИКАСТЛАНИШЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ТАҲЛИЛ ЭТИШ

¹Мухаммадиев К. Б., ²Хонимов М. С.

¹Тошкент давлат транспорт университети

²“АЛФРАГАНУС УНИВЕРСИТЕТИ”

Кирриш. Ўзбекистонда ҳар томонлама соғлом ёш авлодни вояга етказиш, уларга билим бериш, маънавий баркамол этиб тарбиялаш мақсадида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш ҳамда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.


Маълумки, спортнинг аксарият турларида спортчилар фаолияти айниқса профессионал ва олий даражали спортчиларда, таянч ҳаракат аппаратларининг турли ташки ва ички кучлар таъсиридан зўриқиши билан боғлиқ ҳолда кечади. Ўқув машғулотлари, ўқув-машқ йиғинлари ва мусобақалар кучли, чаққон, эпчил, чиройли ва юқори спорт техникасини намойиш этишга тайёрланиш ва кўрсатишга қаратилган жараён бўлиб ҳисобланади. Бу эса табиийки, спортчиларда ўқув-йиғин машғулотларининг бошида, охирида ва мусобақа пайтида рухий, жисмоний тайёргарликнинг, спорт маҳоратининг етишмаслиги туфайли, баъзи ҳолатларда, спортчи қалтис ҳаракат содир этиши оқибатида шикастланишга олиб келиши мумкин. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчиларнинг ҳаёти ва соғлиғи хавфсизлигини таъминлашдир. Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирларида иштирок этиш вақтида соғлиғига зиён етказилган спортчилар, мураббийлар ва спорт ҳакамларига қонун ҳужжатларига мувофиқ тиббий, ижтимоий ва касбий реабилитация берилади. Спорт мусобақаларида иштирок этувчи шахслар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда суғурта полисига эга бўлиши шарт. Спорт жихози, анжومي ва спорт кийим-боши халқаро ёки давлат стандартлари, нормалари ҳамда талабларига мувофиқ бўлиши керак.

Спортнинг ҳаракат билан боғлиқ барча турларида, асосан спортчининг таянч-ҳаракат тизими аъзолари шикастланиши кузатилади. Бундай бахтсиз ҳодисаларни қайд этиш, ўрганиб чиқиш, сабабларини чуқур таҳлил

қилиш уларни бартараф этиш ва енгил кечишини таъминлаш бўйича кўплаб чора тадбирлар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш имконини беради. Ёш спортчилар жароҳатланишининг яна бир муҳим масаласи ижтимоий ҳимоя масаласидир. Лекин мазкур масала ечимининг асосини ташкил этувчи, спортдаги шикастланишларни расмийлаштириш масалалари бўйича иш юритиш ҳужжатларининг ягона тизими яратилмаган.

Ўрганилганлик даражаси. Спортда шикастланишлар-нинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари, ҳисобга олиш, таҳлил этиш ва башоратлаш, спортнинг ҳаракат фаолияти билан боғлиқ барча турларида шикастланишнинг олдини олиш ёки оқибатларини юмшатиш бўйича масалалар хорижий мамлакатлар ҳамда республикаимиз олимлари ва тадқиқотлар олиб борган. Хусусан, мамлакатимизда Керимов Ф.А., Сулайманов С.С., Шин Е.И., Исакова Л.И., Неъматов Б.И., Исмагилов Д.К., Мухаммадиев К.Б. ва бошқалар спортчилар фаолияти билан боғлиқ бўлган илмий тадқиқотларида педагогик нуктаи назаридан ёндошиб спортчилар маҳоратини ошириш, қобилиятларини шакиллантириш учун тавсиялар беришган. Чунончи, таянч ҳаракат аппаратининг ўткир жароҳатлари ва сурункали касалликларнинг солиштира улуши биз текширувдан ўтказган спортчилар гуруҳида турлича бўлди: жароҳатлар 61% ни, касалликлар эса 39% ни ташкил этди. Бу маълумотлар кўплаб муаллифлар [26; 687] нинг статистик тадқиқотлари натижаларини тасдиқлайди. Шу билан бирга, В.Ф.Башкиров ўтказган тадқиқот натижалари маълумотларига зид бўлди. Унинг изланишида тескари боғланиш, яъни таянч ҳаракат аппарати сурункали микрожароҳатлари сонининг сезиларли устунлиги аниқланган.

Спортда шикастланишларга оид тўпланган дастлабки маълумотлар таҳлили. Ёш ҳаваскор спортчилар шикастланишини таҳлилни ўтказиш мақсадида 18-22 ёшли олий ўқув юрти талабаларининг (Тошкент давлат транспорт университети мисолида) 2023-2024, 2024-2025 ўқув йилларида жисмоний тарбия ва спорт ўқув машқлари жараёнида олган жароҳатларига тегишли дастлабки маълумотлар тўпланди. Жароҳатланган спортчи ёшларнинг жинси, аниқ ёши, таълим босқичи, ўқув-машқи ўтказилган спорт тури, жароҳат туфайли ўқув машқларидан озод қилинган кунларининг сони, жароҳатга қўйилган тиббий ташхис ва унинг рўй берган жойи алоҳида ўрганилди. Ўтган икки ўқув йилига тегишли спортлари бўйича спортчи ёшларнинг шикастланиши 1-расмда келтирилган.



1-расм. Спорт турларида талаба-спортчиларининг шикастланиши

Спортчи ёшларнинг шикастланишлари таҳлили шуни кўрсатдики, спорт турлари бўйича энг юқори шикастланиш мамлакатимизда оммавий бўлган футбол ва миллий курашда рўй берар экан. Краш, футбол, бокс, дзюдо вўл тўпи ва баскетбол спортида шикастланиш юқорилигининг сабаблари талайгина. Биринчидан, спортчи ёшларнинг кўп қисми ушбу спорт турлари билан шуғулланишлар, иккинчидан, ушбу спорт ўйинлари ниҳоятда тезкор ҳаракат фаолияти билан боғлиқ, учинчидан, кантакти спорт тури бўлганлиги, тўртинчидан мазкур спорт турларида ўйинчи таянч-ҳаракат тизими аъзолари юқори динамик юкланишлар таъсирида бўлади.

Спорт билан мунтазам шуғулланувчи 2009-2010 йилларда туғилган ёш ҳаваскор спортчиларда жароҳатланишининг таҳлилни ўтказиш мақсадида спорт мактаблари бўйича маълумотлар тўпланди ва таҳлил қилинди. Натижалар таҳлили 2-расмда акс эттирилган. Диаграммадан кўриниб турибдики, бокс спорти ўта хавфли спорт, унда шикастланиш юқорилигича сақланмоқда, ундан кейинги хавфли спорт турлари эркин кураш, самбо, таэквондо ва дзюдо эканлиги аниқланди. Спорт турларида (гуруҳли ҳамда якка кураш) шикастланиш сабабларини атрофлича ўрганиш, улар натижаларининг ишончилигини аниқлаш ва тасдиқлаш мақсадида, спорт турларининг машғулотлари жараёнлари хронометражи, спортчилар орасида анкета-сўровлар, спорт заллари санитар-гигиеник кўрсаткичлари, спортчиларнинг спорт билан шуғулланиш шароитлари, спорт заллари жиҳозларининг меъёрий-техник талабларга мослиги бўйича олинган маълумотлар асосида, уларнинг таҳлил қилинди.



2-расм. Спорт билан мунтазам шуғулланган(2009-2010 йилларда туғулган) ёш ҳаваскор спортчилар шикастланиши.

Мутахассисларнинг фикрига кўра ўқув машқлари бошида спортчининг шикастланиши, аксарият ҳолатларда, спортчи тана мушакларини етарли даражада киздириб олмасдан туриб таянч-ҳаракат аъзоларига юқори динамик юкланиш беришидан рўй беради. Ўйин ва беллашув жараёнидаги спортчининг шикастланиши, ҳимоя усулларини яхши ўзлаштирмаганидан ва спорт маҳоратининг етишмаслигидан келиб чиқади. Ўйин ёки олишувнинг охирида эса спортчи, аксарият ҳолатларда, толиққани туфайли қалтис, сифатсиз ҳаракатлар содир этади, яъни усулларни сифатсиз бажаради. Бу умумий ва махсус жисмоний тайёргарлик етарли эмаслиги туфайли юз беради.

Якка кураш турлари (самбо, миллий кураш, бокс, теквондо, юнон рум кураши, дзюдо, каратэ ва бошқалар) гимнастика, баскетбол спортларидан олинган маълумотлар асосида, статистик усул билан, шикастланишларнинг (мисол сифатида) оғирлик ва хавфлилик даражаси ўрганиб чиқилди. Ушбу шикастланишлар 3-4-расмларда келтирилган. Натижалардан кўриниб турибдики (3-расмга қаранг), ҳар 600 нафар ҳаваскор спортчи талабадан 2023-2024 ўқув йилида 19 нафари, 20204-2025 ўқув йилида 15 нафари турли спорт турлари бўйича машғулот ва мусобақаларда шикастланган. Шикастланишлар 2023-2024 ўқув йилида бошқа ўқув йилларига нисбатан оғир бўлган. Ушбу ҳолатнинг сабабларни ўрганиш, шикастланишларни бартараф этиш ва енгил кечишига эришиш учун уларни ҳар бир спорт турининг ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда таҳлил этиш мақсадга мувофиқ. Спортчи ёшларнинг шикастланиши эҳтимолининг мавжудлиги ва уларнинг хавфсизлик қийматлари таҳлилидан кўриниб турибдики, ҳаваскор спортчи талабага ҳисоблаганда, шикастланишлар туфайли улар ўртача 165 кун даволанишга мажбур бўлган, сўнгра машқ жараёнига қайтишган. Шу билан бир вақтда ушбу талабалар ўқув машғулотларига (маъруза, амалий, семинар, лаборатория) ҳам қатнаша олмаган.

Ёш ҳаваскор спортчи талабанинг шикастланиши унинг фанларни ўзлаштиришига ҳам салбий таъсир этиши эҳтимоли жуда юқоридир. Тўпланган маълумотларни ўқув босқичлари бўйича таҳлили натижалари кўрсатдики, энг юқори шикастланиш 1-босқич спортчи талабаларида қайд этилган, 2-, 3-, 4-босқичларда, босқичдан-босқичга, шикастланишлар сонининг камайиш ҳолати рўй берган. Шикастланишлар сонининг 1-босқичдан 4-босқичга қараб пасайиб боришини, спортчи талабаларнинг, назарий дарсларнинг соатлари кўпайиши туфайли спорт ўйинлари, мусобақаларда иштироки камайиб бориши билан изоҳлаш мумкин. Ҳамда бу боғлиқликнинг яна бир сабаби ҳаваскор спортчи ёшларнинг йилдан-йилга спорт маҳоратининг ортиб боришидир.

Спортчи ёшларнинг шикастланиши таҳлили кўрсатдики, 18-22 ёшли ҳаваскор спортчиларнинг шикастланиши барча спорт турларига тегишли таълим йўналишлари бўйича қайд этилмоқда. Энг юқори шикастланиш кураш ва футбол таълим йўналишлари талабалари орасида қайд этилган. Ҳар 1000 нафар спортчидан 11-19 нафари турли спорт ўйинларида шикастланган. Бир шикастланиш туфайли ёш ҳаваскор спортчи талаба, ҳар йили ўртача 11-15 кун ишга яроқсиз бўлади. Ҳар 1000 нафар талабага ҳисоблаганда (ўқув йилида шикастланиш туфайли ҳар 1000 талаба-спортчига тўғри келадиган ишга яроқсиз кунларнинг умумий сони), ўқув йилида ўртача 165-265 кун шикастланиш туфайли спортчи талаба машғулотларга иштирок этиш имкониятидан маҳрум бўлади. Бу рақамлар ҳаваскор спортчи ёшлар фаолияти маълум даражада хавфли фаолият эканлигини кўрсатади. Спорт турлари бўйича шикастланишининг таҳлили кўрсатдики, 18-22 ёшли спортчиларнинг шикастланишлари футбол ва кураш спортида кўпчиликини ташкил қилади. Мавзу мақсади ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда курашчилар мисолида, спортчиларнинг шикастланишини уларнинг спорт маҳоратига боғлиқлиги алоҳида кузатилди. Олинган маълумотлар таҳлили кўрсатдики, энг кўп шикастланиш I-разрядли спортчи ёшларда кузатилди. Халқаро спорт усталари, спорт устаси унвонларига эга спортчиларда шикастланиш нисбатан камайган. Курашчи қизларда шикастланиш эркакларга нисбатан кўпчиликини ташкил этади. Олинган маълумотлар аёл курашчилар беллашуви кескинроқ ўтишини тасдиқлайди. Спорт маҳорати юқори курашчиларда шикастланишнинг камайиши кузатилади.

Хулоса. Шикастланишларни бартараф этиш ёки камайтириш биринчидан, уларни ҳисобга олиш тартибини такомиллаштириш, иккинчидан спорт жамоаси (ташкilot, ҳудудий федерациялар, жамиятлар ва ҳ.к)нинг шикастланишни ўрганиш бўйича мажбуриятлари ва ваколатларини аниқ белгиловчи қонуний-меъёрий ҳужжатларини юритиш тартибини яхшилаш, учинчидан, спортчи шикастланганда суғурта ҳолатини тасдиқловчи, ногиронлик тоифасини белгилаш каби масалалар юзасидан илмий тадқиқотлар олиб бориш мақсадга мувофиқ. Мазкур масалаларни илмий асосда ҳал этиш орқали давлат томонидан ёш ҳаваскор спортчилар шикастланишини камайитиришга қаратилган ташкилий, техник, ижтимоий, даволаш-профилактика тадбирларини ишлаб чиқиш, жорий этиш ва уларга риоя этишнинг назорати соҳасидаги сиёсати янги сифат босқичига кўтарилади. Ҳаваскор спортчи ёшларнинг мустақкам ижтимоий ҳимоясини таъминлаш орқали уларнинг спорт ўйинлари ва мусобақалардаги фаоллиги, ташаббускорлиги ва ишончи янада ортишига замин яратилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Зеттерберг К. Повреждения костей // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. - К.: Олимпийская литература, 2002. - 42-51 с.
2. Мак-Аллистер Б., Ричардсон А.В. Заболевания и травматизм у пловцов // Плавание. - К.: Олимпийская литература, 2000.
3. Мухаммадиев К.Б. Спортда жароҳатланишлар ва уларнинг оқибатлари. Турон, 2016. - 328 с.
4. Самсонова А.В. Моторная и сенсорная функции мышц в биомеханике локомоций: монография /А.В.Самсонова; Санкт-Петербургский университет им. П.Ф.Лесгафта.- СПб: 2007. -152 с.
5. Sulaymanov S., Narziev Sh., The Issue of Reducing Injuries bu Improving the Traing of Young Boxers. International Journal of Advanced Research in Science, engineering and Technology. ISSN: 2350-0328, Volume-6, Issue-2, February 2019. -8068-8071 p.
6. Черный В.Г. Спорт без травм.- М.: Физкультура и спорт, 2009. -96 с.

7. Юкелсон Д., Мерфи Ш. Психологические аспекты в профилактике травм // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. - К.: Олимпийская литература, 2002. –281-287 с.
8. Шахлина Л.Г. Медико-биологические основы спортивной тренировки женщин. - К.: Наукова думка, 2001. –328 с.

Жисмоний тарбия ва спорт машгулотларида шикастланишларнинг олдини олиш ва тахлил этиши

Резюме. Ушбу мақолада спортчиларнинг муабақа ва спорт машгулотлари жараёнида турли хил шикастланишларининг оқибати ва уларнинг олдини олиш бўйича илмий ва амалий тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: спорт, мусобақа, шикастланиш, машгулот, даволаниш, риоблитация, организм, чиникиш.

Резюме. В данной статье приведены научные и практические рекомендации по последствиям различных травм спортсменов в процессе соревновательных и спортивных тренировок и их профилактике.

Ключевые слова: спорт, соревнования, травма, тренировка, лечение, реабилитация, организм, закаливание.

Annotation. This article presents scientific and practical recommendations for the consequences of various injuries to athletes during competitive and sports training and their prevention.

Key words: sports, competitions, trauma, training, treatment, rehabilitation, body, strengthening.

IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING TASHABBUSKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Yuldasheva M. R.

Nizomiy nomidagi TDPU doktiranti

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'z oldiga nafaqat bilim berish, balki yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirish va innovatsion g'oyalar yaratishga yo'naltirish kabi muhim maqsadlarni qo'yadi. Bugungi kunda jamiyatda tezkor o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanayotgan bir paytda, o'quvchilarning tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari odatdagi maktablarga qaraganda o'quvchilarga yanada chuqurlashtirilgan bilim berishga mo'ljallangan bo'lib, ularning kasbiy tayyorgarligi, intellektual rivoji va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu ta'lim muassasalarida o'quvchilarning tashabbuskorligini shakllantirish uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu fazilat kelajak avlodning mustaqil hayot kechirishi, innovatsion g'oyalar ishlab chiqishi va jamiyatning faol a'zolariga aylanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tashabbuskorlik insonning o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun yangi g'oyalar yaratish, muammolarni mustaqil hal qilish va muayyan sohada o'z tashabbusini ilgari surish qobiliyatidir. Tashabbuskor shaxslar o'z harakatlarida qat'iyatlilik, kreativ yondashuv va muammolarni hal qilishga intilish bilan ajralib turadi. Bunday shaxslar nafaqat o'z hayotida, balki butun jamiyat rivojida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida o'quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tashabbuskorlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari va zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash muhim o'rin tutadi. Xususan, loyihaviy ta'lim, STEAM ta'lim, muammoli ta'lim kabi metodlar o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarda o'z tashabbuslarini ilgari surish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari, pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi keng tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, tashabbuskorlikni rivojlantirishda ta'lim muhitining ahamiyati, o'quvchilarning roli va zamonaviy ta'lim metodlari bo'yicha tavsiyalar ham beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirish uchun: innovatsion ta'lim yondashuvlarini keng joriy etish; amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ijodiy ishlarni rag'batlantirish; o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish; maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Kelajakda ushbu yondashuvlarni tizimli ravishda amalga oshirish orqali ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarining o'quvchilari nafaqat bilimli, balki tashabbuskor, kreativ va yetakchi shaxslarga aylanishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida tashabbuskorlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlarni yanada kengaytirish va xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Raximovning ta'kidlashicha [3] tashabbuskorlik insonning o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun yangi g'oyalar yaratish, muammolarni mustaqil hal qilish, muayyan sohada o'z tashabbusini ilgari surish va ijodiy yondashuv ko'rsatish qobiliyatidir. Bu fazilat insonga turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yechimlarni topish va yangi imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda tashabbuskorlik ijtimoiy hayotda, ish faoliyatida va shaxsiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi.

Tashabbuskorlik insonning quyidagi sohalaridagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi: Shaxsiy rivojlanish – mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrlarini himoya qilish va yangicha yondashuvlarni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy moslashuv – jamiyatda o'z o'rnini topish, jamoaviy ishlarga faol hissa qo'shish va mas'uliyatni his qilish imkonini beradi.

Kasbiy tayyorgarlik – kelajakda raqobatbardosh kasb egasi bo'lish uchun zarur bo'lgan ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida tashabbuskorlikni rivojlantirish nafaqat

shaxsiy yutuqlarni qo'lg'a kiritish, balki jamiyatga innovatsion g'oyalar va yangiliklar olib kelishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim tizimida bu sifatni rivojlantirishning samarali usullarini joriy etish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlariga mos tarzda chuqurlashtirilgan ta'lim berishga yo'naltirilgan. Ushbu maktablarda tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik imkoniyatlardan foydalanish mumkin: innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish; loyihaviy ta'lim – o'quvchilarga real muammolarni hal qilish uchun loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish imkonini beradi; STEAM ta'lim – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarning muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechim topish qobiliyatlarini shakllantiradi; muammoli ta'lim – muayyan masalalarni mustaqil hal qilish orqali o'quvchilarning fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi; amaliy mashg'ulotlar va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish; maktab ichida kichik biznes yoki startap loyihalarini tashkil etish; ijodiy laboratoriyalar va texnologik parklarni yaratish; o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish; o'qituvchining roli va o'quv muhitining ahamiyati; o'qituvchilar o'quvchilarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashi, ularning yangi g'oyalar yaratishiga rag'bat berishi lozim; maktab muhitini demokratik uslubda tashkil etish, ya'ni o'quvchilarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish kerak.

Natijalar. O'quvchilarning tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonida maxsus pedagogik yondashuvlar va interfaol usullardan foydalanishni talab etadi. Tashabbuskorlik – bu insonning yangi g'oyalar ilgari surishi, muammolarni mustaqil hal qilishga intilishi va turli sohalarida innovatsiyalar yaratish qobiliyatidir. Ushbu fazilatni shakllantirish uchun o'quv jarayonida faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, amaliy mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni ham joriy qilish zarur. Loyihaviy ta'lim – bu o'quvchilarning aniq bir mavzuga oid loyihani ishlab chiqish va uni real hayotda tadbqiq etishga yo'naltirilgan metoddir. Ushbu usul o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, jamoa bo'lib ishlash, kreativ yechimlarni topish va o'z fikrlarini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida: o'quvchilar ekologik muammolar bo'yicha loyihalar yaratish orqali muammolarni tahlil qilish va yechim taklif qilish ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin; texnologiya va muhandislik yo'nalishidagi maktablarda o'quvchilar dasturiy ilovalar yoki robototexnika bo'yicha loyihalar ishlab chiqishlari mumkin; tarix va ijtimoiy fanlar bo'yicha loyihalar esa madaniy merosni o'rganish va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilishi mumkin; Loyihaviy ta'lim tashabbuskorlikning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning amaliy bilim olishini ta'minlaydi va ularga real hayotiy muammolar bilan ishlash imkonini beradi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) – ya'ni, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan kompleks ta'lim yondashuvi [5]. Ushbu metod: o'quvchilarning muammolarni innovatsion yo'llar bilan hal qilish qobiliyatini oshiradi; fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib, o'quvchilarning kengroq fikrlash doirasini shakllantiradi; eksperimental mashg'ulotlar orqali mustaqil tadqiqot olib borish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan maktablarda STEAM-loyihalari orqali o'quvchilar ilmiy tajribalar, muhandislik loyihalari va texnologik startaplarni ishlab chiqishlari mumkin. Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan va mustaqil qila oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida o'quvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tashabbuskorlik sifati o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri bo'lib, u o'zining faolligi, yangilikka intilishi va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlari bilan ajralib turadi.

Tashabbuskorlik – bu tug'ma iste'dod emas, balki uni shakllantirish va rivojlantirish pedagogik jarayon orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida innovatsion ta'lim metodlari va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Jumladan, loyihaviy ta'lim, STEAM-ta'lim, muammoli ta'lim hamda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar mustaqil tadqiqot olib borish, jamoaviy ishlash va kreativ yechimlar topish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shuningdek, maktab muhitini o'quvchilar uchun qulay va motivatsion qilish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar faqatgina bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi yo'lbo'shchi bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatini berish ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish – o'quv jarayoniga interfaol va ijodiy yondashuvlarni ko'proq kiritish, amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish; o'qituvchilarni malakasini oshirish – ularni zamonaviy pedagogik metodlarga o'rgatish, tashabbuskorlikni rag'batlantiruvchi dars usullaridan foydalanishga yo'naltirish; maktabda tadbirkorlik va startap loyihalarini rivojlantirish – o'quvchilarning biznes va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus loyihalar joriy etish; tashabbuskor o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yaratish – ilg'or o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, tanlov va grant dasturlarini kengaytirish. Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlash – ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularni bolalar tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish.

Kelajakda ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida tashabbuskorlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalardan foydalanish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va innovatsion ta'lim loyihalarini amalga oshirish o'quvchilarni yetuk, ijodkor va yetakchi shaxslarga aylantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2021). "Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va ularning pedagogik samaradorligi". Toshkent.
3. Raximov, A. (2020). "Pedagogik innovatsiyalar: ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish". Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Sayidov, A. (2019). "O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari". Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
5. Ashurova, G. (2022). "O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda innovatsion metodlar". Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 3(5), 112-125.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodlar va ularning amaliy natijalari keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tashabbuskorlik, metod, maktab, innovatsiya, ta'lim.

Абстрактный. В данной статье широко освещены педагогические возможности развития инициативных качеств учащихся специализированных школ, эффективные методы, которые можно использовать в образовательном процессе, и их практические результаты.

Ключевые слова: Инициатива, метод, школа, инновация, образование.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the pedagogical possibilities of developing initiative qualities in students in specialized schools, effective methods that can be used in the educational process, and their practical results.

Key words: Initiative, method, school, innovation, education.

ПРИМЕНЕНИЕ МУЛЬТИМЕДИА В УЛУЧШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ГЕОГРАФИИ

Тажибаева Х. Дж.

Докторант НДПИ имени Ажинияза

Под реализацией компетентностного подхода в подготовке учителя географии подразумевается способ обучения, ориентированный на овладение студентами компетенциями, являющимися универсальными для различных видов деятельности, а также для овладения видами деятельности, характерными для учителя географии [6]. Цель профессиональной подготовки учителя географии задается как ожидаемый результат, а именно ориентация на становление его профессиональной компетентности. В настоящее время подготовка будущего учителя географии осуществляется посредством реализации компетентностного подхода в уровневой системе обучения бакалавров и магистров.

Методическую компетентность можно рассматривать как личностную характеристику учителя географии, который усвоил необходимый набор компонентов содержания географического образования и в условиях реальной практики способен интегрировать приобретенные компетенции при решении методических задач, связанных с проектированием и организацией учебного процесса и внеурочной деятельности по географии [3]. С.Н. Поздняк выдвигает инновационное понятие "методическая система учителя (МСУ)", которое предназначено для детального анализа методической оснащенности преподавателя географии и его компетентности в выполнении профессиональных обязанностей. Согласно Поздняку, данный термин должен применяться как критерий для оценки деятельности учителя, осуществляющего свою работу на автономной основе. В рамках подготовки будущих педагогов в высших учебных заведениях, более корректно будет рассматривать вопрос о готовности студентов к осуществлению профессиональной деятельности, которая предполагает наличие определенных компетенций [8]. Целью данного исследования является разработка теоретических моделей, которые обеспечивают универсальный подход к представлению знаний, охватывающий как логические структуры, так и концептуальные образы, характерные для визуального мышления. В качестве второстепенной задачи ставится разработка методик визуализации знаний, которые трудно поддаются вербальному описанию. Третий аспект исследования заключается в поиске методологических подходов, позволяющих трансформировать наблюдаемые феномены в гипотетические модели скрытых механизмов и процессов, которые лежат в основе данных феноменов.

В современном образовательном процессе и сфере научных исследований информационные технологии занимают центральное место. При интеграции компьютерных технологий в образовательную среду выделяются следующие ключевые аспекты:

1. Психолого-педагогическая база, которая предполагает адаптацию образовательного процесса к психолого-педагогическим особенностям учащихся и студентов;
2. Структурирование и оптимизация учебных компьютерных ресурсов, что включает в себя создание и эффективное использование баз данных, электронных библиотек и образовательных платформ;
3. Исследование и оценка воздействия Интернета на образовательный процесс, включая анализ его влияния на мотивацию, внимание и когнитивные способности обучающихся. Объединяющей задачей всех перечисленных направлений является максимальное использование визуальных и мультимедийных материалов в образовательном

процессе. Важно не только поддерживать традиционные формы обучения, такие как лекции и семинары, но и активно внедрять инновационные методы, способствующие повышению эффективности образовательного процесса и развитию критического мышления у обучающихся. Применение мультимедийных технологий в образовательном процессе расширяет арсенал преподавателя, позволяя эффективно представлять графическую информацию и активизировать коллективное взаимодействие учащихся. Это способствует разработке инновационных учебных материалов, не отказываясь от традиционных методик и подходов в обучении.

В рамках разработки интерактивных медиа-проектов применяется инновационный подход к трансляции информационных потоков, который характеризуется следующими особенностями: 1. Интеграция мультимедийных информационных компонентов (текстовых сегментов, графических изображений, аудиовизуальных материалов) осуществляется посредством использования гипертекстовых ссылок. Данные ссылки могут быть представлены как текстовые элементы, выделенные с помощью специфических типографических средств, так и в виде графических объектов, созданных с целью визуального выделения. В рамках одного экрана может быть представлено множество гипертекстовых ссылок, каждая из которых формирует индивидуальный путь навигации. 2. Интерактивность является ключевым аспектом, который предполагает активное взаимодействие пользователя с информационным ресурсом в формате диалога. Это взаимодействие предоставляет возможность пользователю самостоятельно осуществлять выбор релевантной информации, а также регулировать скорость и последовательность её представления [2]. В контексте применения мультимедийных образовательных ресурсов, обучение может быть организовано как в коллективном формате, так и на индивидуальной основе. Данные технологии также находят широкое применение в рамках самостоятельной подготовки обучающихся в домашних условиях. Современные мультимедийные программы предоставляют пользователям обширный спектр возможностей для персонализации учебного процесса. К примеру, обучающийся имеет возможность самостоятельно модифицировать темп освоения учебного материала, его объем и уровень сложности, что способствует адаптации образовательного процесса к индивидуальным потребностям и предпочтениям каждого студента. В рамках разработки методических подходов к конструированию медиауроков, как инструмента трансляции и ассимиляции знаний, акцентируется внимание на двух инновационных аспектах образовательной деятельности. В образовательной среде устоялось мнение, что персональный компьютер выступает в роли универсального технического средства, способствующего обучению и развитию. Программное обеспечение для компьютеров и мультимедийные приложения в первую очередь способствуют расширению и углублению дидактических принципов обучения. Анализ последних десятилетий показывает, что дидактика претерпела значительные трансформации в своих функциях. К таким трансформациям относятся открытость, наглядность и доступность, системность, последовательность и осознанность. В результате выделяются два новых принципа: индивидуализация образовательного процесса и повышение активности обучающихся [4].

Принципиальная цель применения медиауроков заключается в активации познавательной деятельности учащихся, стимулировании их творческого потенциала и формировании способности к самостоятельной работе в условиях избыточности информационных потоков. В данном контексте, педагог, разрабатывая медиаурок, определяет не только специфические образовательные задачи, связанные с изучаемым предметом, но и включает в образовательный процесс воспитательные и развивающие аспекты, направленные на формирование и укрепление компонентов информационной компетентности. К таким аспектам относится развитие умений отбирать актуальную информацию, освоение инновационных методов её обработки, а также приобретение практических навыков работы с компьютерной техникой. Организация учебного процесса в классе может осуществляться через несколько форм: Фронтальные занятия включают просмотр видеороликов, анализ изменений в изучаемых объектах, Индивидуальные работы предполагают самостоятельное выполнение лабораторных заданий и решений учебных проблем, Работа в малых группах предполагает совместное завершение учебных проектов, проведение демонстрационных экспериментов и прочее.

В контексте образовательной программы важно учесть все элементы и этапы обучающего процесса, включая необходимое перемешивание активностей с использованием компьютера и без него: Актуализация (повтор и первоначальное усвоение учебного материала) может происходить как с помощью компьютера, так и без него; Формирование знаний, умений и навыков (понимание и анализ учебной информации, укрепление изученного) также может осуществляться как с использованием компьютера, так и без него; Применение (реализация полученных знаний на практике, оценка степени усвоения материала) также может быть обеспечено с помощью компьютера или без него. Несомненно, эффективное сочетание традиционных и информационных методов обучения во многом зависит от профессионализма и методических навыков учителя, но также и от его знаний в области педагогических основ, связанных с информатизацией учебного процесса.

В контексте интеграции мультимедийных технологий в образовательную сферу акцентируется внимание на применении разнообразных программных инструментов, среди которых особое место занимают:

1. Электронные учебные ресурсы, представляющие собой цифровые аналоги традиционных учебных материалов, обогащенные интерактивными элементами и мультимедийными компонентами, что способствует повышению эффективности усвоения информации.

2. Программные приложения, предназначенные для организации процесса обучения и оценки уровня усвоения

знаний учащимися. Эти программы включают в себя системы тестирования, адаптивные обучающие среды и другие инструменты, обеспечивающие индивидуализацию и дифференциацию образовательного процесса.

3. Презентационные материалы, которые используются для визуализации учебного контента, что способствует лучшему восприятию и запоминанию информации обучающимися. Эти материалы могут включать в себя слайды, видеоролики, анимации и другие мультимедийные элементы, используемые в ходе лекций и семинаров [7]. Таким образом, мультимедийные программные средства представляют собой комплексный инструмент, позволяющий разнообразить и повысить эффективность учебного процесса [9]. В рамках представленного режима осуществляется интеграция компонентов гипермедиа-технологии. В данном контексте ключевое слово может быть продемонстрировано обучающимся в качестве его дефиниции, а также предусматривается доступ к страницам различных форматов (текстовым, графическим и пр.). В процессе выполнения заданий, ассоциированных с гипертекстовой навигацией, обучающийся приобретает компетенции в области работы с мультимедийными компьютерными системами, что дает возможность возврата к интересующему сегменту теоретического материала для более глубокого осмысления [5]. Все учебные задания, входящие в состав мультифункционального образовательного продукта, должны быть представлены в полном объеме в соответствии с последовательностью, разработанной создателем продукта. Обучающий процесс включает в себя выбор заданий, содержащих элементы случайности. В рамках исследования задание для обучающихся заключается в определении количества заданий в выборке [1]. Резюмируя все вышесказанное можно охарактеризовать мультимедиа-продукт, как результат объединения двух направлений: определенной предметной области и собственно компьютерных технологий. Данный продукт интегрирует три ключевых принципа. Во-первых, процесс информирования реализуется через применение мультисенсорной коммуникации, что предполагает взаимодействие с различными каналами восприятия человека. Во-вторых, контент продукта включает в себя несколько предустановленных сюжетных линий, предоставляя пользователю определённую структуру информации. В-третьих, продукт обеспечивает возможность формирования уникальных сюжетных направлений пользователями, исходя из принципа "свободного поиска" в рамках обширного массива представленного информационного контента.

Концептуальная модель образовательного процесса, интегрирующая современные мультимедийные технологии, может быть описана как последовательность из пяти этапов, охватывающих полный цикл обучения:

Профессиональная подготовка преподавательского состава – включает в себя участие в специализированных курсах, таких как "Мультимедийные технологии в структуре образовательного процесса", целью которых является повышение квалификации преподавателей в соответствующей дисциплине. Приобретение и установка мультимедийного оборудования – представляет собой процесс, который обычно находится под контролем технического отдела образовательного учреждения. В некоторых случаях в этот процесс могут быть вовлечены и преподаватели. Подготовка мультимедийных материалов для образовательных целей – предполагает, что каждый преподаватель обязан разработать учебные ресурсы для каждого из преподаваемых дисциплин, включая использование разнообразных форм мультимедийного контента. В дополнение, преподаватели могут инвестировать в специализированное программное обеспечение, предназначенное для применения в учебном процессе. Интеграция мультимедийных технологий в образовательный процесс – является ключевым этапом, обеспечивающим эффективное использование подготовленных учебных материалов во время лекций, лабораторных и практических занятий. Студенты имеют возможность доступа к определенной части учебных ресурсов в электронном формате для самостоятельного изучения в домашних условиях.

Систематический анализ влияния применения мультимедийных технологий на эффективность образовательного процесса и степень усвоения учебного материала. Данный анализ представляет собой мониторинг результатов обучения с целью оценки и оптимизации педагогических методик.

Прогресс в области информационных технологий расширяет горизонты для разработки инновационных методик в сфере образования, что, в свою очередь, способствует повышению качества образовательных услуг и эффективности обучения.

ЛИТЕРАТУРА

1. «Мультимедийные технологии», лекционный курс. Якушин А.В. http://www.tula.net/tgpu/resouces/yakushin/html_doc/doc08/doc08index.htm
2. Андресен, Бент. Б. Мультимедиа в образовании: специализированный учеб. курс: [пер. с англ.] / Бент. Б. Андерсен, Катя Ван Ден Бринк. - 2 - е изд. ; испр. и доп. - М.: Дрофа, 2007. - с.221. С-48
3. Верещагина Н. О. Методическая подготовка бакалавров и магистров в области географического образования: методология, теория, перспективы: монография. – СПб: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2011. – 187 с. 3.; Вегнер Е. Г. Методологическая компетентность учителя географии: учебно-метод. пособ. – Новокузнецк: МАОУ ДПО ИПК, 2010. – 118 с.; Нечепуренко Г. Я. Компетентностный подход в подготовке учителя географии в условиях двухуровневого обучения // Сибирский педагогический журнал. – 2013. – № 5. – С. 77–81.
4. Захарова, И. Г. Информационные технологии в образовании: [учебное пособие для высших педагогических учебных заведений] / И. Г. Захарова. - М.: Академия, 2003. - 188 с. С-56
5. Мультимедиа-Сервис» Лекционный курс. Государственный Университет Молдовы.://www.iatp.md/virtualka «Мультимедиа-Сервис» Лекционный курс. Государственный Университет Молдовы.
6. Николина В. В. Современные педагогические технологии как фактор реализации компетентностной модели подготовки учителя географии // Современные педагогические технологии в подготовке учителя географии: сб. материалов заседания

- комиссии по географии учебно-методического объединения по образованию в области подготовки педагогических кадров (2–4 февраля 2012 г.). – Н. Новгород: Изд. НГПУ, 2012
7. Новиков, С. П. Применение новых информационных технологий в образовательном процессе / С. П. Новиков // Педагогика. – 2003. – № 9. – С. 32 –
 8. Поздняк С. Н. Проблемы совершенствования методической подготовки учителя географии в контексте требований ФГОС нового поколения // География в школе. – 2012. – № 2. – С. 37–42.
 9. Смолянинова, О. Мультимедиа для ученика и учителя / О. Смолянинова // Информатика и образование. – 2002. – № 2.

География ўқитувчисининг касбий маҳоратини оширишда мультимедиа воситаларидан фойдаланиш

Резюме: Мақолада ўқув жараёнига замонавий интерактив мультимедиа технологияларини жорий этиш мавзуси самарали таълимни ташкил этиш имкониятларини кенгайтириш ва ўқувчиларнинг ижодий салоҳиятини фаоллаштириш нуктаи назаридан кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: мультимедиа, салоҳият, компетенция, технология, география.

Применение мультимедиа в улучшении профессиональных навыков преподавателя географии.

Резюме: В статье исследуется тема внедрения в образовательный процесс современных интерактивных мультимедиа технологий, с точки зрения расширения возможностей для организации эффективного обучения и активизации творческого потенциала учащихся.

Ключевые слова: мультимедиа, потенциал, компетентность, технология, география.

The use of multimedia in improving the professional skills of a geography teacher.

Summary: The article examines the topic of introducing modern interactive multimedia technologies into the educational process, from the point of view of expanding the possibilities for organizing effective learning and activating the creative potential of students.

Key words: multimedia, potential, competence, technology, geography.

DASTLABKI TAYYORGARLIK BOSQICHIDA YOSH KURASHCHILARNING JISMONIY SIFATLARI VA TOJ USULLARINI RIVOJLANTIRISH

Muxammadiev K. B., Aripov Yu. Yu

Toshkent davlat transport universiteti

O'DJT va SU

Kirish. Respublikamizda kurash sport turini yanada rivojlantrish, kurashchilarning muntazam yangi zaxira avlodini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kurash sport turini faol targ'ib qilish va ommalashtirish bo'yicha ko'plab qarorlar qabul qilinib, bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda. Iqtidorli sportchilarni, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada kurashchilar uchun zamonaviy ilmiy-metodik tavsiyalar asosida o'quv-mashq jarayonini tashkil qilish, ularning nazariy va texnik-taktik ko'nikmalarini takomillashtirish, professional mahoratini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kurashchilarning mashg'ulot usullarini tizimlashtirish, jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini bog'liqligini ilmiy asosda tashkil etish hamda metodologiyasini ishlab chiqish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 04-noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi PQ-450-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, hamda shu sohaga tegishli bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi [1, 2, 3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligini optimallashtirish muammosi hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda yosh kurashchilarning yuqori darajada shug'illanishini ta'minlashga, ko'p yillik siklli tayyorgarlik jarayonida funksonal va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan usul va vositalar shuningdek, kurashchilarning jismoniy, funksonal tayyorgarligi bo'yicha o'rganilgan bir qator tadqiqotlar mavjud.

Kurashchilar tayyorgarligining turli bosqichlarida ularga texnik va taktik harakatlarni o'rgatish muammolari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, K.B. Muxammadiev, A.N. Abdiev, F.A. Kerimov, G.S. Tumanyan [6, 4, 11] texnik-taktik harakatlarni o'rgatish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ularning ilmiy izlanishlarida yosh kurashchilar mashg'ulot tizimining asosiy tarkiblari bayon qilingan, boshlang'ich mashg'ulot jarayonlari mazmunini tizimlashtirilgan, texnik-taktik takomillashtirish texnologiyalari ishlab chiqilib, muvoffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan. Bu tadqiqotlar natijalari kurashchilarning mashg'ulot jarayoni optimallashtirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Zamonaviy adabiyotlarda kurashchilarning mashg'ulot jarayonini tashkil qilish yuzasidan keng qamrovli tajriba materiallari, odatda yuqori malakali sportchilar mashg'ulotlariga bag'ishlangan. Biroq hozirga qadar yangi shug'ullanayotgan kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatish samaradorligini oshirishga doir muhim pedagogik vositalar hamda uslublar kam o'rganilgan.


Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Suhbat, pedagogik kuzatuv, suxbatbat, pedagogik testlash uslublari, pedagogik tajriba, matematik-statistik metodlari bayon qilingan. Tadqiqot metodologiyasiga asoslanib, tajribani

o'tkazishga tayyorgarlik ko'rildi, vazifalar, tadqiqot bosqichlari va muddatlari, tajriba tadqiqotlarida qo'llaniladigan nazorat mashqlari mazmuni aniqlashtirildi. Tajribada ishtirok etuvchi yosh kurashchilarni tanlash, ular bilan tajriba maqsadi haqida suhbat olib borildi. Tajribaga jalb qilinadigan yosh kurashchilarning an'anaviy mashg'ulotlari o'rganildi. Tajriba muddati davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar dastlabki o'rgatish bosqichida o'rgatiladigan texnik harakatlarini shakllantirish bo'yicha metodika ishlab chiqilib tadqiqot guruhida sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotga jalb qilingan nazorat va tajriba guruhlarida yosh kurashchilarning bellashuv faoliyatini tadqiq qilindi. Ishlab chiqilgan metodikaning mohiyati va mazmuni, tajriba guruhida qo'llaniladigan eksperimental dasturning maqsadi va mazmuni haqida yana bir bor tushuntirish subatlari tashkil etildi. Tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Tajriba kurashning samarali o'rgatish vositalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash uslubini qo'llash metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek, tajribada ishtirok etuvchi ikki guruhda ham dastlabki tadqiqotlar o'tkazildi va rejalashtirilgan texnik tayyorgarlikni baholash ishlari olib borildi. Belgilangan vaqt davomida tajriba muddati tugashi bilan ikki guruhda ham texnik usullarni bajarish ko'nikmalarini shakllanishini maxsus nazorat mashqlari yordamida yakuniy tadqiqotlar o'tkazildi. Tajriba natijalari umumlashtirildi va tabaqalashtirilgan holda statistik uslublar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarni texnik-taktik harakatlarga o'rgatishda pedagog va murabbiylar bilan o'tkazilgan anketa so'rovnoma va mashg'ulot jarayoni hamda musobaqa faoliyatini pedagogik kuzatishlar natijalari boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy texnik harakatlar to'g'risidagi tasavvurlarni birmuncha kengaytirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot davomida mamlakatimizda kurash sportini rivojlantirish va uni yanada ommalashtirish, ilmiy-metodik ta'minotni yo'lga qo'yish, xususan, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish va mashg'ulotlar jarayonida yangi vosita va usullarni qo'llash yuzasidan pedagogik kuzatuv olib borildi va amaliy tajribaga ega bo'lgan jami 75 nafar (shundan 39 nafar 5-10 yil, 21 nafar 10-20 yil va 15 nafari 20 yildan ortiq murabbiylik tajribasiga ega mutaxassislar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi, anketa so'rovnomasi natijalari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi [6, 7]. Malakali murabbiylardan tashkil topgan respondentlarning javoblari tahlil qilinganda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga 7-10 yoshdan boshlab qabul qilinishini 41 nafar mutaxassis ta'kidlagan va bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etadi. Kurash bo'yicha tajribali pedagog va murabbiylar bilan o'tkazilgan anketa so'rovlarining tahlili shuni aniqlab berdiki, mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda 32,5 % mutaxassislar texnik va taktik usullarni o'rgatishda usullarning ketma-ketligiga diqqat qaratadi, ayni paytda 45% pedagog va murabbiylar mashg'ulotlarni tashkil qilishning bu qismiga e'tibor qaratmaydi (1-rasm.larga qarang).

1-rasm. Anketa so'rovnomasi natijalari



Pedagog va murabbiylarning anketa savollariga bergan javoblarini darajalarga ajratish uslubidan foydalanib, kurashda ko'p yillik sport takomillashuvining boshlang'ich bosqichida asosiy elementlar texnikasini o'rgatishning oqilona ketma-ketligi aniqlandi. U o'rganilayotgan elementlarning uzviyligi va o'zaro ta'siriga asoslangan. Shuningdek, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilar 54 ta usulni o'zlashtirib olishlari kerak, bunda usulni taktik tayyorgarlik usullari bilan bir vaqtda o'zlashtirish hamda ularga bir butun harakat sifatida qarash lozim.

Kurash sport turida, boshqa yakkakurash sport turlari kabi, musobaqalarda harakat amallarining yuqori samaradorligi va natijadorligiga erishish ko'p jihatdan jismoniy va texnik tayyorgarlikning, shuningdek, umumiy ishchanlik qobiliyatining yuqori ko'rsatkichlari hisobiga ta'minlanadi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish sport mashg'ulotining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bolalik va o'smirlik chog'ida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sportchilarning jismoniy qobiliyatlari, etakchi olimlarning fikriga ko'ra, sport mahoratining o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy element sanaladi. A.A. Novikov fikricha, jismoniy sifatlarning kuch, tezlik, chidamlilikni ta'minlagan holda texnik usullarni amalga oshirishda qatnashadi. Ularni hisobga olish murabbiyga har bir shug'ullanuvchining imkoniyatlarini chuqur baholashga imkon beradi [9]. Biroq yosh kurashchilarning harakat tayyorgarligi darajasini faqat kompleks holda ob'ektiv baholash mumkin. Bunda mashg'ulot jarayoni borishini uzoq muddat muntazam kuzatib borish orqali shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasiga asoslanish kerak bo'ladi. Biz tadqiqot davomida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanayotgan yosh kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini aniqladik. Yosh kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha nazorat ma'yorlaridan (8-11 yosh uchun) foydalangan holda baholandi. Bu

me'yorlar sport kurashi turlari bo'yicha sport tayyorgarligi kompleks dasturida tavsiya qilingan me'yorlar edi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun o'tkazilgan pedagogik testlash natijasida quyidagi ko'rsatkichlar qayd qilindi (1-jadval). Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha test natijalari quyidagilarni aniqlashga imkon berdi: 10 yoshli kurashchilarda kuchning rivojlanishini aniqlab beruvchi quyidagi nazorat testlari – erga tayangan holda qo'llarni bukib-yozish, to'ldirma to'pni (3kg.) bosh orqasidan oldinga otish bo'yicha ko'rsatkichlar 11 yoshdagilarga nisbatan ishonchli tarzda yuqori ($P<0,05$ va $P<0,01$).

1- jadval. 8-11 yoshdagi kurashchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanish ko'rsatkichlari (n=100)

Koʻrsatkichlar	Yoshi								8-11 yosh	
	8 yosh n=25		9 yosh n=25		10 yosh n=25		11 yosh n=25			
Kuch sifatlari										
Erga tayangan holda qoʻllarni bukib yozish, (marta)	$\bar{X}$	σ	$\bar{X}$		$\bar{X}$	σ	$\bar{X}$	σ		
	8,5	1,5	10,9	1,7	12,7	2,2	13,3	2,8	1,52	<0,05
3 kg tuldirma toʻpni bosh orqasidan oldinga otish (m)	2,5	0,2	2,8	0,4	3,1	0,3	3,5	0,7	2,91	<0,01
Turnikda tortilish (marta)	4,5	0,7	4,9	0,2	5,0	0,5	6,3	0,4	3,11	<0,01
Tezlik-kuch sifatlari										
Turgan joydan uzun-likka sakrash (sm)	110,1	2,1	117,8	3,9	125,9	3,1	135,5	3,6	2,70	<0,05
Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	27,6	1,9	31,0	2,1	35,2	1,7	38,6	1,9	2,59	<0,05
20 s. Ichida turnikda toritilish (marta)	2,7	0,5	3,1	0,6	3,8	1,1	4,3	0,9	2,55	<0,05
Tezkorlik										
30 m.ga yugurish (s)	6,3	0,5	6,1	0,1	6,0	0,7	5,3	0,5	3,11	<0,05
Koordinatsiya										
3x10 m.ga moksimon yugurish (s)	10,5	0,6	10,1	0,9	10,0	0,4	9,4	0,2	2,10	>0,05
Egiluvchanlik										
Gimnastika oʻrindi-gʻida turib oldinga egilish (sm)	3,8	0,28	4,1	0,21	4,5	0,21	5,1	0,31	2,53	<0,01
Chidamlilik										
1000 m.ga yugurish (m.s.)	6,50	0,39	6,48	0,52	6,35	0,30	6,20	0,23	2,25	<0,05

11 yoshdagi o'g'il bolalarda turnikda tortilish ko'rsatkichlari ham 10 yoshdagi bolalarning ko'rsatkichlaridan ancha yuqori bo'ldi ($P<0,01$). Tezlik kuch sifatining rivojlanganlik darajasi kurashchilarning bellashuv taqdirini hal etishida muhim ahamiyatga ega [6, 8]. Tezlik kuch sifatining yoshga xos rivojlanish dinamikasini aniqlash bo'yicha olingan test natijalari quyidagicha: 9 va 10 yoshdagi kurashchilarning turgan joydan balandlikka sakrash va turnikda tortilish bo'yicha natijalarida mos ravishda 12,1%, 12,3 % va 18,1 % ga teng farqlar aniqlandi. Bu yoshdagi kurashchilarda turgan joydan uzunlikka sakrash $133,3\pm 3,4$ sm, turgan joyida balandlikka sakrash $38,6\pm 1,9$ s.m, 20 s. ichida turnikda tortilish testlaridagi maksimal ko'rsatkichlar $3,7\pm 0,8$ martani tashkil etib va mos ravishda ortganligini ko'rsatdi. Tezkorlik hamda chaqqonlikning rivojlanish darajasi aksariyat sport turlarida, jumladan sport kurashida ham muvaffaqiyatni belgilab beradi. Bolalar va o'smirlar sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi mutaxassislar, o'z tadqiqotlari natijalariga asoslanib, chaqqonlik jismoniy sifatini aynan boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidan alohida urg'u qaratgan holda rivojlantirishni tavsiya etadi. Chaqqonlik kurashchilarning bellashuvda muvaffaqiyat qozonishga muhim rol o'ynaydi, zero bellashuvda murakkab texnik-taktik harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish asosi, muhim sifatlardan biri sanaladi.

Tadqiqotlarimizda yosh kurashchilarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlari joyidan 30 m.ga yugurish va 3x10 m. ga moksimon yugurish testlari orqali baholandi. Testlash natijalariga ko'ra, chaqqonlik sifatlari 11 yoshga kelib 10 yoshdagi ko'rsatkichlariga nisbatan ($P>0,05$) biroz yaxshilandi. Tezkorlikning rivojlanish dinamikasi 8 va 9 yoshli kurashchilar orasida taqqoslanganda 4,4 % ga, 8 va 9 yoshli sportchilar orasida 4,6% ga, 9-10 yoshlarda 4,8 % ga teng farqlar aniqlandi. 8 va 11 yoshli kurashchilar orasida tezkorlik sifatining o'sishi 13,2 % ni tashkil qildi. 9 yoshdagi kurashchilarda chaqqonlik sifatining rivojlanish ko'rsatkichlar $10,1\pm 0,9$ s.ni tashkil etdi. Olingan natijalar yosh kurashchilarda chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish uchun qo'llanilayotgan uslublar yosh sportchilarning yoshga xos xususiyatlarini inobatga olmagan holda amalga oshirilayotganligi dan darak beradi.

Kurashda egiluvchanlikning yuqori darajada rivojlanganligi bellashuv davomida texnik harakatlarni oqilona bajarishga imkon yaratadi, egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan testlashda natijalar 8-11 yoshdagi kurashchilarda mos ravishda $3,8\pm 0,81$ sm; $4,1\pm 0,21$ s; $4,5\pm 0,21$ sm, $5,1\pm 0,31$.ni tashkil etdi. Yosh kurashchilar tomonidan ko'satilgan natijalar yosh kesimida tahlil qilinganda 8-9 yoshlar orasida 0,3 sm, 10-11 yoshlilar orasida 0,6 sm.ga ($P<0,01$) teng farqlar aniqlandi. Kurashida barcha jismoniy sifatlarda chidamlilik alohida o'rin tutadi. Qolgan jismoniy sifatlarda bir muddat vaqt davomida namoyon bo'ladi yoki mashqni ko'p marta takrorlash jarayonida ko'zga tashlanadi, bu esa ma'lum darajada yaxshi rivojlangan chidamlilikni taqozo etadi. Chidamlilikning rivojlanish darajasini aniqlash uchun qo'llanilgan 1000 m.ga yugurish testida 8 yoshdagi kurashchilar $6,50\pm 0,39$, 9 yoshdagilar $6,48\pm 0,52$ min. vaqt natijasini ko'rsatdi. Ushbu masofani bosib o'tishda 11 yoshdagi kurashchilar eng yaxshi natija ko'rsatishdi $6,20\pm 0,23$.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olib borilgan tadqiqot bo'yicha olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, xulosa qilish mumkinki, tadqiqot mavzusi doirasida o'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki,

jismoniy sifatlarni rivojlantirish va boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarda asosiy texnikani takomillashtirish uslubiyatni ishlab chiqish hamda ilmiy asoslashga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari etarli emas. Zamonaviy kurashda yangi samarali vosita va uslublar nafaqat boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi maqsadi-vazifalarini hal etishga, balki yosh kurashchilarning kelgusida yuqori natijalarga erishishi uchun zaxira hosil qilishga imkon beradi. Pedagogik tajriba natijalari shundan dalolat beradiki, 8-11 yoshdagi yosh kurashchilar jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhlariga uchun dasturda ko'rsatilgan jismoniy va sport tayyorgarligi ma'yorlari talablariga mos keldi. Musobaqa faoliyatining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Texnik harakatlar bilan eng yuqori korrelyatsion bog'liqlik quyidagi mashqlar bilan aniqlandi: 3x10 m.ga mokusimon yugurish $r=0,81$; $P<0,05$; ko'pri holatida bosh atrofida yugurishlar, 5 marta chapga, 5 marta o'ngga $r=0,70$; $P<0,05$; 20s. ichida turnikda tortilishlar $r=0,83$; $P<0,05$; butun bellashuv davomida to'plangan ballar soni $r=0,68$; $P<0,05$ ga tengligi isbotlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-336-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-450-son Qarori.
3. Керимов Ф.А. Инновационные технологии в системе подготовки высококвалифицированных борцов / Ф.А.Керимов, О.А.Курбанов // Современные проблемы подготовки борцов высокого класса: Матер, науч.-практич. конф. ФИЛА. – М., 2010.
4. Мухаммадиев К.В. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi". – Toshkent, 2021. – 413 b.
5. Мухаммадиев К.В. Спортсированное физическое воспитание студентов на основе сочетания средств борьбы и игрового метода // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/УДС 796.011.2:5:012.33. – Москва, № 9, 2021.
6. Мухаммадиев К.В. Sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarining jismoniy sifatlari, funktsional tayyorganligi, organizm fizologik holatining o'sish va tiklanish dinamikasi // Xalq ta'limi – Toshkent, 2020. 6-son, – 78-84 b.
7. Мухаммадиев К.В. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish // Ta'lim, fan va innovatsiya – Toshkent, 2021. 4-son. – 53-57 b.
8. Туманян Г.С. Спортивная борьба: Теория, методика, организация тренировки: Учебное пособие: в 4-х кн. / Г.С. Туманян. – М.: Советский спорт, 1997. – 125 с.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarning jismoniy sifatlari va toj usullarini rivojlantirish

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligini optimallashtirish ko'p yillik siklliy tayyorgarlik jarayonida funktsional va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan usul va vositalar, test sinovlaridan o'tish me'yorlari kabi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, rivojlantirish, ommalashtirish, epchillik, chaqqonlik, barqarorlik, kuch.

Развитие физических качеств и техники подтя у юных борцов на начальном этапе подготовки

Аннотация. В статье рассматриваются методы и средства, направленные на оптимизацию технико-тактической подготовки юных борцов на начальном этапе тренировки, повышение уровня функциональной и физической подготовленности в ходе многолетнего циклического тренировочного процесса, а также особенности организационной и проведения физического воспитания и спорт, а также такие показатели, как сдачи тестов.

Ключевые слова: физическая культура, развитие, популяризация, ловкость, проворство, устойчивость, сила.

Development of physical qualities and toja technique in young wrestlers at the initial stage of training

Annotation. The article examines methods and means aimed at optimizing technical and tactical training of young wrestlers at the initial stage of training, increasing the level of functional and physical fitness during the long-term cyclic training process, as well as the features of organizing and conducting physical education and sports, as well as such indicators as passing tests.

Key words: physical culture, development, popularization, agility, dexterity, stability, strength.

ТАВСИРИЙ САНЪАТНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ТАБИАТ ҚЎЙНИДА РАСИМ ЧИЗИШНИНГ ЎРНИ ВА ВАЗИФАСИ

Хожамуратов Қ.Б.

Қорақалпоқ давлат университети

Кириш. Тасвирий санъат инсон маънавиятининг ажралмас қисми бўлиб, унинг бадиий тафаккури ва ижодий қобилиятини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Санъат тарихи давомида рассомлар табиатни ҳаққоний тасвирига интилиб келганлар. Хусусан, манзара жанрининг шаклланиши ва тараққий этиши табиатни диққат билан кузатиш ва унинг борлигини англаш билан чамбарчас боғлиқдир. Рассомлар табиатни нафақат ташки қўриниши учун, балки унинг руҳий ва ҳиссий таркибини теран англаш мақсадида ҳам ўрганганлар. Ҳозирги кунда тасвирий санъат таълимида табиат қўйнида бевосита кузатиш асосида расм чизиш муҳим методик восита сифатида тобора кенг қўлланилмоқда. Талабалар учун табиатда расм чизиш нафақат амалий машқ, балки табиат ҳодисаларини англаш, уларнинг ички моҳиятини ҳис қилиш ва ижодий изланиш жараёни ҳамдир. Бу усул ёш рассомларнинг кузатувчанлик қобилиятини ошириш, уларнинг мустақил ижодий тафаккурини ривожлантириш ва композицияни тўғри англаш малакасини шакллантиришда муҳим ўрин тутди. Шунингдек, табиат қўйнида ишлаш орқали талабалар ёруғлик ва соя муносабатларини, фазовий чуқурликни ва табиий ранг уйғунлигини тўғри

тушуниш имкониятига эга бўладилар. Табиатда расм чизиш жараёни рассомнинг бадиий тафаккурини ривожлантириб, унинг ҳиссий дунёсига ҳам таъсир кўрсатади. Рассом табиатнинг турли ҳолатларини кузатиб, у билан мулоқотга киришади ва ўз ижоди орқали унинг гўзаллигини акс эттиради. Бу жараёнда табиатни нафақат визуал, балки ҳиссий жиҳатдан ҳам англаш муҳим аҳамиятга эга. Чунки табиат ўзгарувчан ва серқирра бўлиб, ҳар бир палласи ўзига хос эстетик ҳолатни акс эттиради.

Табиат – инсоннинг маънавий оламини бойитишда ҳам муҳим аҳамият касб этади. У инсонни ички уйғунликка, табиат қонунларини ҳис қилишга ва улардан илҳом олишга ўргатади. Рассом учун табиатни кузатиш ва уни тасвирлаш нафақат касбий маҳоратини ошириш, балки унинг ижодий дунёқарабини ҳам бойитишнинг асосий воситаси ҳисобланади. Табиат билан мулоқот қилиш рассомни руҳий равишда уйғотади, унинг ички кечинмаларини ижод орқали ифодалашга ёрдам беради. Бундан ташқари, табиатда расм чизиш жараёнида рассомлар ҳар хил ташқи омилларга, яъни ҳаво ҳолати, куннинг турли вақтларида ёруғлик ўзгаришлари, соялар динамикаси каби жиҳатларга дуч келишади. Бу эса уларнинг реал кузатиш асосида тезкор тасвирлаш, тафсилотларни илғаш ва ҳис қилиш қобилиятини ривожлантиради. Табиатда расм чизиш жараёнида рассом табиат манзараларидаги энгил-вазминлик, ҳаракат ва ёруғликнинг таъсирини сезиши, уни ижодий равишда талқин қилиши мумкин. Ушбу мақолада тасвирий санъатни ўрганиш жараёнида табиат қўйнида расм чизишнинг ўрни ва вазифаси ҳақида сўз боради. Хусусан, табиатни кузатиш орқали реализмни теранроқ англаш, тоналлик ва ёруғлик таъсирини тадқиқ этиш, композициядаги аҳамияти ҳамда тасвирий усуллар ҳақида фикр юритилади. Шунингдек, табиатда расм чизиш жараёнидаги психологик ва ҳиссий жиҳатлар, техник усуллар ва санъат таълимидаги аҳамияти ҳам кенгроқ ёритилади. **Табиат қўйнида чизишнинг аҳамияти.** Табиат инсоннинг илҳом манбаи ҳисобланади. Тасвирий санъатни ўрганиш жараёнида табиатни кузатиш, унинг ранги, ёруғлик ва соялар ўйини, шакллар ва тузилишини англаш муҳимдир. Табиат қўйнида чизиш бу жараёнда талабаларга ва рассомларга реал воқеликни ҳис қилишга ёрдам беради, уларнинг кузатувчанлик ва тафаккурини ривожлантиради. Шунингдек, бу усул табиатни тўғридан-тўғри кузатиб, асл ҳодисаларни сезиш ва тасвирлаш малакасини оширишга хизмат қилади. Табиат қўйнида чизиш, шунингдек, стрессни камайтириш, диққатни ошириш ва ички илҳомни уйғотишда ҳам самарали усул ҳисобланади. [1,35; 2,20].

Табиатда чизишнинг техник ва методик усуллари. Тасвирий санъатни ўрганувчилар учун табиат қўйнида ишлаш жараёнида бир нечта методик усуллар мавжуд. Биринчи навбатда, кузатиш ва таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга. Талабалар реал борлиқни англаш учун табиатнинг турли ҳолатларини, ранглар ва ёруғлик таъсирини ўрганишлари керак. Шунингдек, табиатда чизиш жараёнида турли техникалар – акварель, пастель, қўмир ёки рангли қаламлардан фойдаланиш мумкин. [3,456]. Иккинчи муҳим жиҳат – эскиз ва этюд ишлари. Талабалар табиатда эскизлар чизиш орқали ўз техника ва маҳоратини оширишади. Эскизлар рассомга композицияни яхшироқ англаш ва объектларни тўғри жойлаштиришга ёрдам беради. Шунингдек, табиат манзараларини эскиз қилиш жараёнида талаба композицион муҳитни англаш, перспектива ва фазони тўғри акс эттиришни ўрганади. Ҳозирги кунда санъат таълим муассасаларида этюдлар асосий ўқув жараёнининг муҳим қисми ҳисобланади. [4,266]

Табиатда чизиш жараёнидаги психологик ва ҳиссий жиҳатлар. Табиатда чизиш нафақат техник маҳоратни ошириш, балки психологик ва ҳиссий жиҳатларни ҳам ривожлантиришда муҳим ўрин тутаяди. Тирик табиат муҳитида ижод қилиш жараёнида рассом нафақат кўриш ва тушуниш, балки ҳис қилиш қобилиятини ҳам ривожлантиради. Чизиш жараёнида табиат билан бевосита боғланиш инсон онгида янгилаш илҳом уйғотади, эстетик завқни оширади ва янги гояларни шакллантиради. [5,676]. Табиатда чизиш жараёнида инсон ҳиссий ҳолатининг ўзгариши кузатилади. Бу жараён ижодий илҳомнинг ошишига, стресс даражасини пасайишига ва диққатни жамлаш қобилиятини яхшиланишига олиб келади. Бундай ижодий фаолият инсон онги ва ички дунёсига ижобий таъсир кўрсатади, бу эса санъаткорнинг асарларида ўзига хос услуб ва ёндошувлар пайдо бўлишига сабаб бўлади. Шу билан бирга, табиат манзаралари инсон хотирасига чуқур таъсир кўрсатиб, у ёритган табиий элементлар тасвирий санъатда янгилаш ранг ва шаклларда акс этади [1,78]. **Табиат манзараларини тасвирлашда композиция аҳамияти.** Композиция пейзаж тасвирида муҳим омиллардан бири бўлиб, у асарнинг умумий таъсирини белгилайди. Композиция тўғри танланганида, манзарадаги асосий элементлар уйғунликда жойлашади, ранглар ва ёруғлик муносабати самарали акс этади. Пейзаж композициясида тўғри миқёслик ва ритмни сақлаш, диққат марказини белгилаш муҳим ҳисобланади. Бу жараёнда рассомлар турли услублардан – симметрик ва асимметрик композиция, диагональ ва динамик жойлашувлардан фойдаланадилар. Шунингдек, табиат манзарасидаги фазони тўғри ҳис қилиш ва ранг уйғунлигини сақлаш пейзаж рассомчилигининг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади. [2,64]. **Тоналлик ва ёруғликнинг аҳамияти.** Тоналлик ва ёруғлик тасвирий санъатнинг муҳим элементларидан бири бўлиб, улар орқали композициянинг асосий мазмунини шакллантирилади. Ёруғлик ва соялар ёрдамида объектларнинг ҳажмдорлиги, фазодаги ҳолати ва динамикаси тасвирланади. Леонардо да Винчи ўз асарларида ёруғлик ва соялар ўртасидаги мувозанатни жуда муҳим деб ҳисоблаган. Табиатда чизиш жараёнида тоналликнинг бир хил бўлмаслиги, ҳар бир соя ва нурнинг ўзига хослиги ижодкор учун янада мукамал кузатиш қобилиятини ривожлантиради [6,33]. **Ранглар уйғунлиги ва реализм.** Табиатда чизиш жараёнида ранглар уйғунлигини ўрганиш муҳим. Ҳар бир фасл табиатда турлича ранг гаммасига эга бўлиб, бу рассомнинг реалистик ёндоқишини ривожлантиради. Табиатдаги табиий ранг ўзгаришларини кузатиш, уларни боёқлар ёрдамида тасвирлаш ижодий маҳоратни оширади. [8,186]. Ранглар уйғунлиги реалистик тасвир яратишда муҳим рол ўйнайди. Рассомлар

табиатда чизиш орқали ранглар ўртасидаги боғлиқликни яхшироқ англайдилар. Табиатдаги нур ва соялар, рангларнинг бир-бирига таъсири – буларнинг барчаси реализмни шакллантириш учун асосий омиллардан ҳисобланади. Рассом табиатда чизиш жараёнида турли об-ҳаво шароитларидаги ранглар ўзгаришини, ёруғликнинг таъсирини кузатиб, ўз асарларида уларни акс эттиришга ҳаракат қилади. Табиатда чизиш орқали реализмнинг асл моҳиятини ҳис қилиш ва уни ижодда татбиқ этиш мумкин. [2,102].

Хулоса. Табиат қўйнида расм чизиш тасвирий санъатни ўрганиш жараёнида муҳим ўрин тутати ва ёш рассомлар учун ноёб тажриба манбаи ҳисобланади. Рассом табиатда ишлаш орқали ўз кузатувчанлигини оширади, композиция қоидаларини амалиётда қўллашни ўрганади ва техник маҳоратини ривожлантиради. Шунингдек, табиатда чизиш жараёни ижодкорга ҳақиқий ёруғлик ва ранглар уйғунлигини кузатиш имконини беради, бу эса реализм ва таассуротчилик йўналишларида ишлаш учун муҳим асос бўлади. Табиатда бевосита кузатиш орқали расм чизиш жараёни санъаткорга табиий нур ва соя ўйинларини, мавсумий ўзгаришларни ва атмосфера ҳолатларини янада чуқур англаш имконини беради. Бу эса рассомнинг тасвирий нутқини бойитади, композициядаги мувозанатни яхшироқ ҳис қилишга ёрдам беради. Бундан ташқари, табиатда расм чизиш нафақат кўникма ҳосил қилишнинг амалий усули, балки илҳом манбаи ҳамдир. Табиат қўйнида расм чизиш жараёни инсон психологиясига ижобий таъсир кўрсатади. Бу жараён стрессни камайтиради, диққатни жамлашга ёрдам беради ва ижодий изланишга руҳий тайёргарлик ҳосил қилади. Рассом табиат билан боғланиб, ўз ҳиссий кечинмалари ва ички туйғуларини тасвирда ифода этади. Шу боис, табиатда расм чизиш нафақат касбий маҳоратни ошириш, балки шахсий ижодий ўсиш учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Санъат таълим муассасаларида табиатда чизиш машғулотларини методик жиҳатдан тўғри ташкил этиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Бундай ёндашув талабаларга нафақат техник билим ва кўникмаларни, балки табиатга нисбатан эстетик ва ҳиссий муносабатни шакллантиришга ёрдам беради. Табиатда расм чизиш орқали ёш рассомлар нафақат композиция ва ранг қонунларини ўрганадилар, балки санъатни руҳий ҳис қилиш, атроф-муҳитни бадиий англаш қобилиятини ҳам ривожлантирадилар.

Шунингдек, бу жараён санъатнинг турли йўналишларида – реализм, импрессионизм, экспрессионизм ва бошқа услубларда ишлаш учун ҳам мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади. Табиатнинг бекиёс гўзаллигини тасвирлаш орқали рассом ўз дунёқарашини кенгайтиради ва индивидуал услубини топиш имкониятига эга бўлади. Хулоса қилиб айтганда, табиатда расм чизиш нафақат санъаткор учун амалий машқ, балки унинг ижодий камолотига йўл очувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Ушбу жараён санъаткорнинг кўзга кўринган ва кўринмас бадиий таассуротларини шакллантиришда улкан аҳамият касб этади. Шу сабабли, санъат таълимида табиатда чизишга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

АДАБИЁТЛАР

1. Карлсон, Д. (2010). Рассом ва табиат. –Москва: «Искусство».
2. Райт, Т. (2015). Пейзажная живопись: Техника и методика. Лондон: Thames & Hudson.
3. Левитан, И. (1890). Эскизы природы. –Санкт-Петербург.
4. Гончаров, А. (2018). Композиция в пейзаже. –Москва: Издательство «ВГИК».
5. Зарипов, К. (2020). Ижодий жараёнда психологиянинг ўрни. –Тошкент: «Фан».
6. Репин, И. (1904). Живопись и наблюдение природы. –Санкт-Петербург.
7. Васнецов, В. (1912). Тональные отношения в искусстве. –Москва: Государственное издательство.
8. Шишкин, И. (1885). Лес и свет в живописи. –Санкт-Петербург.

Резюме. Мақолада тасвирий санъатни ўрганиш жараёнида табиат қўйнида чизишнинг ўрни ва вазифаси таҳлил қилинади. Табиат инсон учун илҳом манбаи бўлиб, тасвирий санъатда унинг аҳамияти катта. Мақолада табиатда чизишнинг методик усуллари, психологик ва ҳиссий жиҳатлари, ҳамда композициядаги ўрни ёритилган.

Ключевые слова: тасвирий санъат, табиат манзараси, эскиз, композиция, ижодий қобилият.

Summary. This article analyzes the role and function of drawing in nature in the study of fine arts. Nature is a source of inspiration for humans and plays a significant role in visual arts. The article discusses methodological approaches, psychological and emotional aspects, and the importance of composition when drawing in nature.

Keywords: fine arts, natural landscape, sketch, composition, creative ability.

Резюме. В статье анализируются роль и значение рисования на природе в изучении изобразительного искусства. Природа является источником вдохновения для человека и играет важную роль в изобразительном искусстве. В статье рассматриваются методологические подходы, психологические и эмоциональные аспекты, а также значение композиции при рисовании на природе.

Ключевые слова: изобразительное искусство, природный ландшафт, набросок, композиция, творческая способность.

**SHAXSNI GAROV SIFATIDA TUTQUNLIKKA OLISH JINOYATINING BOSHQA O'XSHASH
TARKIBLI JINOYATLARDAN FARQLOVCHI BELGILARINING UMUMIY TAHLILI**

Annakulov A.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda o'xshash turdagi jinoyatlar bilan farqlash muhim omil hisoblanadi. Farqlash orqali jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan masalalarga oydinlik kiritiladi.

Ushbu turdagi jinoyatlarni farqlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur: jinoyatlarni kelib chiqish sabablari va sodir etilishiga asos bo'luvchi holatlarga qarab farqlash; jinoyatlarning obyekti bilan bog'liq elementlariga qarab farqlash; jinoyatlarning obyektiv tomoni bilan bog'liq elementlariga qarab farqlash; jinoyatlarning subyektiv tomoni bilan bog'liq elementlariga qarab farqlash; [1, 480]. Jinoyatlarni kelib chiqish **sabablari va sodir etilishiga** asos bo'luvchi holatlarga qarab farqlashda eng muhim belgilar sifatida quyidagilarni tahlil etish lozim:

Birinchidan, jinoyatlarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning shaxs harakatiga o'zaro ta'sirini baholash orqali, ya'ni davlat va jamiyat hayotidagi muhim o'zgarishlarning shaxslar hayotiga salbiy ta'siri orqali kelib chiqadigan holatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, shaxsning ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar natijasida jinoyat sodir etishiga moyillikning kuchayib borishi natijasida jinoyatga qo'l urushini o'zida ifodalaydi. Uchinchidan, shaxsning iqtisodiy jihatdan qiyinchiliklarni boshidan o'tkazishi natijasida jinoyat sodir etishga sabab paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. To'rtinchidan, shaxsning asossiz tarzda ehtiyojlarining ortib borishi va jamiyatda o'z o'rnini yo'qotib qo'yishi natijasida jinoyat sodir etilishiga sabablar paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida, ushbu tarmoqlardan foydalanib jinoyatlar sodir etilishi imkoniyatlari oshishi hamda paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Jinoyatlarning **obyekti** bilan bog'liq elementlariga qarab farqlash orqali bir turga mansub bo'lgan jinoyatlarni bir-biridan ajratuvchi holatlarni tahlil etish mumkin. Shuningdek, jinoyatlarning obyekti bilan bog'liq elementlariga qarab farqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Birinchidan, umumiy obyektga zarar yetkazishi bilan bog'liq jinoyatlarni bir-biridan farqlashga e'tibor qaratish lozim. Ikkinchidan, umumiy obyekt bilan bir qatorda qo'shimcha obyektga ham zarar yetkazishi bilan bog'liq jinoyatlarni bir-biridan farqlashga e'tibor qaratish lozim. Uchinchidan, bevosita obyektga zarar yetkazishi bilan bog'liq jinoyatlarni bir-biridan farqlashga e'tibor qaratish lozim. To'rtinchidan, murakkab tarkibli jinoyatlarda qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilishini alohida-alohida tarzda baholashga katta e'tibor qaratish lozim. Beshinchidan, bir turdagi jinoyatlarni sodir etish orqali bir necha obyektlarga zarar yetkazilsa, ularni alohida kvalifikatsiya qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozim[2, 102].

Jinoyatlarning **obyektiv tomoni** bilan bog'liq elementlariga qarab farqlash bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Sababi, obyektiv tomon belgilarini kvalifikatsiya qilish turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ushbu belgilar jinoyatlarni bir-biridan farqlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Jinoyatlarning obyektiv tomoni bilan bog'liq elementlariga qarab farqlashni quyidagicha izohlash mumkin: jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab farqlash; jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik xususiyatiga qarab farqlash; jinoyatlarni xavfli oqibatlar keltirib chiqarishiga qarab farqlash; jinoyatlarni qilmish va huquqiy oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishga qarab farqlash; jinoyatlarni sodir etish usuli, joyi, vaqti, quroli va vositalari o'rtasidagi tavsiflovchi belgilarni ajratib ko'rsatish orqali farqlash; jinoyatlarni huquqqa xiloflik xususiyatiga qarab farqlash. Jinoyatlarni subyektiv tomoni bilan bog'liq jihatlari bilan farqlash amalda qiyinchilik tug'dirmaydi. Sababi, jinoyat qonunchiligida subyektiv doirasi aniq faktorlar orqali mustahkamlab qo'yiladi. Subyektiv yoshi ma'lum bir jinoyatlarda aniq belgilab qo'yiladi. Faqatgina jinoyatlarning subyektiv masalasida maxsus subyektiv mavjud bo'lgan jinoyatlar va jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs masalasiga oydinlik kiritishda amaliyotda biroq qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, jinoyatlarni farqlashda shaxsni umumiy psixofiziologik, biologik va sotsiologik xususiyatlariga qarab ham tasniflash ishlari jinoyatlarning subyektiv doirasida amalga oshiriladi.

Jinoyatlarning subyektiv tomon belgilari ham ularni farqlashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Subyektiv tomon belgilarini bir-biridan farqlashda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim: jinoyatning ayb shakliga qarab farqlash; jinoyatning motiviga qarab farqlash; jinoyatning motiviga qarab farqlash; jinoyatning maqsadiga qarab farqlash; jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning emotsiyasiga qarab farqlash.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatini boshqa o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash uchun avvalombor, ushbu jinoyatning o'ziga xos muhim belgilarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu turdagi jinoyatlar tarkibi jihatidan juda ko'plab jinoyatlarga o'xshash hisoblanadi. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish mafkuraviy, siyosiy va huquqiy jihatdan ma'lum bir sabablarga ko'ra shaxsni noqonuniy tarzda ozodlikdan mahrum qilish tushuniladi. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishni umumiy obyektiv doirasidagi jinoyatlarga qiyoslash mumkin, sababi ushbu turdagi jinoyatlarda

doimo inson huquqlari, erkinliklari va jamoat tartibi prinsiplariga putur yetkaziladi. O'xshash tarkibli jinoyatlarning xususiyatidan kelib chiqib, ushbu turdagi jinoyatlarni umumiy kontekstda ayrim masalalar doirasida quyidagicha tarzda ko'rib, tahlil etish maqsadga muvofiqdir: jamoat tartibini buzish va unga rioya etmaslik; shaxs ozodligi va uning qadr-qimmatini kamsitish; shaxsiyat va erkinlikka bo'lgan huquqni buzish; shaxsni tahqirlash va uning ozodligini cheklash; shaxsni jismoniy va siyosiy ta'qibga duchor etish; jamiyatda tinchlik va tartibni buzish; shaxsga nisbatan zo'rovonlik va kuch ishlatish; shaxsga tahdid qilish; shaxs huquqlarini cheklash; shaxsni o'z xoxish va istaklaridan mahrum qilish; shaxsning hayoti va sohligiga tajovuz qilish; shaxsga nisbatan og'ir oqibatlarining kelib chiqishi; jamiyatdagi huquqiy va axloqiy standartlarni buzish kabilar.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish umumiy obyekt doirasida quyidagi jinoyatlarga o'xshashdir:

1. Jinoiy uyushma tashkil etish. (JKning 242-moddasi)
2. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish. (JKning 243-moddasi)
3. Ommaviy tartibsizliklar. (JKning 244-moddasi)
4. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish. (JKning 244 (1)-moddasi)
5. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish. (JKning 244 (2)-moddasi)
6. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish. (JKning 244 (3)-moddasi)
7. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish. (JKning 244 (4)-moddasi)
8. Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish. (JKning 244 (5)-moddasi)
9. Yolg'on axborot tarqatish. (JKning 244 (6)-moddasi)
10. Kontrabanda. (JKning 246-moddasi)[3]

Ushbu turdagi jinoyatlar shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish bilan umumiy obyekt doirasida o'xshash hisoblanadi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati obyektiv tomondan o'xshash jinoyatlar bilan quyidagi umumiy jihatlarga ega: 1. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi harakatlarni sodir etish. 2. Shaxsga qarshi zo'rvonlik harakatlarini sodir etish. 3. Shaxsga nisbatan psixologik tahdidni yuzaga keltirish. 4. Shaxsni sog'ligiga turli tarzda ziyon yetkazish. 5. Jamiyat va davlatning normal faoliyat ko'rsatish tartibini buzish.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatiga o'xshash bo'lgan bir qator jinoyat turlari mavjud. Bu jinoyatlar shaxsning ozodligi va erkinliklarini cheklash, unga nisbatan zo'rvonlik yoki tahdid qilish bilan ta'sir o'tkazishni o'zida ifodalaydi hamda jamoat tartibi va axloq normalariga putur yetkazadi. Bu borada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati bilan ba'zi jinoyatlarni o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilib chiqamiz.

Odam o'g'irlash jinoyati – shaxsni o'z xohishiga qarshi, zo'rvonlik yoki tahdid orqali qo'lga olish, ozodligini cheklash va erkin harakatlanish huquqini buzish tushuniladi. Bu jinoyatni sodir etishda psixologik tahdid va manipulyatsiyadan foydalaniladi. Odam o'g'irlashda shaxsning sog'ligiga ham ma'lum darajada zarar yetkaziladi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish odam o'g'irlashga juda yaqin jinoyatlardan biri bo'lib, u shaxsning ozodligini cheklaydi hamda jismoniy azob berish va ruhiy bosim o'tkazish kabi harakatlarni o'zida jamlaydi. Ushbu ikkala jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining muhim belgisi hisoblangan subyektiv tomonning tarkibiy qismi sifatida maqsad jinoyatning muhim kategoriyasi sanaladi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va odam o'g'irlash jinoyatlarining bir-biriga o'xshash taraflarini quyidagicha talqin etish mumkin: shaxs erkin harakatlanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi; shaxs jismoniy va psixologik zo'rlik ta'sirida bo'ladi; shaxsni qo'lga olishda to'g'ridan-to'g'ri uning sog'ligiga tahdid yuzaga keladi; jinoyatni sodir etishdan maqsad uchinchi shaxslarga turli talablarni qo'yish hisoblanadi; ushbu jinoyatlarni sodir etish usuli sifatida shaxsni o'ziga qarshilik ko'rsata olmaydigan holatga tushiriladi; (masalan hushidan ketkazish); jinoyat qurboni bo'lgan shaxsga nisbatan qo'rqitish, qiynash va turli taz'yiqlardan foydalaniladi; ushbu jinoyatlarning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati yuqori hisoblanadi; moddiy manfaatdorlik jinoyat sodir etishning eng muhim sababi hisoblanadi.

Endi esa shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va odam o'g'irlash jinoyatlarining bir-biridan farqlovchi taraflarini ko'rib chiqamiz va uni quyidagicha talqin etamiz: odam o'g'irlashning maqsadi ko'pgina hollarda shaxsni olib ketish, uning ozodligini cheklash va o'g'irlashdan ko'zlangan maqsadga erishish hisoblansa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning maqsadi esa, faqatgina tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida amalga oshiriladi; odam o'g'irlash jinoyatining subyekti jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan shaxs hisoblansa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining subyekti esa jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi; odam o'g'irlash jinoyatini sodir etgan shaxslar boshqa odamni ozodlikdan mahrum qilish niyatida bo'lsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa, ko'pgina hollarda shaxsni bir vaqtda qattiq nazorat ostida ushlab turish orqali uchinchi shaxslarga qo'yiladigan talablar va shartlarga moslashtirishga majburlash tushuniladi; odam o'g'irlashda shaxsni har qanday ma'lumotlar va boshqa manfaatlarini hisobga olib, turli tahdidlar yoki bevosita zo'rvonlik orqali xavf manbaini

keltirib chiqarsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa muzokaralar olib borish uchun uchinchi shaxslar bilan aloqa o'rnatish va har qanday ma'lumotlarni olishga intilish kuchli bo'ladi; odam o'g'rilashda ko'pincha jinoyatni sodir etuvchi shaxslar darhol o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa jinoyat sodir etgan shaxsning shartlari bajarilgan taqdirda uni erkinligi ta'minlanadi;

Terrorizm jinoyati — bu davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini buzish, uning xavfsizligiga jiddiy putur yetkazish, urush yoki qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqarish va uchinchi shaxslar oldiga kuch ishlatish orqali turli talablarni qo'yish kabi ommaviy ta'qiblar hamda zo'ravonliklar sodir etishga qaratilgan harakatlardir.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va terrorizm jinoyatlarida obyektiv tomondan umumiy xarakterdagi harakatlar mavjud bo'lib, ularni turlicha izohlash mumkin [4, 102]. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va terrorizm jinoyatlarining bir-biriga o'xshash taraflarini quyidagicha talqin etish mumkin: ikkala jinoyatlarni ham sodir etishdan asosiy maqsadlardan biri davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning oldiga turli talablarni qo'yish; ikkala jinoyatda ham shaxsning ozodligi ma'lum bir darajada cheklanadi; ikkala jinoyatla ham jamiyat va davlatning normal faoliyat yuritish tartibiga putur yetkaziladi; ikkala jinoyatda ham inson huquqlariga zid ravishda turli zo'ravonlik harakatlari sodir etiladi; ikkala jinoyatda ham shaxs sog'ligi va hayotiga juda yuqori darajada xavf tug'ilib, ijtimoiy muhitga zarar yetkaziladi;

Bugungi kunda jahon internet tizimining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, hayotimizga zamonaviy texnologik qurollarning kirib kelishi natijasida raqamli terrorizm jinoyati paydo bo'lmoqda va juda tezlik bilan o'smoqda.

Raqamli terrorizm — bu jahon internet tarmoqlari orqali ommaviy axborot vositalari faoliyatini buzish va to'xtatib qo'yish bilan tahdid qilish, kiber hujumlarni doimiy ravishda uyushtirish, bank hisobraqamlaridan ko'p miqdorda pullarni o'zlashtirishni da'vo qilish orqali turli talablarni ilgari surish, smartfonlar va turli gayjetlarni masofadan turib portlatish bilan qo'rqitish kabi harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Endi esa shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va odam o'g'rilash jinoyatlarining bir-biridan farqlovchi taraflarini ko'rib chiqamiz va uni quyidagicha talqin etamiz: shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda shaxsni ozodlikdan mahrum qilish va uni yaqin kelajakdagi talablarga erishish uchun juda katta bosim o'tkazish maqsad qilingan bo'lsa, terrorizm esa, davlat va jamiyat faoliyatiga qarshi kuchli tahdidlarni keltirib chiqarish orqali ommaviy tartibsizliklar va turli qo'poruvchilik harakatlarini sodir etish mavjud bo'ladi; shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda shaxsni qasddan o'z foydasini ko'zlagan holda ozodligini cheklab, uchinchi shaxslarga muayyan bir talablarni qo'yib tahdid qilinsa, terrorizm uchinchi shaxslarga juda kuchli bosim o'tkazish bilan bir qator ijtimoiy munosabatlar tizimi yuqori xavf ostida qoladi; shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda ko'p hollarda shaxsni jismoniy va psixologik jihatdan qiynoqlarni keltirib chiqarsa, terrorizm juda ko'plab insonlar hayoti va sog'ligi uchun yuqori darajadagi tahdid bo'lib, davlat va jamiyat hayoti uchun og'ir oqibatlarni keltirib chiqaradi; terrorizm ko'pincha siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy o'zgarishlarga erishish maqsadida davlatni qo'rqitish va ommaviy xavf tug'dirish uchun amalga oshiriladi, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa odatda shaxsiy manfaatlar doirasida muayyan talablarni qondirish maqsad qilinadi; terrorizm ommaviy qo'rquvni keltirib chiqarish, davlat siyosatini izdan chiqarish va xalqaro munosabatlarni izdan chiqarish maqsad qilinsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa davlat va jamiyat hayotiga juda katta xavf tug'ilmaydi; terrorizm turli zo'ravonlik usullari, masalan, portlashlar, qurolli hujumlar, xavfli reydlar yoki kiber hujumlar orqali amalga oshirilsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa shaxsni qasddan o'z erkinligidan mahrum qilish, uni biror talabni bajarishga majburlash yoki uchinchi shaxslarga ta'sir qilishga yo'naltiriladi; terrorizm ommaviy xarakterga qarshi tahdid yuzaga kelsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa shaxsiy xarakterdagi tahdidlar mavjud bo'ladi; terrorizm davlatlarning ichki va tashqi xavfsizligiga jiddiy tahdid solib, ijtimoiy va iqtisodiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda esa shaxsning huquqlarini buzish bilan bog'liq bo'ladi, ammo davlatning xavfsizligi va suverenitetiga xavf to'g'irmaydi;

Terrorizm jinoyati ko'pincha ommaviy yoki davlatga qaratilgan zo'ravonlik harakatlari bilan bog'liq bo'lib, uning maqsadi jamoatni qo'rqitish va siyosiy maqsadlarga erishish hisoblanadi. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish shaxsni mafkuraviy yoki shaxsiy talablar uchun qasddan ozodlikdan mahrum qilish va uchinchi shaxslarga ta'sir o'tkazadi.

Xulosa o'rnida, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va boshqa turdagi jinoyatlarni o'xshash va farqlovchi belgilarini tahlil qilish orqali, ushbu jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilarini yanada yaxshiroq talqin etish imkoniyati paydo bo'ladi. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining nazariy jihatdan ko'pgina qirralari yuzaga chiqadi va ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatiga o'xshash jinoyatlarning farqlovchi holatlarini, o'rtasidagi to'fovutlarni aniqlash orqali, ularning mazmun-mohiyati yanada ochib beriladi.

ADABIYOTLAR

1. Рустамбоев М.Х. Жиноят ҳукуки (Умумий қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. —Тoshkent.: “ILM ZIYO”, 2005/
2. С.С.Ниезова. Жиноятларни квалификация қилиш муоммолари (Умумий қисм). Дарслик.-.:Т. ТДЮУ нашриёти. 2023 й.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son
4. Н.Салаев. Жиноятларни квалификация қилиш муоммолари (Умумий қисм). Дарслик.-.:Т. ТДЮУ нашриёти. 2023 й.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining boshqa o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlovchi belgilarining umumiy tahlili

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining boshqa o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlovchi belgilari tahlil qilingan. Jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, obyekti, obyektiv va subyektiv tomoni, subyekti bo'yicha farqlash mezonlari yoritilgan. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati odam o'g'rilash, terrorizm, tovlamachilik kabi jinoyatlarga

o'xshash bo'lsa-da, muayyan farqlarga ega ekanini ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda asosiy omillar va u bilan bog'liq huquqiy jihatlar ham muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, shaxsni garovga olish, jinoyat tarkibi, subyektiv tomon, obyektiv tomon, jinoyatlarni farqlash.

Общий анализ отличительных признаков преступления захвата заложника от других преступлений аналогичного состава

Резюме: В данной статье проанализированы отличительные признаки преступления взятия в заложники человека от других преступлений с аналогичным составом. Освещены критерии различения причин возникновения преступлений, объекта, объективной и субъективной стороны, субъекта. Показано, что преступление захвата человека в качестве заложника, несмотря на то, что оно схоже с такими преступлениями, как похищение человека, терроризм, вымогательство, имеет определенные различия. Также обсуждены основные факторы квалификации данного преступления и связанные с ним правовые аспекты.

Ключевые слова: уголовное право, залог личности, состав преступления, субъективная сторона, объективная сторона, дифференциация преступлений.

General analysis of the differentiating features of the crime of hostage-taking from other crimes of similar composition

Abstract: This article analyzes the distinguishing features of the crime of taking a person hostage from other crimes with similar composition. The criteria for distinguishing the causes of crime, object, objective and subjective side, subject are highlighted. It is shown that the crime of taking a person hostage, despite the fact that it is similar to such crimes as kidnapping, terrorism, extortion, has certain differences. The main factors of qualification of this crime and legal aspects related to it are also discussed.

Keywords: criminal law, personal bail, corpus delicti, subjective side, objective side, crime differentiation.

TERGOV HARAKATI: OLIB QO'YISH VA TINTUV O'TKAZISHDA FUQAROLARNING HUQUQ VA QONUNYI MANFAATLARINI TA'MINLASH

Yermekbayev B. A., Akmalov H. A.

Qoraqalpog' davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Konstitutsiyaning bunday tamoyili jinoyatlarni tez va to'la ochishga, aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, aybsiz shaxslarni jazoga tortilmasligini nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, qonuniy faoliyat yuritishda o'z ifodasini topadi. Tergov harakati hisoblanmish olib qo'yish ham ushbu tamoyilga asosan amalga oshirilishi shart.

Ushbu mavzuni tahlil qilishda boshqa mualliflar va olimlarning ham fikrlarini o'rganib chiqdik. Jumladan, ushbu mavzuni yoritishda rus olimi O.Michurina shunday ta'rif berib o'tgan:

Olib qo'yish – tintuvga ayniqsa yaqin turadigan tergov harakati bo'lsa-da, olib qo'yish tintuvdan butunlay farq qiladi. U muayyan narsalar va hujjatlar qayerda va kimda turgani aniq bo'lganda o'tkaziladi. Olib qo'yish qidirilayotgan narsalar va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni talab qilish va ularni olib qo'yish bilan kifoyalanadi. Tintuv esa, asosan, bunday taklif bilan boshlanadi. Olib qo'yishning maqsadi – faqat biror narsa yoki hujjatni olib qo'yish, tintuvning maqsadi esa, eng avvalo, narsa yoki hujjatni qidirib topish va shundan keyin uni olib qo'yish [1, 14].

Surishtiruv va dastlabki tergov davomida shaxsning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish va ularni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan olib qo'yish tergov harakatini amalga oshirishda ham. Buni yoritishda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida mustahkamlangan quyidagi normani misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega" [2, 33]. Olib qo'yish tintuvga yaqin bo'lgan mustaqil tergov harakati bo'lib, tintuv bilan ko'pgina umumiy jihatlari mavjud. Shu bilan birga, olib qo'yish sifat ko'rsatkichi jihatdan tintuvdan farq qiladi. U muayyan predmet va hujjatlar kimda va qayerda ekanligi aniq bo'lganda o'tkaziladi. Olib qo'yish izlanayotgan narsani ixtiyoriy topshirishni talab qilish va uni olish bilan chegaralanadi. Tintuv esa, asosan, shunday taklif bilan boshlanadi. Olib qo'yishning maqsadi – faqat u yoki bu predmetni olish bo'lsa, tintuvning maqsadi – avvalo, predmetni izlab topish, keyin esa uni olishdir.

Bu borada boshqa olimlarning fikrlarini o'rganadigan bo'lsak, V.V.Mozyakova ta'kidlashicha, olib qo'yish – jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qo'llanadigan chora hisoblanadi. Tintuv doimo majburlov xarakteriga ega bo'lgan tergov harakati bo'lib, uning vazifalari jinoyat ishiga dahldor bo'lgan narsa va hujjatlarni, tirik shaxslar va murdalarni, jinoyat yo'li bilan topilgan pullar va boshqa qimmatliklarini binolardan, yoki ularni yashirgan deb taxmin qilingan shaxslarga tegishli joylardan qidirib topish va olingan natijalarni bayonnomada qayd etishdan iboratdir [3, 259]. Undan tashqari, olib qo'yish tergov harakatida ham tintuv o'tkazishdagi kabi, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda tergovchining protsessual mustaqilligi asosiy o'rin tutadi. Jinoyatning tez va to'la fosh etilishi hamda uning to'la, har tomonlama va xolisona tergov qilinishi ko'p jihatdan tergovchining tashabbuskorligiga bog'liq. Tergovchilar ishiningsamaradorligi, ular faoliyatining huquqiy kafolatlari mustahkamlanishining zarur shartlaridan biri tergovchilarga protsessual mustaqillikning berilishi hisoblanadi. Tergovchiga protsessual mustaqillikning berilishi topshirilgan ish uchun uning javobgarligi va mas'uliyatini oshishiga sharoit yaratadi. Tergov qilishda tergovchiga mustaqil protsessual vositalarni tanlash imkoniyatining berilishi unga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga

imkoniyat beradi [4]. Gʻ.Shodiyev oʻz ilmiy ishlarida shunday yozadi: “tintuv olib qoʻyishdan oʻz maqsadi va oʻtkazish tartibiga koʻra farqlanadi: 1) tintuvda qanday obʼektlar qidirilayotganligi, ular qayerdaligi nomaʼlum boʻlsa, olib qoʻyishda predmetning individual belgilari, uning qayerda (kimda) ekanligi maʼlum boʻladi; 2) olib qoʻyishni oʻtkazish uchun (faktik) asos sifatida faqat dalillar tan olinsa, tintuvda – hatto tezkor-qidiruv tadbirlari davomida olingan maʼlumotlar ham asos boʻlishi mumkin; 3) olib qoʻyishda qidiruv harakatlari man qilinadi, tintuvda esa, aynan ular koʻzda tutiladi” [5, 53].

Dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati tergovchining protsessual mustaqilligiga xalal bermaydi. Aksincha, prokuror tergovchining mustaqilligini va jinoyatlarni fosh etish, tergov harakatlarini oʻz vaqtida va qonun talablari asosida yuritishda masʼuliyatini oshirishi shart. Prokuror va tergovchi munosabati qonun bilan belgilangan va ularning sohaviy taalluqligi bilan bogʻliq emas [6, 125].

Olib qoʻyish tintuvning bir qismi emas, balki mustaqil tergov harakati hisoblanadi. Olib qoʻyishda aynan ish uchun ahamiyatli narsani yoki hujjatni, nusxasini emas, uning asl nusxasini olishni taʼminlash zarur. Ana shunday xavf-xatar mavjud boʻlganda, olib qoʻyishga tintuvdagi singari mutaxassisni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, buxgalteriya hujjatlarini olib qoʻyishda auditor yoki ekspertni taklif qilish zarur. Agar oʻgʻirlangan (tortib olingan, tamagirlik yoʻli bilan olingan) buyumlarni olib qoʻyish koʻzda tutilgan boʻlsa, jabrlanuvchini taklif qilish mumkin. Oʻzbekiston yuridik ensiklopediyasida esa, tintuv va olib qoʻyishga JPK normalari mazmunidan kelib chiqqan holda taʼrif beriladi [7, 347-348].

Olib qoʻyishning tintuv tergov harakatidan farqi – olib qoʻyishda jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar aynan kimda va qayerda ekanligi maʼlum boʻlib ularning qidirishning hojati boʻlmaydi, tintuvda esa surishtiruvchi va tergovchida turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosi yoki oʻzga joyda yoxud biror shaxsda narsa va hujjatlar bor deb oʻylash uchun maʼlumot boʻlsa ham, uning qayerda, kimda va qanday narsa ekanligi toʻgʻrisida tasavvur boʻlmaydi.

A.R.Ratinov tomonidan berilgan taʼrif umumeʼtirof etilgan boʻlib, unga koʻra, tintuv mohiyati bu yashiringan shaxslarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qoʻyish maqsadida turar-joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat boʻlgan tergov harakatidir [8, 7]. Tintuv va olib qoʻyish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bogʻliq harakat boʻlganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak [9, 38]. Koʻrinib turibdiki, nazariyotchi olimlar oʻrtasida olib qoʻyish tushunchasi va uning tintuvdan asosiy farqlari deyarli bir xil tarzda ifodalanmoqda. Albatta, biz ham bu fikrlarga qoʻshilamiz.

Shu oʻrinda tintuv tushunchasiga rus olimi N.Shuruxnov tomonidan keltirilgan quyidagi maʼlumotni ham keltirib oʻtishni joiz deb topdik. Kompyuter axborotini olib qoʻyishda tintuv oʻtkazish muayyan xususiyatga ega. Koʻp miqdordagi axborot tashuvchisi hisoblangan kompyuter jinoyatni ochish uchun muayyan ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Uy egasi yoki EHM operatori tintuv paytida kompyuter yoki klaviaturaga yaqinlashtirilishi mumkin emas (hatto tintuv qilinayotgan shaxs qidirilayotgan axborotni ixtiyoriy ravishda topshirishga rozilik bergan boʻlsa ham). EHMda bu ishni taklif qilingan mutaxassis bajarishi lozim. Tintuv qilinayotgan shaxsning kompyuter yoki klaviatura bilan biron-bir manipulyatsiyalarni amalga oshirish (shu jumladan kompyuterni oʻchirish va yoqish) borasidagi barcha urinishlari EHM axborotini yoʻq qilib tashlashga urinish sifatida qaralishi lozim va bu bayonnomada aks ettirilsa, maqsadga muvofiq boʻladi [10, 207]. Olib qoʻyishda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlashda asosiy bevosita subyekt boʻlib tergovchi va uning protsessual faoliyati hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 161-moddasiga koʻra, surishtiruvchi yoki tergovchi olib qoʻyish jarayonida keng protsessual mustaqillikka ega boʻlib, bu har bir alohida olib qoʻyish holatida adolatlik, obyektivlikka erishishda oʻrnatilgan protsessual tamoyillar va normalarning toʻgʻri qoʻllanilishini taʼminlaydi.

Olib qoʻyishni amalga oshirish uchun faktik asoslar quyidagilar: muayyan shaxsning egaligida (shu muassasa, boshqa joyda, uning oʻzida yoki yonida) boʻlgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli muayyan narsa yoki hujjatni topish; muayyan predmet yoki hujjatning yoʻqotilishi yoki yashirish xavfi borligi; ularni dastlabki tergov organlari tomonidan qidirish zaruratining yoʻqligidir [11, 72]. Qonunchilikka koʻra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shaxslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta-telegraf joʻnatmalarida sodir etilgan jinoyatga doir maʼlumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar boʻlgandagina, surishtiruvchi, tergovchi, sud bu shaxslarning barcha pochta-telegraf joʻnatmalarini yoki ularning ayrimlarini xatlab qoʻyishga haqlidir.

Surishtiruvchi yoki tergovchi olib qoʻyish toʻgʻrisidagi asoslantirilgan qarorida kimdan nimani olib qoʻyish lozimligi, olib qoʻyiladigan predmetning nomi va individual xususiyatlari, joylashgan joyi va uning ish uchun qanday ahamiyat kasb etishi koʻrsatilishi kerak. Koʻpgina holatlarda surishtiruvchi va tergovchi qisqa, lekin mazmunan toʻliq, jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga javob beradigan qarorlar qabul qilishadi [12, 44]. Shu bilan birga, qayd etish kerakki, baʼzi hollarda olib qoʻyish toʻgʻrisidagi bayonnomasi oʻrniga ixtiyoriy taqdim etish bayonnomasi tuziladi.

Shu oʻrinda, Oliy sud Plenumining “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan taʼminlashga oid qonunlarni qoʻllash boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida”gi 17-sonli qarorida: “Himoyachi oʻz himoyasi ostidagi shaxs ishtirokida oʻtkaziladigan barcha tergov harakatlarida, shu jumladan, tintuv yoki olib qoʻyish oʻtkazilayotganda qatnashishga haqlidir”. Bunday koʻrsatmaning aniq qilib belgilab qoʻyilishi, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada kafolatlaydi desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

“Qonunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari, fuqarolik daʼvogari, fuqarolik javobgari tomonidan jinoyat ishi uchun ahamiyatli boʻlgan dalil tariqasidagi hujjatlar yoki narsalarni taqdim qilish huquqi belgilangan. Bunday

holatlarda, tergovchi tomonidan olib qo'yish to'g'risida qaror va bayonnoma tuzilmasdan, topshirilayotgan narsa va hujjatni qabul qilish haqida bayonnoma tuzilishi kerak" [13], degan fikrga qo'shilamiz.

Olib qo'yishni amalga oshirish uchun surishtiruvchi yoki tergovchi xolislarini jalb etishlari kerak. Bunday huquqdan tergovchi mustaqil foydalanadi va hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Ular tomonlarning tarafdorlari sifatida emas, balki bu tergov harakatining faol kuzatuvchilari sifatida ishtirok etishni ta'minlaydilar. Surishtiruvchi yoki tergovchi korxona, muassasa va tashkilotlar binolarida olib qo'yish amalga oshirilishida ushbu tashkilotlarning vakillari ishtirokida o'tkazilishini ta'minlashlari zarur. Bu esa o'z navbatida shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ko'maklashadi [14, 248]. Shuningdek, tergovchi olib qo'yishni tungi vaqtda amalga oshirilmaslik talabini ham mustaqil amalga oshiradi, kechiktirib bo'lmaydigan hollar bundan mustasno. Tergovchida mazkur shaxs olib qo'yishni kechgacha cho'zib uning to'xtalishi yoki tugatilishiga umid bog'laganligi to'g'risida taxmini bo'lsa, u olib qo'yish kimdan amalga oshirilayotgan bo'lsa o'sha shaxs hozirigida o'tkazishi mumkin [15].

Ushbu mavzuni atroflicha o'rganib, yakunida quyidagilarni xulosa va taklif sifatida bildirib o'tishni o'rinli deb hisoblaymiz:

1. Tintuv va oliy qo'yishga tergov harakati sifatida quyidagi xususiyatlar xosdir: 1) ushbu tergov harakatlari jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratiladi; 2) tintuv va olib qo'yishda majburlash va majburiylik xususiyati mavjud; 3) boshqa tergov harakatlari singari faqat qonunda vakolat berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 4) faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi; 5) tintuv va olib qo'yishni o'tkazish vaqtida tintuv va olib qo'yish tergov harakatlari o'tkazilayotgan shaxsning huquq va erkinliklari cheklanishiga yo'l qo'yiladi.

2. Tintuv va olib qo'yish tergov harakatlarining mohiyatini to'g'ri tushunish maqsadida ularning quyidagicha umumiy, maxsus va qo'shimcha maqsadlari ajratildi: tintuv va olib qo'yishning umumiy maqsadi jinoyat ishi doirasida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat; tintuv va olib qo'yishning maxsus maqsadi jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa, hujjat va boshqa predmetlarni topish va olib qo'yish, shuningdek, qidiruvda bo'lgan shaxsni yoki murdani topish va aniqlashdan iborat; tintuv va olib qo'yishning qo'shimcha maqsadi fuqarolik muomalasi taqiqlangan narsalarni olib qo'yish, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash uchun shart-sharoitlar yaratish, tergov harakatlari uchun qo'shimcha ma'lumot olish (jinoyatchi shaxsi, tintuv o'tkazilayotgan joy to'g'risida) va hokazolardan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Michurina O.V. Obespecheniye prav i zakonnyx interesov lichnosti v ugolovnom protsesse. [Michurina O.V. Ensuring the rights and legitimate interests of the individual in criminal proceedings]. Moscow, 1996. p. 172.
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. [International agreements on human rights]. Tashkent, 2004. p. 133.
3. Kommentariy k Ugolovno - protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod obsh. red. V.V.Mozyakova. [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation, V.V.Mozyakova]. Moscow, 2002. p.278.
4. M.Sh.Najimov-Issues of Liability for Involving a Minor to Antisocial behavior and Crime in the Criminal Law of Some Foreign Countries. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 1529 – 1535. Received 16 February 2021; Accepted 08 March 2021.
5. Shodiyev G'. Sudgacha ish yuritish bosqichida sud nazorati tushunchasi va mazmuni. [Shodiyev G. The concept and content of judicial control at the stage of pre-trial proceedings]. TSIL Bulletin. 2009, №1. p.53-57.
6. Dastlabki tergov. Darslik (to'ldirilgan va o'zgartirilgan ikkinchi nashri). [Preliminary investigation. Textbook (2nd edition, supplemented and revised)]. -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2012, -p. 222.
7. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muxitdinov va boshqalar; Mas'ul muharrir: N.To'ychiyev. [Legal encyclopedia of Uzbekistan / Responsible for publication R.A. Mukhitdinov and others; Responsible editor: N. Toychiyev]. Toshkent: Adolat, 2010. p.347-348.
8. Ratinov A.R. Obisk i vliyemka. [Ratinov A.R. Search and seizure]. Moscow, 1961. p.7.
9. Mosolkova Yu.A. Oxrana prav i zakonnyx interesov lichnosti. [Mosolkova Yu.A. Protection of the rights and legitimate interests of the individual]. Yaroslavl, 1984. p. 38.
10. Shuruxnov N.G. Aktualniye problemi sovershenstvovaniya deyatelnosti organov vnutrennix del v novix ekonomicheskix i sotsialnix usloviyax. [Shuruxnov N.G. Current problems of improving the activities of internal affairs bodies in new economic and social conditions]. Moscow, 1997. p. 207.
11. Terov protsessual hujjatlarining namunalari. O'quv qo'llanma. D.M.Mirazov. [Samples of investigative procedural documents. Study guide. D. M. Mirazov.] -Toshkent: 2012, p.167.
12. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi huquqlarini cheklashning xalqaro tajribasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2014, -p. 73.
13. M.M. Bozorov. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga himoyalash huquqi kafolatlarini takomillashtirish istiqbollari. [M.M. Bozorov. Prospects for improving the guarantees of the right to defense for the suspect and the accused]. Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №7. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/gumon-qilinuvchi-va-ayblanuvchiga-himoyalash-huquqi-kafolatlarini-takomillashtirish-istiqbollari> (accessed 22.10.2023).
14. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik// Mualliflar jamoasi. [Criminal procedural law. General part. Textbook// Author team]. -Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. -p.468.
15. M.Sh.Najimov-The General Social Measures Of Preventing Crimes By Using Violence Against Minors In The Family. International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 03, 2021.

Tergov harakati: olib qo'yish va tintuv o'tkazishda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat protsessida tergov harakati hisoblangan olib qo'yish tushunchasi va olib qo'yish tergov harakatini o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bunda olib

qo'yish tushunchasi bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan normalar, soha mutaxassislari va olimlarning bu boradagi qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, mavzu yuzasidan qonun hujjatlari, aynan shu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borgan mualliflarning fikrlari, takliflari ham atroflicha o'rganilgan holda, mualliflarning shaxsiy fikrlari, xulosalari va takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: olib qo'yish, tintuv, shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlar, protsessual kafolatlar, tergovchi, mol-mulk daxlsizligi.

Расследование: обеспечение прав и законных интересов граждан при изъятиях и обысках

Аннотация: В данной статье подробно анализируются понятие конфискации, которая считается следственным действием в уголовном процессе, и вопросы процессуальных гарантий прав и законных интересов личности при производстве следственного действия конфискации. В связи с этим были изучены нормы, определенные в уголовно-процессуальном законе, взгляды специалистов и ученых на понятие конфискации. Кроме того, тщательно изучены правовые документы, относящиеся к теме, мнения и предложения авторов, проводивших научные исследования по данной теме, а также выдвинуты личные мнения, выводы и предложения авторов.

Ключевые слова: выемка, обыск, права и законные интересы личности, процессуальные гарантии, следовательно, неприкосновенность имущества.

Investigation: ensuring the rights and legal interests of citizens during seizures and searches

Abstract: In this article, the concept of confiscation, which is considered an investigative action in the criminal process, and the issues of procedural guarantees of individual rights and legal interests in the conduct of the investigative action of confiscation are thoroughly analyzed. In this regard, the norms defined in the criminal procedural law, the views of experts and scientists on the concept of confiscation were studied. In addition, legal documents related to the topic, opinions and proposals of authors who conducted scientific research on this topic were carefully studied, as well as personal opinions, conclusions and proposals of the authors were put forward.

Key words: seizure, search, individual rights and legal interests, procedural guarantees, investigator, property integrity.

JADIDCHILIKNING G'OYAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qosnazarova P. Q.

Nukus davlat pedagogika instituti

O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishda evolyucion rivojlanish yo'li tanlangani, o'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifatlar va fazilatlar qo'l kelmoqda [1].

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiyidir. Yosh avlod tarbiyasi haqqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, etibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar" [2], deganda jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiya va ta'limning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutilish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish yo'llarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar pantyurkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidchilik mohiyatan, avvalo, siyosiy harakat edi. Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchiligi.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylanayotgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha – ma'rifatchilik; 2) 1915 yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha - sovetlar davridagi faoliyati. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi.

Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni

«tovush usuli» nomi bilan shuxrat qozondi. “Jadid” arabcha soʻz boʻlib, “yangi” degan maʼnoni bildiradi. Ismoilbek gʻoyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning gʻoyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, oʻzining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targʻib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham yoyiladi. I. Gaspirali 1893 yilda Markaziy Osiyoda boʻldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga koʻndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi.

1898 yilda Toʻqmoqda (Qirgʻiziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qoʻqonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi boʻlib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida eʼtiborga molikdir.

Jadidlarning xalq maʼrifati uchun kurash dasturi uch asosiy yoʻnalishdan iborat boʻlgan: 1. Yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish.; 3. Turli maʼrifiy jamiyatlar tuzish, xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Har bir davrda biror yangi gʻoyaning tugʻilishi aniq tarixiy sharoitda sodir boʻladi. Unda tarixiy shaxslarning oʻynaydigan rolini hech kim inkor etmaydi. Chunki ular yetilgan muammolarni hal qilish yoʻllarining nazariy tomonlarini barchadan teranroq idrok qiladi, ularni amalga oshirishga favqulodda kuch va gʻayrat bilan kirishadilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil koʻrishni orzu qildilar va shu yoʻlda fidoiylarcha kurashdilar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; turli maʼrifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadidchilikning asosiy gʻoya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni oʻrta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish; shariatni isloh qilish va xalqqa maʼrifat tarqatish; Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash; Buxoro va Xivada konstitucion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini oʻrnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish; barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qoʻshin tuzish.

Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati gʻoyalari Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, soʻngra sovet mustamlakasiga qarshi kurashda muhim oʻrin tutadi.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston oʻlkasi general-gubernatorlaridan biri Kuropatkinning oʻz kundaliklaridagi qaydlari, “biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik” [3], qabilidagi soʻzlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati chor maʼmuriyati toʻsiqlari orasidan Turkistonga sizib kirar edi.

Shu ijobiy taʼsir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uygʻonish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida oʻz xalqini ozod koʻrishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uygʻonish Ovroʻpa maʼrifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli boʻldi. Shuningdek, Oʻrta asrlar oʻrtaga tashlagan maʼrifatparvarlik gʻoyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha – maʼrifatchilik tarzida namoyon boʻlish imkoniyati yaratildi. Zero, oʻsha gʻoyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan ziyolilar vujudga kelgan edi [1, 49-52]. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar. Maʼrifatchilik gʻoyalari asosan uch soha orqali taraqqiy topib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, taʼlim usulini yangilash), sanʼat (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmi-maʼrifatli qilish boʻlsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uygʻunlashuvi natijasida oʻzligini, oʻz qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston maʼrifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yoʻlida katta ishlar qilindi. Turkiston maʼrifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy gʻoyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda oʻz aksini topdi.

1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907 yillardagi 1-rus inqilobi, 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi, 1908 yil Turkiyada boʻlgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Jadidlar oʻz gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida toʻplanishar edi. Ularning koʻpchiligi shu davrning koʻzga koʻringan ijodkorlari - shoir-yozuvchilar edi. Ular oʻz asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqyealariga hamohang bordi. 1910 yillardayoq maʼrifat va ozodlik gʻoyalari uning markaziy mavzuiga aylandi. Adabiyotga “millat” va “vatan” tushunchalari kirib keldi. Milliy sheʼrlarga ragʻbat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti Oʻzbekiston mustaqilligidan keyin milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Adabiyotdagi bunday uygʻonish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham roʻy berdi. Jadidlar oʻzbek xalqi hayotiga tom maʼnodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yoʻlga qoʻyila boshlandi. Yevropa koʻpovozli musiqa sanʼati bilan tanishgan jadidlar oʻzbek anʼanaviy musiqa uslublarni ham isloh qilishga daʼvat etishgan.

1919 yilda Toshkentning eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) boʻlimi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar sanʼat vositasi bilan millat qadrini koʻtarish, sanʼatning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. Bugungi kunda mamlakatimizda maʼrifatparvar bobolarimiz merosini chuqur oʻrganish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz oʻzining

Parlamentga Murojaatnomasida “2020 yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alini baland ko’tarib chiqqan alloma va adib Mahmudho’ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidlik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”- deb ta’kidladilar [4].

Mamlakatimiz boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragi o’zining nihoyatda sarmazmun, g’oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi-milliy-taraqqiyparvar ziyolilarining islohotchilik harakati-jadidchilik vujudga keldi.

Jadidlar ta’limoti- o’z zamonining haqiqiy ta’limoti edi. By haqida olim, professor B. Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisalaridan biri hisoblanmish jadidchilik harakati bilan tanishtiruvchi “Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo’lgan qizg’in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o’z boshiga yog’ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko’tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog’i, taraqqiy topmog’i uchun, birinchi navbatta, ozod, mustaqil bo’lmog’i lozimligini, anglab ettilar va keng xalqni uyg’otishga alohida e’tibor berdilar” [5, 4].

Millatimiz faxri bo’lgan jadidlar xalqni ma’rifatli qilish, g’oyaviy-siyosiy jihatdan etuk, kelajakni oldindan ko’radigan yoshlarni tarbiyalash, ularning bilim saviyasini ko’tarish, fikr doirasini o’stirishni milliy istiqbolga erishishning zarur shartlaridan biri deb tushundilar va ana shu olijanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Millat, xalq kelajak taqdiri to’g’risida, millatning istiqboli haqida tinmay qayg’urdilar, izlandilar [6].

Xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Mahmudho’ja Behbudiy, mMunavvar Qoriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho’lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy shular jumlasiga kiradilar.

ADABIYOTLAR

1. Jonuzaqov A., Yo’ldashev S. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Volume-4, Issue-1, February–2022. P. 42-45. www.pedagoglar.uz
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.T. Sharq.1999. B.1.
3. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Konstituciyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag’ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 8 dekabr 2016.
4. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning «yangi shahar» qismi tarixi - Jannat Ismoilova. O’zbekiston RespublikasiFA Tarix instituti. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbekiston tarixi davlat muzeyi. Toshkent – “Fan va texnologiya” — 2004.
5. Jonuzaqov A., Yo’ldashev S. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Volume-4, Issue-1, February–2022. P.49-52. www.pedagoglar.uz
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so’zi” gazetasi. 2020 yil 25 yanvar.
7. B. Qosimov. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent. Ma’naviyat. 2002. 4-bet.
8. Mamadjonov M, Xoshimova G. Jadidlar jasorati-millatimiz fahri. ”Jadidlar ilm-ma’rifat va ma’naviy merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati”mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020. 219-bet.

Jadidchilikning g’oyaviy rivojlanish bosqichlari

Rezyume. Maqolada millatimiz faxri bo’lgan jadidlarning xalqni ma’rifatli qilish, g’oyaviy-siyosiy jihatdan etuk, kelajakni oldindan ko’radigan yoshlarni tarbiyalash, ularning bilim saviyasini ko’tarish, fikr doirasini o’stiri bo’yicha axloqiy g’oyalari va ularni targ’ib etish yo’llari haqida so’z etilgan.

Tayanch so’zlar: Turkiston ziyolilari, milliy demokratik harakat, madaniyat, pantyurkizm g’oyalari.

Теоретико-философские основы концепций движения джадидизм.

Резюме. В статье рассмотрены нравственные идеи джадидов, составляющих гордость нашей нации, о просвещении народа, воспитании идейно и политически зрелой молодежи, предвидящей будущее, повышении их уровня знаний, расширении круга их мысли, их упомянуты способы продвижения

Ключевые слова: Интеллигенция Туркестана, национально-демократическое движение, культура, идеи пантюркизма.

Theoretical-philosophical foundations of the concepts of Jadidism movement.

Summary. The article discusses the moral ideas of the Jadids, who are the pride of our nation, on educating the people, educating ideologically and politically mature, forward-looking youth, raising their level of knowledge, and expanding their horizons, and ways to promote them.

Key words: Turkestan intellectuals, national democratic movement, culture, ideas of pan-Turkism.

UDK. 101.1: 316

ЎЖИНИЯЗДИЊ СОЦИАЛ-ФИЛОСОФИЯЛИЊ КЌЗ-ҚАРАСЛАРИЊДА ГУМАНИЗМ ИДЕЯЛАРИЊИЊ СЌУЛЕЛЕНИВИ

Joldasbaev O.Ye

Nókis mámleketlik pedagogika insituti

Insanparvarliq ideyalar uzaq tariyxqa iye. Olar baxit-igbal hám ádillikka erisiw ármanlari sipatında áyyemnen xalıq awızeki dóretywshiliginde, ádebiyatta, diniy hám filosofiyalıq táliymatlarda óz kórinisin tapqan. Insanparvarliq insannıń

insan aldındağı muqaddes wazıypasınan kelip shıqqan halda biyğarez iskerligi yáki járdem kórsetiliwin ańlatadı. Insanparwarlıq yáki insanıylıq túsınikleri ilimiy ádebiyatlardağı gumanizm túsınigine say keledi. Gumanizm insandı ardaqlawshı filosofiyalıq tálıymat sıpatında orta ásirlerde batıs evropada júzege kelgen. Filosofiyalıq enciklopediyalıq sózlikte bul túsınikke tómendegi mazmunda berilgen. Gumanizm (lat. humanus, insanıylıq, insanparwarlıq) sıpatında insan qádirin, onıń erkin kamalğa keliw hám óz qábiletlerin kórsetiw huqıqların tán alıw, sociallıq qatnasıqlardıń bahalı ólshemi sıpatında insan baxıt-ıǵbalın qalıplestiriw [1]. Gumanizmnıń ilimiy tiykarların belgili fransuz aǵartıwshıları F.Volter, Sh.Monteske, D.Didro, P.Golbax, K.Gelvetsiy hám J.Lametri jarattı. Olar insanıyat óz ómiri dawamında úsh tiykarǵı princip - erkinlik, teńlik hám doslıqqa súyeniwi kerek dep pikir bildirdi. Olar usı úsh princip dúnyanıń barlıq aymaqlarında jasap atırǵan hár bir insan zatına onıń milletini, rassasını, jınısı, siyasiy kózqarasları, dinine qaramastan tiyisli ekenligin dálillep, olarğa insanıylıq principlerine mas múnásibette bolıwǵa shaqırdı.

Insanparwarlıq ideyaları dáslep shıǵısta ortaǵa taslanǵan, insanıylıq, adamgershilik degen mánisti bildiretuǵın “namlulu” sózi bunnan 3-4 mıń jıl aldın áyyemgi Somir Mix xatlarında ushrasadı. Insanparwarlıq ideyaları xalqımızdın úrip-ádet hám dástúrlerinde ásirler dawamında ómir súrip keldi. Insanparwarlıq milliy mentalitetimizdın quram bólegi. Bul qádiriyatlar jámiyetti birlestirip turatuǵın tiykar bolıp, insanlar arasında óz-ara isenimdi bekkemleydi. Máselen, kekselerge húrmet kórsetiw, mıtájlerge járdem kórsetiw yamasa tınıshlıqtı saqlaw adamgershiliktiń ámeldegi kórinisleri esaplanadı. Insanıylıq insan tábiyatınıń eń joqarı páziyetlerin kórsetiwshi túsınık bolıp tabıladı. Bul sóz ádette miyrim-shápáát, óz ara húrmet, jaqsılıq etiw, ádillikke umtılw sıyaqlı is-háreketlerdi ańlatadı. Insanıylıq tek ǵana jeke páziyet emes, al jámiyetti birlestiretuǵın hám onı rawajlandıratuǵın tiykarǵı qádiriyatlardan biri bolıp esaplanadı. Ol xalqımızdın turmısında barqulla bolǵan, oyshılarımızdın dóretiwshiliginde óz kórinisin tapqan hám óz kórinisine iye bolıp kelmekte.

XIX ásirde Kúnxoja, Ájiniyaz, Berdaq, Ótеш shayırlar dóretiwshilikleri joqarı dárejede qaraqalpaq ádebiyatınıń rawajlanıwlarına tásir kórsetti. XIX ásirdegi qaraqalpaq klassikalıq ádebiyatınıń kórnekli shayırı Ájiniyaz Qosıbay ulı. Ol tek qaraqalpaq xalqınıń ǵana emes, jáhán ádebiyatınıń belgili kórkem sóz sheberlerinen biri bolıp ótken insan[2]. Yaǵnıy, onıń atı Orta Aziya xalıqlarında Nawayı, Fizuliy, Maqtumqulı, Abay usaǵan úlken sóz sheberleriniń atları hám miyrasları sıyaqlı xalıq ádebiyatı hám mádeniyatında óshpes iz qaldırıp ketken shayırlardan esaplanadı.

Berdag penen Ájiniyaz dóretiwshiligi haqqında Ózbekstan Qaharmanı, Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayırı Ibrayım Yusupov: «Berdaqtıń ullılıǵı onıń ullı zamanlası Ájiniyaz dóretiwshiliginiń qádirin kemeytirmeydi. Asqar tawlardın shoqqıları bir-birinen quyashtı tosıp qoymaǵanı kibi, Berdaq hám Ájiniyaz zamanlas bolǵan, ekewide bir xalıqtın qaraqalpaq eliniń ullı bayteregi bolǵan shayırlar. Ájiniyaz qaraqalpaq lirikasında insan kewliniń názik tarların sherte alǵan, arızw-ármanların, túrli hádiyselerdi tereń ańlap, náziklik penen jırlawshı lirik poeziya ustası»[3] degen edi.

Hámmege málim, bul rawajlanıwshı dúnyada adamlardıń aqlına, kewline tásir etetuǵın shıǵarmalar kóp, biraq, waqıt ótken sayın, olardıń kópshiliginiń hawiri páseye baslaydı. Al, sonıń ishinde adam janınıń shıraylı dramasınıń ápiwayı hám tereń baylanısın súwretlep, jámiyettiń rawajlanıwına mádet beretuǵın, ótkendegini, házirgini hám keleshekti anıq ańlawǵa jeteleytuǵın máńgi eskermeytuǵın, máńgi yoshlandırıwshı miyraslardın qızǵını barǵan sayın kúsheye beretuǵın ádebiyat nızamlılıǵı jasaydı. Bul nızamlılıq Ájiniyazdın poeziyasında tuwrı kelip, onıń hawiriniń hesh waqıtta páseymeytuǵını, kerisinshe qızǵını kúsheye beretuǵınlıǵı anıq[4]. Sebebi, onıń miyrasın oqıǵanda, dúnya ádebiyatındaǵı hám mámleketler siyasatındaǵı, eń ullı bahaǵa iye bolǵan adam menen adamnıń múnásibetlerindegi, adam qádirin hám erkinligin jırlaw, júdá tiyimli hám kewilge qonımlı túrde sáwlelengenligine gúwa bolamız.

Ájiniyaz dúnyadaǵı barlıq jaratılıs adam ushın, olardıń gózzallıǵı adam menen qımbatlı, barlıq jaratılıstın deregi insan dep túsingen shayır. Sonıń ushın da ol shıǵarmalarında «bul dúnyanıń kórki adam balası» degen urandı alǵa ilgerilette. Ájiniyaz qaraqalpaq klassikalıq ádebiyatında insan ashıǵı retinde pútkilley ózgeshelenip turadı. Adamdı ardaqlaw onıń filosofiyalıq kózqarasınıń ózeǵi[5]. “Bul dúnyanıń kórki adam balası, sol adamnıń kókke jeter nalası”... («Ayrılса» qosıǵınan). Ájiniyazdın bul qosıq qatarlarında tereń insanıylıq ideyaların ózinde jámlegen. Shayırdın bul qosıq qatarların talqılay otırıp, insanıylıqtın bir neshe tiykarǵı principleri kórinedi. “Bul dúnyanıń kórki adam balası” qatarı arqalı shayır insandı bul dúnyanıń eń joqarı hám ullı jaratılıwshıları qatarında súwretleydi. Bul insannıń qádir-qımbatı hám áhmiyetin tán alıwǵa itibar beredi. Insanıylıqtın tiykarǵı principlerinen biri - insandı oraylıq qádiriyat sıpatında kóriw, onıń gózzallıq hám jaqsılıq dáregi ekenin ańlaw júdá áhmiyetli. “Sol adamnıń kókke jeter nalası” degen qatarında insan turmısındaǵı qıyınshılıqlarǵa imkan tabıw ádillik izlewdiń ulıwma kórinisi bolıp esaplanadı. Hár bir kórnekli shayır óziniń zamanında ushrasatuǵın hádiselerdi, qubılıslardı, adamlardı bahalaw hám táriyiplewge umtıladı.

Ájiniyaz shayır dóretiwshiliginiń qunlılıǵı sonda tariyxıy jámiyetlik qubılıslardı bolsın, tábiyat qubılısları bolsın insan hám onıń ómiri bolsın, insannıń gózzallıǵı, ruwxıy keshirmeleri, dúnyanıń barlıq qubılısların lirika tili arqalı sóylegeni menen áhmiyetli[6]. Ájiniyaz qaraqalpaq ádebiyatında milliy lirikanıń kúshin onıń jazıwǵa sóylewge, sıpatlawǵa, hár tárepleme táriyiplewge múmkinshiliklerin kóp hám bay ekenliklerin dálillegen shayır boldı. Milliy ádebiyatta eń sulıw, eń qúdiretli janr lirika ekenlikligin kórsetti. Ájiniyaz shayır insannıń qádirin ańlawǵa hám basqalardı qádirlewge shaqıradı. Adam ulı adam qádirin bilmese. Onnan dúzde otlap júrgen mal jaqsı. “Jaqsı” qosıǵı adam ulı, eger adam qádirin bilmese, ol óz mánisin joytadı. Ol endi insan atına múnasip emes sıyaqlı Insanıylıq - sózlerde emes, ámelde kórinwi kerek. Sonda biz haqıyqıy insan qádirin ańlap, jasawımızǵa sebep tabamız. Insan qádirin ańlaw, bárinen burın, onı túsiniw, biliw hám jamiyettegi eń áziz, húrmetke layıq qádiriyat sıpatında ańlawdan baslanadı. Sonday-aq Ájiniyazdın óz qosıq qatarlarında insandı ulıǵlaw hám onıń keshilmelerin sáwlelendiriw arqalı adamgershilik ideyaların tereń túsindiredi.

Yağniy alimniñ qālemine tiyisli “Bolmasa” qosıǵına itibar bergeniimizde “Aqıllı yaqshınıñ giynesi bolmas, yaman adam giyne tutsa umıtpas”. Insaniyılıq hām onıñ negizgi mánisi haqqında sóz etkende, joqarıdaǵı qatarlar turmıslıq haqıyqattı tereñ ańlatıp beredi. “Aqıllı yaqshınıñ giynesi bolmas” degen sózde danıshpanlıq hām joqarı insaniyılıq pázıyilet sáwlelengen. Aqıllı adam óz kewlinde jek kóriwge hām dushpanlıqqa orın qaldırmaıdı. Ol jamanlıqtı keshiriwdı, ádillik hām jaqsılıq penen jol júriwdı morallıq qaǵıyda sıpatında ańlaǵan boladı. Sonıñ menen birge, “Yaman adam giyne tutsa umıtpas” qatarı insaniyattıñ unamsız ózgesheliklerine sıpatında óz kórinisin tabadı. Jaman adam ushın keshirim beriw ańsat emes, sebebi onıñ júregın qáhár hām ókinish basıp aladı. Bul bolsa tek ǵana ózine zıyan jetkeredi, ishki tınıshlıqtı buzadı hām turmıs sapasın tómenletedi bul bolsa insaniyılıq qásiyetlerge durıs kelmeytugin sıpatlar esaplanadı.

Insaniyılıq bul tek ǵana jaqsılıq islew emes, al basqalardıñ qátelerin keshire alıw hām olardı túsiniwge háreket etiwde bolıp esaplanadı. Keshirimlilik insannıñ ullılıǵı hām ishki kúshiniñ úlisi bolıp esaplanadı. Jaqsılıq etiw - bul tek ǵana átiraptaǵılardı emes, al ózimizge de sawǵa. Sebebi jaqsı niyet penen jasytuǵın adamnıñ kewli bárqulla tınısh hām baxıtlı boladı. Jawızlıq hām qáhardı umıtp, basqalarǵa miyrim-shápáát penen qatnasqan insan - haqıyqiy insaniyılıqtıñ úlisi bola aladı. Ájiniyaz óziniñ dóretiwsheilikke bolǵan bilimin hām talantın xalıq iygiligine jámiyetlik biyik maqset hām muratlardı jetiwde jarata bildi. Shayırdıñ qālemine tiyisli «Bozataw», «Ellerim bardı», «Megzer», «Kerek», «Jaqsı», «Ayrılsa» «Bolmasa», hām basqa qosıqları mısál bola aladı. Bul shıǵarmalar óziniñ ideyası hām ulıwma bahalılıǵı jaǵınan Ájiniyaz dóretiwsheiliginde oraylıq orındı iyeleydi hām qaraqalpaq poeziyasınıñ marjanları esaplanadı.

Ájiniyaz shayırdıñ dóretiwsheiliǵı bárqulla insan qálbiniñ joqarı pázıyiletleri hām ulıwma insaniyılıq qádiriýatlardı joqarılatıwǵa qaratılǵan. Onıñ tómenдегі qosıq qatarları pikirimizge ayqın mısál bola aladı: Adam uǵlı hárgiz ǵapıl bolmasın, qızıl gúli ǵumshalanıp solmasın, aq júzine sarǵısh qayǵı tolmasın, halı qıyın qanatınan qayırılsa. Bul qosıqlar insan ómiriniñ mazmunı, onıñ ruwxıy pákligi hām jámiyetтегі ornı haqqında tereñ oylawǵa shaqıradı. Shayır bul arqalı hár bir insan ushın áhmiyetli bolǵan úsh tiykarǵı qádiriýatlardı atap ótedi: sergeklilik, turmıstıñ gózzallıǵı hām kewil pákligi. Shayır qayǵı hām táshwishten jıraq bolǵan turmısqa umılıwdı ulıǵılaydı. Insan qálbi pák bolsa, ol jámiyetke jáne de kóbirek payda keltire aladı. Qosıqtıñ “Halı qıyın qanatınan qayırılsa” qatarı adamlar arasındaqı járdem hām awızbirshilikti ulıǵılaydı. Insaniyattıñ birligi, awır waqıtlarda bir-birine járdemlesiw jámiyettiñ bekkemligi hām turaqlılıǵınıñ tiykarǵı faktorlarınan biri bolıp esaplanadı. Shayır bul arqalı adamgershilik principlerin ámelde kórsetiwge shaqıradı. Ájiniyazdıñ bul qosıǵı insaniyılıqtıñ qanshelli áhmiyetli ekenligin tereñ sáwlelendiredi. Shayırdıñ poeziyalıq qatarları bizdi turmıstaǵı hár bir qádiriýattı húrmet etiw, basqalarǵa miyrim-shápáát kórsetiwge shaqıradı. Bul ideýalar búgingi kúnimiz ushın da áhmiyetli bolıp, olarǵa ámel etiw arqalı turmısımızdı jáne de gózzal hām mazmunlı etedi. Ájiniyazdıñ gumanistligi óz zamanındaǵı Berdaq, ózinen aldınaraq ótken Maqtımqulınıñ gumanizmi menen saǵalas hām sabaqlas bolıp keledi. Adam hām onıñ jaqsı turmıs haqqındaǵı biyik ármanların, insanlıq pázıyiletlerdi ulıǵlap, bul ármanlardıñ teńsiz zaman qısıwmetinde ayaq astı bolıp atırǵanı óz qosıqlarında sáwlelenedi [7].

Juwmaqlastırıp aytqanda Ájiniyaz qaraqalpaq ádebiyatında milliy lirikanıñ kúsh-qúdiretin onıñ jazıwǵa, sóylewge, sıpatlawǵa, hár tárepleme táriyiplewge múmkinshilikleriniñ kóp hām bay ekenligin dálillegen shayır boldı. Ájiniyazdıñ óz qosıq qatarlarında insandı ulıǵlaw hām onıñ keshilmelerin sáwlelendiriw arqalı adamgershilik ideýaların tereñ túsindiredi. Ol insandı qádirlawge, bir-birimizge miyrim-shápáátli hām ádil bolıwǵa shaqıradı. Insaniyılıq insan tábiyatınıñ eñ joqarı pázıyiletlerin kórsetiwshi túsiniw bolıp tabıladı. Bul sóz ádette miyrim-shápáát, óz ara húrmet, jaqsılıq etiw, ádillikke umılıw sıyaqlı is-háreketlerdi ańlatadı. Insaniyılıq tek ǵana jeke pázıyilet emes, al jámiyetti birlestiretuǵın hām onı rawajlandıratuǵın tiykarǵı qádiriýat bolıp esaplanadı. Insaniy qádiriýatlardı umıtuqan jámiyet kriziske ushıraydı. Bul qádiriýatlar jámiyetti birlestirip turatuǵın tiykar bolıp, insanlar arasında óz-ara isenimdi bekkemleydi. Insaniyılıq búgingi kúnde túrli millet hām mádeniyat wákılleri arasında tınıshlıq hām awızbirshilikti támiyinlew ushın zárúr. Hár birimiz kúndelikli turmısımızda adamgershilikti úgit-násiyatlasaq hām óz is-háreketlerimizde onı kórsete alsaq, dunyani jáne de jaqsıraq kóriniske aylandırıwımız múmkin.

ÁDEBIYATLAR

1. Фалсафа энциклопедик луғат «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент-2010 84-б.
2. Өбдисайыт ПАХРАТДИНОВ «Өжанияз шайырдың көркемлик дунясы» - Нөкис, «Qaraqalpaqstan» баспасы, 2014-жыл, 3-бет.
3. Өжанияз Шығармалары: Арнаулы редактор: К.Каримов. Баспаға таярлаған хәм түсиник сөзлерин дүзген: А.Альниязов. Ташкент: “Adabiyot” баспасы, 2024. 5-6.
4. Ж.Базарбаев, Б.Отмуратов, К.Алламбергенов, К.Курамбаев, Қ.Қошанов. Өжанияз. Ташкент, “Tafakkur bo’stoni”, 2019-ж 3-б.
5. Ө.Пирназаров. Әдебиятшы, сыншы, алымның Өжаниязтаныў илими : «Avangard-baspa» баспасы, Нөкис: 2022- жыл. 60-бет.
6. Өбдисайыт ПАХРАТДИНОВ «Өжанияз шайырдың көркемлик дунясы» - Нөкис, «Qaraqalpaqstan» баспасы, 2014-жыл, 44-бет.
7. Өжанияз. Редакциялық коллегия: Камалов С. К, Юсупов И. Ю, Сағитов И. Т. Максетов Қ. М, Исмаилов Б. И, Каримов А. К, Жумамуратов Т. Ж, Хамидов Х. Х. Қарақалпақстан” баспасы Нөкис-1975. 67-бет.

Ajiniyazning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida gumanizm g'oyalarining aks ettirilishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonparvarlik tushunchasi va uning Ajiniyoz shoir ijodida aks etishi tahlil qilinadi. Insonparvarlik g'oyalari har bir davrda jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib kelgan. Ajiniyozning she'riyatida adolat, erkinlik va inson qadr-qimmatini ulug'lash kabi tamoyillar markaziy o'rin tutadi. Maqolada shoirning asarlarida insoniylik, mehr-oqibat va ijtimoiy tenglik g'oyalari qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu g'oyalarning bugungi kunda jamiyatimizdagi ahamiyati ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Inson, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, dunyoqarash, madaniyat, insonparvarlik, adolat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, erkinlik, qadriyat.

An exploration of humanist ideas in Ajiniyaz's socio-philosophical views

Annotation: This article analyzes the concept of humanism and its reflection in the works of the poet Ajiniyaz. Humanistic ideas have always been an essential factor in the development of society. In Ajiniyaz's poetry, principles such as justice, freedom, and the dignity of individuals play a central role. The article expresses how to be important the poet's ideas of humanity, compassion, and social equality in his works. The significance of these ideas in our society today is also considered.

Key words: Human, society, social relations, social life, culture, humanism, justice, political, economic, spiritual, freedom, value.

Исследование идей гуманизма в социально-философских воззрениях Ажинияза

Аннотация: В данной статье анализируется понятие гуманизма и его отражение в творчестве поэта Ажинияза. Гуманистические идеи всегда были важным фактором развития общества. В поэзии Ажинияза центральное место занимают принципы справедливости, свободы и достоинства человека. В статье рассматривается, как поэт выражает идеи человечности, сострадания и социального равенства в своих произведениях. Также рассматривается значение этих идей в современном обществе.

Ключевые слова: Человек, общество, общественные отношения, общественная жизнь, мировоззрение, культура, гуманизм, справедливость, политическая, экономическая, духовная, свобода, ценность.

SHAXSNI GAROV SIFATIDA TUTQUNLIKKA OLISH JINOYATI TUSHUNCHASI, MAZMUN-MOHİYATI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Najimov M., Annakulov A.

Qoraqalpogʻ davlat universiteti

Zamonaviy huquqiy tizimda inson huquqlari, xususan, shaxs erkinligi, qadr-qimmati va daxlsizligi davlatning asosiy himoya obyektı sifatida belgilangan. Hozirgi kunda insonning daxlsizlik huquqi, qaysi davlat fuqarosi boʻlishidan qatʼi nazar, xalqaro huquq va milliy qonunchilikda demokratik jamiyatning asosiy meʼzonlari sifatida eʼtirof etilmoqda. Bunday huquqiy meyorlar nafaqat davlatlarning ichki qonunchiligida, balki xalqaro hujjatlarda, jumladan, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» va «Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt» kabi boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Demokratik davlatlar oʻz konstitutsiyalarida shaxsiy erkinlik, daxlsizlik va inson qadr-qimmatini jinoiy-huquqiy himoya qilishni asosiy prinsip sifatida koʻrsatib oʻtadilar. Shaxs huquqlari va erkinliklarini taʼminlash davlatning nafaqat huquqiy majburiyati, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Bu mezonlarga rioya etish va huquqiy meyorlarni amalga oshirish demokratik davlatni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning daxlsizligini hurmat qilish xalqaro huquqning umumiy qoidasi sifatida qaralib, har qanday davlatda har bir fuqaro uchun taʼminlanishi zaruriy ahamiyatga ega. Bu nafaqat davlatning ichki barqarorligini, balki xalqaro hamjamiyatda demokratik davlat sifatida tan olinishini taʼminlaydi.

Garov sifatida tutqunlikka olish jinoiyati xalqaro huquq doirasida, BMTning 1979 yilgi «Garov sifatida tutqunlikka olishga qarshi kurash toʻgʻrisida»gi Konvensiyasi asosida batafsil huquqiy taʼrif olgan. Konvensiyada ushbu jinoyat quyidagicha tavsiflanadi: «Davlatni yoki xalqaro tashkilotni majburlash maqsadida shaxs yoki bir guruh shaxslar oʻz manfaatini koʻzlab tutqunlikka olish hamda ularni oʻldirish, jarohat yetkazish yoki ushbu holatni davom ettirish orqali manfaatni amalga oshirishga majbur qilish»[1] harakatlari shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoiyati sifatida baholanadi. Konvensiyada bu jinoyat xalqaro jamoatchilikka tahdid soluvchi xavfli harakatlar qatoriga kiritib, uni ogʻir jinoyat sifatida qoralaydi. Mazkur Konvensiyaga aʼzo davlatlar, oʻz milliy qonunchilik tizimlarida ushbu harakatlarni jinoyat sifatida eʼtirof etishga majburlar. Shu bilan birga, Konvensiyada belgilanganidek, har bir davlat oʻz huquqiy tizimida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishga qarshi jinoiy-huquqiy normalarni kiritib, bunday jinoyatga nisbatan tegishli jazoni belgilash majburiyatini oladi. Ushbu xalqaro majburiyat davlatlararo huquqiy hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, jinoyatni sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish jarayonini soddalashtirish maqsadida joriy etilgan. Ushbu huquqiy mexanizmlar davlatlar oʻrtasida jinoyatlarni tergov qilish, oldini olish va bartaraf etish yoʻlida oʻzaro yordam koʻrsatish imkoniyatini oshiradi. BMT Konvensiyasiga muvofiq, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoiyati davlat suverenitetiga qarshi qaratilgan harakat sifatida baholanib, xalqaro xavfsizlik va inson huquqlarini himoya qilishning global talablari sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, garov sifatida tutqunlikka olishga qarshi xalqaro hamda milliy darajada qabul qilingan normativ huquqiy aktlar demokratik va huquqiy davlatlarning asosiy jinoiy-huquqiy majburiyatlaridan biridir.

«Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish» jumlasining mohiyatini toʻliq tushunish uchun undagi ayrim huquqiy atamalarining lugʻaviy mazmunini chuqurroq tahlil qilish lozim. Avvalo, «garov» soʻzining kelib chiqishiga eʼtibor qaratamiz. Ushbu atama arab tilidagi «روك» (gara) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, odatda biror majburiyatni taʼminlash uchun qoldiriladigan omonat yoki vositani anglatadi. Garovning huquqiy talqinida, u vaʼdaning bajarilishiga kafolat boʻluvchi omil sifatida muhim oʻrin tutadi. Shu bilan birga, garov soʻzi «amalga oshirishni taʼminlovchi asosiy vosita» sifatida ham ishlatiladi, bu uning ikkinchi maʼnosidir.

Keyingi koʻrib chiqilishi lozim boʻlgan atama, bu — «tutqunlik». Ushbu soʻz ham ikki asosiy lugʻaviy maʼnoga ega. Birinchidan, u kishining qamoqda, hibsdan yoki majburan erkinlikning cheklangan holatini ifodalaydi. Ikkinchi maʼnoda esa, «tutqunlik» erkinligi cheklangan, huquqsiz yoki zulm ostidagi hayot tarzini bildiradi. Mazkur atama, shaxsni erkinlikdan mahrum qilish orqali uning iroda va harakat erkinligini cheklash holatini ifodalash uchun qoʻllanadi. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, «shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish» atamasini quyidagicha sharhlash mumkin: biror bir harakat yoki harakatsizlikning amalga oshirilishini taʼminlash maqsadida shaxsni iroda va huquqlardan mahrum etgan holda ushlab

turishni anglatadi. Bu amaliyot shaxsga nisbatan amalga oshiriladigan psixologik va nohuquqiy bosim vositasi sifatida qo'llanilib, garov ushlab turgan shaxsning asosiy huquqlarini cheklash orqali maqsadli harakatlarni bajarishga, majbur qilishga qaratilgan. Shu tariqa, mazkur jumlaning xalqaro huquq meyorlari bo'yicha jinoyat sifatida baholanadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, shaxsni biror bir harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishini ta'minlovchi asos sifatida tutqun, haq-huquqsiz holatda ushlab turishni anglatadi.

Yuqorida keltirilgan iborani lug'aviy ma'noda tahlil qilib chiqdik. Endilikda ushbu iboraga olimlar tomonidan berilgan ta'rif va sharhlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Milliy olimlarimizdan biri M.X.Rustambayev bu masalaga alohida to'xtalgan va o'zining mualliflik fikrida quyidagi tavsifni keltirgan: «Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – muayyan maqsadga erishish yo'lidagi, ya'ni davlat, xalqaro tashkilotlar, jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror-bir harakatni sodir etishga majbur qilish yoki sodir etishdan tiyib turishga qaratilgan jinoiy harakatning oraliq bosqichidir» [2, 367]. Rus olimi M.V.Lebedevning fikriga ko'ra: «shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – bu shaxsni noqonuniy ravishda qo'lga olish, shaxsning harakat erkinligini to'liq cheklash, shuningdek manfaatdor tomonlar garovni ozod qilish uchun majburiy shart sifatida muayyan harakatlarni bajarish yoki ularni bajarishdan bosh tortish talab qilish uchun shaxsni noqonuniy ushlab turish» deb ta'rif bergan[3]. Olimlarning fikrini umumlashtirgan holda, «shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish» atamasi shaxsning erkinligi va daxlsizlik huquqlarini qo'pol ravishda buzish bilan tavsiflanadigan, ma'lum bir maqsadga erishish uchun tahdid va zo'ravonlik usullaridan foydalanishni o'z ichiga olgan og'ir jinoyat hisoblanadi. Ushbu jinoyat ko'pincha jinoyatchining siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa shaxsiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jabrlanuvchiga nisbatan ruhiy bosim o'tkazish, qo'rqitish va tovlamachilik kabi usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Mazkur jinoyat harakati davomida jinoyatchi jabrlanuvchining harakat erkinligini cheklaydi va unga o'z talablarini qondirish uchun tazyiq o'tkazadi. Shuningdek, jinoyatchi ko'pincha jabrlanuvchining yaqinlariga yoki ularga tegishli mulkka zarar yetkazish bilan tahdid qiladi. Shu tarzda, garov sifatida tutqunlikka olish shaxsning erkin harakat qilish huquqini cheklash orqali qo'shimcha psixologik yoki jismoniy qaramlik holatiga tushirishga olib keladi.

Xalqaro maydonda bu jinoyat shaxsiy erkinlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyatlar qatoriga kiradi va ko'plab mamlakatlar qonunchiligida unga alohida e'tibor beriladi. Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Latviya davlatlari bu jinoyatga qarshi qat'iy choralar qo'llab, jabrlanuvchilarni himoya qilish hamda jinoyatchilarni jazolash uchun maxsus qonuniy mexanizmlar joriy etgan. Shu sababli, bunday xatti-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan inson huquqlari va xavfsizligini buzuvchi jinoyat sifatida qat'iy qoralangan.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati uzoq yillik tarixga ega bo'lib, qadimgi qabilachilik tuzumi davrida ham qabilalar turli hil maqsadlarni amalga oshirish maqsadida boshqa qabila vakillarini garov sifatida tutqunlikka olingan[4, 237]. Birinchi garovga olinganlarning yozma dalillari Bibliya kitobida, xristian dinining asosiy kitobi Injilining 14-bobidan topish mumkin. Taxminan miloddan avvalgi 1913 yilda to'rtta urushayotgan shohlar tomonidan Elliot, Ibrohimning jiyani va barcha mol-mulki bilan birgalikda garovga olingan. O'rta asrlarda shaxsni qo'lga olish, garov sifatida tutqunlikka olish odatiy amaliyot edi. XVIII asr oxirida «barbar» davlatlariga o'lpon to'lash amaliyoti odatiy holga aylandi. Miloddan avvalgi II asr oxirida Misr fir'avi Ramses III ga kotibi tomonidan yozilgan xabarida O'rta yer dengizining Sharqiy qismida gavjum dengiz yo'llari yaqinida hujum qilish uchun qulay joylar (ko'llar va orollar) borligi, bu joylarda qaroqchilar yashiringanligini, ular dengizdan o'tgan savdo kemalarini talon-taroj qilish bilan shug'ullanishgan va odamlarni asirlikga olib, ularni qul sifatida sotishganli to'g'risida ma'lumotlar uchraydi[5].

Dengiz qaroqchiligi ba'zi xalqlar uchun o'ziga xos bir kasb sifatida shakllangan; ular odamlarni o'g'irlab, qullikka sotishni asosiy daromad manbai sifatida ko'rganlar. Masalan, Egey dengizidagi Delos orolida ulkan qul bozori faoliyat yuritgan. Bu bozor, miloddan avvalgi 69 yilgacha, vayron qilinmaguncha, har kuni mingdan ortiq kishining sotilishi bilan mashhur bo'lgan. Bu holat o'sha davrda odam savdosi qanday darajada rivojlanganini va qullikka olingan kishilarning savdo jarayonlaridagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Vaqt o'tishi bilan bu jinoyat insonlar orasida qaroqchilik sifatida keng yoyildi. Qadimgi yunonlar birinchi qaroqchilar deb hisoblanadilar. Qadimgi yunonlarning qahramonlari Axilles, Odisseylar ham hatto shaharlarni vayron qilib, odamlarni garov sifatida olib ketganlar[5]. Bundan tashqari tarixda bunday misollarni ko'plab topishimiz mumkin. Masalan, Qadimgi Rimda ham shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish odati jinoyatining analogi hisoblangan boshqaruv usuli mavjud edi. Uzoq hududlarni provinsialarni nazorat qilish maqsadida mahalliy aholini tutqunlikda saqlash holatlari kuzatilgan[6, 12]. Rim imperiyasi davrida ham shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish kundalik hayotida ham, davlatning siyosiy hayotida ham qo'llanilgan garovga olingan qo'shni hududlarni zabt etishda, qoida tariqasida, hukmdorning qarindoshi bo'lgan bosib olingan yerlar va bosib olingan mamlakatning itoatkorligi kafolati bo'lgan[7]. Bizga ma'lumki qadimgi davrlarda garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatini huquqga zid holat deb emas balki, davlat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ta'sir chorasi sifatida davlatning ichki qonunchiligi bilan tartibga solingan. Shaxsni garov sifatida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish ba'zi hollarda davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, davlat tomonidan rag'batlantirish holatlari ham uchraygan[8].

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish qadimda nafaqat qaroqchilar orasida, balki oddiy aholining o'zi orasida ham keng tarqalgan jarayon bo'lgan. Qadimgi davlatlarda ushbu amaliyot qarz munosabatlarini tartibga solishning bir vositasi sifatida qaralgan va ko'plab mamlakatlarda odatiy hol edi. Miloddan avvalgi 1792-1750 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan shoh Hammurapining qonunlari bu amaliyot uchun maxsus tartiblar va jazolarni belgilab berdi. Mazkur qonunlarida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish va qarz munosabatlarining huquqiy asosi va oqibatlari batafsil bayon etilgan. Xususan, Hammurapi qonunlarining 114-moddasida aytilishicha, «agar kishi non yoki kumush bilan qarzдор bo'lsa va qarzini to'lay

olmasa, qarz beruvchi qarzdor ustidan garov huquqiga ega, ammo garovga olingan mulk uchun qarz beruvchi qarzdorning umumiy qarzidan kumush minaning uchdan bir qismini olib qolishi lozim». Bu modda qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini tartibga solib, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish jarayonida ma'lum qoidalar o'rnatadi. 115-moddada esa garovga olingan shaxsning huquqiy himoyasi masalasi ko'tariladi. Unda shunday deyiladi: «Agar qarzdor non yoki kumush bilan qarzini to'lay olmaganligi sababli garovga olingan shaxs bo'lsa va u qarz beruvchining uyida tabiiy o'lim bilan vafot etsa, bu qarzdor uchun da'vo qilishga asos bo'lmaydi». Bu qonun bilan qarzdor va qarz beruvchi o'rtasida garovga olingan shaxsning holati aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, uning tabiiy o'limi sababli javobgarlikdan ozod etish amaliyoti joriy qilingan. 116-moddaga ko'ra, agar garovga olingan shaxs garov oluvchining uyida qiynoq yoki yomon muomaladan vafot etsa, garov oluvchi kishi og'ir javobgarlikka tortiladi. Qonunda bu holatga alohida e'tibor qaratilib, agar garovga olingan shaxs qarz olgan shaxsning o'g'li bo'lsa, unda garovga olgan shaxsning o'g'li qatl etilishi kerakligi, agar qarzdor shaxsning quli bo'lsa, qarzdorning umumiy mulkidan kumush minaning uchdan bir qismini to'lash bilan jazolanishi va barcha qarzlarini yo'qotishi belgilangan. Bu qoidalar qadimgi Bobil jamiyatida qarzdorlik va garov huquqini qat'iy nazoratga olish maqsadida qabul qilingan bo'lib, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarida muayyan muvozanatni saqlashga qaratilgan edi [9, 391].

1492 yilda Kolumb tomonidan Amerika kashf etilgandan so'ng, ispanlar arablarni o'zlarining ota-bobolari yerlariga haydab yuborganlarida, dengiz qaroqchiligining ko'payishi sodir bo'ldi. Ko'p sonli tezyurur yengil kemalardan foydalangan. O'rta yer dengizini suv bosdi va dengiz savdo kemalari va qirg'oq bo'yidagi aholi punktlarini talonchilik va zo'ravonlikka duchor qildi. Masalan, 1504 yilda Rim papasi Yuliy II Genuyadan Rimga xazinalar ortilgan ikkita yirik harbiy kemani jo'natgan, ular qaroqchilar tomonidan hujumga uchrab, qo'lga olingan. O'sha davrlarning eng mashhur va shafqatsiz qaroqchisi Barbarossa laqabli Arab Aruch edi. Qaroqchilar ko'pincha port shaharlarining zodagonlarini qo'lga olishgan va ozod qilish sharti sifatida ular uchun to'lov talab qilishgan. Fransuz filibuster Grammon, Kampeche shahrini qamal qilish paytida, 20 dan ortiq aholini asirga oldi va ular uchun to'lov talab qildi. Lekin shahar hokimiyati talabni bajarishdan bosh tortdi. Qaroqchilar boshlig'i besh nafar garovga olinganlarning boshlarini kesib tashlashni buyuradi [10, 179]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali bilishimiz mumkinki, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish moddiy manfaatlarni ko'zlagan holda amalga oshirilgan. Lekin garov sifatida tutqunlikga olishning tarixini o'rganish davomida bu nafaqat moddiy manfaatlarni ko'zlagan holda balki davlatlar miqyosida shartnomalar bajarilishining garovi sifatida o'z yaqinlarini garov sifatida ikkinchi tomonga topshirganlarining guvohi bo'lamiz. O'rta asrlarda tuzilgan shartnomalarni ta'minlash usullaridan biri shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish va berish bo'lgan. Bu amaliyot kelishuvlarga rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Masalan, 1526 yilda Madrid shartnomasi imzolanganda, Fransiya qiroli Fransis I shartnomaga muvofiq o'z o'g'illarini muqobil to'lov sifatida Ispaniya qiroli Karl Vga topshirgan edi. Ushbu garov orqali Fransisk I Karl V bilan kelishuvga rioya qilishini kafolatlagan. Uch yil o'tib, qiroli o'g'illari oltin evaziga qaytarib berildi.

Asrlar davomida garov tizimi, tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarning bajarilishini ta'minlovchi an'anaviy vositalardan biri sifatida shakllandi. Xuddi shunday, 1748 yilda Angliya va Fransiya o'rtasida tuzilgan Axen tinchlik shartnomasi ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu shartnoma bo'yicha Suffolk gersogi va Lord Ketkart o'z ixtiyorlari bilan garov sifatida Fransiya qolishga rozi bo'lgan. Ular shu joyda turishda davom etgan, toki Bretan yarim orolining Angliyaga qaytarilishi amalga oshirilmaguncha. Bunday garov tizimlari o'sha davrning siyosiy muhitida shartnomalar bajarilishining ishonchli kafolatlaridan biri sifatida qaralgan. Shunday qilib, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish o'sha davrning xalqaro va ichki siyosiy-huquqiy munosabatlarida tahdid va qo'rqitishni kuchaytirishga xizmat qiladigan asosiy vositaga aylandi.

Buyuk Frantsuz inqilobi davrida shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish jinoiy taktika sifatida yangi huquqiy va siyosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Aksilinqilobiy harakatlar, xususan, Vande viloyatidagi isyonlarga qarshi kurash jarayonida, davlat «Garovga olinganlar to'g'risidagi qonun»ni qabul qildi. Mazkur qonunga binoan, muhojirlarning oila a'zolarini hibsga olish va davlat qo'shinlariga qarshi chiqqan shaxslarga ta'sir o'tkazish maqsadida ularni jazolash va deportatsiya qilishga ruxsat berildi. Ushbu qonun normativ-huquqiy bazada shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish jarayonini ichki huquqiy tartibga solishga qaratilgan ilk urinishlardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

1871-yilda Parij Kommunasida davrida esa kommunarlar ushbu amaliyotni siyosiy maqsadlar uchun keng ko'lamda ishlatishga kirishdi. Kommuna tomonidan qabul qilingan 1871 yil 5 apreldagi «Garovga olinganlar to'g'risidagi dekret» asosida yuqori lavozimli Parij ruhoniylari va qator versallik zodagonlar hibsga olindi. Bu huquqiy akt orqali kommunarlar hukumatdan siyosiy imtiyozlar olishga erishishga harakat qildilar va bu imtiyozlar berilmagan taqdirda asirlarni jazolashni maqsad qilishgan. Shuningdek, ular qarshi tarafdagi rahbarlarni, masalan Blankalar kabi taniqli shaxslarni ozod qilish maqsadida shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish mexanizmini siyosiy bosim vositasi sifatida qo'llashga intildilar [11, 223]. O'rta asrlar va undan oldingi davrlarda shaxsni shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish ko'pincha qonuniy qabul qilingan amaliyot sifatida qaralgan va ancha keng tarqalgan edi. Bu davrda shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish asosan moddiy foyda olish yoki shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash uchun qo'llanilgan usullardan biri edi. Bunday sharoitda shaxsni shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish ko'pincha vositachilik vazifasini o'tagan, ya'ni ma'lum shartlar bajarilmaguncha garovdagi shaxsni ozod qilmaslik amaliyoti ustun bo'lgan. Zamonaviy xalqaro hamjamiyat tomonidan esa shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishning huquqiy talqini tubdan o'zgartirgan. Xususan, xalqaro konvensiyalar va inson huquqlarini himoya qiluvchi hujjatlar shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishning har qanday shaklini jinoyat deb e'tirof etib, uning asosiy maqsadi va mazmunini qoralagan. Xalqaro huquqda shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish inson

huquqlariga jiddiy tajovuz sifatida baholanadi, chunki bunda shaxsning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini buziladi. Hozirgi davrda shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish jinoyati faqat moddiy manfaatlar bilan cheklanmasdan, balki ko'pincha siyosiy yoki diniy maqsadlarni amalga oshirish uchun ham qo'llaniladi.

XX asr boshlarida harbiy harakatlar davomida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish amaliyoti keng tarqaldi va yangi xalqaro huquqiy muhokamalar markaziga aylandi. 1907 yilda o'tkazilgan Gaaga konferensiyasida ushbu masala ko'rib chiqilgan bo'lsada, yakuniy hujjatlar — «Quruqlik urushi qonunlari va urf-odatlar to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi»da shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishga nisbatan aniq taqiq belgilanmadi. Shu bilan birga, Konvensiyaning bir nechta moddalarida shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishning noqonuniyligini talqin qilish imkonini beradi. Masalan, 46-modda barcha harbiy tomonlarga shaxslarning sha'ni, oila huquqlari va hayotini hurmat qilish majburiyatini yuklaydi. Bu modda, nazariy jihatdan, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishning shaxs huquqlariga zid ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, 50-modda urushayotgan tomonlarga bir kishining xatti-harakatlari uchun umumiy jazo tayinlashni taqiqlaydi, ya'ni kollektiv javobgarlik prinsipini rad etadi.

Shunga qaramay, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishni aniq cheklaydigan mustahkam huquqiy asos yaratilmadi, va garov amaliyoti Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari davomida saqlanib qoldi. Bu davrda garov asosan harbiy ustunlik va siyosiy bosim o'tkazish vositasi sifatida qo'llanilgan. Xususan, Sovet Respublikalari va qo'shni davlatlar o'rtasidagi qurolli nizolar, jumladan, Polsha bilan urushda hamda fuqarolar urushi davrida shaxsni garov sifatida tutqunlikga olish keng tarqaldi. Ushbu amaliyotga qarshi xalqaro darajada huquqiy choralar yetarli darajada kuchaytirilmagani sababli, shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishning huquqiy taqiqi va nazorat mexanizmlari o'sha davrda to'laqonli shakllantirilmadi [12, 120]. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari davrida xalqaro huquq tizimi barqaror huquqiy normativlarni yaratishdagi oqizligi namoyon bo'ldi, chunki urush harakatlari davomida asirlarning huquqlari ko'p hollarda cheklangan yoki nazoratga olinmagan edi. Shu sababli, XX asrda shaxsni garov sifatida tutqunlikga olishga qarshi xalqaro-huquqiy asos yaratish borasida qo'shimcha islohotlar talab etildi. Ushbu tadqiqotning asosiy xulosalari shuni ko'rsatadiki, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining lug'aviy ma'nosi asosan shaxsni 3-shaxslarni tomonidan sodir etiladigan harakat yoki harakatsizlikning amalga oshirilishi ta'minlovchi asos sifatida haq-huquqsiz holda ushlab turishdir. Garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining mazmun-mohiyati shaxsning erkinlik, daxlsizlik, erkin harakatlanish huquqlarini buzgan holda, shaxsga ruhiy yoki jismoniy tayziq yetkazish orqali davlat, shaxslar, yuridik shaxslar va xalqaro tashkilotlarning shaxsiy manfaatlari yo'lida biror bir harakat yoki harakatsizlik sodir etishini talab qilishdan iborat. Bu holat shaxsning huquqiy maqomini keskin buzish bilan amalga oshiriladi va asosan shaxsni erkinlikdan, daxlsizlikdan hamda erkin harakatlanish huquqidan mahrum qilish orqali yuzaga keladi.

Xalqaro maydonda bunday jinoyatga qarshi kurashish harakatlari asosan XX asrning 60 yillaridan boshlangan. Bugungi kunda esa shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati xalqaro huquq normalarida inson huquqlarini qo'pol ravishda buzuvchi jinoyat sifatida tan olinadi va unga qarshi butun dunyoda qat'iy choralar ko'rilmogda. Hozirgi xalqaro huquq meyorlari bunday jinoyatlarni to'xtatish va jabrlanuvchilarni himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunchilikni joriy etgan bo'lib, davlatlar o'rtasida bu jinoyatga qarshi kurashda hamkorlik kuchaymogda.

ADABIYOTLAR

1. Шaxsni garov sifatida tutqunlikga olishga qarshi kurash tufarisidagi Konvensiya <https://treaties.un.org/doc/db/terrorism/english-18-5.pdf>
2. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳукуки курси. Том 5. Махсус қисм. Жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига қарши жиноятлар. ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар. Дарслик. 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган. — Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2018. — 367 бет.
3. Лебедев М.В. Законодательство Российской Федерации по борьбе с захватом заложников, генезис и трансформация нормы статьи 206 УК РФ / М.В. Лебедев. — ЭДН ЛИХДТИ // Евразийский юридический журнал. — 2019. — № 4 (131). — С. 254–257.
4. Захват заложников: исторические, правовые, технические и психологические аспекты: По материалам «Интернешенэл криминал полис ревью». М, 1993., С. 237.
5. Павлик М.Ю. Возникновение и развитие российского уголовного законодательства об ответственности за захват заложника // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. — 2006. — №1. — С.102-107.
6. Овчинникова Г.В., Павлик М.Ю., Коршунова О.Н. Захват заложника: уголовно-правовые, криминологические и криминалистические проблемы. Юридический центр Пресс. 2001. С. 12
7. Несмелов П.В. Захват заложника: комплексный (исторически, социально-философский, криминологический, уголовно-правовой, международно-правовой) анализ / П.В. Несмелов, О.В. Содатова // Пробелы в российском законодательстве. 2016. № 8. С. 257–261.
8. Казарьянц А.А. Борьба с захватом заложников. Автореф. дис. ... канд. юр. наук. Северокавказский научный центр ВШ Министерства образования и науки РФ. Ростов-на-Дону. 2004. С. 11.: Резепкин О.Ю., Журавлев И.А. Указ. соч. С.10-13
9. Хрестоматия по всеобщей истории государства и права. Том 1 / Составители: Батыр К.И., Поликарпова Е.В., Седаков С.Ю., Филиппова Т.П. Под редакцией ЗАХВАТ ЗАЛОЖНИКА: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ Несмелов П.В. Содатова О.В. 261 Батыра К.И., Поликарповой Е.В. — М.: Издательство «Юристъ», 1996. — 391 с
10. Нойкирхен Х. Пираты морской разбой на всех морях. М, 1980. С. 179.
11. Диспо Л. Машина террора/Террор в современном капиталистическом обществе. — Вып. 1. — М., 1980. — С. 223.
12. Большая Советская Энциклопедия. — М., 1933. — Т. 26. — С. 120.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati tushunchasi, mazmun-mohiyati, turlari va tarixiy rivojlanish bosqichlari

Annotatsiya: Garovga olish murakkab jinoyat bo'lib, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, zamonaviy tahdidga aylandi. Ushbu maqolada garovga olish tushunchasi va mohiyati tadqiq etilib, uning turli ko'rinishlari tasniflangan, tarixiy taraqqiyot bosqichlari batafsil yoritilgan. Misollarda garovga olish holatlarining turli xil motivlari, tovlamachilik va siyosiy vositalardan tortib, psixologik manipulyatsiyagacha tasvirlangan. Huquqiy asoslar va tarixiy kontekstlarni ko'rib chiqish orqali ushbu maqola garovga olish fenomeni, uning jamiyat uchun oqibatlari, oldini olish va muzokaralar strategiyasi haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: garovga olish, jinoyatchilik, muzokaralar, tarixiy rivojlanish, profilaktika strategiyalari

Понятие, сущность, виды и этапы исторического развития преступления захвата человека в заложники

Резюме: Захват заложников - сложное преступление с глубокими историческими корнями, превратившееся в значительную современную угрозу. В данной статье рассматривается понятие и сущность захвата заложников, классифицируются его различные формы и подробно описываются этапы его исторического развития. Примеры иллюстрируют различные мотивы захвата заложников - от вымогательства и политического давления до психологического манипулирования. Рассматривая правовые основы и исторический контекст, эта статья ставит своей целью дать всеобъемлющий обзор феномена захвата заложников, его последствий для общества, а также стратегий предотвращения и ведения переговоров.

Ключевые слова: Захват заложников, преступление, переговоры, историческое развитие, стратегии предотвращения

The concept, essence, types and stages of historical development of the crime of taking a person hostage

Abstract: Hostage-taking is a complex crime with deep historical roots that has evolved into a significant modern threat. This article explores the concept and essence of hostage-taking, categorizing its various forms, and detailing the stages of its historical development. Examples illustrate the differing motivations behind hostage situations, ranging from extortion and political leverage to psychological manipulation. By examining the legal frameworks and historical contexts, this article aims to provide a comprehensive overview of the hostage-taking phenomenon, its implications for society, and strategies for prevention and negotiation.

Key words: Hostage-taking, crime, negotiation, historical development, prevention strategies.

QIMBAT BAHALI QAĞAZLAR HÁM MÚLK HUQIQI: HUQÍQÍY ANALIZ HÁM TÁRTIPKE SALIW MEXANIZMI

Sa'rsenbaeva E. T.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Puqaralıq huqıqı obyektleriniń kólemi júdá keń bolıp, olardıń hár biri belgili bir huqıqıy qatnasıqlarda óz aldına mazmunǵa iye. Puqaralıq huqıqı sheńberinde ayırım obyektler ǵárezsiz tarawlar hám institutlar tárepinen tártipke salınıwı, olardıń huqıqıy tábiyatı hám funkcional áhmiyetine baylanıslı túrde qalıpleseı. Usı mániste, múlk huqıqı puqaralıq-huqıqıy qatnasıqlarda ǵárezsiz obyekt sıpatında tán alınadı hám puqaralıq nızamshılıǵında bekkemlengen. Múlk huqıqı óz mazmunına qaray, múlklik zatlar hám basqa materiallıq baylıqlarǵa iyelik etiw, paydalanıw hám olardı basqarıw wákilliklerin óz ishine aladı. Bul huqıqlar puqaralıq huqıqı subyektliriniń ekonomikalıq erkinligin támiyinlew menen birge, olardıń huqıqıy máplerin qorǵawǵa xızmet etedi. Sol sebepli, múlk huqıqınıń ámeliy qollanıwı tiyisli múlk huqıqlarınıń maqsetlerine baylanıslı bolmastań, huqıqıy qatnasıqlarda materiallıq baylıqlar obyekt sıpatında qatnasıwın ańlatadı.

Ózbekstan Respublikasınıń ámeldegi Puqaralıq kodeksi 81-statyasına muwapıq, múlk huqıqı puqaralıq huqıqı obyektleri qatarına kirgizilgen[1]. Sonıń menen birge, usı Kodekstiń 94-statyası pul (valyuta) dıń huqıqıy sıpatlamasına arnalǵan. Biraq, Kodeks múlk huqıqlarınıń, atap aytqanda, qımbat bahalı qaǵazlarǵa baylanıslı múlk huqıqlarınıń huqıqıy tábiyatı haqqında tolıq túsinikti bermeydi. Qımbat bahalı qaǵazlar puqaralıq aylanısınıń basqa obyektlerine qaraǵanda keńirek aylanıs kólemine iye bolǵan ǵárezsiz obyektler qatarına kiredi. Qımbat bahalı qaǵazlarǵa iyelik etiw, paydalanıw hám biylik etiw huqıqı olardıń múlk iyeleri ushın yuridikalıq hám ekonomikalıq áhmiyetke iye bolıp, bul huqıqlar múlk huqıqınıń ulıwma principlerine muwapıq ámelge asırıladı. Bul jaǵdayda múlk huqıqı yuridikalıq shaxslar yaqı fizikalıq shaxslar ushın qımbat bahalı qaǵazlardıń ekonomikalıq qunı hám olardıń aylanısı menen tikkeley baylanıslı.

Qımbat bahalı qaǵazlarǵa baylanıslı tikkeley múlk huqıqınıń payda bolıw tiykarları puqaralıq huqıqındaǵı kóplegen quramalı qaǵıydalardan ibarat ekenligin kóriw múmkin. Sebebi, múlk huqıqı belgili bir huqıqıy qatnasıqta qatnasıp atırǵan shaxsqa tiyisli bolǵan huqıq esaplanadı. Múlk huqıqı obyektiv huqıqıy normalar, yaǵnıy mámleket tárepinen ornatılǵan tártipler tiykarında qalıpleseı hám olar tárepinen ámelge asırıladı [2, 32.].

Bahalı qaǵazlarǵa baylanıslı puqaralıq huqıq subyektliriniń múlk huqıqlarınıń payda bolıwı, aldı menen, milliy nızamshılıqta ulıwma qaǵıyda sıpatında názerde tutılǵan. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Puqaralıq kodeksiniń 8-statyası ekinshi bóliminde názerde tutılǵan tiykarlardan kelip shıǵıp[1], yuridikalıq shaxslardıń tikkeley qımbat bahalı qaǵazlarǵa baylanıslı múlk huqıqınıń payda bolıw tiykarları tómendegishe kórsetiliwi múmkin: shártnamalar hám basqa pitimler tiykarında; subyekttiń nızamsız háreketleri (háreketsizligi) nátiyjesinde nızam hújjetleri hámde mámleketlik hákimiyat hám basqarıw organlarınıń tiyisli qararları tiykarında; subyekttiń nızamlı háreketleri nátiyjesinde; hádiyseler nátiyjesinde. Demek, belgili túrdegi puqaralıq-huqıqıy qatnasıqlardıń qalıplesiwi ushın tiykar sıpatında qımbat bahalı qaǵazlarǵa baylanıslı múlkıy huqıqlardıń júzege keliwi, ádette, imperativ hám dispozitiv qaǵıydalar tiykarında ámelge asırılıwın esapqa alsaq, qımbat bahalı qaǵazlar menen xojalıq operaciýaların ámelge asırıwǵa baylanıslı ekonomikalıq huqıqlar múlkıy huqıq hám minnetlemeler menen tıǵız baylanıslı ekenligin kóriw múmkin.

Múlk huqıqı tiykarında ámelge asırılátuǵın támiynatqa baylanıslı múlk huqıqınıń mazmunı tiykarınan fizikalıq hám yuridikalıq shaxslardıń usı obyektke baylanıslı huqıq hám minnetlemeleri dárejesi menen sıpatlanadı. Biraq, támiynat jaǵdayında materiallıq huqıq múlk huqıqı tiykarında júzege keledi. Usı múnásibet penen múlk huqıqsız basqa múlkıy

huquqlarning bar ekanligin k z aldımızga keltiriv qıyın [3, 82.]. Qımbat bahalı qağaz t sinigin talqılawda t rli k zqaraslar bar. Bul institutn n quramalılıǵı h m k p qırılıǵı sebepli birden-bir duris talqılawdı belgilew qıyın. E.M.Mixaylenko atap  tkenindey: «Bahalı qağazlar -  z t rine qaray puqaralıq huqıqıy qatnasıqlardıń obyektı bolıp, puqaralıq huqıqıy qatnasıqlardıń belgili bir subyektine m lklık h m (yamasa) basqa m lkiy emes huqıqlardı biriktirwıdn n nızam menen belgilengen h jjetli yamasa h jjetsiz formasın bildiredi.» Bul anıqlama qımbat bahalı qağazlardıń huqıqıy h m ekonomikalıq  zgesheliklerin tolıq s wlelendirip, olardıń huqıqıy aylanısın t miyinlewshi  hmiyetli elementlerdn n bar ekanligin k rsetedi.[4, 202.]. N.B.Boldireva t repinen qımbat bahalı qağaz t sinigi eki t repten: huqıqıy h m ekonomikalıq jaqtan izertlengen. Yuridikalıq k zqarastan - bul h jjetsiz bahalı qağazga bolǵan huqıqtı tastıyqlawshı, onıń iyesine belgilengen huqıqlardı beriwshi h jjet yamasa esap jazıwı bolıp tabıladı. Ekonomikalıq k zqarasınan bahalı qağaz kapital bar bolıwın n modeli esaplanadı [5, 126.]. Qımbat bahalı qağazdn n birinshi t siniginı nemec yuristi Tolem t repinen berilgen: «Qımbat bahalı qağazlar - bul m lkiy-huqıqıy mazmundaǵı h r qanday h jjet» [6, 174.]. Keyin ala nemec ilimpazı Genrix Brunner bul atamaǵa anıqlıq kirgizdi h m t mendegilerdi belgilep berdi: «Bahalı qağaz degende usınılıwı boyınsha onda bekkemlengen jeke huqıqtıń orınlanıwı  melge asırıwı lazım bolǵan h jjet t siniledi.» O.A.Belova k z qarastırnan keltirilgen t sinik ekonomikalıq qatnasıqlardıń zamanag y tendenciyların  n joqarı d rejede anıq k rsetedi [7, 244.].

H jjetli qımbat bahalı qağazlar nızamda belgilengen talaplarǵa juwap beretuǵın h mde minnetleme h m basqa huqıqlardı tastıyqlaytuǵın h jjetler bolıp, olardı  melge asırıw yamasa  tkeriw tek ǵana usınday h jjetler usınılǵan jaǵdayda ǵana m mkin boladı. Joqarıdaǵılardan kelip shıǵıp, qımbatlı qağaz degende h reketleniwshi n rse t siniledi.  z n wbetinde, h jjetsiz qağaz - bul nızam talaplarına muwapıq qağazlardı shıǵarǵan shaxstıń shıǵarıw haqqındaǵı qararında yamasa basqa h jjetinde bekkemlengen h m tek usı huqıqlardı esapqa alıw qaǵıydalarına  mel etken halda  melge asırıwı h m  tkeriliwı m mkin bolǵan minnetleme h m basqa huqıqlar, yaǵnıy bunday t riyp qağazdn n huqıqlar jıyındısı sıpatındaǵı t biyatın k rsetip, sol arqalı denesiz (jımsız) zatlar haqqındaǵı t liymattı rawajlandıradı [8, 15.].

 zbekstan Respublikası Puqaralıq kodeksiniń 96-statyasına muwapıq, qımbat bahalı qağazlar t sinigine t mendegi finanslıq qurallar kirgizilgen: obligaciya, veksels, chek, depozit h m qor sertifikatları, konosament, akciya h mde nızamshılıqqa muwapıq qımbat bahalı qağazlar sıpatında t n alınǵan basqa h jjetler. Sonday-aq, «Qımbat bahalı qağazlar bazarı haqqında»ǵı nızamga muwapıq, bul nızam t mendegi bahalı qağazlarǵa: akciyalar, obligaciyalar, m mleketlik ǵaznashılıq obligaciyaları, depozit sertifikatları, bahalı qağazlardıń tuwındıları h m veksellerge qollanıwı k rsetilip  tilgen[9]. Bul h jjetler qımbat bahalı qağazlar bazasında qatnasıwshı subyektler arasındaǵı huqıqıy h m finanslıq qatnasıqlardı t rtipke salıwda  lken  hmiyetke iye. Bul bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqları belgili subyektler qatnasatuǵın minnetleme menen baylanıslı qatnasıqlardan da j zege keliwı m mkin. M jb riyat huqıqına tiykarlangan fizikalıq h m yuridikalıq shaxslardıń qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqları tiykarınan t mendegilerde k rinedi: minnetleme huqıqı boyınsha sh rtnama t repi sıpatında qatnasıp atırǵan puqaralıq huqıqı subyektiniń sh rtnama minnetlemelerin orınlaw jaǵdayı qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqların j zege keltiredi; sh rtnamalıq bolmaǵan jaǵdaylarda isbilermenlik iskerliginde k rilgen zıyanlardı qaplaw n tiyjesinde usı qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqları j zege keledi;  meldegi nızamshılıq h m basqa normativlik huqıqıy h jjetler tiykarında qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqı j zege keledi. Usı m n sibet penen, bahalı qağazlar  z mazmunına qaray puqaralıq huqıqınıń obyektı sıpatında qaralıwı menen, oǵan baylanıslı xojalıq iskerliginiń ayırım t rlerine baylanıslı m lk huqıqınıń payda bolıwı ǵalaba huqıq normaları menen de t rtipke salınıwı m mkin. M selen,  meldegi miynet h m xalıqtı sociallıq qorǵaw haqqındaǵı nızam h jjetlerine muwapıq, miynet haqı, napaqalar, pensiyalar h m stipendiyalarǵa m lk huqıqınıń payda bolıwı ǵalaba huqıq normaları menen belgilenedi. Sh rtnamada qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lk huqıqı da t n alınǵan bolıp, bul tiykarınan milliy nızamshılıq penen t rtipke salınadı. M selen, satıp alıw sh rtnamaları boyınsha tovarlarǵa bolǵan m lkiy huqıqlar, qarız h m kredit minnetlemeleri boyınsha kreditordıń qağazlarǵa bolǵan m lkiy huqıqları h m basqalar. Demek, sh rtnamalıq huqıqıy qatnasıqta t repler sh rtnamada k rsetilgen m lkiy huqıqtan paydalanadı h m minnetlemelerdi orınladı [10, 25.]. Ayırım jaǵdaylarda, m lk huqıqı shaxstıń erkine qarsı payda bolıwı m mkin. Misalı, kommerciyalıq yuridikalıq shaxstı qayta sh lkemlestiriw n tiyjesinde sh lkemlestiriwshiler huqıqıy miyrasxorlıq t rtibinde saplastırılıp atırǵan yuridikalıq shaxstıń ustav fondına salıstırǵanda  stin m lkshilik huqıqına, bahalı qağazlarǵa iyelik etiw huqıqına iye boladı h m taǵı basqalar.

Juwmaqlap aytqanda, qımbat bahalı qağazlarǵa baylanıslı m lkiy huqıqlardıń payda bolıwı k binelese m pler, q lewler h m m lkiy huqıqlardı  melge asırıw z r rligi formasında k riniwı m mkin. Bul tiykarınan ayırım puqaralıq-huqıq sh rtnamalarında h m m lkiy huqıqlar iyeleriniń basqa shaxslar menen usı t rdegi q diriyatlar haqqındaǵı sh rtnamasız minnetlemelerde, n tiyjede bolsa, q diriyatlar operaciyları qatnasıwshılarınıń m lkiy huqıqları h m m t jliklerin t miyinlewde  z k rinişin tabadı.

 DEBIYATLAR

1. Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/mact/111189>
2. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi: Mualliflar jamoasi. Darslik. – Toshkent: TDYI, 2007.
3. Ergashev V.Yo. Ashyoviy huquq obyektı. // Bozor islohotlari sharoitida fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish muammolari: Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Toshkent: TDYUI, 2011.
4. Михайленко Е.М. Гражданское право. Общая часть: учебник и практикум для вузов. М.: Издательство Юрайт, 2023.
5. Болдырева Н.Б. Финансовые рынки и институты: учебник и практикум для вузов. М.: Издательство Юрайт, 2023.
6. Ангелов А.И. Проблемы определения понятия ценных бумаг // Юрист. 2019. № 13.

7. Белова О.А. Гражданское право: учебник для вузов. М.: Издательство Зерцало, 2015.
8. Мурзин Д.В. Ценные бумаги – бестелесные вещи: Правовые проблемы современной теории ценных бумаг. М.: Издательство Статут, 1998.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi qonuni <https://lex.uz/mact/2662539>
10. Mualliflar jamoasi. Shartnoma huquqi: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDYUI, 2006.

Qimmat bahali qagazlar ham mulk huquqi: huquqiy analiz ham tartipke saliw mexanizmi

Annotatsiya: Maqalada qimmat bahali qagazlarga baylanish mulk huquqlarining huquqiy tartipke saliniwi masaleleri analiz etilgen. Huqqtanivshi alimlarning puqaraliq huquqi obyektleri sipatida qimmat bahali qagazlarning yuridikaliq tabiyatini, olarga iyelik etiw, paydalaniv ham biylik etiw huquqlarini toliq sawlendirip bergen pikirleri salistirilgan. Sonday-aq, maqalada qimmat bahali qagazlarga mulk huquqlarini belgilewde shartnoma qatnasilari ham ekonomikalik faktorlarning ornini uyrenilgen.

Tayamish so‘zlar: qimmat bahali qagazlar, mulk huquqi, puqaraliq huquqi, huquqiy tartipke saliw, bahali qagazlar bazari.

Qimmatli qog‘ozlar va mulk huquqi: huquqiy tahlil va tartibga solish mexanizmi

Annotatsiya: Maqolada qimmatli qog‘ozlarga nisbatan mulk huquqlarining huquqiy tartibga solinishi masalalari tahlil qilingan. Huquqshunos olimlarning fuqarolik huquqi obyektlari sifatida qimmatli qog‘ozlarning yuridik tabiatini, ularga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini batafsil yoritib bergan fikrlari qiyoslangan. Shuningdek, maqolada qimmatli qog‘ozlarga mulk huquqlarini belgilashda shartnomaviy munosabatlar va iqtisodiy omillarning o‘rni o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar, mulk huquqi, fuqarolik huquqi, huquqiy tartibga solish, qimmatli qog‘ozlar bozori.

Ценные бумаги и право собственности: правовой анализ и механизм регулирования

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы правового регулирования прав собственности на ценные бумаги. Проведен сравнительный анализ мнений ученых-юристов о юридической природе ценных бумаг как объектов гражданского права, а также подробно раскрыты вопросы владения, пользования и распоряжения ими. Кроме того, в статье изучается роль договорных отношений и экономических факторов в определении прав собственности на ценные бумаги.

Ключевые слова: ценные бумаги, право собственности, гражданское право, правовое регулирование, рынок ценных бумаг.

Securities and property rights: legal analysis and regulatory mechanism

Abstract: This article examines the issues of legal regulation of property rights concerning securities. A comparative analysis of the opinions of legal scholars on the legal nature of securities as objects of civil law is conducted, with a detailed discussion of ownership, use, and disposal rights. Moreover, the article explores the role of contractual relations and economic factors in determining property rights over securities.

Key words: securities, property rights, civil law, legal regulation, securities market.

HARBIY OPERATSIYALARNING TURLARI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Jo‘rayev B.

Mustaqil izlanuvchi,

Har qanday harbiy operatsiya yoki harbiy harakat u sodir bo‘layotgan davr, zamon va makon maxsuli. Qo‘mondonlik, harbiy kuchlarni boshqarish va yo‘naltirish ijtimoiy tafakkur, shakllangan intellektual bazaga tayanadi. Harbiy operatsiyalar esa ana shu ilmiy-ma‘rifiy hodisadan, tarixiy tajriba va zamonaviy talablardan kelib chiqib turishda bo‘ladi. Harbiy operatsiyalarning turlari an‘anaviy jang maydonidan tortib, zamonaviy texnologiyalar va strategiyalardan foydalanishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli harakatlarni o‘z ichiga oladi. Harbiy operatsiyalar turli tahdidlarga javob berish uchun turlicha shaklda amalga oshiriladi va ular strategik maqsad, qo‘llaniladigan taktika hamda foydalaniladigan resurslar asosida farqlanadi.

An‘anaviy harbiy operatsiyalar. An‘anaviy harbiy operatsiyalar davlatlar o‘rtasida yoki muntazam armiya kuchlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan bo‘lib, keng ko‘lamdagi jang maydonida amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar odatda hududiy yaxlitlikni himoya qilish, qo‘shni davlat kuchlarini zaiflashtirish yoki aniq bir hududni egallash uchun olib boriladi. An‘anaviy harbiy operatsiyalar texnologiyaga asoslangan zamonaviy usullarga qaramasdan, asosiy jang taktikalariga tayanadi [1]. 1944 yil ikkinchi jahon urushida Germaniya kuchlariga qarshi ittifoqchilar tomonidan shartli nomi “Normandiya desanti” bo‘lgan harbiy operatsiya amalga oshirildi. Bu operatsiya an‘anaviy harbiy operatsiyaga yaqqol misol bo‘ladi. Ushbu operatsiyadan maqsad Germaniya qo‘shinlarini Fransiyadan chiqarish bo‘lib, operatsiyada og‘ir tanklar, aviatsiya, artileriya va piyoda askarlardan foydalanildi. Ittifoqchilar, shu jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya va Kanada kuchlari keng ko‘lamdagi hujumlarni amalga oshirib, strategik jihatdan muhim bo‘lgan Normandiya qirg‘og‘ini nazoratga olishga muvaffaq bo‘lishdi.

Antiterror operatsiyalari. Antiterror operatsiyalari davlat ichidagi yoki xalqaro miqyosdagi terrorchilik tahdidlariga qarshi olib boriladi. Ushbu operatsiyalarning asosiy maqsadi terrorchi guruhlarini yo‘q qilish, ular faoliyatini cheklash va terrorchilikka qarshi xavfsizlikni ta‘minlashdir. Bunga AQShning "Inherent Resolve" operatsiyasini misol qilish mumkin. Bu turdagi operatsiyalarda keng ko‘lamdagi kiber qurollar, dronlar va sun‘iy yo‘ldosh kuzatuv texnologiyalaridan foydalaniladi [2, 3]. Operatsiya ISHID terrorchilik guruhiga qarshi olib borilgan va AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya tomonidan amalga oshirilgan. Operatsiyaning asosiy maqsadi ISHIDning Iroq va Suriyadagi faoliyatini yo‘q qilish bo‘lib bu operatsiyada keng ko‘lamdagi razvedka va texnologiyalar (dronlar, sun‘iy yo‘ldoshlar) yordamida terrorchilik guruhlarini nishonga olingan [4].

Gibrid (Aralash) harbiy operatsiyalar. Gibrid operatsiyalar an'anaviy va noan'anaviy urush elementlarini birlashtiradi. Bu turdagi harbiy harakatlarda qurolli kuchlar bilan birga, kiberhujumlar, axborot urushi va iqtisodiy bosim kabi boshqa omillar qo'llaniladi. Masalan, Rossiya-Ukraina urushida axborot hujumlari, iqtisodiy sanksiyalar va kiber hujumlar kabi strategiyalar gibrid operatsiyaning asosiy komponentlari sifatida qo'llanilmoqda [5]. Gibrid urushlarga misol sifatida 2014 yilda Rossiya tomonidan Qrim yarim orolini anneksiya qilishda gibrid operatsiya usullari qo'llanilganini olishimiz mumkin. Bu jarayonda nafaqat harbiy kuchlar, balki axborot urushi, ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumot tarqatish va kiber hujumlar orqali Ukraina va xalqaro hamjamiyatda noaniqlik yaratishga urinishlar kuzatildi. Rossiya tomonidan "yashil odamchalar" deb ataluvchi harbiy kiyimdagi askarlar hududda o'z faoliyatini olib bordi, ammo ular rasmiy ravishda Rossiya armiyasi vakillari sifatida tan olinmagan, bu esa Rossiyaga qarshi choralarni qiyinlashtirdi.

Tinchlikni saqlash operatsiyalari. BMT yoki NATO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tinchlikni saqlash operatsiyalari davlatlararo yoki ichki nizolarni oldini olish, tinchlikni o'rnatishga qaratilgan. Bu turdagi operatsiyalarda harbiy kuchlar bevosita jangovar harakatlarga kirishmasdan, tinchlik o'rnatish yoki aholiga yordam ko'rsatish maqsadida joylashtiriladi. Afrika mamlakatlarida BMT tomonidan amalga oshirilayotgan tinchlikparvar kuchlar operatsiyalari bu turdagi misollardan biridir [6]. BMTning MONUSCO missiyasi Kongo Demokratik Respublikasida tinchlikni saqlash va aholiga yordam ko'rsatish uchun olib borilmoqda. Bu missiya Kongo davlatidagi turli qurolli guruhlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga va insonparvarlik inqirozlarini yengishga qaratilgan. Bu turdagi operatsiyalar tinch aholining xavfsizligini ta'minlash va nizolarni oldini olish uchun olib boriladi.

Kiberoperatsiyalar. Kiberoperatsiyalar dushmanning axborot tizimlariga zarar yetkazish, ulardagi ma'lumotlarni o'g'irlash yoki noto'g'ri ma'lumot tarqatish uchun amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarda kompyuterlar, dasturiy ta'minotlar va tarmoq qurilmalaridan qo'llaniladi. Kiberurushlar o'zining keng qamrovli ta'siri va sarf-xarajalarining kamligi sababli zamonaviy davlatlar tomonidan tez-tez qo'llanib kelinmoqda. 2009-2010 yillarda AQSh va Isroil hamkorligida "Stuxnet" deb nomlangan kiberoperatsiya amalga oshirilgan. Ushbu kiberoperatsiyadan asosiy maqsad Eronning yadro dasturiga hujum qilish bo'lib Stuxnet virusidan foydalangan holda Eronning Natanz yadro zavodidagi sentrifugal faoliyatini buzishga erishildi. Bu kiberoperatsiya Eronga jiddiy zarar yetkazib, uning yadroviy dasturini bir necha yilga ortga surdi. Stuxnet kiberoperatsiyasi kiber urushning kuchli va samarali bo'lishini namoyon etdi.

Psixologik va axborot urushlari. Bunda dushman askarlari va aholisi ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali dushmanning qarshilik ko'rsatish qobiliyatini kamaytirishga qaratilgan. Axborot va psixologik urushlar asosan targ'ibot, noto'g'ri axborot tarqatish, qo'rqitish yoki dushman aholisi orasida nizolar keltirib chiqarish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy vositalar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalar yordamida bu turdagi operatsiyalar amalga oshiriladi. Sovuq urush davrida AQSh tomonidan kommunistik davlatlarga qarshi psixologik va axborot urush olib borilgan. "Radio Free Europe" va "Voice of America" radiodasturlari orqali Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqi aholisi uchun G'arbning demokratik qadriyatlari va hayot tarziga oid ma'lumotlar yetkazilgan. Bu dasturlar orqali kommunizmning zararli ta'sirlari haqida xabar berib, psixologik jihatdan qarshilik yaratish maqsad qilingan.

Qutqaruv va gumanitar yordam operatsiyalari. Qutqaruv va gumanitar yordam operatsiyalari tabiiy ofatlar, insonparvarlik inqirozlari yoki yirik terroristik hujumlar natijasida aholiga yordam ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarda harbiy kuchlar nafaqat jangovar harakatlarda, balki tibbiy yordam, oziq-ovqat ta'minoti va qutqaruv amaliyotlarida ham ishtirok etadi. 2010-yilda Gaitida sodir bo'lgan zilzila natijasida minglab odamlar halok bo'lgan va ko'plab uylar vayron bo'lgan. AQShning "Operation Unified Response" dasturi yordamida harbiy kuchlar Gaiti xalqiga qutqaruv, tibbiy yordam va oziq-ovqat yetkazib berdi. Ushbu operatsiya gumanitar yordam ko'rsatish uchun qurolli kuchlarning jalb etilgani misol bo'ldi. Natijada tabiiy ofat vaqtida xalqaro ko'makni tezkor va samarali ta'minlanildi.

Asimmetrik harbiy operatsiyalar. Asimmetrik operatsiyalar kuchlar nisbati teng bo'lmagan holatlarda zaifroq tomon tomonidan olib boriladi. Bu turdagi operatsiyalarda kuchli dushmanga nisbatan kichikroq resurslar yordamida maxsus taktikalar qo'llaniladi. Asimmetrik urush taktikalariga partizan urushlari, maxsus kuchlarning kichik guruhlar orqali hujumlari kiradi. Bu taktika zaif tomon kuchli raqibga sezilarli zarar yetkazishi uchun qo'llaniladi.

Asimmetrik urushning klassik misollaridan biri Tolibonning Afg'onistondagi AQSh va NATO kuchlariga qarshi kurashida ko'riladi. Tolibon AQSh kabi kuchli dushmanga nisbatan kichik guruhlar yordamida partizan usullarini qo'llab, turli hududiy hujumlar uyushtirgan. Kichik guruhlarda joylashgan kuchlar tog'li hududlarda yashirilib, NATO kuchlariga muntazam hujumlar uyushtirish orqali qiyinchiliklar yaratgan [7,8]. Harbiy operatsiyalar turi va qamrovi uning belgilangan maqsadlariga, dushman strategiyasiga va davlat siyosiy manfaatlariga qarab tanlanadi. Har bir turdagi operatsiya o'ziga xos strategiya va resurslarni talab qiladi va zamonaviy harbiy texnologiyalardan keng foydalanishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy operatsiyalar insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular zamon o'tishi bilan rivojlanib, o'z mazmuni va mohiyatiga yangi talqinlarni olib keldi. Bugungi kunda harbiy operatsiyalar nafaqat harbiy kuchlarning o'zaro qarama-qarshiligini aks ettiradi, balki kengroq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda muhim vositaga aylangan. Ularning muvaffaqiyati strategik rejalashtirish, texnologik taraqqiyot va inson omili kabi bir qator omillarni o'zaro uyg'unlashtirishga bog'liqdir.

Zamonaviy harbiy operatsiyalar global xavfsizlikni ta'minlash va milliy manfaatlarini himoya qilish uchun turli darajadagi vositalar va strategiyalardan foydalanishni talab qiladi. Gibrid urushlar, kiber hujumlar, axborot urushlari va iqtisodiy sanksiyalar zamonaviy konfliktlarning asosiy xususiyatlariga aylangan. Masalan, Rossiya-Ukraina mojarosi ushbu

yangi turdagi strategiyalarning samaradorligini ko'rsatadi. Ushbu konflikt davomida an'anaviy harbiy harakatlar bilan bir qatorda iqtisodiy bosim, axborot hujumlari va xalqaro diplomatik choralarning kombinatsiyasi ishlatilmoqda.

Karl fon Klauzevitsning "Urush – siyosatning boshqa vositalari bilan davom ettirilishi" degan mashhur g'oyasi bugungi kunda ham dolzarbdir. Harbiy operatsiyalar davlatning siyosiy maqsadlariga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, Basil Liddell Hartning "bilvosita yondashuv" nazariyasi harbiy muvaffaqiyatning dushmanning ruhiy va jismoniy muvozanatini buzish orqali erishilishini ta'kidlaydi. Edward Luttwakning "Strategy: The Logic of War and Peace" (1987) asarida keltirilgan yondashuvlar esa zamonaviy strategiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Uning operatsion darajadagi strategiyaga alohida e'tibor qaratishi strategiya va taktikaning uyg'unligini ta'minlash uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashgan dunyoda harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik taraqqiyotning ahamiyati ortib bormoqda. Dronlar, sun'iy intellekt va yuqori aniqlikdagi qurollar jangovar harakatlarni samarali va xavfsiz qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, inson omili – qo'mondonlik qobiliyati, qaror qabul qilish tezkorligi va askarlarning motivatsiyasi muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi omil sifatida qolmoqda. Tarixiy misollar shuni ko'rsatadiki, texnologik jihatdan ustun bo'lgan kuchlarning noto'g'ri strategik qarorlari muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan holatlar ko'p bo'lgan. Razvedka va axborot urushlari harbiy operatsiyalarning ajralmas qismiga aylangan. Dushman harakatlarini oldindan bilish va tezkor javob choralari ishlab chiqish muvaffaqiyatni ta'minlash uchun muhimdir. Bunda sun'iy intellekt, kiber texnologiyalar va zamonaviy aloqa vositalari katta rol o'ynaydi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va koalitsiyalar orqali harbiy kuchlarni birlashtirish zamonaviy strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Harbiy operatsiyalar faqat jang maydonidagi g'alabaga erishish bilan cheklanmasdan, kengroq ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilishi lozim. Masalan, tinchlikni saqlash operatsiyalari yoki gumanitar yordam missiyalari konfliktlarni oldini olish va aholining xavfsizligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. BMT va NATO kabi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan bunday operatsiyalar xalqaro hamkorlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Harbiy operatsiyalar zamonaviy xavfsizlik va xalqaro siyosatning ajralmas qismiga aylangan. Ularning muvaffaqiyati texnologiya, strategik rejalashtirish va xalqaro hamkorlikka bog'liq. Bugungi global xavfsizlik muammolari shuni ko'rsatadiki, harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli olib borish uchun davlatlar nafaqat jangovar resurslarini, balki iqtisodiy, diplomatik va axborot vositalarini ham samarali ishlatishni bilishi kerak. Shu tariqa, harbiy operatsiyalar nafaqat urushlarni boshqarish, balki tinchlikni ta'minlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

АДАБИЕТЛАР

1. <https://www.centcom.mil/operations-and-exercises/> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
2. <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/al-shabab-somalia> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
3. <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
4. <https://www.centcom.mil/operations-and-exercises/> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
5. <https://www.defense.gov/News/News-Stories/Article/Article/3875549/us-ukraine-leaders-discuss-current-situation-in-russia-ukraine-war/> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
6. <https://www.centcom.mil/OPERATIONS-AND-EXERCISES/> [murojaat etilgan: 10.11.2024 y.]
7. <https://www.centcom.mil/operations-and-exercises/> [murojaat etilgan: 14.11.2024 y.]
8. <https://www.defense.gov/News/News-Stories/Article/Article/3875549/us-ukraine-leaders-discuss-current-situation-in-russia-ukraine-war/> [murojaat etilgan: 14.11.2024 y.]

Harbiy operatsiyalarning turlari va o'ziga xosligi

Annotatsiya. Harbiy operatsiyalar o'zining turiga qarab an'anaviy, antiterror, gibril, tinchlikni saqlash, kiber, psixologik va asimmetrik shakllarga bo'linadi. Ularning har biri o'ziga xos strategiya, taktika va texnologiyalarga asoslanadi. Zamonaviy harbiy operatsiyalar an'anaviy jang maydonidan tashqariga chiqib, kiber hujumlar, axborot urushi va iqtisodiy sanksiyalar kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib boriladigan tinchlikparvar va gumanitar operatsiyalar esa harbiy harakatlarning siyosiy va ijtimoiy ta'sirini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada harbiy operatsiyalarning turli turlari, ularning o'ziga xos jihatlari va zamonaviy urushlardagi strategik roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: harbiy operatsiyalar, an'anaviy urush, antiterror operatsiyalari, gibril urush, tinchlikni saqlash, kiber urush.

Виды и особенности военных операций

Аннотация. Военные операции классифицируются на традиционные, антитеррористические, гибридные, миротворческие, кибероперации, психологические и асимметричные. Каждая из них основана на определенной стратегии, тактике и технологиях. Современные военные операции выходят за рамки традиционного поля боя и включают в себя кибератаки, информационную войну и экономические санкции. Миротворческие и гуманитарные операции, проводимые международными организациями, способствуют увеличению политического и социального влияния военных действий. В данной статье рассматриваются различные виды военных операций, их особенности и стратегическая роль в современных конфликтах.

Ключевые слова: военные операции, традиционная война, антитеррористические операции, гибридная война, поддержание мира.

Types and characteristics of military operations

Annotation. Military operations are classified into traditional, counterterrorism, hybrid, peacekeeping, cyber, psychological, and asymmetric operations. Each type is based on specific strategies, tactics, and technologies. Modern military operations extend beyond conventional battlefields, incorporating cyberattacks, information warfare, and economic sanctions. Peacekeeping and humanitarian operations conducted by international organizations enhance the political and social impact of military actions. This article explores the various types of military operations, their unique characteristics, and their strategic role in contemporary conflicts.

Key words: military operations, conventional warfare, counterterrorism operations, hybrid warfare, peacekeeping, cyber warfare.

UDK: 352.075

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TIZIMI

Aymuratov S.

Qoraqalpogʻ Davlat Universiteti

Har qanday davlat oʻz aholisining manfaatlarini roʻyobga chiqarishda davlatning fuqarolar bilan yaqindan aloqada boʻlgan boshqaruv tizimini yaratishi lozim. Boshqaruv tizimining markazini bevosita xalq tomonidan shakllantiriladigan va shunga koʻra umumiy vakolatga ega boʻlgan davlat hokimiyati organlari tashkil etadi. Mazkur organlar oliydan quyigacha yagona tizimga asoslanadi. Bu tizim davlat hokimiyatini yagona manbai boʻlgan xalq manfaatini toʻlaonli inobatga olib borishga va uni manfaatini roʻyobga chiqarib borish maqsadini koʻzlaydi.

Oʻzbekistonda davlat boshqaruvini rivojlantirishga oid istiqbolida, bu borada, mahalliy davlat hokimiyatini isloh qilishga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabr PF- 158-sonli “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilingan. Uning 75-bandida “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga aylantirish” va 76-bandida “Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yoʻlga qoʻyish” maqsadlari koʻzda tutilgan [1]. Shuningdek, mazkur maqsadlarga erishishning samaradorlik koʻrsatkichlari sifatida mahalliy Kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash, mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish vazifalari belgilangan[1].

Shu oʻrinda, yuqorida keltirilgan Strategiyaning bandlarida eʼtiborga olinganidek, davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi umumiy vakolatga ega boʻlgan davlat hokimiyati organlarini ikki turga boʻlish mumkin: birinchisi, bu bevosita xalq tomonidan saylanadigan vakillik hokimiyati organlari, va ikkinchisi, bu bilvosita demokratiya tartibida vakillik hokimiyati organlari tomonidan shakllantiriladigan ijro hokimiyati organlari. Oʻz navbatida, Oʻzbekiston davlat tuzilishi ikki pogʻonali tizimga asoslanganligi uchun, unda vertikal iyerarxiyasi boʻyicha umumiy vakolatli ikkita turdagi davlat hokimiyati organlari mavjud. Bularning birinchisi, bu oliy davlat hokimiyati organlari va ikkinchisi, bu mahalliy davlat hokimiyati organlari. Oliy darajadagi davlat hokimiyati organlari tizimiga oliy vakillik hokimiyati organi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va oliy ijro hokimiyati organi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taaluqli. Mahalliy darajadagi davlat hokimiyati organlari tizimiga umumiy vakolatga ega boʻlgan mahalliy vakillik hokimiyati organi sifatida viloyatlar, tumanlar va shaharlar (tumanga boʻysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari taaluqli va mahalliy ijro hokimiyati organlari sifatida esa viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari taaluqli. Bu yerda shuni alohida qayd etish joizki, umumiy vakolatli davlat hokimiyati organlari sifatida oʻz hududi doirasida barcha ijtimoiy xayotning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, maʼmuriy-siyosiy sohalarini boshqarib borish uchun tashkil etilgan tegishli huquq va majburiyatlarga ega boʻlgan davlat organlari tushuniladi. Oʻz navbatida, har bir darajadagi davlat hokimiyati organlari tizimida, mazkur tizimning ichida gorizontaal tartibda bir vaqtda tegishli vakillik va ijro hokimiyati organlari shakllantiriladi va faoliyat yuritadi. Mazkur organlar bitta darajada boʻlganligi uchun ularni gorizontaal munosabatda boʻluvchi davlat hokimiyati organlari deb tushuniladi. Shu bilan birga ham vertikal ham gorizontaal darajadagi davlat hokimiyati organlari yagona davlat hokimiyati organlari tizimining ajralmas qismi boʻlganligi uchun ular bir-biri bilan doimiy va uzluksiz davlat hokimiyati munosabatlarida boʻlib boradi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadiki, mahalliy davlat hokimiyati organlari oʻzaro munosabatlarini tadqiq etishda ularni bir vaqtda vertikal va gorizontaal oʻzaro munosabatlarini koʻrib chiqish zarurati yuzaga keladi. Bunda, vertikal deganda nafaqat mahalliy davlat hokimiyatini oliy davlat hokimiyati organlari bilan oʻzaro munosabatlari, balki mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimining ichidagi mavjud viloyat, tuman va shahar darajadagi organlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar ham koʻzda tutiladi. Bu degani vertikal oʻzaro munosabatlar deganda faqatgina mahalliy organlar bilan oliy organlarni oʻzaro munosabatlari degan tushunchasi bilan cheklanmaslik lozim. Mazkur holatda bu kabi tushuncha qoʻllanilayotganda har bir vertikal darajasining pogʻonasidagi quyi turuvchi organlarni yuqori turuvchi organlar bilan oʻzaro munosabatlari tushunchasini qoʻllash toʻgʻriroq, toʻlaroq va aniqroq boʻladi. Tushunchalarga qoʻllanilayotgan bunday yondashuvning boisi shundaki, vertikal pogʻonasining birida (viloyat, tuman yoki shahar) gorizontaal tartibda oʻzaro munosabatlarda boʻlib kelayotgan mahalliy vakillik va ijroiya organlariga yuqori turuvchi davlat hokimiyati organlarini oʻz taʼsirini koʻrsatib kelishi mumkin. Bu kabi holat, mahalliy vakillik va ijroiya organlarining oʻzaro munosabatlarini mukammal tartibga solishda vertikal asosida yuqori turuvchi organlarni quyi turuvchi organlarga oʻz boshqaruv taʼsirini oʻtkazish omilini ham inobatga olinishini taqazo etadi. Bu borada E.Xojiyev taʼkidlaydiki: “Aynan vertikal huquqiy munosabatlarda boshqaruv subyekti u yoki bu obyektga bevosita boshqaruv taʼsiri amalga oshiriladi”. [2] Oʻz navbatida mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etilishi va faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilanishi davlatning hududiy birliklarga boʻlinishi omiliga asoslanadi va shu bilan ifodalanadi. Jumladan, davlat hududi maʼmuriy-hududiy birliklarga boʻlinishi har bir hududdagi mavjud boʻlgan xosliklar (milliy-madaniy, iqtisodiy va h.k.), salohiyat va imkoniyatlarni hisobga olishga, ularni taraqqiy toptirish va butun davlatni rivojlantirish uchun imkon va sharoitlar yaratadi. Bu degani, davlatning hududi, avvalambor, tegishli prinsiplar asosida hududiy birliklarga boʻlinadi va mazkur hududiy birliklarda, ularni boshqarishni taʼminlash uchun, tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari tashkil etiladi. Shuning uchun ular nafaqat hududiy birlik, balki maʼmuriy-hududiy birlik deb ataladi. Bu yerda maʼmuriy degan iboranining qoʻshilishi mazkur hududda davlat organlari tashkil etilgani va bu hududlar aynan

davlat tomonidan, yoki asosan davlat tomonidan, boshqarib kelinishini anglatadi. O'z navbatida, davlatning hududini hududiy birliklarga bo'lishda uchta prinsip inobatga olinadi. Bular birinchidan milliy prinsip, ikkinchidan iqtisodiy prinsip, uchinchidan, davlat hokimiyatini aholiga yaqinlashtirish prinsipi. [3]

Davlat hokimiyatini aholiga yaqinlashtirish prinsipi davlat va aholining yaqindan o'zaro aloqasini bog'lash orqali aholini davlatni boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash uchun tashkiliy jixatidan sharoit yaratishni ko'zlaydi. Mazkur prinsipni qo'llashda milliy va iqtisodiy prinsiplarni e'tiborga olish ehtiyoji bo'lmasada, ammo hududi va axolisi miqdori katta bo'lgan hududlarni yanada ixchamlashtirish orqali aholi o'z yashab turgan hududida to'laqonli davlat xizmatiga ega bo'lishiga erishiladi. Bu borada misol qilib O'zbekistonda 2017 yildagi konstitutsiyaviy islohotlarni keltirish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to'g'risida"gi 2017 yil 29 avgustdagi qonuni bilan 1992 yilgi Konstitutsiyaning 99-moddasidagi «shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan» degan so'zlar chiqarib tashlangan [4]. Natijada, agar 1992 yilgi Konstitutsiyaning 99-moddasida "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari" deyilgan bo'lsa unda endilikda 2023 yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 120-moddasida "(tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari)" degan tahrir qo'llanilmoqda. Bu bilan, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda ham mahalliy Kengashlar tashkil etilishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Keltirilgan qonunni qabul qilishining maqsadi sifatida "davlat hokimiyatining demokratik asoslarini, vakillik organlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi roli va ahamiyatini yanada mustahkamlash" g'oyasi keltirilgan. Shunga ko'ra, Toshkent shahri kabi barcha shaharlar tarkibidagi tumanlarda ham xalq deputatlari mahalliy Kengashlar tashkil etilmoqda. Ilgari Toshkent shahrining tumanlarida mahalliy Kengashlarni tashkil etilishi Konstitutsiya darajasida ko'zda tutilmaganligi sababli, mazkur tumanlarda hokimlar boshchilik qiladigan faqat ijro hokimiyatiga rahbarlik qilib kelar edi. Shu o'rinda Toshkent shahri tumanlari aholisi uchun vakillik funksiyasini markazlashgan holda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi amalga oshirib kelgan. Bunday sharoitda, 60 ta deputatdan tashkil topgan Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari 3 millionli Toshkent shahri aholisi manfaatlarini ifodalab kelgan edi (1 deputatga 50 ming kishi to'g'ri kelmoqda)[5]. Bu kabi holat har bir tumanni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini, tuman budjeti va hokimini lavozimga tasdiqlashda tuman aholisi manfaatlarini va tumanning tegishli xosliklarini to'laqonli hisobga olishga imkon bermay kelgan edi.

Endilikda mazkur tumanlarda tashkil etilgan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari Konstitutsiyaning 123-moddasida belgilangan vakolatlariga, xususan, tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash, hokimni lavozimga tasdiqlash va uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish, shuningdek Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlariga ega bo'lishi davlat hokimiyatini amalga oshirishda aholi manfaatlarini yanada kengroq inobatga olinadi. Bu bilan davlat va aholi o'rtasida yanada samarali qayta aloqa o'rnatilishi yanada rivojlanib boradi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan demokratik davlatlarda davlat hududini mahalliy hududlarga bo'lishda ulardagi aholi miqdorini ixchamlashtirish prinsipi keng qo'llaniladi va bu bilan ko'p pog'onali hududlar tizimi tashkil etiladi (Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, AQSH va h.k.). [6]

O'z navbatida xalq hokimiyatchiligi bo'yicha konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirilishi nafaqat bevosita, balki bilvosita demokratiya orqali ham ta'minlanadi. Bilvosita demokratiya shakli esa xalq tomonidan bevosita saylanadigan va mandatga ega bo'lgan deputatlar orqali, ularning davlat hokimiyati vakillik organlari tarkibidagi faoliyatida namoyon bo'ladi. Ammo bilvosita demokratiya to'laqonli ishlashi uchun vakillik davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ifodalashida tegishli xususiyat va imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Bunday xususiyat va imkoniyat xalq vakilchiligi ta'minlanishida namoyon bo'ladi. Xalq vakilligini ta'minlanishi ikkita elementga asoslanadi: birinchi element – bu saylov tizimi, ikkinchi element – bu vakillik hokimiyati organlarining tizimidir. Buning ma'nosi shundaki, demokratik saylovlar orqali xalq o'z vakillarini saylab olish sharoitiga ega bo'lishi kerak, shuningdek vakillik hokimiyati organlarining tizimi (hajmi) xalq bilan samarali muloqotda bo'lishi va bu bilan uni manfaatini to'laqonli ifodalashi uchun yetarli miqdordagi hududiy birliklarda tashkil etilgan bo'lishi kerak. Bu degani davlatda mahalliy Kengashlarning tizimi rivojlangan bo'lishi kerak. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, vakillik davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifasi – xalq irodasini davlat irodasi darajasiga olib chiqishdir. Shuning uchun ham, Konstitutsiyaga ko'ra davlat hokimiyatini tashkil etilishi hokimiyatning bo'linishi prinsipiga asoslansa ham, ammo, markaziy davlat organlari, shu jumladan, ijro va sud hokimiyati organlari ham u yoki bu tarzida davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan shakllantiriladi. Shunday qilib davlatning barcha viloyat, tuman va shaharlarida (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) tashkil etilgan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini tashkil etadi; mahalliy vakillik va ijroiya organlari o'zaro munosabatlarini optimal tartibga solishda gorizontol munosabatlar bilan bir vaqta vertikal munosabatlarni ham inobatga olish lozim; Konstitutsiya darajasida qo'llanilgan "mahalliy davlat hokimiyati" tushunchasiga qonunchilikda ta'rif berilishi maqsadga muvofiq. O'z navbatida, "mahalliy davlat hokimiyati" tushunchasi konstitutsiyaviy terminlar qatoriga kiradi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga oid 95-moddasida, mahalliy davlat hokimiyati asoslariga oid 21-bobning nomlanishida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolatlariga oid 133-moddasida qo'llanilgan. [7] Shu bilan birga, Konstitutsiya darajasida "mahalliy davlat hokimiyati" tushunchasiga ta'rif mavjud emas. Mazkur holat mahalliy davlat hokimiyatining davlat hokimiyati tizimidagi tutgan o'rini aniq anglash va belgilash, bundan kelib chiqib uni ifodalashda yagona yondashuvini qo'llash uchun noaniqlik muhitini

keltirib chiqaradi. Bundan farqli o'laroq, 1992 yildagi O'zbekiston Konstitutsiyasining 99-moddasida mahalliy davlat hokimiyati sifatida hokim va mahalliy Kengashlar birgalikda keltirilib "ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar" deb, keyin esa, 101- moddada "Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar" deb aniq belgilab qo'yilmoqda [8]. Ko'rinib turganidek, mahalliy hokimiyatning (tegishli hududdagi mahalliy Kengash va hokim) yagona subyekt sifatida keltirilmoqda va shundan kelib chiqib ularni mas'ulligi ostida bo'lgan mushtarak maqsad va vazifalari aniq belgilab qo'yilmoqda. Bu "davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab" ish ko'rish va "yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish". Bu degani, hokimiyatni bo'linish prinsipi oliy davlat hokimiyati tizimidan farqli o'laroq mahalliy davlat hokimiyati tizimida o'zining xosliklariga ega. Bu xoslikning xususiyati shundaki, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga nafaqat vakillik funksiyasini bajarib borish, balki bir vaqtda yuqori turuvchi davlat hokimiyati organlari qarorlarini ham bajarilishini ta'minlashda ishtirok etishlari taalluqlidir. Shunga ko'ra ularning yuridik tabiatida ijrochilik belgilari mavjuddir. Bu degani ular bir vaqtda vakillik va ijrochilik funksiyasini amalga oshirib boradilar. Shunga ko'ra mahalliy vakillik va ijro organlari yaqindan hamjihatlikda faoliyat olib borishlari va mahalliy ishlarni holati bo'yicha birgalikda mas'ul bo'lishlari lozim bo'ladi.

Bu borada, D.Bekchanov va Sh.Asadovlarni quyidagi fikrlarini to'g'ri deb baholash mumkin: "Mahalliy vakillik organlarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari mahalliy boshqaruvning dolzarb masalalaridan biri etib hisoblanib, ham umumdavlat ham mahalliy vazifalarni birgalikda hal qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy shakl va usullar yig'indisi sifatida belgilanadi" [9].

Bunday ijobiy xorijiy tajriba sifatida Qozog'iston Konstitutsiyasining 85-moddasida belgilangan "Mahalliy davlat hokimiyati tegishli hududdagi ishlarning holati uchun mas'ul bo'lgan mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi" holatni keltirish mumkin [10]. Mazkur moddaning mazmunidan mahalliy davlat hokimiyati mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlaridan tashkil topayotganligi va ular tegishli hududdagi ishlarning holati uchun mas'ullikni birgalikda olib borishi aniq kelib chiqmoqda. Shuningdek, keltirilgan konstitutsiyaviy normani bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Qozog'iston Respublikasining 23 yil 2001 yanvardagi 148-II-sonli "Qozog'iston Respublikasida mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish to'g'risida"gi qonunining 6-moddasi 14-bandida Maslahatlarning vakolatlaridan biri sifatida "fuqarolar va tashkilotlar tomonidan Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini, qonunlarni, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti va hukumatining hujjatlarini, Markaziy va mahalliy davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarini amalga oshirishda yordam berish" belgilangan[11]. Shu kabi ijobiy tajribani Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasida ham kuzatish mumkin. Jumladan, uning 92-moddasida "Tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar" deb belgilangan[12]. Undan tashqari, masalan, Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida "Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy aholining farovonligiga, mulkni boshqarishga oid ma'muriy masalalarni hal qiladi, va qonun hujjatlarida belgilangan chegaralar doirasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq qoidalarni qabul qilish huquqqa ega" deb, Yaponiya Konstitutsiyasining 94-moddasida "Mahalliy ommaviy hokimiyat o'z mulkini boshqarishga, ishlarni olib borishga va ma'muriy boshqaruvini olib borishga haqli; ular qonun doirasida o'z qarorlarini qabul qilishlari mumkin" deb belgilangan.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomini belgilanishida ularni vakillik va ijro hokimiyati tarmoqlariga bo'lmasdan yaxlit mas'ulligini belgilab vazifalarini mahalliy boshqaruvini va mahalliy mulkni boshqaruvni ta'minlashlariga qaratmoqdalar.

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, mahalliy davlat hokimiyatini tarkibiy qismlari bo'lgan mahalliy Kengash va hokimni mahalliy boshqaruvni amalga oshirish va unga mas'ulligi bo'yicha aloxida faoliyat yurituvchi va aloxida vakolat va mas'uliyatga ega bo'lgan davlat hokimiyati organlari deb ifodalanishi maqsadga muvofiq emas. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga "Xalq deputatlari Kengashlari va hokimdan tashkil topgan mahalliy davlat hokimiyati tegishli hududdagi mulkni va ishlarni boshqarib boradilar, ularning holati uchun mas'uldir" mazmundagi yangi 1201-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Mazkur konstitutsiyaviy norma asosida, uni amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida belgilangan xalq deputatlari Kengashining vakolatlarini "joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining ijrosini ta'minlashga ko'maklashadi" degan norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son;
2. Хожиев Э.Т. Давлат хизмати. - Тошкент: Baktia press, 2015. – Б. 32.
3. Степанова, Ю. В. (2012). Принципы административно-территориального устройства субъектов РФ. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, 12 (4), 116-119.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 35-сон, 914-модда.
5. Население Ташкента(2014, December 5). Wikipedia.org; Фонд Викимедиа.
6. Фененко Ю.В. Муниципальные системы зарубежных стран: правовые вопросы социальной безопасности / Ю.В. Фененко. - М. : МГИМО-Университет, 2004. – С. 9.
7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон // <https://lex.uz/docs/6445145>

8. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон // <https://lex.uz/docs/20596>
9. Бекчанов Д., Асадов Ш. Совершенствование деятельности и повышение роли местных Кенгашей народных депутатов. Аналитический доклад. – Т., Программа развития ООН, 2015. – С. 16.
10. Конституция Республики Казахстан (принята на республиканском референдуме 30 августа 1995 года) (с изменениями. Информационная система ПАРАГРАФ; ПАРАГРАФ. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1005029&pos=5;-89#pos=5;-89
11. Закон Республики Казахстан от 23 января 2001 года № 148-ІІ «О местном государственном управлении и самоуправле. Информационная система ПАРАГРАФ; ПАРАГРАФ. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1021546&pos=5;-106#pos=5;-106
12. Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси – Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси. (2019). Joqargikenesh.uz. <https://joqargikenesh.uz/oz/qar-res-konstituciyesi>

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tushunchasi, mohiyati va tizimi

Rezyume: Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati tushunchasi va mohiyati, uning tuzilishi, funksiyalari va ushbu organlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslari batafsil yoritilgan. Mahalliy boshqaruvning ahamiyatini tushunish orqali biz ushbu subyektlar milliy taraqqiyot va fuqarolarning ishtirokiga qanday hissa qo'shishini baholashimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Mahalliy boshqaruv, ma'muriy bo'linmalar, boshqaruv, qonunchilik bazasi, milliy taraqqiyot.

Понятие, сущность и система органов государственной власти на местах

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие и сущность местного самоуправления в Узбекистане, подробно описывается его структура, функции и правовая база, регулирующая деятельность этих органов. Понимая значение местного самоуправления, мы сможем оценить, как эти структуры способствуют национальному развитию и вовлечению граждан.

Ключевые слова: Местное самоуправление, административные единицы, управление, правовая база, национальное развитие.

The concept, essence, and system of local government bodies

Abstract: This article explores the concept and essence of local government in Uzbekistan, detailing its structure, functions, and the legal framework that governs these bodies. By understanding the significance of local governance, we can appreciate how these entities contribute to national development and citizen engagement.

Key words: Local government, administrative units, governance, legal framework, national development.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

Юлдашев И. Р.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда демократик ҳуқуқий давлат, кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш, эркин бозор муносабатлари ва хусусий мулк устуворлигига асосланган бозор иқтисодиётини ривожлантириш, халқнинг тинч ва фаровон ҳаёти учун шарт-шароитлар яратиш, Ўзбекистоннинг халқаро майдонда муносиб ўрин эгаллашига йўналтирилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва унинг асосида қилинган қонунлар жамият ва давлат фаолиятининг барча соҳаларини ислоҳ қилиш учун мустаҳкам ҳуқуқий асос яратди.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан сўнг қўшилган дастлабки халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлардан бири бўлган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида назарда тутилган асосий тамойиллар ўзининг ифодасини топган. Жумладан, мазкур Декларациянинг 2-моддасига кўра: “Ҳамма одамлар ўз қадр-қиммати ҳамда ҳуқуқларида эркин ва тенг бўлиб туғилдилар. Уларга ақл ва виждон ато қилинган, бинобарин бир-бирларига нисбатан биродарлик руҳида муносабатда бўлишлари керак” [1] - деб белгилаб қўйилган. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида ирки, тана ранги, жинси, тили, дини, сиёсий ёки бошқа эътиқодларидан, мол-мулки, табақаси ёки бошқа ҳолатидан қатъи назар, ҳар бир инсоннинг эҳтиёжларсиз ва ўз шахсий дахлсизлиги учун ҳадиксирамай яшаш ҳуқуқи, сўз ва эътиқод эркинлиги, адолатли ва бутун дунёда тинчликка бўлган ҳуқуқи мустаҳкамлаб қўйилган.

Сўнгги йилларда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг қонунчилик ва ташкилий-ҳуқуқий базасини мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш ва халқаро мажбуриятларни бажариш, шунингдек, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари юзасидан халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни фаоллаштиришга доир тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Айни пайтда, Ўзбекистон Республикаси инсон ҳуқуқлари бўйича 80 дан ортиқ халқаро ҳужжатга, жумладан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (кейинги ўринларда – БМТ)нинг 6 та асосий шартномаси ва 4 та факультатив протоколига қўшилган бўлиб, уларнинг амалга оширилиши юзасидан БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши ва шартномавий қўмиталарига мунтазам равишда миллий маърузаларни тақдим этиб келмоқда.

Инсон ҳуқуқлари – бу инсоннинг туғилишидан то вафот этгунига қадар бутун умри давомида унга ҳамроҳлик қиладиган ҳуқуқ ва эркинликлардир. Ушбу универсал ҳуқуқлар миллати, жинси, ирки ёки этник келиб чиқиши, ранги, дини, тили ёки бошқа ҳуқуқий мақомидан қатъи назар, ҳеч қандай камситишларсиз барча учун ҳосдир. Инсон ҳуқуқлари яшаш ҳуқуқи каби энг асосий ҳуқуқлардан тортиб, муносиб турмуш тарзини таъминлашга хизмат қиладиган таълим олиш, меҳнат қилиш ёки ижтимоий таъминот олиш каби ҳуқуқларига қадар барча ҳуқуқларни камраб олади. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари ҳар кимга туғилганидан бошлаб тегишли бўлади. Инсон ҳуқуқлари

муносиб ҳаёт кечириш ва инсоний салоҳиятимизни ривожлантиришга имкон бериш учун зарур бўлган барча инсоний фазилатлар учун муҳимдир. Инсон ҳуқуқларини таъминлаш қўруқ, таъқиб ёки камситишсиз жамиятда яшаш учун катта аҳамиятга эга.

Инсон ҳуқуқлари қуйидаги асосий хусусиятларга эга:

Универсаллик – барча бир хил даражада инсон ҳуқуқларига эга;

Ажралмаслик – уларни ҳеч қачон тортиб олиш мумкин эмас, лекин баъзида уларни чеклаш мумкин — масалан, агар шахс қонунни бузса ёки давлат хавфсизлиги масалалари учун;

Бўлинмаслик – маълум бир ҳуқуқлар тўпламидан иккинчиси тўлиқ фойдаланиш мумкин эмас;

Ўзаро боғлиқлик – маълум бир ҳуқуқни бериш ёки уни бузиш бошқа ҳуқуқларга таъсир қилиши мумкин;

Тенглик – барча инсонлар ўзларининг кадр-қиммати ва ҳуқуқларида тенгдир;

Камситмаслик – ҳар бир инсон ирқи, танасининг ранги, жинси, тили ва бошқа хусусиятларидан қатъи назар инсон ҳуқуқларига эга [2].

Ҳозирги кунда ички ишлар органларининг кундалик фаолиятида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга алоҳида эътибор берилиб келиниши муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Конституциянинг 2-моддасига мувофиқ, “Давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар”, 13-моддасида, “Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади. Демократик ҳуқуқ ва эркинликлар Конституция ва қонунлар билан ҳимоя қилинади” дейилиши ҳамда Конституциянинг 14-моддасида “Давлат ўз фаолиятини инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб, ижтимоий адолат ва қонунийлик принциплари асосида амалга оширади” дея таъкидланиши инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг конституцион ҳуқуқий асосини ташкил қилади [3]. 2016 йил 16 сентябрь куни қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407-сон қонунига назар ташлайдиган бўлсак, қонунда “инсон ҳуқуқлари” гоёси концептуал аҳамиятга эга. Мазкур қонунда бевосита инсон ҳуқуқларини таъминлашга оид нормалар мустаҳкамланган: Ички ишлар органларининг асосий вазифалари фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкани, конституциявий тузумни ҳимоя қилишдан, қонун устуворлигини, шахс, жамият ва давлатнинг хавфсизлигини таъминлашдан, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикадан иборат (Қонуннинг 2-моддасида); ички ишлар органлари фаолиятни ўз ваколатлари доирасида фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ва жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳарбий-сафарбарлик ишларини ва фуқаро муҳофазаси тадбирларини амалга ошириш ҳамда қонун ижодкорлиги фаолиятида ҳамда жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришга доир ишларда иштирок этиш каби асосий йўналишлар бўйича амалга оширади (Қонуннинг 4-моддаси); Ички ишлар органлари фаолиятининг асосий принциплари қонунийлик, ягоналик, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этиш ҳамда ушбу ҳуқуқлар, эркинликлар ва қонуний манфаатларни ҳурмат қилиш, очиклик ва шаффофликдан иборат (Қонуннинг 5-моддаси).

Фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этиш ҳамда ушбу ҳуқуқлар, эркинликлар ва қонуний манфаатларни ҳурмат қилиш принципи ички ишлар органлари фаолиятининг муҳим принципи бўлиб, у қуйидагиларни ўз ичига олади: ички ишлар органлари ўз фаолиятини фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этиш ҳамда ушбу ҳуқуқлар, эркинликлар ва қонуний манфаатларни ҳурмат қилиш асосида амалга оширади; ички ишлар органлари фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари уларнинг жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий мавқеидан қатъи назар, ҳимоя қилинишини таъминлайди; ички ишлар органларининг фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини чекловчи фаолияти, агар қонуний мақсадга эришилган бўлса ёки ушбу мақсадга фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини чеклаш орқали эришиб бўлмаслиги ёки эришилмаслиги кераклиги аниқланса, дарҳол тўхтатилади; қийноқларга солиш, зўравонлик қилиш, бошқа шафқатсиз ёки инсон кадр-қимматини камситадиган тарзда муомалада бўлиш ички ишлар органи ходими таъкидланади. Ички ишлар органининг ходими фуқарога қасддан оғрик, жисмоний ёки маънавий азоб етказиладиган хатти-ҳаракатларга чек қўйиши шарт; агар қонунда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, ички ишлар органлари фуқаронинг шаъни, кадр-қимматига ёки ишчанлик обрўсига путур етказадиган, унинг шахсий ҳаётига тааллуқли бўлган маълумотларни ошкор қилишга ҳақли эмас; агар қонунда бошқача қоида белгиланмаган бўлса, ички ишлар органлари ҳар бир фуқарога ўзларида мавжуд бўлган, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига бевосита дахлдор бўлган ҳужжатлар ҳамда материаллар билан танишиш имкониятини таъминлаши шарт [4]. Шунингдек, ички ишлар органи ходими фуқарога мурожаат этганида ўз лавозимини, унвонини, фамилиясини, исмини, отасининг исмини айтиши, фуқаронинг талабига кўра, хизмат гувоҳномасини кўрсатиши, шундан сўнг мурожаат қилишининг сабаби ва мақсадини маълум қилиши, фуқарога нисбатан унинг ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи чоралар қўлланилган тақдирда, бундай чоралар қўлланилишининг сабабини ҳамда асосларини, шунингдек фуқаронинг шу муносабат билан юзага келадиган ҳуқуқлари ва мажбуриятларини унга тушунтириши шартлиги келтирилган. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2018 йил 7 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ташкилий департаменти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”

ги 244-сон буйруғига кўра Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ташкилий департаменти Юридик таъминлаш бошқармасининг Ҳуқуқий тарғибот ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўлими инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя этилишининг ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда қуйи турувчи тузилмалар фаолиятини мувофиқлаштириш вазифасини амалга оширади.

Ҳозирги кунда инсон ҳуқуқларини таъминлаш масаласи аҳамият жиҳатдан глобал даражада долзарб масала ҳисобланмоқда. Кўплаб давлатлар инсон ҳуқуқларини таъминлаш борасида инсон шаъни ва кадр-қимматини ҳисобга олган ҳолда турли соҳадаги муносабатларни тартибга солиш, жазоларни либераллаштириш, фуқаролик жамиятини қуриш йўлида туб демократик ислохотларни амалга оширмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги ПФ-6012-сон Фармони билан Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегияси қабул қилинди ва ушбу фармон асосида “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегияси”, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси», “БМТнинг инсон ҳуқуқлари бўйича устав органлари ва шартномавий қўмиталари хабарномалари ва қарорларини кўриб чиқиш юзасидан Ўзбекистон Республикаси давлат органларининг ўзаро ҳамкорлик қилиш тартиби тўғрисидаги Низом”и тасдиқланди. Мазкур стратегияда «Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан устун» деган тамойил асосида халқимиз ҳаётини тубдан яхшилаш бўйича олиб борилаётган кенг кўламли ижтимоий-иқтисодий ислохотларни давом эттириш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва унинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш давлат ҳокимияти органларининг бош вазифаларидан бири эканлиги белгилаб қўйилган [5].

Миллий стратегияни амалга оширишнинг асосий йўналишлари этиб қуйидагилар беохлгиланган:

1. Шахсий ва сиёсий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш соҳасидаги устувор йўналишлар - шахсий ва сиёсий ҳуқуқларига оид халқаро шартномалардан келиб чиқадиган мажбуриятларнинг бажарилиши юзасидан давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг масъулиятини ошириш; халқаро ҳуқуқ принциплари, нормалари ҳамда Ўзбекистоннинг халқаро шартномалари судлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан кенг қўлланилиши, халқаро ҳуқуқ устуворлиги принципини амалга оширишнинг самарали механизминини яратиш; инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига оид халқаро стандартларни таъминлашда, жисмоний ва юридик шахсларнинг конституциявий шикоятлари институтини жорий этишда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг роли ва ўрнини ошириш;

2. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш ҳамда барқарор ривожланиш соҳасидаги устувор йўналишлар: иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқларни таъминлашнинг самарали омили сифатида Камбағалликни қисқартириш дастурини ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш; хусусий мулк дахлсизлиги қафолатларини таъминлашнинг самарали механизмларини такомиллаштириш, жисмоний ва юридик шахсларнинг, айниқса тадбиркорларнинг иқтисодий ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, шунингдек, инсон ҳуқуқлари соҳасида тадбиркорлик тузилмалари иштирокини янада кенгайтиришга доир қонунчиликни такомиллаштириш;

3. Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларни қонунчиликка ва ҳуқуқни қўллаш амалиётига имплементация қилиш ҳамда мониторинг қилиш механизмларини такомиллаштириш бўйича устувор йўналишлар: Ўзбекистон томонидан ратификация қилинган халқаро шартномаларнинг мазмуни тўғрисида аҳоли ҳамда давлат органлари вакилларининг хабардорлигини ошириш; маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўришнинг процессуал тартибини такомиллаштириш, ушбу тизимга замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий қилиш; давлат ва жамият ўртасида ўзаро яқин ҳамкорлик ўрнатиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш;

4. Инсон ҳуқуқлари соҳасида ҳуқуқий саводхонликни ошириш, жумладан бу борада ахборот тарқатиш, таълим бериш фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича устувор йўналишлар: инсон ҳуқуқлари ва гендер масалалари бўйича узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, жамиятда қонунга ҳурматни шакллантиришнинг замонавий усулларини жорий этиш; инсон ҳуқуқлари бўйича профессионал журналистларни тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, журналистик текширувларнинг ҳуқуқий ва ташкилий асосларини такомиллаштириш; олий таълим муассасалари ҳамда кадрларни, шу жумладан судьялар ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ўқув марказларида, шунингдек, мактабгача таълим ва умумтаълим муассасаларида, академик лицей ва коллежларда «Инсон ҳуқуқлари», «Аёллар ҳуқуқлари», «Бола ҳуқуқлари» ўқув курсларини жорий этиш;

5. Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги халқаро ва минтақавий тузилмалар, хорижий мамлакатларнинг инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтлари билан ҳамкорликни ривожлантириш бўйича устувор йўналишлар: инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларга риоя қилиш, БМТ Барқарор ривожланиш мақсадларини амалга ошириш бўйича БМТ, Европа Иттифоқи, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти, Ислон ҳамкорлик ташкилоти, Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги органлари ва бошқа халқаро ташкилотлар билан икки томонлама ва кўп томонлама ҳамкорликни янада ривожлантириш; Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги, жумладан болалар, аёллар, ногиронлиги бўлган шахслар, кексалар, мигрантларнинг ҳуқуқларини ҳурмат қилиш ва ҳимоя қилиш масалалари бўйича халқаро ҳужжатларга қўшилиши масалаларини кўриб чиқиш;

инсон ҳуқуқлари масалалари бўйича хорижий мамлакатлар билан ҳамкорликни кучайтириш, шу жумладан, инсон ҳуқуқлари бўйича мулоқотларни мунтазам равишда ўтказиш ҳисобланади.

Умумий ҳулоса сифати шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ички ишлар органларида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш давлат ва жамият учун устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Бу жараён миллий қонунчилик ва халқаро стандартларга асосланган ҳолда амалга оширилиб, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, қонун устуворлигини сақлаш ва фуқаролар манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган. Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жамоатчилик назоратини кучайтириш, ички назорат механизмларини такомиллаштириш ҳамда ходимларнинг малакасини ошириш инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш самарадорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Шу боис, ички ишлар органлари фаолиятида шаффофлик, қонунийлик ва инсонпарварлик тамойилларига қатъий амал қилиниши шарт.

АДАБИЁТЛАР

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси - <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — Т., 2012.
3. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ - <https://lex.uz/docs/6445145>
4. Ўзбекистон Республикасининг 16.09.2016 йилдаги ЎРҚ-407-сон “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/3027843>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22.06.2020 йилдаги ПФ-6012-сон “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/4872355>

Ishki isler organlarida inson huquqlarin qorgawdi sholkemlestiriv tartibi

Аннотация. Бул мақалада инсан ҳуқуқлари түсиниги, оның тийкаргы өзгешеликтери, ҳуқықый тийкарлары, ишки ислер уйымларының инсан ҳуқықларын қорғаў бағдарындағы тийкаргы ҳуқық хәм миннетлемелери, функциялары, сондай-ақ, Ўзбекстан Республикасында инсан ҳуқықларын тәмийинлеўге бағдарланған реформалардың мазмун-мәниси өз сәўлелениўин тапқан.

Гилт сөзлер: инсан ҳуқықлары, универсаллық, ажыралмаслық, бөлинбеслик, өз-ара байланыслылық, теңлик.

Ички ишлар органларида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишни ташиқил этиши тартиби

Аннотация. Ушбу мақолада инсон ҳуқуқлари тушунчаси, унинг асосий хусусиятлари, ҳуқуқий асослари, ички ишлар органларининг инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасидаги асосий ҳуқуқ ва мажбуриятлар, функциялари, шунингдек, Ўзбекистон Республикасида инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган илоҳотларнинг мазмун-моҳияти ўз аксини топган.

Калит сўзлар: инсон ҳуқуқлари, универсаллик, ажралмаслик, бўлинмаслик, ўзаро боғлиқлик, тенглик.

Порядок организации защиты прав человека в органах внутренних дел

Аннотация. В данной статье отражены понятие прав человека, его основные особенности, правовые основы, основные права и обязанности, функции органов внутренних дел по защите прав человека, а также суть реформ, направленных на обеспечение прав человека в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: права человека, универсальность, неделимость, неделимость, взаимосвязанность, равенство.

Procedure for organizing human rights protection in internal affairs bodies

Abstract. This article reflects on the concept of human rights, its main characteristics, legal foundations, basic rights and obligations, and functions of internal affairs bodies in the field of human rights protection. It also explores the essence and significance of reforms aimed at ensuring human rights in the Republic of Uzbekistan.

Key words: human rights, universality, inalienability, indivisibility, interdependence, equality.

АҚШ ВА ЕВРОПА ИТТИФОҚИДА АХБОРОТ ВОСИТАЧИЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИК ШАРТЛАРИ

Нуруллаев У.Х.

Жамоат хавфсизлиги университети

Ахборот воситачилари замонавий фуқаролик жамиятида тобора муҳим рол ўйнамоқда. Уларнинг хатти-ҳаракатлари бизнинг танловимизга, ҳуқуқларимиздан қай тарзда фойдаланишимизга ва бир-биримиз билан қандай муносабатда бўлишимизга бевосита таъсир кўрсатади. Баъзиларининг бозорда устунлиги уларга оммавий алоқаларнинг асосий усулларини назорат қилиш имкониятини ҳам яратади.

“Ахборот воситачилари” атамаси одатда Интернетда жисмоний ва юридик шахслар ўртасида ўзаро алоқаларни осонлаштирадиган кенг, хилма-хил ва тез ривожланаётган хизмат кўрсатувчи провайдерларга тегишли. Баъзилари фойдаланувчиларни Интернетга улайди, маълумотларни қайта ишлашга имкон беради ва веб-хизматларни, шу жумладан фойдаланувчиларнинг шарҳлар ёзиш учун жойлаштиради. Бошқалар эса маълумотни йиғади, кидирувга ёрдам беради, товар ва хизматларни сотишни осонлаштиришади ёки бошқа тижорат операцияларини таъминлайди. Шуни таъкидлаш керакки, улар бир нечта функцияларни, шу жумладан шунчаки воситачи бўлмаган функцияларни ҳам параллел бажариши мумкин. Ахборот воситачилари таркибни асосан алгоритмик ишлов бериш орқали ўзгартирадилар, жойлаштирадилар ва наشريётчилар каби бошқа вазифаларни бажаришлари мумкин. Тадбиркорлик субъектлари томонидан таклиф этиладиган маҳсулотлар ва хизматларга катта

таъсир кўрсатганлиги сабабли, улар ишлаб чиқарадиган таркибни тарқатиш билан боғлиқ бўлган ҳуқуқий таваккалчиликка дуч келишлари, хусусан, улар ўз хатти-ҳаракатлари учун тўғридан-тўғри жавобгар бўлиши ёки ўз фойдаланувчиларининг хатти-ҳаракатлари учун бевосита ёки билвосита жавобгар бўлишлари мумкин. Гарчи бу воситачилар томонидан танланган хизматларнинг муқаррар натижаси сифатида қаралиши мумкин. Шунинг тан олиш керакки, бундай масъулият уларнинг хизмат кўрсатишга тайёрилиги ва қобилиятига жиддий тўсқинлик қилиши ва шунинг учун охири-оқибати Интернетнинг ривожланишига тўсқинлик қилиши мумкин.

Хорижий давлатлар қонунчилигида “Интернет” тармоғи фаолият кўрсатиши давомида хизматлар кўрсатувчи шахсларни турлича номлайди: Европа Иттифоқида “воситачи хизмат кўрсатувчи провайдерлар” атамаси ишлатилади, АҚШда “Интернет провайдер, онлайн хизмат кўрсатувчи провайдер, кириш провайдер, маълумот таркибини этказиб берувчилар”, ушбу мақолада мазкур кўрсатилган шахслар рўйхати учун “ахборот воситачилари” атамаси ишлатилади [1].

Ахборот воситачиларининг турларини аниқлашда 1998 йилдаги “АҚШ рақамли маконида муаллифлик ҳуқуқи тўғрисида”ги қонун (Digital Millennium Copyright Act of 1998 (DMCA) [2] нинг 512-бўлимининг асосий қоидаларида 5 турдаги ахборот воситачиларининг турлари белгиланган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1. Вактинчалик рақамли алоқа провайдерлари;
2. Кеш провайдерлари;
3. Хостинг провайдерлари;
4. Қидирув хизматлари ва амалий хизмат кўрсатувчилар;
5. Нотижорат таълим муассасалари.

Европа Иттифоқининг 2000/31/ЕС-сонли директивида ахборот воситачиларининг 3 тоифасини ажратади:

- 1) контент-провайдерлар (ўз таркибини тақдим этади ва унинг очиклигини таъминлайди);
- 2) фойдаланиш провайдерлар (ахборотни сақламадан фойдаланишни таъминлайдилар);
- 3) хостинг-провайдерлар (учинчи шахсларнинг контентини тақдим этади ва унинг очиклигини таъминлайди).

Европа Иттифоқида провайдерларнинг жавобгарлиги бўйича норматив қоидалар учун АҚШ муаллифлик ҳуқуқининг “софдил портлари” қоидаси андоза бўлиб хизмат қилган. Аммо АҚШ қонунидан фарқли ўлароқ, 2000 йил 17 июлда ЕИ 2000/31/ЕС-сонли “Электрон тижорат тўғрисида”ги Директиви қабул қилиниб, унда ахборот воситачиларининг муаллифлик ҳуқуқи соҳаси билан чекланмаган бўлиб, уларнинг жавобгарлиги масаласи янада кенгроқ вазиятларда талқин қилиниши мумкин.

Европа Иттифоқининг “Электрон тижорат тўғрисида”ги 2000/31/ ЕС-сонли (ECD) Директивининг 4 та моддаси (12-15) “ахборот хизматларини кўрсатувчи провайдерлар”нинг жавобгарлик режимида бағишланади. Шунингдек, мазкур Директивга кўра, “ахборот хизмати” қуйидагича таърифланади: “... ҳар қандай хизмат, одатда ҳақ эвазига, масофадан туриб, маълумотларни қайта ишлаш (шу жумладан рақамли сиқиш) ва сақлаш учун электрон ускуналар ёрдамида, шунингдек хизматни олувчининг индивидуал сўрови орқали кўрсатиладиган хизмат”дир деб таъриф берилади. Мазкур таъриф кўплаб хизматларни, шу жумладан оддий провайдерларни қамраб олиш учун етарлича кенгдир, аммо DMCA қонунидан бир неча муҳим фарқлар мавжуд бўлиб уларга:

биринчидан, у барча ҳолатларда хизматни қабул қилувчининг шахсий сўровига кўра тақдим этишни талаб қилади, шу орқали радио ва телевидение эшиттиришларини истисно қилади.

иккинчидан, у масофадан туриб тўлиқ хизмат кўрсатиш мумкин бўлмаган хизматларни чиқариб ташлайди.

Ўз навбатида, воситачининг жавобгарлиги Интернет орқали электрон маълумотларни узатиш, қайта ишлаш ёки сақлашда иштирок этадиган ахборот воситачилари ўз тармоқларида узатилган ёки сақланган ноқонуний контент учун жавобгар бўлган ҳолатларга тегишли. Баъзан, воситачилар ўзларининг тармоқларида учинчи шахслар томонидан яратилган контент, шу жумладан, ўзлари билмаган ҳолда жўлаштирган контент учун ҳам жавобгар бўлишлари мумкин. Кўпгина давлатлар илмий назариясида Интернетни тартибга солишнинг дастлабки ёндашуви ахборот воситачиларини жавобгарликдан ҳимоя қилиш эди – деган тушунчани алоҳида эътироф этишади [3, 74-94]. Онлайн ахборот алмашинуви учун воситачиларнинг ўрнини ҳисобга олган ҳолда, давлат органлари дарҳол учинчи шахсларнинг ноқонуний фаолияти учун воситачиларни жавобгарликка тортиш ахборотнинг эркин оқимини сезиларли даражада қийинлаштириши мумкинлигини тан олишди. Улар тармоқ платформалари масъулиятдан қочиш учун контентни блоклаши мумкинлигидан хавотирда эдилар. Бунга жавобан, АҚШ ва Европа Иттифоқи замонавий платформали иқтисодиётнинг асосини ташкил этувчи хавфсиз порт қоидалари деб номланган қоидаларни қабул қилдилар. Европа Иттифоқида “хавфсиз портлар” тушунчаси “Электрон тижорат тўғрисида”ги Директивда белгиланган бўлиб, бу воситачиларни учинчи томоннинг контенти учун жавобгарликдан ҳимоя қилади. Электрон тижорат тўғрисидаги Директивда “хавфсиз порт” тушунчаси сўз эркинлигини ҳимоя қилишдан кўра, Европа ИТ-секторига масъулият хавфи бўлмаган ҳолда ўсишга имкон бериш ниятига кўпроқ асосланган. “Facebook” ёки “YouTube” каби платформалар, агар улар маълум шартларга жавоб беришса, “Электрон тижорат тўғрисида”ги Директивнинг 14-моддасига мувофиқ иммунитетга эга бўлади. “Хавфсиз порт” ҳимоясидан фойдаланиш учун улар ноқонуний контентни дарҳол ўчириб ташлашлари ёки унга киришларни чеклашлари керак. ЕИнинг “Электрон тижорат тўғрисида”ги Директивнинг 14-моддаси товарлар тўғрисида хабар бериш ва қайтариб олиш тартиб-қоидаларини ишлаб чиқишга олиб келди.

Европа Иттифоқи Директиви ахборот воситачиси вазифасининг учта турини белгиллаган ҳолда, уларнинг бажарилиши жавобгарликнинг юзага келиши учун махсус асослар сифатида қуйидагиларни назарда тутди: 1. Маълумотнинг одатий тарздаги оддий узатилиши (ЕИ Директивининг II-боби 4-бўлими 12-моддаси); 2. Маълумотнинг вақтинча жойлаштирилиши, (ЕИ Директивининг II-боби 4-бўлими 13-моддаси); 3. Маълумотнинг доимий равишда жойлаштирилиши (ЕИ Директивининг II-боби 4-бўлими 14-моддаси).

АҚШнинг “Алоқа тўғрисида”ги қонунининг 230-моддасида қўлланиладиган қоидалар билан таққослаганда, ЕИ “Электрон тижорат тўғрисида”ги Директивида кўрсатилган иммунитет чекланган, чунки собиқ химоячилар ўзларининг платформаларида ноқонуний равишда мавжуд бўлган маълумотлар ҳақида ижобий маълумотга эга бўлсалар ҳам, воситачиларни жавобгарликдан озод қилишади. АҚШнинг “Алоқа тўғрисида”ги қонунининг 230-моддасида фарқи ўлароқ, электрон тижорат бўйича кўрсатма ҳам платформаларни фақатгина мулкый жавобгарликдан химоя қилади; у контентни олиб ташлаш тўғрисидаги суд буйруқларига таъсир қилмайди.

АҚШнинг “Рақамли даврда муаллифлик ҳуқуқи тўғрисида”ги қонунда “Digital Millennium Copyright Act” (DMCA) ахборот воситачиларини қуйидаги 4 турдаги вазифаларига қараб жавобгарликдан озод қилиш асослари белгиланган махсус нормалар мавжуд: маълумотни узатишда (II бўлим, а банди); маълумотни вақтинча жойлаштиришда (кешлаш) (II бўлим, b банд); маълумотларни фойдаланувчи йўриқномасига биноан қонуннинг II-бўлимига мувофиқ тизимлар ёки тармоқларда доимий равишда жойлаштиришда (хостинг) (II бўлим, c банд); турли ахборотларни техник воситалардан фойдаланган ҳолда маълумотнинг жойлашган жойини аниқлаш (II бўлим, d банд). Шимолий Американинг Интернет провайдерларини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш модели АҚШ Конституциясининг сўз ва ахборот эркинлиги тўғрисидаги биринчи тузатишига асосланган. АҚШ тажрибаси баъзи давлатлар Интернет-провайдерлари томонидан ноқонуний контент ва уни олиб ташлаш бўйича корпоратив сиёсатини шакллантиришда қўлланилмоқда.

Ўтказилган тадқиқот контекстида маълумотлар воситачиларининг жавобгарлигини чеклашнинг учта ҳуқуқий модели мавжудлиги аниқланди: маълумотлар воситачиларининг жавобгарлигини сўзсиз чеклаш (АҚШ учун хос бўлган модел); манфаатдор шахс хабардор қилинганидан кейин маълумотни жойлаштириш ва ўчириш жараёнига аралашмаслик шарти билан жавобгарликни чеклаш ёки бундай маълумотларга киришни таъқиқлаш (Буюк Британия, бошқа Европа Иттифоқи мамлакатлари, шунингдек, Ўзбекистон учун хос бўлган модел); бундай ахборотни фаол қидириш ва ўчириш шарти билан жавобгарликни чеклаш (Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа суди томонидан таклиф этилган модел). Шундай қилиб, бошқа давлатларнинг интеллектуал мулк соҳасидаги қонунлари ҳам шунга ўхшаш ифодаланган деб хулоса қилиш мумкин. Аммо бу ҳам қонунчиликни янада такомиллаштириш учун асос бўла олмайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Васичкин К.А. Регулирование деятельности информационных посредников в целях охраны интеллектуальных прав в сети Интернет по законодательству России, США и ЕС // Актуальные проблемы российского права. – 2014. – №6. – С. 1180-1184.
2. Digital Millennium Copyright Act, December 1998.). – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.copyright.gov/legislation/dmca.pdf>
3. Прохоренко Д. В. Ответственность информационных посредников за диффамацию в сети «Интернет» // Журнал Суда по интеллектуальным правам. – 2020. – №. 1. – С. 74-94.

Аннотация. Ахборот воситачиларининг фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш, шубҳасиз, интеллектуал мулк, хусусан муаллифлик ҳуқуқларини бузувчи масалаларни ҳал қилишда зарур бўлган муҳим хусусиятдир. Бунда ахборот воситачиларининг жавобгарлиги асосларини тартибга солиш нормалар ўзаро таққосланади. Мақолада хорижий мамлакатлар қонунчилигида белгиланган ахборот воситачиларининг жавобгарлиги асослари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ахборот воситачиси, ахборот воситачиларининг жавобгарлиги, АҚШ, Европа Иттифоқи, Интернет, DMCA (Digital Millennium Copyright Act).

Abstract. The regulation of the activities of information intermediaries is undoubtedly an important feature necessary to resolve problems in the field of intellectual property and copyright infringement. At the same time, a comparison is made of the norms governing the grounds for the onset of liability of information intermediaries. The article examines the grounds for the onset of liability of information intermediaries, enshrined in the law of foreign countries.

Key words: information intermediary, responsibility of information intermediaries, USA, EU, Internet, DMCA

«ҚОРҚЫТ АТА» ХАМ ҚАРАҚАЛПАҚ ЖЫРАЎШЫЛЫҚ ӨНЕРИ

Айтмуратов Ж.

Қарақалпақ Мамлекетлик университети

Ўзбекистон Республикасы Президенти Ш.М.Мирзиёев «Бизинг ҳаёс етсе арзийтуғын уллы ата бабаларымыз бар. Ҳаёс етсе арзийтуғын шексиз байлықларымыз бар. Мен исенмен, ҳаёс етсе арзийтуғын уллы келешегимиз, уллы адабиятымыз ҳам кўркем өнеримизде албетте болады» [1.221] деген сўзлери қарақалпақ музыка

мәдениятының тийкарын салған жыраушылық өнеринің раўажланыўына кең имканият жаратылғанынан дерек береді.

Жыраўлар көлеми жағынан 15 мың – 25 мың қатар қосықтан ибарат халық дәстанларын қобыз намаларында атқарушылар [2.68] Қарақалпақ халқы «Қорқыт ата» соққан қобызды өзинің әйемги турысында сол атқару манерасы менен бүгинги күнимизге жеткізді. Жыраушылық өнеринің пири есапланған «Қорқыт ата» илимпазлардың тастыйықлаўынша, VIII-XI-әсирлер аралығында огузлардың бас қаласы Жанкентте, Баят елинде дүньяға келген, Сырдарья бойында өмир сүрген [3.615-616] Демек, Қорқыт ата хақықый тарийхта жасаған адам Қорқыт ата туўралы тарийхый дереклерде ол түрк тиллес халықлардың саз әсбабы болған қобызды биринши ойлап табушы қобыздың пийри жыраулардың атасы данышпан жыршы сыпатында тән алынады [4.69] В.М.Жирмунский Қорқыт атаның қобыздың пийри, жыраушылық хәм импровизатор шайыршылық дәретиўшилиги хақында өзинің «Тюркский героический эпос» (Ленинград.1974) мийнетинде жырау қолындағы қобызы менен қәўим хәм халықлар байрамында жыйналған халықтың хәм беклердің алдында кимлердің мәртлигин, кимлердің нәмәртлигин қобыз тарына жан ендирип жырлайтуғын болған. «Қорқыт ата» кітабында «Узан» (Озан) сөзи халық жыршысы сыпатында түсиндириледі. Ол Огуз халық батырлары болған огузлардың беги «Салар-қазан», «Дерсе-хан», «Огуз қаңлы баласы «Хан-Төрели» «Огуз Хожа баласы», «Секрек» қан Бүринің баласы Бамси-Бейрек хақында жыр [5.535] ларды жырлайды.

Қорқыт ата қобзының жасалыўы хақында ХХ әсирдеги белгили илимпаз филология илимлеринің докторы, профессор Қалли Айымбетов Есемурат жыраудан жазып алынған қобыз хақындағы төмендеги әпсананы келтиреді. «Бизлерден бурынғы өткен жыраулар былай деп әпсана қылатуғын еди. Қорқыт ата ағаштан қобыз ислеп саз шертиўди әрман етипти, көп ағашларды жонып хәлек болса да ислеген қобзынан нәтийже шығара алмапты. Қорқыт атаның қобыз жонып отырғанын шайтанлар көрип, Қорқыт атадан қобызды көрсет десе, Қорқыт ата шайтанлардан жасырыныпты. Оннан кейин Қорқыт ата тоғайдан шығып кететуғын кисиге уқсап, жасырынып барып, екінши жолдан букқышлап барып, шайтанлардың сөзин тыңлапты. Шайтанлар Қорқыт ата туўралы былай деп атыр екен: «Қорқыт ата күтә әжайып исти баслаған екен, бирақ ақырына жеткере алмапты. Егерде тоғайдағы доңыз сүйкенип куўраған жигилдик жийдениң ағашынан қобызды жонса, оннан тостаған шығарса, оның тостағанын бақырауық түйениң бас териси менен қапласа оған киснеўик аттын, қуйрығынан алып қыл такса, кумлықта таўда өсетуғын сасық куўрайдың ширесинен шайырынан, жакса, қылдың астынан көтерип туратуғын гөне қабақтан жонып тийек салса, жүдә даўысы шыккыш әсбап болған болар еди. «Қорқыт ата» шайтанлардың бул сөзин еситип изинен ғырра қайтып, шайтанлардың айтқанындай қылып қобзын ислеген екен, түрли намаға шертилетуғын саз әсбабы, жүдә жақсы қобыз болыпты. Қорқыт ата қобызды хәр түрли намаға салып шертип жүре берипти. Мине сол сол екен Қорқыт ата қобыздың пийри болыпты»[6.73] – деген пикирди В.М.Жирмунский өзинің «Түрк қахарманлық эпосы» мийнетинде «хақықатында Қорқыт ата қобызда жырлаушы жыраушылық өнеринің пийри болғанлығын тастыйықлайды [7.553]

Филология илимлеринің докторы профессор К.Мамбетов 1965-жылы Кегейли районында жасаушы Дәулетмурат ғаррыдан мынадай аңызды жазып алады. «Барлық жыраулардың пийри хәзирети Бурық деген киши болған, оны қарақалпақтар Қорқыт ата деп атаған. Күнлердің күнинде ол анасынан сүт шықпай бозлап турған түйениң ботасын көрипти. Қорқыт ата бүкир жийдеден қобыз ислеп, оны ешки териси менен қаппап, ат қуйрығынан тар тағып, зарлы намаға салып, шертип бир толғау айтқан екен, нардың сүти ийип кетипти. Қарақалпақтың «Нар ийдирген» деген намасы соннан қалыпты. Соннан баслап, «Қорқыт ата биринши мәртебе қобызды хәм наманы ойлап тапқан екен» [8.108-109]. А.Н.Кононов өзинің «Түркменлер шежиреси» мийнетинде ол 95 және биринде тарийхшы Абулғазы Бахадурханның «Шажарайы таракима» мийнетине тийкарланып Қорқыт ата, үш ханның тусында ўәзирлик еткен»[9.9-57] деген мағлыұматлар жазылған.

Қарақалпақлар арасында Қорқыт ата баслап берген, қобызда атқаратуғын жыраушылық өнери XIV әсирде жасаған ноғайлы заманының көркем сөз шебери Соппаслы Сыпыра жырау тәрәпинен даўам етиледі.Илимий әдебиятта Сыпыра жыраудың атын биринши болып киргизген белгили әдебиятшы, этнограф, музыка изертлеўшиси Ч.Ўәлийханов; «Сыпыра жырау Тоқтамыс ханның ең абыройлы кеңесгөйилеринің бири болды, ол ноғайлы дәуиринің көп ғана эпикалық жырларын атқаратуғын еди»[10.5] деп атап көрсеткен болса, филология илимлеринің докторы Нәжим Даўқараев Ноғайлы заманының шайырлары хәм философлары ретинде Соппаслы Сыпыра жырау, Жийренше Шешен, Асан қайғы хақында мағлыұматлар келтиреді [11.12]

Ф.и.д. профессор Қабыл Мақсетов «Еле көп түрк қәўимлери ноғайлы ямаса Алтын Орда ханлығы курамында жасап турған бир дәуиринде өмир сүрген қазақ, башкир, татар, ноғай фольклорында аты кеңнен сақланған, қарақалпақ жырауларының сағасында турған XIV әсирдің көркем сөз шебери Соппаслы Сыпыра жырау болды» [12.11] деп көрсеткеніндей, илимий дереклерде Соппаслы Сыпыра жыраудың Қарақалпақ жыраушылық өнеринің негизин салыушы екенін дәлийллейтуғын мағлыұматларды көппеп келтириўимизге болады. Илимий экспедицияларда Сыпыра жырау толғауларының жазып алынуы, қарақалпақлар арасында «Едиге» дәстанының XVIII-XIX әсирде коллиграфлар тәрәпинен көширилген қол жазба нұсқаларының пайда болыуы Соппаслы Сыпыра жыраудың қарақалпақлар арасындағы орнын белгилеп береді. Соның ушында бул дәуирди кеңирек изертлеген Қазақ фольклорист алымы Мухтар Мағауин: «Сыпыра жырау» халық санасынан белгили орын алған. Халық ғамқоры дана қария қазақтың ески батырлар жырының талайында бой көрсетеді. «Ер Тарғында» Сыпыра жырау

хақында «Ол өз өмирінде толғау айтып, тоғыз ханды дүзеткен киси» делинеди. «Телеағыс» жырында ол ел бирлигинің ураншысы болады. Ал «Қуба-ғұлды» ол «Жүз сексенге келген» дана қария. Сыпыра-Сувра, Супра-Чырау, Сафардоу деген ат пенен бул жырдың туысқан халықтар арасындағы барлық нұсқаларында көринеди. Белгили Мурын жырау өзін Сыпыра жыраудың урпағыман деп есаплаган. М.Магауиннің дәлиллесуінше «Сыпыра қарақалпақ әдебиятындағы ең үлкен эпосын, жыраулар мектебинің негизін салыушы болып саналады» [13.9-10] деген пикири Соппаслы Сыпыра жыраудың қарақалпақ жыраушылық мектебинің қалиплесуіне тийкар салғанын көрсетеди. Соппаслы Сыпыра жырау, хан алдында толғау айтқанда тек оның салтанатын ғана жырлаушы жырау емес, халықтың қыйын аўхалына жаны қайғырып ханға қарсы пикир айта алған реалы жырау сыпатында көзге тасланады. Мәселен: Өзинің журтын бүлдирген, / Қозғалаң салған журтына, [14.52] - деп көрсетилгеніндей, бүгінгі күні қарақалпақ әдебий мийрасында Соппаслы Сыпыра жырау дөретиўшилигине тийисли «Бабаңман», «Аўыз айғақ тил тайғақ», «Төрелер», «Қырымның қырық батыры», «Бир дегенде не жаман»[15.52] шығармалары сақланып қалған. Филология илимлеринің докторы, профессор С.Баҳадырова өз мийнетинде жырау патшалардан айбынбай олардың кемшилигин айта алған, урысқа шыққанында әскеринің алдында жүріп оларды рухландырушы жырларды атқарған, әскерин де басқарған. Мысалы, Соппаслы Сыпыра жырау патшаның ақылғөйи, Қазтуўған жырау (XIV әсир), Доспамбет жырау (XV әсир) – патшаның әскер басшысы [16.81] екенін атап көрсетеди. XIII әсир басында Орайлық Азияға келген Европа саяхатшыларының бири Марко Поло өз көзи менен көріп, жыраулардың патшаның қасында отырып, оған хәр түрли ишимлик қуйып берип хәм өзиде патша менен теңдей отырған еркин адам екенлигин жазады.

XVI-XVIII әсирдегі қарақалпақ жырауларынан Жайық бойында жасаған қарақалпақтар арасында Доспамбет жырау, Қазтуўған жырау, өзлери жасаған дәуирдің тарийхый ўақыяларын өз шығармаларында терең сәўлелендиреди. Доспамбет жырау шығысы ноғайлыдан тарийхый дереклерге қарағанда XV әсирдің ақыры XVI әсир басында ноғай ордасы ханы Ормамбет бийдің, ең әдиўли әскер басыларының бири болған. Ол негизинен «Он сан ноғай» дың «алты улы» тийресинен болып, Ордадан бөлек шығып кетеди. Доспамбет батыр болыў менен бирге, талантлы жырау болған. Доспамбет иниси Ормамбетке өкпелеп, аз санлы халық пенен көшип кетип, Айметет деген батыр екеўи өз алдына қала салдырған бул хақында: Айлана булақ басы тең, / Азыўлының Стамбулдан неси кем, - деп көрсетилгеніндей Доспамбеттің жасаған жери Азов қаласының дөгерге екен. Жыраудың жасаған жери өзинің терме толғауларында көрсетуінше Доспамбет қалмақтар менен болған саўашта қаза табады. Оның толғаулары Едил бойында жайлаған халықтардың ядында қалған. Мәселен: Доспамбет өзи душпаннан жарахатланып дүньядан өтер халында: Ер Мамайдың алдында / Шейит кештим, өкинбең [17.34] - деген қатарлары тарийхый дәуирге сәйкес келеди. Себеби уллы ноғай ордасының бийи Мамай 1549-жылы дүньядан өткен. XVI әсир қарақалпақтардың бурынғы «ноғайлы» атамасынан, өз алдына «қарақалпақ» деген халықтық атамаға ийе болғанынан дерек береді. XVI әсир орталарында Ноғай Ордасы ханы Ормамбет қайтыс болады. Ноғайлылар бөлек болып көшеди. Усы ўақыяға байланыссы «Ормамбет бий өлген күн он сан ноғай бүлген күн» деген қатарлар сақланып қалған. Филолог илимпаз Артық Кәримов «Ормамбет бий» толғауына Жийен Жыраудың қатнасы күшли болған деп көрсетти. XVIII әсирде қарақалпақ халқының тарийхый турмысын өз шығармаларында сәўлелендирген Жийен (Аманлық улы) жырау Сырдарьяның аяғы Қуўандарья, Жаңадарья бойларында хәм хәзирги аймақтарға көшип келген жыллары өмир сүрген [18.3-5] Жийен жыраудан «Посқан ел», «Хош болың дослар», «Уллы таў», «Ылағым», «Қобыз толғауы» хәм басқада поэма хәм терме толғаулары мийрас болып қалған.

Филология илимлеринің докторы Нәжим Дәўқараев айтқанындай Жийен Тоғай улы ең белгили қарақалпақ шайырларының бири болып есапланады. Ол тек ғана шайыр емес, ал көрнекли жырауда болды. Хәзирге шекем сақланып келген қарақалпақ қахарманлық эпосының көп ғана шығармалары оның аты менен байланыссы болып, «Алпамыс», «Қырк қыз» хәм «Мәст патша» дәстанларын жырлап келген [19.126-127] Жийен жырау буннан басқада терме толғауларды йош пенен айтып жүргенін дәлиллесуіне мағлыўматлар бар. Сонлықтан «Қыркқыз» дәстаны жөнинде Қурбанбай Жырау Тәжибаев былай дейди:

«Жийен деген жыраудан, / Нұсқа болып досларым, / Қалды бүгін бул дәстан», - қосық қатарларынан, қарақалпақ халық дәстанларының бүгінгі күнимизге келип жетиўинде салмақты хызметі бар екені дәлилленсе, төмендегі мына қатарлар: «Жийен жыраудың шәкирти / Жырауда болған Халмурат», [20.70-75] - деген қатарлардан, Жийен Жырау өзинен кейін шәкиртлер таярлағанынан дерек береді. Филология илимлери докторы Н.Дәўқараев қарақалпақтар арасында жыраулардың еки мектеби «Жийен Тоғай улының мектеби менен Соппаслы Сыпыра жырау мектеби болған»-деп тастыйықлаған еди [21.25]. Усы пикирди даўам ете отырып профессор Қ.Айымбетов Қарақалпақ жырауларының дизимін төмендегіше атап көрсетеди. Шаңқай жырау (1814-1884), Жиёмурат жырау (1836-1908), Нурабылла жырау (1862-1922), Ерполат жырау (1861-1938), Қурбанбай жырау (1876-1958), Төре жырау (1879-1944), Өтенияз жырау (1884-1954), Есемурат жырау (1893-1980), Қыяс жырау (1903-1974) [22.79-91]. Бул жырауларға қосымша Т.Адамбаева, Қуламет, Арзымбет, Жумабай, Жақсылық жыраулар хызметін атап көрсетеди [23.4-5]. XX-әсирдегі белгили Қарақалпақ жырауларының бири Нурабылла жыраудың баласы Есемурат жырау болды. Ол жаслайынан әкесинің изине шәкирт сыпатында 14 жыл ерип жүрип, «Қоблан», «Алпамыс», «Едиге», «Мәспатша» «Бозуғлан», «Ершора», «Шәрьяр» дәстанлары менен қатар бир неше терме-толғауларды [24.94.] атқарып, оларды магнит лентасына жазып қалдыруға еристи.

Тарихшы Р. Қосбергеновтың атап көрсетіуінше ХХ-әсирдегі Қарақалпақ жыраушылық өнерінде Айтуар хәм Шаңқай жырау мектебинің қәлиплескени, Айтуар жыраудан Дүйсенбай жырау хәм оннан берман қарай-Палеке, Сейдулла, Дәулетбай жырау таярланғанын, ал Шаңқай жыраудан Қабыл жырау хәм оның мектебинен Қазақбай, Қалмурат, Ержан жыраулар тәрбияланғанын атап көрсетеди.

ХХ-әсирдің 20-30 жылларында жыраушылық өнерин жаңа басқышқа алып шыққан халық жыраулары көзге түсти.Бул дәуірде Қыас жыраудың хызметі айрықша болды. Жаслығында ауыр турмысты басынан кеширген Қыас жырау Қайратдинов (1903-1974) өз дәуиринде аты шыққан Қабыл жыраудың изине ерип, оннан аслам дәстанды үйренди. Буннан кейин Абдирасули хәм Сейдулла жыраудан «Хәйяр», «Ылғал», «Келте толғау», «Толқын», «Нама басы», «Көз айдын», «Уллы зибан», «Келте зибан», «Шербейит», «Дәркар», «Жоржыұлы» намаларын үйренеди.

«Қарақалпақстан халық жырауы» Қыас Қайратдинов өз дәретіушилигинде 20 дәстанды атқарған. 1956-жылы Ташкенте «Алпамыс» қа арнап өткерилген регионал конференцияға қатнасып, 24 халық намысын магнит лентасына жаздырады.1960-жылы Москвада өткерилген пүткил жер жүзилик шығыс изертлеушилериниң XXV-конгрессине қатнасып, «Қырқ қыз» дәстанынан үзиндилер атқарып береді. Бул анжуманда 72 елден келген миллет ўәкиллери гүйилдеген хәм шаппатлаулар менен жырау намаларын ярым саатлап қайта-қайта шерткизип турады. Чехословакиялы Пирна, Немец- Копар, Америкалы Пикин, Иранлы Мұхаммед, Румыниялы Пан-Дин Жиаба, Азербайжанлы Айнадос, Қырғызстанлы Саяқбай, Қазақстанлы Кенен Азербает, Индиялы Хитон хәм Канададан келген ўәкиллер жырауға үлкен миннетдаршылық билдиреди [25.27]. ХХ-әсирдің екінши ярымында Қарақалпақ жыраушылық өнерин раўажландырыўда Есемурат жыраудың шәкирти Жумабай жырау Базаров (1927-2006) өзиниң шебер атқарыўшылығы менен дүньяға танылды. Ол «Қоблан», «Шәрьяр», «Едиге» дәстанларын жырлап, ХХІ-әсирдегі әўладларымызға жыраушылық өнери усылларын жеткерди. Жумабай жырау Есемурат жырауға үш жыл шәкирт болып, устазының желисине илесип «Едиге», «Қоблан», «Шәрьяр» дәстанларын хәм басқада көплеген терме-толғауларды үйренеди. Устазы қобызда тийкарынан төрт («Толғау», «Ылғау», «Сыбай», «Шаңқай») намысын қолланады. 1980-жылы 12-сентябрде Ташкенттегі ІІІ-пүткил аўқамлық тюркологиялық конференцияға қатнасып, Қарақалпақ дәстанларын көп еллерден келген алымлардың алдында жырлайды.Конкурс ўақтында Америка Қурама Штатынан келген илимпаз - профессор Эльза ханым Лаўзе - Циртатель Жумабайдың атқарыўында магнит пленкасына бир неше қарақалпақ дәстанларынан үзиндилер жазып алады. 1981-жылы Германиялы Бонн университетиниң профессоры Карл Райхль арнаўлы түрде Қарақалпақстанға келип, Жумабай жыраудан бир неше дәстанлардың үзиндилерин жазып алып кетеди. 1989-жылы июнь айында Қарақалпақстанлы бир топар көркем-өнер шеберлери, соның ишинде «Гүлпақ» халық ансамбли Чехословакия елинде дослық сапарда болады. Әсиресе жыраудың Дағыстанда болған сапарының қызықлы өткенин көремиз. Ноғайлылар журтында «Орманбет бий» толғауын атқарғанда, «сол жердегі жасы үлкен, узын бойлы ғарры жылап турып, -хәй жырау сен мениң бабамды қайдан билесең?» - деген сораўы жыраудың кеўлин елжиретеди.

1993-жылы Москваның жоқары оқыў орынларында оқып билим алып атырған Қарақалпақстанлы студент жаслар шөлкемлестирген «Наўрыз» миллий байрамына, 1994-жылы Ашхабадта «Ашық-Айдын пирге» бағышланған илимий-әмелий анжуманға хәм усы жылы май айында Алма-Атада Қазақстан Миллий академиясының концерт залында өткерилген «Туркий халықлар музыкасының биринши халық -аралық симпозиумы»на қатнасады. Усы анжуманда Жумабай жырау Қарақалпақ фольклоры, миллий сазлары хәм атқарыўшылығы туўралы илим - изертлеу жумысларын алып барып атырған профессор Карл Райхль менен және ушырасады. Бунда ол «Қарақалпақ жырауларының атқарыў шеберлиги» деген баянаты ўақтында бурын жыраудан жазып алған дәстанлардан үзинди, терме-толғау хәм намалардың видео кассетасын қойып береді. Баянатшы менен жырау бирин-бири торлықтырып, қатнасыўшыларда умытылмас тәсийр қалдырады.

1997-жылы Карл Райхльдің мирәэти менен «Шығыс дәстанларында атқарылатуғын музыка өнерин изертлеу мәселелери» бойынша өткерилетуғын халық аралық конференцияға Жумабай жырау оның қасында дилмаш Қарақалпақ мәмлекетлик университети профессоры Амин Қурбанбаев хәм композитор Абадан Сапаровалар бирге қатнасып, Қарақалпақ жыраушылық өнериниң үлгилерин Германияға танытады [26.80] Қарақалпақ жыраушылық өнерин Европа хәм пүткил дүнья халықларына танытыўға себепши болған Карл Райхль Жумабай жыраудан «Шәрьяр», «Қоблан», «Едиге» дәстанларын жазып алып, ярымы немец, ярымы англичан тилинде өз алдына китап етип баспадан шығарады. 2003-жылы Карл Райхль Нөкиске келгендегі сәўбетлескенинде «Қарақалпақ жырау, бақсыларының, соның ишинде Жумабай жыраудың атқарған намаларын еситкен ышқыпазларының саны жәхәнде көбейип, хәзирдің өзінде еки миллиардтан асты. Мен оның киноға түскен дискасын Шығыс пенен Батысқа, Америкаға шекем тарқатып жибердим» [27.82] деген еди.

Әсирден-әсирге өтип киятырған қарақалпақ халқының жыраушылық өнеринде шәкирт таярлау дәстүриниң шынжырма-шынжыр киятырғынын көремиз. Қарақалпақстан халық жырауы Жаксылық Сырымбетов Қыас жырауға шәкирт болып, бир неше терме-толғаулар хәм «Едиге» дәстанының Қыас жырау вариантын атқарып жыраушылық өнерин бүгинги әўладларымызға жеткеріўге хызмет етти.Өз әкесинен өнер үйренген шәкирт сыпатында,ата кәсибин даўам еткен, Бақберген Сырымбетов 1991-жылдан баслап, республикалық жас атқарыўшылар фестивалына қатнасып, жеңимпаз сыпатында халқымызға танылды. Ол "Алпамыс", "Едиге", "Қырық қыз", "Шәрьяр", "Мәспәтша" дәстанларынан үзиндилер,термелер хәм нәсият қосықларды күнт пенен үйренип 2002-жылы Қазақстанның Алма-ата қаласында түркий тиллес халық-аралық «Жаңла саз», 2003-жылы

Қашқадарьяның Китап районында өткерилген «Бақсы хәм акынлар», 2004-жылы Кореяның Сеул, Канн қаласындағы пүткіл жер жүзлік фольклор ансамблдеринин, 2005-жылы Голландияның Амстердам қаласындағы "Жыраў ырғақлары", 2007-жылы Туркменстанның Ашхабад қаласындағы "Миллий фольклор хәм театр өнери" халық аралық фестивалларына қатнасып, халқымыздың жыраўшылық өнерин кең жұртшылыққа танытты. [28.6-7] Ол Туркия, Германия, Индия мәмлекетлеринде болып, өзиниң тәкирарланбас ҳаўазы менен Қарақалпақ дәстанларынан сол елдиң халықларына инам етти. Бүгинги куні Бақберген Сырымбетов ҳақыйқый Қарақалпақстан халық жыраўы сыпатында жыраўшылықтың барлық сырларын үйренип, өзи шәкирт таярлап, устазлық дәрежесине еристи. Бүгинги куні жас қарақалпақ жыраўларының устазы сыпатында жыраўшылық мектебин жаратып атырған Бақберген Сырымбетовтың устазлығы менен тәрбияланған жас жыраў Жәнибек Пиязов 2009-жылы «Фонд форум» тәрәпинен болып өткен «Келешек ҳаўазы» көрик таңлаўының республикалық басқышында биринши орынды алса, 2010-жылы Хийўада өткерилген «Асрлар садоси» халық аралық фестивалында лауреат хәм 2010-жылы Туркменстанның Ашхабад қаласында болып өткен «Айдын саз» халық-аралық фестивалы лауреаты болған болса, 2011-жылы Ташкент қаласында болып өткен бақсы-жыраў, акынлардың көрик таңлаўларында биринши орынды алған болса. Усы жылы Россия Федерациясының Санкт-Петербург қаласында өткерилген «ИНТЕРФОЛЬК» халық аралық көрик таңлаўында 1-орын хәм алтын диплом менен сыйлықланды. Жуўмақлап айтқанда Қорқыт Атадан басланған қарақалпақ жыраўшылық өнери өз мектебине хәм тарийхына ийе болып, миллий саз өнеримиздин сағасы болып даўам ете береді.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.- Тошкент «Ўзбекистон» НМИУ 2018-221-б. (508)д.
2. Баҳадырова Сарыгүл Қарақалпақ қандай халық – Ташкент, «Наврўз» баспасы, 2017 ж. 68-бет. (256 б)
3. Қазақ совет энциклопедиясы Алматы, 1975. Т 6, 615-616-бетлер (640)
4. Камал Палымбетов «Қорқыт ата қитабы» хәм Қарақалпақ дастанлары. Нөкис: «Билим» баспасы, 2010-ж. 69-бет (128 б.)
5. Жирмунский В.М. «Тюркский героический эпос» издательство «Наука» Ленинградские отделение Ленинград. 1974.
6. Айымбетов Қ. Халық даналығы. Нөкис: «Қарақалпақстан» 1988, 73 бет (492 б.)
7. Кононов А.Н. Родословная Туркмен. Сочинение Абул-газы хана Хивинского М.-Л., 1958, стр 57 (192)
8. Т.Адамбаева «Жыраў намалары» топламына алғы сөз // Жыраў намалары: Алғы сөз. Саз ноталары. Нөкис: «Қарақалпақстан» 1991, 5-6 (316 б)
9. Нәжим Даўқараев Революцияға шекемги қарақалпақ әдебияты тарийхының очерклері. Қарақалпақ мәмлекет баспасы, Нөкис: 1961, 12-бет
10. Қ.Мақсетов Қарақалпақ жыраў бақсылары «Қарақалпақстан» баспасы. Нөкис: 1983, 11-бет (208 б.)
11. М.Мағауин: Қобыз Сарыны. Алматы., «Жазыўшы», 1968. 9-10-бет (156 б.)
12. Н.Жапақов, Қ.Мәмбетов, Қ.Султанов, А.Каримов Қарақалпақ әдебияты тарийхы, Нөкис., «Қарақалпақстан» 1988.
13. Мухтар Мағауин «Қобыз сарыны», «Жазушы» баспасы, Алматы – 1968, 34-бет (156 б)
14. Артық Каримов Көрнекп халық шайыры хәм жыраўы/ Жийен жыраў. Посқан ел. «Қарақалпақстан» баспасы –Нөкис – 1981.
15. Давқараев Н. Очерки по истории дореволюционной Каракалпакской литературы.
16. Изд. АНУзССР, Ташкент, 1959, стр.25.
17. Айымбетов Қ. Халық даналығы. Нөкис, Қарақалпақстан, 1988. 79-91бет.
18. Сағитов И.Т. Қарақалпақ халқының қахарманлық эпосы Нөкис. «Қарақалпақстан» 1986. 94 бет.
19. Т.Адамбаева. «Жыраў намалары», топламына алғы сөз. Жыраў намалары, Нөкис. «Қарақалпақстан», 1991. 27-бет.
20. Ә.Алымов, Т. Адамбаева «Атақлы сазгерлер», Нөкис, «Қарақалпақстан» баспасы, 2012-жыл, 80-бет.
21. "Сәният" журналы №3-4. 2011. 6-7 бет

Құрқыт ота ва қарақалпақ жировчилик санъати

Солай етип, қарақалпақ хаял-қызларының жоқарыда санап өткен дәстүрий кийимлер топламы, әсиресе той липаслары халық идеологиясын айқын көрсетип беретұғын хәм бүгинги күнде ҳақыйкый көркем-өнер дәрәтпелери болып есапланады. Жас өзгешеликлерине қарай бөлинген хәм мәўсимлик кийимлердиң ҳәр бириниң пишимлери өз алдына айқынлығы, нәзиклиги, нағысларының үйлесимлиги менен ажыралып турады.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Абдуллаев Т.С., Хасанова С.А. Одежда узбеков (XIX – XX вв.). Ташкент: Фан, 1978. – 115 с.
2. Алламуратов А. Мәңги мийрас. Нөкис: Билим, 1993. 92с.
3. Богословская И.В. Десять каракалпакских саукеле // ЭО. 2014. № 4. С. 108 – 119.
4. Есбергенов Х. Ритуальная одежда каракалпачек – кок көйлек // Вестник ККО АН РУз.2002. № 3.С. 66-67.
5. Есбергенова С. Кызыл киймешек – ритуальная нарядка каракалпачек (к вопросу этнокультурных связей) // Вестник ККО АН РУз.2002. № 4.

6. Каминская Н.М. История костюма. М.: легкая индустрия, 1986. – 128 с.
7. Карлыбаев М., Курбанова З. Каракалпакский костюм. Нукус: Илим, 2014. – 63 с.
8. Кубель Е.Л. Каракалпакский костюм в контексте этнокультурных процессов XX – нач. XXI в. (на примере безрукавки) // Феномен социализации в этнической культуре. Материалы одиннадцатых Санкт-Петербургских чтений. Санкт-Петербург. 2012. С. 436-441.
9. Кудайбергенова Д.А. К вопросу о типологии накосных украшений каракалпачек // Вестник ОшГПУ им. А.Мирсабекова. № 2 (20). 2022.
10. Курбанова З.И. Каракалпакский костюм: традиции и новации. Нукус.: «Илим». 2021. 239 с.
11. Лобачева Н.П. Из истории каракалпакского женского костюма // СЭ. 1984. № 4.С. 14-28.
12. Мәмбетов К. Каракалпаклардың этнографиялық тарихы. Нөкіс.: «Қарақалпақстан». 1995. 228 б.
13. Мукминова Р.Г. Костюм народов Средней Азии по письменным источникам // Костюм народов Средней Азии. М.: Наука, 1979. С. 70-77.
14. Пирназарова А. Каракалпак халқының көркем-өнері / Әмиўдарья. №6. 2021. Б. 115-128.
15. Поездка из Орск в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным // ГИРГО. СПб. 1850. Отд. 2. С. 587-588.
16. Савицкий И.В. атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем-өнер музейи Этнография бөлімі фонд материаллары.

Резюме: Мақолада И.В.Савицкий номидағы Қарақалпоғистон давлат санъат музейи Этнография тұпламидан ўрин олган қарақалпоқ халқи әёлларининг анъанавий либослари тизимлаштирилган. Аёл киши умри давомида фойдаланган кийимлар куйидаги кўринишда: ёш қиз-ўсмирларнинг кийимлари, ёш келинлар кийимлари, ўрта ёшдаги аёллар, кампирлар кийимлари ва тантанали тўй либослари кўринишда тизимлаштирилиб, шунингдек улар мавсумий кийимлар мисолида кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: анъанавий либос, тизимлаштириш, ёш градацияси, мавсумий кийимлар, тўй либоси, музей тұплами

Резюме: В статье систематизированы традиционные костюмы каракалпакских женщин из Этнографической коллекции Каракалпакского государственного художественного музея им. И.В. Савицкого. Одежда, используемая женщиной в течение жизни, систематизирована в следующем виде: одежда молодых девушек и подростков, одежда молодых невест, женщин среднего возраста, одежда пожилых женщин и парадные свадебные платья, а также рассматриваются образцы сезонной одежды.

Ключевые слова: традиционная одежда, систематизация, возрастная градация, сезонная одежда, свадебное платье, музейная коллекция.

Summary: The article systematizes the traditional costumes of Karakalpak women from the Ethnographic Collection of the Karakalpak State Art Museum named after I.V. Savitsky. Clothing used by a woman throughout her life is systematized as follows: clothing of young girls and teenagers, clothing of young brides, middle-aged women, clothing of older women and formal wedding dresses, and samples of seasonal clothing are also considered.

Key words: traditional clothing, systematization, age gradation, seasonal clothing, wedding dress, museum collection.

МУЗЕЙДЕГИ ШЫҒЫС ҚОЛЖАЗБАЛАРДЫ ҮЙРЕНИҮ БАРЫСЫНДА

Қудияров А. Р., Садыков А. И.

Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Соңғы жыллары мәмлекетимизде бай руўхый мийрасымыздың ажыралмас бөлеги болған араб имласындағы жазба дереклерди үйрениў оларды илимий айналысқа салыў мәселелери тез-тез тилге алынатугын бүгүнгі күннің руўхый азық дереги мәселесине айланбақта себеби бул дереклерде турмыстағы тәрбиялық бағдарға пайдаланыўда үлкен әҳмийетке ийе. Президентимиз Ш.М.Мирзиёевтың 2020-жыл 16-апрельдеги "Шығыстаныў тараўында кадрлар таярлаў системасын түп-тийкарынан жетилистириў хәм илимий потенциалды арттырыў илажлары хаққында"ғы қарарында[1] ата-бабаларымыздың уллы руўхый, илимий мийрасын хәр тәрәплеме терең үйрениўбул тараўда қәнигелер таярлаў бойынша анық мақсетлер белгилеп берилген еди, және де Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2022-жыл 1-октябрь «Муғаллимлер хәм устазлар» күнине бағышланған салтанатлы мәресимдеги шығып сөйлеген сөзиндеги уллы бабаларымыздың бийтәкирар хәм сийрек ушырасатуғын илимий-мәнаўий мийрасы биз ушын удайы хәрекеттеги турмыслық бағдарламаға айланыўы керек. Буның ушын илимпаз хәм қәнигелеримиз, хұрметли алымларымыз бул мәнаўий гәзийинени бүгинги әўладларға әпиўайы хәм түсиникли, тартымлы формаларда жеткерип бериўди, Илимлер академиясы, Жоқары хәм орта арнаўлы билимлендириў министрлиги, Мәденият министрлиги, Инновациялық раўажланыў министрлиги, Мусылманлар басқармасы, Халықаралық ислам академиясы, Ислам цивилизациясы орайы уллы ойшылларымыздың илимий-ағартыўшылық хәм мәдений мийрасын фундаментал тийкарда баспаға таярлаў, басып шығарыў хәм халықтың кең қатламына жеткерий, сондай-ақ, оны үйрениў методикасын ислеп шығып, әмелде қолланыў илажларын белгилеп берилген еди [2]. Мәмлекетимиз басшысының бул тапсырмаларын орынлаў мақсетинде Қарақалпақ мәмлекетлик университети курамындғы репрессия қурбанларын еслеў музейи хызметкерлери репрессиялық дәўирде қадаған етилип, өртеп жиберийлерден аман қалған, халық арасында қәстерленип сақланып келинген ески қолжазбаларды жыйнаўда да өз үлеслерин қосып келмекте. 2019-жыл октябрь айында музей хызметкерлери халық арасынан музей ушын экспонат жыйнаў барысында Шымбай районы Тазғара АПЖ турғыны Хамид Абулфайыз улы тәрәпинен (Пурхан мақсымның иниси Әлмен суўпының баласы) 1928-1929-жылларға тийисли араб әлипбесинде жазылған китаплар, қол жазбалар музейге саўға ретинде берилген еди [3]. Бул қолжазба китаплар қәнигелер тәрәпинен уйренилип музей экспозициясына қойылып, оларды илимий жақтан үйренип баспада жәриялаў жумыслары да алып барылмақта.

Қолжазбаларды тарийхый, философиялық, әдебий хәм дерек таныўшылық көзқарасынан үйренип, ашылмаған жаңа қырларын халқымызға көрсетиў хәр биримиздің миннетли ўазыйпамыз болып табылады. Өне сол мақсетте биз де усы иләжға аз ғана болса да қул урыўға хәрекет еттик хәм музейдеги халық арасынан жыйналған ески

қолжазбалар, кітаптарды үрениуді алдымызға мақсат еттік. Булар ескі қолжазбалар кітаптар тас баспаханада басылып шыққан.

Биринші кітабымыз (рәуиятлар, хикметлер) араб тилиндегі қол жазба кітап болып, бірінші бетлери, кітаптың аты хәм авторы жоқ. Бул кітап рәуиятлар хәм хикметлерден ибарат болып, бірінші бетлери сақланбаған болса да, ондағы сақланып қалған бірінші баслы бетлерінде төмендегіше сөзлер келтірілген:

«Ұала иләхә иллаллаху ғаллаху акбар ұала хәула ұала қууата иллә билләхил ғалийил ғазийм куффирот, зунуб ұалау кана аксар мин забадил бахр».

Бул сөзлердің мағанасын үйреніп көргенімізде, бул сөзлер хәдис екені келіп шығады. Пайғамбар алайхиссаламның хәдисінен келтірилип атырған бул сөздің мәнісі: «Аллахтан басқа иләх жоқ. Аллаһ – ұллы. Күш, күрет жоқ тек Ұллы Аллаһ пенен күш-күдрет бар» деген кәлиمانы айтса, оның теңіздің гөбигіндей гүналары болса да кешириледі», – делинген [7]. Дауамындағы сөзлердің мазмұны да ұсы хәдисте келтірілген кәлиманың пазыйлеті хәкқында сөз кетеді. Ұсы хәм ұсыған ұксаған мазмұндағы хикметлі сөзлер келтіриледі. Солардан және бири «Аллахтың алдында ибадатлардың абзалы Аллахты зикир етиу», деген. Бул сөз Пайғамбар алайхиссаламның: «Қыямат күні Аллахтың алдында дәрежесі ұллы адам – Аллахты көп зикир етиуші адам», – деген хәдисіне мууапық келеді [8]. Басқа да дууалардың пазыйлеті хәкқында айтып болғаннан соң Адам алайхиссаламның қысқаша өмир тарийхы хәм оның Иблис шайтан менен болған ұақыясы келтіриледі. Бул мазмұн Қураны Кәриймнің «Хижр» сүресіндегі аятлардың мазмұнынан алынған: **«Я Рәббим, мени адастырғаның себепли, әлбетте, мен оларға (Адам балаларына) Жер бетіндегі (бәрше гүна ислерді) зийнетлеп көрсетемен хәм олардың хәммесін жолдан азғыраман»** – деген [9]. Рәуиятта да ұсы аяттың мазмұнынан келіп шыққан мәнидегі сөзлер бар. Оннан соң Пайғамбарлардың өмир турмысындағы ибратлы рәуиятлары келтірілген. Әсиресе, Пайғамбарымыз Мұхаммад саллаллаху алайхи ға салламның өмир тарийхындағы рәуиятларды көп көриуіміз мүмкин. Әлебетте, мұсылманлар өзлерінің турмысандағы бәрше тарауларда ибадатта болсын, үйде болсын, шаңарақ ағзаларының алдында болсын, кәсіпте болсын, хәмме-хәммесінде үлгі аларлықтай инсан бул Пайғамбар Мұхаммад алайхиссалам екені көплеген диний кітаптарымызда ескертиледі. Тап сондай биз үйреніп атырған қолжазбамызда да ұсы мазмұн көп орында ескертиледі. Бул рәуиятлар хәм ибратлы хикметлерге бай қолжазба кітабымыз ескі мектеп хәм медреселерде рухый тәрбия орнында оқытылатуғын кітаптардың қатарына кириуі итималдан ұзақ емес. Өйткени, ескі медреселерде оқытылатуғын «Фузулий», «Маслакул Муттакин» хәм «Сабатул Ажизин» сияқты кітаптардың мазмұны хәм тәрбиялық әхмийеті менен бирдей.

Екинші кітабымыз (Ибраһим Әдхам) араб хәрибинде жазылған болып, байтлерден ибарат қосық қатарлар болып есапланады. Қол жазбаның муқабасы, авторы жазылған бетлери хәм кирисуі бөлиминдегі бетлери жоғалған. Кітаптың баслы бетлерінде байт тәртібинде Ибраһим атлы баланың тууылыуы хәм оған атасы тәрпинен Ибраһим деп ат қойылғаны айтылады. Сол мазмұндағы байтлерден төмендегілерді келтіриуіміз мүмкин: *«Анга Ибраһим деп ат қойды атасы Етти яшига етти шахи зад,*

Анаси ким берди мактабга уны Худанин шукрин айтур ерди ҳар дам».

Демек байттың мазмұнынан көринеді, Ибраһимның жеті жасқа жеткенде мектепке барыуы хәм оқып камалға келиуі. Кейингі байтлердің мазмұнында оны жақынлары тәрпинен исенимлі, жақсы хызметкерге тапсырғаны айтылады. Буннан мақсат оны оқытып камалға келтіриуі ұазыйпасы тапсырылған.

Кейингі байтлерде түрлі тәсирлі хикмет хәм көрсетпелер келтірілген. Сондай мазмұндағы байтлердің бирінде өлим еске алынады. Онда төмендегіше қатарлар келтірілген:

«Ұтдилар дүнәда не куб даҳолар Қолмади боқий бу уйда ҳеш ким

Ҳасрато ей дұстлар ушы улумнин дастидин Бул фирақ астига кирди пари моҳлар»

Яғный байттың дауамында өлим адам ушын ең үлкен нәсият екені, оны хәмме ұақыт еслеп жүриуі кереклигі хәм өлимнен кейін болатуғын есап-санаққа таярланып жүриуі кереклигі айтылады.

Қол жазбаны ақырғы бетлерінде Пайғамбарымыздың өмиринің ақырғы демлери де еске алынған болып, онда жаны шығар ұақытта халийфасы Әбиұ Бәкирге айтқан ұәсиятлары келтірілген. Қол жазбаны салыстырып үйрениуі барысында «Меърожнама» шығармасына да сайкес келген жерлерін де табамыз. Өйткени, Фатима анамыздың қайтыс болуы ұақыясы «Меъражнама» шығармасында келтірілген мазмұны менен бирдей көринисте екенін табамыз.

Үшинші кітабымыз араб хәрибинде жазылған тасбаспа кітап болып, бул кітапты оқып үйренгенімізде Ибн Хажыбтың «Кафия» кітабы екенін таптық. Бул кітап Ибн Хажиб аты менен белгили болған ұллы тилши алым Әбиұ Умар Усман ибн Умар Курдий тәрпинен жазылған. Ол 1174-жыл, хижрий-570-жылдың 1-июлында Мысырда туылған. Әкеси Мысыр әмиринің хажибі, яғный қорықшыларынан бири болғаны ушын «Ибн Хажиб» яғный "Қорықшының баласы" деген ат оған лақап болып қалған. Жаслайынан Қайыр қаласында Қуран илимин үйреніп, Аллахтың Қаламын толық яд алған. Ол араб тили, қирәт илими хәм маликий мазхабы бойынша фикх илимин толық үйренді хәм бул тарауда үлкен жетискенликлерге еристи. Ибн Хажиб илимнің бәрше жөнелислерінде үлкен алым болып жетисти. Адамлар оны «Илимде теңіз сыяқты» деп тәрип берген [3]. «Кафия» кітабы алымның өмирлик ұақтында-ақ көп еллерге танылып үлгерді. Ибн Хажиб өзинің бул кітабында араб тили

грамматикасының жүзеге келиуі, қағыйдалардың ислеп шығылуы және бүгінгі күндегі кәміл көринісіне келиуіне себеп болған ұллы инсанды ядқа алып өтеді.

Алымның «Кафия» кітабына 67 ге жақын түсіндірмелер жазылған. Солардан «Шархи ал-муқаддиматайн», «Ўафия», «Ал-амалий ан-нахуия» және «Шархул кафия» сыяқлылары белгілі болып есепланады[4].

«Кафия» тасбаспа кітабы төмендегі бөлімдерден ибарат:

«Муқаддима»-Кирисиу – автор кітаптың кирисиу бөлімінде кәліма және оның түрлері, кәлам және исимнің кәсіяттері хақында сөз жүриткен.

«Ғайру мунсариф» Ғайрул мунсариф (еки сепликтен ибарат сөзлер) бул бөлімде исимнің бетленбеуіне себеп болатуғын тоғыз иллет және оның мысаллары хақында сөз кеткен.

«Марфуъат» – бул бөлімде исимнің раф орынлары келтірілген.

«Мансубат» – исимнің исимнің нәсип орынлары келтірілген.

Және де «Мажрурат», «Тауабий», «Мабнийт», «Асма уа лауахик», «Афъал» және «Хуруф» бөлімлері келтірилип соң жуу мақланған. Жуу мақлап айтқанда, алымның бул сабақтық кітабы міне сегіз әсирден берлі хәзирге шекем Шығыс елдерінің медресе және мектептерінде араб тилинен пайдалы кітап сыпатында, тийкаргы оқыу қолланба болып келген[5]. Тап сондай бизлердің ески мектеп және медреселерімізде де бул кітап кеңнен оқылған және усы кітап арқалы араб тили бойынша сауатларын ашқан.

Тәртинши қолжазба кітабымызда араб тилинде жазылған «Шархил уқоя» кітабы екині белгілі болды. Авторы Убайдуллах ибн Масъуд Садруш Шариъа болып, Бухара қаласында туылған. Туылған жылы нәмәлим. Қайтыс болған жылы хижрий 747-жыл деп көрсетеді тарихшы алымлар. Ол жаслайынан атасы ұллы алым Махмуд ибн Тажуш Шариъиядан басланғыш тәлімді алған. Жаслайынан араб тили, фикх, хәдис, әдебиет және мантық сыяқты илимлерге қызықты және сол илимлердің маманы болып жетісті. Өзінің заманында илим және әдепте бәршеге өрнек болды. Буның бир ғана себебі ұллы алым бабаларынан қалған мийрастың қадирине жетіп, оқып-үйренгенлігі десек қәтелеспеген боламыз[6]. Хақықатында ол илим нурына бай шаңарақта дүньяға келген еді. Бабасы Махмуд ибн Тажуш Шариъа өз заманың көзге көрінген алымларынан еді. Ол бабасының қасынан бир ләхзе болса да айырылмастан илим алған. «Шархул уқоя» кітабы ханафий мазхабындағы ең белгілі кітаптарынан болып, бул кітапта Ислам диннің ибадат және мәміле хукімлері баян етілген. Мәселен, кітап кирисиуден кейін «Китабут тахәрат» деп басланады. Буның мәнісі «Тахәрат кітабы» яғный пәклениу кітабы, дегені. Бул бапта тахәрат алыу хукімлері және оны бузыушы әмеллер хақында сөз кетеді. Оннан соң «Китабус солат» яғный «Намаз кітабы» дауам етеді. Булардан басқа да хукімлер избе-излікте дауам етеді. Алдыңғы медреселерде бул кітап оқылуы шәрт болған кітаптардың қатарында турған. Егер бул кітапты оқымаған талаба ижаза яғный бүгінгі тилиміз бенен айтқанда диплом берілмеген. Өйткені бул кітапты оқымаған талаба шала питкеріуші деп аталып, қазылық және соған уқсаған хукім жүргизилетуғын орынларға қойылмаған.

Жуу мақлап айтқанда биз үйреніп атырған бул қолжазбаларды үйреніу барысында ондағы айтылған алтынға тең хикметлер және үгіт-нәсиятлар, тәрбиялық сөзлер ата-бабаларымыздың қәншеллі мәнауий жақтан бай және илимлі екині көрсетеді. Бул шығармаларда көтеріліп атырған мәселелер сол заманның көз карасында, турмыс шәраятларына сай жазылсада, бүгінгі күндегі жаслардың тәлім-тәрбиясы мәселелеріндегі машқалаларға да жууап ретінде хызмет етеді. Егер биз жоқарыда келтірілген рәуият және бәйтлерден ибарат қолжазбаларды тиккелей, толығы менен аудармаласақ, жасларымызға және хәр биріміздің рухый дүньямызға тәрбия боларлық көп нүгіт нәсиятларды табыуымызға болады.

Музейдегі бул қолжазбаларды оқып үйреніу, оларды дәуірлерге ажыратыу және классификациялау, кимлер жазғанлығын анықлау сыяқты илимий жұмыстарды алып барыу келешектегі ұазыйпаларымыздың бири екинін көрсетеді.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Өзбекстан Республикасы Президентінің Ш.М.Мирзиёвтың 2020-жыл 16-апрельдегі "Шығыстаныу тарауында кадрлар таярлау системасын түп-тийкарынан жетилистириу және илимий потенциалды арттыруы илажлары хақында"ғы ПҚ-4680-санлы қарары. <https://lex.uz/docs/4791086>
2. Өзбекстан Республикасы Президенті Шавкат Мирзиёвтың 2022-жыл 1-октябрь «Муғаллимлер және устазлар» күніне бағышланған салтанатлы мәресімдегі шығып сөйлеген сөзі. <https://joqargikenes.uz/4756.html>
3. Қарақалпақ мәмлекетлик университети Репрессия қурбанларын еслеу музейи фонды.
3. Солих Абдулазиз аш-Шахир» «Ал-Кафия фи илми ан-нахв уа алхат». Ал-Қахира. Мактабатул адаб. 2010.
4. Мустафа Абдуллах Ал-Хажы Халифа «Кашф аз-Зунун». Ал-Кахира. Дорул кутуб ал-илмий. 2016.
5. Дилшатбек Рахманалийев «Ұллы тилиши алым Ибн Хажиб» (мақала) 2022.
6. Хажы Халифа «Кашфуз Зунун». Байрут. 2008.
7. Имам Термизий «Ал-Жамеъ». Байрут. 2003.
8. Имам Суютий «Жамиъис сағир» Дорул илим. 2011.
9. Шамсуддин Бахауддинов «Қураны Кәрийм мәнилерінің қарақалпақ тилиндегі аудармасы және тәфсири» «Хижр» сүресі, 39-аят. «Өзбекистан». 2019.
10. Нуриддин Әлий 1511 - "Меъражнама"ның Истанбулдағы Сулаймания кітапханасында сақланып атырған Нуриддин Әлий ибн Кишкина Сайид Әлий ат-Талианий тәрпинен араб жазыуында көширилген қолжазба үлгісі.

Музейдеги Шыгыс қолжазбаларды үйреніу барысында

Аннотация: Мақалада Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети Репрессия қурбанларын еслеу музейинде халық арасынан жыйналған ески қол жазба хәм тасбаспа китапларды аудармалап олардағы тәрбиялық әхмийетке ийе рәуиятлар хәм ибратлы хикметлердің мәнис мазмұны хақында қысқаша мағлыұматлар берілген. Соның менен бирге бул қолжазбалардың хәзирги дәуірдеги тәрбиялық әхмийетке ийе қунлы шығармалар екені көрсетилип ондағы хикметлик идеяларды оқыу оындарындағы тәлим тәрбиялық пәнлерде пайдаланыу үшін қунлы мағлыұмат екенлиги көрсетилип өтилген.

Гилт сөзлер: Ислам дини, пайғамбар, мусылман, қол жазба, тас баспа, дерек, араб жазыуы, рәуият, бәйт, хикмет, тәрбия.

Музейдаги Шарқ кўлѳмаларини ўрганиш жараўида

Аннотация: Мақолада Бердақ номидаги Қоракалпок давлат университети Қатағон қурбанларини хотирлаш музейида халқ орасидан йиғилган эски кўлѳзма ва тошбосма китобларни таржима қилиб, улардаги тарбиявий аҳамиятга эга ривоятлар ва ибратли хикматларнинг мазмунини ҳақида қисқача маълумотлар берилган. Шунингдек, бу кўлѳзмаларнинг ҳозирги даврдаги тарбиявий аҳамиятга эга қимматли асарлар эканлиги кўрсатилиб, ундаги хикматли ғояларни ўқув даргоҳларидаги таълим-тарбиявий фанларда фойдаланиш учун қимматли маълумот эканлиги таъкидлаб ўтилган.

Калит сўзлар: Ислам дини, пайғамбар, мусулмон, кўлѳзма, тошбосма, манба, араб ёзуви, ривоят, байт, хикмат, тарбия.

В процессе изучения Восточных рукописей в музее

Аннотация: В статье представлена краткая информация о переводе старых рукописей и литографических книг, собранных среди народа в Музее памяти жертв репрессий Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, и содержания поучительных рассказов и мудрости, имеющих воспитательное значение. Также отмечено, что эти рукописи являются ценными произведениями, имеющими воспитательное значение в настоящее время, и подчеркивается, что содержащиеся в них мудрые идеи представляют собой ценный материал для использования в учебно-воспитательных дисциплинах в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Ислам, пророк, мусульманин, рукопись, литография, источник, арабская письменность, предание, бейт, мудрость, воспитание.

In the process of studying Eastern manuscripts in the museum

Abstract: The article presents brief information about the translation of old manuscripts and lithographic books collected from the public in the Museum of Memory of Victims of Repression at Berdakh Karakalpak State University, and the content of instructive stories and wisdom with educational value. It is also noted that these manuscripts are valuable works with educational significance in the present day, and it is emphasized that the wise ideas contained within them represent valuable material for use in educational and upbringing disciplines in educational institutions.

Keywords: Islam, prophet, Muslim, manuscript, lithography, source, Arabic script, tradition, beit, wisdom, upbringing.

O'ZBEKISTON VA QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIK QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Tanirbergenov S. B.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarib borayotgan bugungi kunda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayogan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro nisbatini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Kishilik jamiyati tabiat bilan uyg'unlikda taraqqiy etib borar ekan, mavjud mexanizmlarni shaxs-jamiat-tabiat tizimi manfaatlariga to'la moslashtirishga oid ijtimoiy, siyosiy, ayniqsa, huquqiy o'zgarishlarga ehtiyoj doim saqlanib qoladi. Aynan mana shu uzluksiz, doimiy tarzda yangilanib, boyib, davr talablariga moslashib borish ekologiya sohasida ham murakkab kechishini ko'rsatadi. Shu jihatdan olganda, mamlakatda qulay atrof tabiiy muhitni qaror toptirish, fuqarolarning ekologik huquqlarini amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish va nihoyat bu boradagi ekologik qonunchilik tizimini takomillashtirish hal etilishi dolzarb bo'lgan muammolar bo'lib hisoblanadi.

Bu yerda gap asosan atrof tabiiy muhit sifatini rejalashtirish va normaga solish, ekologik zararli faoliyatlarni bartaraf etish, avariylar, halokatlar, tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, ekologik qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish, ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqish borasidagi davlat majburiyatlari xususida ketmokda.

O'zbekiston, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ekologik vaziyat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan davlat siyosatini olib borishni talab etadi. Aynan shu sababdan, davlatimizning ekologik siyosatiga oid strategik maqsadi jamiyatni barqaror rivojlantirish, hayot kechirish sifatini oshirish, fuqarolarga qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash uchun ekologik tizimni saqlash, tabiiy resurslar holatini yaxshilash, ularning butunligi va hayotni ta'minlash funksiyalarini qo'llab-quvvatlash bo'lib hisoblanadi [1, 48]. O'z navbatida, yuqoridagi maqsadlarni o'ziga qamrab olgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini baholashda eng avvalo, inson huquqlari, jumladan fuqarolarning qulay atrof muhitda yashash huquqini ta'minlash asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanligini e'tirof etish lozim. Shu bilan birga, nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo hamjamiyatida mazkur huquqni ta'minlash bugungi kunda to'la ma'noda amalga oshmoqda, deb bo'lmaydi. Bunda obyektiv omillar sifatida: atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish faoliyatining

yeterli darajada moliyalashtirilmaganligi; urbanizatsiya jarayonlarining tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi; iqlim sharoitlarining o'zgarayotganligi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Subyektiv omillar esa quyidagilarda namoyon bo'lmoqda, ya'ni sanoat va qishloq xo'jaligining ekstensiv holda rivojlanishi, milliy qonunchilik normalarining ekologik talablar darajasida emasligi, ekologik boshqaruvning atrof-muhit sifatini ta'minlashga qaratilmaganligi, aholi ekologik-huquqiy ongi va madaniyatining ancha past darajada ekanligi, ekologik ta'lim, targ'ibot va tashviqot ishlarining lozim darajada yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar.

Rossiyalik mutaxassislarining fikrlariga qaraganda, xo'jalik aloqalarining buzilishi, ishlab chiqarishda sodir bo'layotgan falokatlar, korxonalar moliyaviy ahvolining keskinlashuvi, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tarmoqlarida yetarli darajada moddiy bazaning yo'qligi, tor mahalliychilik nuqtai nazaridan ish tutish va tabiiy resurslardan ekstensiv tarzda foydalanish keyingi 50-70 yil ichida ekologik vaziyatni tubdan keskinlashtirib yubordi [2, 116-117]. Yuqoridagi omillarni e'tirof etgan holda bu boradagi muammolarning yuzaga kelishiga shuningdek, dolzarb ekologik masalalar yuzasidan normativ huquqiy hujjatlarning kechiktirib qabul qilinishi, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilikka rioya qilish borasida mansabdor shaxslar javobgarligi va ijro intizomini lozim darajada emasligi ham sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasida faqatgina ekologik qonunchilikni takomillashtirish bilangina fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqlarini ta'minlab bo'lmazligiga hayotning o'zi guvohlik bermoqda. Bu boradagi dolzarb muammolar yechimini davlat va jamiyatning barcha jabhalari, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdan ham izlash zarur. Bu yerda gap respublikamizning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilgan ekologik siyosatda tub o'zgarishlar zarurligi haqida ketmoqda. Ushbu o'rinda, avvalambor, barqaror rivojlanish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasida puxta ekologik siyosatni ishlab chiqish, uni hozirgi zamon talablariga mos ravishda aniqlashtirish, ekologik siyosatni inson huquqlari nuqtai nazaridan mazmun va mohiyatini belgilab olish, istiqbolga yo'naltirilgan tamoyillar va hatti-harakatlarni ko'rsatib berish zarur.

Birinchi navbatda, "O'zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish strategiyasi" ham oliy yuridik kuchga ega bo'lgan milliy qonun tariqasida ifoda etilishi zarur. Barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda real iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy va ekologik holat inobatga olinishi lozim. Shuningdek, baholash, siyosatni belgilash harakatlarini rejalash, ularni amalga tadbiriq qilish, monitoring olib borish hamda doimiy axborotlashtirish kabilar bu boradagi chora – tadbirlarning mazmunini qamrab olishi talab etiladi. Barqaror rivojlanish strategiyasida inson davlat ekologik siyosatining muhim subyektiga aylanadi. Ushbu siyosat mintaqada yashovchi boshqa xalqlarning ham ekologik huquqlari va manfaatlarini hurmat qilishga, har bir fuqaroning qulay atrof-muhitga ega bo'lish singari konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Davlatning ekologik siyosati tegishli ekologik huquqiy bazani bunyod etishda namoyon bo'lishi barchaga ma'lum. Qoraqalpog'iston Respublikasining zamonaviy ekologik qonunchiligi holati tahlili bu boradagi qonunlarimiz insonning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi sohasidagi xalqaro andozalarga mos keladi, ularda fuqarolarning ekologik manfaatlarini ta'minlash bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlarda to'plangan ijobiy tajribalar inobatga olingan, deb xulosa chiqarishimizga imkon yaratadi. Shu bilan birga, ekologik qonunchilikni takomillashtirish, uni xalqaro andozalarga yanada yaqinlashtirish, fuqarolarning atrof-muhit sohasidagi tobora ortib borayotgan manfaatlari bilan muvofiqlashtirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ekologik qonunchilikni takomillashtirish aynan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Konstitutsiyalarida imperativ ekologik shartlarni ifoda etilishdan boshlanadi. Bu o'rinda horijiy davlatlarda shakllangan konstitutsiyaviy qonunchilik tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini oldingi o'rinlarda qayd etib o'tgan edik.

Shuningdek, tegishli qonunlarda ekologik qonunbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy jazo sanksiyalarini qo'llashning real mexanizmlarini ko'rsatib o'tish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ushbu sanksiyalar ifoda etilgan normalarning hayotiylikini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur sanksiyalarni qo'llash mexanizmidagi quyidagi jihatlardan albatta o'z aksini topishi zarur, deb hisoblaymiz: ekologik huquqbuzarliklar tufayli yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyati; ekologik huquqbuzarliklar natijasida kelib chiqqan zararni qoplash tartibi; atrof muhitga o'ta xavfli manbalardan yetkazilgan zararni qoplash; atrof-muhitga salbiy ta'sir etish tufayli fuqarolarning salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash; atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish natijasida fuqarolarning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash; ekologik xavfli faoliyatlarni to'xtatish to'g'risidagi da'vo talablari va boshqalar.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirishda, shuningdek, undagi ayrim bo'shliqlarni bartaraf etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, amaldagi qonunchilikda ekologik xavfsizlik, ekologik sug'urta, ekologik monitoring, jamoat ekologik nazorati va jamoat ekologik ekspertizasi bilan bog'liq masalalar yetarli darajada tartibga solinmagan. Shu bilan birga, ushbu masalalarni hal etish borasida alohida tadqiqot ishlari olib borilganligini ta'kidlash lozim. Xususan, Sh.X.Fayziyev "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning o'rniga yangi "Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish va unda "Aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari"ga bag'ishlangan bobda sanoatda, qishloq xo'jaligida, transportda va boshqa sohalarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash talablari, ekologik xavfli hududlar, ekologik inqiroz hududlari, ekologik falokat hududlariga oid munosabatlarni tartibga solishni [3, 342-343], M.M.Nurmatov "Ekologik sug'urta to'g'risida" Nizom qabul qilishni [4, 168-175], X.R.Isanov "Ekologik monitoring to'g'risida" Qonun qabul qilishni [5, 115-125] taklif etadi.

Fikrimizcha, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" [6, 7] gi Qonunining 27-moddasiga jamoatchilik ishtirokining asosiy kafolati sifatida jamoat ekologik ekspertizasini yanada rivojlantirish, xususan, uning subyektlari sirasiga

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini ham kiritish; uning moliyaviy ta'minotini faqatgina shunday tashabbus bilan chiqqan jamoat birlashmasi yoki fuqarolar zimmasiga emas, balki faoliyati jamoat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi so'ralayotgan subyekt tomonidan ham amalga oshirilishini ko'zda tutish maqsadga muvofiq. Zotan, fuqarolik jamiyati barpo etish sharoitida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga qaratilgan ekologik-huquqiy normalarni yanada rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Umuman mazkur sohani takomillashtirish quyidagi bir qator vazifalarni hal etishni taqazo etadi: a) joriy qonunchilikdagi bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish; b) ekologik munosabatlar subyektlariga ta'sir etishning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, mafkuraviy usullarini o'zida ifodalagan tashkiliy mexanizmlarni yaratish; v) O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligining ekologik munosabatlarini huquqiy tartibga solish sohasini aniq chegaralash; g) ekologik qonunchilikni bosqichma-bosqich kodifikatsiya qilish uchun normativ bazani tayyorlash; d) O'zbekiston, shu jumladan Qoraqalpog'iston ekologik qonunchiligini xalqaro huquq normalariga mosligini ta'minlash hamda rivojlangan davlatlarning (xususan, MDH mamlakatlari) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonunchiligiga yaqinlashtirish. Ushbu masala yuzasidan ilmiy izlanishlardagi yondashuvlarni hamda joriy ekologik qonunchilikni tahlil etish va umumlashtirish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologik qonunchilikni rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqish lozim.

Bunda, konsepsiyani ishlab chiqishdagi zarur bosqich bo'lib, ekologik qonunchilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarni aniqlash hisoblanadi. Bunda qo'yidagi yo'nalishlar nazarda tutilmoqda: 1) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; 2) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni yangi tahrirda bayon qilish (yuridik tomondan-birinchi yo'nalishning bir turi); 3) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish va yangisini qabul qilish; 4) tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlar yuzasidan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish.

Ekologik qonunchilikni rivojlantirishning ehtimolli yo'llarini tahlil qilishda rivojlanish jarayoni oddiydan murakkabga qarab borishi zarurligini yodda tutish lozim. YA'ni, normativ-huquqiy hujjatning yangi tahririni qabul qilishga faqat joriy qonunga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar hajmi ko'p bo'lgandagina yo'l qo'yilishi mumkin. Zero, amaldagi normativ-huquqiy hujjatning o'rniga yangisining qabul qilinishi, faqat ekologik qonunchilikni rivojlanishining avvalgi ikki usulini qo'llashning imkoniyati bo'lmagandagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu borada ilmiy adabiyotlarda haqli ravishda ta'kidlanganidek, qonunning yangi tahriri shaklini to'g'ri baholamaslik, zarur bo'lmagan normativ hujjatlarning qabul qilinishiga, muayyan huquq normalarining turli hujjatlarda takrorlanishiga, normativ huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi [7, 11].

Ekologik qonunchilikni rivojlantirish Konsepsiyasini tuzish jarayonida avvalo, mazkur faoliyatni axborot bilan ta'minlashga e'tibor qaratish zarur, ya'ni u quyidagilarni nazarda tutishi lozim: ekologik qonunchilik tizimiga kiruvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda horijiy mamlakatlardagi shu tushdagi qonunchilik hujjatlari yuzasidan tegishli ma'lumotlarni to'plash; ekologik qonunchilikni qo'llash amaliyoti va uning samaradorligi to'g'risidagi axborotlarni hamda tegishli statistik ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish; ekologik qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan yondashuvlarni umumlashtirish va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ekologik qonunchilikni takomillashtirishning eng muhim omillaridan biri – bu har bir kishining o'zi yashab turgan muhit(hudud)ning hamda unda joylashgan “ekologik xavfli” obyektlar (korxona, to'g'on, suv ombori, daryo va h.k.)ning sog'liq va hayot uchun bexatarligi, agar ushbu obyektlarda biror bir halokat yuz bergudek bo'lsa, talafotlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar oldindan o'ylab qo'yilganligidan va eng muhimi ekologik qonunchilikdan xabardor bo'lishidir. Agar aholi o'zi yashab turgan hududdagi suv omborining bexatar qilib qurilganligiga amin bo'lmasa yoki undagi nosozliklardan xabarsiz bo'lsa, va shuningdek, bordi-yu shu suv omboridagi avariya tufayli toshqin yuz bergan vaqtda xavfsizlikni ta'minlash choralari nimalardan iborat ekanligidan bexabar bo'lsa, buni ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasiga jinoyatkorona munosabatda bo'lingan deb hisoblash kerak. Xuddi shunday mulohazani “zaharli” sanoat korxonalari, yonish yoki portlash xavfi yuqori bo'lgan jism va moddalar, daryo va kanallar, qurilgan uy-joylar, aholi punktlarini joylashtirish hududlari, yer ostidan foydalanish obyektlari va boshqa xavf keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan obyektlarga nisbatan ham aytish mumkin. Demak, kishilarning ekologik xavf manbai bo'lishi mumkin bo'lgan obyekt(hodisa)lar to'g'risida batafsil va obyektiv axborotga ega bo'lishi, ularning ekologik xavfsiz yashash hamda qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarini kafolatlovchi asosiy omillardan biridir.

Axborot-kommunikativ texnologiyalarni ijtimoiy voqelikda tobora keng qo'llanilishi respublikamizni rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatiga kirishini tezlashtiradi va axborotlashtirishning milliy tizimini tobora shakllantirib boradi. Shu bilan birga, ekologik huquqiy axborotlashtirish mamlakatning ekologik funksiyasini amalga oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki davlat bu boradagi faoliyatini huquqiy asoslarda amalga oshiradi. Ekologik huquqiy axborotlashtirish aholining ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishning muhim vositasidir. Ekologik qonunchilik asoslaridan xabardor bo'lish fuqarolar o'rtasida ekologik huquqbuzarlik holatlarini oldini olishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ekologik axborotga bo'lgan huquq butun dunyoda shaxsning eng muhim huquqlaridan biri sifatida tan olinadi. Ushbu huquq Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasida o'z ifodasini topgan [8, 6]. Shuningdek, “Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va taraqqiyot to'g'risida” [9, 3] gi Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasida ham har bir insonning milliy miqyosda davlat organlari ixtiyorida bo'lgan atrof tabiiy muhit to'g'risidagi axborotlarni olish huquqi borligini mustahkamlab qo'ydi (10-tamoyil). Albatta, bugungi kunga kelib atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik tizimiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlari hajmining oshganligi sababli qonunchilikni takomillashtirish ko'p vaqt va

katta mablagʻ talab qilishi tabiiydir. Oʻz navbatida, ekologik qonunchilikni takomillashtirishning moliyaviy asoslari sifatida Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston Respublikalari davlat budjeti, ekologik sugʻurta fondlari, xalqaro tashkilotlar va boshqa ekologik jamoat tashkilotlarining moliyaviy koʻmagi, tabiat resurslaridan foydalanish evaziga xoʻjalik yuritishni tashkil qiladigan korxonalardan olinadigan ekologik rentalarni koʻrsatib oʻtish mumkin. Ekologik qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi doirasida hamda ekologik faoliyatni moliyalashtirishning huquqiy asoslarini rivojlantirish nuqtai nazaridan Oʻzbekiston Respublikasi, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasining “Ekologiyaliq fondlar haqqida”gi, “Ekologiyaliq qamsizlandirioʻ haqqida”gi Qonunlarini hamda ekologik toza, havfsiz, ikkilamchi xom ashyolardan foydalanadigan korxonalarga muayyan imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi normalarni Soliq kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, tartibga solish obyekti bevosita atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilmagan boʻlsada, lekin uning mazmun va mohiyatida ushbu masalalarga oid muayyan organlarning vakolatlari va majburiyatlari oʻz ifodasini topgan boshqa qonunlarni takomillashtirish ham bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida” [10, 3] gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunida ushbu organlarning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan muayyan vakolatlari oʻz ifodasini topgan.

Mazkur Qonunning 10-moddasida fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni taʼminlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlash; atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan oʻz vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish; obodonlashtirish ishlarini oʻtkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni taʼmirlash uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablagʻ yigʻish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish; obodonlashtirish, koʻkalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari oʻtkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablagʻlaridan shartnoma asosida foydalanish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish; atrof muhitni muhofaza qilishga koʻmaklashish; xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga tegishli hududni obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish, uy-joylar va hovlilarni namunali saqlash yuzasidan ixtiyoriy ishlarni tashkil etishda koʻmaklashish bilan bogʻliq shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yigʻini va shahardagi mahalla fuqarolar yigʻinlarining vakolatlari koʻrsatilgan. Amalda esa mazkur organlar obodonlashtirish, koʻkalamzorlashtirish, sanitariya-tozalash va yer uchastkalari bilan bogʻliq tashkiliy xususiyatga ega vakolatlaridan tashqari boshqa vakolatlaridan deyarli foydalanmaydilar. Buning asosiy sababi, avvalambor, ular oʻz vakolatlarini amalga oshirishlari uchun tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, ikkinchidan mazkur vakolatlarni amalga oshirish uchun muayyan koʻnikmalarning hamda ularni moliyaviy, tashkiliy, taʼsir oʻtkazish choralari bilan bogʻliq asoslar bilan taʼminlanmaganligida namoyon boʻladi. Oʻzini oʻzi boshqarish organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish borasidagi vakolatlaridan kengroq foydalanishni taʼminlash maqsadida joylarda fuqarolar yigʻinlari raislari va faollarining ekologik huquqiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik jamoat tashkilotlari va davlat hokimiyati organlari bilan oʻzaro hamkorlik mexanizmlarini belgilab beruvchi qoidalarni tegishli qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qoʻyish lozim. Shuningdek, qonundagi “atrof muhitni muhofaza qilishga koʻmaklashadi”-degan tushuncha mavhum tusda boʻlib, u fuqarolar yigʻinlariga hech qanday yuridik majburiyat yoki aniq vakolat berilganligini anglatmaydi. Shuningdek, mazkur organlarning tabiat resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ishlari bilan bogʻliq faoliyati qonun doirasidan chetda qolib ketgan.

Agar bu borada horij tajribasini tahlil qiladigan boʻlsak, Ukrainaning “Aholining oʻzini oʻzi tashkil etish organlari toʻgʻrisida”gi Qonuni 14-moddasida ushbu organlarning ekologiya sohasidagi vakolatlari aniq belgilab qoʻyilganligini koʻramiz: “atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish boʻyicha tadbirlarni amalga oshirishda aholining koʻngilli ishtirokini tashkil etish, hovlilar, koʻchalar, maydonlar, istirohat bogʻlari, qabristonlar, bolalar va sport maydonlari, bolalar ijodiy uylari, klublar va boshqa joylarni obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish ishlarini tashkil etadi. Buning uchun vaqtinchalik yoki doimiy brigadalar tuzish yoki aholini jalb etishning boshqacha shakllaridan foydalanadi” [11, 307-308].

Shu bois, Oʻzbekiston Respublikasi “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunining tegishli moddalarida fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlari oʻzlari faoliyat yuritadigan hududlarda, mahallalarda chiqindilarni yigʻish, joylashtirish va qayta ishlash uchun tegishli hududlarga joylashtirish, yerlarni suv bostirish, yuvilish, nurashi bilan bogʻliq ishlarning oldini olish, suvlardan tejimli foydalanish, qirgʻoq boʻyi zonalarining tartibiga rioya etish va ularning ifloslanishiga yoʻl qoʻymaslik, tabiiy boyliklardan foydalanishni tartibga solish va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish, mahalliy hududdagi oʻrmon fondidan tashqari daraxtlarni kesish, shu jumladan sanitar kesishga ruxsat berish, pichan yigʻish, zahira yerlardan mol boqish maqsadida foydalanish, oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, yaylov yerlaridan oqilona foydalanish va bu sohada tushuntirish ishlarini olib borish hamda ushbularning ustidan nazorat qilish kabi aniq vakolatlarini belgilab qoʻyish lozim.

Ekologik qonunchilikni rivojlantirish faoliyatini ilmiy jihatdan taʼminlashda ushbu jarayonning barcha bosqichlarida huquqshunoslar bilan birga, tabiiy va ekologik fanlar vakillarini jalb qilish talab etiladi. Binobarin, shu asosda muayyan ekologik qonun qabul qilinishining nafaqat bugungi ijtimoiy voqeikka, balki istiqboldagi ekologik vaziyatga taʼsirini bashoratlash imkoniyatlariga ega boʻlish mumkin. Bunda ekolog-huquqshunos olimlar, ekologiya sohasidagi amaliyotchi mutaxassislar ishtirokida maxsus ishchi guruhlar tuzilishi, yuqorida taʼkidlaganimizdek, ekologik qonunchilikni rivojlantirish Konsepsiyasining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bunda xorijiy mamlakatlar

qonunchiligini o'rganish, O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini hisobga olish, tarixiy tajribadan kelib chiqib harakat qilish ham ushbu konsepsiyaning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha ishni mafkuraviy ta'minlash o'z ichiga ommaviy axborot vositalari, ekologik tarbiya va ta'lim, ekologik etika yordamida jamiyat ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni oladi. Shu jihatdan olganda, ekologik tisdagi ommaviy axborot vositalari faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarida uzluksiz ekologik ta'lim tizimini joriy etish hamda ekologik targ'ibot va tashviqot ishlarining huquqiy asoslarini joriy ekologik qonunchilikda mustahkamlab qo'yish ekologik qonunchilikni takomillashtirishning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ekologik qonunchilikni rivojlantirish qonsepsiyasini yaratish va uni amalga oshirishning asosiy natijasi atrof tabiiy muhit muhofazasini va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, zamonaviy sharoitlarda tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarini samarali kafolatlash va shu asosda barqaror ekologik huquqiy tizimni yaratishdan iborat bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Файзиев Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан.: Автореф. дис. докт. юрид. наук. –Ташкент: ТГЮИ, 2004. – 48 с.
2. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. –М., 1997. –С.116-117.
3. Файзиев Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан: Дисс. ... докт. юрид. наук. – Ташкент, 2004. – С. 342-343.
4. Нурматов М.М. Атроф табиий мухитни муҳофаза қилиш иқтисодий механизмини ҳуқуқий таъминлаш масалалари: Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – Б. 168-175.
5. Исанов Х.Р. Давлат экологик мониторингини ҳуқуқий таъминлаш муаммолари. Монография. – Тошкент: Ворис-нашриёт, 2009. – Б. 115-125.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни. 754-ХП- сон 09.12.1992 йилда қабул қилинган. // [Электрон манба] URL: <https://lex.uz/acts/107115>
7. Тихомиров Ю. А., Пиголкин А. С., Рахманин Т. Н. Как готовить законы (научно-практическое пособие). – М., 1993. –С.11.
8. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган. // [Электрон манба] URL: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> (мурожаат қилинган вақт 07.01.2023).
9. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-350-сон 22.04.2013 йилда қабул қилинган. // [Электрон манба] URL: <https://lex.uz/acts/2156899> (мурожаат қилинган вақт 27.12.2022).
10. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1999, –№ 5, –110-модда.
11. Законодательство Украины о местном самоуправлении, Сборник нормативных актов, Харьков, Одиссей, 2003, –С.307-308.

Rezyume. Maqola O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik qonunchiligining rivojlanishining aktual muammolariga bag'ishlangan. Muallif tamonidan O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bildirgan.

Tayanch so'zlar: ekologik qonunchilik, ekologik sug'urta, ekologik audit, ekologik ofat zonalar.

Резюме. Статья посвящена актуальной проблеме развития экологического законодательства в Республике Узбекистан и Республики Каракалпакстан. Автором предложено предложения по совершенствованию экологического законодательства Республике Узбекистан и Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова: экологическое законодательство, экологическое страхование, экологический аудит, экологические зоны бедствия.

Summary. The article is devoted to the current problem of the development of environmental legislation in the Republic of Uzbekistan and the Republic of Karakalpakstan. The author proposed proposals for improving environmental legislation in the Republic of Uzbekistan and the Republic of Karakalpakstan.

Key words: environmental legislation, environmental insurance, environmental audit, ecological disaster zones.

ЖИНОЯТ ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ОАВ ИШТИРОКИГА ОИД БУЮК БРИТАНИЯ ТАЖРИБАСИ Матжанов И.А.

Қорақалпоқ давлат университети

Жиноят процессида шаффофлик ва шахс ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос усули – жиноят ишларини юритишда жамоатчиликнинг иштирокидир. Жиноят ишларини юритишда жамоатчиликнинг иштироки жиноят ишлари бўйича дастлабки тергов ва суд ишларини юритишда адолатни таъминлаш механизмларидан бири сифатида эътироф этилади. Жиноят ишларини юритишда жамоатчиликнинг иштироки жиноят ишлари бўйича процессуал вазифаларни самарали ҳал қилувчи институтдир. ОАВ институти ва медиасоҳа вакиллари эса – жиноят процессида жамоатчиликнинг “кўзи ва тили” ҳисобланади. Мазкур ҳолат эса жиноят ишларини юритишда жамоатчиликнинг иштироки ҳозирда долзарб мавзу эканлигидан далолат беради.

Жиноят судлов ишларини юритишда кенг жамоатчилик кўмагига таяниш ва ундан фойдаланиш муҳим демократик институтлардан бири сифатида тегишли натижаларга эришишда ёрдам беради. Жиноятга бефарқ

бўлмаслик, унинг очилишига, айбдорларни фош этилишига ёрдам бериш, шахс, давлат ва жамият манфаатларини химоя қилиш деб қаралиши лозим. Албатта, жиноят иши бўйича тергов олиб бориш ва ишни судда кўриш чоғида терговчи, прокурор ва суд жиноят содир этилган ҳолатларни аниқлаб олиш, айбдорларни қидириш ва фош этиш, адолатли ҳукм чиқариш, шунингдек, жиноятнинг содир этилиш сабаблари ва унга имкон берган шароитларни аниқлаш учун ўз ваколатлари доирасида ОАВ ёрдамидан фойдаланишга ҳақлидир.

Қонунда таъқиқланмаган тарзда хабарларни йиғиш – журналист ҳуқуқидир. «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги Қонунда ОАВнинг қонунчиликка мувофиқ ахборотни излаш, олиш, тадқиқ этиш, тарқатиш, ундан фойдаланиш, уни сақлаш ҳуқуқига эга ҳамда тарқатилаётган ахборотнинг ҳолислиги ва ишончилиги учун белгиланган тартибда жавобгар бўлиши белгиланган. Мазкур бантда хабарлар атамаси умумий тарзда ахборот атамаси билан изоҳланган. Лекин, мазкур Қонунда муассис, таҳририят ва бош муҳаррирнинг ҳуқуқлари келтирилган бўлиб, журналистнинг алоҳида ҳуқуқлари назарда тутилмаган. Журналистнинг ҳуқуқлари эса ОАВнинг умумий ҳуқуқлари соясида назарда тутилган. Жиноят ишларини юритишда ОАВ иштироки жиноят ишлари бўйича дастлабки тергов ва суд ишларини юритишда адолатни таъминлаш механизмларидан бири сифатида хизмат қилади. Жиноят ишларини юритишга оид процессуал қарор ва ҳаракатларнинг жамоатчиликка маълум қилиниши икки хил натижа беради: ижобий ва салбий. Ижобий натижа – жиноят ишини юритишда ташқаридан босим бўлмайди; процессуал ҳаракат ва қарорлар тўлалигича қонун асосида амалга оширилади; жиноят иши юритилишида жамоатчилик манфаатлари амалга оширилади. Салбий натижа – тергов версияси ёки сири ошкор бўлиши мумкин; жиноят содир этган шахснинг бошқа ёрдамчилари яшириниши мумкин; озодликда юрган жиноят иштирокчилари жавобгарликдан қутулиш учун мамлакатни тарк этиши мумкин.

Жиноят ишларини юритишда ОАВ иштироки жиноят ишлари бўйича процессуал вазифаларни самарали ҳал қилувчи институт ҳисобланади. Мазкур вазият жиноят процессида адолатли ва асосли қарор қабул қилинишида фундаментал негизга эга. Жиноят процесси иштирокчилари ҳисобланган мансабдор шахслар камера объективлари ва жамоатчилик кўз олдида асосиз ва ноқонуний қарорлар қабул қилиш имкониятига эга бўлмайди. Жиноят ишларини ҳақида ОАВ да тарқалган хабарларни тергов ва суд даврида фойдаланишда вужудга келадиган процессуал муаммо – хабар ёки маълумот манбасини аниқлашдир. Манба ОАВ га хабар ёки маълумот етказган шахс (ташқилот) ҳисобланади. Алоҳида ҳолатларда манба ОАВ нинг ўзи учун ҳам аноним бўлиб қолади. Ахборот манбаини ҳуқуқий химоя қилиш қафолати ОАВ нинг ўз манбасига қафолат бериш имконини тақдим қилади.

Юридик нуктаи-назардан ахборот манбаини химоя қилиш журналистнинг ҳуқуқи бўлса, этик жиҳатдан – бурчдир. Манбадан гувоҳлик кўрсатмасини олиш зарурияти вужудга келганда, ундан ашёвий далилларни олиш лозим бўлса, содир этилган ёки тайёрланаётган бошқада жиноятлар ҳақида маълумотларга эга бўлса, умуман, уни ошкор қилиш зарурияти пайда бўлса – масала мураккаб тус олиши эҳтимол. Аммо, процессуал вазифалар ижро этилиши лозим. Жиноят ишларига оид ОАВ хабар ва маълумотлари мазмунини аниқлаш учун, албатта аҳолининг ҳуқуқий саводхонлиги масаласи ҳам зарурдир. Аммо, хабар ва маълумотларни жойлаштириш учун ОАВ нинг ташқилий ва техник имкониятларини кенгайтирилиши билан жамият эркинлиги кенгайиб, жиноятчиликка қарши кураш самарали бўлиб кетавермайди. Бу ерда ҳуқуқий маданият масаласи ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Жамоатчиликнинг ОАВ қай даражада жиноят ёки ижтимоий хавфли ҳодиса ҳақида хабар ва маълумотларни тақдим қила олишга имкони ва ҳуқуқи бор – буни ҳам англай олиш зарур. Ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий саводхонлик, ОАВ жиноят тафсилотларини қай даражада кенг оммага ёритишга ваколатли, ОАВ хабар ва маълумотларининг жиноят процессидаги ўрни ва роли – ушбу масалаларни англашда албатта хорижий давлатлар тажрибасини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Англо-саксон ҳуқуқ тизими давлати Буюк Британияда ҳам жиноят процессида ОАВ хабар ва маълумотлари судлов ишини юритиш даврида етарли даражада қўлланилади.

Жиноятларнинг ОАВ да ёритилиши Буюк Британияда биринчилардан, қарийб XVI асрдан бошланади. Дастлаб фантастик ҳикоя ва ривоятларни чоп этувчи ва оддий ишчилар оиласига мўлжалланган Penny Dreadfuls номли журнал, вақт ўтиши билан унинг аудиторияси викториан даврларга бориб саводли оммага айланади. Ва, ушбу журнал саводли аудиторияни ушлаб қолиш учун 1864 йилдан бошлаб “Полиция янгиликлари” рукни остида ҳақийқий содир этилган жиноятлар ҳақида мақолалар чоп эта бошлайди[1]. Мазкур ҳолат Буюк Британияда жиноят ҳақида хабар ва маълумотларнинг ОАВ да ёритилиши асосини яратди.

Ҳозирги даврда Буюк Британияда улкан медиакорпорациялар мавжуд. ОАВ нинг аксарият қисми газеталардан иборат (The Times, The Guardian, The Daily Telegraph, Observer, Financial Times, The Sun, The Daily Mail, Metro, Daily Express, Sunday Express, Daily Star, Daily Star Sunday, The Independent, The Telegraph, The Sunday Telegraph ва б.). Албатта, радио, телевидение, интернет ОАВ ва блогер ҳам мавжуд, аммо инглиз маданиятида кўпроқ газеталарга ишонишади. Энг машҳури – BBC. Буюк Британияда 2014 йилгача матбуотнинг асосий соҳавий регулятори Матбуот шикоятлари бўйича комиссия (The Press Complaints Commission, PCC, 1991) бўлиб, унга ҳар қандай шахс эълон қилинган материалнинг мазмуни устидан шикоят қилиши мумкин эди. Аммо 2011 йилда News of the World журналистлари етакчи сиёсатчилар, спорт ва шоу-бизнес юлдузлари, киролик саройи аъзолари ва хусусий шахсларнинг телефон суҳбатларини тинглаганликлари сабабли Буюк Британиянинг энг қадимги нашрларидан бирининг ёпилишига асос бўлган жанжал келиб чиқди. Буюк Британиянинг собиқ Бош вазири ҳам ёрдамчиликда айбланди. Унинг талабига кўра News of the World даги миш-мишларни фош қилиш кампанияси тўхтатилган эди [2, 49]. News of the World можароси авж олиб, охир-оқибат, жиноий таъқиб ва жиноят процессуал

ҳаракатлар натижаси ўларок, нашриёт раҳбари истеъфого чиқишига ва нашрнинг ёпилишига олиб келди (168 йиллик фаолиятдан сўнг). 2013 йилдаги ушбу можародан сўнг, Британия ҳукумати Британия ОАВ лари устидан назоратни кучайтириш ҳақида ўйлади ва экспертлар давлат цензурасининг яширин шаклини кўрган янги матбуотни назорат қилиш органини яратишга қарор қилди.

Натижада, 2014 йилда Буюк Британиядаги газета ва журнал саноатининг энг йирик мустақил регулятори бўлган The Independent Press Standards Organisation (IPSO) ташкил этилди. IPSO журналистиканинг энг юқори профессионал стандартларини тарғиб қилиш ва қўллаб-қувватлаш учун яратилганлиги эълон қилинади. Барча мурожаатлар ва шикоятлар "Таҳририят кодекси"га (Editor's Code of Practice) мувофиқ кўриб чиқилади, у шахсий ҳаёт дахлсизлигини, болалар, тиббиёт муассасалари беморлари ва камситилиш хавфи остида бўлиши мумкин бўлган турли хил озчиликларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи ахборотни тўплаш ва ёритиш қодаларини тавсифлайди. Мазкур қодалар жиноят ишларини юритишда ОАВ нинг иштироки, ҳуқуқ ва мажбуриятларига ҳам доир ҳисобланади. Англияда Жиноят-процессуал кодекс мавжуд эмас, процессуал қодалар бошқа масалаларни тартибга солувчи соҳавий қонунларда акс эттирилган. Процессуал манбалар суд прецеденти ва статутларга бўлинади. 300га яқин статут мавжуд: масалан, 1971 йилги Судлар, 1975 йилги Хоинлик ва 1984 йилги Полиция ва суд исботлови тўғрисидаги қонунлар.

Жиноят процессида ОАВ мақоми 2000 йил 30 ноябрда қабул қилинган «Ахборот эркинлиги тўғрисида»ги қонунда белгиланган. Ушбу қонун жиноят процесси манбаларидан бири ҳисобланиб, 88 моддадан иборат. Қонуннинг 30-моддасига мувофиқ, агар давлат тергов ва суд ишлари юриталаётган, жиноий таъқиб амалга оширилаётган, шахсга айблов эълон қилинган жиноят ҳақида маълумотга эга бўлса, ушбу маълумот ёпиқ ҳолатда деб ҳисобланади. Мазкур маълумотларни ОАВ га тақдим қилишдан ушбу моддага ҳавола қилиб, бош тортиш мумкин. Қонуннинг 31-моддасига мувофиқ эса, ОАВ эфирга 30-моддада кўрсатилган маълумотлардан бошқаларини жойлаштириши мумкин. Лекин, ёпиқ тарздаги маълумотни ОАВ қўлга киритса ва унда бошқа жиноятларга оид маълумотлар мавжуд бўлса, албатта уни ошкор этишга ҳақли.

Буюк Британияда ОАВ жиноят ишлари бўйича нихоятда фаол иштирок этади. Айнан ушбу ҳолатни тартибга солувчи соҳавий қонунда жиноят 10, тергов 46, жиноий таъқиб 16, суд атамалари 7 марта қўлланилган. ОАВ жиноят ҳақида хабар ва маълумотларни ўзлари тақдим қилса ёки эфирга жойлаштиради, полиция мазкур хабар ва маълумотни текшириш мажбуриятини олади. Текширувдан сўнг, агар шахсда жиноят содир этганлик аломатлари мавжуд бўлса, жиноий айбловчи ишни бошлашга доир ва «маълумот» деб номланувчи процессуал ҳужжатни қабул қилади. Буюк Британия жиноят процессида ишни қўзғатиш босқичи мавжуд эмас.

Буюк Британия қонунлари бўйича, тергов органлари жиноят иши бўйича терговни жиноят содир этилганлиги ҳақидаги маълумот келиб тушгандан бошлайди. ОАВ хабар ва маълумотларига оид ҳолатларда ҳам худди шундай тарзда жиноят ишини тергов қилиш бошланади. Демак, жиноятнинг содир этилганли бўйича хабар ва маълумотларни текшириш ва тегишли қарор қабул қилиш босқичи қонунда назарда тутилмаган.

Миллий қонунчилигимиздан фарқли уларок, Буюк Британия қонунларида жиноят тушунчаси ҳам келтирилмаган [3, 4]. ОАВ полиция ва судга жиноят ҳақида хабар ва маълумотлар тақдим қилганда ушбу маълумотларни олган манбани ошқора қилмаслик ҳуқуқига эга. Полиция ва суд эса ОАВ келтирган хабар ва маълумотларда далил мавжуд ёки мавжуд эмаслигини текширади.

Полиция ва суд ОАВ томонидан тақдим қилинган материаллар «бошқа учинчи шахс» томонидан қилинганлигига эътибор қаратади. Мазкур ҳолат қонунда «hearsay» деб номланиб, ОАВ келтирган далилларни мақбуллик нуктай-назаридан текширишни талаб қилади. Яъни, жиноят иши иштирокчиси бўлмаган, лекин жиноят ҳақида ОАВ га маълумот берган шахс кўрсатмалари ҳақида [4, 148]. Мазкур шахс жиноят иши бўйича муҳим гувоҳ бўлиши мумкин ва суд уни ошқора қилишни қонун доирасида талаб қилишга ҳақли.

Демак, Буюк Британия жиноят процессуал қонунчилигида ОАВ хабар ва маълумотларига оид қўйидагича ҳулосаларни келтириш мумкин: ОАВ жиноят процессида соҳавий қонун асосида фаол иштирок этади, цензура мавжуд эмас, фақат ОАВ фаолияти хусусиятидан келиб чиқиб, Бош редактор хонасида маълумотлар қайта кўриб чиқиши мумкин; Жиноят-процессуал кодекси, жиноят ва жиноят ишини қўзғатиш тушунчалари мавжуд эмас. ОАВ хабаридан кейин тергов бошланади, терговга қадар текширув институти йўқ.

АДАБИЁТЛАР

1. <https://www.sccjr.ac.uk/wp-content/uploads/2022/03/17-Crime-and-Media-2022.pdf>
2. Гаврилина С., Сурма И. Государство и СМИ в Великобритании: форма взаимодействия // Современная Европа, 2020, №1.
3. Вилейкин М.Ю. Особенности регистрации сообщений о преступлениях как повод возбуждения уголовного дела // Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство» 2019. Т. 7, № 1 (25) <http://esj.pnzgu.ru> ISSN 2307-9525 (Online)
4. Рогова А.А. Использование материалов СМИ в доказывании по уголовным делам на досудебных стадиях уголовного процесса: дисс...канд...юрисд...наук. – Нижний Новгород, 2016.

Резюме

Мақалада жынаят ислерин жүргизиўде ҒХҚ катнасыўына байланыслы Уллы Британияның тәжирийбеси талқыланған. ҒХҚ жынаят ҳақында хабар ҳәм мағлыўматларды өзлери усына ямаса эфирге жайластырса, полиция усы хабар ҳәм мағлыўматты тексеріў миннетлемесин алатуғыны ҳақында әмелий жуўмақлар келтирилген.

Таяныш сөзлер: ҒХҚ, жынаят процесси, тергеў, суд, полиция, прецедент, жынаят иси, баспасөз, хабар, мағлыўмат, хабар.

Резюме

Мақолада жиноят ишларини юритишда ОАВ иштирокига оид Буюк Британия тажрибаси таҳлил қилинган. Англияда Жиноят-процессуал кодекс мавжуд эмас, процессуал қоидалар бошқа масалаларни тартибга солишчи соҳавий қонунларда акс эттирилганлиги қайд этилди. ОАВ жиноят ҳақида хабар ва маълумотларни ўзлари тақдим қилса ёки эфирга жойлаштиради, полиция мазкур хабар ва маълумотни текшириш мажбуриятини олишига оид амалий ҳулосалар келтирилди.

Калит сўзлар: ОАВ, жиноят процесси, тергов, суд, полиция, прецедент, жиноят иши, матбуот, хабар, маълумот, ахборот.

Резюме

В статье анализируется Британский опыт участия СМИ в уголовном судопроизводстве. Было отмечено, что в Англии нет Сделаны практические выводы о том, что если в СМИ публикуются или транслируются новости и информация о преступлении, полиция будет обязана проверять эти новости и информацию.

Ключевые слова: СМИ, уголовный процесс, расследование, суд, полиция, прецедент, уголовное дело, пресса, новость, сообщение, информация.

Summary

The article analyzes the British experience of media participation in criminal proceedings. Practical conclusions are drawn that if news and information about a crime are published or broadcast in the media, the police will be obliged to verify this news and information.

Key words: media, criminal process, investigation, court, police, precedent, criminal case, press, news, message, information.

МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ИШДА ИШТИРОК ЭТУВЧИ ШАХСЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ ТАВСИФИ

Мадрахимова Г. Р.

Тошкент давлат юридик университети

Маъмурий суд ишларини юритиш тизими мамлакатда давлат органлари ва фуқаролар ўртасидаги муносабатларни адолатли ҳал этишни таъминлаш учун муҳим ҳуқуқий институт ҳисобланади. Бу жараёнда аризаچи сифатида иштирок этишининг ҳуқуқий мақоми аҳамиятли масала бўлиб, унинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, мақоми, ишлаш жараёнидаги роли бевосита маъмурий суд ишларини самарали юритишга таъсир кўрсатади.

Маъмурий суд ишларини юритиш субъектлари ишнинг натижасига таъсир қилиш даражасига, хусусиятига қараб турли позицияларига эга. Шу сабабли, маъмурий, шунингдек, фуқаролик субъектлари суд жараёнларида уч гуруҳга бўлинади. 1. Судлар; 2. Ишда иштирок этувчи шахслар; 3. Одил судловга қўмаклашувчи шахслар.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 37-моддасида маъмурий суд ишларини юритиш иштирокчиларининг таркиби келтирилган бўлиб, унда ишда иштирок этувчи шахслар ва одил судловни амалга оширишга қўмаклашувчи шахслар маъмурий суд ишларини юритиш иштирокчилари эканлиги кўрсатилган. Кодекснинг 38-моддасида ишда иштирок этувчи шахслар жумласига тарафлар, учинчи шахслар, прокурор, давлат органлари ва бошқа шахслар ўз зиммаларига юклатилган ваколатларга қўра ишда иштирок этувчи шахслар қириши назарда тутилган. Шу билан бирга, Кодекснинг 40-моддасида қўра аризаچи деганда ўзларининг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида талаб тақдим этаётган ёки манфаатларини қўзлаб талаб тақдим этилган фуқаролар ва юридик шахслар аризачилардир.

маъмурий низо келиб чиқадиган маъмурий ҳуқуқда, қоида тариқасида, икки турдаги иштирокчилар мавжуд:

а) давлат ва жамоат манфаатларини қўзлайдиган, давлат функцияларини бажарадиган ва уларни амалга ошириш ваколатига эга бўлган субъектлар; б) хусусий манфаатдор шахслар.

Бинобарин, бу борада давлат ва жамоат томони мажбурий субъект сифатида мавжуд, бошқа тараф эса, қоида тариқасида, уларнинг шахсий, алоҳида манфаатларини ифодаловчи хусусий шахслардир.

Хусусий шахс - бу жамоат манфаатлари ёки давлат ҳокимиятининг расмий ваколатлари ва мажбуриятларини эмас, балки ўзининг шахсий манфаатларини, ҳуқуқлари ва мажбуриятларини амалга оширадиган моддий маъмурий-ҳуқуқий ёки бошқа маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти (жисмоний ва юридик шахс). Ушбу шахс давлат органлари билан расмий хизмат муносабатларида эмас, балки давлат бошқаруви таркибига қарамасдан шахс сифатида ишдан ташқари муносабатларда бўлади (ad extra муносабатлари). Хусусий шахс ўз ҳуқуқлари билан бир қаторда қонуний манфаатини ҳимоя қилиш учун судга мурожаат қилади.

Илмий манбаларда, "процесс тарафи" тушунчаси "баҳсли моддий ҳуқуқий муносабатлар тарафи" тушунчасидан кенгрокдир. Гап шундаки, қонун нафақат ҳақиқатан ҳам мавжуд ҳуқуқий муносабатлар субъектларига, балки ўзларини бузилган ҳуқуқнинг эгаси деб ҳисоблаганларга ҳам ҳуқуқни ҳимоя қилиш учун судга мурожаат қилиш имкониятини беради. Лекин, амалдаги қонунчиликда мазкур масалада ўзига хос ёндашув мавжуд. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий судининг "Маъмурий органлар ва улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш бўйича суд амалиёти ҳақида"ги Пленум қарорининг 4-бандига қўра, манфаатдор шахс деганда, маъмурий органнинг қарори ёки унинг мансабдор шахси ҳаракати (ҳаракатсизлиги) қаратилган фуқаро ёки юридик шахс ёхуд бундай қарор, ҳаракат (ҳаракатсизлик) ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига дахл этган бошқа шахс тушунилади. Мазкур таърифдан кўриш мумкинки ўзларини бузилган ҳуқуқнинг эгаси деб ҳисоблаганларга ҳам ҳуқуқни ҳимоя қилиш учун судга мурожаат қилиши назарда тутилади.

Муайян ҳолатда аризачи бўлиш учун бузилган ҳуқуқни ҳимоя қилиш манфаатига мурожаат қилиш, баҳсли ҳуқуқнинг эғалик ҳуқуқини кўрсатиш кифоя. Ушбу қоида қонунчилик формуласида ўз ифодасини топади, унга кўра жисмоний ёки юридик шахслар ўзларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари бузилган ёки эътироз билдирилган деб ҳисобласалар, давлат органининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш талаблари билан судга мурожаат қилишлари мумкин.

Баҳсли моддий ҳуқуқий муносабатларнинг ҳақиқий ёки тахмин қилинаётган субъектлари баҳсли ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг ташувчиси сифатида процессда иштирок этадилар. Процесс давомида уларнинг ҳар бири нотўғри тараф деб топилиши мумкин. Бундан келиб чиққан ҳолда, иш бўйича қабул қилинган суд ҳал қилув қарори қонуний кучга киргунга қадар маъмурий иш юритиш тарафлари (аризачи ҳам, жавобгар ҳам) баҳсли моддий ҳуқуқий муносабатларнинг ҳақиқий эмас, балки тахмин қилинган субъектлари ҳисобланади.

Процесс иштирокчилари икки қарама-қарши процессуал шахс бўлиб, низо натижаларидан қонуний манфаатдордир. Моддий ҳуқуқий муносабатларда ваколатли субъект бўлиши керак бўлган шахснинг қонуний манфаатлари бошқа тарафни ўз фойдасига муайян ҳаракатларни амалга оширишга мажбурлаш ёки бу тарафни жавобгарликка тортиш орқали ўз ҳуқуқи ёки манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат. Маъмурий иш бўйича тарафлар ўз ҳуқуқларини тўлиқ ҳимоя қилиш имкониятидан, ижобий қарор қабул қилиш ва уни амалга ошириш истагидан иборат бўлган процессуал манфаатларга эга. Суд қарори уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларига моддий маъмурий ва ҳуқуқий жиҳатдан таъсир қилади, улардан бирига бирон бир фойда олиш ёки йўқотиш имкониятини беради. Мисол учун, маъмурий органининг қарорига эътироз билдириш тўғрисидаги иш бўйича маъмурий ариза қаноатлантирилса, ариза берган тараф ушбу талаб бўйича ҳуқуқни амалга ошириш имкониятига эга бўлади ва ютказган тараф мажбурият юклайди. Шунга кўра, тарафларнинг процессуал функциялари бир биридан фарқ қилади. Процессуал функциялар деганда тарафларнинг ҳар бир функцияни белгилаб берувчи манфаатларига мувофиқ амалга ошириладиган ва ушбу шахслар ташувчиси бўлган муайян мақсадли фаолият соҳалари тушунилади. Суднинг функцияларидан ташқари процессуал функцияларга қуйидагилар киради: а) давлат органининг қарори ёки хатти-ҳаракатлари билан бузилган ҳуқуқни ҳимоя қилиш талабини амалга ошириш функцияси; б) эътироз билдириш ва бошқа процессуал ҳаракатлар орқали процессуал ҳимоя қилиш функцияси.

Шундан келиб чиққан ҳолда, "тарафлар" тушунчаси одатда ўзларининг моддий ва процессуал манфаатларини ҳимоя қилиш учун ҳаракат қиладиган, низони ҳал қилиш учун суд ҳаражатларини ўз зиммасига оладиган ва умумий қоида сифатида баҳсли моддий ҳуқуқий муносабатлар субъектларини белгилаш муҳим бўлган шахслардир.

Айрим илмий манбаларда тарафлар деганда қарама-қарши юридик манфаатларга эга бўлган, субъектив ҳуқуқлар ва ҳуқуқий мажбуриятлар тўғрисидаги маъмурий-ҳуқуқий низо доирасида субъектлар сифатида судда иштирок этишини назарда тутати.

Ҳуқуқ доктринасида маъмурий суд иш юритувида тарафлар тушунчаси мавжуд бўлмайди, деган қараш устуворлик қилган. Бу ёндашув муайян назарий кўрсатмалар ва эскирган процессуал стереотипларга асосланган. Хусусан, моддий маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар субъектларининг тенгсизлиги туфайли улар ўртасида маъмурий-ҳуқуқий низо келиб чиқиши мумкин эмас, деган ғоя устунлик қилди. Бундан келиб чиқадики, маъмурий ишлар бўйича суд процесси маъмурий даъво билан эмас, балки ариза билан кўзгатилиши керак. Шунга кўра, суд процесслари давлат органларининг қарорлари ва ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) қонунийлиги устидан суд назоратига айланди. Мазкур органларнинг ўзлари, шунингдек, уларнинг қарорларига эътироз билдирган шахслар процесс иштирокчилари сифатида тан олинмаган, уларнинг мақоми аниқ белгиланмаган.

Кўпгина муаллифларнинг фикрига кўра, давлат ва унинг органлари юридик шахс деб ҳисобланиши мумкин эмас. Уларнинг фикрича, давлат органларини юридик шахс мақомидан халос қилиш керак. Лекин, давлат ва унинг органлари ўртасидаги юридик шахс мақомига номувофиқликни юридик шахсларнинг махсус тоифаси – оммавий (маъмурий) тан олиш йўли билан ҳал қилиш керак, деб ҳисоблаймиз. **Биринчидан**, ҳар қандай ҳуқуқий муносабатларда, шу жумладан мулкӣ муносабатларда давлатнинг (унинг органларининг) жамоат позициясига шубҳа йўқ. Давлат жамиятнинг ташкилий ва жамоат таркибий қисмидир ва шу сабабли мулкӣ муносабатларда бошқа иштирокчилар билан тенг равишда иштирок эта олмайди. Шубҳасиз, давлат фуқаролик кодекси билан тартибга солинадиган муносабатларда ҳам "оддий" юридик шахс эмас. **Иккинчидан**, давлатни оммавий ҳуқуқнинг юридик шахси сифатида тан олган ҳолда, бутун халқ ушбу шахснинг таркибий қисми сифатида қаралиши керак, чунки давлат фуқаролар учун бевосита ўзлари орқали мавжуддир. **Учинчидан**, давлат ва ҳуқуқ назарияси узок вақтдан бери давлатни оммавий ҳуқуқий ҳодиса сифатида белгилаб келган. Албатта, юридик шахс органлари ва давлат органлари ўртасида ўхшашликлар мавжуд, аммо давлат органлари фақат давлат юридик шахсларига хос бўлган ваколатларга эга, яъни ҳокимият ваколатлари, улар ўз навбатида махсус усуллар ва усуллар билан амалга оширилади. Бизнинг фикримизча, фуқаролик ҳуқуқи ўз нормалари билан иктисодий фаолият билан шуғулланадиган субъектларнинг барча хилма-хиллигини тартибга сола олмайди, шунинг учун давлат ва унинг органлари оммавий юридик шахс сифатида қаралиши керак. Бизнинг фикримизча, давлатнинг мулкӣ муносабатлардаги иштироки маъмурий юстицияга бўйсунадиган маъмурий ҳуқуқ билан тартибга солиниши керак.

Таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддасига кўра, ҳар кимга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор

шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади.

Маъмурий суд иш юритувида аризачининг процессуал ва ҳуқуқий мақомини олиш иккита шартнинг мавжудлигини назарда тутди: 1) жисмоний шахснинг процессуал ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти сифатида судда ҳаракат қилиши унда ҳуқуқий лаёқат, яъни маъмурий процессуал ҳуқуқ ва маъмурий муомала лаёқати бор-йўқлигига эътибор қаратилади. 2) маъмурий низони ҳал қилишда субъектга унинг ҳуқуқлари ёки қонуний манфаатларини бузувчи давлат органининг баҳсли қарори ёки ҳаракати (ҳаракатсизлиги) туфайли жисмоний шахснинг қонуний манфаатлари бузилиши керак.

Маъмурий суд иш юритувининг иштирокчиси бўлишнинг умумий шarti сифатида қонунга мувофиқ ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилиш ҳуқуқига эга бўлган барча жисмоний шахсларга эгадир.

Агар бу ҳуқуқ мавжуд бўлса, нафақат юридик шахслар, балки юридик шахс мақомига эга бўлмаган ташкилотлар ҳам маъмурий иш юритиш иштирокчиси бўлиши мумкин. Хорижий қонунчиликда юридик шахс сифатида рўйхатдан ўтмаган бирлашмаларнинг маъмурий иш юритишда махсус расмийликларсиз иштирок этишига рухсат этилади. Узоқ вақт давомида фақат юридик шахслар судда иштирок этишлари мумкин, деб ҳисоблаб келинган. Бундай ёндашув бошқа ҳуқуқ соҳаларининг, шу жумладан маъмурий ҳуқуқнинг субъектлари юридик шахс бўлмаган, шу жумладан маъмурий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ҳолларда тараф сифатида иштирок этувчи коллегиял шахслар бўлиши мумкинлигини ҳисобга олинмади.

Юридик шахс мақомига эга бўлмаган жамоавий шахс сифатида ташкилотлар учун маъмурий процессуал ҳуқуқий лаёқатнинг пайдо бўлиши ягона шарт - бундай иштирок этиш имконияти тўғрисида қонунчиликда белгиланиши билан аҳамиятли. Мисол учун, хорижий мамлакатларда маҳаллий давлат ҳокимияти органларига сайлов санасини белгилаш тўғрисидаги низолар юридик шахс бўлмаган жамоат бирлашмалари ёки уларнинг ҳудудий ва маҳаллий бўлинмаларининг аризалари асосида судлар томонидан кўриб чиқилади. Юридик шахс бўлмаган ташкилотлар нафақат ариза берувчи, балки жавобгарнинг процессуал мақомида ҳам ҳаракат қилишлари мумкин. Масалан, юридик шахс бўлмаган жамоат бирлашмалар ва диний ташкилотларнинг фаолиятини тақиқлаш тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиши жараёни бўйича хорижий амалиёт мавжуд.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, маъмурий суд иш юритувида ишда иштирок этувчи шахсларнинг таснифи юзасидан бугунги кундаги қонунчилик таснифига қўшилган ҳолда соҳага даъво институтини кириб келиши ва оммавий ҳуқуқда юридик шахснинг ҳуқуқий мақоми жиҳатдан уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эгадир.

АДАБИЁТЛАР

1. Административное судопроизводство: Практикум: Учебное пособие / Под ред. В.В. Яркова, К.А. Малюшина. – М.: Статут, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишлари юритиш тўғрисидаги кодекс // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.10.2018 й., 03/18/496/2043-сон(lex.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекс // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.12.2023 й 03/23/887/0972-сон(lex.uz)
4. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекс // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.12.2023 й.03/23/888/0976-сон(lex.uz)
5. Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида” Қонуни, // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2001 йил 257-2-сон(lex.uz)
6. Г.Мадрахимова Маъмурий суд ишларини юритишда процессуал ҳуқуқлардан инсофли фойдаланиш масаласи// Шарқ тарихи, сиёсати ва ҳуқуқи журнали, DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhp1-04-07-07.>, 2024 ISSN 2181-2780
7. Rec 2005 (63) / <https://www.venice.coe.int/>
8. WebForms/pages/?p=01_Presentation&lang=RU
9. Ш.Шайзаков Маъмурий суд ишларини юритишда прокурор иштирокининг ташкилий-ҳуқуқий асослари// 2021 й
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.03.2020 йилдаги 5953-сонли Фармони билан қабул қилинган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури 52-банди.[электрон кутубхона], қаралган вақти 10.08.2021 й. <https://lex.uz/docs/4751561>
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ижтимоий-иқтисодий ислохотларни амалга ошириш, мамлакатни модернизация қилиш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг ишончли ҳимоясини таъминлашда прокуратура органларининг ролини кучайтириш тўғрисида” 2017 йил 18 апрелдаги ПФ-5019-сонли Фармони / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 17-сон, 285-модда.
12. Михайлова Е.В. Правовой статус сторон в гражданском процессе Российской Федерации. Автореф. дисс... канд. юрид.наук. – Самара, 2004. – 26 с.

Маъмурий суд ишларини юритишда ишда иштирок этувчи шахсларнинг ҳуқуқий тавсифи

Резюме. Мақолада маъмурий суд ишларини юритишда ишда иштирок этувчи шахсларнинг ҳуқуқий тавсифи ёритилган. Шунингдек мақолада маъмурий суд иш юритувининг иштирокчиси бўлишнинг умумий шarti сифатида қонунга мувофиқ ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилиш ҳуқуқи таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: маъмурий суд, шахсларнинг ҳуқуқий тавсифи, юридик шахс, ҳуқуқий муносабатлар.

Правовая характеристика лиц, участвующих в административном судопроизводстве

Резюме. В статье дается правовая характеристика лиц, участвующих в делах об административных правонарушениях. Также в статье анализируется право на защиту своих прав и законных интересов через суд как общее условие участия в производстве по административному делу.

Ключевые слова: административный суд, правовая характеристика лиц, юридическое лицо, правоотношения.

Legal description of the persons involved in the administrative court proceedings

Resume. The article describes the legal description of the persons involved in administrative court cases. Also, the article analyzes the right to protect one's rights and legal interests through the court as a general condition for being a participant in the proceedings of the administrative court.

Key words: administrative court, legal description of persons, legal entity, legal relations.

УДК 343.13

ЖИНОЯТ ИШНИНИ ТЎХТАТИБ ТУРИШГА ОИД НОРМАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Тўхташев Ш.А.

Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси

Сўнгги йилларда мамлакатимизда суд-ҳуқуқ соҳасидаги тизимли ва изчил ислохотларнинг амалга оширилаётганлиги, аввало, жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигида назарда тутилган инсонпарварлик тамойилларини кучайтиришга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир.

Мазкур йўналишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21-октябрдаги “Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислох қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш қафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4850-сон[1], 2017 йил 30 ноябрдаги “Суд-тергов фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари қафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5268-сон[2], 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш қафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6041-сон [3] ва 2022 йил 28 январдаги “2022 – 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон [4] Фармонларининг қабул қилинди. Амалиётда жиноят иши бўйича суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш давомида тергов ва бошқа процессуал ҳаракатларни ўтказишга тўсқинлик қилувчи ҳолатлар юзага келадики, уларни бартараф этмасдан терговни давом эттиришнинг ҳам ёки бўлмаса ишни тамомлашнинг ҳам имкони бўлмаяпти. Бироқ, ушбу ҳолатлар дастлабки терговни тўхтатиш асослариға киритилмаганлиги сабабли, кўп ҳолатларда тергов органлари томонидан жиноят ишини асоссиз тўхтатилишиға олиб келади.

Маълумотларға кўра, тергов органлари томонидан 2020-2024 йилларда 50981 та жиноят ишларининг терговни тўхтатилган бўлиб, шундан 42275 таси ёки 82.9 фоизи айбланувчи тариқасида иштирок этиши жалб қилиниши лозим бўлган шахс аниқланмаганлиги (жиноят фош этилмаганлиги) асоси билан тўхтатилган.

Бироқ, тўхтатилган жиноят ишларининг аксарият қисми Жиноят процессуал кодексининг (ЖПК) 364-моддасида белгиланган дастлабки терговни тўхтатиш асосларида мавжуд бўлмаган, бироқ, жиноят иши бўйича дасталки терговни давом эттиришға реал тўсқинлик қиладиган ҳолатлар тергов соҳасида юзага келаётган бошқа масалалар бўйича тўхтатаётганини кўрсатмоқда.

2020-2024 йилларда ЖПКнинг 364-моддаси биринчи қисмининг биринчи бандига кўра, айбланувчи тариқасида иштирок этишға жалб қилиниши лозим бўлган шахс аниқланмаганлиги важи билан прокуратура органларида тўхтатилган жиноят ишлари таҳлил қилинганида, уларнинг амалда иш бўйича тайинланган ҳужжатли тафтиш хулосасини олмасдан туриб қарор қабул қилиш имкони йўқлиги сабабли, иш бўйича тайинланган экспертиза хулосасини олмасдан туриб қарор қабул қилиш имкони йўқлиги сабабли, депутатни жиноий жавобгарликка тортиш ҳақидаги прокурор тақдимномаси тегишли Кенгашлар томонидан рад қилинганлиги сабабли, табиий ва техноген характерға эға бўлган фавқулодда ҳолат (коронавирус пандемияси) эълон қилинганлиги муносабати билан, хорижий давлатға ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш ҳақида юборилган сўровномаға жавоб олмасдан туриб қарор қабул қилиш имкони йўқлиги сабабли жиноят ишларининг терговни тўхтатилган.

Жиноят-процессуал қонунчилигида терговни тўхтатиш асослари аниқ ва қатъий белгиланмаганлиги, куйидаги салбий ҳолатлар ва қонун бузилишлар содир этилишини келтириб чиқармоқда: **Биринчидан**, айбланувчи тариқасида иштирок этишға жалб қилиниши лозим бўлган шахс аниқланмаганлиги асоси билан терговни тўхтатилган жиноят ишларининг аниқ ҳисоби юритилмаяпти, юритилаётган ҳисоботлар билан ҳақиқий ҳолат ўртасида жиддий тафовутлар мавжуд; **Иккинчидан**, терговни тўхтатиш асослари аниқ белгиланмаганлиги, ўз навбатида шахсға нисбатан кўзғатилган ва айбланувчилар доираси аниқ бўлган жиноят ишларини ҳам иш бўйича якуний қарор қабул қилиш имкони йўқлиги сабабли ЖПКнинг 364-моддаси 1-қисми 1-бандига асосан ноконуний тарзда тўхтатишға сабаб бўлмоқда; **Учинчидан**, тергов юқоридаги асосларға кўра тўхтатилганидан сўнг, ички ишлар органларида улар юзасидан тезкор излов жилдлари ёки тезкор-излов карталари юритилиб, фош этилмаган жиноятлар сони сунъий кўпаймоқда; **Тўртинчидан**, терговни тўхтатилган ишларнинг уларни тўхтатилиши сабаб бўлган ҳолатлар тезкор хизматларнинг бирор-бир аралашувисиз бартараф этилганидан сўнг (масалан, тафтиш ёки

экспертиза тамомланиб, хулосалар тақдим қилинганидан) тергов қайта тиклангач, тезкор-излов жилдлари ёки тезкор-излов карталари юритиш тамомланиб, жиноятларни фош этиш кўрсаткичлари сунъий яхшиланмоқда; **Бешинчидан**, шахсга нисбатан ёки айбланувчилар доираси аниқ бўлган фирибгарлик, ўзлаштириш ва растрата қилиш йўли билан талон-торож қилиш, мансабдорлик ва бошқа шу тоифадаги жиноят ишлари бўйича тергов асоссиз равишда тўхтатилиши, коррупциявий омиллар келиб чиқишига сабаб бўлмоқда; **Олтинчидан**, жиноят-процессуал қонунчилигидаги ушбу бўшлиқлар сабабли, терговни тўхтатиш қонунийлиги устидан таъсирчан назорат ўрнатиш имконияти чекланади, ҳамда жиноят ишларини иш юритувга олиш биланок иш бўйича ҳақиқатни аниқлаш чораларини кўриш ўрнига турли баҳоналар билан терговни тўхтатиб қўйишга шароит яратилмоқда.

Амалдаги ЖПКнинг 223-моддасида иммунитет ҳуқуқига эга бўлган шахслар доираси белгиланган бўлиб, бу тоифадаги шахслар ички ишлар органига ёки ҳуқуқни муҳофаза қилувчи бошқа органга олиб келиниши мумкин эмаслиги, фақатгина мазкур тартиб шахс жиноят устида ёки бевосита уни содир этганидан кейин қўлга тушсагина татбиқ этилмаслиги кўрсатилган. Ўзбекистон Республикасининг “Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгаши депутатининг мақоми тўғрисида”ги 2004 йил 2 декабридаги қонунининг 11-моддаси 2-қисмида “Тегишли халқ депутатлари Кенгашининг розилигисиз депутат мазкур ҳудудда жиноий жавобгарликка тортилиши, ушлаб турилиши, камокқа олиниши ёки суд тартибда бериладиган маъмурий жазога тортилиши мумкин эмас”лиги бўйича қоида келтирилган. Табиийки бу ҳолатда бизда савол туғилиши мумкин, яъни, суриштирувчи, терговчи бундай тоифадаги шахсларга нисбатан жиноят ишларини тергов қилиш давомида иммунитет ҳуқуқидан маҳрум қилиш билан сўровлар юборганида жиноят ишининг тақдири қандай бўлади.

Демак, депутатлар, сенаторлар, судьялар, судьялар олий кенгаши аъзолари, прокурорлар ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакилни жиноий жавобгарликка тортиш тегишли органнинг рухсати (розилиги) билан амалга оширилади. Маълумки, шахсни жиноий жавобгарликка тортиш, унга нисбатан жиноят ишнинг кўзғатиш, ишга гумон қилинувчи ёки айбланувчи сифатида иштирок этишга жалб қилишдан бошланади. Бу ўринда, агар тегишли орган ёки мансабдор шахс дахлсизлик ҳуқуқига эга бўлган шахсларга нисбатан жиноят ишнинг кўзғатиш, уларни ишга гумон қилинувчи ёки айбланувчи тариқасида жалб қилишга рухсат бермаса, ишнинг кейинги тақдири қандай кечади деган ўринли савол келиб чиқади. Бундай ҳолат амалдаги жиноят-процессуал қонун нормалари билан тартибга солинмаганлиги туфайли, ушбу иш юзасидан бирор тўхтамга келиб бўлмайди. Яъни ишнинг тўхтатишнинг ҳам, давом эттириш ёки тугатишнинг ҳам имконияти йўқ. Яна ҳам аниқроқ қилиб айтганда, ишнинг юритаётган суриштирувчи ёки терговчи бу вазиятда боши берк қўчага кириб қолади.

Юртимизда 2020 йилнинг 16 мартда Республика ҳудудида коронавирус инфекцияси тарқалишига қарши курашиш мақсадида карантин эълон қилинди. Карантин вақтида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 23 мартдаги 176-сон қарорига кўра, фуқароларнинг ҳаракатланиши чекланди ва ҳудудий вилоят ИИБ бошлиқларининг буйруғига ёки бўлмаса суд раҳбариятининг кўрсатмасига асосан иш юритувда мавжуд бўлган жиноят ишлари бўйича суриштирув, дастлабки тергов ҳамда суд муҳокамаси тўхтатилган. Мазкур масала юзасидан бир қатор саволлар юзага. Суриштирув ва дастлабки тергов ҳаракатларини амалга ошириш давомида айбланувчи аниқ бўлган ҳолатларда суриштирувчи, терговчилар дастлабки терговни процессуал қонунчилик нуктаи назаридан айнан қайси асоси билан тўхтиши мумкин. Мамлакатимиз ҳудудида чекловчи тадбирлар (карантин) ёки фавқулодда ҳолат жорий этилганда, жиноят иши бўйича тергов ҳаракатларини амалга оширишнинг вақтинча имкони бўлмаган ҳолларда тергов органи қандай йўл тутиши керак. Мазкур муаммо ҳам миллий қонунчилигимизда ўз аксини топмаган.

ЖПКнинг 64-бобида судлар, прокурорлар, терговчилар ва суриштирув органларининг хорижий давлатлар ваколатли органлари билан ўзаро ҳамкорлигининг тартиби тўғрисидаги асосий қоидалар белгиланган.

Унга мувофиқ ЖПКда назарда тутилган процессуал ҳаракатларни хорижий давлат ҳудудида бажариш зарур бўлганда суд, прокурор, терговчи, суриштирувчи мазкур ҳаракатлар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ ёки ўзаролик принципи асосида хорижий давлатнинг ваколатли органи томонидан бажарилиши тўғрисида сўров киритади. Иш бўйича шахс айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилинган, барча тергов ҳаракатлари терговчи томонидан олиб борилган. Лекин ишнинг ҳар томонлама тўла ва холисона бўлишини таъминлаш мақсадида хорижий давлат ҳудудида жиноят иши бўйича процессуал ҳаракатларни бажариш тўғрисидаги сўров юборилган. Сўровга жавоб келиши лозим бўлган муддат қонунчиликда белгиланмаган ва буни белгилашнинг имконияти ҳам мавжуд эмас. Шунда ҳақли савол туғилади, яъни иш бўйича ўтказилиши лозим бўлган барча тергов ҳаракатлари ўтказилган, лекин жиноят иши бўйича процессуал ҳаракатларни бажариш тўғрисида юборилган сўровга хорижий мамлакатдан жавоб келмаган. Бу ҳолатда суриштирувчи, терговчи ёки суд қандай йўл тутиши белгиланмаган.

ЖПКнинг 320³-моддасининг биринчи қисмидан келиб чиқадиган бўлсак, жиноят ишнинг тергов қилиш суриштирув ва дастлабки тергов шаклида амалга оширилади. Ушбу кодекснинг 381⁹-моддасининг биринчи қисмида суриштирув суриштирувчининг қарори билан Кодекснинг 364-371-моддаларида белгиланган ҳолларда ва тартибда тўхтатилиши кўрсатилган. ЖПКнинг 364-моддасининг биринчи қисмида дастлабки терговни тўхтатиш асослари келтириб ўтилган бўлиб, суриштирувни тўхтатиш асослари келтирилмаган.

Бу ҳуқуқни қўллаш жараёнида муайян коллизияларни келтириб чиқаришга сабаб бўлади.

Биринчидан, иммунитет ҳуқуқига эга бўлган шахсларга нисбатан жиноят ишларини юритиш билан боғлиқ муаммолар мавжуд. Хусусан: Иммунитет ҳуқуқидан маҳрум қилиш бўйича сўровлар юборилганида тегишли ташкилот томонидан рад жавоби берилган ҳолатларда суриштирувчи ва терговчиларнинг ҳаракатлари аниқ белгиланмаган; Иммунитет ҳуқуқига эга шахсларни жиноий жавобгарликка тортиш учун розилик олиш жараёнида ишнинг юритилиши тўхтатилиши лозимлиги қонунда акс эттирилмаган.

Иккинчидан, фавқулодда ҳолат ва карантин шароитида суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш масаласи қонунчиликда тартибга солинмаган. Бу эса амалиётда қуйидаги муаммоларни келтириб чиқармоқда:

Карантин даврида процессуал ҳаракатларни амалга оширишнинг имконияти чекланганда ишни юритишни тўхтатиш асослари мавжуд эмас; Фавқулодда ҳолат режими жорий этилганда тергов ҳаракатларини ўтказиш имконияти бўлмаган ҳолларда ишни тўхтатиш механизми белгиланмаган.

Учинчидан, экспертиза ўтказиш даврида суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш масаласи бўйича қонунчиликда зиддиятли ҳолатлар мавжуд: ЖПКнинг 569-моддасида назарда тутилган экспертиза ўтказиш даврида ишни тўхтатиш қоидалари 364-модда билан мувофиқлаштирилмаган;

Экспертиза ўтказиш даврида процессуал ҳаракатларни амалга ошириш тартиби аниқ белгиланмаган.

Тўртинчидан, ЖПКда назарда тутилган процессуал ҳаракатларни хорижий давлат ҳудудида бажариш зарур бўлганда суд, прокурор, терговчи, суриштирувчи мазкур ҳаракатлар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ ёки ўзаролик принципи асосида хорижий давлатнинг ваколатли органи томонидан бажарилиши тўғрисида сўров киритганда, унинг жавобини кутиш билан боғлиқ жараён ҳуқуқий тартибга солинмаган. Киритилган сўровга жавоб бериш муддатлари ва тартиби чет эл давлатининг ҳуқуқ тизими билан боғлиқ бўлганлиги сабабли бунини қатъий қонун билан тартибга солиб қўйишни имкони ҳам йўқ. Жиноят ишини тўхтатиб туриш жараёнини тартибга солувчи нормаларни таҳлил қилар эканмиз, ушбу жараёнда юқоридаги муаммолар вазиятлар мавжуд бўлганда ҳуқуқий ечим йўқлигини кўрдик.

Шу сабабдан қонун нормаларидаги баъзи бир муаммоларни бартараф этиш юзасидан қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Суриштирув ва тергов муддатининг асоссиз равишда ўтиб кетишини олдини олиш мақсадида амалдаги Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексининг 364-моддаси биринчи қисмини *“Жиноят содир этган шахсни ёки айбланувчини дахлсизлик ҳуқуқидан маҳрум қилиш, шахсни жиноий жавобгарликка тортиш юзасидан розилик бериш ҳақида сўров юборилганда”*, деган 5-банд билан тўлдириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бу банд жиноят ишини тўхтатиш асосларига киритилса амалиётда қўллаб ноқонуний қарорларни қабул қилинишини олдини олади.

2. Хорижий давлатларнинг Жиноят-процессуал қонунчилигига назар ташлайдиган бўлсак, Арманистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 31-моддаси биринчи қисми 5-бандида “жиноят иши бўйича иш юритишга вақтинча тўсқинлик қилувчи форс-мажор ҳолатлари мавжуд бўлса” дастлабки терговни тўхтатиш мумкин. Қозоғистон Республикаси ЖПКнинг 45-моддаси биринчи қисми 4-бандида “жиноят иши бўйича кейинги иш юритишга вақтинча тўсқинлик қиладиган “форс-мажор” ҳолатлари юзага келганда дастлабки терговни тўхтатиш мумкинлиги акс эттирилган. Россия ЖПКнинг 208-моддасига кўра, “сафарбарлик пайтида ёки уруш пайтида ҳарбий хизматга гумон қилинувчи ёки айбланувчининг Россия Федерацияси Қуролли Кучларига чақирилиши ёки сафарбарлик пайтида, ҳарбий ҳолат пайтида ёки уруш пайтида Россия Федерацияси Қуролли Кучларида ҳарбий хизмат учун шартнома тузиш, шунингдек уларнинг ҳарбий хизмати Россия Федерацияси Қуролли Кучларида сафарбарлик пайтида, ҳарбий ҳолат пайтида ёки уруш пайтида” дастлабки тергов тўхтатилиши мумкинлиги тўғрисида норма кўрсатиб ўтилган.

Юқорида билдирилган фикрлар, хорижий давлатлар тажрибасини ўрганган ҳолда амалдаги ЖПКнинг 364-моддасининг биринчи қисмини *“табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлар юзага келганида, фавқулодда ёки ҳарбий ҳолат эълон қилинганида”* жиноятларни тергов қилиш тўхтатилади деган 6-банд билан тўлдириш лозим.

3. Хорижий давлатлар тажрибасида Қозоғистон Республикаси ЖПКнинг 45-моддаси биринчи қисми 9-бандида айнан “экспертиза тайинланганда” дастлабки терговни тўхтатиш бўйича банд мавжудлиги ҳам мазкур асосни миллий қонунчилигимизга имплементация қилиш зарурияти борлигини кўрсатди.

Шу сабабдан юқорида қайд этилган асослар ҳамда хорижий давлат тажрибаларидан келиб чиқиб, ЖПКнинг 364-моддасини 1-қисмини *“шахс психиатрия экспертизасини ўтказиш учун тиббий муассасада стационар кўрикда бўлганда, башарти бошқа процессуал ҳаракатларни ўтказишга зарурат бўлмаса”* суриштирув ва дастлабки тергов тўхтатиб турилиши мумкинлиги тўғрисида янги 7-банд билан тўлдириш лозим.

4. Амалдаги ЖПКда назарда тутилган процессуал ҳаракатларни хорижий давлат ҳудудида бажариш зарур бўлганда суд, прокурор, терговчи, суриштирувчи мазкур ҳаракатлар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ ёки ўзаролик принципи асосида хорижий давлатнинг ваколатли органи томонидан бажарилиши тўғрисида сўров киритган тақдирда ва мазкур жиноят иши бўйича барча тергов ҳаракатлари ўтказилган бўлса жиноят ишини тўхтатиб туриш имконияти берилишини объектив зарурияти бор.

Билдирилган фикрлар ва хорижий давлат тажрибаларидан келиб чиқиб, ЖПКнинг 364-моддасини 1-қисмини *“ушбу кодекснинг 64-бобида назарда тутилган тартибда юридик ёрдам олиш билан боғлиқ бўлган процессуал*

ҳаркатларни хорижий мамлакат ҳудудида бажариши ҳақида топириқ юборилган ва ушбу процессуал ҳаракатларни ўтказмасдан туриб шахснинг айбилик масаласини ҳал қилишнинг имкони бўлмаган ҳолатда” суриштирув ва дастлабки тергов тўхтатиб турилиши мумкинлиги тўғрисидаги янги 8-банд билан тўлдириш лозим.

5. Процессуал ҳаракатлар тергов ҳаракатларига қараганда анча кенг тушунча ҳисобланади, шу сабабли ЖПКнинг 569-моддасида кўрсатилган “процессуал ҳаракатлар” деган жумлани “тергов ҳаракатлари” жумласига ўзгартириш мақсадга мувофиқ бўлади.

ЖПКнинг 364-моддасининг биринчи қисмида дастлабки терговни тўхтатиш асослари келтириб ўтилган бўлиб, суриштирувни тўхтатиш асослари келтирилмаган. Шунингдек, ЖПКнинг 381⁹-модда ҳаволаки норма бўлиб, унга кўра суриштирув суриштирувчининг қарори билан ушбу Кодекснинг 364-371-моддаларида белгиланган ҳолларда ва тартибда тўхтатилиши белгиланган. Шу сабабдан ЖПКдан 381⁹-моддаси биринчи ва иккинчи қисмларни чиқариб ташлаб, ЖПКнинг 45-бобини қуйидаги тахрирда баён этиш лозим: “*Жиноят ишини тергов қилишни тўхтатиш ва қайта тиклаш*”

Хулоса қилиб айтганда, жиноят ишини тўхтатиш институтини такомиллаштириш орқали жиноят процессида қонунийликни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш мумкин. Бу эса пировард натижада суд-ҳуқуқ тизимини янада демократлаштириш ва либераллаштиришга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги “Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4850-сон Фармони // URL: <https://lex.uz/docs/3050491>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 ноябрдаги “Суд-тергов фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ- 5268-сон Фармони// URL: <https://lex.uz/docs/3432426>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6041- сон Фармони URL: <https://lex.uz/docs/4939467>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 – 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони URL: <https://lex.uz/docs/5841063>

Резюме. Мақолада Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган изчил ислохотлар, жумладан, жиноят-процессуал қонунчилигини инсонпарварлик тамойиллари асосида такомиллаштиришга оид масалалар таҳлил қилинган. Жиноят ишлари бўйича суриштирув ва дастлабки тергов жараёнидаги тўхтатиш ҳолатлари, уларнинг сабаблари ва қонунчиликдаги мавжуд бўшлиқлар батафсил ёритилган. Шунингдек, жиноят ишларини тўхтатиш асосларининг аниқ белгиланмаганлиги амалда қандай муаммоларни келтириб чиқараётганлиги, жумладан, коррупциявий хавфларни ошириши, суриштирув ва тергов жараёнларидаги таъсирчан назоратнинг чекланганлиги қайд этилган.

Калит сўзлар: қонунчиликдаги бўшлиқлар, жиноят ишини тергов қилиш, иммунитет ҳуқуқи.

Резюме. В статье проанализированы последовательные реформы, проводимые в Республике Узбекистан в судебно-правовой сфере, в частности, вопросы совершенствования уголовно-процессуального законодательства на основе принципов гуманизма. Подробно освещены случаи приостановления на стадии дознания и предварительного следствия, их причины и существующие пробелы в законодательстве. Также указано, какие проблемы на практике вызывает отсутствие четкого определения оснований для приостановления уголовных дел, в том числе рост коррупционных рисков и ограниченность эффективного контроля в процессе дознания и следствия.

Ключевые слова: пробелы в законодательстве, расследование уголовных дел, право иммунитета.

Summary. The article analyzes the consistent reforms being implemented in the judicial and legal sphere in the Republic of Uzbekistan, particularly the improvement of criminal procedural legislation based on the principles of humanism. It provides a detailed review of cases of suspension during the inquiry and preliminary investigation stages, their causes, and the existing gaps in legislation. Furthermore, it highlights the practical issues caused by the lack of clear definitions for the grounds of suspending criminal cases, including the increase in corruption risks and the limited effectiveness of oversight in inquiry and investigation processes.

Key words: legislative gaps, investigation of criminal cases, immunity rights.

ҚАРАҚАЛПАҚ МӘМЛЕКЕТЛИК УНИВЕРСИТЕТИНИҢ МИЗДАХКАН АРХЕОЛОГИЯЛЫҚ ИЗЕРТЛЕҰЛЕРИНЕ 40-ЖЫЛ

Алимбетов А.К., Қдырнязов О.Ш.

Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Қарақалпақ мәмлекетлик университетининг тарихы бағдарының студентлерине археологиялық әмелиятты 1985 – жылы факультеттің сол ўақыттағы деканы болып ислеп атырған проф. К. Сарыбаевтың басламасы менен дәслепки рет май айында шөлкемлестирiledi. Археологиялық әмелиятқа дәслеп кафедра оқытыўшыларынан М.Туребеков, Е.Бижановлардың басшылығында усы жылы апрель май айларында алып барылады [9, 6-7]. Сол ўақыттан баслап ҳазирги күнге дейин ҳәр жылы естеликте археологиялық қазыў әмелият жумыслары турақлы түрде

алып барылмақта, 2025-жыл Миздахкан археологиялық отрядының дүзилгенлигине 40 жыл толады. 1986-жылдан баслап археологиялық отрядтка А.Утемисов, М.Ш. Қдырниязов, 1992-жылдан баслап Ж.Хәкимиязов, Е.Ешимбетов, М.Жанназаров, 1996-жылдан баслап С.Уталиев, оннан соң А.Искендерова, С.Сайпов, А.Алимбетов, Ф.Утепбергенов О.Ш. Қдырниязов хәм т.б археологиялық әмелият қазыу жұмысларын дауам еттирип киятыр.

Дәслепки жылы Миздахкан археологиялық естелигиниң алтын орда дәуириниң кварталларында өткизилди. Археологиялық әмелият дәуиринде Миздахканан Гөне Үргенишке өтетуғын асфальт жолың кубла тәрәпинен археологиялық қазыу жұмыслары алып барылды. Нәтийжеде 7 өжире хәм хәули ашылды. Ашылған орынның улыўма майданы 270 м² тең [10, 27-28]. М.Туребеков 1985-1987 жыллар аралығында Мазлумхан сулыу естелигиниң шығыс тәрәпинде №1 шығыс кварталларында археологиялық қазыу жұмысларын алып барады. №1 шығыс квартал 90х60 метр квадрат көлемдеги майдан толық қазылды, кварталдың батыс тәрәпинде үлкен көше орналасқан көшениң ени 2,5 метр, усы орында және 18х5 метр көлемдеги еки бөлмели мәхәлле мешит ашылды [15, 67-71]. Үш мәўсим аралығында 1985-1988 жыллар дауамында №2 мәхәлле турак жайлары Миздахкан археологиялық отряды тәрәпинен толық ашылып үйренилди. Ол режеде төрт мүйешли көринисте болып, мәхәллениң түсликтеги тәрәпи 47 м, шығыстағы 25 м, арқадағы 46 м хәм батыстағы тәрәпи 27 м узынлыққа ийе. Мәхәлле турак жай көлеминиң улыўма майданы 1209 кв. м. курайды. Ол төрт тәрәпинен көшелер менен шегараланып хәм үлкен гүлалшылық цех хәм 8 үйден турады. Цех мәхәллениң шығыс тәрәпинде жайласқан. Ол тийкарынан үлкен хәули 7 гүлал ошақ, 3 кудық, 3 ура 2 турак жай (№7,9) зат сақлағыш (№8) өжирелерин хәм де 5 гүлалшылық усахана сыпатында қолланлылатуғын өжирелерден (№1-5) турады. [14, 67-69].

Үшинши мәхәлле кубла мәхәллениң арқа-батыс бөлегинде жайласқан. Үшинши мәхәлледә 25 тен артық турак-жайлар болып хәм хеш қайсы үйде ашық жер майданы жоқ, олар тийкарынан саўда сатлық хәм өнерментшилик ислери менен шуғылланған, турак жайлар бир биринен өжирелердиң саны менен ажыралып турады, турак жайлар бир өжиреден он бир өжиреге шекем болған. Бул жерде туўысқан ағайиншилик байланыслары болған болған бир үйден бес уйге шекем жасаған болыуы мүмкин [12, 196-203].

«Арқа I-II», «Кубла Батыс», «Арқа мәхәлле», «Орайлық мәхәлле» деп шәртли аталған мәхәлелерде 500 ден артық бөлмелер, 60 тан көбирек үй - жай бөлимлерине бирлестирілген[5, 93-96]. Миздахканда көплеген турар -жай үйлери қатарында аўыл хожалық өнимлерин сақлау хәм қайта ислеуғе арналған үйлерде болған.

Бердах атындағы ҚМУ дың М.Туребеков басшылығында археологиялық отряды 1992-жылдан 2002-жыллар аралығында Гәўир қала естелигинде тураклы түрде қазыу жұмысларын алып барды. Нәтийжеде цитадельдиң адам жасайтуғын 41- бөлме, цитадельдиң орайлық бөлиминен 22,5Х22,4 метр көлемдеги қорған сарай ашылды. Цитадельдиң дийўаллары ылай пахса хәм блок қам гербишлерден өрилген. Жай орынлардың полына 26-27Х26-28Х5см. размердеги пискен гербишлер төселген. Цитадельдиң ишки тәрәпинде жәмийетлик характерде, жасау бөлмеси, жәрдемши хәм баня ханалары ашылды [14, 77-79]. Гәўир қала цитаделиниң шығыс бөлиминде стратегиялық қазыу жұмысларды откерилип, оның узынлығы 9 метр, ени 2.25 метр, тереңлиги 6-7 метр. Археологиялық қазыу уақтында бир неше мәдений қатламлардың излери, материаллық мәдениет қалдықлары табылды, хәмде қорғанның тәбийғый бийиклиқдиң үстине қурылғанлығы, және де естеликтен үш мәдений қатлам ашылды, олардан кангюй, кушан, афригидлер дәуирине тийисли археологиялық затлар табылды. Бул қатламның үстине Гәўир қала цитаделиниң қорған дийўалы шама менен IX-X әсирлерде салынғанлығы белгили болды [1, 34]. Миздахканнан Алтын орда дәуириниң Жума мешити қалдықлары Улке таныу музейи хәм ҚМУ археологлары менен биригип ашылды. Мешиттиң жазғы қысқы заллар менен бирге асхана, мийманхана –ханако-бөлимлери болған. Жағы мешит жайының көлеми 15х17-м, болып кублаға қараған жағында еки мехраб орын сақлаған. Мехраб мешиттиң дийўалына ойып исленген болып, Кабаға қараған бағдар көрсетиледи. Намаз оқыўшы мусылманлар оған қарап жығылады. Мехраблардың 1,90 м дейин сақланған, ени 1,15, м хәм 1,20м Биринши ерте дәуирдеги мехраб текшеси ылайдан ойып, кесип исленген мукарна сталактиталар менен безелген [5, 113]. 1987 жылы М.Туребеков, М-Ш.Қдырниязов басшылығындағы археологиялық отряды хәм Өзбекстан Илимлер Академиясының Қарақалпақстандағы филиалының археология бөлими менен бирликте жүргизилген қазыу жұмыслары уақтында Миздахкандағы Қырк Шопан мавзолейдиң ишки бөлими толық ашылды. Мавзолей платформасының қурылысы хәм шегарасы анықланды. Сыртында платформаның ишинен және үш жерлеу орны табылды. Бул жұмыслардың жуўмағында орта әсирдеги қырық шопан мавзолейиниң анық картинасы пайда болды [2, 23].

Профессор М-Ш. Қдырниязовтың изертлеулеринде Миздахканның Алтын орда дәуириндеги сүйекти ағашты қайта ислеу өнерменшилиги айрықша жетискенликлери, гүлашылық өндирис дәстүрлери, олардың бояўлары, мазмунлы нағыслар, компазциялық сюжетлери әсиресе кишин түрдеги ылайдан исленген ыдыслар архетектурлық безеу плиткилары олардың Миздахкан арқалы Волга бойы қалалары арқадағы Арқа Кавказға Қырым Москва Новгород Түслик Түркменстан жерлерине дийин таралыуы туўралы, бул жердеги май, вино ислеп шығарыу орынлары, темиршилик, шийшесазлық устаханаларының табылғанлығы туўралы кең түрде мағлыўматлар берилип өтилген [3,112-118]. Миздахкан археологиялық комплексиндеги XIII-XIV әсирлерге тийисли қала қалдықларынан «Шығыс мәхәлле» I-II, «Арқа батыс мәхәллелер» лерде М-Ш.Қдырниязов тәрәпинен археологиялық қазыу жұмысларының алып барылыуы натийжесинде орыннан еки жүзден аслам турак жайлардың орны анықланған [7, 42-44]. Миздахкан қаласы XIII-XIV әсирде саўда өнерменшилик орны болыуы менен бирге аўыл-хожалық өнимлерин қайта ислетуғын орай болғанын Арб авторы ал-Мухаддасы өз шығармасында «Амуль, Дарғанда

жүзимдарлар кишмиш хэм гүнжи» таярланып әкелингелиги және бир араб авторы аль-Омари Алтын орда дәуиринде Түслик Арал бойларынан «бийдай, арпа, тары, лобия, жүөери өсиретуғынын атап кеткен. Ибн-Баттута Хорезм оазисинде баска аўыл хожалық өнимлери менен бирге өсимлик майын еске түсирди. Жазба дерекледеги мағлыұматларда аталған өнимлер Миздахканнан табылған шийе, шабдал, ерик, грек ғозасы аскабақ, қаўын, ғарбыз, денелериниң табылыўы М-Ш. Қдырниязовтың изертлеўлеринде толық дәллиленеди [8, 34-47].

1987 - 1990 жыллар даўамында Миздахканда ашылған әжайып естеликлердиң бири XII- XIV әсирлерге тийисли Ақ ханака болып табылады. XIV әсирге келгенде Гурганж ҳәкими Қутлық Тимур хэм оның хаялы Төребек ханымлар тәрәпинен Кубла Арал бойында бирнеше ханакалар қурылады. Усындай ханакалардык бири 1349 - жылы Қутлық Тимур тәрәпинен пайғамбар әўлады, шайхлар шайхы, сейид Сулайман Хаддади Мусевийге арнап Миздахканда саттырылған. Ханаканың көлеми 60х60 метр болып, ханака жазғы, қысқы мешит хэм бир нешше жәрдемши ханалардан ибарат. Ақ ханака Миздахкан комплексиниң Шығыс төбешигинде жайласып XII- XIV әсирлерге тийисли жәмийетлик, сыйыныў мемориал қурлыслардан ибарат. Комплекстин орыи есапланған ханака қурлысы бойынша туўры мүйешли, тәрәплериниң майданы 17х19 метр болған. Негизи кирер есиги кубла тәрәпиндеги дийўалында жайласқан хэм II ҳәриби көринисиндеги портал менен безелген. Ханака орайлық зал хэм киши ханалардан турған. Ханаканың шығыс бөлими ени 2,5 метрлик узынлығы 5,8 метрлик коридор менен байланыстырылған. Ханаканың орайлық залы хэм мехрабы хананың төбеси гүмбез, қалған өжиреле тегис етип бастырылған. Ханаканы салыўда қам хэм пискенгербишлерден (24-29х24-29-6см) қам гербишлерден пайдаланылғанлығы белгили болды [17, 53-57; 63-64].

2002-2006 жыллары М.Туребеков, Б.Қосекеев басшылығындағы археологиялық бөлим Миздахкандағы зорастризм хэм ерте мусылман дәуирине тийисли 30 дан аслам қәбирлерди ашылады, бул қәбирлер белгили антрополог илимпаз Т.К.Ходжайов жәрдемінде арнаўлы үскенелер жәрдемінде 15 қәбирдиң сүйеклери тексериледи олардың алтаўында сүйеклер оссуарияға салынған тоғызы жердиң өзине жерленген. Бул қәбирлерди изертлеў нәтийжесинде Әмиўдарының төменги ағысында жасаўшы халықлардың антропологиялық тип келбетлерин анықлаўда үлкен жәрдем тийгизеди. Усы археологиялық қазылыўлар дәуиринде жуўмағында Миздахкан қойымшылықларында дәслепп зорастризм, соң мусылман дини жерлеў үрп-әдет дәстүрлери қурылыслары менен жерленген өлилердиң аралас типлери бар екенлиги анықланды. Сондай-ақ бул орында бизиң эрамыздың VIII әсирлердиң I-ши ярымына зорастризм дини дәстүрлерине тән ассуриялық қойымшылықлары, ерте мусылман қойымшылықлары XIII әсирдиң II-ши ярымынан XIV әсирге дейин дәуирди өз ишине алатуғынлығы дәлийленди [15, 43-46; 59-65]. 2010-жылдан берли Миздахканың Гәўир қала қорғаныў дийўалының шығыс бөлиміндеги өз алдына жайласқан кубла мәхалледе археологиялық қазыў жумыслары даўам еттирилип қазыў даўамында XII-XIII әсирлерге тийисли қурлыс жумыслары үлгилери, турақ жай бөлимлери (гербиш хэм пахса дийўал, ошак, еден, супа,) хэм афригийлер, хорезмшахлар дәуиринге тийисли жаңа археологиялық табылмалар (гүлал ыдыслар, сүйек, шийше буйымлары, хожалық ушын әхмийетке ийе болған жеке табылма буйымлары) үлгилери анықланды [18, 407-416]. Булардан басқа сол дәуирлерге тийисли өнерментшилик орынлары қалдықлары (гүлал ыдысларды писиретуғын, темир ертитетуғын, гербиш писиретуғын хумбыз печлер) ашылды.

Улыўма айтқанда Миздахкан археологиялық отрядының 40 жыллық изертлеў жуўмақлары нәтийжесинде төмендегилер анықланды;

1. Гәўир қала естелигиниң қорған дийўаллары қаланың стратегиафиялық дүзилиси, қаланың ишиндеги ҳәким сарайы, турақ жай бөлмелери, қаланың күн шығыс тәрәпинде үлкен майданша ашылды.

2. Комплекстин Хорезмшахлар хэм Алтын орда дәуирине тийисли өнерментшилик кәрханалары (май жуўаз, гүлал өндиретуғын, металл еритетуғын печлер, вино ислейтуғын) цехлар ашылды.

3. Қала тұрғынлары пайдаланылған нанбайхана, ғәллекханалар, тандыр ошақлар, көшелер хэм ондағы абаданластырыў элементлери ашылды.

4. Археологиялық қазыўлар ўақтында табылған гүлалдан, шийшеден, сүйектен металдан хэм т.б. исленген затлардың формасы, түри, ислениў технологиясы, қурамы, шийки зат дереклери анықланды.

5. Турақ жай орынлары хэм олардың ишки интерьерлери, қурлыс материаллары анықланды.

6. Комплекстеги жәмийетлик сыйыныў орынлары мешит, медресе, мавзолей, ханоко хэм.т.б ашылды хэм олардың атқаратуғын хызмети хэм көриниси анықланды.

7. Қала халқының тийкарғы өлини жерлеў қурылыслары жерлеў типлери жерлеў үрп-әдет дәстүрлери хэм түрлери анықланды.

8. Миздахканың Гәўир қала қорғаныў дийўалының шығыс бөлиміндеги өз алдына жайласқан кубла мәхалледе өнерментшилик орынлары ашылды.

Улыўма алғанда университеттиң Миздахкан археологиялық отрядының 40 жыллық изертлеўлери нәтийжесинде естеликте өнерментшилик, архитектура хэм қурлыс жетискенлиги, саўда- қатнасларының жоқары дәрежеде болғанлығын дәлилленди, археологиялық қазыўлар нәтийжелери хәр жылы бәхәр мәўсиминде Самарқанд қаласында болып өтетуғын дала археологиялық изертлеўлер нәтийжелерине бағышланған есабат сессияларында талықланып келинбекте, изертлеўлер жуўмағы Республикамыздағы хэм сырт еллердеги Жоқары аттестация комиссиясының қурамындағы илимий (Scopus и Web of Science) журналларда, арнаўлы топламларында хэм ғалаба хабар қуралларында жәрияланып барылмақта, сондай-ақ археологиялық изертлеўлер нәтийжелери

бойынша докторлық диссертациялар қорғалды, Миздахкан археологиялық комплекси туризм маршрутына киргизилди.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Алимбетов А. Утепбергенов Ф. Гәуир қала читателинде алып барылған стратегиялық қазыу жұмыслары. ҚМУ дың 25-жыллық юбилейине арналған. XXV-илимий-теориялық конференция материаллары. ҚМУ Нөкис 2001.
2. Қдырнийзов М.-Ш, Алимбетов А.К. Изучения средневековых жилищ Миздахкана // «Мустақитлик йилларида Қорақалпоғистонда археология фанининг ривожланиши» мавзусидаги республика илмий анжуман Материаллари. -Нөкис 2015.
3. Қдырнийзов М.-Ш, Қдырнийзов О.-Ш. Ремесленно-производственные комплексы золотоордынского Миздахкана // «Диалог городской и степной культуры на евразийском пространстве» // Материалы V Международной конференции посвященной памяти Г.А.Федорова-Давыдова. Москва-Астрахань, 2011. 3-7 октября.
4. Қдырнийзов М.-Ш, Саипов С.Т, Қдырнийзов А. Раскопки на городище Миздахкан// АИУ, 2004-2005 годы. Выпуск-5. Ташкент: Фан, 2006.
5. Қдырнийзов М.-Ш. Культура Хорезма в XIII-XIV вв. Самарканд, 2015.
6. Қдырнийзов М.Ш., Туребеков М. Миздахкан-город золотоордынского времени. Ходжейли древнейший город Республики Каракалпакстан. Ходжейли, 1995.
7. Қдырнийзов М.Ш. Раскопки восточного квартала городища Миздахкан. Вопросы истории, археологии и этнографии Каракалпакстана. Сборник научных трудов. Выпуск. VII. Нукус, 1993.
8. Қдырнийзов М.-Ш, Бауетдинов Р. Средневековый Миздахкан. –Самарканд, 2010.
9. Туребеков М Ремесленно-торговые кварталы XIII-XIV вв. городища Миздахкан. (Раскопки 1986-1990 гг). Актуальные проблемы истории Каракалпакстана. Нукус, 1991.
10. Туребеков М., Бижанов Е. Раскопки золотоордынского квартала Миздахкана в 1985 года. Вопросы истории, археологии и этнографии Каракалпакстана. Сборник научных трудов. Выпуск. II. Нукус, 1993. 11. Туребеков М. Раскопки жилого массива гончаров средневекового Миздахкана. Археология Приаралья. Вып. VII. Нукус, 2003.
11. Туребеков М., Алимбетов А. О жилище золотоордынской махалля №3 в Миздахкане. «Археология Евразийских степей», Академия наук Республики Татарстан, №5, 2024.
12. Туребеков М. Т. Исследование цитадели Гаур қала городища Миздахкан // АИУ-2001 г. Ташкент, 2002.
13. Туребеков М.Т. Раскопки жилого массива № 1 средневекового Миздахкана // История и материальная культура Каракалпакстана. –Нукус, 2006.
14. Ходжайов Т.К. Туребеков М. Қосекеев Б. Краниологический материал XIII-XIV вв. из некрополя Миздахкан (раскопок 2005 г) // Вестник КГУ им Бердаха №1. 2009.
15. Ходжайов Т.К. Қосекеев Б.Ж. Утепбергенов Ф.Ж. Краниологический материал VII- VIII вв. из некрополя Миздахкан (раскопок 2005 г) // История и археология Турана. Вып. I. Самарканд. 2013.
16. Хакимиязов Ж.Х. Кубла Арал бойларындағы сыйыныу естеликлери. // Вестник АНРУз. №1.1998
17. Сайпов С.Т. Гончарное ремесло Южного Приаралья в золотоордынском периоде. «Археология Евразийских степей», Академия наук Республики Татарстан, №3, 2024.

Қорақалпоқ давлат университетининг Миздахкан археологик тадқиқотлариға 40 йил

Резюме. Мақолада Қорақалпақ давлат университетининг «Археология» кафедрасининг Миздахкан археологик мажмусида 1985 йилдан бугунги кунга қадар 40 йиллик археологик қазышма ишлари, очилган археологик янгиликлар ва уларнинг оммавий ахборот воситаларида, илмий нашрларда чоф этилиши, археологик қазышмалар натижасида аниқланган илмий янгиликлар асосида талқин қилинган.

Таянч сўзлар: Миздахкан археологик мажмуаси, масжид, цитадель, медреса, мавзолей, антрополог, кашин.

40 years of Misdakhkan archaeological research by Karakalpak state university

Summary. The article interprets the 40-year archaeological excavation work carried out by the "Archaeology" Department of Karakalpak State University at the Misdakhkan Archaeological Complex from 1985 to the present day. It discusses the archaeological discoveries made, their coverage in mass media and scientific publications, and the scientific innovations identified as a result of these archaeological excavations.

Key words: Misdakhkan archaeological complex, mosque, citadel, madrasah, mausoleum, anthropologist, kashin.

40-лет Миздахканской археологическим исследованиям Каракалпакского государственного университета

Резюме. В статье рассматриваются 40-летие археологических раскопок в Миздахканском археологическом комплексе кафедры Археологии Каракалпакского государственного университета с 1985 года по настоящее время, обнаруженные археологические новости и их публикации в средствах массовой информации, научные публикации, научные новости, выявленные в результате археологических раскопок.

Ключевые слова: археологический комплекс Миздахкан, мечеть, цитадель, медресе, мавзолей, антрополог, кашин.

ПРОКУРОР ҲУҚУҚИЙ ВОСИТАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Комилов А.Б.

Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси

Прокурор ҳуқуқий воситаларини илмий-назарий жиҳатдан тадқиқ этиш масаласи кўплаб тадқиқотчи-олимларнинг диққат марказида бўлиб келган. Прокурор ҳуқуқий воситалари тушунчасига илмий таъриф бериш, мазкур тушунча мазмунида ётувчи уникал хусусиятларни, мухтасар қилиб айтганда, унинг моҳиятини очиб беришга уриниш миллий ва хорижий олимларнинг энг асосий вазифаларидан ҳисобланиб келинади, десак муболаға

бўлмайди. Чунки, прокурор ҳуқуқий воситалари тушунчаси шунчалик мураккабки, уни чуқур тушунмасдан туриб, мавзунини ҳар томонлама ёритиш тугул, уни англаш ҳам мураккаб жараёнга айланади.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунга қадар прокурор ҳуқуқий воситалари тушунчаси на қонунчиликда, на ҳуқуқни қўллаш амалиётида ўз аксини топмади, ушбу воситаларга хос белгилар аниқланмади. Шунга қўра, қўплаб олимлар ўз тадқиқотлари, илмий ва ўқув адабиётларида, энг аввало, прокурор ҳуқуқий воситаларининг илмий-назарий асосларини ёритишга, фанда мавжуд умумназарий ишланмалар асосида ушбу тушунча ва унинг белгиларига ўзларининг таърифларини ишлаб чиқишга ҳаракат қилганлар.

Шунга қарамай, прокурор назорати назариясида ушбу масала бўйича ҳанузгача ягона қарашлар шаклланмади. Қатор илмий-назарий ва юридик адабиётларнинг таҳлил қилиниши “прокурор ҳуқуқий воситалари” ва у билан ҳамбарчас боғлиқ “прокурор таъсир чоралари/воситалари”, “прокурор назорати ҳужжатлари” тушунчалари ҳусусида илмий ғоя, ёндашув ва фикрларни илгари сурган назарийётчи ҳамда амалиётчи мутахассисларни тегишли гуруҳларга ажратиш имконини беради. Хусусан, биринчи гуруҳга прокурор ҳуқуқий воситалари тушунчаси остида прокурор ваколатлари ва уларни амалга ошириш шакллари тушунилиши ҳақида фикр билдирган олимлар (В.Бессарабов, В.Бобров, А.Ю.Винокуров, С.Герасимов, А.Давлетов, В.Камышов, М.Поляков, А.Смирнов, А.Сухарев, Т.Решетникова, С.П.Щерба), иккинчи гуруҳга прокурор ҳуқуқий воситалари қонун билан тартибга солинган прокурор ҳаракатлари эканлиги тўғрисида хулосага келган муаллифлар (Н.Корешникова, О.Петрова, П.Пригорца, Ю.Турыгин) ва учинчи гуруҳга эса прокурор ҳуқуқий воситалари тушунчасини турлича ракурсда таърифлаган олимларни (К.Амирбеков, М.Бызова, О.Воронин, О.Кожевников, И.Магомедов) киритиш мумкин бўлади.

Жумладан, биринчи гуруҳга мансуб олимларнинг энг кўзга кўринган вакилларида бири саналган В.Бессарабов прокурор ҳуқуқий воситаларини қонун бузилиши, унинг келиб чиқиш сабаблари ва бунга имконият яратиб бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш, айбдор шахсларни жавобгарликка тортиш ҳамда қонун бузилишидан оғоҳлантириш бўйича прокурорнинг қонун билан мустаҳкамланган ваколатлари деб изоҳлайди[1. 206]. Шу каби, миллий олимлардан А.Давлетов ҳам прокурор ҳуқуқий воситаларини прокурор ваколатлари билан узвий боғлиқ ҳолда кўради. У прокурор ваколатлари қонунчиликда мустаҳкамланган ҳаракатлар ва ҳуқуқий актлар (ҳужжат) воситасида амалга оширилиши, улар илмий ва услубий адабиётларда прокурор назоратининг ҳуқуқий воситалари деб номланишини қайд этади [2. 36]. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, қўплаб тадқиқотчилар прокурор ҳуқуқий воситаларини прокурор ваколатлари билан тенглаштириб, уларни нотўғри талқин қиладилар. Жумладан, В.Бобров прокурор ваколатларини икки гуруҳга: қонунбузилишини аниқлаш бўйича ваколатлар ва уларни бартараф этиш бўйича ваколатларга бўлади. Айнан иккинчи гуруҳга мансуб ваколатлар доирасида прокурор таъсир ҳужжатлари қўлланишини қайд этади[3. 63-65]. Шу каби, М.Поляков[4. 113] ва А.Смирнов[5. 218-221]лар ҳам прокурор ҳуқуқий воситалари, жумладан, прокурор таъсир ҳужжатларини прокурор ваколатлари орқали идрок қиладилар.

Бизнингча, биринчи гуруҳга кирувчи олимларнинг прокурор ҳуқуқий воситаларига нисбатан ёндашувларини тўлиқ тўғри деб бўлмайди, чунки “ҳуқуқий восита” гарчи “ваколат” билан узвий боғлиқ бўлса-да, бир хил категориялар эмас. “Ваколат” – давлат органи, маҳаллий ҳокимият органи, мансабдор шахс, ижтимоий муносабатлар бошқа қатнашчиларининг норматив юридик ҳужжатда белгиланган ҳуқуқ ва мажбуриятлари йиғиндиси[6] ёки ваколат – бир шахсга, яъни вакилга бошқа шахс (ваколат берувчи) номидан ва унинг манфаатини кўзлаб, битим тузиш ва бошқа хатти-ҳаракатлар қилиш учун берилган ҳуқуқдир[7. 59]. Шундан келиб чиққан ҳолда, “прокурор ваколатлари” прокурорнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда қайд этилган ҳуқуқ ва мажбуриятларининг мажмуи ҳисобланади [8. 140]. Восита эса – бирор мақсадга эришиш ёки бирор ишни амалга ошириш учун дастак бўлиб хизмат қиладиган нарсаси, қуролдир [9. 180]. Шу жиҳатдан олиб қараганда, биринчи гуруҳга мансуб олимлар томонидан прокурор ҳуқуқий воситаларини прокурор ваколатлари билан бир хил эканлиги ҳақида илгари сурилган фикрлари билан келишиб бўлмайди, чунки улар восита сифатида таъкидлаётган нарсалар аслида ваколатдир. Фикримизни мисолда тушунтирадиган бўлсак, прокурор текшируви прокурор ҳуқуқий воситаси бўлса, давлат органлари, ҳарбий қисмлар, вазирликлар ва идораларнинг ҳарбий тузилмалари раҳбарлари ва бошқа мансабдор шахсларидан улар тасарруфидаги корхоналар, муассасалар, ташкилотлар фаолиятини текшириш, тафтиш ўтказишни, идоравий ва ноидоравий текширишлар ўтказиш учун мутахассислар ажратишни талаб қилиш прокурор ваколати саналади. Яъни, прокурор текшируви прокурор назоратидан кўзланган мақсадга эришишда восита, дастак бўлса, текшириш ёки текшириш ўтказишни ваколатли идоралардан талаб қилиш прокурор ҳуқуқи ҳисобланади.

Иккинчи гуруҳга мансуб олимлар прокурор ҳуқуқий воситалари деганда, аксарият ҳолатларда қонун билан тартибга солинган прокурор ҳаракатлари (йиғиндиси)ни тушунади. Мисол учун, Н.Корешникованинг қайд этишича, прокурор ҳуқуқий воситалари прокурорга қонун билан юклатилган функцияларни бажаришга йўналтирилган ва прокурор ваколатлари орқали амалга ошириладиган, қонун билан тартибга солинган прокурор ҳаракатларини қамраб олади[10. 17]. Ушбу масалада бир қатор олимларнинг ёндашувларини ўрганган Ю.Турыгин ҳам прокурор ҳуқуқий воситаларини прокурорнинг қонунлар ижросини таъминлаш бўйича ҳаракатлари мажмуи деган хулосани илгари суради[11. 142-144].

Демак, иккинчи гуруҳга кирувчи олимлар прокурор ҳуқуқий воситалари сифатида қонун билан тартибга солинган прокурор ҳаракатлари ёки уларнинг йиғиндисини кўрсатадилар. Бизнингча, ушбу ёндашув билан ҳам

тўлақонли келишиб бўлмайди. Чунки, прокурор ҳуқуқий воситалари фақатгина прокурор ҳаракатларида ўз аксини топмайди, балки прокурор ҳужжати (акт) билан ифодаланади. Яъни, прокурор ҳуқуқий воситаси ўз ичига нафақат, прокурор ҳаракатини, шу билан бирга, прокурор ҳужжатларини ҳам қамраб олади. Фикримизни аниқроқ тушунтириш учун яна “прокурор текшируви” мисолига қайтайлик. Масалан, прокурор текшируви прокурор хатти-ҳаракатларидан иборат, лекин бу билан прокурор ҳуқуқий воситаси фақат прокурор текширувидан иборат деган хулоса келиб чиқмайди, чунки бунда биз ушбу тушунчани жуда тор маънода англаган бўламиз. Прокурор назорати ҳужжатлари ҳам прокурор ҳуқуқий воситаси бўлиб, улар прокурор ҳужжати (акт)да ўз аксини топади. Демак, прокурор ҳуқуқий воситалари ҳаракат ва ҳужжат (акт)ларни ҳам қамраб олади. Умуман олганда, иккинчи гуруҳ олимлари илгари сурган ёндашувларнинг камчилиги – улар прокурор ҳужжати (акт)ни ҳуқуқий восита доирасига киритмаслигида қўринади.

Учинчи гуруҳга мансуб олимларнинг йирик намоёндаларидан О.Кожевников прокурор ҳуқуқий воситаларини ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш чоралари деб ҳисоблайди[12. 12]. М.Бызова эса прокурор ҳуқуқий воситалари қонун билан мустаҳкамланган прокурор ҳаракати эмас, балки қонун билан мустаҳкамланган прокурор ваколатларини амалга ошириш шакллари бўлиб, ҳаракатлар ва ҳужжатларда ифодаланади[13. 22, 26-27]. О.Воронин прокурор ҳуқуқий воситаларига нисбатан кенгрок ёндашади ва прокурор ҳуқуқий воситалари ўз мазмунига кўра 3 та элементни: 1) прокурор ваколатларини; 2) прокурор таъсир ҳужжатларини; 3) прокурор ваколатларини амалга ошириш ва прокурор таъсир ҳужжатларини қўллаш механизмини қамраб олишини қайд этади[14. 5-6]. К.Амирбеков ва И.Магомедовлар эса умуман бошқа йўлдан бориб, прокурор ҳуқуқий воситалари прокурорнинг акт-қарор ва акт-ҳаракат шаклидаги юридик ҳужжатлари эканлиги ҳамда улар орқали прокурор ваколати амалга оширилишини қайд этадилар[15. 39-44].

Фикримизча, бизнинг қарашларимиз учинчи гуруҳ олимлар О.Кожевников ва О.Воронинларнинг ёндашувлари билан ҳам мос келмайди. Сабаби, прокурор ҳуқуқий воситалари ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш чораси эмас, чунки чора – бирор ишни, мақсадни амалга ошириш, рўёбга чиқариш ёки унинг олдини олиш учун ишлаб чиқилган тадбирлар мажуи, тадбирдир. О.Воронин эса юқорида таъкидлаганидек, прокурор ваколатларини ҳуқуқий восита таркибига нотўғри киритиб юборган. Бизнинг қарашларимиз М.Бызова, К.Амирбеков ва И.Магомедовларнинг ғоялар билан нисбатан ҳамоҳанг эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим бўлади. Бизнингча, прокурор ҳуқуқий воситалари прокурор ваколатлари билан узвий боғлиқ бўлган, қонун ҳужжатлари билан тартибга солинган прокурорнинг ҳаракатлар ва ҳужжатлари бўлиб, улар орқали прокурор ваколатлари амалга оширилади.

Кези келганда қайд этиш лозимки, олимлар ўртасида “прокурор ҳуқуқий воситалари” тушунчасига нисбатан шаклланган турлича қарашлар “прокурор таъсир чоралари/воситалари” тушунчасига бўлган ёндашувларга ҳам кўчган. Назаримизда, олимлар ўртасидаги қизгин илмий баҳс-мунозаралар аксарият ҳолларда “прокурор таъсир чоралари/воситалари” ва “прокурор назорати ҳужжатлари” тушунчаларининг мазмун-моҳияти ҳамда ўзаро нисбати борасида кечмоқда. Гарчи, илмий ва ўқув адабиётларда “прокурор таъсир чоралари” ва “прокурор таъсир ҳужжатлари” ўзаро боғлиқлиги, аммо мазмунига кўра бир хил тушунчалар эмаслиги қайд этилса-да, олимлар ушбу масалада ҳанузгача ягона фикрга келмаганлар. Бу борада тадқиқотчи ва олимлар ўзларининг шахсий қарашларига кўра 2 та катта гуруҳга ажратилиши мумкин. Биринчи гуруҳ олимлар (Е.Алхутова, А.Боев, С.Кехлеров, В.Стрельников, И.Устименко ва ҳ.к.) “прокурор таъсир чоралари” ва “прокурор назорати/таъсир ҳужжатлари” тушунчалари орасига тенглик белгисини қўйишса, иккинчи гуруҳ олимлар (Ю.Авагимова, О.Безсалий, М.Бызова, О.Воронин, Е.Ергашев, А.Карпова, Д.Этерия, П.Пригорица ва бошқалар) улар бир хил тушунча эмаслигини қайд этишади.

Жумладан, И.Устименко прокурор назорати ҳужжатларини прокурор таъсир воситалари деб ҳисоблайди, уларга прокурорнинг аниқланган қонун бузилиши ҳолатларини баратараф этишга қаратилган ваколатларини рўёбга чиқариш воситаси сифатида қарайди[16. 137]. Шу каби, Е.Алхутова[17. 161-162] ва В.Стрельников[18. 30]лар прокурор назорати ҳужжатларини прокурор таъсир чоралари деб атаганлар.

Ўз ўрнида таъкидлаш жоизки, юқорида қайд этилган олимларнинг қарашларига қўшилмаган иккинчи гуруҳ олимлар ҳам кўпчиликни ташкил этиб, улар ҳам ўз фикрларини ўзига хос тарзда аргументлашга ҳаракат қиладилар.

Масалан, Д.Этериянинг қарашларига биноан, прокурор таъсир ҳужжатлари остида ёзма шаклга эга, прокуратуранинг назорат ва назорат билан боғлиқ бўлмаган функцияси доирасида қўлланиладиган, прокурорнинг қонун бузилиши ёки тайёрланаётган ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатларга нисбатан муносабати бўйича қонунда мустаҳкамланган ҳуқуқий воситалари тушунилади. Прокурор таъсир чоралари эса прокурорнинг аниқланган қонун бузилишига таъсир кўрсатиш, ҳуқуқбузарликларни профилактика қилиш, айбдор шахсларни қонунда белгиланган жавобгарликка тортиш бўйича қонунда мустаҳкамланган назорат ва назорат билан боғлиқ бўлмаган ваколатларида намоён бўладиган фаол ҳаракатлари йиғиндиси[19. 123-124]. О.Безсалийнинг ёзишича, прокурор таъсир ҳужжатлари прокурор таъсир воситаларининг муҳим таркибий қисми саналади. Муаллиф “прокурор таъсир ҳужжатлари” ва “прокурор назорати ҳужжатлари” айнан бир тушунча деб ҳисоблаган олимларнинг қарашларига қўшилмайди. Унинг фикрига кўра, прокурор назорати ҳужжатлари прокурор томонидан фақат назорат фаолиятида қўлланилиши мумкин бўлса, прокурор таъсир ҳужжатлари ҳам назорат, ҳам назорат билан боғлиқ бўлмаган фаолиятида қўлланилади. Шу билан бирга, ушбу тушунчалар ўзаро қисм ва бутун муносабатида бўлганлиги сабабли, уларнинг ўхшаш хусусиятлари бир-бирига мос тушади[20. 48-50]. О.Безсалийнинг қарашларини ёқлаган

П.Пригорщанинг ёзишича, “прокурор таъсир воситалари” ва “прокурор таъсир ҳужжатлари” ўзаро боғлиқ, бироқ айнан бир хил тушунчалар эмас. Унинг фикрича, “прокурор таъсир ҳужжатлари” ва “прокурор назорати ҳужжатлари” тушунчаларини ҳам аралаштириб юбормаслик зарур. Биринчи тушунча иккинчисини таркибий қисм сифатида камраб олади. Зеро, прокурор назорати ҳужжатлари прокуратура органлари томонидан назорат функциясини амалга ошириш мобайнида фойдаланиладиган прокурор таъсир ҳужжатларидир[21. 21-22]. Юқорида қайд этилганлардан шу нарса англашиладики, иккинчи гуруҳга мансуб олимлар “прокурор таъсир ҳужжатлари” остида “прокурор назорати ҳужжатлари”ни, “прокурор таъсир воситалари” остида эса “прокурор таъсир чоралари”ни тушунишади. Уларнинг яқдил қарашларига биноан, прокурор таъсир чоралари ва прокурор назорати ҳужжатлари бир хил тушунчалар эмас, улар ўртасида бутун ва қисм муносабати кўзга ташланади. Ўз навбатида, бу икки категория ўзидан кенг маъноли ҳамда кенг қамровли бўлган “прокурор ҳуқуқий воситалари” таркибига қиради. Умуман олганда, прокурор ҳуқуқий воситаларига оид тушунчаларнинг илмий-назарий асосларини тадқиқ этиш натижасига кўра, қуйидаги хулосаларни илгари суриш мумкин бўлади: *биринчидан*, прокурор ҳуқуқий воситалари прокурор ваколатлари билан узвий боғлиқ бўлган, қонун ҳужжатлари билан тартибга солинган прокурорнинг ҳаракатлар ва ҳужжатлари бўлиб, улар орқали прокурор ваколатлари амалга оширилади; *иккинчидан*, прокурор таъсир чоралари ва прокурор назорати ҳужжатлари бир хил тушунчалар эмас, прокурор таъсир чоралари прокурор назорати ҳужжатларини камраб олади ва айни пайтда бу икки категория “прокурор ҳуқуқий воситалари”нинг таркибий қисмлари саналади.

АДАБИЁТЛАР

1. Прокурорский надзор: учебник / Бессарабов В.Г. – Москва: Министерство образования и науки Российской Федерации, Московская государственная юридическая академия: Проспект, 2006. – С. 206.
2. Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. – С. 63-65.
3. Прокурорский надзор: Учебник и практикум / Бобров В.К. – М.: Юрайт, 2018. – С. 63-65.
4. Прокурорский надзор: Учебник и практикум для СПО / под общ. ред. М.П.Полякова. – М.: Юрайт, 2018. – С. 113.
5. Прокурорский надзор: Учебник и практикум для академ. бакалавриата / под общ. ред. А.Ф.Смирнова, А.А.Усачева. – М.: Юрайт, 2018. – С. 218-221.
6. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик лугат – <https://lex.uz/dictionary>, 14.07.2024.
7. Юридик атамаларнинг изоҳли лугати. – Тошкент: Фан нашриёти, 2021. – Б. 59.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунига шарҳ. – Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2024. – Б. 140.
9. Толковый словарь узбекского языка: в 2-х. т. 60 000 слов и сочетаний / С.Ф.Акабиров, Т.А.Аликулов, С.З.Зуфаров и др., под ред. З.М.Магмурова. – М.: Рус. яз., 1981. – В надзаг.: АН УССР, Ин-т. яз. и лит. им. А.С.Пушкина. Т. I. А-Р. – С. 180.
10. Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2010.
11. Турыгин Ю.Н. Взаимодействие прокуратуры Российской Федерации и неправительственных правозащитных организаций по защите прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2012.
12. Прокурорский надзор за исполнением законов органами, осуществляющими оперативно-розыскную деятельность, дознание и предварительное следствие: Учебное пособие / О.А.Кожевников. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2006. – С. 12.
13. Бызова М.В. Представление прокурора: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования “Уральская государственная юридическая академия”, 2009.
14. Воронин О.В. О современном понимании понятий «правовые средства прокурорского надзора» и «формы реализации правовых средств прокурорского надзора» // Вестник Томского государственного университета. Право, №39 / 2021. – С. 5-6.
15. Амирбеков К.И., Магомедов М.А. Полномочия прокурора и их классификация // «Юридический мир», №2 / 2016. – С. 39-44;
16. Устищенко И.В. Прокурорский надзор за соблюдением социальных прав и свобод человека и гражданина в Российской Федерации: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Институт повышения квалификации руководящих кадров Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2009. – С. 137.
17. Алхугова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2013. – С. 161-162.
18. Стрельников В.В. Проблемы и перспективы прокурорского надзора за законностью правовых актов // «Бизнес в законе», №5 / 2011.
19. Этерия Д.И. К вопросу о соотношении мер и актов прокурорского реагирования // Молодой учёный, №30 (425) / 2022.
20. Безсалий О.Р. Современные проблемы правовой регламентации предостережения прокурора и его применения: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования “Уральский государственный университет”, 2018. – С. 48-50.
21. Пригорща П.А. Требование прокурора как средство обеспечения исполнения закона: теоретические и практические аспекты: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2011. – С. 21-22.

Прокурор ҳуқуқий воситаларининг илмий-назарий асослари

Аннотация. Мазкур мақола прокурор ҳуқуқий воситаларининг илмий-назарий асосларини тадқиқ этишга бағишланган. Муаллиф “прокурор ҳуқуқий воситалари”, “прокурор таъсир чоралари”, “прокурор назорати ҳужжатлари” тушунчалари ўртасидаги фарқни очиқ беради ва бу борада қўллаб олимлар билан илмий баҳсга киришади. Муаллифнинг фикрича, прокурор ҳуқуқий воситалари қонун ҳужжатлари билан тартибга солинган прокурорнинг ҳаракатлари ва ҳужжатлари бўлиб, улар орқали прокурор ваколатлари амалга оширилади. У прокурор таъсир чоралари прокурор назорати ҳужжатларини камраб олиши ва айни пайтда бу икки категория прокурор ҳуқуқий воситаларининг таркибий қисмлари саналиши ҳақида хулосага келади.

Калит сўзлар: прокурор ҳуқуқий воситалари, прокурор таъсир чоралари, прокурор назорати ҳужжатлари/

Аннотация. Настоящая статья посвящена исследованию научно-теоретических основ правовых средств прокурора. Автор разъясняет разницу между понятиями «правовые средства прокурора», «меры прокурорского воздействия», «акты прокурорского надзора» и вступает в научную дискуссию со многими учёными по данному вопросу. По мнению автора, правовые средства прокурора это урегулированные законодательством действия и документы прокурора, посредством которых реализуются полномочия прокурора. Автор приходит к выводу, что меры прокурорского воздействия охватывают акты прокурорского надзора, и в то же время эти две категории считаются неотъемлемыми частями правовых средств прокурора.

Ключевые слова: правовые средства прокурора, меры прокурорского воздействия/

Scientific and theoretical basics of prosecutor's legal means

Annotation. This article is dedicated to the study of the scientific-theoretical foundations of prosecutor's legal means. The author explains the difference between the concepts of «prosecutor's legal means», «measures of prosecutorial influence», and «acts of prosecutorial supervision» and engages in scientific debate with many scholars on this issue. According to the author, prosecutor's legal means are actions and documents regulated by legislation, through which prosecutorial powers are implemented. The author concludes that measures of prosecutorial influence encompass acts of prosecutorial supervision, and at the same time, these two categories are considered integral parts of prosecutor's legal means.

Key words: prosecutor's legal means, measures of prosecutorial influence, acts of prosecutorial supervision/

TORTISHUVCHILIK JINOYAT ISHLARINI YURITISHDA SUDNING ROLI

Seytnazarov Q. R.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Jinoyat protsessida odil sudlov maqsadiga erishish suddan betaraflikni, yani ayblovlari yoki himoya tomonida ishtirok etishini taqiqlaydi. Sud har ikkala tomonning harakatlari hamda taqdim etgan dalillarining asosli hamda maqbul, yetarli ekanligini baholaydi, jarayonda qatnashayotgan ishtirokchilar xulq-atvorini qanchalik darajada qonuniyligini nazorat qiladi, har bir tomonning o'z huquq va burchlarini amalga oshirishda yetarlicha sharoit yaratadi. Taraflar o'rtasidagi tortishuvda adolatli muvozanatni saqlash uchun har bir taraf o'z fikrini mustaqil ravishda sud oldida bayon qilishi hamda o'z pozitsiyasini isbotlashda dalillar taqdim etishi lozimligida ko'rinadi [1, 27]. Sud har ikki tomonning bir-biriga qarama-qarshi da'volarini ko'rib chiqadi, shu sababli u hech qaysi tomonning manfaatlarini ifoda etmasligi hamda o'z mustaqillik doirasidan tashqariga chiqishi mumkin emas. Bu jarayonda tortishuv prinsipi har ikki tomonning ayblovg'a qarshiligi hamda uni qo'llab-quvvatlashida namoyon bo'ladi. Sudlar mustaqilligi to'g'risidagi asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 112-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida aniq belgilab berilgan. Sudning qanchalik darajada mustaqilligi uning o'z hokimyatini hech qanday to'siqsiz ro'yobga chiqarishiga, sudning yuksak nufuz bilan ish yuritishiga, odil sudlovni xolis tarzda amalga oshirishga, shaxs huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini samarali bo'lishni ta'minlaydi [2, 6]. Tortishuv prinsipini ta'minlashda sudlar taraflar tomonidan keltirilgan dalillarni tekshirishi, baholashi, ishtirokchilarning iltimos va e'tirozlarini qonun doirasida ko'rib chiqishi, ko'rsatma va tushuntirishlarini tekshirilgan dalillar bilan solishtirishi va boshqa sud tergov harakatlarini o'tkazish orqali haqiqatni yuzaga keltirishga qaratilgan, yakuniy xulosaga keluvchi harakatlarni bajarishi lozim. Bunda sud tomonida bajarilishi mumkin bo'lmagan holatlar sirasiga taraflar manfaatini ifoda etmaslik asosiysi hisoblanadi. Ya'ni, taraflar kim bo'lishidan qat'i nazar protsessda yoki ayblovlari, yoki himoya tarafda qatnashadi - sud esa shu ikki tarafni tenglikda olib borishi lozim [3, 250]. Ayrim olimlarning fikrlariga ko'ra, sud isbotlash subyekti bo'lishi kerak emas. Tomonlarning o'zi xoh u ayblasin, xoh oqlasin o'z pozitsiyasini o'zi isbotlashi kerak. Sud faqat ish holatlarini o'rganishi va ishni hal qilishi kerak. Isbotlashning ham sudning zimmasidagi sud baribir qaysidir tomonning vazifasini bajarishiga to'g'ri kelishiga sabab bo'lishi mumkin [1, 27]. Sudning tortishuvda roli va uni qanday amalga oshirishini belgilash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda shu masala bo'yicha huquqshunos olimlarning fikrini ko'rib o'tsak, huquqshunos olimlardan I.L.Petruxinning fikricha, - "zamonaviy jinoyat protsessida sudning o'zini passiv tomon sifatida ko'riladi. Lekin bu sud uchinchi tomon sifatida kuzatuvchi bo'lib ishda qatnashishi kerak degani emas. Sudyaning passivligi faqat dalillarni tekshirish jarayoni uchun qo'llanilishi mumkin, lekin sud protsessini boshqarish va tortishuvni ta'minlashda emas" [4, 130].

I.Ya.Foynitskiyning fikricha, - "Jinoyat protsessi jarayonida sudyalari passiv bo'lmashligi kerak. Ish bo'yicha asosiy tashabbusni o'z qo'lga olishi hamda dalillarni talab qilib olishi lozim. Ishtirokchilarga ularning huquqlari hamda burchlari to'g'risida zarur tushuntirishlar berishi hamda ularni amalga oshirishda ko'mak berishi maqsadga muvofiq" [5, 64]. Sudning jinoyat protsessini tashkil etish va olib borishining o'zi alohida bir tizim bo'lsa, protsessning asosi bo'lmish tomonlar tortishuvini ta'minlash hamda baholashdagi o'zini alohida ahamiyat kasb etadi.

Sud protsessini olib borishda xolislikni ta'minlagan holda har ikki tarafni teng tutib turibchi mexanizm bo'lishi lozim, xuddi tarozi pallalarini teng tutgan kabi. Sudya protsess jarayonida "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasiga asosan - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilish, qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash vazifalarini bajarish lozim. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan o'zgarishlar natijasida sudlar

tomonidan ayblovchi tomonidan taqdim etilgan ayblov xulosasini yoki dalolatnomasi ko'rsatilgan prokuror takliflarini avtomatik ravishda sudning hukmida e'lon qilmasdan, ish holatlarini to'liq va batafsil o'rganish hamda himoya tarafining barcha huquqlarini amalga oshirishga ko'mak berish orqali jinoyat ishlarida bahs-munozarani teng taraflama bo'lishiga va bir qancha ishlarda oqlov hukmlarining soni oshishi kuzatilmoqda. Tortishuvni tartibga solishda sudning o'rnini belgilab oladigan bo'lsak, uni faqat yakuniy qaror qabul qiladigan organ sifatida ko'rish kerak emas. Sudya taraflar manfaatiga bog'liq bo'lmasligi hamda sud jarayonida ham passivlik bilan ishtirok etishi kerak emas. Ishtirok etishning muvozanatini olishi, shunga mos ravishda harakat qilishi lozim[6, 43]. Sud taraflar bilan bahslashmasa ham protsessda quyidagi ko'rinishda faol ishtirok etishi mumkin - ishtirokchilarga savollar bilan murojaat qilish, ular ko'rsatmalarini mavjud tasdiqlangan dalillar bilan solishtirish, taraflar keltirgan dalillarga baho berish, ishtirokchilarni so'roq qilish va boshqa sud tergov harakatlarini o'tkazish, taraflar tomonida protsess jarayonida sodir etilishi mumkin bo'lgan yoki sodir etilgan qonunbuzilishlariga barham berish va tegishli chora ko'rish, taraflar iltimos va e'tirozlarini qabul etish yoki ularni rad etish hamda jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining taxmin, farazga asoslangan ko'rsatmalarini yoki yuridik kuchga ega emas ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanmaslik shular jumlasiga kiradi.

Shuni takidlash kerakki, yuqorida keltirilgan tartib-tamoyillarni amalga oshirish va uning samaradorligini ta'minlash uchun shaxsning malakali yuridik yordamga va himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat protsessining tortishuv prinsipiga muvofiq amalga oshirilishini belgilash nazariyada tomonlarning protsessual mustaqilligi va faolligini ma'lum chegaralar ichida ta'minlash, ularning protsessual pozitsiyalari va maqsadlarini konkretlashtirish zarurligini tan olishga, shuningdek protsessual muvozanatni izlashga va tomonlarning protsessual imkoniyatlarini muvozanatlashga olib keldi. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, tortishuv prinsipi aslida boshqa barcha protsess prinsiplari bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, protsessual adabiyotlardagi munozaralar tortishuv mazmuni, sud va tomonlarning tortishuvining jinoyat protsessidagi tutgan o'zni to'g'risida yagona va umumiy tushuncha yo'qligidan dalolat beradi. Ishning haqiqiy holatlarini aniqlashda sudning roli faolligi yoki passivligi masalasi to'g'risidagi olimlar fikrlari turlicha bo'linadi. Bu bir vaqtning o'zida tortishuv prinsipi va jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash istagi qanday bog'liqligi haqida bir xil darajada keskin munozara uchun mavzu yaratadi. Ushbu eng munozarali masalalar bo'yicha o'z nuqtai nazarimizni aniqlash uchun biz nafaqat u haqidagi g'oyalarni shakllantirish qonuniyatlarini tushunish, balki u yoki bu jarayonning shakli va turidan qat'i nazar, zarur va majburiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha zamonaviy tortishuv elementlarini aniqlash uchun jinoyat protsessida tortishuvlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini batafsil ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Tortishuvchilik jinoyat ishlarini yuritishda sudning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Biz, tortishuvchilik sud jarayonida sud nafaol bolishi kerak degan ilimiy xulosalarning tarafdori emasmiz. Har bir jinoyat ishi boyincha undagi keltirilgan yozma va ahyoviy dalillar, korsatmalar, hulosalar, sxemalar, chizmalar, malumotlar, ishning ogirlashtiruvchi va engillashtiruvchi holatlariga qonuniy, adilona va asosli baxo berish suddan yuqori darajadagi faollikni talab etadi. Sudning faolligi taraflarning qonun doirasida tortishuvga real xavf tugdirmasligi va ularning bagislashuviga halaqit bermasligi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Lipskiy N.A., Kopenkina L.A. K voprosu o realizatsii principa sostyazatel'nosti i ravnopraviya storon v ugovnom protsesse // Uchenie zapiski SPb filiala RTA № 2 (70) 2019
2. Odilqoriyev X. T. Sud hokimyatining mustaqilligi va daxlsizligi - fuqarolar huquqlarini ishonchli ta'minlash kafolati // BPAA.2020. №1(41)
3. Kamardina A.A. Rol suda v obespechenii sostyazatel'nosti i ravnopraviya storon pri rassmotrenii ugovnogo dela sudom pervoy instansii // 2014. IOGAU. Pravovye nauke.
4. Petruxin I.L. Sostyazatel'nost i pravosudiye (k 100-letiyu M.S. Strogovicha) // Gosudarstvo i pravo. 1994. № 10.
5. Foynitskiy I.Ya. Kurs ugovnogo sudoproizvodstva. SPb., 1996.
6. Burmagin S. V. Metamorfozi sostyazatel'nosti ugovnix proizvodstv po delam sudebnogo kontrolya. MGYUA. NAUKI KRIMINALNOGO SIKLA. Tom 73 № 2 (159) fevral 2020

Rezyume. Maqolada tortishuvchilikka asoslangan jinoyat ishlarini yuritishda sudning roli, uning protsessual majburiyat va vazifalari haqida ilmiy mulohazalar yuritilgan. Maqolada tortishuv prinsipini ta'minlashda sud mustaqilligi, sud faolligi va dalillarni tekshirishda qonun talablari saqlanishi muxim omil ekanligi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: jinoyat protsessi, sud yurituvchi, tortishuvchilik prinsipi, ayblov xulosasi yoki dalolatnomasi.

Резюме. В статье содержатся научные суждения о роли суда, его процессуальных обязанностях и задачах при ведении уголовных дел, основанных на состязательности. В статье делается акцент на то, что независимость судебной власти, судебная деятельность и соблюдение требований законодательства при исследовании доказательств являются важными факторами обеспечения принципа состязательности.

Ключевые слова: уголовный процесс, судебный процесс, принцип состязательности, обвинительное заключение или акт.

Summary. The article contains scientific judgments about the role of the court, its procedural responsibilities and tasks in the conduct of criminal cases based on adversarial law. The article focuses on the fact that the independence of the judiciary, judicial activity and compliance with legal requirements when examining evidence are important factors in ensuring the principle of adversarial law.

Key words: criminal process, trial, adversarial principle, indictment or act.

ИЗ ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ.

Тангирбергенова К.

Каракалпакский государственный университет

К актуальным темам отечественной истории, представляющим большой интерес, относятся исследования, связанные с изучением экономической истории каракалпакского народа, возникновением и развитием промышленных предприятий. Малоизученной проблемой в историографии истории Каракалпакстана является проблема изучения экономики и промышленности Каракалпакстана. На данном этапе ученые стремятся подойти к изучению той или иной проблемы комплексно, то есть выяснить истоки, раскрыть значение, взаимосвязь быта и культуры, а также других сфер жизни. Несмотря на широкий спектр исследовательских работ, некоторым проблемам не уделялось должного внимания.

Следует отметить, что проблема хозяйственно-промышленных предприятий имеет существенное значение для истории и должна учитываться при изучении экономической истории, истории возникновения и развития экономических проблем. Несмотря на большое количество работ, посвященных различным проблемам и аспектам политической жизни и социально-экономического положения изучаемого периода, авторы не ставили перед собой цели всестороннего освещения. Кроме того, был собран большой материал по истории и хозяйству народов, составлено 220 названий населенных пунктов с указанием числа семей, мельниц и имеющихся земель, а также собраны сведения о кожевенном, гончарном и других промышленных производствах. Труды русских исследователей являются ценным вкладом в изучение хозяйства и культуры каракалпаков, а также экономических, торговых и иных связей с Россией. [1, Никольский А.М., 1887, Берг Л.С., 1900, Авдакушин И., с 1887 по 1891 г., Шкапский О., 1900] Отрывочные, но интересные сведения о торговых связях каракалпаков и казахов в XIX веке содержатся в трудах А. И. Макшеева, принимавшего участие в русских экспедициях 1848-1849 годов, предпринятых для изучения Аральского моря. [2, 1881, 289] В работе Л. Мейера приводятся сведения о важности создания линии русских крепостей вдоль реки Сырдарья для восстановления торговли со среднеазиатскими ханствами, в том числе с Хивой. [3, 1867, 123] В труде М.И. Иванова содержатся сведения о торговых связях каракалпаков с Россией в первой половине XIX в., а также перечень предметов, привезенных в Хиву из России купцами. [4, 1898, 285] С 1950-х годов к разработке вопросов истории Каракалпакстана более активно подключаются краеведы. Большое значение для изучения рассматриваемой темы имеют труды С.К. Камалова. [5, 1958, 256] Вопросы взаимоотношений каракалпов Ферганской долины с другими народами в XVII - начале XX вв. подробно рассматривает Л.С. Толстова. [6, 1963, 267] На современном этапе историографических исследований отсутствуют обобщающие научные исследования, отражающие развитие промышленности и хозяйственной жизни народов Каракалпакстана.

Misol uchun, Buyuk Britaniya yoki AQShdan mashhur teleko'rsatuvni tomosha qilish o'quvchilarni tilda o'rnatilgan madaniy manbalar, hazil va ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Bu talabalarga til bilan chuqurroq bog'lanishga yordam beradi, nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilaydi, balki madaniyatga nisbatan ko'proq hurmatni oshiradi. Bu, o'z navbatida, ularning o'rganishni davom ettirish motivatsiyasini oshiradi, chunki ular tilni o'zlashtirishni yangi va qiziqarli dunyoni tushunish uchun eshik sifatida ko'rishni boshlaydilar.

– *Xilma-xillik va qiziqish:* Autentik materiallar turli shakllarda bo'lib, lingvistik misollar va madaniy tushunchalarning boy to'plamini taqdim etadi. Bu xilma-xillik yangi va qiziqarli kontentni taqdim etish orqali o'quvchilarni rag'batlantirishga yordam beradi [4]. Sinfda autentik materiallardan foydalanish turli xillikni ta'minlaydi, bu esa o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini saqlab qolish uchun zarurdir. An'anaviy darslik formati ko'pincha oldindan aytib bo'ladigan tarzda qabul qilinadi, bunda o'quvchilar takroriy mashqlar va oldindan aytib qilinadigan tarkibdan voz kechishlari mumkin. Biroq, autentik materiallar yangi tarkibni taqdim etadi va darslarni dinamik va qiziqarli qiladi. Filmlar, ijtimoiy media mazmuni yoki joriy voqealarni o'z ichiga olgan sinf o'quvchilarni allaqachon tanish yoki qiziq bo'lishi mumkin bo'lgan materiallar bilan jalb qiladi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi trend mavzuni muhokama qilish yoki mashhur qo'shiq matnini tahlil qilish an'anaviy til o'rganish faoliyatiga qiziqmasligi mumkin bo'lgan talabalarni jalb qilishi mumkin. Ushbu yangilik omili shaxsiy qiziqish mavzulari bilan shug'ullanish imkoniyati bilan birgalikda talabalarining o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini mustahkamlashga yordam beradi.

– *Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va til mahoratini rivojlantirish:* Autentik materiallar bilan shug'ullanish tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, chunki o'quvchilar tarkib va uning kontekstini baholaydilar. Ular ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha qilish, turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish va o'rganayotgan til va atrofdagi dunyo o'rtasida aloqa o'rnatishga da'vat etiladi [3]. Ushbu faol qatnashish ularning o'rganish jarayonida egalik va vakolatlilik tuyg'usini yanada kuchaytiradi, chunki ular ko'proq mulohazakor va mulohaza yurituvchi til foydalanuvchilari bo'lish uchun eslab qolishdan tashqariga chiqishadi. Bundan tashqari, haqiqiy materiallar o'quvchilarning til ko'nikmalarini yanada yaxlit tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Ona tilidan foydalanishni aks ettiruvchi materiallar bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali o'quvchilar tinglash, o'qish, gapirish va yozish qobiliyatlarini yanada yaxlit va ishonchli tarzda yaxshilaydi.

Masalan, podkastni tinglash o'quvchilarga bir qator urg'u va nutq namunalari bilan tanishish imkonini beradi va bu ularning tinglab tushunish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Xuddi shunday, haqiqiy matnlarni o'qish talabalarga o'zlarining so'z boyligini kengaytirish va turli xil yozish uslublarini, rasmiydan norasmiygacha tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, real dunyo materiallaridan foydalanish o'quvchilarga til bilan chuqurroq shug'ullanish imkonini beradi va ularga kontekstda grammatika va lug'atni o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv tilni yanada samarali o'rganishga

olib keladi, chunki o'quvchilar o'z qobiliyatlarini real vaziyatlarda qo'llashlari, o'zlarining ishonchlari va motivatsiyasini oshiradilar.

Xulosa. Ingliz tilini o'rganishda autentik materiallardan foydalanish, ayniqsa motivatsiya nuqtai nazaridan juda ko'p foyda keltiradi. O'quvchilarni real dunyo tillaridan foydalanish bilan bog'lash, madaniy tushunchalarni taqdim etish va turli va qiziqarli kontentni taklif qilish orqali autentik materiallar o'quv jarayonini yanada dolzarb, qiziqarli va samarali qiladi. Real dunyo konteksti, dolzarbligi, xilma-xilligi va tanqidiy ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etish orqali ushbu materiallar yanada dinamik va qiziqarli o'quv muhitini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'zlarining o'quv dasturlariga haqiqiy manbalarni kiritish muhimligini tan olishlari sababli, motivatsiyani oshirish, tilni amaliy qo'llash va boyitilgan o'rganish tajribasi tilni o'zlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Broughton, G., Brumfit, C., Roberts, G., & Wilkins, D. Teaching English as a Foreign Language. Routledge, 2003.
2. Gilmore, A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning. In Language Teaching Research, 2007, 11(3).
3. Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press, 2003.
4. Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.
5. Peck, F. The Role of Authenticity in Language Learning. Journal of Language Teaching and Learning, 2010, 45(2), 78-90.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchilarni motivatsiyalashda autentik materiallarning ahamiyatini ko'rib chiqadi va ularning zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ajralmas elementiga aylanganligi sabablarini o'rganadi.

Kalit so'zlari: autentik material, real dunyo, real hayot, motivatsiya, media, til mahorati, o'zaro ta'sir.

Абстрактный. В этой статье рассматривается важность аутентичных материалов в мотивации учащихся EFL и исследуются причины, по которым они стали неотъемлемым элементом современных педагогических подходов.

Ключевые слова: аутентичный материал, реальный мир, реальная жизнь, мотивация, средства массовой информации, языковые навыки, взаимодействие.

Abstract. This article examines the importance of authentic materials in motivating learners of English as a foreign language and explores the reasons why they have become an integral element of modern pedagogical approaches.

Key words: authentic material, real world, real life, motivation, media, language skills, interaction.

BADIIY TARJIMA O'ZBEK-QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARIDA MUHIM VOSITA

Asamatdinova Z.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Bugungi kitobxon o'z ma'naviy dunyosini nafaqat milliy adabiyot durdonalari balki, jahon adabiyoti durdonalari bilan ham boyitishi lozim. Taraqqiyot bir joyda bir tarzda ro'y beradigan jarayon emas. U doimo o'zgarib, yangilanib boradi. Ma'lumki, biror bir millat yoki elat o'z "qobig'i"da rivoj topgan emas. Bo'lsa ham, bu dialektik qonuniyatga zid bo'lgan bo'lar edi. Hozirgi globallashuv davrida biror bir davlatni ijtimoiy, madaniy, siyosiy va adabiy aloqalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu aloqalarning amaliy jihatdan rivoj topib, takomillashuvida badiiy tarjima asosiy rol o'ynaydi. Taniqli tarjimashunos G'. Salomov badiiy tarjimini "Do'stlik ko'prigi"ga qiyos qilganda naqadar haq ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Adabiyotshunosligimizda ham adabiy aloqlar va ijodiy ta'sir masalalariga doir ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan. Ayniqsa o'zbek adabiyotshunosligida adabiy aloqalar rivoji uchun katta xizmat qilgan Karimbay Qurambayevning tadqiqotlari alohida hamiyatga ega. Shuningdek, qoraqalpoq adabiyotshunosligida ham asdabiy aloqlar bo'yicha ko'pgina izlanishlar olib borilgani quvonarli holdir. Masalan, Q.Maqsetovning "Qoraqalpoq adabiyotining qardosh xalqlar adabiyoti bilan aloqalari" (Nukus, 1987), K. Mambetovning "Navoiy va qoraqalpoq adabiyoti" (Nukus, 1991), "O'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari" (Nukus, 1993) H.Hamidovning "Sharq tillaridagi yozma manbalar va XIX asrdagi qoraqalpoq adabiyoti. Adabiy taassurotlar muammosi" (Nukus, 1991) kabi asarlarda adabiy ta'sir muammosi har xil aspektda tadqiq qilingan. Shuningdek, bugungi kunda bir qator yosh tadqiqotchilar ushbu masala bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari yoqlashmoqda. Bu jarayon ham o'z navbatida adabiy aloqalar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Adabiyot tarixida shunday ijodkorlar borki asarlari bilan bir emas, bir nechta xalqning sevimli adibiga aylangan, boshqa millatlarning ham "o'z yozuvchisi" darajasiga ko'tarilgan. Ana shunday ijodkorlarda biri Zulfiya Isroilovadir.

Zulfiya Isroilova o'zbek xalqining naqadar ardoqli shoirasi bo'lsa qoraqalpoq xalqining ham shunchalik sevimli ijodkoridir. Zulfiya she'rlari kirib bormagan, Zulfiyadek shoira bo'lishni orzu qilmagan birorta qoraqalpoq qizi bo'lmasa kerak. Negaki Zulfiya o'z she'rlari bilan qoraqalpoq xalqining ham "o'z shoiri" darajasiga yetishgan ijodkordir. Adabiy aloqalardan ko'zlangan maqsad ham aynan shunda. Zero, akademik Baxtiyor Nazarov ta'kidlaganidek, "Adabiy aloqa faqat bordi-keldi va tadbirlarda ishtirok etishdangina iborat emas. Adabiy aloqaga, eng avvalo, adabiyotimizning badiiy teranligiga faol ta'sir ko'rsatadigan, uni xalqaro miqyoslarga ko'tarish va jahon adabiyoti kontekstida o'z o'rnini egallashida muhim ahamiyat kasb etadigan, milliy g'oyalarimizni mustahkamlashga xizmat qiladigan, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy ravnaqimizning muhim belgilarini ko'rsatib, komil shaxs yo'nalishidagi insonni tarbiyalash ishi bilan mustahkam bog'langan jarayon sifatida qarashimiz lozim"[1,2]. Zulfiya she'rlaridagi sadoqat, erk, muhabbat, sog'inch tuyg'ulari bugun qoraqalpoq adabiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

“Xalqning, millatning o‘zga yurtlarda ham shuhrat qozonishida adabiyot vositachilik rolini o‘ynaydi. Har bir ijodkor xalqini, millatini olamga yoyish bilan an‘analarini umuminsoniy g‘oyalar ruhida targ‘ib qiladi. Agar bu jarayon san‘atkorona uslubda ifoda etilgan bo‘lsa, yozuvchining shuhrati ortadi. Dunyoga taniladi, bir emas ko‘pchilik xalqlar va elatlarning ham hurmatiga sazovor bo‘ladi”[2,259]. Adabiyotimizning zukko shoiralaridan biri Zulfiya ham ana shunday ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning har bitta she‘ri tilimizning umumiyligi, umumturkiy xalqlar tarixiy ildizlarining birligi, ruhimizning butunligi sabab o‘zbek va qoraqalpoq tillarida birdek aks-sado beradi. Har ikki xalqning qalbini birdek junbushga keltiradi. Har ikki millat adabiyotiga birdek xizmat qiladi. Shu bois ham “Zulfiya lirikasi rus, ukrain, qozoq, ozarbayjon, tukman, qoraqalpoq, ingliz, hind, afg‘on, arab, chex, polyak, bolg‘ar, venger, mo‘g‘ul, fransuz va nemis kitobxonlari tomonidan ham o‘qilyapti. Shoir mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishi rang-barang bo‘lgan she‘rlarida o‘zining yetuk iste‘dod egasi ekanligini namoyon eta olgan. She‘rlarida qo‘llanilgan tasvir usullari va vositalari, badiiy obrazlar tuyg‘u va kechinmani o‘ziga xos tarzda tasvirlashga yo‘naltirilgan. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni yuksaltirishga katta yordam beradi. Shunday ekan shoir ijodi mavzu ko‘lami va mohiyati jihatdan salmoqlidir”[3,2]. Atoqli qoraqalpoq shoiri Ibrayim Yusupov o‘z she‘rlarida Zulfiya ijodiga juda yuqori baho beribgina qolmay uning asarlaridan ta‘sirlanganiga ham urg‘u berib o‘tadi:

Zulfiya oqisa o‘z qosiqlarin,	Ha'mde azat shig'is hayallarinin'
Pu'tkil ruwxim menen oni tin'layman.	Go'zzallig'in, nazikligin an'layman[4,3].

Adabiy aloqa har qanday adabiyotning rivoji uchun nihoyatda zarur omillardan biri sanaladi. “Adabiy mahdudlik va badiiy tafakkurning biqiq holga tushib qolishi, avvalo, boshqa adabiyotlarni o‘rganmaslik, o‘z adabiyotiga tanqidiy nazar bilan qaray bilmaslik, qiyoslash, solishtirish imkoniyatidan mahrumlik hisobiga ro‘y beradi. Shu ma‘noda uzoq va yaqin xorijdagi barcha adabiy hodisalarni o‘rganib borish, badiiy yangiliklardan boxabarlik, mutolaa va ijodiy aloqalarga kirishish muayyan xalqqa mansub har qanday adabiy -jarayonni professional jihatdan oziqlantirish demakdir[1,2]. Zulfiya she‘rlarining qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi ham o‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari yo‘lida tashlangan dadil qadamlardan biridir. Qoraqalpoq ijodkorlari tomonidan qilingan tarjimalar badiiyligini va mukammalligi also yo‘qotmagan holda yangicha ruh va tuyg‘ular bilan jarang topmoqda:

Aynegimning aldinda bir tup,	Sum ayriliq mitrimi joq jau
Erik appaq bolib gulleli.	Jalin eken jandi sharpig'an
Ol oyatti qayg'imdi turtip,	Sen sig'alap turg'andaysanav
Gu eme bul dardlerim edi.	Gulleb turg'an erik artinnan.

Teran fikrlovchi shoir Zulfiya hayot haqida o‘ziga xos tarzda poetik fikr yuritdi va o‘z asarlarini falsafiy mazmun bilan bezaydi. Ushbu tarjima I.Yusupov qalamiga mansub bo‘lib, she‘rni ilk dafa o‘qigan kitobxon she‘r huddi qoraqalpoq tilida yozilgandek jaranglayotganligini sezishi qiyin emas. Bu, albatta, tarjimonning yuksak mahorati va qalami o‘tkirigidan dalolat beradi.

Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri ham xuddi shunday mahorat bilan tarjima qilingan:

Salqin sahralarda, badam g‘ulinde,	Jáne báhár kelip, mine, áziyím,
Bináfsha lábinde saylarda báhár,	Seni taba almay aqıldan sastı.
Samal jelisinde, quslar tilinde,	Qıstıñ jaǵasınan tuttı «qayda?» dep,
Maqqal oypatlarda, qirlarda báhár...	Egil-tegil jılap qıs keyin qashtı.

Bawırım, súyer edín báhárdi sonday,	Tañ samalı bolıp jelpip jerindi,
Erik güllerine qumartıñ ábden.	Sen jurgen baglardı qıdırdı tınbay.
Aǵash búrtik jarsa, shesheñ tuwǵanday,	Seniñ jaqsı kórgen súwretleriñdi,
Kózleriñe súrtip óber edín sen.	Jasıl dalalardıǵa saldı sharshamay.

Seni taba almay dabıl boldı da,
Dúzge alıp qashtı báhár óz basın.
Farhad tawlarına jetip bardı da,
Tik jardan saylarǵa awnattı tasın

Endi esa she‘rning asl variantiga nazar tashlasak:

Salqin saharlarda, bodom gulida,	Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
Binafsha labida, yerlarda bahor.	O‘rik gullarining eding maftuni.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,	Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...	Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari

Ibrayim Yusupovning poetik mahorati shundaki she‘rning ruhini, milliyiligini saqlab qolish bilan birga she‘rga yangi hayot ham ato etgan. Qoraqalpoq tiliga xos bo‘lga iboralar bilan she‘rni yana ham boyitgan. Misol uchun: “Aǵash búrtik jarsa, shesheñ tuwǵanday” yoki *Egil-tegil jılap qıs keyin qashtı* kabi misralar buning isbotidir.

Badiiy asarning milliy o‘ziga xosligini, unda yaratilgan davr ruhini tarjimada qayta tiklashning murakkabligi shundaki, milliylik alomatlarini mana-man deb ko‘zga aniq tashlanib turadigan belgilardangina iborat emas. Bunda hatto tarjimonning asl nusxa tilini chuqur bilishning o‘zi ham kamlik qiladi. Ona tilini biladigan hamma odam ham yozuvchi

bo'lavermaganidek, boshqa millat tilini puxta o'rgangan har bir kishidan ham tarjimon chiqavermaydi. Tarjimon asl nusxaning tilini bilishdan tashqari, shu til egasi bo'lmish xalqning tarixi, dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy mushohadasi, turmush tarzini ham chuqur o'rganishi, eng asosiysi ularning muayyan asardagi in'ikosini yaxlit manzara tarzida yurakdan his qilmog'i lozim. Asarning milliy o'ziga xosligi yozuvchining individual uslubi bilan ham chambarchas bog'liq. Barchamizga ma'lumki, birorta adabiyot adabiy aloqalarsiz yoki jahon adabiyoti ta'sirisiz o'z holicha rivojlana olmaydi. Milliy adabiyotlarning dunyo miqyosida yuksalishi uchun albatta ta'shq ta'sir katta ahamiyatga ega. Birgina misol, qaysiki qalami o'tkir, asarlari umuminsoniy g'oyalarni tashiydigan, butun dunyoga mashhur adiblar biografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, albatta, jahon adabiyoti durdonalaridan ilhomlanganligini bot-bot ta'kidlaydilar. "Adabiy aloqalar badiiy tarjima, adabiy ta'sir, jonli muloqotlar, ijodiy hamkorlik, do'stona munosabatlar, ustoz-shogird an'analari o'zanida shakllangan, millatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O'zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko'ra turli ko'rinishlarda davom etib kelgan. Hozirgi paytda mazkur soha jahoniy miqyosda rivoj topib, uning yangi shakllari paydo bo'ldi, jumladan, ijodkorlarning badiiy tarjima vositasida jahon adabiyoti tajribalariga murojaati kuchaydi"[4,2]. Bu esa milliy adabiyotlarning rivojiga hissa qo'shishi, milliy adabiyotlarni umumjahon e'tirof etgan asarlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, badiiy tarjima – o'zaro aloqa va ta'sir vositasidir. Adabiy aloqalar bir yozuvchi ijodining bir yozuvchi ijodiga samarali ta'siri, ikki asar orasidagi badiiy-g'oyaviy robitalar kabi mushtarak jihatlarni qamrab oladi va shu orqali adabiyotlar rivojiga hiss qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/adabiy-aloqalar-ijodiy-jarayon-ko-zgusi-davra-suhbati>
2. Qurambayev K. Turkiy adabiyotning zabardast adibi. Toshkent, Turon-iqbol. 2011. 259-bet
3. Ro'zmuradova D. O'zbek ayolining asl Zulfiyasi//Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" Ilmiy amaliy koferensiya. T.: 2023, 2-bet
4. <https://ibroyimyusupov.narod.ru/kr/lirikaqq.html>

Korkem awdarma o'zbek-qaraqalpaq adabiy baylanislarinda ahmiyetli qural

Rezyume. Bul maqalada adabiy baylanislardir adabiyotlar rawajlanishidagi ahmiyeti haqqida so'z etilgan. O'zbek-qaraqalpaq adabiy baylanislarini o'zine tanligi ham Zulfiya doretivshiligini qaraqalpaq adabiyatiga tasiri, awdarma mashqalalari tallangan.

Kalit so'zlar. Adabiy baylanis, doretivshilik tasir, awdarma, Zulfiya, Ibrayim Yusupov, janahiq, ideya, obraz, forma, millet, tuwisqan huqqlar, awdarmashiliq.

Badiiy tarjima o'zbek-qaraqalpoq adabiy aloqalarida muhim vosita

Rezyume. Ushbu maqolada adabiy aloqalarning adabiyotlar rivojidadagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan. O'zbek-qaraqalpoq adabiy aloqalarining o'ziga xosligi va Zulfiya ijodining qaraqalpoq adabiyotiga ta'siri, tarjima muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Adabiy aloqa, ijodiy ta'sir, tarjima, Zulfiya, Ibrayim Yusupov, yangilik, g'oya, obraz, shakl, millat, qardosh xalqlar, tarjimashunoslik.

Literary translation is an important tool in Uzbek-Karakalpak literary relations

Summary. This article talks about the importance of literary communication in the development of literature. The uniqueness of Uzbek-Karakalpak literary relations, the impact of Zulfia's work on Karakalpak literature, and translation problems are analyzed.

Key words. Literary communication, creative influence, translation, Zulfia, Ibrayim Yusupov, innovation, idea, image, form, nation, fraternal rights, translation studies.

Художественный перевод – важный инструмент в узбекско-каракалпакских литературных связях.

Резюме. В данной статье говорится о значении литературного общения в развитии литературы. Анализируются своеобразие узбекско-каракалпакских литературных связей, влияние творчества Зулфии на каракалпакскую литературу, проблемы перевода.

Ключевые слова. Литературное общение, творческое влияние, перевод, Зулфия, Ибраим Юсупов, новаторство, идея, образ, форма, нация, братские права, переводоведение.

«ASHIQ NÁJEP» DÁSTANINDA DUWTAR, BAQSISHILIQ, SAZ ÓNERINIŇ TUTQAN ORNI HÁM ÁHMIYETI

Jepbarova S. Q.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

XV ásiriden baslap, awızeki dástúrge aynalğan túrkiy xalıqlar saz óneriniń tiykarǵı shaxsı, tuwrıdan-tuwrı miyrasxorı bolǵan, óz dóretken jańa epikalıq shıǵarmaların ózleri sazǵa qosıp, el arasında taratqan óner iyeleri – baqsılar bolǵanı hámimizge málim.

Túrkiy xalıqlar arasında erteden keń tarqalǵan mádeniy miyraslarımız esaplangan dástanlarımızdan «Góruǵlı», «Shahsánem-Gárip», «Sayatlı-Hámra», «Warqa-Gulsha», «Alpamış», «Ashıq-Nájep», «Ashıq Albent» hám t.b. oqıǵanıımızda olardıń syujetinde tiykarǵı qaharmanlar baqsılar bolǵan (bul jerde kóbinese ashıq delinedi), ózleriniń qolına duwtar alıp, xalıq arasında, toy-merekelerde, yaki ózleriniń basına is túskende ózleriniń ishki sezimlerin, pikirlewlerin sazǵa qosıp, qosıq aytqan hám ónerdiń qúdiretin kórsetiwge hárezet etedi. Usı pikirlerdiń ayqın mısalı «Ashıq Nájep» dástanında da kózge taslanadı. Shıǵarmada sóz hám sazdıń bir pütünligi sıyaqlı ózgeshelik ayırıqsha bolıp, folklor dástanları ushın tán qásiyet esaplanadı. «Ashıq Nájep» dástanı proza, poeziya, qosıq vokal improvizaciyası hám sazdı ózi ishine aladı.

Sonlıqtan, dástanın tiykarǵı ózgesheligi de – onıń saz dúnyasınıń kóptúrliliginde. Dástan ózinde epikalıq, lirikalıq hám qaharmanlıq sıyaqlı qásiyetlerdi jámleydi.

Joqarıda belgilep ótkenimiz sıyaqlı, erte dáwirde berli baqsıshılıq óneri xalıq arasında keń málim bolıp, baqsılar toy-tamashalarda qosıq hám dástanlardı atqarǵan. Xalıq bul ónerge úlken qızıǵıwshılıq penen qaraǵan. Erte de el arasında «Baqsı» sózi qásiplesken óner terminini bolıp, baqsı sóziniń kelip shıǵıwı haqqında dúnya alımları ózleriniń pikirlerin de bildirgen. Máselen, túrkmen folkloristi B. Veliev óziniń «Türkmen xalıq poeziyası» (Ashgabat, 1990) atlı kitabında qıtay, xindi, mongol, túrk, tatar, sanskrit tillerindegi «baqsı» sóziniń etimologiyalıq kelip shıǵıwın salıstradı hám orınlı pikirlerdi ortaǵa qoyadı. Ol minaday maǵlıwmatlardı keltiredi:

«Ayırım ilimpazlar «baqsı» sózin qıtay tilindegi «baq-sı» (úgit-násiyatshı, muǵallım) degen sózden kelip shıqqan dep aytadı. V.V. Bartold bolsa, ol mongollar zamanında sanskrit tilindegi «bxikshu» (sekretar, mürze) sózinen kelip shıqqan bolıwı kerek dep shamalaydı. Erte zamanlarda mongollar luqpanlarǵa baqsı degen eken. Biraq házirgi waqıtta bul sóz mongollarda, manjurlarda hám qalıqlarda ruwxanıy mánisinde qollanıladı. Baburiyler dáwirinde Xindistanda joqarı lawazımlı adamlardı baqsı dep ataǵan eken. Erte zamanlarda túrkler hám mongollar mámleket ushın rásmiynamalardı jazǵan mürzelerge (xatker) baqsı deydi eken. Qazaqlar arwaq-jin-pırlardı shaqıratuǵın qosıqlardı saz (muzıka) penen aytıp, awırıwdı emleytuǵın shamanlardı, túrkmenler bolsa pútkil dástanlardı hám arnawlı aytımlardı saz (muzıka) arqalı atqaratuǵın kásiptegi adamlardı baqsı dep ataǵan. E.D. Tursunovtıń pikirlerine qaraǵanda, qazaqlardıń shaman mánisinde qollanılatuǵın «baqsı» sózi qıtaylardıń «baqsı» sózinen emes. Sanskrit tilindegi «bxikshu» sózinen de emes. Ol «qon» sózinen «qońsı» sóziniń payda bolǵanı sıyaqlı, túrk tiliniń «baq» degen sózinen jasalıp, awırıwdı baǵıwshı, táwip degen mánisti anlatadı. Tatarlarda házirge shekem táwipke «baǵuchı» delinedi. Bizin pikirimizshe túrkmenlerdin «baqsı» sózi qıtaylardıń «baǵ-shı» sózinen kelip shıqqan» [1;124]. Belgili ózbek folklortanıwshı ilimpazı M. Juraev ózbek folklorında baqsı atqarıwshılıǵı haqqında sóz ete otırıp, baqsılardıń el arasında dástanlardı, qosıqlardı atqarǵanlıǵın hám ózbek folklortanıwında eń birinshi mártebe akademik T. Mirzaev tárepinen arnawlı izertlenip, ilimiy aynalısqı kirgizilgenin belgileydi [2;61]. Yaǵnıy, alımnıń «Xalıq baxshılarining epik repertuari» atlı miynetinde atap ótilgeni sıyaqlı baqsıshılıq ustaz-shákirt dástúrleriniń dawamında payda bolatuǵın óner, ertede baqsılardıń oqıtıw-úyretiw jumısları awızeki ráwishte alıp barılǵan eken [3;171]. Belgili alım Xodi Zarifov baqsı mogul tilinde hám buriyat tilinde baxsha sózlerinen alıńǵan bolıp, ustaz maǵrifatshı degen mánislerdi bildiredi. Ózbek tilinde baqsı keń mániste xalıq dástanshısı, dástanlardı atqarıwshı, yadta saqlawshı hám áwladtan-áwladqa jetkeriwshı ónermentshi retinde túsiniledi [4;77] dep belgileydi. XX ásiridin 80-jıllarınń basında A. Musaqulovtıń termeler haqqındaǵı dissertaciya hám maqalalarında dástanlardı atqarıwshı baqsılar haqqında pikir júritedi [5;261-272]. Azerbaijan folklorında baqsı sózi «Ashik» dep atalıp, bul dástúr XV- XVI ásirlerde payda bolǵan [6;15]. Mine, keltirilgen maǵlıwmatlardan belgili bolǵanı sıyaqlı baqsı hám onıń el arasında qosıq aytıp, xızmet etiw haqqındaǵı haqıyqatlıq erte dáwirlerden saǵa aladı. Sebebi, «Xalıq óz saz-muzikasınıń payda bolıwına, saz qurallarınıń jasalıwına, ásirese, sázendelerdin ómir jolına mifikalıq qásiyet bergen. Egerde, duwtardıń jasalıwında Baba Ğambar obrazına mifikalıq qúdiret berip, xalıq sazınıń payda bolıwında ózleriniń eń dáslepki ápiwayı túsinińlerin bildirgen bolsa, Ashıq Aydin haqqındaǵı ańızlarda óner retindegi sazdin, muzikanıń talapları, baqsınıń wazıypaları jóninde keń toqtap ótiledi» [7;3].

Usı orında túrkmen xalqınıń arasında saz quralı duwtardıń jasalıwına Baba Ğambardıń magiyalıq kúshi haqqındaǵı túsinińler erte dáwirlerden saqlanıp qalǵan hám bul túsinińlerde ulıwmalıq xarakter kózge taslanadı. Máselen, Barzua Sasaniyler sarayında sheber sázende bolǵanı ushın ol úlken sıyıqqa-húrmetke miyassar bolǵan. Ol künde bir saz jaratıp, bir jıldı 360 saz jaratqanı haqqında ángimeler saqlanıp qalǵan. Barzua xalqımızdin ishinde duwtardıń Piri Baba Ğambar degen pikirlerdi bildirgen eken. Baba Ğambar duwtardıń Piri esaplınsa, al Ashıq Aydin Pir saz óneriniń Piri esaplanadı. Bunıń haqıyqatqa sáykes keletuǵını da kózge taslanadı. Máselen, házirgi Türkmenistan topraǵında saz óneri menen baylanıslı eki úlken Pirdin zıyarat jayları bar. Baba Ğambardıń zıyarat jayı Marı wálayatında, al, Ashıq Aydin Pir baǵı bolsa, Tashawız wálayatında jaylasqan. Geybir ańızlarǵa qaraǵanda, Baba Ğambar duwtardıń Piri dep tanılıwınıń sebebi, ol eń birinshi duwtar soqqan insan sıpatında qabıl etilgen hám xalıq arasında húrmetke ılayıq bolǵan. Maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda, Baba Ğambardıń duwtar soǵıw ustalıǵı da mifologiyalıq túsinińler menen baylanıslı. Bul haqqında ańızlar saqlanıp qalǵan. Máselen, «Baba Ğambar duwtardı oylap tawadı, biraq, ol saz quralı menen seyqırlı, sırlı sazları jarata almaǵan. Qansha háreket etse te, duwtardan saz shıqqaydı. Kúnlerden bir kúni Baba Ğambar qolındaǵı duwtar menen oylanıp otırǵan waqıtta, tosattan onıń qasına shaytan (Iblis) kelgen. Shaytan Baba Ğambardan ne ushın bunday oyǵa batıp otırǵanın soraydı. Baba Ğambar duwtardı soǵǵanlıǵın, biraq, onnan hawaz shıqqay atırǵanın aytadı. Shaytan duwtardan sazdin hawazın shıǵarıw jolların biletuǵının aytadı. Biraq, shaytan Baba Ğambarǵa shárt qoyadı, yaǵnıy, duwtardı oylap tabıwda shaytannıń da kómegi bar ekenin tán alıp, oǵan adamlardı isendiriwdi aytadı. Baba Ğambar ilájsızlıqtan razı boladı. Sonnan keyin shaytan Baba Ğambarǵa duwtardıń qaysı bóleklerine tar (perde) qoyıwdı úyretedi. Baba Ğambar shaytannıń aytqan nárselerin ámelge asırǵan waqıtta duwtardan hawaz shıǵadı [8;230]. Sonlıqtan, xalqımız arasında duwtardıń payda bolıwında ádetten tis iláhiy kúshler, magiyalıq tiykarlardıń bar ekeni haqqındaǵı túsinińler saqlanǵan.

Duwtar hawazınıń sıyqırlı qúshi haqqında ata-babalarımızdan saqlanıp qalǵan túsinińler óz ornında jazba ádebiyatta da kórkem pikirdi bayanlawda keń qollanılgan. Duwtar, saz óneri haqqındaǵı ańızlar kórkem jazba ádebiyatta interpretaciya etilgen. Máselen, XVIII ásir túrkmen shayırı Maxmıt Gayıbı óziniń «Gelende bardyr!» atlı qosıǵında:

Saz bilen sóhbeti ýaman diýmänler, / Adam ata dúnyä gelende bardyr [9;458] -- dep belgileydi.

XVIII ásir türkmen klassik shayırı Maqtimqulı da bul dúnyanın jaratılısın sarayğa uqsatıp, onı saz hám sáwbet penen qurılğanılığın salıstırmalı túrde parallel súwretleydi.

Dünyä bir saraydyr, saz bile söhbet [10;12].

Shayırlardıń qosıqlarında bayan etilgen pikirlerdiń tiykırı erte dáwir islam mifologiyası menen baylanıslı ekeni kózge taslanadı. Yaǵnıy, xalıq folklorında hám türkii xalıqlar shayırı Rabǵuzıydıń «Qıssasul anbiya» shıǵarmasında da adamnıń, dúnyanın payda bolıwı saz óneri menen baylanıslı ekenligi haqqında ańızlar saqlanıp qalǵan. Máselen, «Qudaytaala Adam atanı payda etkende ılaydan qamır soǵıp, onıń adam formasındaǵı háykelin pútkil 40 kún saqlaǵan eken. Ol óziniń ruwxınan (janı) adamnıń denesine dem salǵanda, topıraqtan payda bolǵan dene ullı ruwxı (jan) kótere almay hár gezekte jawıq deneniń ishinen sırtqa shıqqan. Tez waqıtta Qudaytallanıń hámiri menen ruwx (jan) insannıń topıraqtan jaratqan denesine jayǵasıwı ushın qollarında duwtarı bolǵan úsh perishte saz shertip baslaydı. Allataalanıń ruwxıy (janı) júreкке barıp jetkende ráhátlenip, mınaday degen: «Ey, bir Quday! Meni sazdıń qúshi menen dene qapasınıń ishine jayǵastırdıń. Sonıń ushın hár sapar sazdıń hawazın tıńlasam, ózimnen ketip, qálbim tolqınlanǵanın sezemen» – depti». Xalqımızdıń isenimine göre, elege shekem adamlar duwtardıń júrekti tolqındırıwshı hawazın esitkende ishki sezimleri janlanadı. Sebebi, Qudaydıń atı, ruwxıy adam denesine usı sazdıń qúshi menen sińgen eken».

Mine, saz óneri, tiykarınan xalqımızdıń ótmishi menen tuwrıdan-tuwrı baylanıslı hám onıń dárekleri ertedeǵı animizm, fetishizm dáwirlerine barıp taqaladı. Hámmemizge málim, xalqımız erte dáwirlerden berli saz tıńlap, qosıq aytıp, duwtar, girjek shertip, ózleriniń qayǵılı kúnlerin jeńip ótiwge háreket etken bolsa, quwanışlı kúnlerinde de quwanışın usı saz-muzıka arqalı bayan etken. Bul xalqımızdıń salt-dástúrlerine aynalǵan. «Milliy sazdıń óner dárejesine jetiwine shekem basıp ótken jolı xalqımızdıń ańız-ángimeleriniń, gúrrińleriniń ishine sińip ketken. Xalıq óz sazınıń payda bolıwına, saz qurallarınıń jasalıwına, ayrıqsha sázendelerdiń ómir jolına mifikalıq qásiyet bergen» [11;3] – dep, S. Gutlievanıń belgilegeni sıyaqlı saz óneri adam ómirinde úlken áhmiyetke iye. Jáne de bir misal, qosıq-sazdıń júdá erte waqıtlardan baslap adam turmısında múnásip orın iyelegen haqqında sóz etilgende Maxmıt Zamaxsharıydıń «Jaqsılardıń báhári» atamasındaǵı eki tomlıq kitabında: «Muxammed Alayxsalam Mákke qalasınan Madına qalasına kelgende, Madına qalasınıń puqaraları onı qosıq aytıp, saz benen qútip alǵan» [12;106] degen maǵlıwmatlardı da aytıp ótiwimizge boladı.

Saz óneri baqsılar xızmeti arqalı joqarı shoqqılarǵa kóterilgen. Xalıq dóretywshiliginiń tiykarǵı tipi bolǵan baqsılar repertuarınıń dárekleri erte dáwirlerden beri dawam etip kiyatırǵanın «Ashıq Álbent», «Ashıq Nájep» dástanlarında Ashıq Aydıń Pir, Álbent, Nájep hám Nawrız obrazlarınan kóriwge boladı. Bul haqqında S.Gutlieva «... bul shıǵarma xalıqtıń baqsı hám aytım-saz ónerine bolǵan kózkarasın social qarama-qarsılıqlardıń ishinde ashıp beredi» – dep, júdá durıs pikirdi alǵa súredi. Haqıyqatında da «Ashıq Nájep» dástanında baqsıshılıq óneri, onı iyelewde orınlanıwı kerek bolǵan wazıypalar, ustaz-shákirt mektebi hám t.b. máseleler adamnıń tálim-tárbiyası menen birge meńgeriwı kerek ekeni haqqındaǵı ideyalar aldǵa qoyıladı. Dástannıń mazmunında bayanlanǵan waqıyalarda baqsıshılıq óneriniń ózine jetik qıyınshılıqlı wazıypaları da boladı eken, biraq usı wazıypalardı orınlamaǵan adam haqıyqıy baqsı bola almaydı dep kórsetiledi. Bunı dástanda Álbent hám Nájepniń xarakterlerin salıstırǵanımda kózge taslanadı. Dástanda baqsıshılıq óneri menen bir qatarda, erte dáwirdegi jámiyetlik turmıstıń qarama-qarsılıqları da parallel ashıp beriledi.

«Baqsılar, ásirese, baqsı shayırlar ustaz-shákirt dástúrlerine qatań ámel etken. Olar óz ónerlerin sır saqlaǵan yaǵnıy, iláhiyat penen baylanıstıradı. Buǵan sebep – xalqımızdıń baqsılardı, epikalıq dóretywshilikti muqaddes, dep biliwinde»[13;61]. «Ashıq Nájep» dástanında saz ónerine itibar berilgeni sıyaqlı türkii dástanlarında da usınday mazmun kózge taslanadı. Máselen, Shıǵıs ellerinde keń tarqalǵan «Aslı Kerem» dástanında da saz ónerine úlken itibar berilip, bas qaharman Kerem óziniń muhabbatın saz arqalı bayan etedi. Dástanda Kerem toydıń üstinen barǵanda, sol toyda Alı degen baqsınıń qosıq aytıp, saz shertip otırǵanın kóredi: «Bunday baǵda basqa búlbil yar olmaz» degen qosıǵın aytadı. Kerem óz muhabbatı Aslını izlep, qıdırıp júrgende, bir Bázirgenge dus keledi. Bázirgen onı óz eline alıp qaytpaqshı boladı. Sonda Kerem oǵan múrajaat etip, bir qosıq aytıp beredi. Bázirgen oylanıp, oǵan: «Eger ashıq bolsań, duwa áyle ki, bul taw ashılıp, saǵan jol bersin, sizdi azat eteyin» [14;119] - dep aytadı. Nátiyjede, Kerem óz aldında turǵan bálent tawǵa aytım-saz benen múrajaat etedi:

Seniń akja garyń bardyr,	Uzak ýerde ýarym bardyr,
Meniń ahy-zarym bardyr,	Bir ýol ber, aşalyń, daglar!

«Tahir hám Zuhra» dástanında Tahirdiń jalınıp múrajaat etiwinde tawdıń jarılıwı sıyaqlı, Keremniń bul ahıw-zarınan, qosıq-sazdıń qúdiretinen tawdan jol ashıladı. Sonday-aq, Kerem aytım-sazdıń járdemi menen aspandaǵı tırnalardı jerge qondıradı. Dástanda sazdıń qúdiretinen tawdıń bas qaharmanǵa jol ashıp beriwı menen birge taw túsiniǵi de mifologiyalıq tiykarlarǵa iye.

«Ashıq Nájep» dástanınıń mazmunınan qosıq hám sazdıń qanday dárejede úlken áhmiyetke iye ekenin tariyxıy dáwir, jámiyetlik sananıń ólsheytuǵının seziwge boladı. Máselen, dástanda Soltanesen patshanıń mıń sútemker bolsa da, biraq, saz ónerine úlken áhmiyet beriwı, eline kelgen qonaqlardı saz-sáwbet penen sıylap, olarǵa baqsılar tárepinen duwtar sherttirip, saz tıńlatıw epizodların aytıp ótiw orınlı. Sonlıqtan, belgili türkmen folkloratıw izertlewshisi A.Miradov baqsıshılıq óneri haqqında mınaday pikirlerdi bildiredi. «... dáwir hám sananıń tariyxında qosıq (aytım)-saz táwipshilik xızmeti, magiyalıq kúshi hám kúdireti, adamdı ruwxıy jaqtan tárbiyalawı, qanaatlardıwı, estetikalıq hám ruwxıy tilegin bayıtıwdı óziniń tiykarǵı maqseti esaplaǵan. Qosıq-saz-muzıka ruwxıy zárúrliktiń nátiyjesinde payda bolǵan, ol zárúrlik tariyxıy jaǵday, sociallıq túsiniń, milliy tuyǵı tiykarında rawajlanıp, tariyx aǵımında shoqqılarǵa shıqqan: kerek jerinde sawashtan, xannan-bekten ústem bolǵan, kerek jerinde sharshaǵan, ázzilengen ruwxıy yoshlandırǵan, adam kewlin kóterip, qáwender

bolgan»[15;9]. Izertlewshiniń belgilegeni sıyaqlı, haqıyqatında da saz óneriniń hújdanlılıqqa, ádatatqa xızmet etiwın «Ashıq Nájep» dástanında da kóriwge boladı. Máselen, dástanda Álbent baqsınıń Sonaga úylenip, onıń izine túsip kelgen balası Nájepke úyinde atqa qarap turıwdı aytqanda, Nájepтіń te atalıǵı Álbenttiń aytqanın orınlamay, balalıq etip, oyınǵa qızıǵıp, oyın menen bolıwı shıǵarmada qarama-qarsılıqtı payda etedi. Usıdan keyin, Nájep, atsına qarsısına shıǵıp, onnan ósh alıw maqsetinde saz ónerin úyreniwge Ashıq Aydıń Pirge shákirt túsedi. Onıń esiginde jeti jıl xızmet etedi. Nájep ustazınıń barlıq buyırǵın orınlap, barlıq qıyınshılıqlardı sabırlılıq penen jeńip, jeti jıldan keyin Ashıq Aydıń Pirden pátiya alıp, óziniń jolına rawana boladı. Sonlıqtan, Nájep óziniń miyneti menen úyrengen sazların duwtarda shertip, atalıǵı Álbent penen xan sarayında jarıladı. Nátiyjede, Nájep atalıǵı Álbentti saz ónerinen utıp shıǵıp jeńiske erisedi.

Dástanda bayanlanıwına qaraǵanda, hár bir adam óz kásibiniń jetik mamanı bolıwı kerek. Biraq, usı jetiklikke jetilisiwi ushın oǵan ustazı sabaq beredi, jetik Pir tayınlanadı. Usı orında Nájepтіń de jetik sázende bolıp jetilisiwinde saz-ónerdiń Piri Ashıq Aydıń oǵan ustaz bolıp, onı óz mektebinde tárbiyalaydı, saz ónerin úyretedi, járdem beredi. Sonıń menen birge, ustaz pir óziniń shákirtiniń adamgershilik pazyletlerge de iye bolıw kerek ekenin ayrıqsha belgilep, Nájepті tárbiyalaydı. Shákirt ustazınan ruxsat alıwı kerek boladı.

Usı orında Álbenttiń óz ógey balası Nájepтен jeńiliwine balasınıń sheber sázende bolıp jetiskenligi sebep bolǵan bolsa, ekinshiden, Nájepтіń kishipeyilligi, adamgershilik pazyletke iye bolıwı sebep boladı. Sebebi, aldındaǵı bólimlerde belgilep ótkenimiz sıyaqlı «Ashıq Nájep» dástanınıń birinshi bólimi bolǵan «Ashıq Álbent» dástanında Álbent baqsıshılıq ónerin úyreniw ushın Ashıq Aydıń Pirge shákirt turǵanda, ol ustazınıń pátiyasın almay, menmenlik etedi. Mine, usı men-menlik qásiyet te Álbenttiń baqsıshılıq ónerinde jeńiliwine sebep boladı. Biraq, Ashıq Aydıń Pir Álbenttiń menmenmenlik qásiyetin jaqsı kórmeydi. Sonıń ushın Ashıq Aydıń Pir Nájepke pátiya bergende menmenlik, takabbırlıq áyleme dep, násiyat beredi. Álbenttiń bolsa óz menmenlik qásiyeti benen saz ónerinde sátsizlikke ushıraytuǵının aytadı. Sonıń ushın Ashıq Aydıń Pir Nájepge pátiya beriwden aldın oǵan násiyat beredi:

Sen borgan song shoh istamas Albandı,

Pandim budur: takkabburlik aylama.

Takabburlik ǵuch yigitni xor etar,

Pandim budur: takkabburlik aylama [16;84].

Ashıq Aydıń Pirdiń bergen násiyatları adamda adamgershilik pazyletlerdi tárbiyalawda, kishipeyil bolıwda, hár kimniń óz jolın taba alıwında jol-joba bolatuǵını kózge taslanadı. Usınday epizodlar «Ashıq Nájep» dástanınıń ózbek hám túrkmen versiyalarında uqsaslıqtı payda etedi. Máselen, túrkmen she versiyasında:

Sen baran soń şa istemiş Elbendi,

Pendim budur: tekepbirlik eyleme.

Tekepbirlik goç yigide har getir,

Pendim budur: tekepbirlik eyleme [17;30].

degen qosıq qatarlarında Ashıq Aydıń Pirdiń Nájepge aytqan násiyatları sáwlelendirilgen. Usı jerde qosıq qatarların salıstırıp talqıǵa tartqanımda, olar 11 buwınlı, tórt qatarlı dástúriy qosıq formasında bayan etilgen bolıp, olardıń mazmunı da bir-birine uqsaydı. Al usınday Ashıq Aydıń Pirdiń Nájepge násiyat beriw epizodları qaraqalpaq versiyasında ushıraspaydı. Sonlıqtan, «Ashıq Nájep» dástanınıń ózbek versiyası menen túrkmen versiyaları qaraqalpaq versiyalarına qaraǵanda bir-birine júdá jaqın ekeni kózge taslanadı. Mine, bunday qubılıslar dástandı atqarıwshı baqsılar hám qıssaxanlardıń repertuarına baylanıslı ózgesheliklerdi payda etetuǵını málim. Sonlıqtan, hár bir xalıq, millettiń óz milliy mentalitetinen kelip shıqqan halda, «Ashıq Nájep» dástanı da hár qıylı repertuarda atqarılǵan.

Sonı da aytıp ótiw kerek, dástanda Ashıq Aydıńniń óz shákirtine pátiya beriw motivı, basqa xalıq dástanları menen salıstırıp qaraǵanımda ózgeshelikti payda etedi. Máselen, basqa xalıq dástanlarında qaharmanǵa pátiya kóbinese túsinde beriledi. Al, «Ashıq Nájep» dástanında Ashıq Aydıń tuwrıdan tuwrı ózi pátiya beredi. Pátiya beriw xalıq folklorında keń túsiniń esaplanadı. Jáne de sonı aytıp ótiw kerek, Ashıq Aydıń Pir xalıq dástanlarında pátiya beretuǵın jetik Pir retinde keńnen málim. Máselen, xalıq qaharmanlıq dástanlarınan biri «Góruǵlı» dástanında da Ashıq Aydıń Pir Góruǵlıǵa pátiya beredi. Sebebi, Áǵayunus ózi páriy bolıwına qaramastan Góruǵlı bekke qarap, Ashıq Aydıń Pirden pátiya alıwdı máslihat beredi.

Biraq, joqarıdaǵı epizodlardan belgili bolǵanı sıyaqlı «Ashıq Nájep» dástanınıń ulıwmatúrkıy versiyalarına tán qásiyet - qosıq-sazdıń xadallıqqa xızmet etetuǵın wazıypası ashıp beriledi. Sonıń menen birge, «Ashıq Nájep» dástanınıń ideya-mazmunında sazdıń tınlawshıǵa ruwxıy lázzet beriwshi qúdiri de kórkem bayan etiledi.

Joqarıda talqıǵa tartqan «Ashıq Nájep» dástanınıń túrkıy sonıń ishinde ózbek, qaraqalpaq, túrkmen versiyalarınń barlıǵında da ulıwmalıq sóz etiletuǵın tiykarǵı waqıya xalıqtıń saz – sáwbetke, úrp-ádet dástúrlerge, mádeniyatka úlken mehir qoyıwı, sonıń menen birge muhabbat, mártlik temalardı da keń sáwlelendiriledi. Usı xalıq versiyalarında dástanınıń bas qaharmanı Nájep bolıp, tiykarǵı waqıyalar usı qaharman arqalı bayan etilgen. Yaǵnıy, dástanda sáwlelendiriletuǵın waqıyalardıń barlıǵı baqsılardıń turmısı menen baylanıslı bolıp, ideya-tematikalıq baǵdarı boyınsha basqa xalıq dástanlarınan ayırılıp turatuǵını málim.

ÁDEBIYATLAR

1. Welıyew B. Türkmen halk poeziyası. – Aşgabat, 1990.
2. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari (o'quv qullanma). – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirzaev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Zarifov H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar– Toshkent: Fan, 1996.
5. Musaqlulov A. Shoir termalari // Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o'rni – Toshkent: Fan, 1978.
6. Sánubár Baǵirova. Azárbaycan aşıqlari. Baku, 2009.
7. Gutlyewa S. «Nejep ogan» dessany. – Çärjew.1990.

8. Halil İbrahim Şahin. Türkmenistan sahəsi destancılık geleneği ve türkmen destanları. Doktor.diss. – Turkiya: Balıkesir, 2009. <http://katalog.tdk.gov.tr>
9. Gaýyby M. Diwan. – Aşgabat: Miras, 2005.
10. Magtymguly. Eserler ýygındysy. II jilt. – Aşgabat: 2012.
11. Gutlyewa S. «Nejep oğlan» dessany. – Çärjew, 1990.
12. Mahmyt Zamaşary. Ýagşyzadalaryň bahary. III j. – Aşgabat: Miras, 2004.
13. Jabbor E. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: 2011.
14. Asly-Kerem. Türkmen halk dessany. – Aşgabat, 2004.
15. Myradow A. Ilaman bagşy hem-de onuň edebi folklor mirasy. – Aşgabat: Magaryf, 1992.
16. Oshiq Najab (doston) “Oshiqnoma”: Xorazm dostonlari. Nashrga tayyorlovchilar S.Ro'zimboev, X.Ro'zimboev, N.Matniyozova, N.Raimova. – Urganch, 2009.
17. Nejep oğlan (dessan). – Aşgabat: Türkmenistan, 1977.

«Ashiq Najep» dāstanında duwtar, baqsishılıq, saz öneriniñ tutqan ornı hām āhmiyeti

Rezyume. «Ashiq Najep» dāstanında baqsılar tiykarınan xalıq awızeki shıǵarmaların atqarıw, olardı keleshek áwladlarga jetkeriw ushın dáwirler arasında kópır xızmetin de atkarǵanlıǵı, olardıñ ustaz-shákirt mektebinde tálim alǵanlıǵı anıq kózge taslanadı. Dāstanda xalıqtıñ duwtar, saz ónerine bolǵan muhabbatı hām sazdıñ tásirshenligi menen tıñlawshılardıñ dıqqat-itibarın tartıwı, sonday-aq, duwtarǵa magiyalıq qúdiret retinde qarawları kórkem sáwlelendiriledi.

Tayanish sózler: folklor, baqsı, shıǵarma, duwtar, saz, óner, dāstan, epizod, versiya, ańız.

The role and significance of the duutar, bakshilik, and the art of saz in the epic «Ashiq Najep»

Abstract . In the epic “Ashiq Najep”, it is clearly visible that the bakshis performed the most service between the eras in order to perform folk oral works and pass them on to the future generations. In the epic, the people's love for duutar, the art of music, and how it attracts the attention of the listeners with the impressiveness of the music, and at the same time, they look at duutar as a magical power, are artistically described.

Key words: folklore, bakshi, work, duutar, music, craft, epic, episode, version, narrative.

Роль и значение дутара, бахшилика и искусства саза в эпосе "Ашиқ Нажеп"

Аннотация. В дастане "Ашиқ Нажеп" ясно видно, что бахши в основном исполняли устные народные произведения, служили мостом между эпохами для передачи их будущим поколениям, они обучались в школе наставника-ученика. В дастане художественно отражается любовь народа к дутару, музыкальному искусству и привлекательность музыки, привлекающая внимание слушателей, а также его отношение к дутару как к магической силе.

Ключевые слова: фольклор, бахши, произведение, дутар, музыка, искусство, поэма, эпизод, версия, легенда.

G'AZAL JANRINING POETIKASI VA MAJZUB NAMANGONIY IJODIDAGI O'RNI

Boyatov O. M.

University of Busines and Science o'qituvchisi

ToshDO'TAU tadqiqotchisi

G'azal janrining nazariy asoslari haqida adabiyotshunoslarimiz tomonidan juda ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan. Adabiyotshunoslikda g'azal janri haqida ilk ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam” asarida “G'azal dar asli lug'at hadisı zamon va sifati ishqibozi bo' eshon va taholuk dar do'sti eshon ast[1, 62]” ya'ni “G'azal so'zining lug'aviy ma'nosi ayollar haqida gapirish, ularga nisbatan bizning vujudimizda paydo bo'lgan xushyorlikni va sevgini so'zlab berish” - ma'nosida uchraydi. Atoulloh Husayniy ham “Badoyi us-sanoyi” asarida bu haqida “Xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmak, ma'shuq jamolini zikr etmak[2, 25]”, - deya Qays Roziy fikrini tasdiqlagan. XVI asrda yashagan Qabul Muhammad yaratgan “Haft kulzum” asarida “Bilib qo'yki, g'azalning lug'aviy mazmuni xotinlarga sevgi izhor qilish va ular bilan munosabatdir va uning istilohiy mazmuni bir necha baytning bir qofiya va vazn bilan birikuvidir. Bunday she'rlarning avvalgi baytining har ikki misrasini matla' deb aytilur. Ikkinchi baytning har ikki misrasi juft qofiyalangan bo'lsa, u matlaga zeb va xusndir. Oxirgi baytini maqta' va xotima deydilar. G'azalda, ko'pincha, mahbubaning jamoli, sifatleri, oshiqning ahvoli va kechinmalari tasvirlanadi. Va'z va nasihat she'riyatning boshqa turlarida ifodalanadi. G'azal visolmi yoki firoqmi, nima bilan boshlangan bo'lsa, o'sha bilan tugashi kerak[3,18]” - deya ta'rif berilgan. G'azal lirikaning janri sifatida dastlab, arab adabiyotida vujudga kelgan. Bu haqida arab adabiyotshunosi Xanna – al Faxuriy shunday: “ islom dini vujudga kelgunga qadar ham arablarda g'azal shakli bo'lgan va bu shakl orqali unda sevgi kechinmalari bayon etilgan. G'azal-xotin-qizlar, ularning qiliq va sifatleri, lirik qahramonning o'z sevgilisiga nisbatan bo'lgan muhabbatı va u bilan suhbatlar kuylangan she'r, qo'shiq[4, 42]” deya ta'riflaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, g'azal mumtoz adabiyotimizda “oshiqona so'z”, “ishq izhoh qilish”, “ayollarga xushomad qilish” ma'nolarini anglatadi.

Adabiyotshunoslikda g'azallarni tasniflashda turlicha fikrlar bor. Abduqodir Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”[5, 26], Odiljon Nosirovning “O'zbek adabiyotida g'azal”[6, 31] monografiyasi, Nusratilla Jumaxo'janing “Munisning badiiy mahorati”[7, 32] dissertatsiyasi, Dilnavoz Yusupovanning “Aruz va mumtoz poetikaga kirish”[8, 154] darsliklarida bu haqida ma'lumot olish mumkin.

Abduqodir Hayitmetov: “Navoiy o'z g'azallarini va umuman g'azallarni g'oyaviy-tematik jihatdan shartli ravishda uch turga bo'ladi: 1. Oshiqona g'azallar. 2. Rindona g'azallar. 3. Orifona g'azallar”[9, 18]. Odil Nosirov esa o'zbek mumtoz adabiyotda g'azallarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qiladi: oshiqona; orifona; rindona; hajviy va yumoristik; axloqiy-

ta'limiy; peyzaj; publisistik [6, 32]. A. Hayitmetov Navoiyning "Badoyi ul-bidoyi" devonidagi tahlil etish mobaynida shoir devoniga hamd, na't va mav'iza g'azallar ham borligini ta'kidlaydi.[9, 18].

Adabiyotshunos olim Dilnavoz Yusupova g'azallarni uch turga qarab tasniflagan. I. **Qofiyalanishiga ko'ra**: 1. Oddiy yoki odatiy g'azallar; 2. G'azali husni matla; 3. G'azali qit'a; 4. G'azali musajja; 5. G'azali mulamma; 6. G'azali muvashshah; 7. G'azali mushoira; 8. G'azali zulqofiyatayn; 9. G'azali zuldarifayn; 10. G'azali zebqofiya. II. **Kompozitsion jihatidan**: 1. Parokanda; 2. Voqeaband g'azallar. III. **G'oya va mavzusiga ko'ra**: 1. Hamd; 2. Na't; 3. Oshiqona; 4. Orifona; 5. Rindona; 6. Axloqiy-ta'limiy; 7. Ijtimoiy-falsafiy; 8. Hajviy; 9. Peyzaj va boshqalar kabi turlarga bo'lgan. Bizning fikrimizcha ham D. Yusupova singari alohida turlarga bo'lib tahlil qilish ma'qul.

Majzub Namangoniy ijodida ham g'azallar qofiyalanishiga ko'ra oddiy, g'azali husni matla, g'azali qit'a, g'azali mulamma, g'azali muvashshah; kompozitsion jihatdan parokanda va voqeaband; G'oya va mavzusiga ko'ra hamd, na't, oshiqona, orifona, rindona, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy g'azallar mavjud. Quyida ijodkorning bir g'azalini tahlilga tortamiz.

Tolibo, so'zlar esang albatta Allohdin gapur,

Olaming'a Haq yuborg'on Hadyatullohdin gapur [10, 3^a].

G'azal 11 baytdan iborat bo'lib, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda "gapur" so'zi radif qilib olingan. Qofiyadosh so'zlari: Allohdin, Hadyatullohdin, Oyatullohdin, rahmatullohdin, astag'firullohdin, san'atullohdin, ne'matullohdin, Habbatullohdin, Hikmatullohdin, Shay'anullohdin kabilar bilan ifodalangan. G'azal qofiyalanishiga ko'ra oddiy (a-a, b-a, c-a, d-a, f-a, g-a) g'azal turiga kiradi. Kompozitsion jihatidan baytlar o'zaro bir-biriga yaqin ma'noda, biri ikkinchisini uzviy davom ettirgandek holda yozilganligi sabab voqeaband g'azal deyish mumkin. G'oya va mavzusiga ko'ra orifona, oshiqona, axloqiy-ta'limiy g'azallar sirasiga kiradi.

G'azalda boshdan oxirgacha tasavvufiy terminlarni uchratish mumkin. Shoir she'rni yozishda undalma "Tolibo" so'zi bilan boshlagan. Tolibo – tolib, bilim oluvchining ko'plik shakli. Ilm yo'liga kirgan toliblar gapurmoqchi bo'lsangiz Haq taolo allohdan gapiring. "Hadyatulloh" baytda bu so'z Muhammad s.a.v ni nazarda tutilgan bo'lib, Alloh tomonidan bu olamga yuborilgan elchi Muhammad s.a.v haqida gapir deya tolibi ilmlarga xitob qilinmoqda. G'azalning matla'sida Haq taolo va uning rasuli haqida so'z yuritib, ularning fazilarlarini madh etishga qaratilgan.

G'azalning keying baytlarida ham ilm egallamoqchi bo'lgan imtiloliblarga murojaati davom etadi:

Poklar endi jahong'a hukmini yetkurg'ali,

Vahyi kelg'onlarga, salovoti oyatullohdin gapur [10, 3^a].

Baytda "poklar" deya Allohning elchilari payg'ambarlarni nazarda tutib, vahiy olish orqali Allohning so'zlarini insonlarga yetkazish orqali, salovot aytib "oyatulloh" Allohning muborak oyatlari haqida gapirishga undaydi. Insonlarga payg'ambarlar nafaqat xabar yetkazuvchi, balki dunyoni adolat bilan boshqaruvchi ekanligiga ishora qiladi. Bu haqida Muso alayhissalomni Fir'avn bilan kurashi, yoki Sulaymon payg'ambarning adolatli hukmronligi kabilarga ishora qiladi.

Yaxshi so'zla, yaxshi yuzla, yaxshi ko'zla yaxshig'a,

Yaxshilarga madh aytib, shavqi Allohdin gapur [11, 3^a].

Baytda shoir tashbeh, istiora va takrir kabi san'atlardan oqilona foydalangan. "yaxshi so'z", "yaxshi yuz", "Yaxshi ko'z" insonni zohiriy odob-axloqi, hulqini anglatadi. Ilohiy ishqqa olib boruvchi yo'lda kuzatiladigan unsurlar hisoblanadi. "Shavqi Alloh" – botiniy dunyo, qalb va ruhiy poklikni ifodalaydi. Tasavvuf tariqatidagi "Ma'rifat" yo'lini anglatadi.

Gar gunah kubdin ko'ngil yuzlansa suyi yorig'a,

Oyati "Lo taqnatu min rahmatullohdin" gapur [10, 3^a].

Ushbu bayt tasavvufiy ilm va Qur'oni Karim oyatlariga asoslangan. Yaratgan allohdan umid uzmaslikka targ'ib, inson qalbini poklashga undash holati bor. Shoir baytda Qur'oni Karimning "Zumar" surasi 53-oyati "Lo taqnatu min rahmatulloh"ga ishora qilib, Iqtibos san'atining go'zal namunasi keltirib o'tadi. Oyatda shunday fikrlar keltirilgan: "Ey jonlariga qarshi haddan oshirgan bandalarim! Allohning rahmatidan nomud bo'lmang! Albatta, Alloh barcha gunohlarni kechiradi. Zero, U kechiruvchi va mehribondir"[11, 153].

Ko'p savob ettim deyub ko'ngil quvonsa ey birov,

Jurmingi yod ayla va astag'firullohdin gapur [10, 3^a].

Морфема – двусторонняя языковая единица. Она состоит из единства семантической (план содержание) и фонетической (звуковой) сторон. Следовательно, один из геминативных согласных, рассматриваемых как явление геминации в некоторых словах, выполняет словообразовательную функцию: *-с– ысы (глагол) – ысы (прилагательное), -ш – ашы (глагол) – ашыы (прилагательное), -з – маза (существительное) – маза (междометие), -ш – қашан (местоимение) – қашшан (наречие), -л – жыл (глагол) – жылы (прилагательное) и др.* Например: Жазда сизлерге *ысы* өтпей ме? (Вам не будет жарко летом?) (М.Нысанов). Темирши *ашыы* болса да ҳақыйқатты айтқан еди (Кузнец, хоть и говорил горькую правду, но сказал истину) (К.Каримов). Ол жигиттен бул сөзлерди күткени *қашшан* (Он давно ожидал этих слов от молодого человека) (К.Каримов).

В некоторых источниках это рассматривается как разновидность "фонетико-семантического способа" словообразования [9: 31-32], следовательно, считают, что слово производное. Слова *«ысы, ашы, маза, қашан, жылы»* являются производящими основами, которые являются базой для образования новых слов. Такие основы, являющиеся базой для образования новых производных слов, называются производящими основами [8: 14].

В заключение следует отметить, что в каракалпакском языке наряду с суффиксами, постфиксами, префиксами, флексиями также существуют интерфиксы и инфиксы. Интерфикс – **аффиксальная** морфема, выполняющая функцию соединения морфем, не имеющая самостоятельного словоизменительного и словообразовательного значения. С этой точки зрения они занимают позицию более близкую к фонемам. В виду этого имеются различные описания интерфиксов в виде структурной морфемы, и вопрос морфемного состояния остается спорным. Хотя в научной литературе каракалпакского языка интерфиксы не рассматриваются, нельзя отрицать их роль в словообразовании. Вопрос об инфиксах решается в языкознании в зависимости от принципов выделения морфем и определения их существенных признаков. То, что в каракалпакском языке обнаруживается явление, схожее с инфиксом, которое редко наблюдается в языках мира, может привлечь внимание многих ученых-лингвистов. Каждое из этих явлений требует более тщательного исследования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бекбергенов А. Рус хэм каракалпак тиллериниң салыстырмалы грамматикасы (Сөз жасалыўы хэм морфология) – Нөкис, «Билим»1995. –140 б.
2. Бердимуратов Е., Дәулетов А. Тил билимине кириспе– Нөкис, «Қаракалпақстан»1988. –276 б.
3. Дәулетов А. Хәзирги каракалпак әдебий тилиниң сеслик дүзилиси. – Нөкис, «Билим» 1995. –280 б.
4. Dawletov A, Dawletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili (Morfemika, morfonologiya, sózjasalıwhámmorfologiya). Nókis, «Bilim» 2010. – 252 б.
5. Земская Е.А. Интерфиксация в современном русском словообразовании // Развитие грамматики и лексики современного русского языка. – Москва, «Наука» 1964. – 362 с.
6. Кудайбергенов М.С. Каракалпак тилиниң морфологиясы. –Ташкент, «Зар қалам» 2006. –144 б.
7. Плу́нги́н В. А. Почему языки такие разные. – Москва: АСТ-пресс, 2010. –272 с.
8. Хәзирги каракалпак әдебий тилиниң грамматикасы (Сөз жасалыў хэм морфология). – Нөкис, «Билим»1994. –451 б.
9. Хәзирги каракалпак тили (Морфология). – Нөкис, «Қаракалпақстан»1981. –266 б.

Қарақалпақ тилидаги интерфикс ва инфикслар

Резюме. Мақолада ҳозирги қарақалпақ тили грамматикасы ва дарсликларида аффикс морфемаларнинг сўз қурилишидаги ўрнига кўра суффикс, постфикс, префикс, флексия каби уч ёки тўрт тури ўрганилиб келинаётганлиги, шу билан бирга қарақалпақ тилида интерфикс, инфикслар ҳам учраши кўрсатилади. Интерфикс – морфемаларни бириктириш функциясини бажарувчи, ўз-ўзидан сўз ўзгартириш ва сўз яшаш маъносига эга бўлмаган ёрдамчи морфема, инфикс – тилшуносликда морфемаларни аниқлаш тамойилларига ва уларнинг зарурий белгиларининг таърифларига боғлиқ ҳолда ҳал этилиши зарур масала эканлиги айтилади. Шунингдек, уларнинг ҳар бири алоҳида тадқиқ қилиниши таъкидланиб, интерфикс, инфиксларга назарий таърифлар берилиб, мисоллар орқали далиллаб берилган.

Таянч сўзлар: морфема, сўз ясалиши, сўз ўзгариши, аффикс, суффикс, постфикс, префикс, флексия, интерфикс, инфикс.

Интерфиксы и инфиксы в каракалпакском языке

Резюме. В статье указывается, что в современной грамматике и учебниках каракалпакского языка изучаются три или четыре типа аффиксальных морфем, такие как суффикс, постфикс, префикс, флексия, в зависимости от их позиций в структуре слова. Кроме изложенных выше морфем, показано также наличие интерфиксов и инфиксов в каракалпакском языке. Отмечается, что интерфикс - это **аффиксальная** морфема, служащая для соединения морфем в словах и не имеющая самостоятельного словоизменительного и словообразовательного значения. Вопросы инфикса в языкознании находят свое решение на основе

принципов определения морфем и описания их необходимых признаков. Также подчеркивается, что каждый из этих типов морфем требует отдельного исследования. В статье даны теоретические определения интерфиксов и инфиксов, которые подкреплены примерами.

Ключевые слова: морфема, словообразование, словоизменение, аффикс, суффикс, постфикс, префикс, флексия, интерфикс, инфикс.

Interfixes and infixes in the karakalpak language

Abstract. The article states that in modern grammar and Karakalpak language textbooks, three or four types of affixal morphemes are studied, such as suffix, postfix, prefix, and inflection, depending on their position in the word structure. In addition to the listed morphemes, interfixes and infixes are also present in the Karakalpak language. It is noted that an interfix is an affixal morpheme that serves to connect morphemes in words and does not have an independent word-modifying and word-building meaning. Infixation issues in linguistics find their solution based on the principles of defining morphemes and describing their necessary features. It is also emphasized that each of these types of morphemes requires separate research. The article provides theoretical definitions of interfixes and infixes, supported by examples.

Key words: morpheme, word formation, word change, affix, suffix, postfix, prefix, inflection, interfix, infix.

AXBORIY HOMIYLIK: IJTIMOY TA'SIRNI OSHIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Aminova D.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Kirish. Maqolada homiylik atamasining rivojlanishi va uning bugungi biznesdagi o'rni tahlil qilinadi. Homiylik inglizcha "sponsor" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab kino sanoatida va boshqa ommaviy tadbirlarda qo'llanilgan, ammo bugungi kunda u kompaniyalar uchun ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, brend imidjini shakllantirish va obro'ni mustahkamlashda muhim vositaga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda homiylik nafaqat mablag' jalb qilish, balki ijtimoiy va kommunikativ maqsadlarga erishish, shuningdek, brendning imidjini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Homiylikni xayriya yoki sadaqadan ajratib ko'rsatish kerak, chunki xayriya asosan maqsadsiz va foydasiz bo'lib, shaxsiy manfaatlar ko'zlanmaydi, homiylik esa biznesning muvaffaqiyatlarini namoyish etish va ijtimoiy foyda yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Maqolada homiylikning PR texnologiyalaridagi roli va uning ijtimoiy mas'uliyatni oshirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

"Homiylik" atamasi inglizcha "sponsor" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, soz'zma-soz "to'lovchi, iqtisodchi" degan ma'noni anglatadi. Atamaning zamonaviy talqini XX-asrning boshlarida kompaniyalar o'z mahsulotlari va xizmatlarini sotish uchun kino sanoati istiqbollaridan foydalana boshlaganlarida paydo bo'lgan.

Hozirgi kunda biznesning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish bilan bog'liq homiylikka qiziqish ortib bormoqda. Homiylik yuzasidan turli rakurlarda qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, bozorda kompaniya va brendlarning mavqeini saqlash va mustahkamlash imkonini beradigan noyob integratsiyalashgan medotikadir [1, 98-106]. General Foods va Coca-Cola kompaniyalari birinchilardan bo'lib homiylikni boshidan o'tkazgan kompaniyalar sirasiga kiradi.


PRSG (PR Service Group) nomli imij va kommunikatsiya kompaniyasining PR maslahatchisi D.Juravlev fikricha, **homiylik** - istalgan reklama effektiga erishish uchun homiylik qiluvchi kompaniyadan loyiha yoki tadbirga mablag'larni jalb qilishni anglatadi. Homiylik investitsiyalari uchun jalb qilingan kompaniya bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qiladi [2]:



Kompaniya obro'sini shakllantirishdagi homiylik faoliyati imidjning kommunikativ modeliga bevosita bog'liq. Tashkilot nufuzi esa korporativ ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismini tashkil etadi. Homiylik nuqtai nazaridan, imidjni boshqarish ikki turga bo'linadi:



Amaliyotda mazkur ikki jarayon odatda homiylikning texnologik mexanizmi doirasida bir vaqtda amalga oshiriladi [3]:




Homiylik biznes PR texnologiyalari toifasiga kiradi. Ammo homiylikni marketing vositalari nuqtai nazaridan *hayriya*, *ehson* va *sadaqa* deb qabul qilish noto'g'ri. Umuman olganda, *homiylik* va *xayriya* (*ehsonlar*) kompaniyaning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini, biznes faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni baham ko'rish va foydaning bir qismini ijtimoiy foydali maqsadlarga yo'naltirishga tayyorligini, ijtimoiy sohada ma'lum bir qo'shimcha foyda yaratishni nazarda tutadi. Xayr-ehsonlar verbal va kommunikativ manfaatlariga erishishda aniq maqsadni ko'zlamasdan, biznesning PR vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. G'arbda tovar ko'rinishidagi xayr-ehsonlar *mebel*, *interyer jihozlari*, *kiyim-kechak*, *maishiy*

elektronika va o'yinchoqlar sotish kabi sohalaridagi kompaniyalar, supermarketlar va chakana savdo korxonalari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladi [4].


Xayriya shaxsiy manfaatlarni ko'zlamaydi. U o'z pozitsiyasi va qadriyatlarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Shuning uchun xayriya ba'zan anonim ravishda amalga oshiriladi va unga keraksiz e'tibor jalb qilmaydi. Marketing maqsadlariga erishish uchun esa homiylik amalga oshiriladi. Xayriyadan farqli ravishda homiylik bir qator majburiyatlarga ega [5].

Homiylik uni taqdim etayotgan kompaniyaning obro'sini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Homiylikning maqsadlari xayriya maqsadlaridan farq qiladi. Homiylik shakli va sohasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u har doim kompaniya marketing strategiyasining iqtisodiy foyda olishiga qaratiladi. Shuningdek, u biznes PR strategiyasi kommunikativ konsepsiyasining bir qismini ham tashkil qiladi. Har bir homiylik kampaniyasi huquqiy shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Unda har ikki tomon – homiy va homiylik qiluvchi subyektlarning majburiyatlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Qoidaga ko'ra, homiylik aksiyalari bir marotabalik emas, balki ma'lum bir biznes uchun qiziqarli bo'lgan yangi maqsadli auditoriyani jalb qilish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli, uzoq muddatli jarayon. Eng asosiysi, manfaatlarning o'zaro bog'liqligi tamoyiliga qat'iy rioya qilinadi [6].

Axboriy homiylik maqsadi [7]



PR Service Group nomli imij va kommunikatsiya kompaniyasining PR maslahatchisi D.Juravlev qayd etishicha, homiylik loyihasining muvaffaqiyati homiyning o'z vazifalari bilan homiylik loyihasi tomonidan hal qilingan vazifalarga mos kelgan taqdirdagina amalga oshiriladi. Bunga erishishda homiylik paketi muhim ahamiyat kasb etadi. *Homiylik paketi* - homiylik qilingan aksiyaning zaruriy ta'sirini ta'minlaydigan huquqiy, dasturiy, moliyaviy, ijodiy va me'yoriy hujjatlarning to'liq to'plami. Homiylik paketi ikkita yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi [2]:



HOMIYLIK KO'MAGINING TURLARI

- Pul** – bu eng mashhur qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib, unda kompaniya hamkor tadbir o'tkazishi yoki loyihani amalga oshirishi uchun xayriya qiladi;
- Axboriy yordam** – tadbir haqida ma'lumot tarqatish ham yordam beradi. Ushbu homiylik formati ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, bloggerlar va turli ta'sir o'tkazuvchilar tomonidan taqdim etiladi. Ular maqsadli auditoriyani jalb qiladi va ijobiy imidj yaratishga yordam beradi;
- Tadbirlarni tashkil etish** – bunda biznes jismoniy yoki boshqa turdagi yordam ko'rsatishi mumkin. Masalan, mehnat bilan ta'minlash, ishtirokchilar uchun qimmatbaho sovg'alar tayyorlash va h.k.;
- Moddiy-texnik yordam** – bu moliyaviy yordamning kichik turi. Kompaniya pul ajratmaydi, balki mustaqil ravishda asbob-uskunalarini sotib oladi;
- Professional xizmatlar** – homiylik kompaniyaga bepul xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, bank ehsonlarni yig'ish uchun maxsus hisob raqamini ochishi, qurilish tashkiloti madaniy yodgorliklarini rekonstruksiya qilishda ishtirok etishi;

6. **Gumanitar yordam** – kompaniyalar ko‘pincha tabiiy ofatlardan jabrlangan hududlarga dori-darmon va mahsulotlar yetkazib berish bilan shug‘ullanishi kiradi [8].

Homiylikning turlari orasida axboriy homiylik yuqori ko‘rsatkichlarga erishmoqda. Masalan, 2023 yildan boshlab mazkur strategiya kompaniyaga sifatli yetakchilarni jalb qilish imkonini yaratib berdi. Madaniyat, san‘at va turizm markazining jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha menejeri E.Pitolin keltirgan ta‘rifga ko‘ra **axboriy homiylik** – bu reklama beruvchi, ya‘ni biron-bir tadbir haqidagi har qanday ma‘lumotni nashr etmoqchi bo‘lgan shaxs ma‘lum shartlar asosida axborotni joylashga rozi bo‘luvchi konkret OAV o‘rtasidagi munosabatlar turiga aytiladi [9].

Bizningcha, **axboriy homiylik** - bu tadbir haqidagi har qanday ma‘lumotni nashr etmoqchi bo‘lgan shaxs (reklama beruvchi) va ma‘lum shartlar bilan axborotni nashr etishga rozi bo‘luvchi konkret ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar turidir. Shuningdek, axboriy homiylik imijini boshqaruvchi va shakllantiruvchi PR vositasi ham hisoblanadi.

Axboriy homiylikning o‘rni va roli oshib bormoqda. Ko‘plab mamlakatlarning taniqli va obro‘li kompaniyali media makonda yuqori ko‘rsatkichlar va o‘ziga xos imijini shakllantirishda axboriy homiylikdan unumli foydalanmoqdalar. Shuningdek, brend kompaniyalari turli internet nashrlari bilan hamkorlikda o‘z mahsulotlari haqidagi ma‘lumotlarni muntazam joylashtirishga ham erishilmoqda.

Kompaniya uchun homiylikning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi [8]:

BREND XABARDORLIGINI OSHIRISH - kompaniya turli tadbirlarda ishtirok etish orqali brend va uning mahsulotlarini keng auditoriyaga namoyish etish, shuningdek, mahsulotlar uchun qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

IMIJNI YAXSHILASH - madaniy va xayriya tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash potentsial mijozlar ongida ijobiy imidj yaratish, shuningdek, korporativ madaniyat qoidalarini harakatlar bilan mustahkamlash imkonini beradi;

YANGI MIJOZLAR VA HAMKORLARNI JALB QILISH - to‘g‘ridan-to‘g‘ri reklama, homiylik tadbirlari kiradi. Ular maqsadli auditoriyani kengaytirishga yordam beradi, yangi bozorda o‘zini namoyon qilishga ko‘maklashadi.

MAVJUD HAMKORLAR VA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH - homiylik muayyan qadriyatlarga ega bo‘lgan kompaniyalar va mijozlar bilan mustahkam va uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatish uchun vosita bo‘lishi mumkin.

Lidlar uchun axboriy homiylik jarayoni quyidagilarni qamrab oladi [10]: Qimmatbaho kontent yaratish: Kompaniya o‘zining maqsadli auditoriyasi uchun noyob, qiziqarli va foydali bo‘lgan axborot materiallarini ishlab chiqadi. Bular **elektron kitob, video darslik, infografika** va boshqalar bo‘lishi mumkin. Kontentni joylashtirish: Kompaniya kontentin o‘zining veb-saytida yoki blogida nashr etadi, shuningdek, ma‘lumotni tarqatish uchun **ijtimoiy tarmoqlar, video hosting yoki boshqa onlayn platformalardan** foydalanishi mumkin. Murojaat ma‘lumotlarini yozish: qimmatli kontentga kirish uchun foydalanuvchilar o‘z ma‘lumotlarini (**ismi, elektron pochta manzili yoki telefon raqami**) ko‘rsatishi kerak. Bu lidlarni to‘plash va potentsial mijozlar bilan aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Lidlar bilan ishlash va o‘zaro aloqa: kompaniya olingan murojaat ma‘lumotlaridan lidlar bilan keyingi o‘zaro aloqa qilish uchun foydalanadi. Bular jumlasiga **shaxsiylashtirilgan elektron pochta xabarlari, qo‘ng‘iroqlar yoki tadbirlarga taklifnomalar** yuborish kiradi.

Axboriy homiylik jarayonining birinchi bosqichida har bir tashkilot va kompaniya o‘zining maqsadli auditoriyasi uchun noyob, qiziqarli va foydali bo‘lgan axborot materiallarini taqdim etishda infografikadan unumli foydalanadi. Shuningdek, aksar global tarmoq foydalanuvchilari **elektron kitoblarni** afzal deb hisoblamoqdalar.

Kompaniya faoliyatiga oid ma‘lumotlar endilikda nafaqat tashkilotning rasmiy sahifasi, balki **ijtimoiy tarmoqlar, video hosting yoki boshqa onlayn platformalardan** foydalanish tendentsiyasi ham kuzatilmoqda. Odatda kompaniya rasmiy saytida murojaat ma‘lumotlari beriladi. Mijozlar ma‘lumotlarga egalik qilishlari uchun to‘liq **ism sharif, elektron pochta manzili yoki telefon raqamlarini** ko‘rsatishlari talab etiladi. Ammo ba‘zan rasmiy sahifaning teskari aloqasiga javob beruvchi mutaxassislar berilayotgan savollarga o‘z vaqtida javob bermaslik holatlari uchrab turadi. Shunday holatda kompaniya imiji va obro‘sini saqlash maqsadida kompaniya bilan mijozlar o‘rtasida o‘zaro aloqani ta‘minlashi kerak. Kompaniya tomonidan tashkil etilgan tadbirlar haqidagi ma‘lumotlar **shaxsiylashtirilgan elektron pochta xabarlari, qo‘ng‘iroqlar yoki taklifnomalar** orqali mijozlarga taqdim etiladi.

Axboriy homiylik Internet resurslarini targ‘ib qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ko‘rgazma, konsert, sport bayrami singari tadbirlar haqida reklama va maqolalar joylashtirish orqali saytda bepul reklamaga ega bo‘lish mumkin. Bu o‘z navbatida quyidagi ko‘rinishda aks etadi: logotip va veb-sayt manzilingizni tadbir reklama materiallari (plakatlar yoki flayerlar), shuningdek, matbuot va tadbir ishtirokchilari uchun materiallari (bosma kataloglar, press-revizlar va boshqalar) joylashtirish; tadbirda reklama stendlari yoki bannerlarini joylashtirish; reklama mahsulotlarini tarqatish imkoniyati [11]. Axborot homiyi bo‘lish juda oson. Ommaviy axborot vositalari bilan ishlash uchun mas‘ul bo‘lgan PR menejerlari imkon qadar ko‘proq media homiylarini jalb qilishga intiladi. Biroq, ular ma‘lum bir resurs bilan hamkorlik qanday samara berishi mumkinligini har doim ham to‘g‘ri aniqlay olmaydilar. Hatto kam tashrif buyuriladigan sayt ham qiynalmasdan maksimal homiylik paketini olishi mumkin. Axboriy homiylik ko‘pincha keng jamoatchilik orasida turli konferentsiyalar, kontsertlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilishda ishlatiladi. Shuningdek, axboriy homiylik vositasida ommaviy axborot vositalari tadbirni axborot bilan ta‘minlaydi. Axborot homiylari esa o‘z sahifalarida tadbir haqidagi e‘lonlarni taqdim etib, tadbirga bag‘ishlangan maqolalarni nashr etadilar [7]. Axboriy homiylik, homiylarga ijtimoiy va biznes manfaatlarini amalga

o'shishda yordam beradi. Homiyning brendini targ'ib qilish, maqsadli auditoriyaga erishish va ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish orqali tadbir yoki loyiha muvaffaqiyatini oshirish mumkin. Bu turdagi homiylikda axborot va reklama vositalari muhim o'rin tutadi, chunki ular homiyning o'z brendini keng tarqatish va tanitish imkoniyatlarini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki: Homiylikni hayriya, ehson va sadaqa sifatida bir xil tasniflash noto'g'ri. Mazkur tushunchalar bir-biridan farqli. "Homiyluk paketi" - bu odatda tadbirlar, loyihalar yoki boshqa turli faoliyatlarni amalga oshirish uchun tashkilot yoki shaxs tomonidan moliyaviy yoki boshqa resurslar taqdim etishni nazarda tutuvchi paketdir. Axboriy homiylik - bu axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni himoya qilish va ularga ruxsatsiz kirishdan saqlanishga qaratilgan faoliyatdir. Axboriy homiylik tizimi tashkilotning ichki va tashqi xavfsizlik choralari, axborot tizimlarining himoyasi, ma'lumotlarga erkin kirishni boshqarish orqali amalga oshiriladi. Axboriy homiylik, homiyning o'z brendi yoki tashkilotning imidjini rivojlantirish va targ'ib qilishda katta rol o'ynaydi. Homiy axboriy yoki media resurslar (yangiliklar, maqolalar, intervyular, bloglar, reklama)ni tadbir yoki loyiha bilan bog'lash orqali, o'z brendini keng auditoriyaga tanitadi.

ADABIYOTLAR

1. Миронова Л.А. Спонсорство мероприятий как эффективный инструмент маркетинговых коммуникаций // Маркетинговые коммуникации. – 2015. – No 2. – С. 98-106.
2. Журавлев Д. Спонсорство, спонсоринг, фандрайзинг // https://pr-news.ru/publicat/n8_9/8-9_8.htm
3. Щетинина Е.А., Мурмыло Ю.Д Спонсорство: эффективный инструмент маркетинговой коммуникации или осознанная социальная практика? // Экономический вектор No2 (21) 2020. – С.41-46.
4. Меньшиков П.В. Спонсорство как часть коммуникационной концепции PR стратегии зарубежного и российского бизнеса // Международные коммуникации. - №1 (10), 2019 / <https://intcom-mgimo.ru/2019/2019-10/sponsorship-as-part-of-communication-concept-of-pr-strategy>
5. Маврина А. Спонсорство // <https://www.unisender.com/ru/glossary/chto-takoe-sponsorstvo/#anchor-1>
6. Меньшиков П.В. Спонсорство как часть коммуникационной концепции PR стратегии зарубежного и российского бизнеса // Международные коммуникации. - №1 (10), 2019 / <https://intcom-mgimo.ru/2019/2019-10/sponsorship-as-part-of-communication-concept-of-pr-strategy>
7. Гурув Ф. Информационное спонсорство // <https://it.wikireading.ru/17502>
8. Журавлев Д. Спонсорство, спонсоринг, фандрайзинг // https://pr-news.ru/publicat/n8_9/8-9_8.htm
9. Там же.
10. Савченко Р. Спонсорство, как стратегия продвижения бизнеса в 2025 году // <https://advertisingforum.ru/blog/sponsorstvo-kak-strategiya-prodvizheniya-biznesa/>
11. Питолин Е. Информационное спонсорство: через тернии к звездам // https://PR-news.ru/publicat/n13/13_6.htm
12. Савченко Р. Спонсорство, как стратегия продвижения бизнеса в 2025 году // <https://advertisingforum.ru/blog/sponsorstvo-kak-strategiya-prodvizheniya-biznesa/>
13. Эффективно ли информационное спонсорство для генерации лидов летом в 2023 году // <https://adpass.ru/effektivno-li-informatsionnoe-sponsorstvo-dlya-generatsii-lidov-letom-v-2023-godu/>
14. Внешний и внутренний PR СМИ. 1.2.1.1 Информационное спонсорство // <https://trade.bobrodrobo.ru/9508>
15. Гурув Ф. Информационное спонсорство // <https://it.wikireading.ru/17502>

Annotatsiya: Maqolada homiylik atamasining tarixiy va zamonaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Homiylikning biznesdagi roli, uning xayriya va sadaqadan farqlari, shuningdek, PR texnologiyalaridagi o'rni haqida so'z boradi. Axboriy homiylikning o'rni va uning kompaniyalar uchun brend yaratish, marketing strategiyasi va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada homiylikni amalga oshirishda turli yordam turlari va "homiyluk paketi"ning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: homiylik, sponsorlik, xayriya, axboriy homiylik, PR texnologiyalari, marketing, brend imidji, kompaniya obro'si.

Аннотация: В статье анализируется историческое и современное значение термина меценатство. Обсуждается роль спонсорства в бизнесе, его отличие от благотворительности и роль в PR-технологиях. Рассмотрена роль медиаспонсорства и его значение в определении бренда, маркетинговой стратегии и социальной ответственности компаний. В статье представлена информация о различных видах поддержки и значении «спонсорского пакета» при осуществлении спонсорской помощи.

Ключевые слова: спонсорство, спонсорство, благотворительность, пресс-спонсорство, PR-технологии, маркетинг, имидж бренда.

Abstract: The article analyzes the historical and modern significance of the term patronage. The role of sponsorship in business, its differences from charity and its role in PR technology are discussed. The role of media sponsorship and its importance in defining brand, marketing strategy and social responsibility for companies is considered. The article provides information on various types of support and the importance of the "sponsorship package" in the implementation of sponsorship.

Keywords: sponsorship, sponsorship, charity, press sponsorship, PR technologies, marketing, brand image.

JURNALISTIKADA TANQIDIY TAFAKKUR ROLI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Dusimbetova N. B.

O'zDJTU

Jurnalistika sohasi global miqyosda jadal o'zgarishlarga duch kelmoqda, bu jarayon ilmiy-texnik taraqqiyot, geosiyosiy jarayonlar hamda mafkuraviy yangilanishlar bilan chambarchas bog'liq. Tanqidiy tafakkur jurnalistikada o'ziga

xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu yo'nalish shunchaki axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki chuqur tahlil, tanqidiy fikrlash va voqealarga keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Unda muallifning shaxsiy dunyoqarashi va hayotga munosabati muhim rol o'ynaydi. Jurnalist har bir hodisa yoki ma'lumotni har tomonlama o'rganib, uni o'z qarashlari asosida tahlil qiladi, bu esa uning ijodiy yondashuviga turtki beradi.

Tanqidiy tafakkur jurnalistikani yuritish uchun nafaqat faktlarni to'plash, balki ularni puxta o'rganish va chuqur ilmiy bilimlarga ega bo'lish zarur. Bu bilimlar jurnalist faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Muallifning savodxonligi, axborotni aniq va ishonchli tarzda yetkazish mahorati uning professional darajasini belgilab beradi.

Tanqidiy tafakkur an'anaviy jurnalistikaga yangicha yondashuv olib kirib, jamiyatga mazmunan boy va chuqur fikrlarni oshkora yetkazish imkonini beradi. Ushbu yondashuv yordamida materiallar ustida chuqur tahlil olib boriladi yoki, aksincha, ular puxta o'yilgan va keng qamrovli mulohazalarga asoslanadi. Shu tariqa, analitika o'zining ilmiy va ijodiy jihatlari bilan boshqa jurnalistik janrlardan ajralib turadi. U shunchaki ma'lumot yetkazish bilan cheklanmay, balki jamiyat va uning muhitini kengroq tushunishga xizmat qiladi. Bunday jurnalistik yondashuvdan samarali foydalanish uchun jurnalist, avvalo, rivojlangan analitik tafakkurga ega bo'lishi kerak. "Analitik (tanqidiy) tafakkur" atamasi turli ilmiy manbalarda turlicha izohlangan bo'lsa-da, uning mohiyati – ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ulardan to'g'ri xulosa chiqarish hamda obyektiv baholashdan iborat. Shu sababli, jurnalist bo'lishni maqsad qilgan shaxslar doimiy ravishda o'z fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishlari lozim.

V.A.Kruteskiyning analitik tafakkur haqida aytgan fikrlari bo'lajak jurnalistlar uchun juda muhimdir. Jurnalistik faoliyat tezkor va aniq tahlilni, shuningdek, ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirishni talab qiladi. Jurnalist voqealarni va voqelikni keng miqyosda, chuqur tushunib tahlil qilishga qodir bo'lishi kerak [1, 125]. Bu esa faqat ma'lumotlarning tashqi ko'rinishiga emas, balki uning mohiyatiga e'tibor qaratishni anglatadi. Jurnalist olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda qayta ko'rib chiqishi, ularning ishonchligini tahlil qilishda turli manbalarga murojaat qilishi zarur. Faqat nazariy tahlil bilan cheklanib qolmasdan, ma'lumotlarni amalda tekshirish, ularning haqqoniyligini tasdiqlash juda muhimdir. Masalan, manba bilan tanishish, guvohlar bilan suhbatlashish yoki hujjatlarni tekshirish.

Analitik tafakkur jurnalistlarga yolg'on axborotni aniqlash, turli voqealar orasidan muhimlarini ajratib olish va o'z auditoriyasiga to'g'ri ma'lumot yetkazish imkonini beradi. Shu sababli, har bir jurnalist o'z analitik tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Buning uchun turli tahliliy mashqlarni bajarish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ilmy adabiyotlar o'qish va hayotiy tajriba orttirish zarur.

Tanqidiy tafakkurning rivojlantirishi orqali jurnalistlar ma'lumotlarga yangicha yondashishni, ularni mustaqil tekshirishni va obektiv jihatdan shakllantirishni o'rganadilar [2, 42]. Tanqidiy tafakkur jurnalistika sohasida xolislik, ishonchlilik va professional yondashuvni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Jurnalistikada faqat voqealarni xabar qilish emas, balki ularni tahlil qilish, manbalarning ishonchligini tekshirish va aniq, dolzarb axborotni auditoriyaga yetkazish kerak. Jurnalist ma'lumotlarni tahlil qilish va turli manbalarni solishtirish orqali axborotning haqqoniyligini tekshiradi. Tanqidiy yondashuv esa voqealarga bir tomonlama emas, balki kengroq va xolisona qarash imkonini yaratadi.

Mustaqil fikrlash orqali bo'lajak jurnalist turli ta'sirlardan himoyalangan holda, ma'lumotlarni o'zi mustaqil fikri bilan tahlil qiladi va aniq xulosa chiqaradi. Shuningdek, jurnalist tanqidiy tafakkur yordamida manbalariga chuqur yondashadi, faktlarni tekshiradi. Biroq, xolis jurnalistlar voqealarni turli jihatlarni hisobga olib tahlil qilgan va vaziyatning haqiqiy holatini yoritishga intilgan. Tanqidiy tafakkurning jurnalistikadagi ahamiyatini ochib beradi, chunki u jurnalistlarga voqealarga keng va obektiv nazar bilan qarash imkoniyatini yaratadi, shuningdek, auditoriyani haqqoniy va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlaydi va tadqiq etadi, bu esa kadrlarning rivojlanishiga xizmat qiladi [3, 45]. Jurnalistlar tanqidiy tafakkur orqali nafaqat o'zlari, balki jamiyat uchun ham muhim vazifalarni bajaradilar. Ular turli qarashlarni tahlil qilib, xolis ma'lumotlarni tarqatish orqali jamiyatni rivojlantirishga hissa qo'shadilar. Bo'lajak jurnalistlarning analitik tafakkurini oshirishda avvalambor, ular turli manbalardan olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishlari, ularning ishonchligini aniqlashlari va eng muhim jihatlarni ajratib olishlari kerak. Voqealar va hodisalarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali jurnalist o'z ishiga xolisona baho beradi. Shuningdek, bo'lajak jurnalist ma'lumot manbalariga kirish, guvohlar bilan muloqot qilish va qiyin vaziyatlarda dalillarni izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Jurnalist, ayrim taassurotlarga yoki tashqi ta'sirlarga berilmasdan, o'z fikrlari va xulosalariga asoslanib ish yuritishi juda muhimdir.

Tanqidiy tafakkur jurnalistga nafaqat xolis va ishonchli ma'lumotni yetkazishda, balki auditoriyaga ta'sirli, dolzarb va samarali kontent taqdim etishda ham yordam beradi. Bo'lajak jurnalistlar ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur. Tanqidiy fikrlash, jurnalistikada mustaqil yondashuvni ta'minlovchi asosiy mezon bo'lib, har bir jurnalist uchun muhim ahamiyatga ega. D.Xalpern tanqidiy tafakkur tushunchasini, asosan, o'ylash jarayonida qabul qilingan qarorlar yoki xulosalar asosida tahlil qilishni, ya'ni qanday omillar o'zgarishi va qanday tahlil jarayoni yordamida ma'lumotlarga to'g'ri yondashuv qilishni ta'kidlaydi. Bu jarayon, ya'ni jurnalistning ma'lumotni chuqur tahlil qilish, turli manbalardan olingan axborotni solishtirish va xolis xulosalar chiqarish, jurnalistik ishning samarali bajarilishida muhim o'rin tutadi. Bo'lajak jurnalistlar o'zlarining ishlarini samarali tarzda tashkil etish orqali to'g'ri xulosa chiqarishlari kerak. Buning uchun ular faqat ma'lumotlarni o'qib chiqish va savollar berish bilan cheklanmasdan, ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilishlari, ularning ishonchligi va mantiqiyiligini tekshirishlari zarur. Masalan, maqola yoki xabarni tayyorlashda jurnalist har bir faktni alohida e'tibor bilan ko'rib chiqib, uni yangi ma'lumotlar bilan solishtirish orqali aniq va asosli xulosa chiqarishga intiladi. D.Xalpern tanqidiy tafakkurni faqat qaror qabul qilish yoki xulosa chiqarish jarayoni bilan bog'lamasdan, balki o'ylash jarayonining har bir bosqichini va bu bosqichlarda qatnashayotgan omillarni tahlil qilishni o'z

ichiga oladi. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, bo'lajak jurnalist ma'lumotlarni tanqidiy ko'z bilan tahlil qilishi va o'z ishini mustaqil, obektiv va xolisona baholashi kerak [4, 455]. Tanqidiy tafakkur jurnalistga faqat faktlarni yozish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ma'nosi va ishonchligini ham chuqur baholashni talab qiladi. Bo'lajak jurnalistlar uchun bu ko'nikmalar mukammal material tayyorlash, xatolardan saqlanish va auditoriyaga aniq, ishonchli ma'lumotlarni yetkazish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy tafakkur orqali jurnalistlar nafaqat ma'lumotni taqdim etadi, balki uning to'g'riligi, asosli ekanligini va haqiqatga yaqinligini tahlil qilib, auditoriyani yanada ma'lumotli qilishadi.

Axborot asrida bo'lajak jurnalistlar uchun analitik (kritik) fikrlash o'nikmalarini rivojlantirish zarur. Amerika olimlaridan D.Kluster analitik fikrlashning beshta asosiy ko'rsatkichini ajratgan. Bu ko'rsatkichlar jurnalistika sohasida ishlashda ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular jurnalistlarga ma'lumotlarni to'g'ri va samarali tahlil qilish imkonini beradi.

- **Mustaqil va erkin fikrlash** – bo'lajak jurnalist har bir holatni mustaqil ravishda tahlil qilib, o'z fikrini shakllantirishi kerak. Ular turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, mustaqil xulosalarga kelishlari zarur. Bu o'z navbatida jurnalistlarga mustaqil va obektiv qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

- **Nazariy bilim va ma'lumotlar** – bo'lajak jurnalist o'z ishlarini mukammal bajarish uchun, nazariy bilim va mantiqiy ma'lumotlardan foydalanishga intilishlari kerak. Bu bilimlar ularga faktlarni aniq tahlil qilish, haqiqatni oydinlashtirish va xulosalarni asoslash imkonini beradi.

- **Savol berish va ularni qo'yish qobiliyati** – bo'lajak jurnalist savollar berish va ularga to'g'ri javob topishni bilish kerak. Savollar yordamida ular axborotning yashirilgan yoki yoritilmagan jihatlarini aniqlaydilar, bu esa ularning tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

- **Ommaviy tarzda o'z fikrini isbotlash** – bo'lajak jurnalist o'z fikrlarini mantiqiy asosda, ishonchli va aniq isbotlar bilan keltirishlari kerak. Bu ularga o'z materiallarini ishonchli va mantiqiy tarzda taqdim etishda yordam beradi, auditoriya uchun aniq va ishonchli xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

- **Ijtimoiy fikrlash** – Jurnalistikada analitik fikrlash jamoada shakllanadi. Bo'lajak jurnalist o'z tahlillarini tanqidiy muhokama qilish, ular bilan bahslashish va aniqlashtirish uchun jamoada ishlashga harakat qilishlari kerak. Bu usul materiallarni yanada mukammal va obyektiv qilishga yordam beradi. Ushbu ko'nikmalar jurnalistlarga faqat axborotni aniq va mantiqiy tarzda tahlil qilish imkonini bermaydi, balki ommaviy axborot vositalarida xato va manipulyatsiyalarni oldini olishga yordam beradi. Mustaqil fikrlash, nazariy bilim va savollarni aniq qo'yish qobiliyatlari jurnalistlarga axborotni chuqur tahlil qilishda yordam beradi va har qanday noaniqlik yoki xatolikni aniqlash imkonini yaratadi. Bu esa ommaviy axborot vositalarining ishonchligini ta'minlash va auditoriyaga haqqoniy, aniq va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

Ijtimoiy fikrlash va jamoaviy tahlil qilish ham jurnalistlarga turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish va o'z fikrlarini yanada ishonchli asoslash imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, o'z navbatida, xolis va ishonchli materiallar yaratishda yordam beradi, shu bilan birga auditoriyaga haqqoniy va aniq axborot taqdim etishning asosi bo'lib xizmat qiladi [5, 13].

Kritik fikrlashni rivojlantirish uchun bo'lajak jurnalistlar ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. A.L.Tertelning ta'kidlashicha "tahlil – bu obektning turli jihatlarini, elementlarini, xususiyatlarini, aloqa va munosabatlarini ajratish, ya'ni tushunish maqsadida obektni tarkibiy qismlarga bo'lish jarayonidir" [6, 178]. Bo'lajak jurnalistlar uchun ma'lumotni tahlil qilish, har bir manbadan kelgan axborotni to'g'ri va aniq tushunishga yordam beradi. Tahlil jarayoni orqali ular mantiqiy xulosalarga kelib, qisqa va to'g'ri xabarlarini yaratadi. Bu qobiliyat bo'lajak jurnalist uchun nihoyatda muhim, chunki ular turli manbalardan olingan axborotni to'g'ri talqin qilib, uni aniq va haqqoniy shaklda ommaga yetkazishlari zarur.

Jurnalistikada analitik ko'nikmalarning ahamiyati juda katta, chunki ular jurnalistlarga ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va eng muhim detallarni aniq ajratish imkoniyatini yaratadi. V.A.Slasten "analitik ko'nikmalar — bu umumiydan tarkibiy detallarni ajratish qobiliyati" [7, 365] deb ta'kidlagan. Bu qobiliyat bo'lajak jurnalistlar uchun zarur, chunki ular nafaqat asosiy ma'lumotlarni, balki kichik, ammo muhim bo'lgan elementlarni ham aniqlash va to'g'ri yoritishga qodir bo'lishlari kerak. Analitik ko'nikmalar bo'lajak jurnalistlarga ommaviy axborot manbalaridagi ma'lumotlarni to'g'ri va mantiqiy tarzda yig'ish, tahlil qilish hamda ulardan aniq, haqqoniy xulosalar chiqarishda yordam beradi.

Jurnalistika yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak jurnalist talabalarga tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim, chunki jurnalist faqat ma'lumotlarni tahlil qilibgina qolmasdan, ularni sintez qilish orqali yangi mazmun yaratish zarur. A.G.Kovalyov va V.N.Myasishevlarning ta'kidlashicha, analitik ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy shartlari "qiziqishlarni rivojlantirish, ularni chuqurlashtirish, bilim va mahoratlarni oshirish, xarakterni tarbiyalash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini mazmun bilan boyitish hamda ijtimoiy ongini rivojlantirish"dan iborat. Bu ko'nikmalar jurnalistlarga faqat mavjud axborotni tahlil qilishda emas, balki uni yanada chuqurroq anglab, yangi va dolzarb mazmun yaratishda ham yordam beradi. Bo'lajak jurnalistlar uchun kasbiy ta'limning asosiy maqsadi ularning faoliyatiga tayyorligini shakllantirishdir. Bu tayyorgarlik, asosan, mavjud axborot va didaktik materiallarni tanqidiy baholash, mavzuga mos manbalarni saralash hamda o'quv jarayoni uchun eng samarali manbalarni tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar jurnalist talabalarga to'g'ri xulosalar chiqarish, ommaviy axborot vositalari uchun mazmunli materiallar tayyorlash va jamiyat uchun muhim mavzularni xolis va haqqoniy yoritish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalarga uchun tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi bo'lajak jurnalistlar har qanday ma'lumot

turini faqat interpretatsiya qilish emas, balki uni chuqur tahlil qilish, obektiv xulosa chiqarish va tanqidiy baholash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu ko'nikmalar ularga turli vaziyatlarda, xususan, axborot tarqatishda, manbalar ishonchligini aniqlashda va jamiyat uchun muhim bo'lgan voqealarni xolis va haqqoniy tarzda yoritishda yordam beradi.

Axborot asrida bu qobiliyatlarni rivojlantirish ayniqsa dolzarb, chunki jurnalistlar ishonchli ma'lumot manbalarini aniqlash va ularni xolis tarzda jamiyatga yetkazish vazifasini bajarishlari zarur. Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini egallagan jurnalistlar jamiyatga to'g'ri va ishonchli axborot taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tanqidiy fikrlash nafaqat ma'lumotlarning mazmunini tushunish, balki ularning mohiyatini chuqur tahlil qilish orqali yangi hulosalar chiqarishga yordam beradi. Jurnalist talabalar uchun bu ko'nikma axborot muhitining murakkabligi va turli manbalardagi ma'lumotlarning ixtilofli yoki manipulyatsiya qilingan bo'lishi sababli yanada dolzarbdur. Shuningdek, tanqidiy fikrlash rivoji talabalarni shaxsiy fikrlarini mantiqiy tartibda shakllantirish va ularni asosli dalillar bilan isbotlashga o'rgatadi. Bunday yondashuv nafaqat jurnalistik tadqiqotlarda, balki professional muhokamalarda ham samarali bo'ladi. Bu ko'nikma jurnalistlarning ishonchli, xolis va aniq ma'lumotlar bilan jamiyatni ta'minlashda zarur bo'ladi, hamda ularning professional rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Krutekij V. A. Psihologiya : uchebnik dlya uchashchihsya ped. uchilishch. – M. : Prosveshchenie, 1980. – 125 s
2. Мередит К. С., Стил Дж., Темпл Ч. Воспитание вдумчивых читателей. – М. : Изд-во Института «Открытое общество», 1998. – 42 с.
3. Стил, Дж., Мередит, К., Темпл, Ч. «Критическое мышление: чтение и письмо как инструмент развития аналитических навыков». Нью-Йорк: HarperCollins, 1996. — С. 45.
4. Халперн Д. Психология критического мышления. – 4-е междунар. изд. – СПб., 2017. – 455 с
5. Клустер Д. Что такое критическое мышление? // Критическое мышление и новые виды грамотности. – М.: ЦГЛ, 2005. – С. 13.
6. Tertel' A. L. Psihologiya. Kurs lekciy. – M.: Prospekt, 2006. – 178 s.
7. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Мищенко А. И., Шиянов Е. Н. Педагогика. – М. : Академия, 2013. – 365 с.

Annotatsiya: Bo'lajak jurnalistikada analitik yondashuvni qo'llash uchun kerakli bo'lgan asosiy ko'nikmalar, masalan, mustaqil fikrlash, savol berish va ijtimoiy xulosa chiqarishni tahlil qilingan. Kritik fikrlash va analitik xulosa jurnalistlarga haqiqatni aniqlashda, ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlar berishda hamda voqealarni chuqur tahlil qilishda yordam beradi. shuningdek, maqolada bo'lajak jurnalistlar uchun ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan asosiy jihatlar va usullar haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, tanqidiy tafakkur, analitik fikrlash, mustaqil fikrlash, axborot tahlili, xolislik, jamiyatni rivojlantirish, jurnalist mahorati, voqealarni tahlil qilish, jurnalistik ta'lim.

Аннотация: Основные навыки, необходимые для применения аналитического подхода в будущей журналистике, такие как независимое мышление, умение задавать вопросы и делать социальные выводы, были проанализированы. Критическое мышление и аналитические выводы помогают журналистам в установлении истины, предоставлении объективной и достоверной информации, а также в глубоком анализе событий. В статье также рассматриваются ключевые аспекты и методы, на которые следует обратить внимание при развитии этих навыков у будущих журналистов.

Ключевые слова: Журналистика, критическое мышление, аналитическое рассуждение, независимое мышление, анализ информации, беспристрастность, развитие общества, журналистские навыки, анализ событий, журналистское образование.

Annotation: The essential skills needed for applying an analytical approach in future journalism, such as independent thinking, asking questions, and making social conclusions, have been analyzed. Critical thinking and analytical conclusions assist journalists in identifying the truth, providing objective and reliable information, and deeply analyzing events. The article also discusses the key aspects and methods that should be focused on when developing these skills in future journalists.

Keywords: Journalism, critical thinking, analytical reasoning, independent thinking, information analysis, impartiality, societal development, journalistic skills, event analysis, journalistic education.

ИБРАЙЫМ ЮСУПОВТЫҢ ДӨРЕТІҰШИЛИГІНДЕ ӘДЕБИЙ ШОЛЫҰ

Жаксуликова Д. А.

Қарақалпақ мәмлекетлік университети

Әдебиат пенен әдебий сын – бул көркем шығарма хэм оны бағалаудың, таллаудың терең байланысы. Әдебиат турмысты көркемлеп сүүретлесе, әдебий сын сол шығармалардың идеялық, эстетикалық қунлылығын анықлап, оқыўшыға бағдар береді.

Әдебиаттың баслы мақсети – турмыс. Ал әдебий сынның баслы мақсети – ҳәзирги әдебиаттағы типлик жаңалықларды, әдебий процесслер менен кемшиликлерди ўақтында ашып көрсетиў. Усы ўазыйпаларды орынлаў ушын сыншы аналитикалық усылларды қолланады.

Әдебий сыншылық жанрларын шәртли еки топарға бөлиў мүмкин.

1. Әдебий процессти анализлеўши жанр хэм түрлер.

2. Жазыўшының өмири хэм дөретиўшилиги мәселелерин сәўлендириўши жанр хэм түрлер.

Қарақалпақ әдебий сыншылығында рецензия, әдебий шолыў, проблематикалық мақала, эссе, еслеў-мемуар, сын-биографиялық очерк, әдебий портрет, илимий-биографиялық изертлеў сыяқлы жанрлар, рецензия-хат,

рецензия-тартыс, рецензия-монография, мақала-диалог, мақала-сәубет, портретлик штрихлар, әдебий ойлар сыяқты түрлері гезлеседи.

Өзбекстан Қахарманы Ибраһым Юсупов тек шайыр сыпатында ғана емес, ал XX әсирдин 50-60-жылларынан баслап қарақалпақ әдебий сын тарауында көзге түскен шебер әдебий сыншылардан бири де болды. Жоқарыда санап өтилген әдебий сын жанр хәм түрлері шайырдың илимий-публицистикалық шығармаларында кеңинен орын алады.

«Әдебий сын – әдебияттаныў илими менен журналистиканың түйисиўинде пайда болатуғын, күнделикли әдебий процессти изертлейтуғын, кемшиликлер менен жетискенликлерди таллайтуғын, оқыўшы қәўимге түсиниўге жәрдемлесетуғын хәм руўхый дүньяда жумыс ислейтуғын көркем әдебий, илимий, публицистикалық, жәмийетлик дәретиўшилиқ түри, жәмийетлик сананың саласы, көркем шығармаға байланыслы процесстин ҳаўазы», деп көрсетеди қазақ әдебий сыншысы Д.Ысқақұлы [1, 9]. И.Юсупов әйне әдебий процесске байланыслы өз ой-пикирлерин баспасөз бетлеринде белсенди түрде жериялап келди. Сол илимий-публицистикалық мийнетлериниң ишинде әдебий шолыўлары да гиреўли орын тутады.

Жанрлық өзгешелигине көре, әдебий шолыўда жанлы әдебий процесс, ондағы әдебий жаңалықлар, гүреслер, ҳалатлар, умтылыслар, соның менен бирге жетискенлик хәм кемшиликлер талқыланады, системаластырылады, улыўмаластырылады және де сыншы әдебиятта жаратылып атырған ҳақыйқый дүрдана шығармаларды дүньяға келтириўди де мақсет етеди [2, 15]. Бул бағдарда әдебий дәўирлер, жыллар, темалар, әдебий түрлер хәм жанрлар обзори әҳмийетли орын тутады. Усы өзгешелиги менен әдебий шолыў жанры әдебияттың раўажланыўына, жоқары шынларға көтерилюи ушын гүресиўге жәрдем береді. Мәселен, шайырдың ең дәслепки әдебий шолыўларынан болған «Класиклик поэзияны аўдарыўға жақсы кеўил бөлинсин» [3] атамасындағы әдебий шолыўында Михаил Лермонтовтың шығармаларын қарақалпақ тилине аўдарыўдағы жетискенликлер менен кемшиликлер талланған. Авторлар шығармаларды түсинбей сөзбе-сөз аўдарыў, көркемлик үйлесимиликтиң жетиспейи және орыс поэзиясының айрықша қурылысын жеткизе алмаў мәселелерин сынайды. Мәселен, М.Дәрибаев аўдарған «Тутқын емес», «Қамыс», Н. Жапақов аўдарған «Жар тас», «Қашқын» хәм Ж.Ташенов аўдарған «Неликтен», «Дийўана» сыяқты шығармалардың аўдармалары қарақалпақ тилиниң поэтикалық хәм синтаксислик өзгешелик қәбилетинен табыслы пайдаланғанлығы, шығармалар түсинилип аўдарылғанлығы хәм қарақалпақ оқыўшыларына данышпан шайырдың руўхый күши әдеўир тәсирли жеткерилетуғынлығы жетискенлик сыпатында атап өтилсе, ал Р. Мажитовтың аўдарған «Түрктиң налышы», «30-июль», «Париж» сыяқты шығармаларда жетерли поэтикалық тереңликке жете алмағаны сынға алынған. Қ. Досанов, Б. Қайыпназаров, З.Сахиевлардың аўдармаларында орын алған букваизм менен түсинбеўшилиқ мәселелери кемшилик сыпатында аталып өткен. Мақалада Лермонтовтың поэзиясын қарақалпақ тилинде жеткизиўге умтылған аўдармашылардың мийнети жоқары баҳаланса да, аўдарма сапасын арттырыў ушын тәжирийбе менен әдебий дәстүрди жетилистириў зәрүрлиги көрсетиледи.

Усы мақалада Қарақалпақ мәмлекетлик баспасының көркем әдебият бөлиминдеги аўдарма исинде орын алған кемшиликлер сынға алынған. Автор классик шайырлардың шығармаларын аўдарыўда сапалы хәм сайланды аўдарма принциплерине эмел етилмеўине, аўдарыўшыларды таңлаўдың жоқлығына хәм баспа хызметкерлери арасында әдебий талғам дәрежесиниң төменлигине айрықша нәзер аўдарады. Лермонтовтың шығармалары мысалында аўдармалардың сапасызлығы, техникалық хәм грамматикалық қәтеликлер, сондай-ақ классик қосықлардың бир қатары жыйнақтан шетте қалдырылғаны сынға алынған. Баспа хызметкерлериниң өндирис режесине хәм сапасына итибарсыз қараўы исленген өнимлерге оқыўшылар хұрметиниң азайыўына алып келгенин автор атап өтеди. Мақалада әдебий аўдармалар сапасын көтерип, классикалық шығармаларды мүнәсип дәрежеде аўдарыў бойынша тийисли илажлар қабыллаў талабы қойылады.

И.Юсупов жоқарыдағы шолыўда аўдарма ислериндеги жетискенликлер менен кемшиликлерди сынға алған болса, «Поэмалар ҳаққында бир-еки сөз» [4] атамасындағы шолыўында поэмалар ҳаққында сөз қозғайды, сол дәўирдеги қарақалпақ поэзиясының жағдайы менен раўажланыўы талланады. Қарақалпақ әдебиятында, әсиресе поэзияда, сапалы шығармалардың азлығы хәм оларды ириклеўдеги кемшиликлер сынға алынады.

Шолыўда Н. Жапақовтың «Қос терек» балладасы хәм Х. Сейтовтың «Жетим қыз» шығармалары талланып, олардың жетискенликлери менен кемшиликлери көрсетилген. «Жетим қыз» балладасында базы эпизодлардың поэмаға жақынлап кеткени хәм артықша персонажлардың мәниссизлиги сыналған. Ал, Б.Қайыпназаровтың «Бир колхозда» поэмасының конфликтисине социаллық мәниниң жеткиликсиз берилиўин, персонажлардың ҳәрекетлериниң ҳақыйқый турмыстан алыслығы сынға алынады. Атап айтқанда, поэмадағы басты қахарман Аташевтың өзимшил ҳәрекетлери оғыры улғайтып сүүретленгени, бул арқалы оны ҳақыйқый образынан алыслатып, жәмийетке қарсы персонажға айландырып жибергени көрсетилген. Сондай-ақ, бульдозерши Айманның минез-құлқындағы өзгерислердин қыйсынсызлығы хәм шынлыққа сәйкессизлиги атап өтилген хәм дәретиўшиликте типлик қубылысларды дәл хәм ҳақыйқый сүүретлеўдин әҳмийети айрықша уқтырылған.

Yuqoridagi epizoddan ko'rinadiki, ofis hayotidagi bir zayllik, mehnatning rag'batlantirilmasligi ayol xodimlarning faoliyatini cheksiz mazmunsizlashtirgan. O'sha davrda ommalashayotgan turli mashinalar "xatlarni ochadigan, muhrlaydigan, avtomatik yozuv mashinkasi, diktant fonograflari, pnevmatik nayzalar" xodimlar mehnatini zerikarli, hissiz ishga aylantirgan. Shunday mayda ishlar bilan arzimagan maoshga kunni kech qilib ketayotgan xodimlar umr qanday oxirlab qolganini sezmay qoladilar. "Ammo boshqa mashinalarning hech biri devor soati kabi zolim emas edi" deya ta'kidlaydi yozuvchi. Umrini ofis ishiga sarflab shaxsiy hayot qura olmagan, ishda ham ofis ierarxiyasi sabab o'sa olmagan ayollar "isteriya epidemiyalarida" qo'shilishib yig'laydilar. Keyin yana soat kechki besh yarim bo'lishi bilan Una liftga tomon yo'l olayotgan "jonsiz nigohli yosh ayollarni" uchratadi. Muallif kotiba Unaning hissiy olamini tasvirlar ekan kasb egallaganidan so'ng ish jarayonida chaqqonroq bo'lishi kerakligini tushunadi. Yoki aksincha u ham ofisdagi minglab qizlar kabi hayot kechirishga maxkum etiladi. Uning ofisdagi bunday kuzatishlari Naziraning bozor olamiga sinchiklab nazar

tashlashiga o'xshab ketadi. Zulfiya Qurolboy qizi buni quyidagicha ifoda etadi: "Nima bo'lganda ham savdo ishi oson emas edi. Uning o'ziga xos yo'l-yo'rig'i bor. Bu ish gohida odamni ezib tashlaydi, umidsizlikka tushurib, yo'lini taqa-taq bekkitib qo'yadi, lekin unchalik og'ir yuk emas, har qalay zahmatni ko'tarsa, chidasa bo'ladi, negaki ortida manfaat bor. Yana shunisi borki karra-karrani bilish bilan ish bitmaydi. Buning uchun odamda uquv bo'lishi kerak. Shunday uquvki, otabobolaridan o'tuvchi, suyak suruvchi, ta'bir joiz bo'lsa har qanday noyob iste'dod bilan deyarli teng darajada posangi bosguvchi qobiliyat bo'lishi kerak"[9. 241]. Ofis va bozor minglab insonlar taqdiri kechadigan joy. Kimgadir mashaqqatlar ortidan omad kulib boqadi, kimgadir esa yo'q. Ikkala joydayam faoliyat yurituvchi ayollarning o'z olami bor. Ofis va bozor egasi bo'lishi uchun tadbirkorlikning salohiyati kerakligi ikkala joyda ham ko'zga tashlanadi. Nazira va Unaning tashlagan qadamlarida mana shu salohiyatda sekinlik bilan rivojlanib boradi.

Amerika va O'zbek yozuvchilarining asarlarida tasvirlangan ayol obrazida yangi ayol qiyofasini ochib berish orqali tadbirkorlik sohasining murakkabliklari tahlilga tortildi. Taqdir yo'llarining turli etaplarida tajriba to'plagan Una va Nazira muvaqqiyatga erishish uchun mashaqqatli hayot yo'lini bosib o'tdi. Hayotga teran nigoh tashlash orqali yozuvchi ko'zlagan maqsad sari ikkala obaz ham rivojlanib boradi. Ikkala ayol obrazining tipologik mushtarakligi ham ana shunda ko'zga tashlanadi. O'z vaqtida qiyinchilikni yengib o'ta olgan irodali ayollarda chuqur mushohada yuritishlari ifoda etiladi. Kapitalistik dunyodagi ofisning iker-chikirlarini Una yaxshi tushunsa, o'zbek bozorining mayda-chuydalarini Nazira yaxshi anglar edi. Ikkala obrazni tutashtiruvchi jihat tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatidir.

ABADIYOTLAR

1. Allan M. American critical reception of the novels of Sinclair Lewes. – USA: Loloya University Press, 1953. – 270 p.
2. Edward A, Peter O. All over the Map: Rethinking American Regions. – USA: John Hopkins University Press, 1996. – 230 p.
3. Egaberdieva K. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida o'zbek ayoli ruhiyati tasviri // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022, № 5 (46).
4. Hooks B. Feminist Theory from margin to center. – Boston, South End Press. 1984. – 250 p.
5. Lewis S. The Job. – New York: Harcourt, Brace, 1917. – 450 p.
6. Simpkins D. Sinclair Lewis: Suffragent. Minnesota History, vol. 64, no. 8, 2015, pp. 330–36. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/24898891>. Accessed 27 May 2024.
7. Simpkins D. Sinclair Lewis: Suffragent. – Minnesota History, 2015. – 470 p.
8. Schorer M. Sinclair Lewes. – New York: Mc Graw-Hill, 1963. – 867 p.
9. Qurolboy qizi Z. Mashaqqatli hayot so'qmoqlari. – Toshkent: Read book nashriyoti, 2024 y. – 575 b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada amerika va O'zbek yozuvchilari misolida feminism ta'sirida yaratilgan ayol obrazlari tahlilga tortilgan, Amerika va O'zbek kontekstida ochib berilgan tadbirkor ayollar obrazida tipologik mushtaraklik kuzatiladi. Ikkala ijodkor romanlarida tasvirlangan ofis va bozor mihitida shakllangan tadbirkorlik faoliyati teran ochib berilgan. Una va Nazira obrazlarida Sinkler Luis va Zulfiya Qurolboy qizining realistlik ifoda uslubi kuzatiladi.

Kalit so'zlar: amerika, obraz, tadbirkorlik, ayol, jamiyat, adabiyot, o'zbek

Аннотация: В данной статье на примере американских и узбекских писателей анализируются женские образы, созданные под влиянием феминизма, наблюдаются типологические черты в образе женщин-предпринимателей, выявленных в американском и узбекском контекстах. Глубоко раскрыта предпринимательская деятельность, сформировавшаяся в офис и рыночной среде, описанная в романах обоих авторов. В образах Уны и Назиры соблюден реалистический стиль выражения Синклера Луи и Зульфийи Куролбой кизи.

Ключевые слова: Америка, образ, бизнес, женщина, общество литература, Узбек

Annotation: This article analyzes the images of women created under the influence of feminism by American and Uzbek writers, and reveals typological features in the images of businesswomen revealed in the American and Uzbek contexts. The entrepreneurial activity formed in the office and market environment described in the novels of both authors is deeply revealed. The characters of Una and Nazira show the realistic style of expression of Sinclair Lewes and Zulfiya Qurolboy qizi.

Key words: America, character, business, woman, society, literature, Uzbek

ЯПОНИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИДА КЎНГИЛОЧАР ДАСТУРЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Халилова А.

Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети

Рекреативлик япон манбааларида «goraku» 娯楽 деб номланиб, кўнгилочар, яъни «Япон тили катта луғати»да «инсон калбини юкдан бўшатиш, унга тасалли бериш, қувонтириш» деган маъноларни англатади. 娯楽番組 «goraku bangumi» Япония радиоэшиттириш қонунининг 5-моддасида назарда тутилган «эшиттириш дастурлари турларидан» биридир. Япония NHK корпорацияси кўнгилочар дастурларни «ўйин-кулги мақсадида (одамларга қулайлик ва тинчликни таъминлаш учун) эфирга узатиладиган дастурлар» деб таърифлайди. Аммо япон ОАВда кўнгилочар дастурлар «entertainment» ёки «variety» – バラエティ деб номланади. Машхур телебошловчи Охаши Кёсен «Иқтисод» журнаliga берган мақоласида шундай дейди: «Дунё бўйича кўнгилочар дастурлар фақат Японияда бу қадар кенг ривожланган бўлса керак» [1].

«Variety» сўзи инглиз-япон тили луғатининг 6-бўлимида «variety show» – «қўшиқ, ҳажвий хангома, сахна кўриниши, ракс каби санъат намуналарини кўриш орқали дам олиш тури», деб таржима қилинади. Шунингдек, «Рандамхаус инглиз-япон тили катта луғати» 2-том» 9-бўлимида «variety show» бир қанча санъат турлари

муштараклашган энг олий санъат тури, япон тили изоҳли луғатида эса «variety» сўзи инглиз тилидан олинган, кетма-кетликда қўшиқ, рақс, театр, ўйинни ўзида мужассам этган шоу тури», деб ёзилган.

«Япон тили катта луғати»да ҳам мазкур сўзга «қўшиқ, рақс, театр каби санъат турларини ўзида умумлаштирилган намоёниш», дея таъриф берилган. «Variety» деганда кўпчилик хажвий дастурларни тушунади, аслида хажвий дастурлар «Shyouten» деб номланиб, улар кўнгилочар дастурларнинг бир кўриниши сифатида намоён бўлади. «Variety» сўзи инглиз тилидан олинганлиги учун япон терминлар луғатида таъриф берилмаган. Лекин «Хорижий сўзлар ва қисқартмалар» луғатида ушбу терминга «бир кўрсатув ичида қўшиқ, суҳбат, театр, ўйин каби кетма-кетликдаги фаолиятларни ўзида мужассамлаштирган намоёниш шаклидаги кўрсатув», деб таъриф берилган. Илк 娯楽番組 «goraku bangumi»лар қандай юзага келган, унинг юзага келишига қандай омиллар туртки бўлди, келинг биргаликда кўриб чиқамиз. Илк трансляция 1953 йил 1 февраль соат 14:00 да эфирга узатилган. Токиода жойлашган NHK марказий станциясидан NHK президенти Фуруаки Тетсуро илк трансляциянинг очилиш маросимида бутун телетомошабинларга шундай дейди: «Телевидение маданиятнинг барометридир. Бутун мамлакат бўйлаб ҳам эшитиш ҳам кўриш орқали инсонлар эътиборини ўзига жалб этади. Албатта, ҳаётимизга революцион таъсир кўрсатади». Илк дастурлар япон тилидаги янгиликлар ва япон ҳикоялари асосида суратга олинган кинофильм трансляцияси эди.

1-жадвал. 1953 йил 1 февралда узатилган дастурлар [2]

1953 йил 1 февраль	
14:00	NHK президенти Фуруаки Тетсуронинг очилиш маросимдаги нутқи Кабуки («Хатсуне но таби» ҳикояси асосида)
15:00	NHK янгиликлар
15:30	Опера
16:00 дан 18:30 га қадар танаффус	
18:30	NHK президенти Фуруаки Тетсуронинг очилиш маросимдаги нутқи
19:00	Янгиликлар қисқа сатрда
19:15	Об ҳаво янгиликлари
19:20	Янгиликлар
19:25	Дастурлар анонси
19:30	«This week's star» «Ҳафта юлдузи» (Хибия ҳолидан жонли трансляция)
20:00	Хажвий диалог
20:15	Замонавий рақс (Хибия ҳолидан жонли трансляция)
20:45	Телетомошабинларга мурожаат: Яно Ичиро «Телевидение тугилиши»
21:00	Трансляция тугаши

Гувоҳи бўлганимиздек, илк дастурлар асосан кабуки, саҳналаштирилган ҳикояларни ёзиб олиб, эфирга узатиш орқали анъана ва маданиятни оммага ёйиш бўлган. Шуни айтиш жоизки «Кабуки» – драма, рақс, мусика уйғунлигида аёллар образини эркаклар талкин қилган санъат туридир. Деярли мунтазам равишда NHK орқали эфирга узатиб борилган. «Кабуки» япон театр санъатининг ёрқин намунаси бўлиши билан бирга, хажвий контентга эгаллиги билан кўнгилочар моҳият касб этади. Илк япон телевидениеси намоёниши миллийлик ва маданиятни акс эттирган «Кабуки» бўлганлиги билан эътиборни тортади.

«Уч қўшиқ» (Mitsu no uta 三つの歌) радио дастури 1951 йил радио орқали узатилган илк кўнгилочар эшиттиришлардан (娯楽番組) биридир. Мазкур дастурда халққа таниш эски ва янги қўшиқлар пианино воситасида куйга солиниб, студияга таклиф қилинган меҳмонлар билан викторина тарзида ўтказилган. Амайкие Масао қўшиқларни пианино ижросида студияга ташриф буюрган меҳмонлар қўйиб эшиттирган. Битта қўшиқни топиб, куйлай олган учун 300 иен, 2 та қўшиқ учун 500 иен ва 3 та қўшиқ топа олган ғолиб учун 2000 иен миқдорида пул соврини ҳам бўлган. «Барча билган эски қўшиқлар ва биз севган янги қўшиқлар» дастур шиори эди [3].

Мазкур дастур 1953-йил 3-февралда, илк трансляция телевизор эфирга узатилгандан икки кун ўтгач, бир вақтнинг ўзида радио ва телевидение орқали эфирга узатила бошланган.

1-тасвир (Уч қўшиқ кўрсатуви)



1955 йил TBS, 1959 йил Fuji Terebi қаба янги телерадио станциялари ўз фаолиятини бошлади. 1960 йилда Японияда рангли телевидениега ўтилиб, Япония миллий телерадио корпорациясининг Токио ҳамда

Осакадаги станциялари, (NHK Токуо, NHK Osaka), Таълим телевидениеси (Kyouiku Terebi), Япония телевидениеси (Nippon Terebi), Фужи телевидениеси (Fuji Terebi), Ёмиури телевидениеси (Yomiuri Terebi), Асахи телевидениеси (Asahi Housou) номли телестанциялар фаолият юритган. Бу пайтга келиб Япониядаги кўплаб машхур газеталар ҳам ўз телестанцияларини оча бошладилар. Ёки аксинча кўплаб телестанциялар қошида газета тахририятлари фаолият юритган. Шундай қилиб, Япония дунёда биринчилар қаторида медиаконвергенцияни бошлади.

Куйидаги жадвал орқали биз 1959 йилдаги рейтинг юқори 20 та кўрсатувлар рўйхатини кўришимиз мумкин.

2-жадвал. 1959 йил июнь-июль ойлари Токио телевидениеси [4]

Кунлар	Эфир вақтлари	Кўрсатувлар номи	Тингланиш кўрсаткичи (%)
Душанба	19:30	Менинг сирим	48.5%
Сешанба	19:30	Имо-ишора	31.4
Чоршанба	20:00	Драма «Вокеалар репортёри»	24.3
Пайшанба	19:30	Профессионал бейзбол «ғарб темирйўлчилари ва катта денгиз»	23.9
Якшанба	21:00	Фақат мен биламан	21.7
Душанба	20:00	Кўшиқ майдони	20.4
Сешанба	20:00	Олтин кресло	20.1
Чоршанба	15:00	Тантанавор сумо Нагоя турнери	19.4
Шанба	21:33	Автомобил патрули	16.1
Сешанба	20:30	Кулдирувчи учлик	14.7
Душанба-жума	19:15	Афтобус йўли қаршида	13.3
Жума	21:00	Телевизион театр	12.4
Якшанба	19:30	Гулди юлдузлар туркуми	12.2
Хар кун	19:00	Янгилар	10.4
Жума	19:30	Хавф сигнали	9.9
Шанба	19:00	Профессионал бейзбол «чуничи ва ханшин жамоалари»	9.5
Душанба	20:30	Ота фасли	9.3
Якшанба	20:15	Севимли якшанбада	9.0
Якшанба	21:30	Япониянинг асл кифаси	8.7
Сешанба	21:00	Драма «Кун ҳам, ой ҳам»	8.4

Энг кўп муваффақият қозонган ва рекорд даражадаги рейтинг натижасига эришган «Менинг сирим» (Watashi no himitsu **私の秘密**) кўрсатувидир. Ушбу кўрсатув 1955 йилда эфирга берилган. Машхур Америка кўрсатуви «I've Got a Secret»нинг японча аналог сифатидаги мазкур кўрсатув, 1967 йилга қадар эфирга узатилган. «Менинг сирим» илк кўнгилочар, оилавий кўрсатув сифатида япон телевидениеси тарихида муҳрланган.

Урушдан сўнгги оғир вазиятда эфир юзини кўрган мазкур кўрсатув оила даврасида мароқли вақт ўтказиш, одамларнинг оз бўлса-да кундалик ташвишларини унутиб, сир эгасини биргаликда топишга ундар эди, дея хотирлайди кўрсатув ижодий жамоа аъзоси Акаи сан [5]. Кўрсатув бошловчиси Такехашу Кеизо, иштирокчилар Ватанабе Шиничиро, Фуживара Аки, Фужиура Коу, Хигашикуни Шигеколар кўрсатувга ҳар гал янги меҳмон таклиф қилишади. Кимлиги ва қандай касб билан шуғулланиши ҳақида меҳмонга саволлар бериш орқали унинг қандай сири борлигини аниқлашади. Иштирокчилар бирин-кетин савол беришади, «Ҳа» жавобини олган иштирокчи савол беришда давом этади, «Йўқ» жавобини олган иштирокчи эса навбатни кейинги иштирокчига беради. Кўрсатув NHK Hall залида кўпчилик томошабинлар иштирокида ёзиб олинган ва эфирга узатилган.

3-жадвал. «Менинг сирим» кўрсатуви борасида NHK ўтказган сўровномаларнинг рейтинг натижалари [6]

т/р	Сўровнома ўтказилган йил	Сўровнома ўтказилган жой	Рейтинг кўрсаткичи
1.	1955	Токио	38.0
2.	1956	Токио	37.8
3.	1957	Токио	33.4
4.	1958	Киото	46.6
5.	1959	Киото	48.5
6.	1960	Киото	40.0
7.	1961	мамлакат бўйлаб	36.9
8.	1962	мамлакат бўйлаб	33.2
9.	1963	мамлакат бўйлаб	31.5
10.	1964	мамлакат бўйлаб	28.9
11.	1965	мамлакат бўйлаб	24.4
12.	1966	мамлакат бўйлаб	28.0

1955-1966 йилларда NHK ўтказган сўровномаларнинг рейтинг натижаларига кўра, «Менинг сирим» кўрсатувининг оммабоплиги аниқланди. Бироқ мазкур кўрсатувни архив сонларини таҳлил қилиш орқали унда турли стереотипларнинг бузилиши, мисол учун японлар ўта сирли миллат бўлиб, ўз сирларини, ички кечинмаларини бўлишишни истамайдилар, лекин кўрсатувда янги қадриятлар ва қарашлар сингдирилиши ОАВ контенти орқали амалга оширилаётганининг гувоҳи бўламиз. Шундай кўрсатувлардан яна бири «Имо-ишора»

(Jesuchya ジェスチャー) 1953 йил 20 февралдан 1968 йил 25 мартга қадар эфирга узатилган. NHK Hallда тасвирга олинган 30 дақиқага мўлжалланган бу кўрсатувда иштирокчилар «аёллар» ва «эркаклар» гуруҳига бўлиниб, мусобақалаштишган. Аъзолардан бири ўз варақасида ёзилган сўзни гуруҳига имо-ишоралар орқали кўрсатиши, қолган иштирокчилар нима эканлигини топишлари лозим бўлган. Огава Хироши бошловчилик қилган мазкур кўрсатув ҳам рейтинги юқори кўнгилочар дастур ҳисобланган [7].

2-тасвир (Имо-ишора кўрсатуви)



Кўрсатувларнинг рекреативлиги қуйидаги омиллар орқали намоён бўлади:

- 1) кўрсатувнинг мақсади аудиторияга кўтаринки кайфият улашиш ва кўнгил очиш;
- 2) кўрсатув мавзусининг соддалиги ва оммабоплиги;
- 3) иштирокчилар фаолиятида рекреациянинг намоён бўлиши;
- 4) бошловчининг маҳоратида рекреациянинг намоён бўлиши;
- 5) кўрсатув контекстида ҳазил-мутойиба, сарказмнинг мавжудлиги;
- 6) иштирокчилар ҳаракатининг чекланмаганлиги;
- 7) аудиторияда аниқ мотивация ва ихтиёрийликнинг мавжудлиги;
- 8) эфир вақтини кутишда аудиториянинг интиқлиги.

NHK тарихида рекреативликка мисол бўлиши мумкин бўлган яна бир кўрсатув – «Кулдирувчи учлик»

お笑い三人組 илк комик дастур бўлиб, 1955 йилда радио дастур сифатида шаклланиб, кейинчалик 1956 йил ноябрь ойидан NHK орқали кўрсатув тарзида узатила бошланди. Телекўрсатувда уч нафардан эркак ва аёл қизиқчилар иштирок этишган. Ҳаётий ҳажвий киносериал тарзда тасвирга олинган мазкур кўрсатув 1966 йилга қадар давом этган [8]. Воқеалар ҳаётий бўлиб, ҳар бир намоёиш аниқ мавзуга бағишланган. Шунингдек, япон журналистикаси рекреативлик функциясининг шаклланиши қадимий илдизларга эга бўлиб, кўнгилочар вазифани амалга ошириш билан бир қаторда тарбиявий, билим берувчи, кадрларни шакллантирувчи, янги стереотипларни илгари сурувчи институт сифатида намоён бўлган. Ўша давр баъзи кўнгилочар дастур контенти орқали ҳатто гендер муаммолари, аёл ва эркак тенг ҳуқуқлиги каби масалаларнинг олиб чиқилганлиги ҳам кўзга ташланади.

1953-1959 йилларда эфирга узатилган NHK кўнгил очар дастурларини таҳлил қилиш орқали биз бу даврда дастурлар қўйидаги жанрлардаги кўрсатувлар эфирга узатилганини кўришимиз мумкин. Булар: теленовелла (dorama ドラマ); мусобақа, викторина (Kuizu barayti クイズ・バラエティー); мусиқа (Ongaku 音楽); анъанавий ижро санъати (dantou geinou 伝統芸能); янгилик (nyusu ニュース); ахборий, хужжатли фильм (jyouhou dokumentari 報道・ドキュメンタリー); саёхатнома (kikou 紀行); таълим маълумот (kyouyou・jyouhou 教養・情報); табиат ва фан (shizen, kagaku 自然・科学); болалар ва таълим (kodomo, kyoudo ことども・教育); қўғирчоқ театри, аниме (мультифильм) (ningyougeki, anime 人形劇・アニメ); ҳаётий дастурлар (kyoumi, jitsuyou 趣味・実用); катта масштабдаги махсус дастурлар (oogata tokushyu bangumitou 大型特集番組等) кабилар. Хулоса қилиб айтганда, мазкур давр тематикаси, жанрлар кўлами анча кенг бўлиб, бу дастурларда ахборий жанрлар билан бир қаторда, публицистик жанрлардан ҳам кенг фойдаланилганини кўриш мумкин. Япония ОАВнинг шаклланиши ва ривожланиши узок йиллик тарихга эга бўлиб, ўзида ахборий, рекреатив ва маданий-маърифий функцияларни уйғунлаштира олган даражага эришиш учун бир қанча тараққиёт босқичларини босиб ўтган.

Япон телевидениесининг тарихий тараққиётида материалларнинг адабий муҳит, адабий мезонлардан бирмунча йироқлашиши, ўзгариши, рекреациянинг кучайиб кетишига гувоҳ бўлиш мумкин. Бу Япония жамиятидаги оғир иқтисодий ўтиш даври, жамиятдаги социал ўзгаришлар, сиёсий жараёнларнинг жадал ривожланиб бориши билан узвий боғлиқ. Бироқ барча даврларда миллийлик ва замонавийлик уйғунлигига асосланган рекреатив ва маданий-маърифий функцияларнинг ўзаро уйғунликда намоён бўлишига эришилган.

АДАБИЁТЛАР

1. <http://business.nikkeibp.co.jp/free/tvwars/interview/20060127005218print/shtml>
2. https://www.nhk.or.jp/digitalmuseum/nhk50years_en/history/p06/index.html
3. https://www2.nhk.or.jp/archives/movies/?id=D0009040008_00000
4. 米倉律. ジャーナリズム論. ラジオジャーナリズムからテレビジャーナリズムへ. NHK送文化研究所. 放送研究と調査, 2013年8月号. -P. 2-17.
5. https://www2.nhk.or.jp/archives/movies/?id=D0009010058_00000

6. <http://www.nhk.or.jp/archives/nhk-archives/past/2003/h031019.html>
7. http://cgi2.nhk.or.jp/archives/tv60bin/detail/index.cgi?das_id=D0009010048_00000
8. https://www2.nhk.or.jp/archives/movies/?id=D0009060402_00000

Аннотация: Мазкур мақолада япон телевидениесигади рекреатив кўрсатувларининг шаклланиши ва ривожланиш тенденциялари, 1953-1959 йилларда эфирга узатилган NHK кўнгил очар дастурларининг жанр хусусиятлари, турлари ва уларда маданий-маърифий ва рекреативлик функциянинг намоён бўлиш тенденциялари ҳақида сўз боради. Хусусан, телевидение трансляциясининг илк кунлариданоқ кўнгил очар дастурларга бўлган томошабинлар қизиқиши ва улар сонинг ошиб бориш тенденциясини келтирилган таҳлил жадваллари орқали кўришимиз мумкин.

Калит сўзлар: рекреативлик, япон телевидениеси, NHK, goraku bangumi, кўнгил очар дастурлар.

Аннотация: В статье рассматриваются тенденции формирования и развития развлекательных программ на японском телевидении, жанровые особенности и виды развлекательных программ NHK, транслировавшихся в 1953-1959 годах, а также тенденции проявления в них культурно-просветительской и развлекательной функций. В частности, с первых дней существования телевидения мы можем наблюдать интерес аудитории к развлекательным программам и тенденцию увеличения их количества по приведенным аналитическим таблицам.

Ключевые слова: отдых, японское телевидение, NHK, хораку бангуми, развлекательные программы.

Abstract: The article examines the trends in the formation and development of entertainment programs on Japanese television, genre features and types of NHK entertainment programs broadcast in 1953-1959, as well as trends in the manifestation of cultural, educational and entertainment functions in them. In particular, from the first days of television broadcasting, we can observe the audience's interest in entertainment programs and the tendency to increase their number according to the analytical tables provided.

Key words: recreation, Japanese television, NHK, horaku bangumi, entertainment programs.

TIL - INSON TAFAKKURIDA UMUMLASHTIRUVCHI VAZIFANI BAJARIB KELADI

Ibragimova U. Y.

University of Business and Science Toshkent filiali

Til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday bo'lgan, shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilmagan. Bu masalada faqatgina ilmiy taxminlar mavjud xolos. Adabiyotlarda tilning paydo bo'lishi haqida ikki xil fikrni uchratishimiz mumkin: 1. Tilni kishilar yaratmagan, til Alloh tomonidan yaratilgan mo'jiza, uning insonlarga qilgan marhamatidir. 2. Ikkinchi fikr esa tilning insonlar tomonidan yaratilganligidir.

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar kabi o'zgaruvchidir. Shunday ekan, besh yuz ming yillar ichida tillarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lganini tasavvur qilish mumkin emas. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan oldingi holati biz uchun noma'lumdir. Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklarga asoslangan holda fikr yuritishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Qadimgi yunon faylasuflaridan biri hisoblangan Platon tilning kelib chiqishi haqida "til tabiiy suratda kelib chiqqan" deydi. Demokrit esa "O'zaro aloqa qilish uchun tilni odamlarning o'zlari yaratgan, u, odamlar irodasining mahsulidir" degan nazariyani ilgari surgan. Til va tafakkur masalalari nihoyat darajada murakkab jarayon bo'lib, u tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq, psixologiya, fiziologiya fanlari bilan bevosita aloqadordir. Ibn Sinoning til haqidagi ta'limoti mantiqiy nuqtayi nazarga asoslanadi. U tilni tabiiy va sun'iy tillarga bo'ladi. Tabiiy til tafakkur belgisi sifatida Ibn Sino tomonidan bar tomonlama o'rganilgan. Ibn Sino ta'kidlashicha, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasida doimiy aloqa mavjud. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida til va tafakkur to'g'risida ham fikr yuritadi. Uning fikricha, til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko'ngli (fikri) daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosdir. Dur xilma-xil bo'lgani singari, so'z ham har xil bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, Alisher Navoiy til va tafakkurni bir-biridan ajratmaydi, balki ularni uzviy birlikda oladi.

V.Humboldtning 1820-yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rganish haqida» mavzusidagi maruzasi uning tilga oid dastlabki tadqiqot bo'lib, unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rta tashlaydi va uni asoslab beradi. V Humboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani - fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi. V.Humboldt hayotining oxirgi yillarida o'zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafotidan so'ng akasi A Humboldt tomonidan 1836-1840-yillarda nashr qilindi. Ishning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri» deb nomlanib, turli tillarga, jumladan, 1859-yilda rus tiliga tarjima qilinadi. V. Humboldtning tilni o'rganish jarayonida belgilagan, qayd etgan antinomiya - til hodisalariga dialektik ziddlik asosida yondashishi jahon tilshunosligi lisoniy tafakkur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini Humboldt ular bajaradigan vazifalar hamohangligida ko'radi, zero, til ham xuddi tafakkur singari ijodiy jarayondir. V Humboldtning til va tafakkur antinomiya haqidagi qarashlariga ko'ra, til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o'zaro bog'liqlikda «yashaydi», insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati - o'zaro ajralmasligi, bog'liqligi va shu bilan birga ichki ziddligi, qarama-qarshiligi g'oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiyligi, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma'lum bo'ladi. V. Gumboldt til

va tafakkurning bog‘liqligi haqida fikr yuritar ekan; «Til oddiy tafakkur quroli bo‘lib qolmasdan, balki tafakkurni tarkib toptiruvchi organdir. Aqliy faoliyat nutq tovushi vositasida moddiylashadi va hissiy idrok manbaiga aylanadi», - deb yozadi [1]. Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mayjud emasligida, biri tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo‘lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko‘rinadi, ya‘ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o‘zaro ajralmas va ayni vaqtda o‘zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

O‘z davrining buyuk tilshunosi A. Shleyxer «Qiyosiy-lisoniy tadqiqotlar» asarlarida til va tafakkurni dialektik munosabatda olib, tilni «talaffuz qilingan tovushlar orqali fikr ifodalash» deb ta’riflaydi. «Til bu fikrning tovush orqali ifodalanishidir», - deb yozadi u. Ayni fikrlardan til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi, ajralmas munosabatda ekanligi, shuningdek, tovushning moddiy hodisa sifatida til va nutqning materiali, bu o‘z davri uchun yuksak, ilg‘or g‘oyalar edi [1].

Til va tafakkur munosabati masalasi A.A. Potebnya ta’limotining bosh g‘oyasi hisoblanadi, uning asarlarida markaziy o‘rinni egallaydi. A.A. Potebnya til va tafakkur munosabatiga to‘xtalar ekan, fikrning hosil bo‘lishi va o‘zining ifodasini topishi, voqelikka aylanishi faqat til yordamida, til materialida yuz berishini ko‘rsatadi. Shuningdek, u tilning faqat tafakkur - fikrlash jarayoni bilangina emas, balki umuman inson psixikasi bilan bog‘liqligini qayd etadi [2].

Olim o‘zining lisoniy qarashlarida, tilshunoslik fanining murakkab va muhim masalalari haqida chuqur fikr yuritib, tilshunoslikdagi psixologizm oqimining vakillaridan farqli holda til va tafakkurni o‘zaro bog‘liq holda oladi, ularning birini ikkinchisidan ajratmaydi. Ayni vaqtda mantiqiy va lisoniy kategoriyalarining ham o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Yuqoridagi talqin va qarashlardan anglashiladiki, til yordamida kishilar fikr almashadilar, o‘z istaklarini, hissiyotlarini ifoda qiladilar.

Demak, til tafakkur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, fikrni moddiylashtiradigan, aniqlashtiradigan, kishilarning fikr almashishlarini ta’minlab beradigan quroldir. Til va tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi, so‘ngra muhokama, xulosa, nazariya va boshqa shakllarda yuzaga chiqadi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo‘ladi.

Til jamiyatda quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1. Kommunikativ funksiya; (muomala, aloqa qilish). 2. Ekspressiv funksiya; (ta’sir qilish). 3. Akkumulyativ funksiya. (axborotni to‘plash, yig‘ish, jamlash).

Til jamiyat uchun xizmat qilganligi, tuzilishi jihatdan murakkab hodisa bo‘lganligi uchun ham turli fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Har bir fan vakili tilni o‘z nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Tahlillar va natijalar. Til tufayli inson tafakkuri boyiydi, moddiy narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarni so‘z bilan ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Til ilk boshdan e’tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan xizmatni, ya‘ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Hayvonlarning o‘ta oddiy, juda soda tafakkuri hamma vaqt faqat hayvoniy harakat tafakkurligicha qoladi; ular hech qachon mavhum, bavoita bilish darajasiga yetmaydi.

Tafakkur so‘zda o‘zining moddiy qobig‘iga ega bo‘ladi, tafakkur faqat so‘z orqali boshqalar uchun va o‘zimiz uchun ham bevosita realikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas holda namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq va yaqqol ifodalanagan bo‘ladi. Yoki qandaydir fikrning so‘z orqali ifodasi qanchalik ko‘p takomillashgan, sayqallangan bo‘lsa, ayni shu fikrning o‘zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo‘ladi. Til va tafakkur munosabatlari murakkab bo‘lib, bu munosabat turli fanlar tomonidan o‘rganiladi. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan hodisalar. Tilsiz tafakkur bo‘lmagani kabi, tafakkursiz til ham bo‘lmaydi. Fikr tilda reallashadi. Tilsiz fikr mavjud emas. Tafakkurning moddiy qobug‘i tildir. Biroq til va tafakkur bir xil hodisa emas. Til material hodisadir. Tafakkur esa ideal hodisadir. Til va tafakkur munosabatlari fan tarixida turlicha talqin qilingan. Masalan: N.Y.Marr til va tafakkur hodisalarini bir-biridan ajratib qo‘yadi. Garchi til va tafakkur bir xil hodisalar bo‘lmasa ham, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Til va tafakkur qonunlari tuzilish va rivojlanish jihatidan bir xil emas. Tilning qurilish qoidalari grammatika fani tomonidan o‘rganiladi. Tafakkur qonunlari va tushunchalari esa mantiq ilmda o‘rganiladi. Til fikrning shakllanishida va ifodalanishida vosita, qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir fanning kategoriyalari bo‘lgani kabi grammatik va mantiq kategoriyalari mavjud. Ular bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligi mumkin. Masalan: “Bino quruvchilar tomonidan qurildi”. Bu mantiq jihatdan hukm, grammatik jihatdan esa gap. “Bino” – mantiqiy obyekt, grammatik ega. “Quruvchilar” – subyekt, grammatik jihatdan to‘ldiruvchi.

Ma’lumki, til birliklari mantiqiy tafakkur birliklari bilan uzviy bog‘langan: so‘z tushuncha bilan, gap mulohaza bilan.

Bu yerda til birliklarini ahamiyatiga ko‘ra guruhlashtirilgan holati olingan, ya‘ni nominativ birlik – so‘z, kommunikativ birlik – gap. So‘z va tushuncha moddiy dunyodagi mavjud predmet va hodisalarning farqli belgilarini ifodalasa, gap va mulohaza tasdiq yoki inkor xususidagi fikrni yaratadi. Til va tafakkur o‘z birliklarining ahamiyati va qurilishi nuqtai nazaridan farqlanadi. Tafakkurning maqsadi yangi bilimlarni olish va ularni sistemalashti-rishdan iborat bo‘lsa, til fikrni shakllantiradi.

Demak, til ijtimoiy hodisalar qatoriga kiradi va inson jamiyati mavjudki, til ham mavjuddir. U jamiyatning tug‘ilishi bilan tug‘iladi va rivojlanishi bilan rivojlanadi. Jamiyat o‘lishi bilan til ham o‘ladi. Jamiyatdan tashqari til yo‘qdir.

Jamiyatda yangi-yangi sheva va tillarning paydo bo'lishida ikki omil: vaqt va masofa hal qiluvchi ahamiyatga egadir; vaqt o'tgan sayin, masofa kengaya borishi, yangi sheva va tillarni paydo bo'lishiga olib keladi. Shu holatda millat ham shakllanadi. Millatning asosiy belgilari umumiy hudud, umumiy til, umumiy madaniyat va ma'naviy birlikdir. Shu belgilarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar uyushmasini millat deyish mumkin. Bunday uyushmaning tilini bir milliy til deb ataymiz. Til birligi va uning erkin rivojlanishini millatning asosiy belgilaridan yana biri deyish mumkin.

– Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilni qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq (davr) vaqt mobaynida qizg'in bahs yuritganlar. Ular tilning paydo bo'lish masalasida bir biriga zid ikki xil fikrni o'rta tashlaganlar.

Demokrit va boshqalar (milodgacha bo'lgan 460 – 370-yillar) tilda narsa nomi bilan uning orasida hech qanday bog'lanish yo'q. Bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi, odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bunday kishilarni fanda *anomalistlar* deb ataganlar. Platon boshliq bir guruh faylasuflar (eramizgacha bo'lgan 427 – 347-yillar) narsa bilan uning nomi orasida ma'lum bog'liqlik bor. Bu bog'liqlik narsalarning xususiyatlaridan, tabiatan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari surishgan. Fanda bu oqim tarafdorlari *anogalistlar* deb nom olishgan. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi yoki fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi. Kishi o'zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikr og'zaki yoki yozma nutqda mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak bo'lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq o'ylab, tekshirib ko'rish va qayta o'ylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'rish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zamriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini, tafakkur haqida e'tirof etib kelganlar. Xususan, o'rta osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar ham o'z asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida qimmatbaho fikrlarni ilgari suradilar.

Ingliz faylasufi Bekonning fikricha, obyektiv mavjudlik to'g'risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to'ldiriladi. Fransuz faylasufi Dekart esa bilishning birdan-bir manbai tafakkur deb biladi. Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlariga alohida e'tibor berilgan. Unda tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog'langanligi e'tirof etiladi. Unda ta'kidlanishicha, inson tafakkuri uning til bilan birga takomillashib rivojlangan. Tilda tafakkurning ish natijasi mustahkamlanadi. Til o'zining shu xislati bilan insonga bilim to'plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, to'plagan bilish boyliklaridan hayotiy faoliyatida unumli foydalanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, til tafakkurni takomillastirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iyashtirish qurolidir. Shuning uchun ham bizning tafakkurimiz voqelikni bevosita aks ettirish vositasi bo'lgan sezgilardan til yordamida ifodalanishi bilan farq qiladi [3]. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati. Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, obyektiv reallikka ta'sir ko'rsatish, har bir ishni oldindan o'ylab, ongli ravishda amalga oshirish kabilarda ko'rinuvchi, umuman, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insongagina xos bo'lgan muhim xislatdir. Lekin amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur har doim o'zaro ajralmas bo'lsa-da, ularni turli fanlar alohida o'rganadi. Masalan, tafakkur formalarini mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik fanlari tadqiq etadi. Tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til, uning qonun-qoidalari milliy xarakterga ega. Dunyodagi tillar juda ko'p qonun-qoidalarga ko'ra bir-biridan farq qiladilar. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa, insonlarning millati, irqi, davridan qat'i nazar, hammada bir xildir. Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Shunday ekan til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim tilshunoslar, xususan, N.Y. Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'ydi. U shunday yozadi: "Bo'lajak til tabiiy materiyadan xoli bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir". Bunda, albatta, tilning tafakkurdan ajratib qo'yilganligi ko'rinib turibdi. Hozirgi axborot texnologiyalari ta' rivojlangan davrda til va tafakkur yanada yaqin munosabatda ekanligi 'z isbotini topmoqda. Tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun munosabati kabi murakkab hodisa kamdan kam topiladi. Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarishga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi. Holbuki, til bemisl boy, seyr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyatga, ko'rk-u komillikka limmo-lim bir ne'matdir [4]. Til - madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til — madaniyat xazinasi, sandig'i, majmuidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Demak, til "bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi. Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o'zlashtirish jihatidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning

komponenti tilning tarkibiy qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir. Til - kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'analarni saqlashi va ulami meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir [5]. Rohatoy Jo'rayeva "Til va tafakkur munosabatlarining ahamiyati" maqolasida til va tafakkur masalalarini yoritgan. Ushbu maqolada til va tafakkur munosabatlari haqida fikrlar bildirilgan. Til tufayli inson tafakkuri boyiydi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi.

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rolni o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniqlik nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyiydi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi [6]. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Tilsiz tafakkur bo'lmagani kabi tafakkursiz til ham bo'lmaydi. Fikr tilda reallashadi. Tilsiz fikr mavjud emas. Tafakkurning moddiy qobug'i tildir.

Biroq til va tafakkur bir xil hodisa emas. Til ijtimoiy hodisadir. Tafakkur esa ideal hodisadir. Til bizga in'om etilgan so'zlash imkoniyati asosida kishilarning birga mehnat qilishi jaryonida o'zaro muloqotda bo'lish zaruriyati, ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, insonlarning ongi rivojlanib borgan sayin ular o'zlari uchun so'zlashuv quroli – tilni yaratgan ekanlar. Men bu fikrga kamroq qo'shilaman. Chunki har qanday ongi yuqori darajada rivojlangan, cheksiz intellektual bilimga ega bo'lgan kishi ham tildan qolishi mumkin. Bu darajada ozod bo'lish uning rivojlangan ongi ham yordam bera olmasligi mumkin. Shuning uchun biz til insonlarga Alloh tomonidan berilgan va u insonlarning kundalik faoliyati yordamida rivojlanib borgan deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent— «Barkamol fayz media» -2016.
2. Потебня.А.А. Мысль и язык. Киев,1892.
3. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. - Toshkent, 2001.
4. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. - Toshkent, 1993.
5. Sodiqov A. va boshq. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 1981.
6. Mahmudov N. Til. - T.; Yozuvchi. 1998.

Til - inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi

Annotatsiya. Maqolada til bilan tafakkurning bir-birini taqozo etadigan hodisa ekanligi, tilsiz tafakkur bo'lmagani kabi tafakkursiz tili ham bo'lmashligi, fikrni tilda reallashuvi va tilsiz fikr mavjud emasligi hamda tafakkurning moddiy qobug'i til ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ funksiya; (muomala, aloqa qilish), ekspressiv funksiya; (ta'sir qilish), akkumulyativ funksiya. (axborotni to'plash, yig'ish, jamlash), jamiyat.

Язык-выполняет обобщающую функцию в мышлении человека

Аннотация. В статье утверждается, что язык и мышление являются взаимобусловленными явлениями, что нет языка без мысли, как нет языка без мысли, что нет реализации мысли в языке и нет мысли без языка, и что материальная оболочка мысли это язык.

Ключевые слова: коммуникативная функция (общение, отношение), экспрессивная функция (сбор информации, обобщение, систематизация), общество.

Language-fulfills a generalizing task in human thought

Annotation. This article argues that language and thinking are interdependent phenomena, that there is no language without thought, just as there is no thought without language, that there is no realization of thought in language and no thought without language, and that the material shell of thought is language.

Keywords: communicative function; (treatment, relation), accumulative function (collecting information, pick, combine) society.

КАУЗАЛЬНОСТЬ СИНТИАКСИЧЕСКИХ КОНЦЕПТОВ И РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Абдалиева С. Б.

Каракалпакский научно исследовательский институт гуманитарных наук, Каракалпакское отделение академии наук Республики Узбекистан

В концептах аккумулируется уровень познания каждой языковой личности, а сам концепт реализуется, как известно, не только в слове, но и в дискурсе. Но каким образом? В связи с этим в исследованиях дискурса выделяются несколько направлений. Одно из этих направлений ставит перед собой задачи, связанные с созданием модели когнитивных процессов порождения и восприятия дискурса. Представители другого направления озадачены изучением структур репрезентации знания в процессе дискурсивной деятельности. Третье направление изучает и описывает различные виды представленной в структурах знания информации, необходимой для

коммуникации. На наш взгляд, все три направления – это звенья одного процесса, направленного на моделирование когнитивной стороны дискурса. Как показывает анализ литературы, коммуникативный процесс не может быть адекватно изучен без учета когнитивных структур. Данная постановка вопроса делает задачу разработки когнитивного подхода к описанию дискурса особо актуальной. Концепты, будучи ментально репрезентированными, обладают свойством целостности, а потому существуют в виде гештальтных единиц, не структурированных до своей вербализации. Субъективность человеческого опыта приводит к тому, что у концептов, представленных в сознании репрезентационно, отсутствуют четкие границы. Концепты допускают возможность различной вербализации с помощью различных словесных форм. Когнитивная сторона парадигмы позволяет выявлять типы знаний и стоящие за ними мыслительные единицы и структуры, в то время как дискурсивная сторона – способы репрезентации информации адресату с учетом прагматической направленности дискурса, интенций адресанта и условий речевого акта. Цель исследования – показать причинную взаимообусловленность типизированного означивания базовых синтаксических концептов коммуникативными интенциями, выраженными в речевых актах языковой личности. В соответствии с целью исследования были использованы методы когнитивного анализа синтаксических единиц, дискурсивный анализ когнитивных единиц.

Изложение основных результатов исследования. Очевидно, что многие работы последних лет сводятся к перечислениям разнообразных языковых примеров, иллюстрирующих то, как репрезентируется тот или иной концепт по принципу «списочной семантики». А вот мысль Л.А. Фурс о структурирующей функции, выполняемой синтаксической конструкцией в отношении концептов, репрезентируемых лексически, является, на наш взгляд, веским аргументом в пользу специфики когнитивных процессов на уровне синтаксиса.

Вопрос о потенциальной возможности выражения концептов синтаксическими структурами остается открытым среди лингвистов, что, прежде всего, объясняется необходимостью доказать существование собственно синтаксических знаков, т. е. таких структур, у которых есть и план выражения (последовательность словоформ), и план содержания (типовая пропозиция). В процессе речевой деятельности носитель языка использует определенные модели. Наличие их является гарантией взаимопонимания, поскольку речевая деятельность человека включает в себя создание структуры предложения.

